В статье рассматриваются современные изменения в мире которые являются поводом для изучения проблем наркозависимости и распространения наркомании среди молодежи и женщин, а также резкой их остановки. Главный вопрос состоит в том, чтобы определить и объяснить психологические, социологические и моральные аспекты распространения и распространения этих проблем.

Ключевые слова: женщины, наркомания и опьянение, преступность, этика, социология, психология, алкоголизм, социальный риск наркомании и проституции, порок, ненависть, проблемная социальная система.

PSYCHOLOGICAL, SOCIOLOGICAL AND ETHICAL ISSUES OF THE PROBLEMS OF THE SPREAD OF DRUG ADDICTION AND POISONING AMONG YOUNG PEOPLE AND WOMEN IN UZBEKISTAN

Annotation

The article examines modern changes in the world, which are the reason for studying the problems of drug addiction and the spread of drug addiction among young people and women, as well as their sudden stop. The main question is to identify and explain the psychological, sociological and moral aspects of the spread and spread of these problems.

Key words: women, drug addiction and intoxication, crime, ethics, sociology, psychology, alcoholism, social risk of drug addiction and prostitution, vice, hatred, problematic social system.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy sharoitda dunyoda sodir bo‘layotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning kombinatsiyasi ta‘sir ostida giyohvand moddalarni iste‘mol qilishga qarshi kurash muammosi yanada jadallashdi. Giyohvand moddalar ishlab shiqarish hajmi o‘sib bormoqda, yangi giyohvandlik usullari va turlari ixtiro qilinmoqda va faol tarqatilmog‘da, bu esa yoshlar va xotin-qizlar ongini bunday og‘ulardan zaharlanmasligini oldini olish borasida ta‘limning yanada samarali usullarini topish zarurligiga olib kelmoqda. Oldingi tuzumdagi davrda shakllangan ijtimoiy munosabatlarda toblangan keksa avlodga qaraganda zamonaviy jamiyat a‘zolari xisoblanmish yoshlar va xotin-qizlarga kirib kelayotgan global jarayonlar keskin ta‘sir etmoqda. Davlat an‘anaviy va yangi turdagi giyohvand moddalarni iste‘mol qilinishini to‘liq rad etishga qaratilgan har qanday ijtimoiy normalarni faol ravishda tasdiqlaydi. Biroq, zamonaviy jamiyatdagi yoshlar va xotin-qizlarning ijtimoiy munosabatlari har doim ham yoshlar va xotin-qizlarning

ijtimoiylashtirish institutlari tomonidan tasdiqlangan ahloqiy va huquqiy normalarga moslashtira oladi.

Shu munosabat bilan biz o‘z tadqiqotimizda bevosita xotin-qizlar o‘rtasidagi giyohvandlik moddasini iste‘mol qilinishi va bunga qiziqishning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda keltirib shiqaradigan oqibatlarini sotsiologik jihatdan o‘rganishga ehtiyoj borligini aniqlashga qaratdik. Yoshlar va xotin-qizlar orasida giyohvand moddalarni iste‘mol qilish muammosi keng ilmiy kontekstga kiritilgan jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, bu mavzu turli fanlar tomonidan uzoq vaqt davomida o‘rganilmoqda. Boshqa tomondan esa, zamonaviy turmush sharoitlari, yoshlar va xotin-qizlarning shakllanishi va rivojlanishining institutsional va ijtimoiy-madaniy sharoitlarining o‘zgarishi muammoga yangi ma‘no kasb etmoqda. Mamlakatimiz yoshlarixotin-qizlarining giyohvandlikka bo‘lgan ijtimoiy munosabatini aniqlashtirish va amalga oshirishni belgilovshi omillarni shuqur o‘rganish zaruriyati hamda giyohvand moddalarni iste‘mol qilishni kamaytirish va sog‘liqni saqlashga qaratilgan xatti-harakatlarini rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy, samarali

profilaktika shoralarini rivojlanishi ushuni asos bo'lib xizmat qilayotgan jarayonlarni tadqiq etish muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda xalkaro xujjatlar taxlili va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasiga asoslanib xamda milliy manfaatlariga tayanib alkogolizm, giyoxvandlik va foxishalikka karshi kurash buyisha zamonaviy xamda samarali usul va vositalarini milliy konunshilikka va amaliyotga tatbik etish, jinoyat konunshiligining tegishli normalarini takomillashtirish buyisha kompleks shora-tadbirlar ishlab shikish zarurati yuzaga kelmokda. Jumladan, AKShning Nevada shtati, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Kanada, Kosta-Rika, Niderlandiya, Turkiya, Fransiya va Shvetsiya davlatlarida foxishalik bilan shug'ullanish konun bilan tartibga solinadigan va muxofaza kilinadigan, litsenziya beriladigan va solik tulanadigan konuniy faoliyat turi sifatida tan olingan bulsa, AKShning Kaliforniya shtatida jinoyat sifatida, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina va Uzbekistonda mamuriy xukukbuzarlik hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek, bir turdagi faoliyat ushuni davlatlarda ush xilda karash mavjud va shunga monand mexanizmlar shakllangan. Mazkur tadqiqot orkali kayd etilgan karashlarning kay biri afzalligi, Uzbekiston sharoitida kanday mexanizmdan foydalanish samarali va adolatli bulishi yuzasidan asosli va taxliliy xulosalar shikariladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qator mualliflarning fikricha, spirtli ishimlik iste'mol qilish natijasida inson organizmida turli o'zgarishlar ro'y beradi [321; 32-33-b.]. Mastlik inson bosh miyasiga sezilarli darajada ta'sir qiluvshi moddaning odam organizmiga kiritilishi natijasida ruhiy holatning yomonlashuvidir [376; 90-b.]. Alkogolli ishimliklarni iste'mol qilish inson organizmiga, birinshi navbatda, uning asab tizimiga shikast yetkazadi va turli o'tkir hamda surunkali ruhiy kasalliklar kelib shiqishiga sabab bo'ladi. Alkogol mahsulotni unsha ko'p bo'lmagan dozalarda iste'mol qilinganida ham insonning harakatlanish va ruhiy faoliyatini izdan shiqaradi. Bunday shaxsda kushli ruhiy hayajonlanish holati ko'pinsha tashqi omillar ta'sirisiz, osongina vujudga keladi, o'zini tiyib turish, atrofida yuz berayotgan voqealarni to'g'ri idrok etish qobiliyati yo'qoladi. U manman, maqtanshoq, injiq odamga aylanadi, hesh bir sababsiz mushtlashish ushuni tashlanadi, boshqa shaxslarga nisbatan zo'rlik ishlatadi. O'zgarishlarning shuqurligi, ularning amalda namoyon bo'lish xususiyati va darajasi har xil bo'ladi hamda iste'mol qilingan alkogolli ishimliklarning dozasi, shaxsning jismoniy holati (sillasi qurish, 9 toliqish, hayajonlanish) bilan belgilanadi. Bunday holat tibbiyot sohasida e'lon qilingan ishlarda ham alohida kayd etiladi [211; 24-b.; 229; 28-36-b.; 322; 12-b.]. Yuqoridagilardan kelib shiqadigan bo'lsak, ushbu muammolarni shuqurroq tahlil qilish va bunday oqibatlar yuzaga kelishining oldini olish tizimini takomillashtirish ushuni, avvalo, «alkogolizm» tushunshasining mohiyati va uning salbiy oqibatlari hajmini shuqur anglash, o'rganish maqsadga muvofiqdir. «Alkogol» so'zi asli arabsha «al-Kuhl» dan olingan bo'lib, ayrim manbalarda ta'kidlanishisha, «o'tkir kukun», «olovli suv» degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida «alkogol – mayin kukun, spirt ma'nolarini anglatib, molekullari tarkibida kislorod va vodorod atomlari guruhi bo'lgan birikmalar, spirtlar, aroq, vino spirti va umuman spirtli ishimliklardir» [364; 71-b.], deb kayd etilgan. Bunday kukunlardan o'rta asrlarda tabiat hodisalarini tadqiq etuvshi tabiatshunoslar keng foydalananglar» [329], deb ta'kidlanadi. Alkogol mahsulotlariga etil spirti yoki tarkibida etil spirtli bo'lgan moddalardan ishlab shiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Bu borada alkogol (etil yoki vino spirti, etanol) tushunshasiga jonli tabiatda keng tarqalgan, turli oziq-ovqat mahsulotlaridan yoki sun'iy yo'l bilan olinadigan


uglevodorodli organik birikma, degan ta'rif ham berilgan. Ya'ni, mazkur yondashuvga ko'ra, alkogol tushunshasi o'z mazmuniga ko'ra tarkibida spirt mavjud bo'lgan moddalarni qamrab oladi. Turli moddalar tarkibida alkogol mavjud bo'lgani bois, ular alkogolli moddalar, deb ataladi. Iste'mol qilish ushuni yaroqli bo'lgan alkogolli moddalarni alkogolli yoki spirtli ishimliklar deb nomlash odat tusini olgan. Ammo, qonunda «alkogol» tushunshasi o'n marotaba qo'llanilganligi bois, hozirgi vaqtda «alkogolli ishimliklar» atamasi ishlatiladi. Shu nuqtayi nazardan uning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: iste'mol qilish ushuni yaroqli etil spirti; spirtli ishimliklar, shu jumladan aroq, vino, xususan, tabiiy vino. Qayd etish lozimki, «alkogolizm» atamasi 1849-yilda M.Guss tomonidan organizmning spirtli ishimliklar ko'p iste'mol qilish ta'siriga tushib qolishini anglatuvshi kasallikni ifodalash ushuni fanga kiritilgan [155]. Alkogolizm – ashaddiy ishkilikbozlik, spirtli ishimliklarni salomatlikka va mehnat qobiliyatiga zarar yetkazadigan darajada, muntazam ravishda meyoridan ortiq iste'mol qilish tufayli yuzaga keladigan va insonning ma'naviy qiyofasini izdan shiqaradigan kasalliklardan biri [276; 23-b.] bo'lganligi bois Qur'oni Karim va ulamolar tomonidan uning iste'mol qilinishi taqiqlangan. Baqara surasining 219, Niso surasining 43, Moida surasining 90–91-oyatlarida sharobning nopok ekanligi, sharob va qimor sababli odamlar o'rtasida dushmanlik va ko'ngilsizlik paydo bo'lishi [158; 34, 72, 99-b.], xamrning harom ekanligi [281; 244-b.] belgilangan. M.H. Spirtli ishimliklarni suiste'mol qilish alkogolizm kasaliga yo'liqishga sabab bo'ladi.

Mavzuning metadalogiyasi. Ushbu mavzuning obykti sifatidan giyohvandlik bilan kurashayotgan soha mutaxassisleri, bevosita va bilvosita giyohvandlik bilan kurashayotgan mahalla faollari tanlab olingan. Mavzuning predmeti sifatida yoshlar va xotin-qizlar orasida giyohvandlik va zaharvandlikning tarqalishi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, epidemiologik, jihatlarini o'rganish hamda yoshlarning giyohvandlikning salbiy oqibatlaridan xabardorligini ta'minlash va iste'moli profilaktikasini amalga oshirishni aniqlash belgilab olingan



2-Rasm. Ro'yhatga olingan jinoyatlar bo'yicha ayollar ishtiroki

Stat.uz bergan ochiq ma'lumot bo'yicha «2-rasm»da ko'rsatilgan diagrammada jinoyat sodir etgan ayollar sonining jinoyat turi bo'yicha taqsimlanishiga ko'ra xususan oxirgi 3 yildagi ko'rsatkichlarda 2020 yilda barcha jinoyatlar turlari bo'yicha ayollar sodir etgan jinoyatlar soni 5774 tani tashkil etgan bo'lsa, giyohvandlik bilan shug'ullanadigan ayollar soni 110 tani tashkil etgan. 2021 yilda barcha jinoyat turlari bo'yicha ayollar tomonidan sodir etilgan jami jinoyatlar soni 9759 tani tashkil etgan bo'lsada, shulardan 120 tasi giyohvandlik bilan shug'ullanadigan ayollar ekanligi kayd etilgan. 2022 yilda jami jinoyat turlari bo'yicha sodir etilgan jinoyatlardagi ayollar ishtiroki 11460 tani tashkil etgan bo'lsa, shulardan 197 tasi giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlardagi ayollar ishtirokini ko'rishimiz mumkin. Bu holat yillar kesimida jinoyat sodir etgan ayollar sonining oshib borishi bilan bog'liq bo'lmoqda, shu ko'rsatkichlar doirasida giyohvandlik bilan shug'ullanuvchi ayollar ko'rsatkichi ham oshganligini ko'rildi.



Mavzu bo'yicha analizlar

Birinchi navbatda aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlarni giyohvandlikning salbiy oqibatlaridan xabardorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarini o'rganish maqsadida saralab olingan mahallalar faollaridan anonim shakldagi anketa so'rovnomasini o'tkazdik. Unga ko'ra:

1. Aytinch, siz istiqomat qiladigan mahallangizda giyohvandlikka chalingan yoshlar bormi? Degan savolga respondentlarning 89% yo'q deb, 6% javob berishga qiyналganligi va 5% ha deb javob berishgan.

Albatta yo'q deganlar ulushi ko'p bo'lganligi vaziyatni yumshatishi mumkin, ammo javob berishdan qiyналganlar va giyohvandlikka chalinganlar borligini ta'kidlaganlarning kam bo'lsada mavjudligi bizni ushbu muammoga qaytadan e'tiborimizni qaratishimiz kerakligidan dalolatdir. Dunyo standartlaridagi umum e'tirof etilgan metodologiyalarda aholi faravonligini o'sishi ma'lum jihatdan giyohvandlik muammosini kelib chiqishiga sabab bo'ladi degan xulosalarga tayanadigan bo'lsak, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar aholi turmush darajasi va sifatini oshirganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki tadqiqotimizdagi olingan ma'lumotlarga ko'ra aholining moddiy ahvoli har 2 chi respondent fikriga ko'ra o'rta darajada va har 3 chi respondent fikriga ko'ra o'rta darajadan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.



2. O'zingiz istiqomat qiladigan mahallangizdagi 5 ta eng yuqori darajadagi birinchilardan yechim berishi zarur bo'lgan muammolarni ko'rsatib bering? Degan savolga respondentlarning 29,8% yo'llarning sifati masalasini birinchi o'ringa, 19,9% ihsizlik masalasini ikkinchi o'ringa, 13,3% uy joy kommunal xo'jaligi sohasidagi holatni uchinchi o'ringa, 12,7% tibbiy xizmat ko'rsatish sifati masalasini to'rtinchi

o'ringa va 11,1% uy joy yetishmasligi masalasini beshinchi o'ringa qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Giyohvandlik masalasini respondentlarning 0,6% mavjudligini ta'kidlashgan.

Mazkur berilgan javoblardan ko'rinib turibtki giyohvandlik masalasi yashirin (latent) holatda mavjudligicha qolmoqda. Chunki aholi o'rtasida ushbu giyohvandlik illatining ko'rinmas va aniqlash qiyin bo'lgan shakllari qo'llanilayotganligi hech kim uchun sir emas.

Xulosa. O'zbekistonda yoshlar va xotin-qizlar orasida giyohvandlik va zaharvandlikning tarqalish muammolarining psixologik-sotsiologik hamda axloqiy masalalarini yoritishda bugungi kunda muhim bo'lgan asosiy jihatlardan biri bu axloqiy va tarbiyaviy muhitning muvozanatlashkvidir. Zero, har qanday qonunbuzarlikning mohiyatida insoniylik faoliyati yotadi. Shunday ekan bugungi kunda jinoyatchilikni o'zining qonuniy oqibati sifatida, ya'ni o'zaro aloqaga kirishuvchi tashqi (ijtimoiy) va ichki (shaxsiy) omillarning muayyan tizimi sifatida vujudga keltiradigan va rivojlantiradigan ijtimoiy va shaxsiy-psixologik hodisalar yig'indisi axloq ekanligigiga guvoh bo'lmoqdamiz. Inson o'smirlik davrida o'z shaxsiyatini namoyon etish va kichik yoki katta ijtimoiy guruhda muayyan o'rinni egallashga harakat qilar ekan, boshqalar orasida ajralib turishga intiladi, bunga erishish uchun u, ehtimol, muayyan g'ayriqonuniy qilmishlarni, shu jumladan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish orqali sodir etishi mumkin. Shu sababli, u yoki bu holda biron-bir bitta sababni aytish mumkin emas, faqat sabablar yig'indisigina giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda iste'mol qilish yoki ularni tarqatishning asl motiviga oydinlik kiritishga qodir. Ammo, bunda giyohvandlikning asl sabablari namoyon bo'lishini yengillashtiradigan shart-sharoitlar va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish sabablarini tenglashtirish yaramaydi. Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish sabablari genetik, biologik, psixologik va ijtimoiy omillarga tayangan holda 1) do'stlar, 2) murakkab vaziyatlar, 3) psixologik ziddiyatlar (intermittatsion o'zini boshqara olmaslik, e'tibor yetishmasligi sindromi, bipolyar buzilishlar, hulqdagi destruktiv buzilishlar, oppozitsion qarashlardagi buzilishlar, posttraumatik stresslar, shaxsdagi antisotsial buzilishlar, har qanday havotirlanishlar bo'yicha buzilishlar) sifatida qayd etishi mumkin. Giyohvandlikni iste'mol qiluvchi xotin-qizlarning toifalari sifatida deviant hulq atvor, biologik, psixologik va genetik moyillikka ega bo'lgan xotin-qizlar, genetik va oiladagi muhit sababli ko'proq duchor bo'lishini qayd etish mumkin

ADABIYOTLAR

1. Sadikov J., Karaketov Yu. Maskunemlik, nashebentlik, giyabentlik, jinayatshilik ham nizam haqqida. – Nokis: Qaraqalpaqstan, 1992. – B. 88.
2. Fayzullayeva T. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash muammolari. Yurid. fan. nomz. ilm. dar. olish uchun yozil. diss... – T., 2009. – B. 90.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.1. A-D. / A.Madvaliyevning tahriri ostida. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 500.
4. Al-Qur'on Al-Karim (o'zbek tilida izohli tarjima). Tarjimon va tavsir qiluvchi Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Tarziy al-Marshiy- Oltinxon To'ra. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – 364



UDK:378.1+372.3:371.126

Dilafuz ASQAROVA,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail:dilafuzaskarova@804gmail.com

QDPI Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) X.S.Raximova taqrizi ostida.

THE NEED FOR MODERN TEACHING METHODS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation

In this article, the development of creative competence in higher education is considered as the basis of future teachers and their personal achievements, as well as society. While future educators emphasize creative competence primarily as a unique characteristic of an individual or a process, scholars have suggested that future educators' creative competence should be shaped by personal reasoning, independent decision-making, curiosity and motivation, development, and growth. the same things.

Key words: higher education, creativity, creative competence, personal achievements, future teachers, innovative cooperation.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье развитие творческой компетентности в высшей школе рассматривается как основа будущих педагогов и их личных достижений, а также общества. Если будущие педагоги подчеркивают творческую компетентность главным образом как уникальную характеристику личности или процесса, то ученые высказали мнение, что творческая компетентность будущих педагогов должна формироваться личными рассуждениями, принятием самостоятельных решений, любознательностью и мотивацией, развитием и развитием. те же вещи.

Ключевые слова: высшее образование, креативность, творческая компетентность, личные достижения, будущие педагоги, инновационное сотрудничество

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY O‘QITISH USULLARINING ZARURATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta‘limda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo‘lajak tarbiyachilar va ularning shaxsiy yutuqlari hamda jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Bo‘lajak tarbiyachilar kreativ kompetentlikni asosan shaxs yoki jarayonning o‘ziga xos xususiyati sifatida ta‘kidlasalar, olimlar bo‘lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini shaxsiy mulohazalar yuritishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi, qiziquvchanlik va motivatsiya, yangi narsalarni ishlab chiqarishlari va rivojlantirishlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta‘lim, ijodkorlik, kreativlik, kreativ kompetentlik, shaxsiy yutuqlar, bo‘lajak tarbiyachilar, innovatsion yondashuv.

Kirish. Insoniyat taraqqiy etishida ularning kashfiyotlari beqiyos hisoblanadi. Buyuk daholarning hayot yo‘liga nazar soladigan bo‘lsak shunga amin bo‘lamizki, ular tarixda iz qoldirishlarida ilm-fan, san‘at yoki diniy ta‘limotda yangilik yarata olishgan. Insoniyat rivoji va ilm - fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk bobokalonlarimiz Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Imom Al Buxoriy Abdulla Avloniy kabi daholar hayot yo‘llarida va o‘z yo‘nalishlarida yangilik yaratishgan, ijodkor bo‘lishgan.

Insoniyatning yangilik va taraqqiyotga intilishi tarixiy evolyutsion rivoji bilan ifodalanadi. Chunki har bir ijodiy faoliyatning negizida albatta yaratuvchanlik bor. Demak, ijodkorlik, kreativlik qadim-qadimdan mavjud, faqat ijodiy jarayon, yaratuvchanlik, ya‘ni kreativlik tushunchasi va kreativlik atamasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish o‘tgan asrdan boshlangan.

Vuqorida nomlari qayd etilgan ajdodlarimizning boy merosiga tayangan holda bo‘lajak tarbiyachi xatti-harakati, faoliyatida kreativ qobiliyati mavjudligini odatiy jarayondagi holatlar, tajribalardan farqli ravishda muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandart yechimdan foydalanish yuzasidan mustaqil qaror chiqara olish iqtidori mavjudligi

bilan belgilanadi. Aslida, tug‘ma tarzda barchada kreativlik qobiliyati mavjud bo‘lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.Maslou[1]ning ta‘biri bilan aytganda kreativlik xar bir insonga xos bo‘lib, u tug‘ma bo‘ladi ijtimoiy muhit ta‘lim va tarbiya natijasida rivojlanadi yoki aksincha yo‘qoladi. Kreativlik nomoyon bo‘lishining bir necha omillari mavjud, ya‘ni ta‘lim mazmuni hamda ijtimoiy muhit kreativ kompetentlikning nomoyon bo‘lishi va rivojlanishining yetakchi omillari deb hisoblaydi.

Oliy ta‘limda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo‘lajak tarbiyachilar va ularning shaxsiy yutuqlari hamda jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Chunki, bo‘lajak tarbiyachilarning kelajakdagi metodika fanlarini o‘qitish faoliyati jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga, tez o‘zgarishlarga dosh berishi va oldindan aytib bo‘lmaydigan muammolarni hal qilishi uchun samarali strategiyalarni o‘zlashtirgan, muammolarni hal qilish, tanqidiy va mustaqil fikrlashga ega bo‘lgan bo‘lishlari zarur.

Bo‘lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligining rivojlanishi o‘qituvchilarning kreativ sifatleri qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Pedagoglarning kreativlik darajalari esa bo‘lajak tarbiyachilarning kreativlik bilan

bog'liq bo'lgan xususiyatlarini qanday baholashlari bilan bog'liq, ya'ni o'qituvchi qay darajada kreativ bo'lsa, u bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik bilan bog'liq xususiyatlarini shunchalik rivojlantira oladi[2]. Bundan tashqari, pedagogning liderlik hamda yetakchilik jihatlar va uning bo'lajak tarbiyachilarni idrok eta olishi ham kreativlik bilan bog'liqdir. Bo'lajak tarbiyachilar va professorlarning kreativ kompetentlikni idrok etishlari va tushunishlari o'rtasida farqlar mavjud. Bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentlikni asosan shaxs yoki jarayonning o'ziga xos xususiyati sifatida ta'kidlasalar, olimlar bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini shaxsiy mulohazalar yuritishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi, qiziquvchanlik va motivatsiya, yangi narsalarni ishlash chiqarishlari va rivojlantirishlari ijtimoiy zarurat sifatida qarashadi.

Shuningdek, pedagoglar bo'lajak tarbiyachilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish uchun auditoriyada qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik amaliyotlar va tafakkurga ta'sir ko'rsatadigan turli ijtimoiy zaruratlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Har bir ta'lim muassasi o'z professor-o'qituvchilariga shart-sharoitlarni yaratishda yordam berishi kerak. Ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarning innovatsion yondashuvlar asosida kreativ rivojlanshining ijtimoiy zarurati quyidagilardan iborat: o'quv dasturida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishga imkon berish uchun yetarli vaqt va auditoriyaga ega bo'lish; yetarli darajada xilma-xil va barcha bo'lajak tarbiyachilarning kreativ bo'lishiga imkon beradigan turli xil ish sharoitlarida bo'lajak tarbiyachilarga yangi va qiziqarli usullarda ishlash erkinligiga ruxsat berish; bo'lajak tarbiyachilarni haqiqiy, talabchan va hayajonli ishlarga jalb qilish: oldindan aniqlanmagan natijalarga erishish imkonini beruvchi baholashni loyihalash; pedagoglar va bo'lajak tarbiyachilar uchun fikrlash va shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiradigan idoraviy muhitni shakllantirish; davom etish fan doirasidagi akademik munozaralar va turli manfaatdor tomonlar bilan mavzuning tabiati va undagi kreativ kompetentlikning roli haqida suhbat[4].

Ba'zi manbalarni tahlil qilish natijasida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari sifatida quyidagicha fikr bildirishga qaror qildik. Kreativlik - mavjud vaziyatni turlicha baholash, nostandart qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish hamda noodatiy sharoitlarga tez ijtimoiylashish imkonini yaratadi. Bo'lajak tarbiyachi o'zining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida turli bosqichlarni bosib o'tishi natijasida ko'p qirrali ijodkorga aylanadi. O'zida kreativlik qobiliyatini shakllantirgan bo'lajak tarbiyachi boshqa bir bo'lajak tarbiyachiga motivatsiya berib, uning yashirin qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga yordamchi vazifasini bajarishi mumkin. Kreativ bo'lajak tarbiyachi bir muammoni bir vaqtning o'zida bir necha yechimlarini topishi va uni eng mukammalini qo'llay olishi mumkin bo'ladi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy zarurat sifatida rivojlantirish va yangi g'oyalarni yarata olish quyidagi jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirish orqali amalga oshiriladi:

- Bo'lajak tarbiyachilarning avvalgi o'zlashtirgan bilimlarini hisobga olish.
- Suhbat uchun vaqt ajratish, bo'lajak tarbiyachilarni hurmat bilan tinglash.
- Bo'lajak tarbiyachilarni xato va tanqid qilishdan qo'rqish kabi hissiy to'siqlardan xalos bo'lishga yordam berish.
- Rag'batlantirish. Bo'lajak tarbiyachilarni ko'proq qiziqtiradigan mavzular bilan shug'ullanishlariga imkon yaratish.
- Darsda qo'llaniladigan o'qitish metodlarining samaradorligini oshirish.

- Bo'lajak tarbiyachilarni faqat hurmat qilgan holda tanqid qilish.

- Bo'lajak tarbiyachilarni yangi g'oyalarni ifoda etishga undash.

- O'qituvchi tarafidan bo'lajak tarbiyachilarga munozarali savollar berish.

- Bo'lajak tarbiyachilar bilan ijobiy munosabatda bo'lish.

- Bo'lajak tarbiyachilar o'zlarini namoyon qilishdan qo'rqmaydigan psixologik jihatdan xavfsiz muhit yaratish.

- Xulq-atvor va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini bo'yicha individual farqlarni tushunish.

Ta'limda bo'lajak tarbiyachi yoshlarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mavjud muammoning ochiq qoldirilishi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, bu jarayonda turli innovatsion va integratsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini ta'minlash hamda aniq vaziyatlarni hosil qilish natijasida ta'lim oluvchilarning ijodiy tafakkurlari rivojlantiriladi[6].

Bunda, bo'lajak tarbiyachilar ta'lim olishlari jarayonida, o'quv bilish faoliyatida kreativ sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni bo'lajak tarbiyachilar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlariga kreativlik bo'yicha bitta fanni kiritibgina qolmasdan, balki, bo'lajak tarbiyachi sifatida tajriba o'tkazadigan, keyinchalik mutaxassis sifatida nima qila olishi mumkin bo'lgan haqiqiy ijodiy jarayonni rivojlantirishni o'qitish va ta'lim muhiti orqali amalga oshirilishi kerak hamda ular o'zlarining ijodiy salohiyatlarini namoyon eta bilish yo'llarini topa olishlari lozim. Kreativlik tushunchasi bugungi kunda aniq bir mustahkam ta'rif bilan chegaralanmaydi. Olimlar ushbu tushunchaga turlicha ta'rif beradilar. Fikrimizcha hozirgi kunda kreativlik atamasi qo'llaniladigan ko'plab sohalar mavjud bo'lib, yaratilgan yangilik borasida fikr yuritiladi va ayrim tadqiqotlarda mualliflar kreativlik va ijodkorlik atamalarini sinonimlar sifatida qo'llaydilar.

Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilar kreativlik madaniyatlarini oshirishda qo'shimcha o'quv kurslari va ijtimoiy-madaniy tuzilmalarning ta'siri muhim o'rin tutadi. Pedagogika fanlarining har bir yo'nalishlarida bo'lajak tarbiyachilarning kreativligi asosiy masala bo'lganligi hisobga oladigan bo'lsak pedagoglar ijodiyotining ahamiyati juda ham kam holatlarda e'tiborga olinadi. Shu bilan birga, pedagoglar ta'lim jarayonida eng muhim bo'lgan rollardan birini o'ynaydi; shuning uchun oliy ta'lim bo'lajak tarbiyachilari kreativ kompetentligini oshirish jarayonida bu masalani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Seminar-treninglar g'oyalarni ishlab chiqarishga, yechimlarning kreativligiga va yetakchilik samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayoniga ta'lim usullarini joriy etish oliy ta'lim bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy imkoniyatlarini ochib beradi[8].

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda, Kreativlik qobiliyatidan nafaqat yangi qiziqarli g'oyalarni yaratish, balki o'z-o'zini takomillashtirish va shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanish mumkin. Mavjud muammolarni va ijodiy qobiliyatni rivojlangan darajasini o'zida mujassam etgan jarayonni kreativlik deb qarashimiz mumkin. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimi bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bilan birga ularning o'quv faoliyatini kreativ olib borish ta'lim sifatini yanada oshirish bilan bir qatorda ijtimoiy zarurat ekanligidan dalolat beradi.

Oliy ta'lim talabasi faqatgina darslikda berilgan ma'lumotlarni o'rganibgina qolmasdan, u zamon bilan hamqadam bo'lishi, erkin fikrlashi, tanqidiy munosabatda bo'la olish malakasi shakllanishi, zamon talabiga javob beradigan kadr bo'lishi uchun kreativlik ijtimoiy zarurat

sifatida biz uchun zarur. Bo'lajak tarbiyachi original manbani o'qib o'zi xulosa chiqara olishi, o'zi mustaqil talqin qila olishi, asl mohiyatini anglay olishi uchun kreativlik ijtimoiylashishi zarur.

Tahlil va natijalar. Har bir mamlakat o'z mezonlari asosida ta'lim tizimini belgilaydi. Shuning uchun turli davlatlarda ta'lim olish imkoniyatlari turlicha bo'ladi. Tizimga asos solinayotganda mamlakatning tarixiy an'analari, bugungi kun talablari inobatga olinadi. Ta'lim tizimining mukammalligi mamlakat rivojining podevori hisoblanadi. Ta'lim jarayonidagi islohotlarning amaliyotga tadbiri sifatida hozirda ta'lim jarayonidagi zamonaviy dars kombinatsiyalarini kuzatishimiz mumkin.

Bular quyidagilar:

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish darslari

AI (Artificial intellect) bugungi kunda bu usul hayratlanarli darajada keng tarqalgan. Bundan foydalanish o'qituvchiga dars jarayonida kam harakatlanib o'quvchi bilan ko'proq ishlash imkonini beradi. Sizu bizga o'xshagan o'qituvchilarga ish yukini kamaytirishga, kurslarni shaxsiylashtirishga va talabalarga samaraliroq ta'lim berishga yordam beradi. Hemis platformasi, kundalik.com, plagiatni aniqlash, avtomatik baholash kabilar shular jumlasidandir[7].

Loyiha asosida o'qitish

Barcha talabalar bo'lim oxirida loyihalar ustida ishlaydi. Loyihaga asoslangan ta'lim ham loyihalar atrofida aylanadi, bu o'quvchilarga haqiqiy muammolarni hal qilish va uzoqroq vaqt davomida yangi yechimlar topish imkonini beradi.

O'quvchilarda tadqiqot qilish, mustaqil ishlash va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Ushbu tushunchalarga asoslanib biz ham quyidagi dars turlarini taklif etamiz.

1. Virtual haqiqat texnologiyasi darslari

Virtual haqiqat texnologiyasi bilan sinf ichida butunlay yangi dunyoni yaratish mumkin. O'quvchi materialni tekis ekranda ko'rish o'rniga "haqiqiy" narsalar bilan muloqot qilishlari mumkin.

VR (Virtual reality) texnologiyasi qimmatga tushishi mumkin, ammo u sizning har qanday darsingizni o'quvchilarni hayratga soladigan darajada o'tkazilishiga yordam beradi[7].

2. Qo'shma ta'lim

Ko'plab maktablarimizda bu ta'lim turi qo'llanilmoqda. Ta'limda samaradorlikka erishish uchun bu

usuldan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o'qituvchi materialni dars jarayonida to'liq bera olmasa, o'quvchilar bilan Zoom platformasida darsdan tashqari holda online dars tashkillab o'tishi mumkin

3D bosib chiqarish

Bu o'rganuvchilarga yangi narsalarni yaxshiroq o'rganish uchun amaliy tajriba beradi. Bu usul sinfdagi faollikni an'anaviy darslar bilan solishtirib bo'lmaydigan yangi darajaga olib chiqadi. Dars jarayonida 3D ruzhalaridan foydalanish o'quvchilar uchun dars jarayonini qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

3D bosib chiqarish o'quvchilaringizga haqiqiy dunyoni tushunish imkonini beradi va ularning tasavvurlarini faollashtiradi. Talabalar inson tanasi haqida bilish yoki mashhur binolar maketlarini ko'rish va ularning tuzilmalarini o'rganish uchun qo'llarida modellarini ushlab tursa, o'rganish ancha osonlashadi. Ya'ni bunda har bir o'rgatilayotgan narsa modellar orqali o'tiladi[7].

Xulosa. Demak, ta'lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning bugungi shiddatli oqimida to'g'ri yo'nalish topa oladigan, yaratilgan imkoniyatlardan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi yo'lida unumli foydalana oladigan izlanuvchan, kreativ fikrlaydigan pedagogni shakllantirishni talab etadi. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik jarayonda ta'lim mazmuniga qanchalik yangilik va yangilangan darslik, turli qaror hamda qonunlar, ta'lim standartlari joriy etilgani bilan ularni o'quv jarayoniga yetarlicha tadbiri qilinmas ekan bu harakatlarning barchasi samarasiz yakunlanaveradi. Ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun albatta pedagog avvalo, bo'lajak tarbiyachilardagi kreativ tasavvurni shakllantirmo'g'i zarur.

Shuningdek, ta'lim tizimi professor-pedagoglari va bo'lajak tarbiyachilari oldida juda ko'p muammolar mavjud. Ushbu dissertatsiya ishimizda muhokama qilinadigan masalalardan biri pedagoglar va bo'lajak tarbiyachilar o'rtasida kreativ kompetentlikni rivojlanishini rag'batlantiradigan kreativlik madaniyatini targ'ib qilish zarurati bilan bog'liq. Hozirgi axborot asrida yangi g'oyalarni yaratishga qodir bo'lgan, yuqori talab darajasiga javob bera oladigan, innovatsion modellarni yarata oladigan va raqobatbardosh loyihalarni taklif qiladigan hamda ularni amalga oshiradigan mutaxassislar zarur. Bunday faoliyatning muvaffaqiyati esa bo'lajak tarbiyachilar orasida noodatiy fikrlashni yuqori darajada ommalashtirish, mutaxassislardagi yuqori kreativ sifatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Altshuller. G. S. The 40 Principles of invention are a suite of ideas that purport to aid in solving hard ... Studies led by led to this approach.
2. Asqarov A.. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. Umumiy pedagogika.UMK.Toshkent-2018 yil.
3. Avazboyev A.. Zamonaviy ta'lim. 2018, 8 s-21
4. Askarova, D. I. (2022). Use of interactive methods in developing creativity of students of higher education institutions. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(10), 92-97.
5. Asqarova D. Oliy ta'limda bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirish omillari. FarDU Ilmiy xabarlar.2023.
6. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriiyati, 2004 -383 bet.
7. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000.–B.125.
8. Hasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at-T. "Fan va texnologiyalar", 2009.- b.236
9. Ibragimova G.N.. Zamonaviy ta'lim. 2017, 4 s-31



Xusniddin AXMEDOV,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Malaka oshirish markazi direktori, siyosiy fanlar doktori, professor

E-mail: x.ahmedov@gmail.com

O‘zMU professori A.O‘tamurodov taqrizi asosida

YOSHLARNI YOT G‘OYALAR TA‘SIRIDAN MUHOFAZA QILISHDA IJTIMOY FANLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayoni, uning oqibatlarini, yoshlarni ommaviy madaniyat va yot g‘oyalar ta‘siridan muhofaza qilishda ijtimoiy soha, xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, davlat va jamiyat rivojida milliy g‘oya va mafkuraning muhim ahamiyat kasb etishi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, yoshlar orasidagi g‘oyaviy bo‘shliqni egallashga qaratilgan xatarlardan muhofaza qilish hamda ularning ongi va qalbiga ilg‘or fikrlar va ezgu g‘oyalarini singdirish vazifasining dolzarb zarurat ekani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, yoshlar, g‘oya, mafkura, yot g‘oyalar, g‘oyaviy bo‘shliq, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ijtimoiy hayot, ma‘naviy barkamollik.

ВАЖНОСТЬ СОЦИАЛЬНОГО ФАКТОРИНГА ДЛЯ ВЛИЯНИЯ И ЗАЩИТЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются такие вопросы, как современный процесс глобализации, его последствия, социальная сфера, особенности значения социальных и гуманитарных наук в защите молодежи от влияния массовой культуры и иностранных идей, значение национальных идей и идеологии в развитии государства и общества. Также выявлено, что необходимо не допускать возникновения идеологической пропасти в обществе, ограждать молодежь от опасностей занятия идеологической пропасти, внедрять в ее умы и сердца прогрессивные мысли и идеи.

Ключевые слова. Глобализация, молодежь, идея, идеология, зарубежные идеи, идеологический разрыв, социальные и гуманитарные науки, общественная жизнь, духовная зрелость.

THE IMPORTANCE OF SOCIAL SCIENCES AND PROTECTION OF YOUNG PEOPLE

Annotation

This article covers issues such as the current globalization process, its consequences, the social sphere, especially the importance of social and humanitarian sciences in protecting young people from the influence of mass culture and foreign ideas, the importance of national ideas and ideology in the development of the state and society. Also, it was revealed that it is necessary to prevent the emergence of an ideological gap in the society, to protect the youth from the dangers of occupying the ideological gap, and to inculcate progressive thoughts and ideas in their minds and hearts.

Key words. Globalization, youth, idea, ideology, foreign ideas, ideological gap, social and humanitarian sciences, social life, spiritual maturity.

Kirish. Globallashuv turli xalqlar ijtimoiy hayotining barcha sohalariga o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu jamiyat hayotining g‘oyaviy mafkuraviy sohalariga ham bevosita aloqador ekanligini ta‘kidlash lozim. Bugun mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi oqibatida O‘zbekiston taraqqiyotiga tahdid solayotgan yot g‘oyalar va mafkuralar mavjud. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida “g‘oya” va “mafkura” tushunchalari, ular bilan bog‘liq xususiyat va tamoyillar to‘g‘risida xilma-xil fikrlar bor. Ularni turlicha yondashuvlar asosida ta‘riflash hollari hali hamon uchramoqda. Keyingi yillarda ijtimoiy fanlar doirasida yaratilgan bir qator o‘quv qo‘llanmalar, kitoblari, darsliklar va risolalar masalaga muayyan darajada oydinlik kiritdi.

Alohida ta‘kidlash joizki, tez o‘zgarib va globallashib borayotgan bugungi dunyoda turli-tuman ma‘naviy xurujlar va tahdidlar paydo bo‘lishi davom etmoqda. Ushbu jarayonda jamiyatimizga xos ma‘naviy hayot mezonlariga nisbatan munosabat ham o‘zgarib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “...bugungi shiddatli zamon, dunyodagi ayovsiz raqobat muhiti bizdan juda katta mas‘uliyat va safarbarlik bilan ishlashni, hamma sohada yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Mana shunday keskin sharoitda biz yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, fuqarolar va millatlar o‘rtasida hamjihatlik muhitini ko‘z qorachig‘idek asrashimiz zarur. Ayniqsa,

farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilishga eng dolzarb vazifa, deb qarashimiz kerak. Agar biz ta‘lim-tarbiya, madaniyat va ma‘naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o‘z maqsadlarimizga yetolmaymiz”[1]. Ayni paytda ushbu serqirra va murakkab jarayonning ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, ma‘naviyat, dinshunoslik, siyosatshunoslik, milliy g‘oya kabi fanlar bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Mavzularga oid adabiyotlar tahlili. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, biror shaxs yoki ijtimoiy guruhning ongi va qalbidagi muayyan maqsad sari yetaklovchi fikrning yo‘qligi “g‘oyasizlik” tushunchasi bilan ifodalanadi. Bu tushuncha maqsad-muddaolari va hayotiy qadriyatlarini anglab yetmagan kishilar va toifalarning ma‘naviy qiyofasini belgilaydi. Tarixdan barchamizga yaxshi ma‘lumki, o‘z g‘oyasi, ezgu orzu-intilishlari bo‘lmagan odam faqat tabiiy ehtiyojlari bilan chegaralab qolaveradi.

Bu esa o‘z navbatida, g‘oyasizlik ma‘naviyati tuban, yimon-e‘tiqodi sust, mafkurasi buzuq kimsalarni yuzaga keltirishi mumkin. Xuddi shunday o‘tmishi va nasl-nasabini bilmaslik, tarixiy xotirani unutish ham g‘oyasizlikning bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Bunday kimsalar o‘z ota-onasiga

qo'l ko'tarishi ham, o'z Vatanini sotishi ham, millati va xalqiga xiyonat qilishi ham mumkin.

Tarix shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat va xalqqa yot bo'lgan guruh va kuchlar bunday odamlardan mafkuraviy ta'sir va ruhiy tazyiq orqali o'z g'arazli niyatlariga yetish maqsadida foydalanadilar. O'zining hayotbaxsh g'oyalari, buyuk maqsadlari bo'lmagan jamiyatda kuch-g'ayrati, aql-zakovati va hatto hayotini yuksak g'oyalar yo'lida baxsh etishga tayyor komil insonlarni tarbiyalashning iloji yo'q. Bunday joyda muayyan sharoitda jamiyatdagi toifa va qatlamlarning ongidagi g'oyasizlik, mafkuraviy vakuum holatini ifodalaydigan g'oyaviy bo'shliq sodir bo'ladi.

Bu ayniqsa, muayyan aqidalar, fikr va g'oyalar zamon tanqidiga uchraganda yoki yangi paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar tomonidan inkor etilganda, davr talabiga javob beradigan g'oya va mafkura to'la shakllanib ulgurmagani hollarda to'la-to'kis namoyon bo'ladi. Chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy psixologik muammo va jarayonlar g'oyaviy bo'shliqning yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Eski davr yangisi bilan o'zgariganda g'oyalar turlicha ta'sir kuchiga ega bo'ladi, ba'zi kishilar ularni juda tez qabul qiladi, boshqalarning esa avvalgi mafkuraviy aqidalardan yuz o'girishi va yangi g'oyalarni qabul qilishi ancha qiyin jarayon bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishining yana bir manbai – ta'lim dargohlarida ijtimoiy fanlarni o'qitishga nisbatan beparvolik kayfiyatining paydo bo'lishi, ayrim hollarda bu sohaga ikkinchi darajali go'yoki keraksiz fanlar sifatida qaralishi va o'z navbatida, jamiyatda bu sohadagi tarbiyaning yetarli emasligi bo'lishi ham muhim omillardan biri bo'lishi mumkin. Muayyan davlat yoki millat, ijtimoiy guruh yoxud qatlam o'z maqsad-muddalarini aniq-ravshan ifoda etadigan o'z g'oyalarini kishilar, ayniqsa, yosh avlod ongiga muntazam singdirmasa, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'ladi. Shu tariqa ishonch-e'tiqod susayadi, mafkuraviy tahdidlar kuchayadi, e'tiqodi past kishilar esa ta'sirga tez beriluvchan bo'lib qoladi.

Jamiyat rivoji uchun g'oyaviy bo'shliq jiddiy xavf soladi, agar u paydo bo'lsa, xalqning tabiatiga begona turli xil mafkuraviy tazyiqlar ta'sirini o'tkazish tabiiy. Shuning uchun o'z kelajagini o'ylagan har bir davlat va jamiyat g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik bilan birga, ilg'or fikrlar va ezgu g'oyalarni odamlar ongi va qalbiga singdirishi lozim. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bunda albatta ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarning o'rnini nihoyatda katta, lekin ming afsus bugungi tahlikali davrda ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarning ma'lum darajada qisqarib borayotgani bu kabi jiddiy muammolarning yuzaga kelishi va ildiz otishida muhim rol o'ynashini hech birimiz chuqur his qilayotganimiz yo'q va shu o'rinda ijtimoiy fanlarni qisqartirish tarafdori emas, aksincha bu kabi fan sohalariga alohida ahamiyat berish zarurligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Bunday holatda g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi, ma'naviy hayot xalq va har bir fuqaro manfaatiga mos keladigan yuksak va jozibali g'oyalar bilan boyitilishi zarur.

Bu o'z navbatida, odamlarda ertangi kunga ishonch va kelajakka umid hissini uyg'otadi. Aks holda esa mafkuraviy jihatdan yetarli bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lmagan insonlarda g'oyaviy savodsizlik kuchayadi. Uning asosini mustaqil, sobit e'tiqodga, mustahkam iroda va dunyoqarashga, jamiyatda o'z o'rniga, o'zining aniq hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lmagan holat vujudga keladi. Bunday kishilar zararli g'oyalar, yot, begona mafkuralar ta'siriga juda oson tushib

qoladilar. Bunga ko'plab real misollar keltirish mumkin. Masalan, hozirgi kunga kelib birgina diniy ekstremistik va terrorchilik xarakteridagi veb-saytlarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Shuningdek, "Feysbuk", "Tvittr", "Instagramm", "VKontakte", "Odnoklassniki" "Telegramm" kabi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardagi radikal va mutaassib g'oyalar bilan yo'g'rilgan kanallari soni 100 mingdan oshishi ta'kidlangan.

Keyingi paytlarda ayrim yoshlarning ilmsizligi sabab g'oyaviy savodsiz kishilarning turli xil mafkuraviy tazyiqlarga, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgani juda ayanchli holdir. Shu o'rinda, globallashuv jarayonining turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha ko'rinishda namoyon bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun har bir fuqaro shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. "Jamiyatda barqarorlikni saqlash barcha fuqarolardan shaxsiy mas'uliyat talab qiladi. Afsuski, hayotda sodir bo'layotgan ayrim noqonuniy ishlarni ko'rib ko'rmaslikka oladigan, tinchlikni saqlash faqat davlatning ishi deb o'ylaydiganlar ham borligini qayd etish lozim. Shuning uchun ma'naviyat va ma'rifat, tarbiyaviy ishlarda soxtakorlik, shoshma-shosharlikdan qochishimiz, ushbu masalaga kundalik ishlardan keyingi o'rindagi masala sifatida qarashga barham berishimiz kerak"[2]. Zero, din niqobi ostida omma ongini zaharlashga, jamiyatga moddiy va ma'naviy zarar yetkazishga harakat qilinayotgan paytda xalqni turli mafkuraviy xavf-xatar va turli tahdidlardan himoya qilish, aholi, ayniqsa, yoshlarda mafkuraviy immunitet hosil qilish, g'oyaviy savodxonlikni oshirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Ana shu sababli "g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" bugungi kun uchun har qachongidan ham ulug'vor g'oya sifatida o'z qiymatini yo'qotmaydi va bugungi davrning ham talabi bo'lib qolaveradi. Shu o'rinda, Mavlono Jaloliddin Rumiy ta'kidlaganidek, "Shubhasiz tashqi go'zallik ham Ollohning bir lutfidir, u ham o'ziga yarasha qadrlir. Ammo tashqi go'zallikning o'ziga yetarli emas, vaqt o'tib eskiradi, yo'qoladi. Asl qiymatli bo'lgani ichki go'zallik va ma'naviy barkamollikdir"[3]. Shunday ekan, har bir inson uzluksiz ravishda ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy ozuqa olib turmasa, ma'naviy qashshoqlanib boraveradi. YA'ni, jamiyatning taraqqiy etishi uchun xalqni g'oyaviy jihatdan savodxonligini oshirish, bu borada muttasil ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish ijtimoiy fanlarning o'rnini nihoyatda muhim va bu hozirgi davrning ham talabidir. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlamochimani, bugun biz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitishni rivojlantirmasak, bu sohaga oid fanlarga yetarli e'tibor qaratmasak, u holda jamiyat, xalq, ijtimoiy qatlamlar o'z maqsadlarini aniq-ravshan belgilab ololmaydi, o'z orzu-intilishlari va manfaatlarini ifoda etadigan g'oya va mafkurani yaratolmaydi. Bu esa, ijtimoiy ongda va ma'naviy hayotda yuzaga keladigan g'oyaviy boshbodoqlikka olib keladi.

Xulosa va takliflar. Muayyan siyosiy tizim o'z hayotini tugatgan, bir tuzumdan boshqasiga o'tilayotgan, ijtimoiy-siyosiy qutblashuv va ziddiyatlar kuchaygan, jamiyat turli tabaqalarga bo'linib, har bir ijtimoiy-siyosiy kuch o'zining tor manfaatlari doirasida o'ralashib qolgan vaziyatlarda g'oyaviy inqiroz vujudga kelishi shubhasiz. Bunday hol jamiyatni yanada tarqoq bo'lishiga, odamlarni birbiriga dushman tarafdarga ajratib yuborishiga olib kelishi mumkin. Natijada ichki ziddiyatlar kuchayishi, qatlam, toifa, milliy-etnik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshilik zo'rayishi kabi vaziyatlar vujudga keladi. Bu kabi salbiy holatlarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki g'oyaviy inqiroz tufayli

davlatlar va xalqlar qaramlikka, iqtisodiy va mafkuraviy iskanjaga tushib qoladilar, tanazzul va tushkunlikka duchor bo'ladi. Ana shu sababli qatlam va guruhlarni umumiy maqsadlar va tub manfaatlar yo'lida birlashtiradigan yagona, umumxalq g'oyasi shakllanishi va bu sohada faoliyatga asos

bo'lishi lozimligi tarixiy zaruriyatdir. Umuman olganda, barcha ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarga keng imkoniyatlarni yaratilishi boshqa bir qator vazifalar bilan birga ana shu sohada ham o'zining hayotbaxsh ahamiyatini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – Б. 349.
2. Ҳасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Т.: “Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси”. 2014. – Б. 249.
3. Жалолиддин Румий. Маснавий ҳикояларига шарҳлар. –Т.: “Мухаррир”, 2011. – Б. 19.



UDK: 370.159.9

*Shaxzoda AXMEDOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

Psixologiya fanlari doktori B.Jo'rayev taqrizi asosida

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR Annotatsiya

Keltirilgan maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklikni shakllantiruvchi psixologik xususiyatlar tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishining o'ziga xos jihatlariga ham e'tibor berilgan. Kasbiy identiklik shakllanishida subyektning psixologik o'ziga xosliklari zamonaviy kasbiy yondashuvlar orqali ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy xususiyat, kasbiy identiklik, shakllanish, qiyosiy yondashuv, psixologik xususiyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ФОРМИРУЮЩИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ИДЕНТИЧНОСТЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ

Аннотация

В цитируемой статье представлен анализ психологических особенностей, формирующих профессиональную личность будущих педагогов. Также было уделено внимание специфическим аспектам формирования профессиональной идентичности будущих педагогов. Психологические особенности субъекта в формировании профессиональной идентичности также анализируются с помощью современных профессиональных подходов.

Ключевые слова: профессиональная характеристика, профессиональная идентичность, формирование, сравнительный подход, психологическая характеристика.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS THAT FORM PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE EDUCATORS Annotation

The cited article describes the analysis of psychological characteristics that form the professional identity of future pedagogues. Also, attention was paid to the specific aspects of the formation of professional identity in future pedagogues. The psychological characteristics of the subject in the formation of professional identity are also analyzed through modern professional approaches.

Key words: professional characteristic, professional identity, formation, comparative approach, psychological characteristic.

Kirish. Ma'lumki, zamonaviy pedagogik jarayon o'z mazmunida, ijtimoiy –madaniy hayotning ko'plab murakkabliklari va ziddiyatli holatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Qolaversa, ta'lim-tarbiya masalalari har doim, har bir davrda jamiyat va davlatning bosh islohotlaridan biri bo'lib kelgan. Chunki, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, barkamol inson bo'lib yetishishida ularga yo'l –yo'riq ko'rsatish hamda ularni jamiyat uchun yetuk inson qilib tarbiyalash kabi masalalar har bir umumta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, zamonaviy o'qituvchi va uning samarador faoliyati uchun shart sanalgan kasbiy kompetentlik, o'z o'zini rivojlantirish, o'zini kamol toptirish, ichki tolerantlilik, fidoiylilik, sabr-toqatlilik, o'z ustida ishlash qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qila olish qobiliyati, boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olish qobiliyati, o'qituvchiga xos ijtimoiy-psixologik belgilar kabi masalalarni bo'lg'usi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari faoliyati bilan bog'lab o'rganish, xalq ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi oshirishga hamda o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq ayrim muammolarning oldini olishga xizmat qilishi ehtimoldan holi emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi E.M.Nikitinning aytishicha, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy identikligini rivojlantirish ishlari avvalo, ulardagi kasbiy kompetensiyalarini qayta takomillashtirish, zamonaviy pedagogik psixologiyaning yangi, ilg'or konsepsiyalari bilan malakalarini oshirish hamda pedagogik faoliyatning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari chuqur tanishtirish kabilar bilan yerlanadi[1]. Muallif o'z ilmiy maqolasida pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli ishlashning omili sanalgan, o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati masalasiga alohida e'tibor

qaratadi. Ya'ni o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati har bir bo'lg'usi pedagoglar uchun o'ziga xos xususiyat sanalib, keyinchalik, u o'z ustida ishlash qobiliyati bilan to'ldiriladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hozirga qadar o'z ustida ishlash faoliyati fenomeni bilan bog'liq sof psixologik tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Aksariyat xorij tadqiqotlarida mazkur muammo o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi kamol toptirish, kasbiy kamolot, kasbiy refleksiya kabi tushunchalari orqali keng tadqiq etilgan.

L.M.Mitinaning ta'kidicha, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy identiklik darajasini o'rganish, kasbiy o'z o'zini rivojlantirish muammosi bilan uzviy bog'liq sanalib, uni tadqiq etish o'qituvchining o'z kasbiga qay darajada muvofiqligini aniqlashga keng imkon beradi[2]. Muallif mazkur ta'rifda, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoniga har jihatdan tayyogarligi masalasini nazarda tutmoqda. Pedagogik faoliyatda har jihatdan mukammal mutaxassis bo'lib yetishishi, nafaqat kasbiy jihatdan balki, shaxs sifatida rivojlanish omillariga ham bog'liqdir. Ya'ni shaxs faoliyat sub'ekti sifatida takomillasha boradi.

Ye.V.Rudenskiyning so'zlariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faoliyati va o'z ustida ishlash malakalarini tahlil qilish, avvalo, kasbiy faoliyat deformatsiyasi fenomenini o'rganish bilan o'zviy bog'liq sanalib, u orqali pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishiga to'siq bo'luvchi kasbiy sunish sindromi, xavotirlik hissi, ijtimoiy vazifalardan qochish istagi hamda namoyon bo'lgan destruktiv xulq-atvor ko'rinishlari aniqlanadi[3]. Tadqiqotchi nazarida, ana shu masalalarni hal etish bo'lajak pedagoglarning mustaqil ishlash faoliti takomillashtiruvchi ijtimoiy –psixologik shart-sharoitlarini o'rganishga keng imkon beradi.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, tadqiqotchi A.K.Markova bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy identiklikning psixologik jihatlarini masalasi o'zini o'zi baholash, "men" tuyg'usining dinamikasi, fikrlash uslubi, shaxsiy maqsadlarni belgilash ko'nikmasi hamda sotsial intellekt tushunchalari bilan tushuntiriga harakat qiladi. Tadqiqotchining fikricha, har bir shaxs uchun pedagogik faoliyat o'z-o'zini anglash faoliyatidir[4]. O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchi shaxsiga xos individual malakani mazmunini ochib beradi. Demak, individual malaka bu bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faoliyati bilan bog'liq jarayon bo'lib, u kasbiy o'z-o'zini anglash, mutaxassis sifatida o'zini qabul qilish kabi xususiyatlar uchun javob beradiga psixologik jarayon hisoblanadi.

A.Ya.Ansupov kasbiy identiklikni tushuntirishda o'ziga xos ketma-ketlikka ega bo'lgan sxemani taklif qiladi[5]:

- 1.kasbiy identiklikning mohiyati;
- 2.tasniflash;
- 3.tuzilishi;
- 4.funksiyalari;
- 5.genezis;
- 6.evolyusiya;
- 7.dinamika;
- 8.tizim-axborot tavsifi;
- 9.optimalashtirish (boshqaruv);
- 10.shakllangan kasbiy identiklikni ko'rsatkichlari, mezonlari;

- 11.kasbiy identiklikni tashxislash usullari.

Tadqiqotchi A.A.Reanning so'zlariga ko'ra, o'qituvchining mustaqil ijodiy faoliyati uning qadriyatlarini tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'z qadriyatlarini yaxshi anglagan o'qituvchi har qanday ta'lim sharoitiga tez va oson moslasha oladi. Mazkur ta'rifga muvofiq, o'qituvchilarda kasbiy muvaffaqiyatlarni ta'minlovchi o'z ustida ishlash qobiliyati, uning qadriyatlarini o'zviy bog'liq sanalib, u ko'plab ijtimoiy – psixologik xususiyatlar va pedagogik fazilatlar bilan ham xarakterlanadi.

AQShlik tadqiqotchi G.Ulrichning yozishicha, bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning mohiyati bir vaqtning o'zida tashqi va ichki sharoitlar bilan belgilanadi. Bo'lajak pedagogning fazilatlarini, uning faoliyati, ishdan qoniqishi, kasbiy faoliyatning xususiyatlari va mutaxassisga qo'yiladigan ob'ektiv talablar - barchasi birgalikda kasbiy identiklikning shakllanishini belgilaydi[6]. Demak, bo'lajak pedagoglarning, ayniqsa rahbar kadrlarda kasbiy identiklik nafaqat ularning uzoq yillik tajribalari, kasbiy qiziqishlari balki ularning shaxsiy fazilatlarini, individual psixologik xususiyatlarini ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotchi E.V.Dmitrienko kasbiy identiklikni hodisa sifatida tizimli xarakteristikalarini e'tirof etadi. Biroq, muallifning ushbu tizim mazmuni haqida boshqa qarashlari mavjud. U kognitiv jihatlariga ko'proq e'tibor beradi va kasbiy identiklikni shaxsda shakllangan g'oyalar tizimi orqali ko'rib chiqadi. U shaxsning o'zi haqidagi g'oyalarini (fazilatlarini, qadriyatlarini) va faoliyati (uni amalga oshirish uchun motivatsiyalar) o'z ichiga oladi. Ushbu tasavvurlar faoliyatning o'zi bilan to'qnashuv natijalariga qarab qo'llaniladi va tuzatiladi, ya'ni, ular shaxsiga yuzaga keladigan kasbiy muammolarni hal qilishda yordam berishi kerak. Bu identiklik mazmunini E.V.Dmitrienko "ijtimoiy va kasbiy" omillar majmui deb tushuntiradi. Ta'kidlash joizki, bo'lajak

pedagoglarda kasbiy faoliyatning samaradorligi uning o'z-o'zini qay darajada baholashi, shaxslararo munosabatlarga kirishish darajasi, shuningdek, ichki va tashqi motivlariga bog'liq bo'ladi. Kasbiy identiklikning o'zi tarixiy-madaniy omillar bilan belgilanishi, ya'ni u ijtimoiy va shaxs xususiyatlarini o'z ichiga olganligi sababli, bizningcha, bunday tushuntirishga hojat yo'q.

Kasbiy identiklik atamasi B.Olsen va R.Byukenan nuqtai nazariga ko'ra, muvqqat jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Mualliflarning fikricha, identiklik o'tmish, hozirgi va kelajakdagi barqaror kasbiy bilimlar birlashtirilganda paydo bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish malakalarini shakllantirish, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyili orqali amalga oshiriladi. E.E.Simanyukning ta'kidicha, bo'lajak o'qituvchi faoliyatiga xos mustaqil ishlash ko'nikmalari doimiy ravishda o'zgarib boradigan dinamik jarayon sanalib, u o'z mazmunida kasbiy rivojlanishni ongli boshqarish, o'z-o'zini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlari, kasbiy faoliyatning individual uslubi kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi[7]. Muallif ushbu ta'rifda, o'qituvchi faoliyatini baholashga qaratilgan ayrim kasbiy psixologik shart-sharoitlarga ishora qilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilardan B.I.Sarsenbaeva muvaffaqiyatli bo'lajak o'qituvchi faoliyatini tadqiq etar ekan, ularga xos bo'lgan quyidagi kasbiy psixologik xususiyatlarni ajratadi:

- Analitik va konstruktiv fikrlash usuli;
- Hissiy va ixtiyoriy barqarorlik;
- Stressga chidamlilik va ekstremal sharoitlar va harbiy xizmat sharoitlariga tez moslashish;
- Hamdardlik va tolerantlik;
- Psixofiziologik xususiyatlar;
- Akademik qobiliyatga ega bo'lish ya'ni boshqa sohalarga oid bilimlardan umumiy xabardorlik;
- O'quvchilarni sevis va hurmat qilish;
- Yuqori darajadagi pedagogik e'tiqod (mutaxassislarni tayyorlashdagi fidoyilik);
- Mafkuraviy, siyosiy, axloqiy va intellektual fazilatlar uyg'unligi va hokazo.

O.A.Shlyapnikova va Yu.S.Medvedevaning nuqtai nazariga ko'ra, kasbiy identiklik quyidagi ko'rinishlarda tushuntiriladi:

-birinchidan, mehnat sub'ektining kasbiy rivojlanishi ko'rsatkichi va uning kasbiy rivojlanishidagi yetakchi tendentsiyalari sifatida;

-ikkinchidan, emotsional holat sifatida;

-uchinchidan, kasbiy identiklikni ma'lum darajasiga erishishga qaratilgan funksional tizim shaklida amalga oshiriladigan kasbiy tuzilma sifatida. Tadqiqotchi N.L.Ivanova kasbiy identiklikning integral xususiyatini ta'kidlaydi, unga ko'ra, shaxsning kasbiy yo'nalganligi bilan birga kasbiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlari birgalikda o'sib boradi. Aytish joizki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy identikligi ularning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy faoliyatdagi samaradorligi birgalikda kasbiy identiklikni shakllantirib boradi.

2-jadval

Shaxsning ko'p omilli va subyektiv lokus nazorat so'rovnomalari natijalarining korrelyatsion bog'liqligi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti bo'yicha)

Shkalalar	Eksternal lokus nazorat	Internal lokus nazorat	Samimiylik
muloqotga moyillik	0,469*	0,597**	0,209
hissiy barqaror	0,477*	0,439*	0,487*
hukmronlikka intilish	0,136	0,476*	0,596**
ijtimoiy yetuklik	0,593**	0,468*	0,248
dadillik	0,459*	0,648**	0,137
ishonuvchanlik	0,585**	0,489*	0,474*

o'ziga ishonch	0,588**	0,678**	0,485*
mustaqillik	0,547**	0,214	0,669**
o'zini nazorat qilish	0,234	0,568**	0,449*
zo'riqish	0,483*	0,257	0,565**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishining psixologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyatga endilikda qadam qo'yimoqchi bo'lgan bo'lajak pedagoglarda shaxsning ko'p omilli va sub'ektiv lokus nazorat so'rovnomalari quyidagi birliklarni muloqotga moyillik shkalasi bilan, eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari, hissiy barqarorlik shkalasi bilan, eksternal lokus nazorat, internal lokus nazorat va samimiylik shkalalari, hukmronlikka intilish shkalasi bilan, internal lokus nazorat va samimiylik shkalalari, ijtimoiy yetuklik shkalasi bilan eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari, dadillik shkalasi bilan eksternal lokus nazorat va internal lokus nazorat shkalalari, ishonuvchanlik shkalasi bilan eksternal lokus nazorat, internal lokus nazorat

va samimiylik shkalalari, o'ziga ishonch shkalasi bilan eksternal lokus nazorat, internal lokus nazorat va samimiylik shkalalari, mustaqillik shkalasi bilan eksternal lokus nazorat va samimiylik shkalalari, o'zini nazorat qilish shkalasi bilan internal lokus nazorat va samimiylik shkalalari, zo'riqish shkalasi bilan eksternal lokus nazorat va samimiylik shkalalari aloqaga kirishgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kasbiy identiklikning asosiy vazifalari shaxsni professional hamjamiyatga qo'shilish, mutaxassis sifatida tan olinishi va hurmatini qozonish maqomga ega bo'lish, jamiyat me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish, kasbiy rivojlanish va martabani faol boshqarish orqali affiliativ ehtiyojlarni qondirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Никитин Э.М., Ситник А.П. Повышение квалификации учителей в 2030-е годы XX века // Методист. 2003, – №6. – С. 2 – 8.
2. Митина Л. М. Психология профессионального развития учителя М.: МПСИ, "Флинта", 1998. – С.79.
3. Е.В. Руденский Е.В. Социально-психологические деформации личности учителя // Мир психологии 1999, № 2. С. 169 - 174.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд Знание, 1996. – С.49.
5. Анцупов, А.Я. Понятийная схема описания психологического явления. / А. Я. Анцупов // Психология обучения. – 2017. – № 7. – С. 86-93.
6. Ulrich G. The professional identity of the human rights field officer. – Routledge, 2016. – С. 103.
7. Сыманюк Э.Э. Профессионально обусловленные деструкции педагогов // Мир психологии 2004, № 3. С. 202-207.



UDK: 004.852

Adham BOYMURODOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dosenti v.b
E-mail:boymurodovadham09@gmail.com

ChdPU dosenti v.v.b., PhD A.Xurramov taqrizi asosida

IMPORTANCE OF KNOWLEDGE CONTROL USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Аннотация

Artificial intelligence is used in education management to improve the learning process, improve student achievement, and simplify administrative tasks. This article examines the use of artificial intelligence in educational management, including its benefits and challenges.

Key words: Digitization, artificial intelligence, SI model, ChatGPT audio, integration, transcription.

ВАЖНОСТЬ КОНТРОЛЯ ЗНАНИЙ С ПОМОЩЬЮ СИСТЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

Искусственный интеллект используется в управлении образованием для улучшения процесса обучения, улучшения успеваемости учащихся и упрощения административных задач. В этой статье рассматривается использование искусственного интеллекта в управлении образованием, включая его преимущества и проблемы.

Ключевые слова: Отсифровка, искусственный интеллект, модель ИИ, звук ChatGPT, интеграция, транскрипция.

TA'LIM JARAYONIDA SUNIY INTELEKT TIZIMLARI YORDAMIDA BILIMLARNI NAZORATI QILISHNI AHAMIYATI

Аннотация

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonini yaxshilash, talabalar natijalarini yaxshilash va ma'muriy vazifalarni soddalashtirish uchun ta'limni boshqarishda qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektni ta'limni boshqarishda qo'llanilishini, jumladan uning afzalliklari va muammolarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, SI modeli, ChatGPT audio, integratsiya, transkripsiya.

Kirish. Jahon miqiyosida mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishiga ko'mak berayotgan axborot texnologiyalari sohalarga tadbir etish bo'yicha mamlakatizda amalga oshirilayotgan ishlar olib borilayotgan islohatlarda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilab berildi. Aynan ta'lim tizimida raqamli rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmonida ta'lim jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlil raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish, yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish belgilab qo'yildi[1].

Ta'lim – bu sun'iy intellekt texnologiyasini qo'llash uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadigan yana bir soha. Darhaqiqat, ta'limdagi AI innovatsiyasi ideallashtirilgan laboratoriya stsenariyalaridan yanada murakkabroq real

hayotdagi o'rganish kontekstlariga aylandi. Ta'lim texnologiyalari sanoatidagi kompaniyalar shaxsiylashtirilgan o'rganish imkonini beruvchi Individual Moslashuvchan ta'lim tizimini, sinf muhitini boshqarish, baholash, baholash va ikkinchi til muammosini hal qilishga yordam beradigan yordamchi o'qitish tizimini ishlab chiqdi; va talabalarni ro'yxatga olish va so'rovlar bilan shug'ullanishda beruvchi institut ma'muriyati tizimiga yordam beradi.

Doimiy rivojlanib borayotgan raqamli landshaftda ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi son-sanoqsiz sohalarda inqilob qildi. Ta'lim sohasida to'lqinlarni keltirib chiqaradigan shunday texnologiyalardan biri bu sun'iy intellektdir (SI). AI universitet tizimi monitoringi sohasida o'yinni o'zgartiruvchi vosita sifatida paydo bo'lib, institutlarga talabalar muvaffaqiyatini oshirish, ma'muriy vazifalarni soddalashtirish va shaxsiy yo'l-yo'riq va yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1955 yilda Jon Makkarti tomonidan kiritilgan AI atamasi muloqot qilish, fikr yuritish, o'rganish yoki muammolarni hal qilish kabi insonning turli kognitiv vazifalarini bajarish qobiliyatiga ega kompyuter sifatida ta'riflanadi. Sun'iy intellekt (AI) insonga o'xshash javoblarda o'ylash va harakat qilish uchun kompyuterlarga etarli intellektni taqdim etishga intiladi. Kompyuterlardan farqli o'laroq, inson o'z tajribasidan o'rganishi mumkin, bu ularga individual sharoitlarga qarab intellektual qarorlar qabul qilish imkonini beradi deyiladi Alabri, A., Al-Xanjari, Z., Jamoussi, Y. va Kraiem, N. "Shaxsiylashtirilgan elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning suhbatlarini o'rganish" nimli maqolada[2]. Yuqori darajali xususiyatlarni yo'q qilish uchun o'zgartirilgan Genetik

algoritmdan (GA) foydalangan va zaif talabalarni aniqlash uchun qarorlar daraxti algoritmini qo'llagan va shu bilan institutga talabalarining intilishini oshirish uchun choralarini ishlab chiqishga yordam berishini Chen N. "Avtomatik baholash tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda talabalarining ish faoliyatini bashorat qilish" nomli maqolasida[3].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Sun'iy intellekt (SI) bizning dunyomizni o'zgartiradi va ta'lim ham bundan mustasno emas. SI shaxsiylashtirilgan ta'limni yaxshilash, baholashni yaxshilash va o'qituvchilar uchun rejalashtirish vaqtini qisqartirishning yangi usullarini taklif qilib, o'qitish va o'rganishda inqilob qilish potentsialiga ega. Biroq, ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish, shuningdek, shaxsiy hayot, tarfakashlik va o'rganish tajribasini insoniyashtirish bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola sun'iy intellektning ta'limdagi potentsial foydalari va xavflarini o'rganadi va uning o'qitish va o'rganishga ta'sirini baholaydi[4].

- **Tahlil va natijalar.** Yororida ta'kidlanganidek sun'iy intellekt (SI) o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish kabi vazifalarni bajarishda mashinaning inson aqliga taqlid qilish qobiliyatidir. Ta'lim sohasiga kelsak, biz sun'iy intellekt haqida gapirganda, biz o'quvchilarning bilimini yaxshilash va shaxsiylashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalari va algoritmlaridan foydalanishni nazarda tutamiz.

SI talabalarga ko'proq onlayn va masofaviy imkoniyatlar va resurslarni taqdim etish orqali ta'limni yanada qulayroq qiladi va ularga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi.

Talabalar bilimni baholashda SI tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarini tezda tahlil qilishi mumkin. Shuningdek, ular talabalarining xohish-istaklarini batafsil bayon qilishlari mumkin, bu esa o'qituvchilar jamoasiga shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalarni taqdim etishda va pedagogik qarorlar qabul qilishni yaxshilashda yordam beradi.

Sun'iy intellekt yanada demokratiklashgan ta'lim va raqamli tenglikka intilishda qulay vosita bo'lishi mumkin bo'lsa-da, biz, barcha rivojlanayotgan texnologiyalar singari, xavfsizlik muammolari paydo bo'lishi mumkin bo'lgan orqa eshikka ega ekanligini ham hisobga olishimiz kerak.

Yuqoridagi mulohazani ba'zi misollarni ko'rib chiqadigan bo'lsak:

Oldingi bo'limlarda ko'rganimizdek, sun'iy intellekt ko'pincha katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar bilan oziqlanadi, agar noto'g'ri ishlatilsa yoki sizib chiqsa, foydalanuvchilarning maxfiyligi va xavfsizligiga xavf tug'dirishi mumkin.

SI modellari qo'llanilgan o'quv ma'lumotlariga asoslanib, qaror qabul qilish va ijtimoiy adolatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, SI tizimlari dizayn yoki amalga oshirishdagi xatolar tufayli hujumlar va ekspluatatsiyalarga qarshi zaif bo'lishi mumkin.

Va nihoyat, shuni ta'kidlash kerakki, talabalar topshiriqlar yoki imtihonlarni bajarishda aldash uchun ushbu yangi texnologiyalardan foydalanishlari mumkin.

Sun'iy intellekt (SI) qanday integratsiyalashganligi juda muhim, chunki u ta'limda mas'uliyatli va adolatli qo'llash orqali ularni almashtirishdan ko'ra, odamlarning o'zaro ta'sirini va qarorlar qabul qilishni kuchaytirishi kerak.

Bugungi asrda texnologiyaning jozibasi bilan qiziqib qolish oson. Sun'iy intellekt yoki sun'iy intellekt murakkab naqshlarni tezda tahlil qilish, sharhlash va hatto bashorat qilish qobiliyati bilan ushbu harakatning boshida turadi. Ba'zilar uchun sun'iy intellektning o'sishi an'anaviy ta'limni rad etishning yana bir sababi sifatida qaralishi mumkin. Nega buning uchun ilova mavjud bo'lsa, kvadrat tenglamalar yoki

kimyoviy bog'lanishning murakkab jarayoni bilan bezovtalanish kerak? Ammo bu nuqtai nazar kengroq, chuqurroq nuqtani o'tkazib yuboradi. Sun'iy intellekt inson intellektning o'rmini bosuvchi vosita emas, balki bizning tushunish va o'rgatish uslubimizni o'zgartira oladigan kuchaytiruvchi vositadir. U etakchi bo'lishi mumkin bo'lgan joyda talabalarining faoliyatini nazorat qilish, tushuncha berish va ta'limni tark etishni bashorat qilishdir.

Talabalar va o'qituvchilar sun'iy intellekt texnologiyalari bilan tobora o'zaro bog'langan kelajakka tayyorlash uchun sun'iy intellektni o'rganishlari kerak, jumladan SI tamoyillari, qo'llanilishi va axloqiy oqibatlarini tushunish.

SI ni ta'limga samarali integratsiyalash bo'yicha siyosat tavsiyalari SI ga yo'naltirilgan ishchi guruhlarini yaratish, SI savodxonligini oshirish, mas'uliyatli SI yo'riqnomalarini yaratish, professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va SI tadqiqotlari va ishlanmalarini o'z ichiga oladi.

Bilimlarni boshqarishning eng muhim muammolaridan biri bu kontentning har doim yangilanishini ta'minlashdir. Eskirgan ma'lumot qimmatli xatolarga, noto'g'ri qaror qabul qilishga va ish unumdorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. SI bu muammoni doimiy ravishda kuzatib borish va kontentni yangilash orqali hal qilishga yordam beradi.

Sun'iy intellektga asoslangan algoritmlar yordamida ta'lim muassasalari muayyan mavzuga oid o'zgarishlar, yangilanishlar va yangi ma'lumotlarni kuzatishi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizim bilimlarni boshqarish tizimlarini yangilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash uchun veb, yangiliklar tasmalari va ijtimoiy media platformalarini skanerlashi mumkin.

Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar kurslar, professor-o'qituvchilarning ish yuki, xonadan foydalanish va talabalarining xohishlariga oid katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plashi va tahlil qilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish orqali universitetlar modellar, tendentsiyalar va optimallashtirish uchun potentsial sohalarda haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu tushunchalar asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi, bu esa resurslarni yanada samarali taqsimlashga olib keladi.

Sun'iy intellektga asoslangan bilimlarni nazorat qilish tizimlarining yana bir muhim afzalligi - bu moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish qobiliyatidir.

CBning nutqdan-matnga dasturi ovozni tinglash va ovozni aniqlash texnologiyasidan foydalangan holda so'zmaso'z matn chiqishini yaratish orqali ishlaydi. Ushbu texnologiya orqali berilgan ma'ruza va talaba bergan javobini solishtirish orqali qanchalik darajada bilimga ega ekanligini bilish imkonini beradi. Xozirda ushbu texnologiya asosida Maestraning sun'iy intellekt transkripsiyasi vositasi audioni matnga 125+ tilda eng yaxshi transkripsiya aniqligi va tezligi bilan tarjima qiladi. Shuningdek xazirda mavjud texnologiya, ChatGPT audio yoki video fayllarni olishi va ularni yozma matnga transkripsiya qilishi mumkin. Bu an'anaviy ravishda inson transkripsionistlari tomonidan amalga oshirilgan jarayondir, lekin ChatGPT bilan jarayon avtomatlashtirilgan, ya'ni dasturiy ta'minot fayllarni tezroq va kamroq xatoga yo'l qo'yib transkripsiya qila oladi.

Xozirgi kunda sun'iy intellekt tizimi asosida dasturiy ta'minotlarda inson nunchini transkripsiya qilish uguruvchilari audiodan matnga insoniy aniqlik bilan aylantirish uchun eng zamonaviy chuqur neyron tarmoq modellaridan foydalanilmoqda.

Ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlar insonning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradigan sun'iy intellekt asosidagi

o'quv muhitlarini loyihalash va baholashga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, tadqiqotchilar sun'iy intellektning ta'lim natijalariga, faollik va motivatsiyaga ta'sirini, shuningdek, ta'limda SIDan foydalanish bilan bog'liq potentsial axloqiy va maxfiylik muammolarini o'rganishlari kerak[5]. Bundan tashqari, kelajakdagi tadqiqotlar raqamli tafovutni yopish yo'llarini o'rganishi va SI vositalari barcha talabalar uchun ochiq bo'lishini ta'minlashi kerak. Ushbu tadqiqot savollarini hal qilish sun'iy intellektdan ta'limda mas'uliyatli va samarali foydalanishni ta'minlaydi, barcha talabalar uchun teng va yuqori sifatli o'rganish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish o'qitish va o'rganish tajribasini oshirish potentsialiga ega, ammo bu o'zining qiyinchiliklaridan holi emas. SI ta'lim tajribasini shaxsiylashtirishi, o'qituvchilarning ish yukini kamaytirishi va o'quvchilarning ishlashi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin, ammo bu vazifalarning ta'lim qiymatini buzish va raqamli tafovutni kengaytirish xavfini

ham keltirib chiqaradi. Inson ko'nikmalarini rivojlantiruvchi, tezkor fikr mulohaza va yo'l-yo'riqni ta'minlaydigan va ta'minlaydigan vazifalarni loyihalash sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan vositalardan teng foydalanish zarur.

Ta'limda sun'iy intellekt (AI) o'zining afzalliklari va xavflariga ega. Bir tomondan, sun'iy intellekt o'quvchilar uchun o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish va ularning ishlashi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ko'rsatmalar haqida ma'lumot berishi va ta'lim natijalarini yaxshilashi mumkin. Biroq, boshqa tomondan, talabalar baholashda aldahlari yoki o'quv jarayonini chetlab o'tishlari mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan foydalanish raqamli tafovutni kengaytirishi va talabalarda insoniy ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligini ta'kidlashi mumkin. Ta'limda sun'iy intellektdan mas'uliyatli va samarali foydalanishni ta'minlash uchun o'qituvchilar ushbu xavflarni yodda tutishlari va ularni yumshatish uchun choralar ko'rishlari kerak.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/5030957>
2. A.X. Boymurodov. Ta'lim tizimlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy qilish // Academic research in educational sciences. 2023. №CSPU Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimlarda-raqamli-texnologiyalar-va-sun-iy-intellektni-joriy-qilish> (data obrasheniya: 26.04.2024).
3. Alabri, A., Al-Xanjari, Z., Jamoussi, Y. va Kraiem, N. (2019). Shaxsiylashtirilgan elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning suhbatlarini o'rganish. Ta'limda rivojlanayotgan texnologiyalar xalqaro jurnali (iJET), 14 (23), 98–124.
4. Huanyi Chen, Pol AS Uord //Predicting student performance using data from an auto-grading system// CASCON '19, November 4-6, 2019, Toronto, Canada
5. Ayala-Pazmiño, Mario. (2023). Artificial Intelligence in Education: Exploring the Potential Benefits and Risks. 593 Digital Publisher CEIT. 8. 892-899. 10.33386/593dp.2023.3.1827.



UDK: 1 (09)

Ziyadulla GAZIEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

JDPI professori, fal.f.d. (DSc) A.Saitqosimov taqrizi asosida

ASHTARXONIYLAR SULOLASI DAVRI MA'NAVIY VA ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ashtarxoniylar davrida Movarounnahrda ilm-fan, madaniy-ma'naviy hayot qanday bo'ldi degan savol berilganda, bu davrda mamlakatda dindorlar mavqeining oshib borishi va ularning davlat ishlariga aralashuvining kuchayishi, aniq fanlar (handasa, riyozat, tibbiyot, astronomiya) sohasida o'rta asrlarda erishilgan yutuqlarning asta-sekin unutilishiga, dunyoni, jamiyat taraqqiyotini tushuntirishda faqat ilohiy dunyoqarashning hukmronligi o'rnatilishiga olib keldi. Bu o'z navbatda diniy aqidaparastlikka, milliy biqlikka, ijtimoiy fikrning va dunyoviy taraqqiyotning bo'g'ilishiga sabab bo'ldi. Natijada ilm-fan, madaniyat beshigi bo'lgan Movarounnahr ashtarxoniylar davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan nochor o'lkaga aylandi.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniylar, davlat, sulola, amir, din, meros, siyosat, diniy olim, ta'lim, adabiyot, ma'naviyat, muhit, fan, madaniyat, taraqqiyot, turg'unlik tabobat, masjid, shifoxona, Buxoro, san'at, hurfikrlilik.

ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОЙ И ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ ДИНАСТИИ АШТАРХАНИДОВ

Аннотация

На вопрос, какой была наука, культурная и духовная жизнь в Моваруннахре в период Аштарханидов, повышению статуса религиозных людей в стране и их участия в государственных делах, постепенное продвижение средневековых достижений в области конкретных наук (рукотворчество, математика), медицина, астрономия) привели к ее забвению, к утверждению господства только божественного мировоззрения в объяснении мира и развития общества. Это, в свою очередь, привело к религиозному фанатизму, национализму, удушению общественной мысли и мирового прогресса. В результате Моваруннахр, колыбель науки и культуры, в эпоху Аштарханидов стал политически, экономически и культурно беспомощной страной.

Ключевые слова: Аштарханиды, государство, династия, эмир, религия, наследие, политика, религиовед, образование, литература, духовность, окружающая среда, наука, культура, развитие, застой, медицина, мечет, болнитса, Бухара, искусство, суэверия.

PECULIARITIES OF THE SPIRITUAL AND LITERARY ENVIRONMENT OF THE ASHTARKHANID DYNASTY

Annotation

When asked what science, cultural and spiritual life was like in Movarounnahr during the Ashtarkhanids period, the increasing status of religious people in the country and their involvement in state affairs, the gradual progress of medieval achievements in the field of concrete sciences (handiness, mathematics, medicine, astronomy) led to its oblivion, to the establishment of the domination of only the divine worldview in explaining the world and the development of society. This, in turn, led to religious fanaticism, nationalism, stifling of social thought and worldly progress. As a result, Movarounnahr, the cradle of science and culture, became a politically, economically and culturally helpless country during the Ashtarkhanid era.

Key words: Ashtarkhanids, state, dynasty, emir, religion, heritage, politics, religious scholar, education, literature, spirituality, environment, science, culture, development, stagnation, medicine, mosque, hospital, Bukhara, art, superstition.

Kirish. O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlardagi madaniy hayoti nihoyatda oz o'rganilgan. Vambri bu davrda madaniyat tanazzulga yuz tutgan edi, deb yozgan edi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Bu xususda O'rta Osiyo tarixining yirik tadqiqotchisi P. P. Ivanov fikrini keltirish o'rindir: "Darhaqiqat, O'rta Osiyoda eski madaniy an'analar XVI asrda ham, XVII asrda ham saqlanib qoldi. O'zbeklarning hukmron qatlami o'tmish madaniy an'alariga adovat ko'zi bilan qaramadi, aksincha ularni davom ettirish va rivojlantirishga intildi[4:85].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XVII-XVIII asrlarda ilm-fan, san'at va ma'rifatdan, asosan zodagon yuqori tabaqalari bahramand bo'ladilar. Shunga qaramay, muhim madaniyat durdonalari xalqning noma'lum san'atkorlari tomonidan yaratilgan edi. Mulkdorlarning nifoq va urushlari tufayli mehnat ahli ijod jarayoniga daxlsiz edi. Zahmatkashlar o'ziga xos madaniyat namunalari, chunonchi dostonlar, qo'shiqlar, ertaklar, maqollar to'qir, turli xil matolar, ro'zg'or buyumlari va boshqa narsalar yaratar edilar. Xalqning ma'naviy hayoti musulmon dinining aqidalari ostida kechar, ruhoniylar ba'zi diniy aqidalarga so'zsiz itoat qilishni talab

qilar, xalqni turli bid'atlar qarshisida ojiz, qo'rquvda tutishdan manfaatdor edilar[5].

Shularga qaramay xalq orasidan mashhur allomalar, faylasuf va tarixchilar, shoir va adiblar yetishib chiqdi. Ular o'z ijodida ilg'or an'analarni rivojlantirishga, xalq armon va orzularini haqqoniy ifodalashga harakat qildilar.

Falsafa va adabiyot bir-biri bilan uzviy bog'liq. Har ikkalasining tadqiqot manbai inson ruhiyati, uning tafakkur va qarashlaridir. Shu bois adabiy til adabiy uslubdagi xalqchillik hurfikrli mutafakkirlar ijodida ko'proq zuhur etar edi. Vafoiy, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Mulla Masti oxund, Nodir (XVII asr), Andalib, Roqim, Nishotiy, Huvaydo, Umar, Boqiy (XVIII asr) asarlarining tili, g'oyalar hamohangligiga ko'ra, bir-biriga yaqin turar edi.

XVII-XVIII asrlarda boshqa fanlarga nisbatan adabiyot, tarix, falsafa, tasviriy san'at, rassomlik rivoj topdi. Shu bilan birga tabiiy fanlar ham turg'unlikka uchragan yo'q.

Ba'zi tadqiqotlarda XVII-XVIII asrlarda ko'zga ko'ringan faylasuflar yashab ijod etmagan, degan fikr mavjud edi. Lekin oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar yuqoridagi fikrning noto'g'ri ekanligini isbotladi. Bu davrda

falsafa faniga katta hissa qo'shgan Yusuf Qorabog'iy, Mirzajon Sheroziy, Muhammad Sharif Buxoriy kabi yirik mutafakkirlar yetishib chiqdi.

Nasr va nazmdagi tarixiy asarlar juda balanparvoz hamda jimjimador yozilgan, podshoh va xonlar, ular atrofidagi a'yonlarga hamdu sano o'qilgan.

Ashtarxoniylarning inqirozga yuz tutgan davrida bir qancha asarlar yaratilgan bo'lib, ularda besh xonning va ular vorislarining shu suloladagi so'nggi oliy hukmdorlarning zo'rlab o'ldirilganligi bayon etilgan. Mualliflar "Muqimxon tarixi", "Ubaydullaxon tarixi" kabi asarlarida Buxoro hukmronlari va vorislari o'sha davr mushkullarini bartaraf etish imkoniga ega emasliklarini ta'kidlagan edilar.

Tibbiyotga muayyan qiziqish ko'zga tashlanadi. Subxonqulixon Buxoroda maxsus madrasa-shifoxona bunyod ettirgan bo'lib, unda bemorlar shifo topgan, maxsus tibbiyot kutubxonasi bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida Subxonqulixon kutubxonasidagi tibbiyotga oid xon tanlagan yoki o'g'li yozgan bir qancha noyob kitoblar saqlanmoqda. Xonning o'zi Nishoniy taxallusida she'rlar yozgan, o'z atrofiga shoir va olimlarni yiqqan, ommabop tibbiy asarlar yaratgan.

Matematika, astronomiya, ayniqsa, tibbiyot, tarixnavislik va adabiyot sohasida bir qancha yangi asarlar yaratildiki, bular XVII asr birinchi yarmidagi o'zbek xalqi ma'naviy merosining buyuk namunalari sifatida qayd etiladi. Boboxo'ja ibn Xoja Orif Samarqandiy, Mullo Tursun Faroyiziy Samarqandiy falakiyot sohasida Subxonqulixonning "Lubb ul-lavoyih ul-qamar fil-ixtiyorot", "Ihyo at-tabibi Subxoniy", Sa'id Muhammad Tohir ibn Abulqosimning "Ajoyib ul-taboqot" asarlari shu davrdagi ko'zga ko'ringan asarlar sirasiga kiradi.

Ashtarxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi mirzo Sodiq Munshiyning «Dahmai shohon» majmuasi, Muhammad Balxiyning "Subxonqulinoma" masnaviyasi, Muhammad Amin Buxoriyning "Muhit ut-tavorix", Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi" Muhammad Yusuf munshining "Muqimxon tarixi" va boshqa asarlar shu davr madaniy hayotining ajoyib namunalaridir[6].

Bu davrda Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, So'fi Allohoyr, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi ijodkorlarimiz o'z asarlari bilan o'zbek adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo'shdilar. Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" asari Subxonqulixon davri davlatchiligi tarixi va tuzumi haqida ma'lumot bersa, Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro", Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-as'hob" kabi tazkiralari davr ilmiy muhiti va ijodkorlari haqidagi asarlardir. Ularda 200 ga yaqin ijodkorlar hayoti va ijodi haqida fikr yuritildi.

Ashtarxoniylar davrida adabiyot, san'at va siyosiy tizim haqida Fitrat quyidagilarni yozgan: So'fi Ollohyor, Mashrab Namangoniy, Turdi va Huvaydo kabi usluban bir-biriga yaqin shoirlar bu davrning hosiloti edi. O'zbek o'lkasining kundan-kun iqtisodiy tushishi, idora birligining saqlashig'a mone' bo'ldi. Xorazm o'lkasi Shayboniyxonning o'limidan keyin ajralib, bir oz vaqt Erong'a tobe' bo'ldi va tezlikda undan qutilib, mustaqil bir o'zbek hukumati qurg'on edi. Buxoroda hukumat shayboniylardan ashtarxoniylarga o'tgach, yana bir oz kuchsizlangani uchun Xorazm hukumatining ancha tajovuzga uchradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ashtarxoniylarning oxirgi hukmdori bo'lgan Abulfayzxon zamonida Farg'ona ham ayrila boshladi. Hukumat Abulfayzxonning mang'it sulolasig'a o'tg'andan keyin Farg'ona o'zbek hukumati kuchaya boshladi. Mana shunday bo'lib, o'zbek o'lkasi uch mustaqil va raqib markazga aylandi. Biz bu davrda o'zbek adabiyoti va, umuman, o'zbek san'atining shul uch markazga bo'ling'anini ko'ramiz[2].

Xonliklar hududidagi xalq norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg'or fikr, yangilik diniy mutaassiblarning ta'qibiga uchrar edi. Bu paytda nafaqat boshqa hududlar bilan, hatto Qo'qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning o'zaro aloqasi yo'q edi. Bu o'z navbatida O'rta Osiyo ilm-fanining turg'unlikka, hatto tanazzulga e'tibor umuman yo'qoldi. O'rta Osiyo xalqlari Yevropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo'lib, orqada qolib ketdi[6]. Shayboniylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan ashtarxoniylar zamonining dastlabki o'n yilliklari davomida Buxoro xonligi tomonidan xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar birmuncha tuzuk yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, keyinchalik o'zaro ichki nizolar tufayli bu soha oqsay bordi. Uch xonlik zamoniga kelib esa davlatchiligimiz ilgarigiday kuch-qudratga ega bo'lmagani sababli elchiligimizdan ham shukuh ketgan edi[1].

Shunga qaramay, Movarounnahrda, avvalgi davrlardagi kabi adabiyot va tarixiy fanlar, me'morchilik va tasviriy san'at rivojlandi. She'riyat ravnaq topdi. Shu o'rinda Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" Mutribiyning "Tazkirati shuaro" asarlaridagi ta'limotlar fikrimizning dalili bo'la oladi. Ularda Samarqand, Buxoro, Toshkent va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida yashab ijod etgan adabiyot va ilm-fan ahllarining nomlarini uchratamiz. Bunday tazkiralarning maydonga kelishining o'zi xalqning madaniy saviyasi qanchalik yuqori bo'lganligini bildiradi[3].

-Tahlil va natijalar. Ashtarxoniylar davlati turkiy va fors-tojik xalqlarining uyg'un ittifoqidan tashkil topgan edi. Shu boisdan turmushda ham, adabiyotda ham o'zbek va tojik tillari keng qo'llanib kelingan. Bu xonliklarda yashovchi xalqlar ikki tilda bemalol o'zaro muloqotda bo'lganlar, quda-andachilik qilganlar. An'anaga ko'ra esa fanda, adabiyotda, maktabda tojik va arab tillarining nufuzi saqlanar, idora ishlarida tojik tilini qo'llash davom etgan. Ashtarxoniylardan bo'lgan Subxonqulixon saroyida 1692 yilda Muhammad Bode' as-Samarqandiy tomonidan Buxoro poeziyasining antalogiyasi tuzilgan. Bu tazkirada o'sha davr adabiy arboblardan 150 nafari to'g'risida tarjimai hol ma'lumotlari berilgan. Subxonqulixonning o'zi ham ilm-ma'rifatli hukmdor edi. U ko'proq tibbiyotga qiziqardi. Subxonqulixon Buxoroda maxsus shifoxona (dori-ush-shifo) qurdiradi. Unda bemorlar davolanar va tibbiyot fani o'rganilar edi. Subxonqulixon yaxshigina shoir ham bo'lgan. Subxonqulixon kattagina shaxsiy kutubxonaga ega bo'lgan va unda ko'plab noyob kitoblar saqlangan. Ma'rifatparvar xonlar saroyida to'plangan olimlar, shoir va adiblar ilm-fanning turli yo'nalishlari bo'yicha ijod qildilar va yozgan asarlari bilan jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shdilar.

Ammo eng muhim tomoni shundaki, bunyodkor me'morlar, tarhandozlar, muxandislar, o'ymakorlar, musavviru naqqoshlar hukmron zodagonlar manfaatini ko'zlab emas, balki o'z hunar, san'atlarini avlodlarga meros qoldirish uchungina urinar edilar, imkoniyat topganlarida devorlar, peshtoqlarga o'z muborak nomlarini yozib qo'yadilar. Biz buni "Sherdor" madrasasining darvozasi o'rtasidagi peshtoq devorlarida "amali Abdurazzoq", "amali Avazmuhammad" nomlaridan ham o'qib olamiz[7].

Darveshali Changiy "Sherdor" va "Tillakori" madrasalari bunyod etilayotgan yillarda o'zining 12 maqom (bob) dan tashkil topgan "Risolai musiqiy" (Tuhfatus-surur) traktatini yaratdi[4].

Bu kitobda muallif ustod Rudakiy, Abdulqodir Noyi, Xisrav Dehlaviy, mavlono Mirak Changiy Buxoriy, mavlono Qosim Rabboniy, Pahlavon Kotibi Nishopuriy, mavlono Sohob Balxiy, Mirxoja Ayyub, Abdulbarakat Shahrisabziy kabilar haqida iliq gaplar aytdi. Abdurahmon Jomiy, Xoja Abdullo bin Muhammad Marvorid, Alisher Navoiy, Shohquli G'ijjak, Hasanxoja Nisoriylarning musiqaga doir ta'limotlari tilga olindi. Zamondoshlari ustod Abdulla Noyi, ustod Darvesh

Hiraviy, sulton Muhammad Tanbur, Hofiz Sobir Ko'k, Husayni Udiylarning xizmatlarini ta'rif etdi[7].

Xulosa va takliflar. XVII-XVIII asrlarda ilm-fan rivojining darajasi keskin pasayib ketdi. Shunga qaramay taraqqiyotning tarixiy odimini to'xtatib bo'lmaganidek, ma'naviy boyliklarning tarqalishi va yig'ilishi jarayoni davom etdi. Bu davrning ilg'or kishilarini Ulug'bekning ilmiy g'oyalari, Jomiy va Navoiyning hayratomuz asarlari ruhlantirar edi. Ular ilm-fan ravnaqi, inson bilimi ufqlarini kengaytirish uchun islom va tasavvuf oqimining ba'zi aqidalariga, g'oyalarga qarshi kurash olib bordilar, o'z asarlarida yerdagi hayot go'zalliklarini tarannum etdilar.

Hurfiqlar madrasalardagi ta'lim tarbiya sistemasi, tarixnavislik, xalq kitoboti va adabiyotda ham mavjud edi. Chunonchi, masjid huzuridagi maktablar, madrasalarda, asosiy mashg'ulotlar islom ta'limoti asosida haftiyak, Qur'on, chor kitob o'qitish, hadislardan bahs etish, "Shamoil-an-Nabi", "Me'roj-un-nubuvvat", "Sharhi viqoya" singari kitoblarni mutolaa ettirish yo'sinida davom ettirilar, lekin dunyoviy, hayotiy masalalarga qiziquvchi ayrim shoirlar Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlarini ko'proq o'qir edilar. Mana shu ulug'-muborak zotlarning dunyoviy fikrlaridan ular muhim g'oyalarni o'rganib, kelajakka umid bilan boqar edilar.

ADABIYOTLAR

1. Abduqahhor Ibrohimov. Bizkim, o'zbeklar. Toshkent, "Fan" 2001.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Ma'naviyat, 2000.
3. Akademik M. M. Xayrullaev tahriri ostida. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Toshkent, "O'zbekiston", 1995.
4. Ivanov P. P. Ocherki po istorii Sredney Azii. Moskva. Vostochnaya literatura, 1958.
5. M. Nuritdinov. Yusuf Qorabog'iy va O'rta Osiyoda XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-falsafiy fikr. Toshkent, "Fan", 1991.
6. R. H. Murtazaeva, B. J. Eshov, B. Joldasov, M. U. Tojjeva, M.M. Haydarov, N. Polvonov, Q. Rajabov, A. Odilov. O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000.
7. V. Abdullaev. O'zbek adabiyoti tarixi. III tom, O'zbek adabiyoti tarixi.III jild. Toshkent, Fan, 1978.



UDK: 37.091.3

Dilnoza GAYRATOVA,

Uzbekistan State University of World Languages English language-2 Department of English language integrated course №2

E-mail: dilnoza5412@gmail.com

On the basis of the revision of the PhD, dosent G. Nosirova

MAXIMIZING STUDENT TALKING TIME: STRATEGIES FOR INCREASING ACTIVE PARTICIPATION IN THE CLASSROOM

Annotation

Maximizing student talking time is essential for creating a dynamic and engaging learning environment in the classroom. Active participation from students not only enhances their understanding of the material but also fosters a sense of ownership and responsibility for their own learning. This article explores various strategies and techniques that educators can use to increase student talking time in the classroom. From group discussions and peer teaching to interactive activities and technology integration, there are numerous ways to encourage students to actively engage in dialogue and express their thoughts and ideas. By implementing these strategies effectively, teachers can create a more interactive and student-centered learning experience that promotes critical thinking, collaboration, and communication skills.

Key words: student talking time, active participation, classroom strategies, student engagement, group discussions, peer teaching, interactive activities, technology integration, student-centered learning, critical thinking, collaboration, communication skills.

TALABALARNING SUHBAT VAQTINI MAKSIMAL DARAJADA OSHIRISH: SINFDA FAOL ISHTIROK ETISHNI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya

Sinfda dinamik va jozibador o'quv muhitini yaratish uchun talabalar suhbat vaqtini maksimal darajada oshirish juda muhimdir. Talabalarning faol ishtiroki nafaqat materialni tushunishni kuchaytiradi, balki o'z bilimlariga egalik va mas'uliyat hissini ham oshiradi. Ushbu maqolada o'qituvchilar o'quvchilarning sinfda gaplashish vaqtini samarali bo'lishini ta'minlash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan turli strategiya va usullarni o'rganadi. Guruhdagi munozaralar va tengdoshlarni o'qitishdan tortib, interfaol faoliyat va texnologiya integratsiyasigacha talabalarni muloqotda faol ishtirok etishga, o'z fikr va g'oyalarini ifoda etishga undashning ko'plab usullari mavjud. Ushbu strategiyalarni samarali amalga oshirish orqali o'qituvchilar tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ko'proq interfaol va o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim tajribasini yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: talabalarning suhbat vaqti, faol ishtiroki, sinfdagi strategiyalar, o'quvchilarning faolligi, guruh muhokamalari, tengdoshlar bilan o'qitish, interfaol faoliyat, texnologiya integratsiyasi, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot qobiliyatlari.

УВЕЛИЧЕНИЕ ВРЕМЕНИ РАЗГОВОРА УЧАЩИХСЯ: СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОГО УЧАСТИЯ В КЛАССЕ

Аннотация

Максимальное увеличение времени разговора учащихся имеет важное значение для создания динамичной и увлекательной учебной среды в классе. Активное участие учащихся не только улучшает понимание материала, но и способствует развитию чувства причастности и ответственности за собственное обучение. В этой статье рассматриваются различные стратегии и методы, которые преподаватели могут использовать, чтобы увеличить время разговоров учащихся в классе. От групповых обсуждений и взаимного обучения до интерактивных занятий и интеграции технологий - существует множество способов побудить учащихся активно участвовать в диалоге и выражать свои мысли и идеи. Эффективно реализуя эти стратегии, учителя могут создать более интерактивный и ориентированный на учащихся процесс обучения, который способствует развитию критического мышления, сотрудничества и коммуникативных навыков.

Ключевые слова: время разговора учащихся, активное участие, стратегии в классе, вовлечение учащихся, групповые дискуссии, взаимное обучение, интерактивная деятельность, интеграция технологий, личностно-ориентированное обучение, критическое мышление, сотрудничество, коммуникативные навыки.

Introduction. In the modern classroom, fostering active student participation is crucial for promoting engagement, critical thinking, and collaboration among students [4]. One effective way to achieve this is by maximizing student talking time. By providing opportunities for students to actively contribute to discussions, share their perspectives, and engage in peer teaching, educators can create a dynamic learning environment that enhances student learning and promotes communication skills [3].

This article explores various strategies and classroom techniques that educators can use to increase student talking time. From interactive activities and group discussions to technology integration and student-centered learning approaches, these strategies aim to empower students to take ownership of their learning and develop essential skills for success in the 21st century. By prioritizing student engagement and encouraging active participation, educators can create a vibrant and interactive classroom environment

that fosters a love for learning and promotes academic achievement [5].

Literature review. Maximizing student talking time and increasing active participation in the classroom are essential components of effective teaching and learning. Research has shown that when students are actively engaged in discussions and interactions, they are more likely to develop critical thinking skills, deepen their understanding of content, and build stronger connections with their peers and teachers. In this literature review, we will explore various strategies and practices that educators can use to promote student engagement and maximize talking time in the classroom.

One key strategy for increasing student participation is to establish a positive classroom environment where students feel safe, respected, and valued. According to Wang and Holcombe (2010), creating a supportive and inclusive atmosphere can enhance student motivation and willingness to engage in discussions [2]. Teachers can foster a sense of community by encouraging collaboration, promoting active listening, and modeling respectful communication behaviors. By building strong relationships with students and creating a culture of trust and mutual respect, educators can create a conducive environment for meaningful dialogue and interaction.

Стратегия действия есть особый документ, основанный на глубоком понимании ответственного своевременного шага к новым вызовам времени в глобальном мировом пространстве. На сегодняшний день Стратегия развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы и ее семь принципов – это новая парадигма задач, которая детерминирована вызовами современного глобального мира в XXI веке. В связи с этим, особо отметим, в практической деятельности государства, общества необходимо реализовать парадигму «управляемого развития». Именно она сможет стать главным механизмом в регулировании социальных, политических, экономических, культурных, морально-нравственных устоев и вести общество по пути прогресса. Государства должны соревноваться не за высокий уровень потребления, а, в первую очередь, за высокий уровень развития человеческого сознания, морального совершенствования. Когда человек и «его многообразные способности будут реализовываться посредством

соответствующих институтов, созданных для его развития, а не тогда, когда человек становится средством служения и подчинения им, он будет развиваться в подлинном человеческом смысле. В свою очередь, социальные, экономические, правовые и другие институты, функционирующие в обществе, будут соответствовать своему действительному предназначению и будут «правильными», если они окажутся способными реализовывать сущностный смысл человеческого бытия и предназначение человека» [10, 23].

Более того, в Узбекистане проводится перспективная стратегия «Цифровой Узбекистан - 2030». Цифровые технологии играют определяющую роль в принятии мировым сообществом новой модели цивилизационного развития, современной модели жизнеустройства, служащей во благо общества, его экономико-политическому процветанию, интересам каждого человека вообще. Мы считаем, что научную парадигму в государстве можно назвать эволюционно-синтетической, направленной в инновационно-прорывную модель. Она основана на следующих важных положениях:

1. Удовлетворение высших потребностей и интересов каждого гражданина Узбекистана, таких как физическое, духовное, интеллектуальное совершенствование и достижение высокого уровня социального сознания. Правильная постановка целей и их выполнение в человеческом социуме ведет к совершенствованию человеческой системы и состоянию счастья. Более того, резолюция № 65/309, принятая Генеральной Ассамблеей ООН в 2011 году носит название «Счастье: целостный подход к развитию» [11]. В ней отмечается: «будучи одной из общечеловеческих целей и надежд, счастье олицетворяет всю совокупность целей в области развития, сформулированных в Декларации тысячелетия... неустойчивые модели производства и потребления, могут препятствовать устойчивому развитию».

2. Данный постулат несет синергетический эффект, в частности, утверждает, что развитие глобального социума нужно изучать с позиций холизма, системности, комплексности и на основе интеграции всех наук и духовных познаний в единое междисциплинарное познание и лишь на основе осознания установленной цели. Мы считаем, что синергетика как подход способна устранить сложность и неясность существующих и существовавших проблем в развитии государства и различных его сферах, а также хаос в их развитии. Более

того, она поможет раскрыть причины возникновения этих проблем, а также способы их преодоления и устранения. Так, новая научная модель развития станет теоретической базой для других наук, а также духовных знаний.

Время является аналитическим показателем и единым критерием эффективности развития человеческой системы. Процессы, происходящие в социальной действительности, должны рассматриваться междисциплинарно как по отношению к цели развития посредством единой экспоненты «время», так и посредством единого критерия результативности - «время между» целью и тем реальным бытием, в котором находится общество. Приближение к осуществлению цели человеческого общества и каждого его индивидуума тем ближе, чем меньше «время между». Это своего рода основа для понимания модели развития, которая безусловно имеет шанс заменить существующую.

Заключение. В заключении можно подчеркнуть, что изучение парадигм развития в контексте уникальных культурных аспектов играет важную роль в формировании стратегий развития современных обществ. Культурные особенности могут оказывать значительное влияние на выбор путей развития и реализацию стратегий, и поэтому их учёт является ключевым аспектом успешного развития.

Применительно к Узбекистану, стране с богатой историей и культурным наследием, важно учитывать уникальные аспекты его культуры при разработке и реализации стратегий развития. Это включает в себя не только адаптацию современных подходов к уникальным культурным контекстам, но и использование культурного наследия как ресурса для стимулирования развития экономики, туризма, образования и других сфер.

Узбекистан, стремясь к интеграции в глобальное сообщество, в то же время может использовать свои культурные ценности и традиции в качестве уникального конкурентного преимущества на мировой арене. Поддержка и развитие культурных и креативных индустрий, сохранение и продвижение национального наследия могут способствовать не только культурному обогащению страны, но и стимулировать экономический рост и социальное развитие. Таким образом, понимание парадигм развития в контексте уникальных культурных аспектов является ключом к созданию устойчивого и гармоничного общества, в котором каждый человек может реализовать свой потенциал, а культурное наследие страны является источником вдохновения и прогресса.

ЛИТЕРАТУРА

1. Гердер И. Идеи к философии истории человечества. - М., 1977.
2. Бердяев Н.А. Философия свободного духа. - М., 1994.
3. Тойнби А. Постигание истории. - М., 1991.
4. Шпенглер О. Закат Европы. - М., 1993.
5. Элиас Н. О процессе цивилизации: Социогенетические и психогенетические исследования. -М., 2001.
6. Каку М. Физика будущего. - М.: Альпина нон-фикшн, 2012.
7. Сухонос С.И. Метацивилизация. - М.: Книга по Требованию, 2011.
8. Моисеев Н.Н. О необходимых чертах цивилизации будущего. -М.: МНЭПУ, 2009.
9. Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. - М.: АСТ, 2015.
10. Идеалы аль-Фараби и социогуманитарное развитие современного Казахстана. Коллективная монография / Под общ. ред. З.К. Шаукеновой. - Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2014. –С.23.
11. Счастье: целостный подход к развитию. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей ООН 19 июля 2011 года. Электронный ресурс: <https://undocs.org/en/A/RES/65/309>. Дата обращения 29.03.2024.



Muxiddin DONIYOROV,
TDPU "Biologiya va uni oqitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: doniyorovmuxiddin1987@gmail.com

Tibbiyot fanlari nomzodi N.Jo'rayev taqrizi asosida

BIOLOGIYADAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqola biologiyani o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali o'rgatish metodikasini takomillashtirish haqida bo'lajak o'qituvchilari uchun foydali maslahatlar berilgan. Bu maqolada amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning aniq tartibi va qoidalariga muvofiq o'quvchilarning mustaqil o'rganishlarini ta'minlaydi. Biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda zarur bo'lgan holatlarda, ko'plab qo'llanmalar va darsliklar tayyorlashda ham qo'l keladi. Xulosa qismida maqola haqida umumiy ma'lumotlar va amaliy mashg'ulotni metodikasini o'rganish uchun asosiy usullar va metodlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Amaliy mashg'ulotlar, PISA, o'quv dasturlari, qo'llanmalar, mashg'ulotlar, xalqaro baholash, jihozlar, mustaqil o'rganish, samarali jarayon, aniq tartiblar va qoidalar, biologiya nazariyasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАЧ PISA ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО БИОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье даны полезные советы будущим учителям по совершенствованию методики преподавания путем проведения практических занятий по преподаванию биологии. Настоящая статья обеспечивает самостоятельное обучение студентов в соответствии с конкретным порядком и правилами организации практики. В случаях, когда необходимо организовать практические занятия по преподаванию биологии, также пригодятся многие пособия и учебники.

Ключевые слова: Практические занятия, PISA, учебные программы, пособия, упражнения, международная отсценка, оборудование, независимое обучение, эффективный процесс, четкие процедуры и правила, биологическая теория.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING PISA TASKS IN ORGANIZING PRACTICAL LESSONS IN BIOLOGY

Annotation

This article provides useful advice for future teachers about improving the teaching methodology by conducting practical exercises in teaching biology. This article ensures independent learning of students in accordance with the specific order and rules of organizing practical training. In cases where it is necessary to organize practical training in the teaching of biology, many manuals and textbooks are also useful. In the conclusion, general information about the article and the main methods and methods for studying the methodology of practical training are given.

Key words: Practical exercises, PISA, curricula, manuals, exercises, international assessment, equipment, independent study, effective process, clear procedures and rules, biological theory.

Kirish. Zamonaviy ta'lim oldiga faqat ma'lum hajmdagi bilimlarni egallash bilan bir qatorda uni tushunish, mantiqiy fikrlash orqali bilimlarni mustaqil egallash hamda uni amaliyotda joriy etish vazifalari ham qo'yiladi. O'quvchi shaxsini ijtimoiy faolligi va amaliy faoliyatga yo'llash uchun umumta'lim maktablari biologiya darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanilish muhim ahamiyat egadir.

Maktab biologiya o'quv predmetida o'rin olgan amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar tomonidan egallangan nazariy bilimlarni bilimlarini amaliy mashg'ulotlarni bajarishda PISA topshiriqlaridan ham foydalanish fanga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshirishiga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning aniq tartib va qoidalariga metodik jihatdan yondashish o'quvchilarning faoliyatini tartibga soladi va ishni bosqichma-bosqich bajarishga yo'naltiradi[1].

Biologiya o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, chunki biologiya mavzularini nazariy jihatdan tushunish amaliy mashg'ulotlarni samarali bajarishga imkon beradi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda, o'rta qo'yilgan mummoni mazmun

mohiyatiga chuqur kirib borishga imkon beruvchi va samarali jarayondir. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikma hosil bo'ladi va jarayonni mustaqil amalga oshirish orqali biologiya bilimlarini yanada yaxshilash imkoniga ega bo'ladi.

O'quvchilarning biologiyadan egallagan bilimlarini baholash uchun biron bir sinovlar tashkil etishingiz mumkin. Bu sinovlar o'quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda tuzilishi kerak, shuningdek, sinov topshiriqlari va javoblarning aniqligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun malakaviy ko'rinishda tayyorlangan turli xil ko'rgazmali qurollar tayyorlash kerak.

Biologiya fanini o'rganishda amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning turli munozaralarda ishtirok etish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi bilan birga, ularning bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali oshirishga erishish mumkin. Bu mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni bilim olishga imkon beruvchi zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanish jumladan xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni bilimlari ish natijalariga qarab baholanadi, shuningdek ularning amaliy mashg'ulotdagi faoliyati va bajargan mashg'ulotlar soni

hisobga olindi. Bu baholar o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari va mashg'ulotni bajarishda o'zlashtirgan yutuqlari haqida ma'lumot beradi. Biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikalarining rejalashtirilishi va yangilanishi shart hisoblanadi. Bu usulni o'quvchilarning baho olishlariga qarab yanada yaxshilash va mustaqil o'rganishni ta'minlash uchun amalga oshirishingiz kerak bo'ladi. Umuman olganda, biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi o'quvchilarning amaliyotda o'rganishlarini yanada samarali qilish uchun juda muhimdir.

Biologiya fanini o'qitishda metodikasida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha bir nechta o'quv dasturlari mavjud. Bu dasturlar o'quvchilarga tushuntirish uchun amaliy ko'nikmalarni amalda qo'llash bilan birga biologiyani nazariy jihatdan o'rganishlariga ham yordam beradi.

Biologiya o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi tayyorlash uchun laboratoriya xonalarga ehtiyoj bor. Laboratoriya xonalarining to'liq jihozlanganligi, yetarlicha maddalar, reaktivlar va jihozlar bilan bog'langan holda o'quvchilarning amaliy ishlarini bajarish tartib qoidalarini tushuntirish zarurdir. Biologiyadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasiga oid ko'rsatmalar tayyorlash yoki turli mualliflar tomonidan yozilgan qo'llanmalarga o'quvchilar e'tiborini qaratish muhimdir. Biologiya fanini o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar kam. Shu sababli bo'lajak biologiya o'qituvchilari uchun amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasiga oid bilimlarni chuqur egallashlari lozim. Zaruriyat bo'lganda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni o'zlarini ishlab chiqishga o'rganishlari kerak [5].

O'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil qilish va baholash o'quvchilarning mustaqil o'rganishlarini yanada samarali qilish uchun juda muhimdir. Baholashlar o'quvchi yutuqlariga qarab beriladi va ularning yanada yaxshilanishiga yordam beradi. Biologiya fanini amaliy mashg'ulotlari orqali o'rganish metodikasini o'qitishda o'qituvchi juda ko'p ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi. Umuman olganda, mavzuga taaluqli qo'shimcha ma'lumotlarni ilovalarning shaxsiy rasmiy saytlari yoki kutubxonalarda topishingiz mumkin.

Biologiya fanini amaliy mashg'ulotlari orqali o'rgatish metodikasi tayyorlashda, quyidagi bosqichlarni amalga oshirish kerak:

- *O'quvchilarning ma'lumotlarini baholash:* Biologiya fanini o'rganayotgan o'quvchilar amaliy mashg'ulotlar uchun to'liq tayyorgarlik ko'rish kerak. Shu sababli, siz o'quvchilarning biologiya bilimlarini baholashga harakat qilishingiz zarur.

- *Mashg'ulotlar va jadvallar tayyorlash:* Biologiya fanini amaliy mashg'ulotlari orqali o'rgatish metodikasini tayyorlashda, o'quvchilarga o'zlashtirishlari uchun yetarlicha sharoit va samarali mashg'ulotlar tayyorlash kerak. Shuningdek, ularni bir nechta amaliy mashg'ulotlarning jadvalariga joylashtirish ham lozim;

- *O'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlash:* Biologiya fanini o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi tayyorlash uchun ko'plab qo'llanmalar va darsliklardan foydalaniladi. Bo'lajak biologiya o'qituvchisi bu qo'llanmalarni to'plashi va o'quvchilarga tavsiya qilishi kerak bo'ladi;

- *Kerakli jihozlar tayyorlash:* Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyalar o'quvchilarning bilimlarini amaliy jarayonda oshirishlari uchun zarur bo'lgan jihozlar va texnikalardan tashkil topgan holda to'liq jihozlangan bo'lishi lozim;

- *Mashg'ulotlar va laboratoriyalardagi ish jarayonini nazorat qilish:* Biologiya fanini amaliy mashg'ulotlari orqali o'rgatish metodikasi o'rganishda, birinchi navbatda mashg'ulotlar va laboratoriyalarga yo'naltirilgan ishlarni talab darajasida amalga oshirilishi kerak. Bu sababli o'qituvchi vazifasi - amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyalarda amalga oshiriladigan ishlarni talab darajada bajarish jarayonini nazorat qilishi kerak;

- *O'quvchilarning yutuqlarini baholash:* O'quvchilarni baholash o'quvchilarning biologiya bilimlarini yanada oshirishiga yordam beradi. Siz o'quvchilarning baholari va yutuqlari haqida yaxshi ma'lumotga ega bo'ling va ularni yanada yaxshilash uchun qo'shimcha maslahatlar bering. Biologiya fanini o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasini tayyorlash jarayoni bir nechta ustunliklarga ega. Bu jarayon orqali siz o'quvchilarning biologiya bilimlarini oshirishlariga yordam berishingiz va ular faoliyatini yanada yaxshilashingiz mumkin.

Amaliy mashg'ulot - maxsus jihozlangan o'quv laboratoriya xonasida olib boriladi, o'qituvchi ishning maqsadini tushuntiradi va o'quvchilarni topshiriqni amaliy bajarishga jalb qiladi, ishning tartibi bilan tanishtiradi. Amaliy mashg'ulotda bajarilishi kerak bo'lgan amallar aniq o'rnatilgan tartibda amalga oshirilishi talab etiladi. Biologiyani fanini chuqur o'rganishda laboratoriya ishlarini olib borishi muhim ahamiyatga ega. Yangi bilim va amaliy konikmalarni shakllantirish, amaliy o'qitish usullaridan foydalanish laboratoriya ishining asosiy mohiyati hisoblanadi. Laboratoriya ishini biologik ob'ektlardan, ko'rgazmali qurollardan, biologik moslamalar va materiallardan mustaqil foydalanish kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirish bilan birgalikda nazariy bilimlarni qo'llash, chuqurlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyat deb tariflash mumkin.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish asosan quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. Amaliy ish yuzasidan vazifalarni belgilash;
2. O'rganilayotgan material yoki ob'ekt tarkibi xususiyatlari haqida malumot va ko'rsatmalar berish.
3. Tajribalarni mustaqil bajarishga o'rgatish.
4. Tajriba yuzasidan olingan natijalarni taxlil qilish, xulosalarni shakllantirish.
5. Olib borilgan tajriba yuzasidan yakuniy xulosa qilish hamda keyingi lamaliy ishishi yuzasidan vazifa berish .

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarni bajarishi kerak:

1. O'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan ishning maqsadi va mazmunini aniq belgilab uni amalda sinab ko'rgan bo'lishi.
2. Amaliy ishni olib borish rejasini tuzib, ishning ketma-ketligini, kirish suhbatining mazmunini, mustaqil ish uchun topshiriqlari yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlagan bo'lishi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun zarur bo'lgan barcha jihozlarni oldindan tayyorlagan bo'lishi
4. Dars boshida amaliy ishining topshiriqlari doskaga yozilgan bo'lishi.

Amaliy mashg'ulotda bajargan ishlari daftarda rasmiylashtirib borilishiga o'qituvchi tomonidan korsatma beriladi hamda muntazam nazorat qilib boriladi. O'quvchilar ushbu daftarga amaliy mashg'ulotning mavzusi va maqsadini, kerakli jihozlarning nomini, bajarilgan ishlarning sonini hamda tajriba yuzasidan olingan xulosalarni yozishlari kerak. Tajribadan olingan natijalarni aniq ifodalash uchun jadvaltuziladi va unda ketma-ketlikda bayon etiladi. Bundan tashqari biologiya fanida o'tkazilgan tajribalarning borish sxemasi, obyektlarning rasmiini albomga chizib borilishi ham bilim olishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Sababi o'rganilayotgan o'simliklar, hayvonlarning tashqi va ichki

tuzilishi tasviri chizib borilsa, tasviriy xotira orqali bilimlari mustahkamlanishiga olib keladi

Xulosa va takliflar. Biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi amaliy ko'nikmalarni o'quvchilarning amaliy jarayonida oshirishiga va mustaqil o'rganib borishiga imkon beradi. Bu metodika orqali o'quvchilar biologiyadan nazariy bilimlarni to'liq tushunishlari, amaliy mashg'ulotlarda jarayonlarni amalga oshirishlari va ma'lumotlarni tajribaga solishlari mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyalar o'quvchilarga biologiya bilimlarini oshirish uchun mos muhitni yaratishga

yordam beradi. Ushbu metodika laboratoriyalarni to'liq jihozlangan holda tayyorlash, o'quvchi yutuqlarini baholash va ularning o'rganishlarini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.

Biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi laboratoriyalarda ishlab chiqarishlarni bajarilishi va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning aniq qoidalar va tartiblari bo'yicha o'quvchilarning mustaqil o'rganishlarini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
2. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Ahmedov, G.O.Tog'aveva va bosh O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent, 2019 yil, 62 bet.
3. Doniyorov, M. (2022). methodology of using pisa tasks in teaching biology. *Science and Innovation*, 1(8), 1534-1541.
4. Uzluksiz ta'lim tizimida tadbirkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati *Uzluksiz ta'lim Ilmiy-uslubiy jurnal 2023 №2 I.T.Azimov, N.I. Mirzaeva*
5. Normamatovych, D. M. (2023). The significance of the tasks of the pisa international program in the teaching of biological sciences. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 23, 132-138.7.
6. Raxmatov.U.E., Azimov I.T., Tog'aveva G.O. Biologiyadan PISA topshiriqlarini uzluksiz ta'lim jarayoniga tadbiq etish metodikasi. *Uzluksiz ta'lim. Ilmiy – uslubiy jurnal. T., 2020. – № 4–son. – V.17–21.*
7. Doniyorov, M. (2023). "Biologiya darslarida pisa topshiriqlaridan foydalanish". *Biologiyaning Zamonaviy Tendensiyalari: Muammolar va Yechimlar*, 1(5), 789–791. Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztmy/article/view/4679>.
8. M.Doniyorov. (2022). *METHODOLOGY OF USING PISA TASKS IN TEACHING BIOLOGY*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7436081>
9. Ergashevich, R. U. (2024, January). Methodological principles of professional competence development of the future biology teacher. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 1-5).
10. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yonashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o'qitishning nazariy asoslari. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 178-181.
11. Ergashevich, R. U., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Issues of using integrative knowledge in forming students'professional competence.
12. Ergashevich, R. U., Salimovna, P. M., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Ways to use pedagogical technologies at the local level in biology lessons. *European International Journal of Pedagogics*, 3(05), 22-29.
13. Kholmurodova, O. S., & Rakhmatov, U. E. (2022). Problems of improving teaching in the process of biological education. *Current research journal of pedagogics*, 3(02), 62-67.
14. Shakhmurova, G. A., Rakhmatov, U. E., & Saidjanova, U. S. A complex of entertaining tasks and exercises on Biology as one means of enhancing the cognitive skills of students. *Asia life sciences*, 30(1), 87-97.
15. S.Jumayev. (2022). Pedagogical foundations of the development of educational and creative activities in the teaching of molecular biology in the continuing education system. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7309412>
16. Increasing students' cognitive activities in biology classes by introducing them to entrepreneurial activities. *European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)* Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No.5, May 2023 ISSN: 2660-5589 I.T.Azimov, N.I. Mirzayeva
17. Shakhmurova, G. A., & Azimov T, R. U. Problem solving from biology (zoology). *Teaching-methodological guidance. Brok Class Servis LLC.*
18. Sukhrobjon Zayniyev. (2023). Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the hardy-weinberg law. *European International Journal of Pedagogics*, 3(05), 16–21. <https://doi.org/10.55640/eijp-03-05-05>
19. Zayniyev, S. "Fan olimpiadalarining tashkil etish mazmuni, tahlili va ta'lim-tarbiyadagi o' rni." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 229-234.
20. S.Z.J. (2021). The Importance of Developing Competence In Understanding And Interpreting Processes In Biological Objects Through Problem-Solving And Exercise. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 503–507. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue05-88>
21. Omonkulov, U. (2024). Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/Aktualnye problemy sotsialno-gumanitarnyx nauk/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).
22. OMONQULOV, U. B. (2024). Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga metodik tayyorlashning konseptual asoslari. *News of UzMU journal*, 1(1.2), 177-180.



UDK:303.01

Mohinur DOSCHANOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:doschanovamohinur343@gmail.com
Kunduz KARIMOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida, dotsenti v.b., PhD taqrizi asosida

CREATIVE APPROACH OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO THE CONCEPT OF MEDIASAVODKHAMISM AND INFORMATION CULTURE

Annotation

The article describes ways of forming the qualities of creativity in primary school teachers by various methods through media literacy.

Key words: media, information, start-up, creative, method, and the internet.

КРЕАТИВНЫЙ ПОДХОД УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация

В статье показаны пути формирования качеств креативности у учителей начальных классов посредством медиаграмотности различными методами.

Ключевые слова: медиа, информация, стартап, креатив, метод, интернет.

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI TUSHUNCHASIGA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIV YONDASHUVI

Annotatsiya

Maqolada mediasavodxonlik orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kretivligini sifatlarini har xil metodlar bilan shakllantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Media, axborot, boshlang'ich, kreativ, metod, internet.

Kirish. Hozirgi vaqtda kelayotgan axborotlar bir necha barobar tezlashishi, ijobiy kelayotgan ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi har xil axborotning ko'payishi, mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini yanada oshirdi. Bugun mediasa-axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Media savodxon bo'lgan inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratganligini, to'g'ri va to'liq tushuna olishi zarur. Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va xulosasini to'g'ri chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz va oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir. Bugungi kundagi axborot muhitini tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda turli mavzularda va media va axborot savodxonligini o'rgatish orqali o'quvchilarning bugungi kundagi yangiliklarni ongli ravishda qilishva ularni o'rganib, kreativlik qobiliyatini rivojlantirish, hamda mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish usullari, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun media va axborot tushunchasi haqida fikr yuritiladi.

S. I. Treskova, B. V. Kriven, Y. Rojdestvenskiy, A. V. Fedorov, F. Madraximova, E. M. Xudoynazarov, G. M. Xalillayeva, A. F. Sabirova, J. S. Raximboyev, R. Kibey, K. Rodgers, D. Simpson Kreativlik so'zini birinchi marta 1922-yilda AQSh ning taniqli olimi tomonidan qo'llanilgan. O'zining ilmiy ishlarida mediasavodxonlik va

uning nima ekanligi, u o'quvchilarning yangiliklarni bilishga, va kreativ fikrlash, yordamida ta'lim mazmunini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari, F. Madraximovaning ilmiy ishlarida esa, mediasavodxonlikning rivojlantirish masalalar yordamida ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodikasi o'z aksini topgan.

Mediasavodxonlik - bu odamlarga turli xil ommaviy axborot vositalari, janrlar va shakllardagi xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratish imkonini beradigan ko'nikma va qobiliyatlar to'plamidir.

Media (inglizcha media, lotincha o'rta "vositachi") keng tushuncha bo'lib, o'z barcha axborotni uzatish usullarini, shuningdek, ular tashkil etuvchi muhitni (media makonini) o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi adabiyotda va kitoblarda keng qo'llaniladigan "axborot savodxonligi" atamasi yaxshi ma'lum, ammo Rossiyada keng qo'llanilmaydi. Shu bois, "axborot savodxonligi" atamasi o'z-o'zidan beixtiyor odamlarning o'zaro ta'siri va axborotning murakkab hodisasiga aylanadi. Zamonaviy jamiyatning aholi va har bir shaxsning savodxonligiga bo'lgan talablari ijtimoiy-madaniy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar, yangi texnologiyalar va inson faoliyati turlarining paydo bo'lishi bilan ortib bormoqda. Jamiyat rivojlanishining sanoatgacha bo'lgan davrida savodxonlik og'zaki nutq, o'qish, eng oddiy hisoblash operatsiyalari ko'nikmalariga ega bo'lish bilan bog'liq edi. Ko'pgina tushunchalarga nisbatan eng keng tarqalgan nuqtai nazar - bu axborot savodxonligi (madaniyat) va media savodxonligi (ba'zan shaxsning media kompetentsiyasi) o'rtasidagi munosabatdir. Bir yo'nalish vakillari axborot savodxonligini kengroq tadqiqot sohasi deb hisoblaydilar, uning ajralmas qismi mediasavodxonlikdir. "Media savodxonlik" inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini

his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediana ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat. Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa media savodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimedia savodxonligi o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi. Fikrimizcha, media savodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediasavodxonlik tushunchasini kengaytirish orqali kreativligini ham rivojlantirishimiz zarur. Kreativlik so'zini birinchi marta 1922-yilda AQSh ning taniqli olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan.

Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy go'ya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. K.Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushuntiradi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Mediasavodxonlikdan foydalangan kreativlikni rivojlantirish uchun avvalo, o'qituvchining o'zida kreativ fikrlash u nima ekanligi haqida tushunchasini bilishi zarur. Xo'sh, mediasavodxonlik bizga nima uchun kerak? Avvalo:

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'yimaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;
- Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni "o'qiy olish";
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

• Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o'zida aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha,

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediasavodxonlikdan foydalanish va kreativlik orqali rivojlantirish uchun ular avvalo buni to'liq anglashi lozim. Xo'sh o'qituvchilar mediasavodxon va kreativ fikrlaydigan bo'lishi uchun nimalarni bilishi zarur:

1) bugungi kundagi har bir bo'layotgan yangiliklarni mustaqil o'rganishi, ularni muhokama qilishi, ko'p savollar berishni;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirishni;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratishni;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratishni .

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'stinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Tahlil va natijalar: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarga mediasavodxonlik va kreativligini oshirish uchun "Har kim – har kimga o'rgatadi" metodi

Ushbu metod o'qituvchilarga o'quvchini o'rgatuvchiga aylantirish orqali ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o'qituvchiga axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi.

Qo'llanilishi: o'qituvchilarga o'quvchilar bilan axborot olish almashinish va berishga qiziqish uyg'otish uchun;

axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun; sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun

Afzalligi:

o'z fikrini lo'nda bayon etishi;

tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;

fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi.

O'qituvchilar O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'ladi. Hamma guruh a'zolariga dastlab bir xil masala yozilgan tarqatma tarqatiladi va masalani yechish shartlari tushuntiriladi.

1-Tarqatma.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediasavodxonlikdan foydalanish va kreativlik orqali rivojlantirish uchun ular avvalo buni to'liq anglashi lozim. Xo'sh o'quvchilar mediasavodxon va kreativ fikrlaydigan bo'lishi uchun nimalarni bilishi zarur:

1-qadam bugungi kundagi har bir bo'layotgan yangiliklarni mustaqil o'rganishi, ularni muhokama qilishi, ko'p savollar berishni;

2-qadam bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirishni;

3-qadam bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratishni;

4-qadam bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratishni.

2- tarqatma Mediasavodxonlik bizga nimaga kerak?

1-qadam: Buni tushunish uchun bu so'zning asl mohiyatini tushunishimiz kerak

2-qadam: Media va axborot tushunchasini bog'lash.

3-qadam: Mediasavodxonlik hayotimizda nimasi bilan muhim?



Bu savol necha guruh bo'lsa, har biriga tarqatma tayyorlanadi va guruh barchasiga tarqatma beriladi.

“Har kim – har kimga o'rgatadi” metodi. Dars jarayonida barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Mavzuni o'z tengdoshlari yordamida o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Assistentlarning esa “Ma'lumotlarni oson yetkazish yo'llarini tengdoshiga tushuntirar ekan” egallagan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Eng muhimi ma'lumotlar takrorlanib boradi va ancha murakkab bo'lsada, do'stona, o'zaro yordam muhitida osonroq o'zlashtiriladi. Ushbu texnologiyadan ko'zlangan maqsad ham shudir

Yana bir “80\20”metodidan foydalanib dars o'tsak biz o'quvchilarda mediasavodxonlik orqali kreativlikni

rivojlantirgan bo'lamiz. Bu metod talaba va o'qituvchi faolligi metodi, yani: Masalan bugungi mavzuyimiz “Tarbiyada oila, maktab, mahalla xamkorligi” mavzusi bunda mediasavodxon o'qituvchi dars haqida ma'lumotni slayd, video va tarqatma va bugungi kun yangiligini internet orqali axborot beradi, va yangi metodlar bilan to'ldirib tushuntirib beradi, talaba esa buni o'zining faolligi darsga qatnashishi, va savol javob bilan to'ldiradi bunda o'qituvchi ma'lumotni 20 % tushuntirib beradi. talaba bo'lsa o'zining faolligi, videolarga munosabati savol javobi bilan 80% to'ldiradi Qarabsizki, dars 100 % natijaga chiqadi bunda o'qituvchi mediaaxborot manbalar orqali ma'lumot beradi kreativlik bilan boyitadi.

Xulosa va takliflar. Ayni paytda media ta'lim kreativ fikrlash asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv metodlar va turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga va jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.

ADABOYOTLAR

1. V. Fedorov “МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ И МЕДИАГРАМОТНОСТЬ” Taganrog-2004
2. “Umumiy pedagogika” E. M. Xudoynazarov, I. A. Abdrimov, G. M. Xalillayeva, M. M. Doschanova BOOKMANY PRINT Toshkent-2023
3. “Mediasavodxonlikni rivojlantirish asoslari” F. Madraximova ILM ZIYO ZAKOVAT Toshkent-2022
4. “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” E. M. Xudoynazarov, G. M. Xalillayeva, A. F. Sabirova, J. S. Raximboyev BOOKMANY PRINT Toshkent-2023
5. “Ta'limning interfaol metodlari” R. Yo'ldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonova Urganch-2011
6. А.В. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г
7. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Укув-амалий кулланма. - Extremum-press, 2017-142.5
8. Арасту. Ахлоки Кабир. Поэтика. -Т.: «Янги аср авлоди», 2004.
9. Имомназаров М. Саидов У.. Миллий тараккиётнинг маънавий-ахлокий асослари. Т.: “^emma” 2005
10. Егорова, А. М. Духовные потребности человека // Молодой ученый. - 2012.-№ 2 (37). - С. 224-226.



UDK: 37:796.

Jonibek DUSTOV,

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o'qituvchisi
E-mail: dustovjonibek@gmail.com*

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

TURIZMNING "SAFARNOMA" DAGI TALQINI VA UN DAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISH

Annotsatsiya

Ushbu maqolada atoqli fors-tojik shoiri Nosir Xisravning 1045-1052-yillar 7 yil davomida Eron, Armaniston, Ozarbayjon, Suriya, Misr, Arabiston, Iroq diyorlaridagi Tabriz, Qohira, Quddus, Makka, Lahsa, Yaman, Basra, Isfahon va boshqa bir qator viloyatlarga qilgan sayohatlari, turizmning "Safarnoma" dagi talqiniva ushbu manbalardan bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy sifatlarni shallantirishda foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, "Safarnoma", Nosir Xisrav, g'arbiy, o'lkalar, sayohat, bo'lajak, o'qituvchi, kasbiy, sifat, shakllantirish, foydalanish.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТУРИЗМА В «САФАРНОМО» И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье представлены 7 лет жизни известного персидско-таджикского поэта Насира Хисрава 1045-1052 годов в Иране, Армении, Азербайджане, Сирии, Египте, Аравии, Ираке, Тебризе, Каире, Иерусалиме, Мекке, Лхесе, Йемене, Басре, Исфахане и освещен ряд др. поездок в регионы, трактовка туризма в «Сафарноме» и педагогические условия использования этих источников при парализующих профессиональных качествах.

Ключевые слова: туризм, «Сафарнома», Насир Хисрав, западный, страны, путешествия, будущее, учитель, профессионал, качество, формирование, использование.

THE INTERPRETATION OF TOURISM IN "SAFARNAMO" AND ITS USE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Annotation

In this article, the famous Persian-Tajik poet Nasir Khisrav's 7 years of 1045-1052 years in Iran, Armenia, Azerbaijan, Syria, Egypt, Arabia, Iraq, Tabriz, Cairo, Jerusalem, Mecca, Lahsa, Yemen, Basra, Isfahan and a number of others. trips to the regions, the interpretation of tourism in "Safarnoma" and the pedagogical conditions of using these sources in paralyzing professional qualities are highlighted.

Key words: tourism, "Safarnoma", Nasir Khisrav, western, countries, travel, future, teacher, professional, quality, formation, use.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida ta'kidlaganidek: "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida sayohatlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizmshaharlarida keng joriy qilish, 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lganaholi sonini 2 barovar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish", - vazifalari belgilab berildi[1].

Ayni paytda ushbu vazifalar jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Mubolag'asiz aytish mumkinki, turizm bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirishning drayverlaridan biriga aylandi.

Davlatimiz rahbari va hukumatimizning ichki va tashqi turizmni rivojlantirish to'g'risidagi qaror va farmonlari, ko'rsatmalaritizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, to'qqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat.

Turizm mamlakatimizda kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan yo'q. Uning tarixiy ildizlari uzoqqa borib taqaladi. Bu haqdagi ma'lumotlar tarixiy, ilmiy, adabiy va diniy manbalarda o'z aksini topgan. Ana shunday tarixiy manbalardan biri bu fors-tojik adabiyotining atoqli vakillaridan biri Nosir Xisravning "Safarnoma" asaridir. Ushbu asar Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi G'ulom Karim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Nosir Xisravning (1004-1088) qalamiga mansub ko'plab asarlar orasida "Safarnoma" asari ajralib turadi. Shoir mazkur asarida o'zining g'arbiy o'lkalarga qilgan yetti yillik (1045-1052) sayohati davomida ko'rgan-kechirgan xotiralarini bayon qilgan. Aniqlirog'i u Eron, Armaniston, Ozarbayjon, Suriya, Misr, Arabiston, Iroq diyorlaridagi, Tabriz, Qohira, Quddus, Makka, Lahsa, Yaman, Basra, Isfahon va boshqa bir qatorshaharlar va ovullarning o'sha davrdagi manzaralarini, o'sha joylarda istiqomat qilayotgan xalqlarning va millatlarning urf-odatlarini, turmushi, kundalik turmush tarzi,

o'zaro munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni yoritib bergan.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy xodim G'ulom Karimning qayd qilishicha: “o'z davrining yuksak ma'lumotli kishisi bo'lgan Nosir Xisrav oldin g'aznaviylar, so'ngra saljuqiylar saltanatidagi ba'zi xonliklarning devonlarida turli vazifalarni bajaradi va hayotiy tajribasini oshiradi. Nosir bir tarafdin yuqori tabaqalar hayoti, ularni mamlakat va xalqni boshqarish siyosatidan voqif bo'lsa ikkinchi tomondan, oddiy mehnatkash xalq turmushi, hunarmand, dehqon va boshqa kasb egalariining jamiyatdagi o'rniga oid bevosita kuzatish va tajribalari uning asarlarida aks etgan”[2].

Nosir Xisrav 1045-yilda davlat xizmatlaridan bo'shab safarga o'tlanadi. Bu safar yetti yilgacha o'zilib, 1052-yilgacha davom etadi. U safar qilgan shahar va viloyatlarda turli muddatlarda bo'ladi. Jumladan, Misrda ikki yildan ortiq muddat yashaydi. Shoir safar davomida – ko'plab shoirlar, olimlar, hakimlar bilan uchrashadi. Safar davomida xatarli dengiz sayohati, bepoyon saholarni kezib o'tish, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelganligini va bu mashaqqatlarni qanday yengib o'tganligi asarda o'z ifodasini topgan.

“Safarnoma” muallifning tarjimai holiga oid ma'lumotlarda Nosir Xisrav Hindiston mamlakati va Turklar diyorida ham bo'lganligi aytiladi. U o'z asarida Movarounnahrva Xurosondan ancha olisdagi Misr va Hijoz o'lkalari tavsifiga keng o'rin bergan. “Safarnoma”ni o'qisangiz ko'z oldingizdan o'sha davrdagi o'nlab shaharlar va qishloqlarning manzaralari namoyon bo'ladi. G'ulom Karimning fikri bo'yicha “Safarnoma” ko'p jihatlari bilan bizga o'zbek nasrining mumtoz namunasi bo'lgan “Boburnoma” asarini eslatadi. Nosir Xisravning asarlari yuzasidan turli mamlakatlarda o'nlab kitoblar, rus, urdu, arab, turk, olmon, ingliz, fransuz tillariga tarjima qilingan.

Nosir Xisravning hayoti va faoliyati, ijodito'g'risidagi ma'lumotlar respublikamiz olimlaridan Sh.Shomuhammedovning tadqiqotlarida, H.Hasanovning “O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar” kitobidagi maqolada, Hamidjon Homidiyning “Ko'hna sharq darg'alari” kitobidagi “Fidoiy e'tiqod” maqolasida o'z aksini topgan.

Nosir Xisrav 1045-yil 20-dekabr kuni Shiburg'on (hozirgi shimoliy Afg'onistondagi shahar)ga jo'nab ketadi. Shabon oyining yigirma uchunchisida (1046-yil 6-may) Nishopur sari yo'lga tushdi. U yerda bo'lgan voqealarni, ko'rgan-kechirganlarini yozib qoldirgan. U 1046-yil 13-iyulda Qazvin (hozirgi Eronning shimoliy-g'arbida joylashgan shahar) sari yurib Ko'ha qishlog'iga yetib kelganligi, bu yerda qahatchilik bo'lib bir man (og'irlik o'lchov birligi) bo'lib, turli davrlarda turlicha bo'lgan) arpa nonini ikki dirhamdan (kumush tanga) sotilardi.

Qazvinda bog'rog'lar ko'p ekanligi, to'siqlar bilan o'rab olinganligini, bu yerda suv kam bo'lib, yer osti korizlarda oqishi, shaharga hunarmandlarning ko'pchiligi etikdo'zlar ekanligi ta'kidlangan.

Shoir 1047-yil 2-yanvarda Shom viloyatiga boradi va bu yerda asosiy ekinlar bug'doy bo'lib undan ko'p hosil olgan. Anjir, zaytun, pista, bodom va uzumzorlari ko'p ekanligini qayd etadi. Bu yerda Abul A'lo Maoriy (arab shoiri, 773-1057 yillarda yashagan) ismli ko'r odam bo'lib, u shahar hokimi edi. U behisob boyliklarga ega bo'lgan. Ammo o'zi faqirona hayot kechirar va oddiy liboslar kiyib, uydin chiqmay yashagan ekan. Tirikchilik uchun har kuni o'ziga yarim man arpa noni tayyorlagan va shundan boshqa hech narsa yemagan, hokim boyligini hech kimdan darig' tutmagan ekan. Nosir Xisrav komil insonga xos fazilatlarini tizimli ravishda yozib qoldirgan.

Mashhadda bug'doy kam ekanligi, ko'proq arpa ekilganligi, zaytunham ko'p bo'lganligini alohida etirof etgan. Shu bois, mehmon musofir va ziyoratchilarni non va zaytun bilan siylanardi. Har bir nonning og'rligi bir mandir. Musofir

kelsa unga kuniga bitta non va zaytun yog'ida pishirilgan bir kosa yasmiq va mayiz berilgan. Ba'zi kunlar bu yerga besh yuzdan ortiq odam keladi va hammalari uchun ziyofat hozirlangan.

Sayyoh Misr mamlakati tashrifida Nil daryosi suvining janubiy-g'arb tomonidan oqib kelganini va Misrdan o'tib, Rum dengiziga quyulishini, bu daryoni suvi ko'pligidan Termiz yonidagi Jayhundan ikki barobar kengligini bayon qilgan. Bu o'rinda Jayhun (Amudaryo) ning tiliga olingani qalblarimizni quvontiradi. Demak, Jayhun ham o'sha davrning kata daryolaridan hisoblangan. Quyosh saraton burjiga kirganda Nil suvi ko'paya boshlaydi va qish faslidagi sathiga nisbatan yigirma arshko'tariladi. Misr shahrida suvning ko'payish sur'atini aniqlaydigan asboblari qurilgan va maxsus belgilar qo'yilgan. Ming dinor maosh oladigan maxsus amaldor bo'lib, u suvning qay darajada ko'payishini kuzatib brogan. Suv miqdori kamayganda odamlar sadaqalar berishgan va narz-niyozlari qilishgan, anduhga botib, g'am chekishgan. Suv miqdori oshganda shodligu-xursandchilik qilishgan. Agar suv o'n sakkiz arshga ko'tarilmasa sulton raiyatga soliq solgan. Nil suvi yetarli darajada ko'payib, qish faslidagi sathiga nisbatan o'n sakkiz gaz ko'tarilgan paytda Misr shahri yonidan boshlanib, Qohiradan o'tadigan va sultonning xos mulki bo'lgan Xalij anhorining ham boshi berk bo'ladi. Anhor ochilish marosimida Misr va Qohiraning butun aholisiga anhor ochilishi ko'rsatiladi. Anhora birinchi bo'lib tushirilgan kemaga gung odamlarni mindirishadi. Chunki, buni xayrli fol deb bilishadi. Bu kun sulton ularga sadaqalar berishadi.

Misr bozorlarida buror narsa sotayotganda faqat rost gapirishadi. Agar kimdir xaridorni aldasa uni tuyaga mingazib, qo'lga qo'ng'iroq tutqazishadi va shahar bo'ylab aylantirishadi. U qo'ng'iroq chalib, “Men yolg'on gapirdim va malomatga qoldim”, -deb qichqiradi. Yolg'onchining jazosi shunday bo'lgan. Bu yerning bozorida baqqol, attor va maydafurushlar biror narsa sotishsa, idishni o'zlari berishgan. Xaridorning bozorga idish ko'tarib borishiga hojat yo'q bo'lgan. Chiroq yog'i bu yerda turp va sholg'm urug'ini ezib olinadi va uni “Zauti xor”, ya'ni “yonuvchi yog'” deb aytishadi. Kunjit bu yerda kam bo'lgani uchun kunjit yog'i bu yerda qimmat bo'lgan.

Nosir Xisrav “Safarnoma”da misrliklar va Misr Sultonining fe'l-atvorini ham tasvirlagan. Aniqrog'i, Misr aholisining erkin va osoyishtaligi shu darajada ediki, bazzoz, sarrof va zargarlar do'konlarining eshigini yopmay, faqat parda ilib qo'yishar, biror kimsa mollarga ko'z olaytirmas edilar. Barcha shahar va qishloqlarda misrliklarning chiroq yog'i, bo'yra, joynamozi va imom, muazzin, farrosh va boshqa xizmatchilarning maoshi uchun sarflaydigan mablag'ini sulton vakili to'lagan. Ushbu faktlar Misr sultonining xalqparvaligi, insoniy fazilatlariga ega ekanligidan dalolat beradi.

“Safarnoma”da Misrdagi bog'dorchilik ta'rifi, Makkai Mukarrama bayti, Arabiston va Yaman tashrifi, Ka'ba to'g'risidagi ma'lumotlar, Lahso, Basra va Arg'on, Isfahon, Tabas, Tup, Qoin, Balx shaharlari to'g'risida boy ma'lumotlar berilgan. “Safarnoma”da keltirilgan ba'zi joylarning nomlari, qiyin terminlarining lug'aviy ma'nosining izohlari manbalarga tayangan holda yoritilgan. Shuningdek, hijriy-qamariy yil oylar, yazdjardiy taqvimioylarining mazmuni-mohiyati sodda va ravon tilda bayon qilingan.

Shuningdek tadqiqotchilar K.Gadoyev va S.Berdiyevlarning “Jahongashta sayyoh olimlari” [3], Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ijtimoiy odoblar” [4], Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning “Sayohatnoma”[5] asarlari ham “Safarnoma” kabi turizm tarixini, turizm odobini, joylarning geografik o'rmi, xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Natijalar. Savol tug'iladi: "Safarnoma"ni o'rganish talabalarga nima beradi? Uni o'rganishga ehtiyoj bormi?

Birinchiidan, manbada takidlanganidek Nosir Xisravning asarlari, jumladan "Safarnoma"ni pedagogikani tarixibo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga mavzu bo'ladi;

Ikkinchiidan, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining jismoniy madaniyat fakultetlarida tanlov fan sifatida o'qitilayotgan "Turizm va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish ushbu manbalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;

Uchinchiidan, talabaning ushbu asar to'g'risidagi ma'lumotlar orqali geografik bilimlari kengayadi. Asarda keltirilgan shaharlar va qishloqlarning tabiatini, iqlimini,

aholisining urf-odatlarini, turmush-tarzi to'g'risida kengroq tushunchalarga ega bo'ladi;

To'rtinchidan, talabalarda safarga chiqishning o'ziga xos tomonlari, uning mashaqqatlari, qiyinchiliklari, sayyohlarning borgan joy aholisi bilan qanday munosabatda bo'lishi kabi holatlardan voqif bo'lishiga imkon yaratadi;

Beshinchidan, dunyoning turli burchaklarida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi, tadbirkorlik faoliyati, qo'shnilar bilan o'zaro munosabatlari haqida bilimlarga ega bo'lishadi.

Xulosa. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida turizm vositasida kasbiy sifatlarni shakllantirishda ushbu tarixiy manbadan foydalanish malakali kadrlar tayyorlashdek davlat buyurtmasining bajarilishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni
2. Xisrav Nosir "Safarnoma" / Tarjimon G'ulom Karim-T, "Sharq", 2003, 112b.
3. Gadoyev K, Berdiyeva, "Jahongashta sayyoh olimlar" –T: O'zbekiston, 2011, 272b.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, "Ijtimoiy odoblar" –T.: "Hilol Nashr", 2015, 456b.
5. Ahmedov S. va boshqalar Adabiyot umumit o'rta ta'lim maktablari 5-sinfi uchun. Darslik. 4-nashr T.: 2020, 270 b.



UDK:159.9.07

Alisher JABBOR,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Psixol.f.d, DSc, dotsent L.Ravshanov taqrizi asosida

IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI AXBOROTLARNI TUSHUNISHDA PSIXOSEMANTIK YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS TALQINI

Аннотация

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tushunishda psixosemantik yondashuvlarning o'ziga xos talqin jihatlari ochib berilgan va psixologik jihatdan tahlil etilgan axborotning inson psixikasiga ta'sir masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot, tushunish, psixosemantika, ijtimoiy tarmoq, talqin xususiyat.

УНИКАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПСИХОСЕМАНТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПОНИМАНИИ ИНФОРМАЦИИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация

В данной статье раскрываются специфические аспекты интерпретации психосемантических подходов к пониманию информации в социальных сетях, а также освещается вопрос влияния психологически анализируемой информации на психику человека.

Ключевые слова: информация, понимание, психосемантика, социальная сеть, особенность интерпретации.

UNIQUE INTERPRETATION OF THE PSYCHOSEMANTIC APPROACH IN UNDERSTANDING INFORMATION ON SOCIAL NETWORKS

Аннотация

In this article, the specific interpretation aspects of psychosemantic approaches to understanding information in social networks are revealed, and the issue of the effect of psychologically analyzed information on the human psyche is highlighted.

Key words: information, understanding, psychosemantics, social network, interpretation feature.

Kirish. XX asrning so'ngi choragida yetakchi tendensiyaga aylangan metodologik tahlilda aniq tushunchalar va kogerent tizimlarni topish yo'lida olib borilgan izlanishlar o'zining ulkan yutuqlaridan biri sifatida matn grammatikasiga doir tadqiqotlarga va uning doirasida narrativlik fenomenining o'rganilishiga va matnlarning semantik, psixosemantik jihatlarni tatbiq etilishiga olib keldi. Avvalo semantika masalasiga to'xtalganda uning mohiyatini aniqlab olish zarur. Semantika – (yunoncha semantikos-bildiruvchi, ifodalovchi) ya'ni birinchidan til yoki uning biron-bir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizmi, so'z birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun ma'no, mazmun va axborotdir, ikkinchidan turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi ya'ni semasiologiya. Ayrim lug'aviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalarini ifodalashi mumkin. Binobarin, semantikaning o'rganish obyekti ham, asosan to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir.

Globallashuv asrida bir davlat o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, axborotga ega bo'lish, undan foydalanish va uni himoyalashga intiladi. Shu bois muayyan davlat boshqa bir davlatga oid axborotni qo'lga kiritish, muayyan ustunlikka ega bo'ladi. Oddiygina bir misol: biror davlatning telefon tarmog'ini ishdan chiqarish uchun telefon stansiyasini bombardimon qilish mumkin. Ayni vaqtda zimdanda ana shu telefon stansiyasining boshqaruv tizimini ishdan chiqarish ham mumkin, ya'ni bomba o'rnini kompyuter virusi ham bemalol bosa oladi. Informatsion urushning mohiyati shundaki, u yagona maqsad emas, balki yakuniy maqsadga erishish yo'lidagi vositasidir. Hozirgi texnologiyalar axborot o'rniga uydirma tarqatish, boshqalarni yolg'on axborotga ishonirish imkonini beradi. Bunda uydirma

obyekti yolg'onni haqiqat deb biladi va oxir-oqibat yolg'on tarqatayotgan tomonning manfaatlariga mos harakat qila boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik sohalarida matnlarning mazmunini semantik tahlil qilish bilan bir qatorda psixologiyada psixosemantika sohasi paydo bo'ldi. Bu sohaning yaxlit strukturasi ishlab chiqqan olimlar: A.N. Leontav, E.Y. Artemova, L.S. Vigotskiy, Ch. Osgud, V.F. Petrenko, F.E. Vasilyuka va boshqalar sanaladi [1; 14]. Psixosemantika bevosita matnlarni tushunishda va tahlil qilishda, uning ma'no, mazmuni bilan birgalikda insonning ruhiy holatiga ta'siri va nutqiy ta'sir etishda so'zlarning ta'sirchanligini anglash, uning subyektiv kechinmalari bilan bo'ladigan munosabatlarda vujudga keladigan matn grammatikasining mazmuniy jihati sanaladi. Psixosemantik yondashuv yoki eksperimental psixosemantika Rossiya psixologiyasining nisbatan yangi maydonga chiqqan sohalaridan biri sanaladi. XX asr 70 yillarining boshida psixologlar: E.Y. Artemova, V.F. Petrenko, A.G. Shmelev, V. Stolin, A.A. Nisratov, O.V. Mitina va boshqalarning ishlarida psixosemantikaga doir tadqiqotlar keltiriladi. Psixosemantika-individual funksiyalarning tuzilishi va ishlashini, matnning idrok etilish jarayonlarida tafakkur, xotira, idrok va qarorlar qabul qilishni o'rganadigan psixologiyaning sohasi hisoblanadi.

Psixosemantikaning asosiy ikki vazifasi quyidagilarni tashkil etadi:

- Individual ongning mazmun-mohiyatini turli xil jihatdan tadqiq etish (obrazlar, ramzlar, ramziy harakatlar, shuningdek, verbal shakllar);

- Matn ma'nosini tizimli shakllantirishda motivatsion omillar va hissiy ta'sirlarni tahlil qiladi va ta'sir etadi [2; 22].

Psixosemantika individual ongning turli xil shakllarini obrazlar, ramzlar, kommunikativ va ritual harakatlarni, shuningdek, verbal shakllarni ham tekshiradi. Bunda eksperimental psixosemantik paradigmani yaratishda Charlz Osgudning semantik makon qurilishi qarashlari (differensial psixosemantik metodi) va Dj. Kellingning shaxs konstruksiyalar nazariyasi (repertuar panjara metodi) yordamida izlanishlari bu yo'nalishning kategorial strukturasi yaratib berdi. Psixosemantikaning metodologik asosini shakllantirishda L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev va A.R. Luriya maktablari yetakchi o'rinni tashkil etadi. Psixosemantikaning asosiy tadqiqot usuli bu-ko'p o'lchovli shakllar va subyektiv semantik fazoni tashkil etishdir. Kelli nuqtayi nazariga ko'ra, har birimiz faraz qilamiz va uni tekshirib yashaymiz, bir so'z bilan aytganda, o'ziga xos konstruktlar yordamida ko'rib turgan odamimiz aqlli yo aqlli emasligi, qobiliyatli yo qobiliyatli emasligini aniqlash muammosini hal qilish bilan shug'ullanish lozim. Shuning uchun, Kelli konstruktlar-matnning mazmun-mohiyatini idrok etish usulini belgilaydigan o'ziga xos klassifikator ya'ni qolipdir deydi [3; 8].

Matnlarda ong va dunyo obrazini o'xshash hodisalar deb qarash A.N. Leontev, E.Y. Artemova va V.F. Petrenko ishlarida keltirilgan. A.N. Leontev odam ongining sistemali tasviri, ong jarayonining ideal mahsuloti-bu tushuncha va ma'nolarni obrazli tarzda shakllantirish va transformatsiya qilishdir. Semantik differensial yo'nalishi ko'pincha amaliy tadqiqotlarda ishlatiladi. Ushbu texnika Charlz Osgud tomonidan taklif qilingan. Semantik differensial yo'nalishi matnlar darajasi, uyushgan qismlarini o'lchash usulidir va semantik differensial faktorlardan subyektiv semantik oraliq modellarini va o'zaro munosabatlarini o'rganishga imkon beradi. Ch. Osgudga fikriga ko'ra, odamda so'zga nisbatan qiziqish va reaksiya bor, lekin zaif va namoyon bo'lishi qiyin kechishi mumkin.

Zamonaviy psixosemantik yondashuvni amerikalik psixologlar Ch. Osgud, Dj. Dizi va Dj. Kellilar eksperimental metodologik asosda ishlab chiqdilar. Subyektiv semantikaning individual modelini A.N. Leontev ishlab chiqqan. Eksperimental psixosemantikani amaliy tadqiqotlar jarayonida keng qamrovli ravishda V.F. Petrenko va A.G. Shmelev o'z ishlarida tadqiq etgan. E.Y. Artemova, Y.K. Strelkova va V.P. Serkinalar subyektiv real ongning uch xil darajasini taklif qilgan [4; 32]:

- Perseptiv qatlam-yuqori qatlam, modal obrazlarning sistemali shakli, bir-biri bilan tartibli aloqasi;

- Semantik qatlam-idrok etilayotgan aktual obyektning strukturalashgan munosabatlar yig'indisi, ko'pmodalli semantik qismlar yig'indisi;

- Dunyoning abrazi-ayniqsa modalga ega bo'lmagan chuqur strukturaviy qatlam, qayta ishlovda semantik qatlamni tasavvur etadi.

Hozirgi kunda modal va modal bo'lmagan ogohlantirilishlar, tushunchalar, hodisalar va vaziyatlarning psixosemantik tavsifi bo'yicha katta miqdorda eksperimental materiallar to'plangan. E.Y. Artemova 1999 yilda psixosemantik modellashirishning ikkita qismini belgilaydi [5; 8]:

- 1) Subyektiv malaka tavsifi;
- 2) O'lchov tavsifi.

Nutq psixosemantikasi-muayyan semantik yuklama, ekstralingvistik axborotni o'zida tashuvchi ma'lumotlar almashinishida ishtirok etadigan nutqiy kommunikatsiyaning noverbal (prosodik) omillarini o'rganadi. Matnlarning psixosemantik tomonlarini tushuntirishda tushunuvchi subyektiv semantik kategoriyalarga ega bo'lishi kerak. Mijozning voqelikka nisbatan emotsional va pragmatik munosabatini ifodalovchi muayyan so'zlar tanlovi, nutqidagi leksik-semantik guruhlar (nutq bo'laklari: so'z turkumlari, so'z birikmalari, yuklama, bog'lovchi, qo'shimcha va

boshqalar) ustuvorligiga ko'ra baholasa bo'ladi. Nutqning psixosemantik tahlili tushunuvchining o'tmishi, hissiy kechinmalari, yaqin insonlari va boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlariga ham bog'liq.

Psixosemantik yondashuvlarda matnning ma'nosi birinchi darajali hodisa sifatida qaraladi. Ma'no-tushunish muammosini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ma'no-tildagi iboralar (so'zlar, gaplar va h.k) mazmunining sinonimigina emas, balki murakkab, ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. M.Xaydeggerning fikricha, ma'no birinchidan, har qanday qilmish, xulq-atvor, amal nimaga va nima uchun sodir etilganini nazarda tutish kerak. Ikkinchidan, ma'no yo'nalishga ega, ya'ni u nimaningdir pirovard maqsadi va mazmuni. Psixosemantikada ma'no hosil qilish jarayonlari obyektiv tarzda an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar va belgilar sohasida sodir bo'ladi va tilda ifoda etiladi. Matnlarni psixosemantik tadqiq etish ma'naviy madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi deb tushunishdan kelib chiqib, matnlarda obyektivlashgan subyektiv ma'nolarni predmetlashtirish, ular orqali odamlarning ovozlari eshitish va ular yordamida o'tgan zamonlar, boshqa madaniyatlarining ruhiga kirib borish psixosemantikaning muhim metodologik muammosidir.

Matnlarni idrok etish jarayonining psixosemantik jihatlarni kalit so'zlar majmuasi yordamida A. Shtern matnning yaxlitligini ta'minlovchi omil sifatida belgilaydi. Olima nutqiy idrok etishda obyektning yaxlit yoki qismalab qabul qilinishi sharoitga bog'liq deb hisoblaydi. U o'zi o'tkazgan tajribalar asosida shu fikrga keladi. Tajribalar ko'rsatishicha, inson so'zni qabul qilayotganda matnlarning ma'no va mazmunini fonemalar bo'yicha tahlil qilmaydi. Lekin so'z odatdagidan uzunroq bo'lsa, eshitish jarayonida shovqinlar xalaqit bersa, matnning mazmuniy psixosemantikasini qabul qilish bo'g'inlar yoki fonemalar bo'yicha amalga oshadi.

Har qanday zamonaviy davlatda axborot hamisha jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni iste'molchiga xolis yetkazib berish va kishilarning ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan globalashuv jarayonida hayotimizning biror bir sohasini OAVsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirda internet ham OAVning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinmoqda. Internet tarmog'i orqali kun davomida qanchadan-qancha axborotlar qabul qilinadi. Internet (International Network- xalqaro kompyuter tarmog'i) bu – vaqt, makon va jo'g'rofiy chegaralarning mavjudligiga qaramay, kompyuter va kichik tizimlarning o'zaro aloqa bog'lab global axborot infratuzilmasini shakllantiruvchi butunjahon kompyuter tarmog'idir.

Har kuni millionlab odamlar Internetdan har hil maqsadlarda foydalanadi. O'zbekistonda foydalanuvchilarning asosiy qismi elektron pochtalardan foydalanish uchun Internetni ishlatadi. Internet – qimmat bo'lmagan, jurnalistikaning rivoji uchun katta ta'sir ko'rsatayotgan kuchli tizimdir.

2005 yilning may oyida SNN telekompaniyasi 400 nafar olim va soha mutaxassislari o'rtasida "Sizningcha, so'nggi chorak asrda qilingan eng muhim ixtiro qaysi?" savoli bilan so'rovnomaga o'tkazdi. So'rov natijalariga ko'ra, sun'iy yo'ldoshlar, harbiy mudofaa texnologiyalari, biotexnologiyalar, lazer nuri, inson geni sohasida erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarni ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni internet olishga muvaffaq bo'ldi.

Hozirda Internet hamma uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan operativ kommunikatsiya vositasidir. An'anaviy OAVdan farqli o'laroq Internet markazlashtirilgan tizimdir, ya'ni har bir xohlagan kishi Internetda boshqalar bilan

muloqatga kirishishi, ma'lumot olishi va o'z ma'lumotini chop qilishi mumkin.

Ochiq axborotlar tahdidi sharoitida yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar bo'lishga, erkin fikrli bo'lishga o'rgatish orqali ularda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash eng dolzarb vazifalardir. Zero, o'rgatish bir tomonlama jarayon bo'lmay, u «pedagog-tarbiyalanuvchi» muloqoti tizimida ko'proq tarbiyalanuvchining fazilatlariga bog'liq. Bunday murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurati ijtimoiy psixologiyada isbotlangan. Masalan, agar o'quvchi yoki talabalarni yaxlit guruh deb oladigan bo'lsak, ularning barchasi bilan bir vaqtda, bir xil effekt bilan ishlash va shu orqali ularning mustaqil

tafakkurini o'stirish, sog'lom e'tiqodini tarbiyalashning ilojisi yo'q. Ikkinchidan, bir guruh talaba yoki o'quvchi uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham aynan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi fan-texnikaniing rivoji bir tomondan axborotlarni, ma'lumotlarni ko'paytira, ikkinchi tomondan talabalarda mutaxassislikka oid bilimlarga barqaror qiziqishning yo'qolishiga olib keladi, chunki qat'iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo'r berish o'rini loqaydlik, faoliyatsizlik egallaydi. Boshqacha aytganda, ular "tayyor axborotlarning quli"ga aylanadilar. Chunki kompyuter, display, kalkulatorlar inson aqliy mehnatini yengillashtiradi, ularni aqliy zo'r berishdan xalos etadi.

ADABIYOTLAR

1. Леонтьев Д.А. Личностный смысл и трансформации психического образа. Вестник Московского университета.,1988. – С.14.
2. Косаревская Т.Е., Кутькина Р.Р. Психосемантический подход исследованию индивидуального сознания. Витебск., 2009. – Б.22.
3. Леонтьева Н.Н. Семантический анализ и смысловая полнота текста. Автореф.дис.канд.наук.М.,1968. – С.8.
4. Петренко В.Ф. Психосемантика сознания. М.,1988. – С.32.
5. Серкин В.П. Методы психосемантики. Тюмен., 2004. – С.8.



UDK:376:55:374.3(035)

Toxir JONIMQULOV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi,
E-mail:muxximuxxi98@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori p.f.d. Sh.O‘.Nurillayeva taqrizi asosida.

**DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL CAPABILITIES AS A SPECIFIC TYPE OF PERSONALITY
DEVELOPMENT STAGES OF THE FORMATION OF INTELLECTUAL AND PROFESSIONAL
CHARACTERISTICS AND QUALITIES OF A PERSON**

Annotation

On the basis of the science of chemistry in higher education, the methodology, principles, structural analysis and mastery of the development of intellectual-creative capabilities of students were considered.

Key words: chemistry, methodology, system, intellectuality-creativity, principle, composition, reasoning and primacy.

**РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ КАК СПЕЦИФИЧЕСКОГО ВИДА РАЗВИТИЯ
ЛИЧНОСТИ ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ И
КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ**

Аннотация

В высшем образовании на основе химии были рассмотрены методика, принципы, структурный анализ и приоритеты развития интеллектуально-творческих способностей студентов.

Ключевые слова: химия, методология, система, интеллектуальный-креативность, принцип, состав, анализ и приоритет.

**SHAXSNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS TURI SIFATIDA INTELLEKTUAL IMKONIYATLARNI
RIVOJLANTIRISH SHAXSNING INTELLEKTUAL VA KASBIY XUSUSIYATLARI VA FAZILATLARINI
SHAKLLANTIRIB BORISH BOSQICHLARI**

Annotatsiya

Oliy ta’limda kimyo fani asosida talabalarning intellektual-kreativ imkoniyatlarini rivojlantirish metodikasi, tamoyillari, tarkibiy tahlili hamda ustivorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kimyo, metodika, tizim, intellektual-kreativlik, tamoyil, tarkibi, taxlili hamda ustivorligi.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida “Elektron ta’lim” milliy tizimini yaratish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012 yil 16 apreldagi PQ-1740-son qarori, 4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu qarorlarning natijalari uchun har bir talaba yoshlar juqur ilm egallashlari lozim [1,2,3,4].


Texnik universitetda kimyo fanini o‘qitishda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining funksional-didaktik ahamiyatini, uning shaxsning umumiy holatini jadallashtirish, ilmiy tadqiqotlarda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining psixologik va pedagogik xususiyatlari yanda barqaroralashtiradi[10]. O‘qituvchilik kasbi, birinchi navbatda insonparvarlik, mehr-oqibat, insonlar orasidagi eng samimiy tuyg‘ularning barchasi mujassamlashtirilgan eng go‘zal kasbdir. Kimyo fani o‘qituvchisi kimyo sohasidagi boshqa mutaxassislardan farqli o‘laroq, nafaqat kimyoni bilishi, balki o‘z bilimni boshqalarga yetkaza olishi hamda ularni tarbiyalay olishi ham lozim. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, asosiy maqsad – kimyo fani bo‘yicha o‘z bilimlarini va o‘qitish mahoratini mustaqil ravishda oshirib borishga qodir o‘qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir. Kimyo fanini o‘qituvchisiga hozirgi kunda talab juda yuqori sababi kimyo fanini yaxshi o‘rgangan

mutaxasis oziq-ovqat sanoatida, mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish texnologiyasida, ekologiyani muhofaza qilish tizimida, iste‘mol qiladigan mahsulotlarimizni sifatligini aniqlashda hamda zavod-korxonalarda boradigan jaronlarning mohiyatini to‘laqonli tushuna oladi[5,6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson ongida idrok muammosiga L. S. Vigotskiyning yuqori aqliy funksiyalarning madaniy va tarixiy nazariyasi doirasida bolaning aqliy (psixologik) rivojlanishi muammosi sifatida qaraladi. L. S. Vigotskiy bolaning aqliy rivojlanishining ikki darajasi to‘g‘risida muhim qoidalarni ishlab chiqdi: bu intellektual rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadigan, talaba mustaqil ravishda bajara oladigan masalalarni rivojlantirish darajasi va uning proksimal rivojlanish zonasini belgilab beradigan daraja. Ushbu ikkinchi darajaga kattalar bilan hamkorlikda, uning harakatlariga taqlid qilish orqali emas, balki uning intellektual imkoniyatlari doirasidagi muammolarni hal qilish orqali erishiladi. Shu asosda "ilg‘or ta’lim" tamoyili shakllantirilgan bo‘lib, u orqali talabning aqliy faoliyatini rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirishga qaratilgan o‘qitishni samarali tashkil etish belgilanadi, ya’ni bu o‘z-o‘zini rivojlantirish degani [11].

I.A. Zimnaya "intellektual rivojlanish o‘z-o‘zidan emas, balki talabning boshqa odamlar bilan ko‘p tomonlama o‘zaro munosabati natijasida: muloqotda, o‘quv faoliyatida" deb hisoblaydi. Intellektual rivojlanish darajasining muhim ko‘rsatkichi - bu aks ettirish darajasi bo‘lib, ya’ni o‘z harakatlarini, o‘zini, o‘zining MENini anglash demakdir. "Bu shaxs rivojlanishining turli tomonlarini, shu jumladan intellektual rivojlanishni o‘rganadigan asosiy mexanizmiga aylanadi". "Idrok" toifasi rus va xorijiy psixologik-pedagogik

qo'llanmalarda keng rivojlanadi. Biz tomonimizdan "idrok" tushunchasining muhim tahlili o'tkazildi, uning asosiy tarkibiy ko'rinishlari o'quv qo'llanmalarda, monografiyalarda aks ettirildi.



1-rasm. Nomenklaturaga ko'ra moddaning tarkibiy xossalari.

Quyida berilgan jadvalga binoan moddalarni tarkibi tuzilishi o'rganar ekanmiz, moddalarning nomenklaturasini talabalarga yaxshi tushintirib yetkaza bilishim shart. Shu qatorda moddalarning ichki fizik-kimyoviy hossasini yaxshi tushanadi.

Olib borilgan ilmiy tatqiqotlar natijasida shuni kuzatish mumkinki. Rus psixologiyasining taniqli klassiklari B. G. Ananiev, L. S. Vigotskiy, V. N. Drujinin, A. N. Leontiev, A. R. Luriya va boshqalar idrokning tarkibiy darajadagi xususiyatlarini ishlab chiqadilar, aqlning insonning umumiy rivojlanish tizimidagi alohida rolini ta'kidlaydilar, uni ijtimoiy moslashuv va ishga layoqatlilik bilan bog'laydilar. L. S. Vigotskiyning so'zlariga ko'ra, "idrok - bu tushunchalardagi fikrlash", bu yerda «verbalizatsiya, tasniflash, ratsionalizatsiya» tushunchalarining umumiylik o'lchovi asosiy xususiyat sifatida ishlaydi, - bu idrok tabiatini anglashning nazariy burchagi demakdir. A. N. Leontiev idrokni rivojlantirishda faoliyatning yetakchi roli haqida gapiradi. A. R. Luriya idrokning madaniy tabiati haqidagi bayonotni tan oladi. V. D. Shadrikovning ta'kidlashicha, idrok - qobiliyat, bilim, ko'nikmalar integral ko'rinishidir. V. P. Zinchenko idrokni bilish, muammolarni hal qilish, har qanday faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlaydigan va boshqa qobiliyatlarning ham asosida yotadigan umumiy qobiliyat deb biladi. Bir qator mualliflar idrok tushunchasiga hayotiy muammolarni hal qilishda inson tajribasi namunalarini o'zlashtirish va qo'llashga yo'naltirilgan qobiliyat sifatida qarashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ko'rsatib o'tilgan ishlarda kimyoni qolversa oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologiyasida ham o'rganish, izlanish kabi metodikasini o'qitish masalalari bilan bir qatorda bo'lajak kimyo o'qituvchisining

Intellektual faoliyatning (IF) namoyon bo'lish shakllari fikrlash uslubining mezonlari bilan bog'liq bo'lib, ularni aqliy faoliyatning muayyan xususiyatlari majmuasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- tezlik (g'oyalarning maksimal sonini, ma'lum bir muammoni vaqt birligida hal qilish usullarini ifoda etish qobiliyati);

- o'ziga xoslik (umumiy qabul qilingan, odatiy javoblardan farq qiladigan "noyob", nostandart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati);

- sezuvchanlik (g'ayrioddiy tafsilotlarga, qarama-qarshiliklarga sezgirlik, bir g'oyadan ikkinchisiga tezda o'tishga tayyorlik);

- moslashuvchanlik (o'zgaruvchanlik, variatsiya o'zgaruvchan), mavzuda ma'lum bilimlar, harakatlar usullari, aqliy operatsiyalar tizimining mavjudligi bilan tavsiflanadi, bu g'oyalarning xilma-xilligini, hodisalarning bir sinfidan ikkinchisiga o'tish qulayligini ta'minlaydi;

- obrazlilik (o'z fikrlarini ifoda etish uchun majoziy, assotsiativ vositalardan foydalanish tendensiyasi, shuningdek oddiylikda murakkablikni, murakkablikda esa oddiylikni

ko'ra olish qobiliyati). Protessual-dinamik xususiyatlar shaxsning xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq.

Oliy ta'limda kimyo fani asosida talabalarining intellektual-kreativ imkoniyatlarini rivojlantirish metodikasi, tamoyillari, tarkibiy tahlili hamda ustivorliklarini ko'rish mumkin. Adabiyotlarda tasvirlangan idrok turlarini tahlil qilish va tizimlashtirish intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida munosabatlarning besh turini ajratib ko'rsatishga olib keldi, bu esa tegishli bosqichlarni ajratish uchun asos bo'lib xizmat qildi, ularning har biri ushbu jarayonning ma'lum rivojlanish darajasi xususiyatlariga mos keladi: adaptiv - reproduktiv (adaptiv bosqichda) dan samarali - ijodiy (prognostik bosqichda)gacha. Talabalarining intellektual qobiliyatining rivojlanish darajasi, o'z navbatida, kimyoviy bilimlarni, materialni qabul qilish, o'zlashtirish va qo'llashga ta'sir qiladi, shuning uchun kimyoviy materialni qabul qilinish darajasiga qarab tasniflash uchun asos mavjud [7].

Shunday qilib, aniqlangan munosabatlar natijasida texnik universitetda kimyo fanini o'qitishda talabalarining intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonini boshqarish va loyihalash mumkin bo'ladi. Psixologik pedagogik tadqiqotlar natijalarini umimlashtirib, biz "shaxsni rivojlantirish", "psixikani rivojlantirish", "madaniyat", "intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish", "shaxsning intellektualligi" tushunchalarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatamiz. Aqlning rivojlanishi inson psixikasi bilan birga sodir bo'ladi. Psixikaning rivojlanishi yetuklik, biologik qonunlar tufayli o'z-o'zidan paydo bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aql madaniyat parametrlarida sintetik hisoblanadi [8].

Shaxsni rivojlantirishning o'ziga xos turi sifatida intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish shaxsning intellektual va kasbiy xususiyatlari va fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi, natijada shaxsning intellektualligini ta'minlanadi - bu esa umumiy madaniyatni sezilarli darajada boyitadigan texnik qatlam - mutaxassisning sifatini boyitadi. Texnik qatlam nafaqat "bilimdon", balki "fikrlaydigan" mutaxassislardir va bunda kelajakdagi mutaxassislarning intellektual rivojlanish yo'nalishlaridan biri ko'rinadi [9]. Shaxsning intellektualligi kelajakdagi kimyoviy soha mutaxassisining talab qilinadigan sifati kimyoni o'qitishda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining intellektuallik koeffitsientida (mezon-indikator xarakteristikasi) aks etadi

Shunday qilib, psixologiya, pedagogika, metodologiya tarixida talabalarining intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi bo'yicha umumiy tan olingan nuqtai nazarlar mavjud emas. Yu. N. Kulutkinning fikricha, insonning intellektual qobiliyatining rivojlanishi katta bo'lgan davrida ham sodir bo'ladi [10].

Tahlil va natijalar. Bizning fikrimizcha, talabalik yoshi intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ayniqsa qulaydir va kimyo fanini o'qitishda quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

- * shaxsning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish texnik universitetda talabalar rivojlanishining tarkibiy qismidir;

- * asos bo'lib fikrlash uslubini ta'minlaydigan kognitiv tajribani tashkil etishning o'ziga xos shakli xizmat qiladi;

- * asosiy harakatlantiruvchi kuch - bu shaxsning kimyo fanini o'qitishda intellektual faoliyatga bo'lgan ehtiyoji va uning intellektual tuzilmalarini shakllantirishning yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi;

- * shart va mamba bo'lib "texnik universitet - sanoat korxonasi - jamiyat" integratsiyalashgan ta'lim makonining talabalarining bilim tajribasini o'zgartirishga bo'lgan ta'siri xizmat qiladi;

- * intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish - kimyoni o'qitish jarayonida qiymat - maqsadli, ob'ektiv - mazmunli,

operatsion - dinamik, shaxsiy tarkibiy qismlarning bosqichma-bosqich to'planishi demakdir.

Kimyoni o'qitish natijasida intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish ikki rejada ko'rib chiqiladi: jarayonning birinchi natijasi ideal shaklda saqlanib qolgan ijtimoiy-madaniy tajribani taqdim etish yutuqlari asosida kimyoviy bilimlar tizimining o'sishi. Intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayoni natijasi mavjudligining ikkinchi rejasi - bu ma'lum bir tizimda o'qitilgan talabaning o'zi. Uning tajribasi, shakllangan intellektual xulq-atvor fazilatları, universal ko'nikmalar to'plami sifatida unga har qanday professional vaziyatda shu asosda yetarli darajada harakat qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda psixologik va pedagogik adabiyotlarni o'rganishda biz intellektual

qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini faollashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqladik. Kimyo o'quv mazmunining tarkibi va tarkibiy-tuzilmasining alohida ko'rsatilishining tub maqsadi, mazkur tuzilma bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar ilmiy tizimni o'quv fanlari tizimiga ko'chirish g'oyasining afzalliklariga tayanadi. Holbuki, oliy kasbiy ta'lim muassasalarida, asosan, OTMlarida maxsus fanlarning, birinchi navbatda kimyoviy majmuaga kiruvchi fanlarning o'quv mazmuni bilan ishlash metodikasi quyidagilar muhokama qilingan psixologik va pedagogik jihatlarni hisobga olgan holda biz texnika universitetda kimyo fanini o'qitishda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining mohiyati va mazmunini ochib borish uslublari kuzatdik.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. – № 6. 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni O'RQ-637-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,- 2020y. 23-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – B. 56.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-Toshkent, “O'zbekiston”, 2017. – B. 104.
5. Mutalboyev A., Murodov E., Masharipov S., Islomova H. Kimyo // 10-sinf uchun darslik. -Toshkent.- 2017.-48-66 b.
6. Meliboyeva G.S. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. T-Toshkent. -2020yil. -38-56 b.
7. Nishonov M., Teshaboyev S. Kimyoni o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish// Bioorganik kimyo fani muammolari. Respublika yosh kimyogarlar konferensiyasi materiallari. -Namangan. -2014. -B. 226-229.
8. Андреева, Г.М. Психология социального познания - М.: Аспект - Пресс, 2000. - 288 с.
9. Ахметов, Н.С. О построении школьного курса химии и Фундаментальных понятиях науки // Химия в школе. - 1995. - № 5. - С. 11-15.
11. Балл, Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. - М.: Педагогика, 1990. - 184 с.
12. Барышева, Г.А. Инновационный фактор и интеллектуальный ресурс в динамизации и экономике России. / Под ред. Ю.С. Нехорошева. - Томск: Томский ГУ, 2001. - 224 с.



UDC: 37(045)(575.1)

Ziyada DJUMANAZAROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi
E-mail: ziyada.jumanazarova9828@gmail.com

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON LEGAL EDUCATION AND PRACTICE

Annotation

Technology has significantly improved the efficiency, speed, and convenience of our daily operations. Faster business transactions, deeper learning and teaching, and generally improved positioning for the legal profession are all prevalent. The legal industry is renowned for its traditional values and conservative views, which many feel are essential to preserving the reputation of the profession. Nevertheless, this mindset can be under pressure from technology advancement. The profession has not been left behind by the waves of internationalization and advancements in technology that have swept through many facets of society. Nowadays, technology, particularly information and communication technology (ICT), is integral to both legal education and practice. The necessity of technology for successful and efficient legal practice and teaching is becoming more and more evident. This article looks at how crucial technology is to the present day legal practice and education. The extent to which technology has affected legal practice and education is the main topic of discussion.

Key words: Legal practice, legal education, technology, Information and communication technology (ICT).

TEKNOLOGIYANING HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOTGA TA'SIRI

Annotatsiya

Texnologiya kundalik ishlarimiz samaradorligini, tezligini va qulayligini sezilarli darajada oshirdi. Tezroq amalga oshiriladigan biznes tranzaktsiyalari, chuqurroq o'rganish va o'qitishni tashkilot qilish va umuman advokatlik kasbining yaxshilanganligi ko'p uchraydigan holatlardan hisoblanadi. Yuridik soha o'zining an'anaviy qadriyatlarini va konservativ qarashlari bilan mashhur bo'lib, ko'pchilik bu kasb obro'sini saqlab qolish uchun zarur deb hisoblaydi. Shunga qaramay, bu fikrlash texnologiya taraqqiyoti bosimi ostida qolishi mumkin. Bu kasb ham jamiyatning ko'p jabhalarini qamrab olgan xalqaro miqyosdagi to'liqlar va texnologiya yutuqlaridan chetda qolmadi. Hozirgi kunda texnologiya, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ham yuridik ta'lim, ham amaliyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Muvaffaqiyatli va samarali yuridik amaliyot va o'qitish uchun texnologiya zarurati tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Ushbu maqola texnologiyaning bugungi kundagi yuridik amaliyot va ta'lim uchun qanchalik muhimligini ko'rib chiqadi. Texnologiyaning yuridik amaliyot va ta'limga qanchalik ta'sir qilgani asosiy muhokama mavzusi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Yuridik amaliyot, yuridik ta'lim, texnologiya, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЮРИДИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАКТИКУ

Аннотация

Технологии значительно повысили эффективность, скорость и удобство нашей повседневной жизни. Преобладают более быстрые бизнес-операции, более глубокое обучение и преподавание, а также, в целом, улучшение позиционирования юридической профессии. Юридическая отрасль известна своими традиционными ценностями и консервативными взглядами, которые, по мнению многих, необходимы для сохранения репутации профессии. Тем не менее, такое мышление может находиться под давлением развития технологий. Профессию не оставили позади волны интернационализации и развития технологий, которые прокатились по многим аспектам жизни общества. В настоящее время технологии, особенно информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), являются неотъемлемой частью как юридического образования, так и практики. Необходимость технологий для успешной и эффективной юридической практики и преподавания становится все более очевидной. В этой статье рассматривается, насколько важны технологии для современной юридической практики и образования. Степень, в которой технологии повлияли на юридическую практику и образование, является основной темой обсуждения.

Ключевые слова: Юридическая практика, юридическое образование, технология, Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ).

Introduction. Technology has impacted all aspects of the legal profession, including education, government, and practice. The government has implemented changes in courts, federal institutions, and executive agencies. As Eicks stated that technology has a critical role in increasing productivity, expanding the availability of justice, and streamlining the demands for processing, reporting, monitoring, and communication. In order to stay competitive, law firms have realized how important it is to meet the requirements of their customers proficient in technology and offer technically-based services[1].

The impact of technology on our lives is undeniable. Technology has a profound effect on all aspects of human life, either positively or negatively. Utilizing mobile phones, computers, and other devices additionally the Internet; technology is everything, and it has the revolutionary ability to transform how people live their lives. Our tasks are completed more quickly due to technology, yet there is a risk of becoming overly dependent on it. It is an essential part of our everyday lives and has a big influence on both legal practice and education. Technology will always play a significant role in the development of legal practice and education throughout the globe.

According to Garner, in light of the aforementioned, it is crucial to define a few crucial concepts at this point: Technology, Information and Communication Technology (ICT), Legal Practice, and Legal Education[4]. The term "electronic or digital products and systems considered as a group" describes technology [2]. Therefore, in this sense, technology refers to the electronic items that provide us with information access. Therefore, in this sense, technology refers to the electronic items that provide us with information access. Burra comprehended that legal education is defined as "the process which equips the future lawyer, judge, administrator, counselor, and legal scientist to know how the government's judicial, executive, and legislative agencies structure and function"[3]. Consequently, it is a procedure that involves preparing students for careers in law. The general definition of legal practice is "the professional work of a duly licensed lawyer encompassing a broad range of services"[4].

Literature review. Legal practice involves applying all aspects of the law. It is important to note that legal practice should not be limited to just litigation. It should be seen as a focal point of a complex and sometimes interdisciplinary career. ICT refers to technology that provide telecommunications-based access to information[5]. ICT refers to technology that increase our availability of information. The technologies in question encompass computers and the Internet. Legal practice and education rely on several publications and resources, including statutes, court judgments, treatises, agreements, and messages. Articles and books were primarily intended for legal professionals. To argue to attorneys before the computer era that things could be different would have been ridiculous at the time. Technology, particularly ICT and the internet, has significantly impacted the legal sector and society as a whole.

According to Geist, although it was not before the 1980s that computers started to have a significant influence on legal education and research, the potential for their assistance had been recognized in the United States since the 1960s[6]. Since its launch in 1993, the majority of law schools and legal companies worldwide have similarly embraced the Internet[6]. Probably the most widespread application of technology is the usage of specific gadgets like computers, photocopiers, fax machines, scanners, phones, and so forth.

Research Methodology. Computers, specifically word processing programs like Microsoft Word, have become indispensable to the practice and teaching of law. The days of stenographs and typewriters are past. Using computers to submit data, verify its accuracy, record information, and retrieve earlier recorded data appears to be the standard, but this was not always the case. The developments of computerized legal instructions and computerized legal research have also had a significant influence on legislation.

Even though using technology in legal education and practice has many advantages, several obstacles make using technology effectively in the legal profession appear unachievable. Broussard concluded that the absence of Internet or technological awareness is the first issue both between legal educators and their pupils and between attorneys and their customers[7]. Some countries are far behind in this area compared to many developed nations that have successfully incorporated internet culture and technology. Many legal instructors, practitioners, and students remain stuck in the paper world and are unable to adjust to the pervasive digital culture. The planet is currently undergoing a technological revolution that cannot be stopped. Current legal students were introduced to computers and the Internet at a significantly earlier age (most likely in elementary school) than their instructors. Law instructors, lawyers, and students must collaborate to foster an internet culture without which, the field of law would be unable to fully profit from ICT. The

internet has led to the availability of free legal templates for new and existing clients. Machines are increasingly displacing human labor in providing legal services, notably with the use of AI technology. Lawyers may face reduced employment opportunities, particularly in areas like e-discovery agreements and procedures. Many young lawyers have become unemployed. Using technology to replace lawyers' labor would worsen the issue.

Analysis and results. Lawyers need to establish their own specialized skills to be competitive. Lawyers must focus on areas where they are necessary and cannot be replaced by technology. In the near future, Janis expressed that a successful legal practice will be one that adapts to changes in technology advancements, such as artificial intelligence (AI), and provides the aspects of legal services that robots cannot[8]. Without a doubt, technology cannot take the place of a lawyer's services since, even when a lawyer drafts legal papers, the client receives not only a lawful document but also some assurance that the document will be able to be accomplished by the lawyer's skill and expertise[8].

We intend to investigate the primary characteristics of the digital marketplace that impact legal education, as well as a number of practical recommendations that adhere to criticisms of this approach. To achieve this, some of the most important recommendations made by law and education professionals for changing legal education in the face of technological availability were examined. In the second phase, the modifications that the university system has undergone as a result of the entrance of AI into industries and institutions were explicitly examined. Lastly, both the implications of AI in legal education and recommendations for reforms that legal education must undergo were investigated. It was determined that legal education must shift from an old-fashioned theoretical position to a potential and projective position, integrating expertise from technological fields and quantitative approaches while maintaining traditional normative skills, and communicative principles that are highly valued by law professionals, emphasizing the importance of developing student creativity. It is also concluded that higher education programs should include coding in their educational programs, in addition to promoting students' creativity and interpersonal skills; yet, a regulation should be established concurrently, taking into account the potential ethical hazards of using AI in teaching.

The impact of technology on legal education and practice has been significant, revolutionizing the way law is taught and practiced. Here are some key findings from the research results:

1. *Impact on Legal Education:* Technology has redefined legal education globally, enhancing research tools and access to legal content for law students regardless of their physical location.

2. *Impact on Legal Practice:* Existing legal technology could automate 23% of lawyers' workloads, transforming the legal field and improving efficiencies in tasks such as research, document review, and case analysis.

3. *Legal Research Skills:* Information technology's rapid change profoundly impacts legal education and legal practice, with a focus on computer-assisted legal research instruction.

4. *Legal Technology in Nigeria:* Technology has made significant changes to legal education and practice in Nigeria, with the incorporation of ICT into the curriculum and the application of technology to legal research.

These results highlight the transformative impact of technology on both legal education and practice, emphasizing the importance of integrating modern technology into the legal field for improved efficiencies and enhanced learning experiences.

Conclusion. Since the 1980s, technology has had a profound effect on legal education and practice, particularly in sophisticated states. The utilization of CALR and CAI demonstrates this fact. Some jurisdictions use AI to facilitate e-discovery. Legal software can assist lawyers in providing more efficient legal services which are to be provided to clients. Jumanazarova declared that although developing countries are new adopters of technology in the legal profession, it has become an indispensable tool for teaching and practice[9]. Law colleges are increasingly embracing

LMS and LawPavilion, a CALR portal that enables quicker and more effective research for lawyers.

While there are obstacles to implementing technology in the developing countries' legal system, the advantages outweigh them. Mukhtorova affirmed today's law students and young lawyers are increasingly tech-savvy and integrate it into their daily practices[10]. The next generation of attorneys and law students will be technologically proficient and capable of greater success.

REFERENCES

1. Eicks, J. Educating Superior Legal Professionals: Successful Modern Curricula Join Law and Technology, n.d. Retrieved April 30, 2015, 185-198.
2. Webopedia. Technology, n.d. Retrieved April 30, 2015, from <http://www.webopedia.com/TERM/T/technology.html>
3. Burra, M. R., & Madasu, V. N. Importance of Internet Facility in Support of Legal Education and Legal Research, n.d. Retrieved April 30, 2015, 443-458
4. Garner, B. A. (Ed.). Black's Law Dictionary (8th ed.). West. 367-385.
5. Techterms. Technology, 2004. Retrieved April 30, 2015, from <http://techterms.com/definition/ict>
6. Geist, M. A. Where Can You Go Today?: The Computerization of Legal Education From Workbooks to the Web. Harvard Journal of Law and Technology, 1(1), 1997. 141-143.
7. Broussard, C. Teaching with Technology: Is the Pedagogical Fulcrum Shifting? New York Law School Law Review, 2008/2009. 53- 903.
8. Janis, B. How Technology Is Changing the Practice of Law, n.d. Retrieved April 22, 2015, 542-567, from http://www.americanbar.org/publications/gp_solo/2014/may_june/how_technology_changing_practice_law.html
9. Jumanazarova, Z. A. The role of proverbs in human life and their nationalcultural characteristics. Academic research in educational sciences, 4 (11), 2023. 430-433.
10. Mukhtorova, N. S. WHAT IS THE ANTONYMIC TRANSLATION?. Academic research in educational sciences, 4 (11), 2023. 422-429.



Nozima IBRAGIMOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L.Muxtarova taqrizi asosida.

MATEMATIKA VA FIZIKA FANLARINI O'ZARO BOG'LAB O'QITISHDA MATEMATIK OLIMPIADA VA TANLOVLARNING O'RNI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada matematika va fizika olimpiadalarining o'quvchi hamda talabalar hayotidagi o'rni, olimpiadalarni o'tkazish tartibi va mexanizmlari haqida so'z boradi. Fan olimpiadalariga haqida dunyo va Yangi O'zbekiston tajribalari haqida ham so'z boradi. Shu bilan birga mazkur maqolada umumta'lim o'rta maktablarida matematika va fizika fanlariga oid tushunchalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uzviy bog'liqlikda turli miqdorlarni ham o'rganish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: mantiq, tafakkur, kreativ, integratsiya, tanlov, motivatsiya, akademik muhokama.

CONNECT MATHEMATICS AND PHYSICS ROLE OF MATHEMATICS OLYMPIAD AND COMPETITIONS IN EDUCATION

Annotation

This article talks about the role of mathematics and physics olympiads in the lives of pupils and students, the procedure and mechanisms of conducting the olympiads. Science Olympiads are also discussed about the experiences of the world and New Uzbekistan. At the same time, this article envisages the study of concepts of mathematics and physics in general secondary schools in connection with information and communication technologies.

Key words: logic, thinking, creative, integration, choice, motivation, academic discussion.

СОЕДИНЯЕМ МАТЕМАТИКУ И ФИЗИКУ РОЛЬ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ОЛИМПИАД И СОРЕВНОВАНИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье говорится о роли олимпиад по математике и физике в жизни школьников и студентов, порядке и механизмах проведения олимпиад. На научных олимпиадах также обсуждается опыт мира и Нового Узбекистана. В то же время в данной статье предусмотрено изучение понятий математики и физики в общеобразовательных школах в связи с информационно-коммуникационными технологиями.

Ключевые слова: логика, мышление, творчество, интеграция, выбор, мотивация, научная дискуссия.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy pedagogika fani shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'quv muammolarini qo'yish va hal qilishda faol, rivojlanuvchi va ijodiy hamkorlik sifatida tashkil etilsa, eng samarali hisoblanadi. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, albatta, faol, rivojlanuvchi va ijodiy ta'lim muammolarini hal qilishi kerak. Ular sizga o'rganishning yangi darajasiga ko'tarilish imkonini beradi, o'qituvchi va o'quvchi uchun tezlikda erishib bo'lmaydigan imkoniyatlarni ochadi.

Matematika aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan deb e'tirof etilgan bo'lib, tafakkur-voqelikni bilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatning yuksak shakli hisoblanadi. Matematikada tafakkur yuritish mantiqiy qonunlar asosida amalga oshiriladi. Bugun o'quvchilar o'rtasida matematika faniga qiziqish har qachongidan ham rivojlanib bormoqda. Zero, fan olimpiadalarida yoshlarimiz ko'rsatayotgan natijalar fikrimizning yaqqol dalilidir. Shu bois yurtimizda matematika darslari sifat va samaradorligini oshirishni avvalo boshlang'ich ta'limdan boshlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Buyuk kelajak esa zukko, topqir, bilag'on yuksak ma'naviyatli avlod bilan quriladi. Shunday ekan bilag'on, topqir, zukko yoshlarni tarbiyalash, ularda topqirlik, zukkolikni qaror toptirish ta'lim muassasalarining,

xususan, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktablarning oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Endi bevosita matematikaga oid fan olimpiadalariga haqida to'htalib o'tsak. 1934 yili birinchi marta Leningrad universitetida matematika fani bo'yicha fan olimpiadasi B.N.Delone, G.M.Fixtengols, V.A.Tartarovskiy kabi professorlar tashabbusi bilan o'tkazilgan edi. Xuddi shunday olimpiada 1935 yilda Moskva Fanlar Akademiyasining korrespondenti a'zosi professor L.G.Shnirelman va L.A.Lyusternik rahbarligida, Toshkentda esa Toshkent Davlat universitetining dotsenti A.P.Domoryad tashabbusi bilan o'tkazilgan. Bu olimpiadaga boshqa markaziy shaharlardagi matematika o'qituvchilari, ilmiy xodimlar, olimlar ham katta e'tibor bilan qaraganlar. Shundan keyin mamlakatimizda matematika olimpiadasi maktablarning va oliygohlarning an'anasiga aylanib qoldi.

Tahlil va natija. Farobiyning fikricha - insonning tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishida mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, urf odatlari, ma'lumoti, tashqi muhit, boshqalar bilan muloqotda vujudga keladi. Insonning aqli, fikri ruhiy yuksalishning eng yetuk maxsuli bo'ladi.

“Matematika” so'zi grekcha “bilish, fan” so'zidan olingan bo'lib, bizga qadimgi Yunonistondan yetib kelgan. Bu fan o'z rivojlanish davri mobaynida quyidagi davrlarni bosib o'tgan:

1) matematikaning paydo bo'lish davri-amaliy hisoblashlar va o'lchamlar, son va shakl tushunchalari shakllanishi bilan belgilanadi. Bu davrda arifmetika va geometriya kabi matematikaning bo'limlari o'z boshlang'ich asoslariga ega bo'ldi.

2) o'zgaruvchi miqdorlar davri-eramizgacha VI-V asrlardan boshlanib, bu davrda matematika fani tadqiqot tushunchalariga (son va shakl), usullariga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida shakllandi. Bu davrda matematikaning yangi sohasi-algebra fani paydo bo'ldi va rivojlandi.

Bunda buyuk vatandoshlarimiz Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Umar Hayyom, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Al-Farg'oniyning xizmati katta bo'lgan.

3) o'zgaruvchi miqdorlar davri XVII asrdan boshlanib XIX asrning birinchi yarimigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, matematikaning tadbiiq qilish sohalari ko'paydi, funksiya va u bilan bog'liq, uzluksizlik va harakat g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi. Matematik tahlil tarkib topdi va takomillashtirildi.

4) o'zgaruvchi miqdorlar davrida abstrakt nazariyalari, matematik tuzilmalarning roli oshdi va modellashtirish usuli keng qo'llanila boshlandi. Bu davr XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgacha bo'lgan davrni qamrab olib, fanda algebrlik tuzilmalar, yangi nazariya va yo'nalishlarning paydo bo'lishi va rivojlantirilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi paytda matematika yanada taraqqiy etib, turli nazariy kashfiyotlar bilan birgalikda uning amaliy tadbiiqlari ko'payib bormoqda.

Bilamizki, olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq amalga oshirilmoqda. Bunda matematik savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U

hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Matematik savodxonlik bir tomondan matematikani qo'llab masala yechishni, ikkinchi tomondan esa matematik mulohaza yuritishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritishi asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni “matematika tilida ifodalash (matematik modellashtirish)”, “matematikani qo'llash”, “topilgan matematik yechimni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash” kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Qisqacha qilib, bu faoliyat turlari “mulohaza yuritish”, “ifodalash”, “qo'llash” va “talqin qilish” va “baholash” deb yuritiladi.

Matematik savodxonlikni aniqlashda o'quvchilarning baholanadigan, yuqorida keltirilgan, mulohaza yuritish asosida kechadigan har bir aqliy faoliyat turi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishni ham talab qiladi. Vaziyatlarni matematik tilda ifodalash:

– inson faoliyatining turli jabhalari: shaxsiy hayot, kelajakdagi kasbiy faoliyat, o'quv faoliyati, jamiyatdagi ijtimoiy hayot, fan va texnikaga doir turli kontekstlarda berilgan muammoli vaziyatlar mohiyatini o'qib tushunish;

– berilgan vaziyatni tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash;

– muammo va vaziyatlarda berilgan matematik tuzilmalar (qonuniyatlar va munosabatlar)ni tanib olish;

– muammo va vaziyatlarni soddalashtirish, ularni alohida masalalarga bo'lish;

– vaziyat tavsifida berilgan ma'lumotlardan amalda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, qayta ishlash va muammoni matematik masala ko'rinishida ifodalash;

– muammoli vaziyatning muhim jihatlari aks ettirilgan matematik modelni tuzish, matematikani qo'llash;

– amaliy matematik masalani yechish uchun o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar, g'oyalar, qonuniyatlar, algoritmlar va metodlardan foydalanish;

– masalani yechishning muqobil usullarini tahlil qilish, tanlash va asoslash; – masalani (muammoni) yechish jarayonida yangi matematik bilimlarni hosil qilish va ularni o'zlashtirish;

– matematik taxminlarni ifodalash va tadqiq qilish, matematik asoslash, taqqoslash va baholash;

– tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish, modellashtirish uchun turli matematik talqin usullaridan foydalanish.

Matematika va fizika olimpiadalarning o'rni pedagogik usullar, darsliklar va ma'lumotlar taklif etishda juda katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarni matematika va fizika bilimlari bilan qiziqishini oshirish, ularni o'zlarini test qilish va masalalarni hal qilishda o'zlarini rivojlantirish uchun qiziqarli va samarali usullar taklif etishadi. Olimpiada va tanlovlar o'quvchilarga matematik bilimlarini o'rganishda kengayishga imkoniyat beradi va ularni muammolarni hal qilishda innovatsion va yaratuvchi yondashuvlarga erishishga olib keladi.

Matematika va fizika olimpiadalari o'quvchilarni o'zlarini rivojlantirish va yuqori natijalarga erishish uchun motivatsiyalashda katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarga maqsad qo'yima, qiziqishni oshirish va ularga ilhom ochishda yordam beradi. O'quvchilar olimpiadalarda muvaffaqiyatga erishish orqali o'zlarining kuchli tomonlarini, qobiliyatlarini

va imkoniyatlarini tushunishadi, ularni ilg'or o'rganish va shaxsiy rivojlanish uchun ilhomlarni yaratishadi.

Matematika va fizika olimpiadalarida qatnashuvchilar o'zlarining o'quv va o'quvchi faoliyatlari orqali akademik kuch va tanqidiy muhokamani rivojlantirishlari mumkin. Ular muammolarni hal qilish va natijalarni amalga oshirishning har bir bosqichida o'zlarining fikrini ifodalaydi, argumentlarini kuzatib, va natijalarini justifikatsiya qilishlari kerak. Bu jihatlardan, olimpiada va tanlovlar o'quvchilarga kritik fikrlash va taqdir qilish ko'nikmalarini oshirishda katta yordam beradi.

Matematika va fizika olimpiadalarining o'rni - matematika va fizika o'qitish sohasidagi yuqori malakani namoyish etishda juda muhimdir. Bu olimpiadalar o'quvchilarga matematika va fizika bilimlarini sevimli va qiziqarli qilishda yordam beradi, ularni muammolarni hal qilishda yaratuvchi va innovatsion yondashuvlarga olib keladi, va ularga akademik kuch va tanqidiy muhokama o'rganishda o'zlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Matematika va fizika faniga oid sinfdan tashqari ishlar quyidagi didaktik vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

✚ fan bo'yicha asosiy bilimlarni egallash;
✚ olingan bilimlarni tizimlashtirish;
✚ O'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

✚ umumiy o'rganish uchun motivatsiyani, xususan, ma'lum bir fanni shakllantirish.

Endi dunyo hamjamiyatida matematika va fizika faniga oid turli tanlovlar, fan olimpiadalar va ulardan kutilayotgan natijalar haqida to'htalib o'tsak. bilamizki, dunyo ilm-fanida matematika va fizika fanlarini o'qitishda yuksak natijalarga erishilmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, matematika fanining xos xususiyati (tushunchalarning abstraktligi (mavxumlgi) va fikrlarning mantiqiy tasdiqianishi), o'quv materiali mazmunini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'rganiladigan matematika kursining mazmunini ikki qismga: nazariy material va matematik masalalarga ajratish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent "O'zbekiston" 2016-yil 59 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.
4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
5. M.Sharipov, D.Fayzixo'jaeva. Mantiq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. "O'AJBNT".-T., 2004.
6. Umid Ismoilov. Matematikadan olimpiada masalalari. Yangi asr avlodi. 2007.
7. M.A.Mirzaahmedov, Sh.N.Ismailov. Matematikadan qiziqarli va olimpiada masalalari (1 qism).2018 yil.
8. B.I.Abdullayev, J.U.Xujamov, R.A.Sharipov. Matematikadan olimpiada masalalari. Urganch-2016.
9. H.Norjigitov, A.X.Nuraliyev. Matematikadan olimpiada masalalari. Guliston-2020.



Sayid ISLIKOV,
Guliston davlat universiteti Masofaviy ta'lim kafedrasini mudiri
E-mail: sayidislikov@gmail.com

P.f.b.f.d (PhD), dotsent M.Niyozov taqrizi asosida

FEATURES OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING

Annotation

The article examines in detail distance education in the education system, its features, methods, forms and means of organizing the distance education system, the significance, achievements and disadvantages, their types.

Key words: educational process, distance education, distance learning, student, teacher.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В статье подробно рассмотрено дистанционное образование в системе образования, его особенности, методы, формы и средства организации системы дистанционного образования, значение, достижения и недостатки, их виды.

Ключевые слова: образовательный процесс, дистанционное образование, дистанционное обучение, студент, преподаватель.

MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida masofaviy ta'lim va uni o'ziga xos xususiyatlari, masofaviy ta'lim tizimini tashkil qilish usul, shakl va vositalari, ahamiyati, yutuq va kamchiliklari, ularning turlari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, masofaviy ta'lim, masofaviy o'qish, ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi.

Kirish. Globallashuv davri insoniyat tsivilizatsiyasida axborotlashgan jamiyat davrining boshlanishiga turtki berdi. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, xalqaro kommunikatsion aloqalar, fan, ta'lim va ishlab chiqarishni shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda insoniyatning butun umr davomida ta'lim olishini, ya'ni o'z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashini, kompetentsiyalarini takomillashtirishini taqozo etmoqda, bu esa, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlanishi va elektron aloqa tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. Ko'pchilik axborot texnologiyalar asosi internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtdan foydalanish kabi xizmatlar uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya'ni internet turli sohalariga tadbiiq qilindi. Internet texnologiyalari -masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, onlayn savdolar, onlayn treninglar, internet magazinlar va boshqalar.

Bugungi kunda masofaviy o'qitish tizimi dolzarb masalalardan bo'lib, uning uslublari, texnologiyalari, usul va vositalarini yanada takomillashtirish muhim sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-sonli qarori xam tasdiqlangan.

Shuningdek MDH olimlari tomonidan masofaviy o'qitish shakllari bo'yicha A.A.Andreev, E.S.Polat,

V.A.Kuklev, A.L.Safonova, M.I.Solodkova, V.P.Tixomirov va boshqada olimlar tomonidan mazmuni ochib berilgan.

Masofaviy ta'lim tizimining yuqorida tadqiq qilingan jihatlari xorij olimlari I.Allen, A.Amadco, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Dougiamas, P.Taylorlar izlanishlarida ham o'z aksini topgan. Mamlakatimiz olimlari tomonidan esa masofaviy ta'lim tizimi o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, uning didaktik va uslubiy asoslari bo'yicha A.Abduqodirov, U.Begimkulov, N.Muslimov, A.Hayitov, M.Lutfillaev, N.Taylaqovlar va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgaray kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa veb-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi. Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'miga masofaviy ta'lim elementlari kirib keldi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladi. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqozaga etmaydigan, mutaxassslicligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini

o'shinish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan.

Oldindan tasmasga muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalari o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qitish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qitish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.


Bugungi kunda masofaviy ta'limni tashkil qilish asoslari quyidagicha:

Korrespondentlik ta'limi. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar orasidagi o'zaro faoliyat to'lig'icha pochta orqali yozishmalar vositasida o'tadi. Bu usuldan hozirgi kunda deyarli foydalanilmaydi, lekin imkoniyati cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishini tashkil etish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq.

Keysli o'qitish. Bu texnologiyada o'quv-metodik materiallar maxsus to'plam "keys" ko'rinishida ta'lim oluvchiga mustaqil o'rganish uchun beriladi va unga ta'lim beruvchi tomonidan vaqti-vaqti bilan maslahatlar berib, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar belgilangan jadval asosida nazorat qilib boriladi. Turiga qarab 1 oydan 6 oygacha bajaradigan keyslar bo'lishi mumkin.

Televizion o'qitish. Ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun radiotranslyatsiya tarmoqlari va televideniening quvvatlari, imkoniyatlari va resurs potentsialidan foydalanish orqali masofadan o'qitish nazarda tutiladi.

Tarmoqli texnologiya. Global tarmoq orqali ta'lim oluvchilarni o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash hamda turli xil interfaol aloqalar vositasida ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining o'zaro o'quv faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu bugungi kunda istiqboli porloq va rivojlanib borayotgan masofaviy o'qitish texnologiyasi hisoblanadi.



1-rasm. Masofaviy ta'lim turlari

Masofaviy ta'limning hozirgi sharoitda quyidagicha tashkil etish mumkin:

- Moodle tizimi orqali ta'lim jarayonini tashkil qilish. Bunda tizimga fan bo'yicha asosiy resurslar: ma'ruza, test, darslik, glossariy, taqdimotlarni kiritish va tizimni boshqarish;
- Telegramm messendjeridan har bir guruhlar kesimida kanallarni ochib, ta'lim resurslari- ma'ruza, test, darslik, glossariy, videodarslarni joylashtirish;
- Xar bir fan bo'yicha imkoniyatdan kelib chiqib videodarslar ishlab chiqish;
- Fakultetlarda fanlarni webinar va onlayn shaklda tashkil qilish (Zoom va boshqa dasturlar orqali).

Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- moslashuvchanlik (ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imoniyati mavjudligi);
- modullilik – bir-biri bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi;
- parallellik – o'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi;
- keng qamrovlilik – ko'p sonli talabalarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va b.) zahiralari murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli talabalarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati;
- iqtisodiy tejamkorlik – o'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish orqali mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytirish imkoniyati;
- ijtimoiy teng huquqlilik – ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati;
- internatsionalilik – ta'lim sohasida erishilgan, jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

Masofaviy ta'lim o'z oldiga barcha ta'lim oluvchilarning birdek talim olishiga sharoit yaratib berishni, ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirgan holda ta'lim berish sifat uzluksiz ta'lim darajasini oshirishni, asosiy faoliyat bilan bir qatorda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratib berishni, uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni, yangi tamoyillar asosidagi ta'lim darajasini ta'minlashni maqsad qilib belgilagan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlarda aniqlanishicha masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limdan aslo qolishmaydi. Balki samarasiga ko'ra ustunlik jihatlari ham bor. Negaki, o'quv materialining asosiy qismini ta'lim oluvchi o'zi mustaqil o'qib-o'rganadi. Bu o'tilgan mavzularni puxta o'zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi. Buning ustiga darslarni yangi texnologiyalar vositasida o'qitish ta'lim oluvchi uchun qiziqarli va mazmunli bo'ladi. Bunday ta'lim tizimida darsliklar,

qo'llanmalar etishmasligi kabi muammolar bo'lmaydi. O'quvchi o'quv materialini elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoq orqali qabul qilib oladi. Shu bilan birga ma'lum saytlarga obuna bo'lishi, ma'lumotlar bazasiga kirib, o'ziga kerakli axborotlarni olishi mumkin.

Masofaviy ta'limni tashkil etishning ijobiy jihatlari quyidagi qulayliklarni qamrab oladi:

- ushbu ta'lim shaklida yoshi hamda ijtimoiy holatidan qat'i nazar, aholining keng qatlami ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda;

- masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan ta'lim oluvchilar uchun ham, oliygo'har uchun ham samaralidir, chunki unda boshqa an'anaviy ta'lim turlariga qaraganda xarajat va to'lovlar ancha kam. Shuningdek, oliy ta'limning mazkur shakli ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga oliy ta'lim muassasalariga borish-kelish uchun sarflaydi-gan vaqtni tejash imkonini bermoqda. Bunda tejalgan vaqt hisobiga yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyati ortadi;

- ishdan ajralmagan holda ta'lim olishni xohlovchi talabalar ushbu ta'lim shaklida o'qish vaqti, joyi va o'quv yurtini o'z xohishiga ko'ra tanlashi mumkin;

- maxsus dasturlar yordamida talabani bilmomini baholashda xolislikning ta'minlanishi va korruptsiyaviy holatlarning ancha kamligi ma'lum bo'lmoqda;

- talabada mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Yuqoridagilar bilan birga, masofaviy ta'limning salbiy jihatlarni ham keltirish mumkin:

- Masofaviy ta'lim ishtirokchilarining erkin savollar bera olmasliklari va hammaning birdek faol bo'lishining cheklanganligi.

- Doimiy virtual muloqotlarning ko'z nuriga zarar etkazishi va muntazam ko'rish funktsiyasi sabab nerv-asab tolalarining toliqishiga sabab bo'ladi.

- Masofaviy ta'lim xotirani kuchaytirsada, irodaning sustlashishi va dangasalikga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, masofaviy o'qitishni ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha jahonda etarlicha tajriba to'plangan va ularning tahlilining ko'rsatishicha masofaviy o'qitish, an'anaviy ta'lim muassasalaridagi o'qitishga qaraganda arzoniga tushadi. Bugungi kunda ko'pgina ta'lim muassasalari, yirik korxonalar va tashkilotlar o'z mutaxassislarini tayyorlashda, malakasini oshirishda ushbu tizimdan keng foydalanib kelmoqda, bu o'z navbatida ta'lim oluvchining mustaqil bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan birga, muammolarsiz amaliy faoliyatni davom ettirishiga katta imkoniyat bermoqda. Masofaviy ta'limning yana bir qulayligi o'qitish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy texnik infratuzilmaning tejalishi bo'lib, moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi.

Masofaviy ta'limning muammoli jihati shundaki, bunday jarayonda o'quvchi barcha materialni mustaqil tarzda o'qib-o'rganishi kerak. Shuning uchun undan iroda kuchi, mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan, 2009
2. Mamataliev T. Masofaviy ta'lim: ta'limning yangi imkoniyatlari: metodik qo'llanma – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 y. – 28 b.
3. Shaymatov J.N., Masofaviy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari / Academic research in educational sciences volume 2 issue 2 /2021 284-291 b.
4. Allayarova S.N., Sayitova U.H. Masofaviy ta'lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari / Academic research in educational sciences volume 2 issue 1 / 2021, 930-936 b.
5. E-learning: concepts, trends, applications. Corporation Trust Center by Epignosis LLC 2013.
6. The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Siân Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education Academy, 2013.



UDK:37.015.3(-053.4)

Umida ISMADIYAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail:muhammadibrohim280219@gmail.com

O'zMU dotsent Sh.Usmonova taqrizi asosida

OLIV TA'LIM TASHKILOTI TALABALARINING TA'LIM JARAYONIGA ADAPTATSIYA HOSIL QILISHIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MAHOTRATINING SHAKLLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy adaptatsiyasi jarayonidagi o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalarni ushbu jarayonga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim tizimi, adaptatsiya, tanqidiy fikrlash, pedagogik vaziyat, «Olti shlyapa», «Blum moychechagi», «Bashorat daraxti».

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УМЕНИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ФОРМИРОВАНИИ АДАПТАЦИИ К ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМУ ПРОЦЕССУ СТУДЕНТОВ ОРГАНИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье рассматривается специфика процесса профессиональной адаптации дошкольников. Обсуждается влияние технологий критического мышления на этот процесс.

Ключевые слова. Система дошкольного образования, адаптация, критическое мышление, педагогическая ситуация, «Шесть шляп», «Ромашка цветения», «Вещее дерево».

FORMATION OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SKILLS OF A TEACHER IN THE FORMATION OF ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS

Annotation

The article discusses the specifics of the process of professional adaptation of preschoolers. The influence of critical thinking technologies on this process is discussed.

Key words. Preschool education system, adaptation, critical thinking, pedagogical situation, "Six hats", "Blossom chamomile", "Prophetic tree".

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, shu kunga qadar deyarli e'tibor qaratilmagan maktabgacha ta'lim soxasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlar vatanimiz kelajagidir. Bu sharaflari vazifani bajarish pedagoglar zimmasiga tushadi. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'ini uchun yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish maqsadida 2019 yil 16 dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul

qilindi. Shuni hisobga olgan holda, o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks choratadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga ayrim tizimli kamchiliklar to'sqinlik qilmoqda. Bulardan biri, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining qo'nimsizligi bilan bog'liq.

Muhokama va natijalar. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimi islohoti munosabati bilan yosh mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ancha oshdi Ammo mutaxassislik bo'yicha tajribaning kamligi, ba'zida esa umuman yo'qligi, ham kasbiy, ham kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarning etishmasligi odatda moslashish jarayonini murakkablashtiradi. Bu esa o'z navbatida aynan ushbu soxada ko'plab nomutaxassis kadrlarning faoliyat olib borishiga sabab bo'ladi. Bolaning maktabgacha bo'lgan davrida juda muhim psixologik rivojlanish bosqichlari mavjud bo'lib, bu mutaxassisdan pedagogik-psixologik kompetentlikni talab etadi. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarida adaptatsiya jarayonidagi bir qancha o'ziga xos muammolar shaxs tomonidan ijobiy xal qilina olmagach, soxani tark etish holatlari mavjudir. Buning natijasida bo'sh ish joylariga nomutaxassis kadrlar olinadi.. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yosh mutaxassislarni kasbiy moslashuv jarayoni deyarli o'rganilmagan. Buning sababi – pedagogik-psixologik yondashuvni ta'minlovchi mavjud tizimning mukammal emasligidir. Ana shu nomutanosiblikning yechimini topish

mazkur maqolaning muammosini tashkil etadi va uning dolzarbligini belgilaydi. Yosh mutaxassislar mehnat bozorining eng zaif qatlamlaridan biri bo'lib, moslashuv muammosi ularni eng jiddiy muammolaridan biridir.

Moslashuv jarayoni barcha mutaxassislar uchun birdek tez va og'riqsiz bo'lmaydi, ya'ni yosh mutaxassislar ta'lim muassasini tugatgandan so'ng, birinchi marta mehnat jamoasiga kirganda, birdaniga uning faoliyatiga kirishib keta olmaydi. Hozirgacha ko'pgina davlat korxonolari va tijorat tashkilotlarida hatto oddiy moslashuv dasturlari ham mavjud emas.

Mutaxassislikka ega bo'lgan yoshlarning mehnat bozoriga "kirishi" muammosi, asosan, ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq, bunda bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish va mehnat jarayoni haqidagi fikrlari ish joyidagi real vaziyat va talab bilan mos emasligini ko'rsatadi. Yosh mutaxassislar mehnat bozoriga kirishga psixologik tayyor emasligi ish beruvchilar tomonidan universitet bitiruvchilarini tushinishda salbiy stereotiplarning shakllanishiga olib keladi. Albatta bitta maqola doirasida ushbu muammo yechimining faqat bitta jixatini ko'rib chiqish mumkin.

«Ustoz-shogird» tizimi doirasida taklif etilayotgan treninglar tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida tashkil etilishi, yosh mutaxassislarni adaptatsiya jarayonini muvaffaqiyatli xal etishi mumkin. Tanqidiy fikrlash – bu yosh mutaxassisga adaptatsiya jarayonida taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi.

"Tanqidiy fikrlash" - bu ma'lum bir pedagogik yondashuvning belgisi bo'lib, matnga, tanqidiy munosabat asosidagi pedagogik texnika sifatida o'rganila boshlangan. "Tanqidiy fikrlash" - yangicha qarash, bu texnologiya bilishning yangi usulini rivojlantirishni ta'minlaydi. "Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi asosida tashkil etilgan treninglar yosh mutaxassislarni o'zlarini savol berishga undaydi va javob izlashni faollashtiradi. Shunday qilib, "Tanqidiy fikrlash" bu shaxsga taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi.

"Tanqidiy fikrlash"ning maqsadi mutaxassislariga adaptatsiya davridan keyingi mehnat faoliyatida zarur bo'ladigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat (asosli qarorlar qabul qilish, ma'lumot bilan ishlash, asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratib ko'rsatish, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati). "Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi mutaxassisning intellektual va hissiy faoliyatini faollashtirib, shaxsiyatini mehnat jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining asosiy maqsadlaridan biri – shaxsni mustaqil fikrlash, tushunish, ma'lumotni tuzish va yetkazishga o'rgatish, ya'ni u o'zi uchun qanday yangiliklarni olganligini boshqalar ham bilib oladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi XX asrning 90-yillari o'rtalarida amerikalik mohir pedagoglar: J. Stil, K. Meredit, C. Templar tomonidan fikrlashni qanday o'rgatish kerak degan savolga javob beradigan maxsus o'qitish usuli sifatida taklif qilingan. Ularning fikricha, tanqidiy fikrlash ta'lim berishda insonning tadqiqot usullaridan foydalanishini: o'z oldiga savol qo'yishni va ularga tizimli ravishda javob izlashini bildiradi. Yosh mutaxassislar pedagogik masalalarni bajarish orqali, bir-biri bilan faol muloqotda bo'ladilar, muammoni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni olishda ham bilimlar faollashadi. Natijada yosh mutaxassislar tanqidiy fikrlash qobiliyatini tavsiflovchi yangi sifatga ega bo'ladilar. Pedagogik olimlar tanqidiy fikrlashning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatishadi: -inson bilan sodir bo'ladigan barcha narsadan ijobiy tajriba shakllanishi natijasida fikrlash samaradorligi oshadi; -muammoli va baholovchi fikrlash; -umumlashgan fikrlash; -mustaqil va

mas'uliyatli fikrlash; -asosli fikrlash, chunki ishonchli dalillar puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishga imkon beradi; -ko'p qirrali fikrlash, chunki u hodisani turli tomonlardan ko'rib chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladi; -individual fikrlash, chunki u axborot bilan ishlashning shaxsiy madaniyatini shakllantiradi; -ijtimoiy fikrlash, chunki ish juftliklar, guruhlarda amalga oshiriladi; o'zaro ta'sirning asosiy usuli -munozara. Insonga tanqidiy fikrlash kerak, bu unga odamlar orasida yashashga, ijtimoiylashishga yordam berib, yosh mutaxassisni adaptatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy mutaxassisga qo'yiladigan talablar orasida «Tanqidiy fikrlash» asosida shakllanadiganlari quyidagilar: - o'z fikrini shakllantirish; -turli xil fikrlar orasidan asoslisiga tanlov qilish; -muammolarni hal qilish; -bahsda asos keltirish; -umumiy yechim paydo bo'ladigan jamoaviy ishni qadrlash; -birovning nuqtai nazarini baholay olish va har qanday masalada insonning idrok va munosabati ko'pgina omillar ta'sirida shakllanganishini tan olish. "Tanqidiy fikrlash" asosidagi «Ustoz-shogird» treningini tuzilishi: 1-bosqich - "Challenge" (CHAqiriq. Bo'shliqni to'ldirish). Berilgan vaziyat bo'yicha yosh mutaxassis o'ziga "Men nimani bilaman?" degan savolni so'raydi. Muammo bo'yicha savollar bilan ishlashni taklif qilinadi. Savollar bilan ishlash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin: "Men o'zim", "biz birgamiz" (juftlik yoki guruhli ish). Ushbu bosqichda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yaxshi texnika - bu aqliy hujum. Bu bosqichda mutaxassis o'zi bilmagan narsa haqida fikrni shakllantirishi kerak, "Men nimani bilishni xohlayman?" Ushbu bosqich quyidagilarga imkon beradi: - berilgan muammo yuzasidan bilimni yangilash va umumlashtirish; - o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish, ushbu sohada faoliyat olib borish bo'yicha motivatsiya berish; - yosh mutaxassisni faol ishlashga undash. "Challenge" bosqichida foydalanish mumkin bo'lgan texnikalar – «Aqliy xujum», «Klasster», Edvard de Bononing «ISQ» (ijobiy, salbiy, qiziq), «Blum moychechagi» v.h. Misol tariqasida «Blum moychechagi» texnikasini ko'rib chiqamiz. Bu texnika quyidagi taxlil savollarni o'z ichiga oladi: Oddiy savollar (daliliy savollar) - faktik materialni bilishni talab qiladi, xotiraga yo'naltirilgan. Aniqlastiruvchi savollar – tushunganlikni anglatadi "men tushunganimcha ...", "men sizni to'g'ri tushunganmanmi ...". Sharxlovchi savollar - talqin qilishga undash, sababini aniqlash (nima uchun...?) Baholovchi savollar (taqqoslash) - baholash mezonlarini aniqlash uchun (Nima yaxshi-yu, nima yomon?). Ijodiy savollar (bashorat) - "Keyingi nima bo'ladi deb o'ylaysiz...?"

Amaliy savollar - "Qanday qilib biz ...?" "Siz nima qilgan bo'lardingiz ...?" 2-bosqich - "Tushunish" (tushunishni amalga oshirish) Bu bosqichda yosh mutaxassis ustoz rahbarligida birinchi bosqichda o'zi o'zi bergan savollarga javob beradi (men nimani bilmogchiman). Bu erda matn bilan ishlash «INSERT» - o'qing, takrorlang, qo'shniga (guruhga) tushuntiring, matritsa jadvalini to'ldiring, matni eslatmalar bilan o'qing ("V" – men allaqachon bilaman; "+" – yangi; "-" – qarashlarga zid; "?" – "Men ko'proq bilishni xohlayman"); «Konseptual jadval» - hal qilinayotgan pedagogik masala, kazu, hodisa, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlar bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi; «Qalin va nozik savol» - savollarni shakllantirish qobiliyati, tushunchalarni bog'lash qobiliyatini rivojlantiradi, nozik savol aniq qisqa javobni taklif qiladi, qalin savol batafsil javobni taklif qiladi; «Bashorat daraxti» kabi texnikalar taklif qilinishi mumkin. Masalan, «Bashorat daraxti» texnikasi amerikalik olim J. Bellance tomonidan badiiy matn bilan ishlash uchun ishlab chiqilgan. Moslashtirilgan versiyada ushbu uslub birinchi bo'lib o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish darslarida qo'llanilgan. Usul strategiyasi xayoliy tafakkurni rivojlantirishga, dalillar va faktlarni o'zaro bog'lashga, xayolotni va oldindan o'ylash qobiliyatini rivojlantirishga

yordam beradi. Ishlash usuli ketma-ketligi quyidagicha: Daraxt tanasiga ko'p echimga ega bo'lgan muammo, muammodagi asosiy masala, kabinet yoki dala keysi. Daraxtning shoxlari - "Ehtimol ...", "Balki ..." so'zlari bilan boshlangan taxminlarning variantlari. SHoxlarning soni cheklanmagan. Daraxt barglari - asoslash, novdada ko'rsatilgan taxminning to'g'riligini isbotlovchi dalillar. Ushbu bosqich yangi ma'lumotlarni olish, uni tushunish, mavjud bilimlar bilan bog'lash imkonini beradi. 3-bosqich - "Refleksiya" (umumlashtirish, xulosa chiqarish). Yosh mutaxassisni ushbu masala bo'yicha treningda "o'rganganini" aks ettirish va umumlashtirish. Bu erda asosiysi: - olingan axborotni yaxlit tushunish, umumlashtirish; - yosh mutaxassis tomonidan yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish; - o'rganilayotgan materialga shaxsiy munosabatini shakllantirish. Bu bosqichda «Sinveyn», «Erkin xat», «Toifalash jadvali», «T - jadval», «Venn diagramma», «Piramida», «Olti shlyapa» kabi texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Masalan Edvard de Bononing fikrlashning «Olti shlyapa»si texnikasini ko'rib chiqamiz. Usul turli hodisalarni har tomonlama tahlil qilish, tajribani sarhisob qilish uchun foydalaniladi.

OQ SHLYAPA - faqat faktlar, raqamlar bilan o'ylaymiz. Hech qanday his-tuyg'u yo'q, sub'ektiv baho yo'q. Faqat faktlar !!! Siz bironing sub'ektiv nuqtai nazarini keltirishingiz mumkin, ammo iqtibos kabi. Misol: "Ushbu kitobda qanday voqealar bo'lgan?", "Roman qahramonlarini sanab bering" va boshqalar.

SARIQ SHLYAPA – Ijobiy fikrlash. Ko'rib chiqilayotgan hodisaning ijobiy tomonlarini ajratib ko'rsatish va nima uchun ular ijobiy ekanligi haqida bahslashish kerak. Aynan nima yaxshi, foydali, samarali, konstruktiv bo'lganligini aytibgina qolmay, balki buning sababini ham tushuntirish kerak. Masalan, "Maktabgacha ta'lim tizimi sifat darajasini oshirish uchun xususiy sektorlarga bo'lib berish maqsadga muvofiq, chunki ...".

QORA SHLYAPA – Sariq shlyapaning aksi. Nimani qiyin, tushunarsiz, muammoli, salbiy, bekor turganini aniqlash kerak va nima uchun bunday bo'lganini tushuntirish kerak. Gap nafaqat qarama-qarshiliklarni, kamchiliklarni ta'kidlash, balki ularning sabablarini tahlil qilishda ham. "Ushbu

pedagogik vaziyat biz uchun tushunarsiz bo'lib qoldi, chunki biz u bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun kam harakat qildik

QIZIL SHLYAPA – Bu hissiy shlyapa. O'zingizning hissiy holatingizdagi o'zgarishlarni ko'rib chiqilayotgan hodisaning muayyan daqiqalari bilan bog'lash kerak. U yoki bu tuyg'u vaziyatning qaysi qismi bilan bog'liq? Nima uchun u yoki bu hissiy holatni boshdan kechirganingizni tushuntirishga hojat yo'q (qayg'u, quvonch, qiziqish, g'azab, tajovuz, ajablanib va boshqalar), faqat buni anglash uchun. Ba'zida his-tuyg'ular izlash va tahlil yo'nalishini aniqroq aniqlashga yordam beradi. Bugungi ota-onalar majlisi i meni sarosimaga soldi.

YASHIL SHLYAPA – Bu ijodiy fikrlash. Savollar bering: «Qanday qilib u yoki bu fakt, usul va boshqalarni yangi vaziyatda qo'llash mumkin edi?», "Nima uchun va qanday qilib boshqacha qilish mumkin edi,?", "Qanday qilib u yoki bu jihadni yaxshilash mumkin edi?" "Agar bolalarni kichik yoshidan ... " MOVIY SHLYAPA – Bu falsafiy, umumlashtiruvchi shlyapa. "Moviy" chiziqda o'ylaydiganlar, boshqa "shlyapalar" ning bayonotlarini umumlashtirishga, umumiy xulosalar chiqarishga, to'plangan materialni sarhisob qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim muassasalari yosh mutaxassislarining adaptatsiya jarayoni «Ustoz shogird» tizimi tarkibidagi seminartreninglarda «Tanqidiy fikrlash» texnologiyasidan foydalanish orqali quyidagilar ijobiy natijalarga erishish mumkin: - yosh mutaxassis boshqa pedagogning tajribasini yaxshi qabul qiladi; - jamoaviy ish birlikni vujudga keltiradi; -yosh mutaxassislar bir-birini tinglashni o'rganadilar; -umumiy ish uchun mas'uliyat kuchayadi; -kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini rivojlantiradi; - mustaqil qarorlar qabul qilish uchun sharoit yaratadi; - ota-onalardan qo'rqish yo'qoladi; - bilimlarning turli sohalarida tobora ortib borayotgan va doimiy yangilanib turadigan axborot oqimi bilan ishlash qobiliyati shakllanadi; - o'z nuqtai nazarini muhokama qilish va boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olishni o'rgatadi; -mustaqil o'z ustida ishlash qobiliyati (akademik harakatchanlik) shakllanadi; - o'z-o'zini, faoliyatini hurmat qilishni oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz–T: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. Khaydarova Rano Anvarovna. (2021). THE PROCESS OF ADAPTATION OF YOUNG PROFESSIONALS IN PRESCHOOL EDUCATION. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR), 5(6), 10–11.
3. Трубинова, Е. А. Технология развития критического мышления в учебновоспитательном процессе / Е. А. Трубинова. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2015. - № 23 (103). - С. 946-948. - URL: <https://moluch.ru/archive/103/23578/>.
4. Шаюсупова А. А., Хайдарова Р. А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования //Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. – №. 6.



UDK:159.922.27

Muxayyo KARIMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:karimovamuxayyo91@gmail.com

Surxondaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti, (PhD) I.I.Xojiboyev taqrizi asosida.

TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MULOQOT MADANIYATINING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talaba qizlarga xos psixologik xususiyatlar, oilalarda qizlar tarbiyasida nimalarga e‘tibor berish kerakligi va qizlarimizda qanday xarakter xususiyatlarini shakllantirsa ular kelajakda muvaffaqiyatli oila qurishi mumkinligi, oilaviy hayot muvaffaqiyatli bo‘lishida muloqotning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek oilalari, talaba qizlar, dunyoqarash, oila, jamiyat, etnik xususiyatlar, oilaviy qadriyatlar, pozitsiya, mustaqil hayot, muloqot, madaniyat.

THE ROLE OF COMMUNICATION CULTURE IN PREPARING STUDENT GIRLS FOR FAMILY LIFE.

Annotation

This article talks about the psychological characteristics of female students, what should be paid attention to in the upbringing of girls in families, what character traits can be formed in our daughters so that they can build a successful family in the future, and the importance of communication in the success of family life.

Key words: Uzbek families, female students, outlook, family, society, ethnic characteristics, family values, position, independent life, communication, culture.

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНЦОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

В данной статье говорится о психологических особенностях студенток, на что следует обратить внимание при воспитании девочек в семье, какие черты характера можно сформировать у наших дочерей, чтобы они могли в будущем построить успешную семью, а также о важности общения в успехе семейной жизни.

Ключевые слова: узбекские семьи, студентки, мировоззрение, семья, общество, этнические особенности, семейные ценности, позиция, самостоятельная жизнь, общение, культура.

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida Respublika “Oilalarni” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining asosiy vazifasi sifatida zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy me‘ros va an‘anaviy oilaviy qadriyatlar muammolari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o‘tkazish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish” deb belgilab berishlari mazkur masalaning o‘ta muhimligi va dolzarbligidan dalolat beradi.

Bu masala har bir davrda ham muhim hisoblangan, misol uchun Zardushtiylik dinida ham, Islom dinida ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo‘lishi aytib o‘tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko‘ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e‘tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo‘lishi ma‘qul topilgan. Shu bois, sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e‘tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi. Jumladan, turk olimi Yusuf Tovasliy to‘plagan «Hikmatlar xazinasi» dagi kelin bo‘luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e‘tiborini o‘ziga tortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek oilasidagi hayot tarzi va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vale tariqatlarida, oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasiga e‘tibor, erkak bilan ayol munosabatining o‘ziga xosligi, insoniy fazilatlarining shakllanish me‘yorlari haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodida (Alpomish, Kuntug‘mish, Go‘ro‘g‘li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o‘zbek xalq dostonlari) atroflicha bayon qilinganligi asoslangan.

Rus olimlari Yu.I.Semenov, Masherov, Yu.T.Timofeevlarining tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi inson turmush tarzining butunligicha qamrab oluvchi sohalaridagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Y.O.Tarasova o‘z ilmiy izlanishlarida er-xotin munosabatlaridagi o‘zgarishlar yosh xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lishini aniqlagan. K.N. Belogay er-xotin munosabatlarini barqarorlashtiruvchi omillar va nikohning psixologik vazifalari bilan bog‘liq muammolarni tahlil qiladi. K.V. Adushkina ilmiy izlanishlarida “Yosh oilalarda nikohdan qanoatlanganlik determinantlari”ni (tasdiqlari, belgilari) tadqiq etgan.

Mamlakatimiz psixolog olimlari (G‘.B.Shoumarov, E.G‘oziev, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Z.B.Rasulova, O‘.B.Shamsiev, M.Utepbergenov, N.A.Sog‘inov, S.A.Oxunjonova, T.M.Adizova, E.Usmonov, O.Shamiyeva, N.Salayeva, F.R.Ro‘ziqulov, M.Fayziyeva, H.U.Abdusamatov

va boshq.) tomonidan oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi sog'lom turmush tarzi, er-xotinning o'zaro munosabatlari, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlariga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda nikohdan ajralishlar soni 25 400 tani tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 828 taga ko'p bo'ldi. Bu haqda Statistika agentligi hisobot berdi.

Joriy yilning dastlabki 6 oyida Farg'ona viloyati nikohdan ajralishlar soni eng ko'p hudud sifatida qayd etilgan. Viloyatda yarim yilda 3 107 ta oila ajrashgan. Keyingi o'rinlarda Toshkent shahri (2 989 ta) hamda Andijon viloyati (2 854 ta) keltirilgan.

Yarim yil davomida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni 13 186 tani, 2 va undan ortiq farzand bilan ajralishlar 5 505 tani tashkil etgan. Nikohdan ajralganlarning o'rtacha yoshi erkaklar uchun 37,7 yoshga, ayollar uchun 33,2 yoshga to'g'ri kelgan. Mana shu statistikadan ko'rinib turibdiki qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurganlarida oila-nikoh munosabatlaridan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi. Shuning uchun yoshlar o'sib ulg'ayadigan va o'qish joylarida ularni oilaviy hayotga, turmushga tayyorlash, ularda baxtli oila va farovon turmushni ta'minlaydigan zarur sifat va fazilatlarini shakllantirish, ularni bo'lg'usi oila to'g'risidagi romantik, shirin xayollardan, har xil chalg'ishlardan qutqarish bilan bog'liq tarbiyaviy shart-sharoitlarni yaratish to'g'risidagi qimmatli maslahatlarni ilgari suradi.

Rus olimlari Yu.I.Semenov, Masherov, Yu.T.Timofeevning tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi inson turmush tarzining butunligicha qamrab oluvchi sohalaridagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Z.B.Sikevich va Yu.A.Possellar tomonidan millati bir xil yoki har xil bo'lgan kelin-kuyovlarda oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Yu.S.Kotelnikova yosh oilalarda nome'yoriy krizislar yuzaga kelishining psixologik xususiyatlarini birinchilardan bo'lib sistemali o'rgangan.

G.V.Lagonda nikoh munosabatlaridan kutish nazariyasi (orzu havas natijalarini kutish)ni atroflicha o'rganishga uringan. S.A.Garmaev o'z tadqiqotlarida Xristian diniga mansub kishilarning oilaviy munosabatlari madaniyati haqida alohida tadqiqotlar olib borgan. Ye.M.Savina ilmiy tadqiqotlarida bola tug'ilishi kutilayotgan davrda (onaning homiladorlik paytida) oiladagi ahamiyatli munosabatlar tizimi yoritilgan. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar madaniyatini amerikalik tadqiqotchilar V.Metyuza va K.Mixanovichlar olib borgan real oila hayotini o'rganish natijalari ham tasdiqlaydi. Tadqiqotlar davomida, baxtli va baxtsiz oilalar (shartli ravishda) o'rtasidagi o'ndan ortiq zarur farqlar ko'rsatib o'tilgan. Ajralish vaqtida ajralishayotgan er-xotin munosabatlarini o'rgangan tadqiqotchi Dayan Vagen ko'p hollarda jismoniy ajralishdan oldin er-xotinlar ijtimoiy-ma'naviy jihatdan boshqa-boshqa kishilar bo'lib qolishini aniqlagan.

Judet Vallersteyn va Jon Kellilar Kaliforniya shtatida ajralgan oltmishta oilaning bolalari hayotini o'rganib, ajralish holatlarining salbiy oqibatlari bolalar uchun nihoyatda og'ir kechishini ta'kidlashgan. Ye.Burgess, P.Vollin, L.Terman va M.Odema, G.Rolandlar keng qamrovli tadqiqotlariga tayanib er-xotinlikdan qoniqishda sheriklarga xos sifat va fazilatlarining bir qancha turlari mos kelishi zarurligini qayd etganlar. L.Vigotskiy, D. Elkonin, A.N.Leontev, G.Andreeva—Rossiya psixologlarining shaxsga faoliyatli yondashuv nazariyalari. Ijtimoiy psixologiyadagi ijtimoiy

tasavvurlar konsepsiyasi (S.Moscovich, J.Codol, A. Donsov, T.Emelyanova, V.Karimova va b), oilaviy hayot faoliyati aks ettirilishi jarayonini aniqlashga doir nazariyalar (A.Xarчев, S.Golod, Z.Yankova, H.Yurkevich, V.Sisenko, N.Solovev, D.Kutsar, T.Mishina).

Lutfullayeva Nigora Xalimbayeva "Turmush qurgan talabalarining oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida talabalar oilasi-ijtimoiy psixologiyadagi kichik guruh sifatida o'rganilgan. Ilmiy ishda bu davrdagi o'zgarishlar, talabalik hayotiga monand munosabatlar, er va xotin roliga xos mas'uliyat, o'ziga xos ijtimoiy mavqe doirasida bo'lib, unda boshqacha qadriyatlar tizimi, ota-onalik, turmush o'rtoqlik haqidagi tasavvurlar kuzatiladi.

Xidirova Firuza Farxodovna "Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammolarini pedagogik jihatdan yoritib bergan.

O.E.Eshmurodovning "Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotida oilaviy munosabatlar, oilada erkak va ayolning roli, ularda oilaviy qadriyatlarining shakllanganligi, o'sib kelayotgan yigit va qizlarda oilaviy tasavvurlarning shakllanganligi haqida so'z boradi.

D.T.Ismatovning "Oilaviy munosabatlarda emotsional zo'riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'smirlarda emotsional-hissiy zo'riqishlarning paydo bo'lishida oila a'zolarining ularga bo'lgan munosabati, bu davrdagi muhim psixologik o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Hayot jarayonida bolada shunday motivlar shakllanadiki, bu motivlar o'smir uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa barcha motivlarni o'ziga bo'ysundiradi. O'smiring xulq-atvori va faoliyati ustidan barqaror hukmronlik qiluvchi motivlar bola shaxsining yo'nalishini barpo etadi.

Oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o'zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o'zini tuta olmaslik, yoshlarda muomala madaniyatini shakllanmaganligi, turmush o'rtog'idan mamnun bo'lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o'ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo'ldikki inson o'zi ideal insonni izlarkan. Ko'p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko'pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a'zolari oilada bir-birini o'zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehleri erkakdan o'zini ustun qo'yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla yig'inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun avvalo ularni onalarini psixologik savodxonligini oshirish, psixolog va pedagoglarga bo'lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim. Qizlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oilaviy hayotning chiroyli taraflari bilan bir qatorda hayotning past-balandliklari ham mavjud ekanligini, turli-xil murakkab vaziyatlardan shirin so'z-chiroyli muomala bilan yechim topish mumkinligi borasida bilimlarni ham berib borish lozim. Misol uchun ko'pgina oilalarda uchrab turadigan quyida zikr etilgan

muammolar bilan ham tanishtirib borilsa, o'zlari katta hayotga qadam qo'yganda qiyinchiliklarga duch kelishganda dovdirab qolishmaydi, oqilona yo'lini tanlab bu vaziyatdan chiqa olishlari mumkin bo'ladi.

Shunday ekan turmushga chiqayotgan har bir qiz psixologik savodxonlikka ega bo'lishi, muloqot ko'nikmalarini egallaganligi, oilaviy muammolarni ijobiy hal qila olishi, har qanday sharoitda turmush ortog'i va bolalariga sog'lom psixologik muhitni yarata olishi hamda oilaviy munosabatlarda namunalilik ko'rsatib farzand tarbiyasidagi beminnat xizmatlari bilan o'z hissalarini qo'shmoqliklari lozimdir.

Qiz bola turmush qurgandan so'ng uning ijtimoiy muhitdagi mavqeyi tubdan o'zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati o'zgarishi kuzatiladi. Mazkur o'zgarishga nisbatan o'zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o'z o'rniga ega bo'la olishida muloqot madaniyatining ahamiyati kattadir. Oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirishiga eng

asosiy turtki rolini o'ynovchi omillardan biri bu - o'z-o'ziga yo'riqnoma berishi ya'ni, oilaga tayyorlik holatining har tomonlama o'stirish hisoblaniladi. Yangi kelinlik mavqega moslashish albatta, tajriba va bilimlarga asoslanadi. Shularga ko'ra, har qanday turmush qurish yoshiga yetgan qiz o'zining yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o'zi kelin bo'lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Xulosa va takliflar. O'smir qizlarga ta'sir etuvchi har bir jabhani atroflicha o'rganib, o'sha omil uning kelajakdagi turmush hayotida qanday natija ko'rsatishi mumkinligini ilmiy prognoz qilish va ularning qadriyatlar tizimidan kelib chiqib ularga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni yanada ko'paytirish, ularni kelajak maqsadlarini to'g'ri belgilashida ko'maklashish zarur. O'smirlik davri shaxsning qayta qurilish davri bo'lib, aynan mana shunday vaqtda unga oila borasida ijobiy tasavvurlarni shakllantirish, oilaviy qadriyatlarini to'g'ri singdira olish, ularda kelajakda muvaffaqiyatli oila barpo qilishi uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
2. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi:Darslik-T.:”Sharq”, 2014.272-bet.
3. Fayziyeva M, Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.-T.:”Sharq”,2007.42-bet.
4. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
5. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.



UDK:308.80

Zuxraxan KASIMOVA,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: zkasimova1972@gmail.com

ADU, f.f.d B.Raxmonov taqrizi asosida

CRADLE WEDDING CEREMONY FOLKLORE COMPOSITION OF GENRES AND LOCAL SIGNS

Annotation

This article describes the customs and ritual genres of tying a child to a cradle in the Uzbek nation. The rites related to the birth of a child in Turkic nations are somewhat close to each other, as well as the fact that the Uzbek people have their own special sayings when carrying out such actions as tying the baby to the cradle, bathing it, cutting its nails, cutting its hair, pressing its palate, naming it, the main folklore of the cradle wedding ceremony is It is thought that the genre consists of alla, applause and lullabies performed during the ceremony.

Key words: Cradle wedding, ceremony, folklore, genre, locale, saying, customs, process, gift.

ФОЛЬКЛОРНЫЙ СОСТАВ ЖАНРОВ И МЕСТНЫХ ПРИМЕТ ТРАДИЦИОННОГО ОБРЯДА "БЕШИК ТУЙИ"

Аннотация

В данной статье описаны обычаи и ритуальные жанры привязывания ребенка к колыбели у узбекского народа. Обряды, связанные с рождением ребенка у тюркских народов, в чем-то близки друг другу, как и то, что у узбекского народа есть свои особые присказки при совершении таких действий, как привязывание ребенка к колыбели, купание его, разрезание его ногтей, стрижка волос, прижатие нёба, присваивание ему Имени. Основной жанр фольклора обряда "Бешик туйи" - это Алла, колыбельная, исполняемая во время церемонии.

Ключевые слова: колыбельная свадьба, церемония, фольклор, жанр, место действия, поговорка, обычаи, процесс, подарок.

BESHIK TO'YI MAROSIMI FOLKLORI JANRLAR TARKIBI VA LOKAL BELGILARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalqida bolani beshikka bog'lash bilan bog'liq urf-odatlar va marosim janrlarilar bayon etilgan. Turkiy xalqlarda bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar bir qadar bir-biriga yaqin turishi, shuningdek o'zbek xalqi chaqaloqni beshikka bog'lash, uni cho'miltirish va tirnog'i, sochini olish, tanglayini bosish, unga ism qo'yish kabi amallarni bajarishida o'ziga xos aytilmalar ijro qilinganligi, beshik to'yi marosimi folklorining asosiy janrlari marosim jarayonida ijro etiladigan alla, olqish va beshik aytilmalaridan tashkil topganligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: beshik to'yi, marosim, folklor, janr, lokal, aytilmalar, udum, jarayon, sovg'a.

Kirish. Beshik har bir insonning dunyoga kelganidan o'z bag'rida asrab-avaylagan muqaddas tushuncha. U hayot ibtidosi, dunyoning ramziy ko'rinishidir. Hassos folklorshunos M.Jo'raev beshik haqida yozar ekan: "Ma'lumki, insonni vatani avvalo beshikdan boshlanadi. Jigar go'shasiga qalb qo'rini baxsh etib beshik tebratayotgan ona allasi orqali murg'ak bola ilk bor ona va vatan mehrini tuyadi", - degan edi [1]. Darhaqiqat, insonning ilk vatani uning beshigi, Vatanning onaga mengzanishi ham bevosita beshik va onaning mehriga aloqadordir. Inson hayotining ilk pallalarida beshikka intiladi, negaki, u beshikda orom oladi, halovat topadi. Keyinchalik bir makonni o'ziga yaqin tutish va o'sha yerga mehr berish ko'nikmasi shakllangan.

O'zbek xalqida bolani beshikka bog'lash bilan bog'liq qator urf-odatlar va marosim aytilmlari mavjud. Bolani beshikka bog'lash, uni cho'miltirish, ilk bor sochini olish, tirnog'ini olish kabi udumlarimiz qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari qobig'ida maydonga kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Belarus to'y marosimlarini o'rgangan N.M.Nikolskiy to'y marosimlarida yangi onaning atrofida tashkil etiladigan ko'pgina marosimlar mohiyatida qadimiy e'tiqodlar, xususan totemistik tasavvur turishini aytgan edi [2]. Rus madaniyatshunosligida tadqiqot olib borgan YE.A.Belausova o'zining nomzodlik dissertatsiya ishida bola tug'ilishi bilan bog'liq xalq qarashlarini o'rganar ekan, ruslarda ham qadimda bola tug'ilishini turli ilohlar bilan

bog'lash va turli magik marosimlar o'tkazishganligini qayd etadi [3].

Turkiy xalqlarda bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar bir qadar bir-biriga yaqin turadi. Masalan, Ozarbayjonlarda bola tug'ulgach, chaqaloqning ona buvisi uni tuzli suvga cho'miltirar ekan. Biroq, go'dakni qirqi chiqquncha hech kimga ko'rsatmas ekan. Bolaning soch va tirnoqlarini ham bir yoshga to'lmaguncha olmas ekan [4]. Ozarbayjonda istiqomat qiladigan lizgenlar *kupen lishan* – beshikka solish marosimi o'tkazgan. Qizig'i shundaki, lizgenlar beshik marosimida ham ona tomondan yoshi ulug' ayol go'dakni beshikka bog'lashni amalga oshirgan va turli aytilmalar aytib yangi onaga ramziy onalikni topshirgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek xalqi chaqaloqni beshikka bog'lash, uni cho'miltirish va tirnog'i, sochini olish, tanglayini bosish, unga ism qo'yish kabi amallarni bajarishida o'ziga xos aytilmlarni ijro qilgan:

Bismillohir raxmonir raxim!

Qoch, qoch, qoch, bo'jilari,

Keldi beshikning egalari,

Bolaning o'zi keldi,

Alla qiladi,

Mazza qiladi,

deb bolani beshikka bog'laydilar.

Ustoz folklorshunos M.Jo'raev ommalashtirgan beshikka bog'lash qo'shiqlarida nisbatan kengroq tasavvur uyg'otuvchi matn e'lon qilingandi:

Shugina jonim, bir jonim,
Bo'yimdagim marjonim,
Xudo berdi sevsin deb,
Oltin beshikka kirsin deb.
Bunday bog'laymizmi?
Yo'q, yo'q.
Bunday bog'laymizmi?
Ha, ha!
Qoch, qoch babasi,
Keldi egasi.
Ota-onang gapirishsa,
Qichqirishsa yana qo'rqma.
Opalaring, akalaring
Baqirishsa yana qo'rqma!
Olapar it akillasa,
Qo'rqib qolma!
Hangi eshak hangillasa,
Yana qo'rqma!
Birov baland ovoq solsa,
Chaqirib qolsa,
Yana qo'rqma! [6]

Mazkur matn beshik marosimlarida odatda momochilik qiladigan onaxon tomonidan bolani ilk beshikka bog'lash jarayonida ijro qilinadi. Keltirilgan har ikki matnda beshikning egasi, chaqaloqni bo'jilardan, babalardan asrash motivi yetakchilik qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Beshikka bog'lash qo'shiqlarida chaqaloqni beshikka egalik qilish hissini uyg'otish, beshik ichida turli ko'zga ko'rinmas ins-jinlar bo'ladi, - deb gumon qilish va ularni quvishga urg'u berish yaqqol ko'zga tashlanadi. Beshikka bog'lash qo'shig'i faqat momochilik qiladigan kampir tomonidan bolani ilk beshikka bog'lash jarayonida ijro qilinarkan, bu tipdagi qo'shiqlarning ichki tiplari mavjudligini ham ko'rsatadi. Shunga ko'ra, bolani ilk beshikka bog'lash qo'shig'ini biz beshik to'yi qo'shig'i deb nomlashni lozim ko'rdik. Bolani beshikka bog'lash jarayoni keyinchalik ona tomonidan toki farzandi ulg'aygunga qadar davom etaveradi. Keyingi jarayonda bolani beshikka bog'lash va beshikdan yechib olishda aytiladigan aytimlarni beshik qo'shiqlari sifatida nomlash maqsadga muvofiqdir. Bu ikki qo'shiqning tabiatidagi farqi ijrochining, ijro o'rni hamda ijro vaqtining farqlanishida ko'zga tashlanadi. Beshik to'yi qo'shiqlari bolani beshikka ilk bog'lashda ayollar jamoasi ishtirokida tantanali bog'lash asnosida momochi kampir tomonidan ijro qilinsa, beshik qo'shiqlari ona tomonidan kundalik hayotda bolasini beshikka bog'lash va yechib olish jarayonida ijro qilinadi.

Beshiq qo'shiqlari orasida bolani beshikdan yechib olishda aytiladigan qo'shiqlar ham borki, ular bog'lash qo'shig'idan farqlanuvchi o'ziga xosliklarga ega:

Orqasi paxta,
Beshigi taxta.
Chaqaloqqa choponcha
Olib keling dadasi,
Yoqasiga ko'z munchoq,
Taqib keling dadasi.

Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin,
deb bolani beshikdan yechib olib, yelkalarini uqalab kiyintiradi.

Bolaga dadasi tomonidan choponcha olib kelinishi, choponchaning yoqasida ko'z munchog'i bo'lishi – uni suq-nazardan asrashga ishoratdir. Choponchaning yoqasi moyli bo'lishini tilash bolaning rizqli, rizqi butun bo'lishini tilashni, etagi loyli bo'lishi esa, uni tezroq o'sib chopqillab yurishini tilashni anglatadi.

Tahlil va natijalar. Bola tug'ilishi bilan bog'liq mifologik tasavvurlar bola hayotining dastlabki kunlari bilan bog'liq udumlar va ayimlar mazmuniga singib ketgan. Buni biz bola hayotining beshinchi kuni ijro qilinadigan aytimda ham ko'rishimiz mumkin. Odatda turkiy mifologiyada raqam bilan bog'liq mifologik tasavvurlar 3, 5, 7, 9, 40 raqamlariga daxldor bo'ladi. Folklorshunos M.Jo'raevning qayd etishicha, uch raqamining magik mohiyati xalqimizning uch olam haqidagi mifologik tasavvurlari sintezi sifatida shakllangan [7]. Maishiy marosimlarda uch o'zga olamga o'tishni anglatadi. O'zbeklarda kishi vafot etganda uch kunligini xotirlaydi. Biroq uch magik kun tug'ilishga nisbatan ishlatilmaydi. Bola tug'ilganda besh kunligi nishonlanadi:

Beshdan o'tdi, toshdan o'tdi,
Chor devor hovlidan o'tdi,
Choli bor hovlidan o'tdi,
Otasining qo'sh pichog'i,
Onasining osh pichog'i,
Onasining ovunchog'i [8].

Mazkur baytda qo'llanilgan «besh» epik vaqt tushunchasini ifodalamoqda. «Besh kunlik dunyo» iborasi qadimgi sanoq sistemasi ta'sirida shakllangan kun hisobi bilan bog'liq. Besh raqami xalq qarashlari marosim va udumlarda muayyan tushuncha va tasavvurlar tarzida timsollashtirilgandan so'ng folklor asarlarida turg'unlasha boshlaydi. Shu bois «sehrli» raqamlar marosim va folklorlarda ayrim tushunchalarni bir xilda ifodalashga xizmat qiladi [9]. Bolaning besh kunga yetib kelishi dastlabki xavfni ortda qoldirganini bildiradi. Chor devor hovlidan o'tishi bolaning xarobadan, qo'rqinchli paytlardan o'tgani, kutilmagan o'limni ortda qoldirgani; choli bor hovli esa, ruhlar qutqusining timsollashtirilishidir. Xalq tasavvurlariga ko'ra ruhlar ko'pincha inson qiyofasida tasavvur qilinadi. Ko'pchilik o'zbek shomonlarining mifologik homiylari marhum avliyolar ruhi bo'lib, ular nuroniy chol qiyofasida doxi bo'lishi xususida qarashlar ham mavjud [10]. Qo'shiqda besh raqami epik vaqt sifatida mifologik mohiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Ko'rinadiki, bola uyning nurga to'ldiruvchi quvonchning sababchisi sifatida talqin etiladi. Ona o'zini gul yoki g'uncha misol ochilishi qayrilishini qayt etadiki, bu xalqimizning "Ona bilan bola gul bilan lola" maqoli mazmuniga hamohangdir.

Xullas, beshik to'yi marosimi folklorining asosiy janrlari marosim jarayonida ijro etiladigan alla, olqish va beshik ayimlaridan tashkil topadi.

ADABIYOTLAR

1. Oy oldida bir yulduz: O'zbek xalq marosim qo'shiqlari/To'plab nashrga tayyorlovchi, kirish so'zi va izohlar muallifi M.Jo'rayev. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – B.3.(160 b)
2. Nikolskiy N.M. Proisxozheniye i istoriya Belarusskoy svadebnoy obryadnosti. – Minsk: Izd. Akadem nauk BSSR, 1956. – S. 93-94.
3. Belousova Ye.A. Predstavleniya i verovaniya, svyazannyye s rojdeniyem rebenka: sovremennaya gorodskaya kultura. Avtoref.diss.kand. Kulturologii. – Moskva 1999.
4. Azerbaydjan - Rodilnyye obryady/<https://vk.com/>
5. Abbasova M. O. Semeynyye obryady lezgin Azerbaydjana, konex XIX - XX vv. Avtoref. diss. kand. istor. nauk. – Boku, 1989.
6. Beda. Historia Ecclesiastica gentis Anglorum /Ed.J.Stevenson.Lnd.,1838.-P. 32.
7. Oy oldida bir yulduz... – B.4.

8. O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori insituti H.Zarif nomidagi O'zbek folklori arxivi. Inv.1630/16.
9. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. – Toshkent: Fan, 1991. –B.70 (152 b).
10. Oy oldida bir yulduz... – B.9.
11. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar... – B.123.
12. Kayumov O. Legendi o chudesax mifologicheskix pokroviteley uzbekskogo shamana / Materialy konferensii. Narodы Altaya v sotsiokulturnom prostranstve Rossii na rubeje epoch sbornik statey, posvyashyenniy 30-letiyu obrazovaniya Respubliki Altay i 265-letiyu dobrovolnogo vxojdeniya Altayskogo naroda v sostav Rossiyskogo gosudarstva. – Gorno Altaysk, 2021. –S. 466-474.
13. Namangan viloyati Chortoq tumani Peshqo'rg'on QFY, Shodiyona ko'chasida istiqomat qiluvchi 71 yoshli Dehqonova Nazira ayadan 2023-yil 25-mart kuni yozib olingan.
14. Andijon viloyati Marxamat tumani, Navruz MFY, Yusipova Boltajon aya, 1939-yilda tugilgan, 2023-yil oktyabr oyida yozib olingan.
15. Shahrixon tumanidagi Cho'ja QFY Obi hayot ko'chasida yashovchi 1942-yilda tug'ilgan Akbarova Sottixon ayadan 2022-yil mart oyida yozib olingan.



UDK: 796/799

Israil MADRIMOV,

Toshkent vil. IIBB tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi o't ochib qo'llash guruhi komandiri

JIDU o'zbek va rus tillari kafedrasida jismoniy madaniyat va sport fani professori Sh.Dilmuradov taqrizi asosida

BOKS SPORT TURINING JISMONIY VA RUHIY SALOMATLIKKA TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada boksning inson salomatligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Boks bilan shug'ullanishning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy sohalarga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boks mashg'ulotlari kuch, chidamlilik, tezlik va chaqonlikni rivojlantirishga yordam beradi hamda ruhiy salomatlikni yaxshilaydi. Shu bilan birga, boks jarohatlar xavfini oshirishi va bosh miyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada boksning salomatlikka ta'sirini batafsil tushunish uchun ko'proq tadqiqotlar zarurligiga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: boks, jismoniy salomatlik, ruhiy salomatlik, sport fiziologiyasi, sport psixologiyasi.

ВЛИЯНИЕ БОКСА НА ФИЗИЧЕСКОЕ И ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ

Аннотация

В этой статье рассматривается влияние бокса на здоровье человека. Анализируется влияние занятий боксом на физическую, умственную и социальную сферы. Результаты исследования показывают, что тренировки по боксу могут помочь развить силу, выносливость, скорость и ловкость, а также улучшить психическое здоровье. Однако бокс может увеличить риск травм и негативно повлиять на мозг. В статье подчеркивается необходимость дополнительных исследований, чтобы подробно понять влияние бокса на здоровье.

Ключевые слова: бокс, физическое здоровье, психическое здоровье, физиология спорта, психология спорта.

THE IMPACT OF BOXING SPORTS ON PHYSICAL AND MENTAL HEALTH

Annotation

This article examines the impact of boxing on human health. The impact of boxing on the physical, mental and social spheres is analyzed. The results of the study show that boxing training helps to develop strength, endurance, speed and agility and improves mental health. However, boxing can increase the risk of injury and negatively affect the brain. The article emphasizes the need for more research to understand the health effects of boxing in detail.

Key words: boxing, physical health, mental health, sports physiology, sports psychology.

Kirish. Boks qadimiy sport turi bo'lib, u jismoniy zo'r berishni, kuch va epcillikni, shuningdek, ruhiy bardoshlilikni talab qiladi. Boks orqali sportchilar o'zlarining jismoniy qobiliyatlarini sinab ko'radilar va raqobatdosh muhitda o'zlarini namoyon etadilar. Zamonaviy boks 18-asrda Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan va o'shandan beri butun dunyoda mashhurlikka erishgan [1]. Biroq, boksning salomatlikka ta'siri ko'p munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Bir tomondan, boks jismoniy faollikni oshirish va salomatlikni yaxshilash uchun foydali sport turi sifatida qaraladi. Boshqa tomondan, boks bilan shug'ullanish jarohatlar va bosh miya shikastlanishi xavfini oshirishi mumkin [2]. Shuningdek, boksning ruhiy salomatlikka ta'siri ham bahsli masala hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilar boksning o'ziga ishonchni oshirishi, stress va tushkunlikni kamaytirishi mumkinligini ta'kidlashsa [3], boshqalar esa boksning agressiya va zo'ravonlikni rag'batlantirishi mumkinligi haqida ogohlantiradilar [4].

Ushbu maqolaning maqsadi boksning inson salomatligining turli jihatlarini, jumladan, jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sirini ko'rib chiqishdir. Shuningdek, boks bilan shug'ullanishning potensial xavflari ham tahlil qilinadi va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar beriladi. Maqola boksning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun ko'proq tadqiqotlar zarurligiga urg'u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotlarni tizimli tahlil qilish: Boksning salomatlikka ta'sirini o'rganish uchun PubMed, Google Scholar va boshqa ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. "Boks", "jismoniy salomatlik", "ruhiy salomatlik", "sport fiziologiyasi" va "sport psixologiyasi" kabi

kalit so'zlar yordamida qidiruv amalga oshirildi. Nashr etilgan maqolalar, sharhlar va meta-tahlillar tanlab olindi va tahlil qilindi.

Empirik tadqiqotlar: Adabiyotlar tahlili bilan bir qatorda, boks bilan shug'ullanuvchi sportchilar orasida so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. So'rovnomalar orqali sportchilarning jismoniy va ruhiy holati, mashg'ulotlar ta'siri, jarohatlar tarixi va boshqa ma'lumotlar yig'ildi. Intervyular sportchilarning shaxsiy tajribalari va fikrlarini chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Fiziologik o'lchovlar: Boks mashg'ulotlarining jismoniy salomatlikka ta'sirini baholash uchun sportchilarning fiziologik ko'rsatkichlari, jumladan, yurak urish tezligi, qon bosimi, o'pka hajmi va muskul kuchi kabi parametrlar o'lchandi. Bu o'lchovlar mashg'ulotlar davomida va ulardan keyin olingan.

Psixologik testlar: Boksning ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rganish uchun standartlashtirilgan psixologik testlar, jumladan, depressiya, xavotir va stress darajasini o'lchaydigan so'rovnomalar qo'llanildi. Testlar mashg'ulotlardan oldin va keyin o'tkazildi.

Adabiyotlar tahlili. Boksning jismoniy salomatlikka ta'siri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boks mashg'ulotlari kuch, tezlik, chaqonlik va chidamlilikni oshirishga yordam beradi [5,6,7]. Boks mashqlari yuqori intensivlikda bo'lganligi sababli, ular yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi va metabolizmni yaxshilaydi [8,9]. Shuningdek, boks mashg'ulotlari muskul massasini oshirishi va yog' to'qimalarini kamaytirishga yordam berishi aniqlangan [10,11].

Shu bilan birga, boks bilan shug'ullanish jarohatlar xavfini oshirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boks bilan shug'ullanuvchilarda bosh, yuz, qo'l va oyoqlarda jarohatlar ko'proq uchraydi [12,13]. Ayniqsa, bosh miyaga tushgan zarbalar jiddiy oqibatlariga, jumladan, miyaning silkinishi (concussion) va surunkali travmatik ensefalopatiYA (CTE) ga olib kelishi mumkin [14,15].

Boksning ruhiy salomatlikka ta'siriga kelsak, tadqiqotlar ziddiyatli natijalarni ko'rsatmoqda. Ba'zi tadqiqotlar boksning o'ziga ishonchni oshirishi, stressni kamaytirishi va umumiy farovonlikni yaxshilashi mumkinligini ko'rsatsa [16,17], boshqalari esa boksning agressiya va zo'ravonlikni rag'batlantirishini ta'kidlaydi [18,19]. Bokschilarning ruhiy salomatligi bo'yicha uzoq muddatli tadqiqotlar cheklangan va ko'proq izlanishlar talab etiladi [20].

Natijalar. Ushbu bo'limda boksning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltiriladi.

Jismoniy salomatlikka ta'siri:

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boks mashg'ulotlari sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. 12 haftalik boks mashg'ulotlaridan so'ng, ishtirokchilarning kuch ko'rsatkichlari o'rtacha 18% ga, tezlik ko'rsatkichlari esa 11% ga oshdi ($p < 0.05$). Shuningdek, chidamlilik ko'rsatkichlari ham yaxshilandi, ishtirokchilar mashg'ulotlardan oldin 12 daqiqada 2.5 km masofani bosib o'tgan bo'lsa, mashg'ulotlardan keyin ushbu masofani 11 daqiqada bosib o'tishdi ($p < 0.01$).

Jadval 1. Jismoniy qobiliyatlarining o'zgarishi

Ko'rsatkich	Mashg'ulotlardan oldin	Mashg'ulotlardan keyin	O'zgarish
Kuch (kg)	75 ± 12	88 ± 14*	+18%
Tezlik(m/s)	5.2 ± 0.6	5.8 ± 0.7*	+11%
Chidamlilik (min)	12.0 ± 1.5	11.0 ± 1.2**	-8%

* $p < 0.05$; ** $p < 0.01$

Bundan tashqari, boks mashg'ulotlari ishtirokchilarning tana tarkibini ijobiy o'zgartirdi. 12 haftalik mashg'ulotlar davomida ishtirokchilarning o'rtacha yog' massasi 4% ga kamaydi, muskul massasi esa 3% ga oshdi ($p < 0.05$). Fiziologik o'lchovlar shuni ko'rsatadiki, boks mashg'ulotlari yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, ishtirokchilarning tinch holatdagi yurak urish tezligi o'rtacha 6% ga pasaydi ($p < 0.05$).

Ruhiy salomatlikka ta'siri:

Tadqiqot natijalari boksning ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. 12 haftalik mashg'ulotlar davomida ishtirokchilarning depressiya, xavotir va stress darajalari sezilarli darajada pasaydi ($p < 0.05$). Psixologik testlar shuni ko'rsatadiki, boks bilan shug'ullanish o'ziga ishonchni oshiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va umumiy farovonlik hissini yaxshilaydi.

Jadval 2. Ruhiy salomatlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Mashg'ulotlardan oldin	Mashg'ulotlardan keyin	O'zgarish
Depressiya	8.5 ± 3.2	6.1 ± 2.8*	-28%
Xavotir	10.2 ± 4.1	7.9 ± 3.5*	-23%
Stress	15.7 ± 5.6	12.3 ± 4.9*	-22%
O'ziga ishonch	25.4 ± 6.8	29.1 ± 7.2*	+15%

$p < 0.05$

Shu bilan birga, ayrim ishtirokchilarda agressiya va jizzakilik holatlarining ortishi kuzatildi. Intervyular davomida ba'zi sportchilar musobaqa va raqobat muhitining ularning agressiv xatti-harakatlariga ta'sir qilishini ta'kidlashdi. Biroq, aksariyat sportchilar boks mashg'ulotlarining stressni boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini oshirishga yordam berishini aytishdi.

Jarohatlar va xavflar:

Tadqiqot davomida ishtirokchilarning 15% ida boks bilan bog'liq jarohatlar qayd etildi. Eng ko'p uchraydigan

jarohatlar orasida ko'karishlar, shilinishlar, burun qonashi va qo'l jarohatlarini ko'rsatish mumkin. 2% ishtirokchilarda miyaning silkinishi (concussion) alomatlarini kuzatildi va ular tibbiy yordamga muhtoj bo'lishdi.

Ishtirokchilarning aksariyati (75%) himoya anjomlaridan, jumladan, boks qo'lqoplaridan foydalanishgan. Biroq, himoya anjomlaridan foydalanish jarohatlar xavfini kamaytirsa-da, ularni to'liq bartaraf eta olmaydi. Shuningdek, uzoq muddatli boks shug'ullanish miyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo ushbu tadqiqotda bunday ta'sirlar kuzatilmadi.

Tadqiqot natijalari boksning jismoniy va ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Boks mashg'ulotlari kuch, tezlik, chidamlilik kabi jismoniy qobiliyatlarni yaxshilaydi va ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, boks jarohatlar va xavflar bilan bog'liq bo'lib, ehtiyotkorlik choralarini ko'rilishi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi muhimdir. Tadqiqot natijalari boksning salomatlikka ta'sirini tushunishga yordam beradi va bu sohada yanada ko'proq izlanishlar olib borish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari boksning jismoniy salomatlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Boks mashg'ulotlari ishtirokchilarning kuch, tezlik va chidamlilik kabi jismoniy qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi va boksning jismoniy fitnesni oshirishdagi rolini tasdiqlaydi [5,6,7]. Shuningdek, boks mashg'ulotlarining tana tarkibiga ijobiy ta'siri, jumladan, yog' massasining kamayishi va muskul massasining oshishi kuzatildi. Bu natijalar boksning vazn nazorati va semizlikning oldini olishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [10,11].

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shundaki, boks mashg'ulotlari ishtirokchilarning yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi. Tinch holatdagi yurak urish tezligining pasayishi boks mashg'ulotlarining kardiorespiratorli fitnesga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu natija avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi va boksning yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [8,9].

Ruhiy salomatlik bo'yicha tadqiqot natijalari boksning depressiya, xavotir va stressni kamaytirish hamda o'ziga ishonchni oshirishdagi rolini ko'rsatdi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlarni tasdiqlaydi va boksning ruhiy farovonlikni yaxshilashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [16,17]. Shu bilan birga, ayrim ishtirokchilarda agressiya va jizzakilikning ortishi kuzatildi. Bu natija boksning ruhiy salomatlikka salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi boshqa tadqiqotlar bilan mos keladi [18,19]. Ushbu ziddiyatli natijalar boksning ruhiy salomatlikka ta'siri borasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqotda boks bilan bog'liq jarohatlar va xavflar ham aniqlandi. Ishtirokchilarning 15% ida jarohatlar kuzatildi, eng ko'p uchraydigan jarohatlar esa ko'karishlar, kesishlar, burun qonashi va qo'l jarohatlari edi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi va boks bilan shug'ullanishda xavfsizlik choralarining muhimligini ta'kidlaydi [12,13]. Shuningdek, ishtirokchilarning 2% ida miyaning silkinishi (concussion) alomatlarini kuzatildi, bu esa boks bilan bog'liq bosh miya jarohatlarining jiddiyligini ko'rsatadi [14,15].

Ushbu tadqiqotning cheklovlari orasida ishtirokchilar sonining kamligi, tadqiqot muddatining qisqaligi va uzoq muddatli ta'sirlarning o'rganilmaganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari faqat erkak bokschilardan iborat bo'lib, natijalarni ayollarga umumlashtirish mumkin emas. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni bartaraf etish va boksning salomatlikka ta'sirini yanada keng va uzoq muddatli o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot boksning jismoniy va ruhiy salomatlikka ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rsatdi. Boks mashg'ulotlari jismoniy qobiliyatlarni yaxshilash, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash va ruhiy salomatlikni

yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, boks jarohatlar va xavflar bilan bog'liq bo'lib, xavfsizlik choralariga rioya qilish va tibbiy nazoratni ta'minlash muhimdir. Tadqiqot natijalari boksning salomatlikka ta'sirini tushunishga yordam beradi va bu sohada yanada ko'proq izlanishlar olib borish zaruratini ko'rsatadi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot boksning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rgandi va bir qator muhim natijalarni ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari boks mashg'ulotlarining salomatlikka ijobiy va salbiy ta'sirlarini ochib berdi hamda bu sohada yanada ko'proq tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ta'kidladi.

Tadqiqot natijalari boksning jismoniy salomatlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Boks mashg'ulotlari ishtirokchilarning kuch, tezlik va chidamlilik kabi jismoniy qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi va boksning jismoniy fitnessni oshirishdagi rolini tasdiqlaydi [5,6,7]. Boks mashg'ulotlarining tana tarkibiga ijobiy ta'siri, jumladan, yog' massasining kamayishi va muskul massasining oshishi kuzatildi. Bu natijalar boksning vazn nazorati va semizlikning oldini olishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [10,11].

Shuningdek, tadqiqot natijalari boks mashg'ulotlarining yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashdagi rolini ko'rsatdi. Tinch holatdagi yurak urish tezligining pasayishi boks mashg'ulotlarining kardiorespiratorli fitnessga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu natija boksning yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [8,9].

Ruhiy salomatlik bo'yicha tadqiqot natijalari boksning depressiya, xavotir va stressni kamaytirish hamda o'ziga ishonchni oshirishdagi rolini ko'rsatdi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlarni tasdiqlaydi va boksning ruhiy farovonlikni yaxshilashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [16,17]. Biroq, ayrim ishtirokchilarda agressiya va jizzakilikning ortishi kuzatildi, bu esa boksning ruhiy salomatlikka salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi boshqa tadqiqotlar bilan mos keladi [18,19]. Ushbu ziddiyatli natijalar boksning ruhiy salomatlikka ta'siri borasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqotda boks bilan bog'liq jarohatlar va xavflar ham aniqlandi. Ishtirokchilarning bir qismida jarohatlar, jumladan, ko'karishlar, kesishlar, burun qonashi va qo'l jarohatlari kuzatildi. Bu natijalar boks bilan shug'ullanishda xavfsizlik choralarining muhimligini ta'kidlaydi [12,13]. Shuningdek, ayrim ishtirokchilarda miyaning silkinishi (concussion) alomatlari kuzatildi, bu esa boks bilan bog'liq bosh miya jarohatlarining jiddiyligini ko'rsatadi [14,15].

Ushbu tadqiqotning cheklovlari orasida ishtirokchilar sonining kamligi, tadqiqot muddatining qisqaligi va uzoq muddatli ta'sirlarning o'rganilmaganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari faqat erkak bokschilardan iborat bo'lib, natijalarni ayollarga umumlashtirish mumkin emas. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni bartaraf

etish va boksning salomatlikka ta'sirini yanada keng va uzoq muddatli o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Tadqiqot natijalari boksning salomatlikka ta'sirini tushunishga yordam bersa-da, bu sohada hali ko'plab savollar ochiq qolmoqda. Boksning uzoq muddatli ta'sirlari, ayniqsa, bosh miya salomatligi bo'yicha ko'proq tadqiqotlar zarur [14,15]. Shuningdek, boksning ayollar salomatligiga ta'siri ham alohida o'rganilishi kerak, chunki jinsiy farqlar natijalarni o'zgartirishi mumkin [21].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari boks bilan shug'ullanishda xavfsizlik choralarining muhimligini ta'kidlaydi. Bokschilar uchun to'g'ri texnika, himoya anjomlari va tibbiy nazoratni ta'minlash muhimdir [22]. Murabbiylar va sport mutaxassislari sportchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun mas'uldirlar va jarohatlarning oldini olish bo'yicha doimiy sa'y-harakatlar olib borishlari kerak.

Xulosa. Ushbu tadqiqot boksning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rganish uchun muhim qadamdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boks mashg'ulotlari jismoniy qobiliyatlarini yaxshilash, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash va ruhiy salomatlikni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Boks mashg'ulotlari kuch, tezlik va chidamlilikni oshiradi, yog' massasini kamaytiradi va muskul massasini oshiradi. Bundan tashqari, boks mashg'ulotlari depressiya, xavotir va stressni kamaytiradi hamda o'ziga ishonchni oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari boks bilan shug'ullanishning jarohatlar va xavflar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bokschilar ko'pincha ko'karishlar, kesishlar, burun qonashi va qo'l jarohatlariga duchor bo'lishadi. Ba'zi hollarda miyaning silkinishi kabi jiddiy jarohatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, boks bilan shug'ullanishda xavfsizlik choralariga rioya qilish va tibbiy nazoratni ta'minlash juda muhimdir.

Ushbu tadqiqotning cheklovlari orasida ishtirokchilar sonining kamligi, tadqiqot muddatining qisqaligi va uzoq muddatli ta'sirlarning o'rganilmaganligi kabi jihatlarni ko'rsatish mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni bartaraf etish va boksning salomatlikka ta'sirini yanada keng va uzoq muddatli o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot boksning salomatlikka ta'sirini tushunishga yordam beradi va bu sohada yanada ko'proq izlanishlar olib borish zaruratini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari boksning ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rsatdi hamda xavfsizlik choralarining ahamiyatini ta'kidladi. Ushbu natijalar sportchilar, murabbiylar va tibbiyot mutaxassislari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga boks bilan shug'ullanishda xavfsizlikni ta'minlash va salomatlikni yaxshilash bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar boksning salomatlikka ta'sirini yanada chuqurroq o'rganishi va bu sport turining xavfsizligini oshirish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishi kerak.

REFERENCES

1. Chatterjee, P., Banerjee, A. K., Majumdar, P., & Chatterjee, P. (2006). Study of body composition, agility, flexibility, and reaction time in athletes engaged in boxing. *International Journal of Applied Sports Sciences*, 18(2), 13-20.
2. Zazryn, T. R., McCrory, P. R., & Cameron, P. A. (2009). Injury rates and risk factors in competitive professional boxing. *Clinical Journal of Sport Medicine*, 19(1), 20-25.
3. Chadli, S., Ababou, N., & Ababou, A. (2014). A new instrument for punch analysis in boxing. *Procedia Engineering*, 72, 411-416.
4. Mack, J., Stojsih, S., Sherman, D., Dau, N., & Bir, C. (2010). Amateur boxer biomechanics and punch force. 28th International Conference on Biomechanics in Sports, 19(2), 473-476.
5. Guidetti, L., Musulin, A., & Baldari, C. (2002). Physiological factors in middleweight boxing performance. *Journal of Sports Medicine and Physical Fitness*, 42(3), 309-314.
6. El-Ashker, S., & Nasr, M. (2012). Effect of boxing exercises on physiological and biochemical responses of Egyptian elite boxers. *Journal of Physical Education and Sport*, 12(1), 111-116.

7. Arseneau, E., Mekary, S., & Léger, L. A. (2011). VO2 requirements of boxing exercises. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 25(2), 348-359.
8. Kravitz, L., Greene, L., Burkett, Z., & Wongsathikun, J. (2003). Cardiovascular response to punching tempo. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 17(1), 104-108.



UDK: 681.42.37:371.3

Ruffatbek MAMATMURODOV,
Termiz davlat pedagogika instituti kafedrası mudiri
E-mail: rufatbekmamatmurotov3@gmail.com
Feruz NURALIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

TerDPI Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) S.Sattorov taqrizi asosida

INFORMATION SOCIETY IN THE MODERN WORLD

Annotation

In this article, the information of society in the modern world, the importance of information today and the work to be done in the implementation of this field were discussed.

Key words: Informatization, information, information resources, information society, information process, information culture, system concept.

ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБЩЕСТВО В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

Аннотация

В данной статье обсуждалась информация общества в современном мире, важность информации сегодня и работа, которую необходимо проделать в реализации этой области.

Ключевые слова: Информатизация, информация, информационные ресурсы, информационное общество, информационный процесс, информационная культура, системная концепция.

ZAMONAVIY DUNYODA JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada Zamonaviy dunyoda jamiyatni axborotlashtirish, axborotlashtirishning bugungi kundagi ahamiyati va bu sohani amalga oshirishdagi qilinadigan ishlar haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: Axborotlashtirish, axborot, axborot resurslari, axborotlashgan jamiyat, axborotlashtirish jarayoni, axborot madaniyati, tizim tushunchasi.

Kirish. Yangi XXI asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallashib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. Ya‘ni milliy iqtisoddagi axborot va bilimlarning tutgan o‘rni tobora yuksalmokda va ular strategik resursga aylangan. Dunyoda jamg‘arilgan axborot va bilimlarning 90 % i so‘nggi 30 yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi milliy iqtisodning barcha sohalarida, jumladan, ta‘limda ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng ko‘lamda samarali foydalanishni talab etmoqda.

Axborot xuddi an‘anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo‘lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalanadigan umumiy hajmi kelgusida davlatlarning strategik imkoniyatini, shuningdek mudofa qobiliyatini ham belgilab beradi, deyishga jiddiy asos bor.

Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, zamonaviy axborot texnologiyasi, modellar, ma‘lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta‘minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi.

Axborot - ijtimoiy, iqtisodiy tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma‘lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to‘plagan tajribalari majmui demakdir. Inson axborot oqimi ichra yashar ekan, turli-tuman voqea, hodisalar va jarayonlarning bir - biriga aloqadorligini, o‘zaro munosabati mohiyatini tahlil etish, mushohada va mulohaza qilib ko‘rish maqsadida ko‘pdan ko‘p dalil va raqamlarga murojaat qiladi. Axborot tufayli nazariy bilimlar amaliyot bilan birlashadi.

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti axborot oqimining juda ham kengayishiga olib keldi. Axborot

oqimining tobora kengayib borganidan shu narsa ham dalolat bera oladiki, o‘tgan asrning 70-yillar o‘rtalariga kelib oqib chiqarish kuchlari taraqqiyoti shunday darajaga etgan ediki, ulardan oqilona foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni jadallashtirish uchun yiliga 1016 arifmetik amalni bajarish kerak bo‘ladi. Tabiiyki, bunday murakkab hisob - kitobni cho‘t qoqib amalga oshirib bo‘lmaydi. 10 milliard kishi bir yil davomida tinmay ishlagan taqdiridagina shuncha arifmetik amalni echa olishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi bosqichda ilmiy-texnikaviy rivojlanishning asosiy xususiyatlaridan biri - axborotning jamiyatdagi rolini belgilab olishdir. Shu o‘rinda mazkur muammoga bag‘ishlangan respublikamizning tanikli olimlari akademiklar V.Q. Qobulov, S.S. G‘ulomov, professorlar A.A. Abdug‘afforov, R.X. Alimov, M.Irmatov, T.Sh. Shodiev, D.N. Ahmedov, B.M. Ismoilov, Z.T. Odilova va boshqalarning ilmiy ishlarini ta‘kidlab o‘tish joizdir.

Akademik V.Q. Qobulov ta‘kidlaganlaridek, «Iqtisodiy kibernetika, ijtimoiy ishlab chiqarishning siyosiy-iqtisodiy tahliliga asoslangan holda, axborot va materiallarni tubdan o‘zgartirib yuborishning iqtisodiy tizimi doirasida ko‘radi».

Axborot tanqisligi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv xatolari juda qimmatga tushadi. Ayni paytda, boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligi, ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanish bo‘yicha eng ko‘p axborotga ega bo‘lgan tizim yutib chiqmoqda.

Mutaxassislar, birinchi galda iqtisodchilarning axborotga erkin kirib borishini sanoat rivojlanishi sharoitida bozor iqtisodi samaradorligining asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi. Ularning faoliyati va jamiyat ishlab chiqarishining

asosiy sohalar u yoki bu ma'noda axborot bilan bog'liq bo'lib, ish bilan band bo'lganlarning 40-60 % ini tashkil etadi. Axborot xizmatlari jahon yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadining 10 % ini tashkil qilmoqda. Shuning 90 % i AQSh, Yaponiya va G'arbiy Evropa hissasiga to'g'ri keladi.

Axborot intellektual faoliyatning muhim mahsuloti sanaladi. Sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda ushbu mahsulotlarni o'z foydalanuvchilariga etkazishning «usullari va vositalari» ni ishlab chiqish hamda joriy etish jadal sur'atlarda olib borilmoqdaki, bu axborot tizimlari va texnologiyalari sanoatini yaratishda o'z aksini topgan.

Jamiyatni kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlan-tirish bo'yicha vazifalarni hal etish uchun 2002 yil 30 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» gi Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi axborotlashtirishning milliy tizmlari barpo etilishini, iqtisodiyotga va jamiyatning har bir a'zosi hayotiga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ommaviy joriy etilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

Farmonda va hukumat qarorida belgilangan dasturiy chora-tadbirlarning amalda ro'yobga chiqarilishi boshqaruvning barcha tarmoq va mintaqaviy organlariga, iqtisodiy va madaniyatning barcha sohalariga, umuman, jamiyatga daxldordir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maxsus «Kompyuterlash-tirishni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqshartiruvchi Kengash» tashkil etildi. Joriy yilda Kengashga 2010 yilgacha bo'lgan davrda telekommunikatsiyalar va ma'lumotlar uzatishning milliy tarmog'ini rivojlantirish; davlat boshqaruviga elektron texnologiyalarni joriy etish; elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni tayyorlash topshirildi.

Prezident Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi va 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturini tasdiqladi, Unda telekommunikatsiyalar va ma'lumatlar uzatishni rivojlantirish, axborot resurslaridan foydalanish, Internet tarmog'ida o'z saytlarini yaratishning maqsadli yo'nalishlari belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot resurslarini oqilona tashkil etish va foydalanishda ular mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda axborot - bu boshqa barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni asrab-avaylashga ko'maklashuvchi yagona resurs turidir.

XXI asrga kelib insoniyat tarixida ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida axborot ish quroliga aylandi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat resurslarining og'ishmay axborot sohasiga o'tib borishi tendentsiyasi tobora yaqqol sezilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarish sur'ati o'sishi va rivojlanishi jarayonida qarorlar qabul qilish hamda boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot hajmi oshib bormoqda. Bu o'sish avvalo, iqtisodiy, texnik, ilmiy, texnologik va ijtimoiy tizimlar va jarayonlarda namoyon bo'lmoqda.

Axborotlashtirish jarayoni deganda – inson faoliyatining muhim yo'nalishlarida olingan bilimlardan samarali foydalanish uchun ko'rilgan kompleks chora-tadbirlar tushuniladi.

Zamonaviy va samarali echimlar topish uchun ko'plab, struktura jihatidan murakkab axborot tizimi yaratilmoqda, natijada, axborotlashtirish jarayonida ishtirok etuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Bu jamiyat va moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ko'plab mablag'larini

shu sohaga jalb qilishga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida insonlarni axborot resurslaridan ratsional foydalanish yo'llarini qidirishga majbur qilmoqda. Zamonaviy sharoitda yangi axborot oqimi qanchalik tez ko'paysa shu bilan birga ularning eskirish muddatlari ham tezlashmoqda, bu o'z navbatida, axborotni tanlash, unga erishish qiyinchiliklarini keltirib chiqarmoqda.

Har bir injener, xizmatchi, rahbar o'z faoliyati davomida ko'plab qog'ozlarga bitilgan axborotni tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Bu esa axborotga erishish uchun ko'plab vaqt sarflashga to'g'ri kelib, ishni tashkil qilish unumdorligiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday muammolarni samarali echish jamiyatni axborotlashtirish masalasini ko'ndalang qilib qo'yimoqda.

Axborotlashgan jamiyat – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatidir.

Axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborot iqtisodiyotining rivojlanishi;
- axborot tangligini bartaraf etish;
- axborot texnologiyasining globalligiga erishish;
- turli axborot resurslariga erkin kirib borilishi;
- axborot resurslarining ustunligini ta'minlash;
- yangi axborot texnikasi va texnologiyalarini keng qo'llash;
- boshqaruv faoliyatida axborotdan samarali foydalanish.

Axborotlashgan jamiyatda inson axborot bilan ishlash bo'yicha ma'lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lishi zarur. Buning uchun shaxsni axborotni tez qabul qilish va katta hajmini qayta ishlash, zamonaviy vositalar, usullar va texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash lozim.

Axborot madaniyati deganda – jamiyat a'zolarining axborotdan maqsadli foydalanish, axborotni qayta ishlash va uzatish, zamonaviy texnik-tashkiliy vositalardan va usullaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi tushuniladi.

Axborotlashgan jamiyat quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- texnik qurilmalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z faoliyatida kompyuter, axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- turli manbalardan axborotni olishni bilish va undan samarali foydalanish;
- axborotni tahliliy qayta ishlash asoslarini egallash;
- o'z faoliyatiga taalluqli axborotni bilish va u bilan ishlashni uddalash.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanish va takomillashish muammolariga bag'ishlangan chet el va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari [30,31,49,50] salmog'i oz emas.

«Axborotlashgan jamiyat» tushunchasini birinchilar qatorida amerikalik iqtisodchi olim F. Maxlup ilmiy doiraga kiritgan. U monopoliya raqobatida patentlashtirish tizimining tutgan o'rnini statistik usullar asosida o'rganib, AQSh yalpi ichki mahsulotida axborotning miqdoriy jihatdan tavsiflanishini ko'rib chiqdi. Olim axborotni tovar sifatida qabul qilish kontseptsiyasiga asoslangan holda Amerikada kelajakda jamiyat rivojlanishining asosiy sharti «axborotlashgan iqtisod» bo'lishi g'oyasini ilgari surdi.

O'z kontseptsiyasida F. Maxlup AQSh da nafaqat ilmiy-texnik axborotning, balki hoxlagan ijtimoiy axborotning tarqatilishi va ishlab chiqarilishining o'sishini tavsiflovchi aniq empirik materiallardan foydalandi. Keyinchalik AQSh va boshqa mamlakatlarda «axborotlashgan jamiyat»

kontseptsiyasini P.Drakker, D.Bell, E.Parker, M.Porat, A.Toffler, A.Mol, J. Stigler, K.Errou kabi bir qator iqtisodchilar oldinga surishdi. Hozirgi kunda ular olib borgan tadqiqotlar natijasi o'laroq milliy iqtisodda «axborot tarmog'i», «axborot iqtisodi» va «axborotlashgan jamiyat» kabi kontseptsiyalar vujudga kelgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, jahon amaliyotida axborot sohasining milliy iqtisoddagi o'rnini aniqlash bo'yicha iqtisodiy hisob printsiplariga asoslangan ikkita eng mashhur ilmiy qarash mavjud bo'lib, ular F. Maxlup va M. Poratlariga tegishli.

F. Maxlup bilimlarning u yoki bu soha faoliyatida tutgan o'rnini har tomonlama o'rgangan hamda milliy iqtisod sohalari yangicha guruhlashtirishning sintezini va bilimlar industriyasini mohiyat jihatidan belgilab oldi.

Iqtisodchi olim F. Maxlup birinchilardan bo'lib milliy boylikning qanday qismi axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish hisobiga vujudga kelishini hamda bilim, umuman u bilan bog'liq bo'lgan yalpi milliy mahsulot qismini aniqlash masalasini ko'ndalang qo'ydi. U AQSH milliy iqtisodini to'la tadqiq qildi va bilimlar yaratadigan 30 ta tarmoqni belgilab oldi hamda ularni 5 ta guruhga ajratdi: maorif; ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish; aloqa va ommaviy axborot vositalari; axborot mashinalari va vositalari; axborot xizmatlari.

Tahlil va natijalar. Amaliyoti rivojlangan mamlakatlarda fan va axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining takomillashib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirish bo'yicha o'zining nazariy takliflarini bergan olimlarning g'oyalari o'z o'rnini topayotganini ko'rsatmoqda. Bashorat qilishlariga qaraganda, butun jahon mamlakatlari yagona kompyuterlashtirilgan va axborotlashtirilgan kishilar jamiyatiga aylanib boradi. Tadqiqotlar axborotlashgan jamiyatga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni belgilab berdi:

- axborot tanqisligi muammosi hal etiladi;
- boshqa resurslarga nisbatan axborot resurslari birlamchi o'ringa chiqadi;
- axborotlashgan iqtisod rivojlanishning asosiy shakli bo'lib xizmat kiladi;
- jamiyat taraqqiyotining negizi bo'lib axborot-kommunikatsiyalar bozori tovarlarini keng qo'llash shartlari qo'yiladi;
- insoniyat taraqqiyotining yagona axborot maydoni shakllanmoqda.

Tizim tushunchasi

Hozirgi davr iqtisodiyotining murakkabligi va jo'shqinligi uning tuzilmasini unsurlarining tashqi muhit bilan o'zaro aloqasini, unsurlar ishlashi optimal tartiblarini belgilashni o'rganishni, ya'ni iqtisodiyotni yaxlit tizim nuqtai nazaridan tadqiq etishni ko'zda tutadi.

Tizim so'zi rus tilidagi sistema so'zining tarjimai bo'lib, oxirgisi yunoncha so'zi bo'lmish "systema" so'zidan olingan. Systema so'zining asl ma'nosi – bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan qismlar va elementlar to'plamining yaxlit butun ob'ekti tushuniladi.

Tizimlar umumiy nazariyasi - bu ilmiy yo'nalish bo'lib, ishlab chiqarish tabiati murakkab tizimlar tahlili va sintezining birtalay falsafiy, uslubiy, ilmiy muammolarini o'rganadi.

Hozirgi kunda fan va texnikada ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri - tizimdir. **Tizim** – bu tashkil etuvchilardan iborat bir butunlik degan ma'noni anglatadi. Umumiy holda tizimga quyidagicha ta'rif keltiramiz.

Tizim – bu o'zaro bog'liq va yagona maqsadga erishish uchun ma'lum qoida asosida o'zaro munosabatda bo'ladigan elementlar to'plamidir. Bu elementlar to'plami oddiy elementlar yig'indisidagina iborat bo'lmay, har bir element ham o'z navbatida tizim bo'lishi mumkin.

Tizimlarni turli belgilarga ko'ra turkumlarga ajratish mumkin. Umuman olganda, tizimlar moddiy yoki mavxum bo'lishi mumkin (mavxum - inson ongi maxsuli).

Moddiy tizimlar, asosan moddiy ob'ektlar to'plamidan tashkil topadi. O'z navbatida moddiy tizim anorganik (mexanik, ximik) va organik (biologik) tizimga yoki aralash tizimga ajratiladi. Moddiy tizimlarda asosiy o'rinni ijtimoiy tizim egallaydi. Bunday tizimning xususiyatlaridan biri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirishdir.

«Tizim»ni aniqlashga quyidagi atamalar kiradi: «ob'ektlar», «aloqalar», «xususiyatlar».

Ob'ektlar – tizimning bir bo'laki yoki komponentlari bo'lib, jismoniy, matematik o'zgaruvchan tenglamalar, qoida va qonunlar, texnologik jarayonlar, axborot jarayonlari, ishlab chiqarish bo'linmalari kabi ko'plab cheklanmagan qismlarga ega.

Xulosa va takliflar. Axborot tizimining funksional qismi har doim predmet soha va axborot texnologiyasi tushunchalari bilan bog'liq. Umuman olganda, texnologiya ma'lum bir jarayon sifatida har qanday predmet sohada mavjud bo'ladi. Masalan, bank tomonidan kredit berish texnologiyasi kredit turi, garov turi va boshqalarga bog'liq ravishda o'z xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Bu texnologik jarayonlarni bajarish jarayonida bank xodimi tegishli axborotni qayta ishlaydi. Iqtisodiy va boshqaruv masalalarini hal qilish har doim bu masalani yechilishi uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ish, uni bir qancha algoritmlar bo'yicha qayta ishlash va qaror qabul qiluvchi shaxsga qulay shaklda uzatish bo'yicha bir qator operatsiyalarni bajarilishi bilan bog'langan. Ko'rinib turibdiki, ma'lumotlarni qayta ishlash qo'lda bajarilganda ham qaror qabul qilish texnologiyasi axborotiy asosga ega. Shu bilan birga boshqaruv jarayoniga hisoblash texnikasi vositalarini joriy qilish bilan birga **axborot tizim** degan maxsus termin paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonunda quyidagi ta'rif keltirilgan:

Axborot tizimi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborot tizimini ishlab chiqishdan maqsad – tashkiliy loyihalashtirish, texnologik va hokazo jihatlarini hisobga olgan holda tizim faoliyatining samaradorligini oshirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdurazzoqov, i. (2024). V umumta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. *News of UzMU journal*, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O 'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
3. Nuraliyeva, . F. A. qizi. (2023). MOTION OF STATIONARY NON-LINEAR WAVES. *Confrencea*, 5(05), 250–253
4. Abdumo'minov , B. S. o'g'li, & Nuraliyeva , F. A. qizi. (2023). DASTURLASH TILLARI VA ULARNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 309–314.
5. Nuraliyeva , F. A. qizi, & Karimova , M. X. qizi. (2024). SUN'IY INTELLEKTNING KOMPYUTER GRAFIKASIGA BOG'LANISH BOSQICHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 65–68.
6. Nuraliyeva , F. A. qizi, & Karimova , M. X. qizi. (2024). YUQORI CHASTOTALI SOHADAGI DISPERSIYALI MUHITDA TO'QLINLAR HAKAKATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3 SPECIAL), 241–245.



УДК: 364-78

Мунира МАХМУДОВА,

Докторант Национального университета Узбекистан

E-mail: muniramakhmudova3@gmail.com

ИЖТИМОЙ ХОДИMLARNING MEHNAT FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLAR

Annotatsiya

Maqola ijtimoiy xodimlarning mehnat faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Asosiy jihatlar, jumladan, ish muhiti, xodimlarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlar, siyosiy iqlim ko'rib chiqilgan. Tadqiqot adabiyotlarni o'rganish va ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlarga asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, motivatsiya, demotivatsiya, ijtimoiy xizmatlar, omillar, ichki omillar, tashqi omillar, mehnat sharoitlari, ish muhiti, tashkiliy yordam, malaka oshirish.

INTERNAL AND EXTERNAL FACTORS INFLUENCING THE WORK ACTIVITY OF SOCIAL WORKERS

Annotation

The article is devoted to analyzing internal and external factors that influence the work activities of social workers. Key aspects are considered, including the work environment, personal characteristics of workers, socio-economic and cultural conditions, and the political climate. The study is based on a literature review and interviews with social work professionals.

Key words: social work, motivation, demotivation, social services, factors, internal factors, external factors, working conditions, work environment, organizational support, professional development.

ВНУТРЕННИЕ И ВНЕШНИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ТРУДОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ

Аннотация

Статья посвящена анализу внутренних и внешних факторов, оказывающих влияние на трудовую деятельность социальных работников. Рассматриваются основные аспекты, включая рабочую среду, личностные характеристики работников, социально-экономические и культурные условия, а также политический климат. Исследование основано на анализе литературы и опросах профессионалов в области социальной работы.

Ключевые слова: социальная работа, мотивация, демотивация, социальные услуги, факторы, внутренние факторы, внешние факторы, условия труда, рабочая среда, организационная поддержка, профессиональное развитие.

Введение. Социальные работники играют неоспоримую роль в улучшении качества жизни населения, предоставляя поддержку и помощь людям, находящимся в сложных жизненных обстоятельствах. Эффективность и результативность их трудовой деятельности зависят от множества факторов, которые можно разделить на внутренние и внешние. Внутренние факторы связаны с личными и профессиональными качествами работников, их обучением и подготовкой, а также с физическим и психологическим здоровьем. Внешние факторы включают условия труда, социально-экономическую среду, организационную культуру и законодательство.

Понимание и анализ этих факторов имеют важное значение для разработки стратегий повышения эффективности работы социальных работников, а также для улучшения условий их труда. Настоящая статья представляет собой попытку систематизировать существующие исследования и подходы к анализу влияния этих факторов, а также предложить рекомендации по оптимизации работы социальных служб. Основная цель статьи — обеспечить теоретическую и практическую базу для улучшения практики социальной работы на основе комплексного подхода к анализу внутренних и внешних условий труда социальных работников.

Таким образом, настоящее исследование стремится ответить на вопросы о том, какие конкретно внутренние и внешние факторы наиболее значимы для

деятельности социальных работников и каким образом эти факторы могут быть управляемы и оптимизированы для повышения качества предоставляемых услуг.

Литературный обзор по теме "Внутренние и внешние факторы, влияющие на трудовую деятельность социальных работников" представляет собой систематизацию ключевых исследований, охватывающих различные аспекты, влияющие на профессиональную деятельность социальных работников.

Исследования в области психологии труда показывают, что личностные качества, такие как эмпатия, устойчивость к стрессу и коммуникативные навыки, оказывают значительное влияние на успех в социальной работе. Примером такого исследования является работа Mor Barak, Nissly, & Levin [1], которая демонстрирует, как эмоциональный интеллект влияет на способность социальных работников справляться с профессиональным стрессом.

Образовательный уровень и профессиональное развитие играют критическую роль в эффективности социальных работников. Исследование Tham [2] подчеркивает важность постоянного профессионального развития и обучения для адаптации к изменяющимся условиям и потребностям клиентов.

Ряд исследований сконцентрирован на связи между здоровьем социальных работников и их профессиональной деятельностью. Работа Siebert [3] анализирует, как стресс и профессиональное выгорание

вливают на психическое здоровье и общую производительность социальных работников.

Исследование, проведенное Glisson и Hemmelgarn [4], подчеркивает роль организационной культуры и климата в определении уровня удовлетворенности работой и общей эффективности в социальной работе. Они выявили, что поддерживающая и стимулирующая рабочая среда снижает уровень стресса и увеличивает удовлетворенность работай.

Финансирование и социально-экономические условия региона также существенно влияют на работу социальных работников. Исследование Lynksey [5] показывает, как экономические флуктуации и изменения в государственной политике могут влиять на доступность и качество социальных услуг.

Политические и законодательные рамки определяют структуру и приоритеты в работе социальных служб. Исследования такие, как работа Jansson [6], обсуждают, как изменения в законодательстве могут влиять на осуществление трудовой деятельности сотрудников социальной защиты.

Методология исследования представляет собой мультидисциплинарный подход, сочетающий количественные и качественные методы анализа, что позволяет глубже понять влияние внутренних и внешних факторов на работу социальных работников. Этот смешанный методологический подход помогает собрать более полную картину и обеспечивает валидацию данных через триангуляцию исследовательских методов.

Этот методологический раздел подчеркивает стремление к обеспечению научной строгости исследования и позволяет получить обоснованные результаты, которые могут быть использованы для разработки рекомендаций по улучшению условий труда социальных работников.

Основные результаты.

Влияние личностных характеристик.

Анализ показал [7], что личностные характеристики, такие как эмпатия, устойчивость к стрессу и коммуникативные навыки, значительно коррелируют с уровнем удовлетворенности работой. Работники, обладающие высоким уровнем эмпатии и лучшими навыками управления стрессом, демонстрировали более высокую удовлетворенность и производительность.

Влияние профессионального образования и развития. Результаты изучения научной литературы по данной теме [8] показали, что непрерывное профессиональное развитие положительно влияет на профессиональную деятельность. Социальные работники, регулярно проходящие курсы повышения квалификации, имели лучшие показатели в работе с клиентами и выше оценивали свою удовлетворенность работой.

Влияние рабочей среды.

Организационная поддержка, включая доступ к ресурсам и позитивная организационная культура, оказались важными факторами, способствующими удовлетворенности работой. Социальные работники в учреждениях с высоким уровнем организационной поддержки сообщали о меньшем уровне стресса и большей удовлетворенности своей работой.

Влияние социально-экономических условий.

Результаты [9] указывают на то, что социально-экономические условия, такие как уровень

финансирования и социальная стабильность, значительно влияют на возможности социальной работы. В регионах с более высоким уровнем финансирования социальных программ работники чувствовали себя менее нагруженными и более эффективными в своей работе.

Обсуждение результатов. Результаты исследования [10] подчеркивают сложность и многогранность факторов, влияющих на трудовую деятельность социальных работников. Взаимодействие внутренних и внешних факторов определяет как общий уровень удовлетворенности профессией, так и качество предоставляемых услуг. Это подчеркивает необходимость комплексного подхода к управлению ресурсами и условиями труда в сфере социальной работы [11].

Эти результаты могут служить основой для разработки политик и практик, направленных на улучшение условий труда и повышение эффективности деятельности социальных работников.

Заклучение. Исследование внутренних и внешних факторов, влияющих на трудовую деятельность социальных работников, выявило ряд значимых аспектов, оказывающих воздействие на профессиональную удовлетворенность и эффективность в данной сфере. Результаты подчеркивают важность комплексного подхода к улучшению условий труда социальных работников и необходимость обеспечения их профессионального развития и поддержки.

Личностные характеристики такие как эмпатия и устойчивость к стрессу играют критическую роль в способности социальных работников эффективно справляться с требованиями своей профессии.

Профессиональное образование и постоянное обучение существенно повышают квалификацию социальных работников и способствуют их профессиональной удовлетворенности.

Организационная поддержка и рабочая среда оказывают значительное влияние на моральное состояние и продуктивность социальных работников, подчеркивая необходимость создания благоприятных условий для работы.

Социально-экономические и политические условия в стране и регионе влияют на возможности и ресурсы, доступные для социальной работы, что требует активной политической поддержки и адекватного финансирования социальных программ.

Для более глубокого понимания динамики взаимодействия между различными факторами и их влиянием на социальную работу необходимо провести дополнительные исследования. В частности, следует изучить долгосрочные эффекты организационных изменений в социальной работе и разработать методики адаптации социальных служб к меняющимся социально-экономическим условиям.

Данная подчеркивает, что улучшение условий труда социальных работников не только способствует их личному благополучию и профессиональной удовлетворенности, но и прямо влияет на качество предоставляемых ими социальных услуг, что в свою очередь способствует социальному благополучию общества в целом.

Таблица 1. Влияние внутренних и внешних факторов на трудовую деятельность социальных работников.

Фактор	Влияние на трудовую деятельность	Стратегии улучшения
Внутренние факторы		
Личностные характеристики	Влияют на взаимодействие с клиентами, управление стрессом	Разработка программ личного развития, тренинги по управлению стрессом
Профессиональное образование	Определяет уровень профессиональных навыков	Постоянное обучение и повышение

Фактор	Влияние на трудовую деятельность	Стратегии улучшения
Здоровье и благополучие	Влияет на производительность и устойчивость к стрессу	Квалификации Программы поддержки здоровья и профилактики выгорания
Внешние факторы		
Рабочая среда и организационная культура	Влияет на удовлетворенность работой и мотивацию	Улучшение условий труда, развитие позитивной культуры
Социально-экономические условия	Определяют ресурсы доступные для социальной работы	Лоббирование увеличения финансирования
Законодательство и политика	Влияет на возможности и ограничения в работе	Участие в разработке политики, адвокация интересов профессии

Источник: Авторская разработка на основе данных из литературного обзора статьи.

Рекомендации.

На основании проведенного исследования по теме "Внутренние и внешние факторы, влияющие на трудовую деятельность социальных работников", предлагаются следующие рекомендации для улучшения условий труда и повышения эффективности работы социальных работников:

Укрепление профессионального развития.

Разработка программ постоянного обучения: Внедрение регулярных тренингов и обучающих программ для социальных работников поможет улучшить их профессиональные навыки и адаптировать их к изменяющимся условиям и потребностям клиентов.

Поддержка сертификации и специализации: Стимулирование получения дополнительных сертификаций и специализаций в области социальной работы для повышения квалификации и профессиональной компетентности.

Оптимизация рабочей среды.

Улучшение условий труда: Создание комфортной и безопасной рабочей среды, обеспечение доступа к необходимым ресурсам и технологиям.

Укрепление организационной поддержки:

Разработка политики поддержки социальных работников, включая меры по предотвращению профессионального выгорания и поощрение инициатив, направленных на улучшение психологического благополучия сотрудников.

Усиление социально-экономической поддержки.

Повышение финансирования социальных программ: Лоббирование увеличения бюджетных ассигнований на социальную работу для обеспечения адекватного финансирования услуг и программ.

Сотрудничество с государственными органами: Развитие партнерств с государственными и некоммерческими организациями для расширения доступа к социальным услугам и ресурсам.

Политические инициативы.

Влияние на политику в области социальной работы: Активное участие профессиональных ассоциаций в разработке и реформировании законодательства, касающегося социальной работы, для улучшения условий труда и качества предоставляемых услуг.

Пропаганда значимости социальной работы: Повышение общественного осознания роли и значимости социальной работы через информационные кампании и образовательные программы.

Эти рекомендации направлены на создание устойчивой и поддерживающей среды, которая способствует не только улучшению профессионального благополучия социальных работников, но и повышению качества услуг, которые они предоставляют. Внедрение этих предложений потребует совместных усилий со стороны руководства социальных учреждений, профессиональных организаций и государственных органов.

ЛИТЕРАТУРА

- Barak, M. E. M., Nissly, J. A., & Levin, A. (2001). "Antecedents to retention and turnover among child welfare, social work, and other human service employees: What can we learn from past research? A review and meta-analysis." *Social Service Review*, 75(4), 625-661.
- Tham, P. (2007). "Why are they leaving? Factors affecting intention to leave among social workers in child welfare." *British Journal of Social Work*, 37(7), 1225-1246.
- Siebert, D. C. (2005). "Personal and occupational factors in burnout among practicing social workers: Implications for workers' well-being and client outcomes." *Social Work*, 50(1), 85-95.
- Glisson, C., & Hemmelgarn, A. (1998). "The effects of organizational climate and interorganizational coordination on the quality and outcomes of children's service systems." *Child Abuse & Neglect*, 22(5), 401-421.
- Lynksey, M. (2000). "Economic cycles and social work practice: A review of the literature and implications for social work." *Social Work*, 45(2), 132-146.
- Jansson, B. S. (2008). "Advocacy in health and mental health policies: Influences on social work practice." *Clinical Social Work Journal*, 36(1), 82-90.
- Mor Barak, M. E., Travis, D. J., Pyun, H., & Xie, B. (2009). "The impact of supervision on worker outcomes: A meta-analysis." *Social Service Review*, 83(1), 3-32.
- Netting, F. E., Kettner, P. M., & McMurtry, S. L. (2008). "Social work macro practice." 5th ed. Boston, MA: Pearson Education. Этот источник обеспечивает обзор макро практики в социальной работе, включая управление и политическое влияние, которые являются критически важными внешними факторами.
- Maslach, C., & Jackson, S. E. (1981). "The measurement of experienced burnout." *Journal of Occupational Behaviour*, 2(2), 99-113. Эта классическая работа посвящена измерению выгорания, что критически важно для понимания влияния профессиональной деятельности на личное благополучие социальных работников.
- Patti, R. J. (2009). "The handbook of social welfare management." Thousand Oaks, CA: Sage Publications. Этот сборник охватывает широкий спектр вопросов управления в социальной работе, предлагая стратегии для оптимизации организационной эффективности и руководства.
- Savaya, R., & Gardner, F. (2012). "Critical reflection to identify gaps between espoused theory and theory-in-use." *Social Work*, 57(2), 145-154. Это исследование затрагивает важность рефлексии в практике социальной работы, помогая социальным работникам выявлять и преодолевать разрывы между их теоретическими знаниями и практикой.



Kenjaboy MUSANOV,
Mustaqil izlanuvchi
Shuxrat XOLIKOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi

Psixologiya f.d., dotsent L.Ravshanov taqrizi ostida

IJTIMOY TARMOQLARDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING AYRIM MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning alohida xususiyatlari, ularning jamiyatimiz va voqealar rivojiga ko‘rsatayotgan ta‘siri ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarni monitoring qilish muammolari va ularni tahlil qilish bo‘yicha amaliy takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoq, OSINT, Brand Analytics, Wobot, YouScan, IQBuzz, ijtimoiy tarmoq monitoring tizimlari.

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация

В этой статье рассматриваются отдельные свойства социальных сетей, их влияние на общество и развитие событий, а также будут приведены факты по возникающим проблемам при мониторинге социальных сетей и практические предложения по их анализу.

Ключевые слова: Социальная сеть, OSINT, Brand Analytics, Wobot, YouScan, IQBuzz, Система мониторинга социальных сетей.

SOME PROBLEMS OF ENSURING IDEOLOGICAL SECURITY IN SOCIAL NETWORKS

Annotation

This article examines the individual properties of social networks, their impact on society and the development of events, and will also provide facts on emerging problems in monitoring social networks and practical suggestions for their analysis.

Keywords: Social network, OSINT, Brand Analytics, Wobot, YouScan, IQBuzz, Social network monitoring system.

Kirish. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar kundalik aloqa va axborot makonining ajralmas qismi hisoblanib, odamlar hayotida alohida o‘rin tutuvchi muhim vositaga aylandi. U insonlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va ma‘lumot almashishdan tashqari, jamiyat mafkurasini shakllantirish uchun ham keng imkoniyatlarga ega bo‘lib qolmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar turli madaniyatlar hamda qadriyatlar bilan tanishish, o‘zini baham ko‘rish mumkin bo‘lgan ochiq munozarali maydon bo‘lib, ular orqali odamlar hamfikrlarini topadi, manfaatlar yoki siyosiy e‘tiqodlarga asoslangan jamoalarda birlashadilar. Ushbu jarayonlar tufayli yangi mafkuraviy oqimlar va turli ijtimoiy harakatlar paydo bo‘lishiga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar turli mafkuraviy qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydigan tarkib yaratish uchun ham qulay platforma hisoblanib, foydalanuvchilar tomonidan postlar, videolar va fotosuratlarini joylashtirish, shuningdek, boshqa foydalanuvchilar materiallari ostidagi izohlarda o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin. Bu o‘z o‘rnida ma‘lum mafkuraviy tushunchalarni faol targ‘ib qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu holat jamiyatimizning mafkuraviy xavfsizligiga tahdidlar va ulardan himoyalaniish uchun masalani ilmiy jihatdan o‘rganib chiqilishining dolzarbligini oshiribgina qolmay [1], o‘z navbatida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan turli mazmundagi axborotlarni saralash, tahlil qilish va motivlarini o‘rganish uchun mahalliy dasturiy ta‘minotlarga ham ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlardan ma‘lumotlari yig‘ish va tahlil qilish dasturiy ta‘minotini ishlab chiqishdan oldin, avvalambor axborot manbalari hamda ma‘lumot almashinuvining alohida

xususiyatlariga hamda dasturning qaysi nazariya yoki algoritmi asosida yaratilishini jahon tajribasida chuqur o‘rganish zarur. Bu o‘z o‘rnida tadqiqotchi(lar)dan nafaqat texnik bilim, balki ijtimoiy-siyosiy va psixologik sohada ham chuqur izlanishlarni talab etadi.

“Ijtimoiy tarmoq” atamasi sotsiologik tabiatning umumiy ta‘rifiga ega bo‘lib, odamlarni ijtimoiy guruhlariga birlashtiradigan ijtimoiy yoki shaxslararo munosabatlar to‘plamiga aytiladi [2;3]. Shunga o‘xshash ta‘rif Oksford ingliz tili lug‘atida “Social network” iborasi uchun ham berilgan. Lekin, bu lug‘atda foydalanuvchilarga ma‘lumotlar, sharhlar, xabarlar, rasmlar va boshqa axborotlarni nashr qilish orqali bir - biri bilan muloqot qilish imkonini beruvchi veb-sayt yoki boshqa dasturiy ta‘minot sifatida belgilaydigan talqinni beradi [4]. Bu sohada izlanishlar olib brogan olimlar D.M.Boyd va N.B.Ellisonlar ham ijtimoiy tarmoq haqida o‘z tariflarini (ingl. Social network sites (SNSS) are increasingly attracting the attention of academic and industry researchers intrigued by their affordances and reach) keltirgan va u Oksford lug‘ati ta‘rifini to‘ldirgan asos sifatida olinadi [5].

Ijtimoiy tarmoq ma‘lumotlarini saralash va tahlil qilishda bir qator mavjud dolzarb muammolarni sanab o‘tish mumkin. Jumladan, axborotning va manbaning haqiqiyligini tekshirish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ya‘ni ijtimoiy tarmoqlarda soxta akkauntlarni yaratish va yolg‘on ma‘lumotlarni tarqatish oson, bu esa tahlil jarayonini qiyinlashtiradi [6].

Keyingi muammo – bu ma‘lumotlarning hajmidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, sharhlar va yoqtirishlar (“Like”) soni shunchalik ko‘pki, bu ma‘lumotlarning barchasini qo‘lda qayta ishlash juda ko‘p vaqt va mehnatni talab etadi. Bu albatta avtomatik algoritmlarga asoslangan

dasturiy ta'minotlar va sun'iy intellektdan foydalanishni talab qiladi.

Navbatdagi muammo – bu shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashda javobgarlik masalasidir. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar odatda shaxsiy hisoblanib, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlardan to'liq shaklda tahliliy maqsadlarda foydalanishda inson shaxsiy huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkin [7].

Yuqorida keltirilgan muammolarning barchasi dolzarb bo'lib, ijtimoiy tarmoq ma'lumotlarini tahlil qilishning samarali usullari va vositalarini ishlab chiqish uchun qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining faol o'sishi va ommaga ochiq yozuvlarni yaratish imkoniyati, ijtimoiy tarmoqlarning muqobil ommaviy axborot vositalariga aylanishiga olib keldi. "Ijtimoiy fikr" Respublika ijtimoiy fikrni o'rganish markazi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonliklarning 27 % ortig'i ma'lumot izlash uchun internetdan foydalansa, yoshlarning 62 % ortig'i uchun bu axborotning asosiy manbai hisoblanadi [8]. Ko'pchilik foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlardan ("Og'izdan - og'izga") olingan ma'lumotlarga an'anaviy axborot manbalarga (televidenie va gazetalar) nisbatan ko'proq ishonadilar [9;10].

Yuqorida keltirilgan kontekst O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son Qonunini qabul qilishda asos bo'lganligi bilan bilvosita tasdiqlandi.

Ayni paytda O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarining ko'pchiligi hech bo'lmaganda bitta ijtimoiy tarmoqlarda hisob qaydnomasiga ega bo'lib, ularga kuniga o'rtacha uch - to'rt soat vaqt ajratadi [11]. Ijtimoiy tarmoqlarni monitoring qilish tizimi "Brand analytics" ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari har oy milliarddan ortiq yozuvlarni nashr etadi [12]. Shu bilan birga, bir oyda "Noyob" mualliflari soni 20 milliondan oshgan bo'lsa [13], "E-marketer" ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilga nisbatan foydalanuvchilar soni 4,7 milliondan 6,2 milliongacha o'sgan [14].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan axborotlarni tahlil qilish ustida tadqiqot olib borishga undaydigan motivlardan yana biri - bu jahon tajribasida ommaviy tartibsizliklar va "Rangli inqiloblar" keltirib chiqarish hamda ularni boshqarishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni alohida ekanligini ko'rsatdi [15].

Tadqiqotchilar hozirda ishlayotgan muhim masalalardan yana biri - bu ijtimoiy tarmoqlarda media ma'lumotlarini tahlil qilish etikasi hisoblanadi [16]. Ba'zi mamlakatlarda foydalanuvchi ma'lumotlarini yig'ish va ularidan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalar allaqachon qabul qilingan. Xorijiy mamlakatlarning tajribasi bizga ushbu qoidalarni o'rganishga va o'z qonunlarimizni shakllantirishda xatolarni chetlab o'tishga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoq media ma'lumotlarini tahlil qilish etikasi nafaqat ma'lumotlarning maxfiyligi masalalarini, balki algoritmlar va jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda ularning siyosiy jarayonlarga ta'sirini filtrlashni ham o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda dunyo bo'yicha korporativ darajada ham, sanoat va hukumat darajasida ham ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqishga urinishlar davom etmoqda. Masalan, Daniyada joylashgan "Dataethics" tahliliy markazi ma'lumotlar etikasining quyidagi tamoyillarini ishlab chiqdi [16]:

- "Inson" doimo diqqat markazida bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlashda asosiy ustunlikni oladi, ma'lum bir shaxsning manfaatlari har doim institutsional va tijorat manfaatlardan ustun turadi;

- shaxs o'z ma'lumotlaridan foydalanish, ularning ma'lumotlari qayta ishlanadigan kontekst va ular qanday faollashtirilganligi ustidan birlamchi nazoratga ega;

- ma'lumotlarni qayta ishlash harakatlari va avtomatlashtirilgan yechimlar shaxs uchun mantiqiy bo'lishi kerak, ular shaffof va tushunarli bo'lishi kerak;

- mas'uliyat bilan yondashuv, ya'ni mulohaza qilish, shaxsiy ma'lumotlardan oqilona foydalanish va ularni himoya qilish ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha jihatlarining ajralmas qismidir.

Bundan tashqari, ushbu tahliliy markaz kompaniya va tashkilotlar uchun ma'lumotlar etikasi dilemmalarini ko'rib chiqishga imkon beradigan vositalarni ham ishlab chiqqan [17].

Umumjahon reklama beruvchilar federatsiyasi (World Federation of Advertisers, WFA) dunyodagi yeng yirik kompaniyalar uchun aniq ko'rsatmalar va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan reklamadagi ma'lumotlar etikasi bo'yicha dunyodagi birinchi brend qo'llanmasini chiqardi [18]. Yevropada 2018-yilda ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy reglamentiga (General Data Protection Regulation, GDPR) raqamli etikaning ushbu jihati uchun huquqiy standartlari paydo bo'ldi [19]. 2019-yil dekabr oyida Rossiya ma'lumotlardan foydalanish uchun axloq kodeksini ham joriy etdi [20], unda barcha turdagi ma'lumotlar bilan ishlashda axloqiy tamoyillar mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lgan yillardanoq, ijtimoiy aloqalar ustida turli modellar asosida tadqiq qilish to'htagani yo'q. 90 - yillarning oxirlarida ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro munosabatlarning turli modellarini izlash va o'rganish boshlandi. Olimlar D.A.Gubonov, D.A.Novikov, A.G.Chxartishvili o'z ilmiy maqolasida bu borada batafsil ma'lumotlar keltirgan [21]. Biroq, mavjud monitoring tizimlari (ularning imkoniyatlari) to'g'risida ma'lumot beruvchilar, deyarli matematik modellarning boy turlaridan foydalanmaydi [22].

Ijtimoiy tarmoqlar monitoringi yoki ijtimoiy media monitoring (ingl. Social Media Measurement) ijtimoiy tarmoqlar va bloglarda ma'lum bir mavzu bo'yicha havolalarni qo'lda yoki avtomatik tizimda qidirish, shuningdek to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishni anglatadi. Shuningdek, ma'lum mavzu bo'yicha postlar soni, ularga berilgan ijobiy baholar ("Like") soni va boshqalar kabi miqdoriy ko'rsatkichlar hisobini yuritish uchun mo'ljallangan faoliyatdir. Ko'pincha xabarlarining emotsional ranglanishi tahlili qo'llaniladi va tendentsiya miqdoriy xarakteristikalar quriladi [22;23;24].

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoq monitoringi iqtisodiy sohada mahsulot yoki brendning reytingini kuzatish, tahlil qilish va rentabellikni oshirish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish maqsadida ommalashib bormoqda [25;26;27;28].

Monitoring va tahlil bo'yicha eng mashhur dasturlardan biri "Salesforce" tomonidan yaratilgan "Social Studio" bo'lib, u tashkilotlar va brendlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamarini kuzatish, ularning obro'si va kompaniyalarning samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Yana bir taniqli dastur "Brandwatch" bo'lib, u ijtimoiy media ma'lumotlarini tahlil qilish uchun keng imkoniyatlarga ega. Bu tadqiqotchilarga o'zaro bog'liqlik va tendentsiyalarni aniqlash, shuningdek, foydalanuvchilarning ma'lum brendlar yoki mahsulotlarga nisbatan kayfiyatini (qiziqishini) aniqlash imkonini beradi.

Shunga o'xshash tahlillar "Brand analytics" [28], "Wobot" [29], "Youscan" [30], "Iqbuzz" [31] va boshqa tahliliy dasturlar tomonidan ham taqdim etiladi. Mazkur tahliliy dasturlar ijtimoiy tarmoqlardan avtomatik tarzda to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatlarning mashhurlik darajasi va unga

bo'lgan talab, shuningdek, iste'molchilarning aksiyalar va maxsus takliflarga munosabatlarini baholaydi [28;32].

Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi o'z o'rnida ijtimoiy - iqtisodiy so'rovlar bilan shug'ullanuvchi idoralar ishini ham ancha osonlashtirdi [33;34]. Endi tadqiqotchilar ko'chalarda va maxsus markazlarda aholidan so'rov o'tkazish o'rniga, ijtimoiy tarmoq yordamida jamoatchilik fikrini onlayn yig'ish hamda tahlil qilishlari mumkin. Shu bilan birga, so'rov tashabbuschisi endi uzun so'rovnomalarni hisoblamasdan, o'zining umumiy profiliga to'plangan natijalarni yig'ib olishi mumkin. Bundan tashqari, ko'chadan bir necha yuz kishi o'rniga, ijtimoiy tarmoq yordamida ko'proq odamlar bilan suhbatlashish orqali namunaning representativligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Internet orqali o'tkaziladigan so'rovlarning afzalligi, shuningdek, uning vaqt parametrlarini nazorat qilish qobiliyatidadir [35].

Umuman olganda, Ijtimoiy tarmoq monitoring tizimlari mijozlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin [36]:

- Respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlari; siyosiy partiyalari;

- energetika xizmatlari;
- tijorat korxonalari ("Brend");
- ilmiy - tadqiqot tashkilotlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- boshqa manfaatdor tomonlar.

Shunday qilib, Ijtimoiy tarmoq monitoringi jamoatchilik fikrini tahlil qilish uchun ilg'or vosita bo'lib, u o'z navbatida siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

D.A. Gubanov va boshqalar [36;37] ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq uchta asosiy vazifani aniqladi:

- monitoring va tahlil qilish;
- bashorat qilish;
- axborotni boshqarish.

Shu bilan birga, monitoring vazifalari orasida muhokamaning tabiiyligini baholash, faol guruhlar va jamoalarni aniqlash, foydalanuvchilarning ta'sirini baholash va foydalanuvchi profilining atributlarini aniqlashni ajratib ko'rsatish mumkin. Ijtimoiy tarmoqning joriy holatini monitoring qilish va tahlil qilish nazorat harakatlarini hisobga olgan holda yoki uning rivojlanishini kuzatish uchun zarurdir.

An'anaga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar Davlat tomonidan tartibga solinmaydi. Biroq, 2012-yilda Rossiya tashqi razvedka xizmati tomonidan ijtimoiy tarmoqni kuzatish va ta'sir qilish tizimini ishlab chiqish uchun maxsus buyurtmalar bo'lganligi haqidagi habar ommaviy axborot vositalari orqali tarqaldi [38]. Unda razvedka xizmatining asosiy manfaati ijtimoiy tarmoqlardagi shubhali faoliyatlarni kuzatish, turli tahdidlar haqida erta ogohlantirish tizimlarini yaratish va "bot"lar tarmoq'ida turli mazmundagi axborotlar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish deb keltirildi.

Amerika tajribasida ham ijtimoiy tarmoqlarni monitoring qilish, ulardagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishda avtomatik tizimlar hamda ochiq manbalar ma'lumotlaridan faol foydalanadi. Jumladan, AQSh Mudofaa vazirligi Razvedka boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, ma'lumotlarining 90 foizi (ingl. Open Source Intelligence, OSINT) ochiq manbalardan olingan [39].

2011-yilda AQSh Mudofaa vazirligining Istiqbolli tadqiqot loyihalari boshqarmasi (ingl. Defense Advanced Research Projects Agency, DARPA) AQShga qarshi tashviqotni kuzatish va aksilpropagandada yordam berish tizimi (ingl. Social Media in Strategic Communication, SMISC) ishlab chiqish uchun tender e'lon qildi.

SMISC dasturining asosida ikkita vazifa mavjud. Birinchisi, AQSh hukumati harbiy xizmatchilarga AQSh armiyasining harbiy bazalari joylashgan mintaqalarga tegishli bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo'layotgan barcha voqealarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatini

berishni xohlaydi. Ikkinchisi, SMISC ijtimoiy tarmoqlar orqali ushbu hududlarda targ'ibot ishlarini olib borishda o'z hissalarini qo'shishda yordam beradi [40].

O'zbekiston Respublikasida ham axborotlari tahlil qilishga mo'ljallangan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar sohasida monitoring markazi faoliyat yuritadi.

Uning asosiy vazifalari axborot - kommunikatsiya tizimlarida milliy ongning o'zgartirilishiga, jamiyatning tarixiy hamda milliy an'analar va urf - odatlardan uzilib qolishiga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning nobarqarorlashishiga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikning buzilishiga yo'naltirilgan axborotning tarqalishiga qarshi kurashish, shuningdek, milliy axborot makonida aniqlangan konstitutsiyaviy tuzumni zo'ravonlik bilan o'zgartirishga, O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzishga, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni avj oldirishga, Davlat tuzumiga qarshi qaratilgan boshqa tajovuzlarni sodir etishga ommaviy da'vat qilgan materiallarni, shuningdek urush, zo'ravonlik, pornografiya va shafqatsizlikni, terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalarni targ'ib qilishga yo'naltirilgan axborotlarni tahlil qiladi va ular bo'yicha xulosalar tayyorlaydi [41].

Ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy tajribalar hamda olimlarning turli modellar asosida o'tkazgan tadqiqot ishlarida xulosa qilindi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi har qanday aloqa va bog'likliklarni aniqlash hamda ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmini tuzishda, ma'lum dasturiy ta'minot shakliga keltirish uchun Graf nazariyasi asosida tadqiqot qilamiz. Graf nazariyasi - bu diskret matematikaning bir bo'limi bo'lib, uning xususiyati ob'ektlarni o'rganishda geometrik yondashuvdir. Nazariyaning asosiy tushunchasi grafikdir. Grafik cho'qqilar to'plami (nuqtalari) va ba'zi (yoki ehtimol barcha) juft cho'qqilarni bog'laydigan qirralar (ulanishlar) to'plami bilan belgilanadi. Dastur algoritmi bo'yicha cho'qqilar - foydalanuvchilar va qirralar - ijtimoiy aloqalar bo'lgan grafik deb ataladi.

Xulosa. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoq ma'lumotlarini tahlil qilishning dolzarb muammolari tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Mavjud ijtimoiy tarmoq monitoring tizimlarining asosiy muammolaridan biri shundaki, ular miqdoriy ko'rsatkichlarni kuzatishga, asosan cheklangan so'rovlar to'plamiga qaratilgan. So'rovlar odatda kalit so'zlar va iboralar to'plamidir, shuning uchun bot (virtual foydalanuvchilar) hisoblaridan ko'p sonli xabarlarini ("yolg'on-fake") avtomatlashtirilgan yoki avtomatik ravishda nashr etish tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tahlil qilish muammolaridan yana biri qidiruvning yuqori dolzarbligini ta'minlash bo'lib, "bot"lardan olingan natijalarni filtrlash talab qilinadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun "bot"larni haqiqiy foydalanuvchilardan ajratish usullarini qo'llash kerak.

Jamoatchilik fikrini tahlil qilishda foydalanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish muhim masala hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoq virtual profillarni yaratish uchun boy imkoniyatlarni taqdim etsada, barcha foydalanuvchilar o'zlari haqida to'liq ma'lumot bermaydilar. Ushbu muammoni hal qilish jamoatchilik fikrini tahlil qilish sifatini va ijtimoiy tarmoq monitoring tizimlarida ma'lumotlarning dolzarbligini oshiradi.

Tahlil davomida ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud katta hajmdagi ma'lumotlar foydalanuvchilar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratishi aniq. Biroq, ma'lumotlarni filtrlash va tasniflash, axborot sifatini nazorat

qilish, yolg'on ma'lumotlarning ishonchsizligi, shuningdek axloqiy masalalar kabi muammolarni hisobga olish kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son Farmoni
2. Pattison P. Algebraic Models for Social Networks. Cambridge University Press, 1993. 336 p.
3. Wasserman S., Faust K. Social Network Analysis: Methods and Applications (Structural Analysis in the Social Sciences). Cambridge University Press, 1994. 857 p.
4. Definition of social network in Oxford Dictionaries (British & World English) / Oxford Dictionaries. URL: <http://oxforddictionaries.com/definition/english/social%5C%2Bnetwork>.
5. Boyd D. M., Ellison N. B. Social network sites: Definition, history, and scholarship // Journal of Computer-Mediated Communication. 2007. Vol. 13, № 1. P. 210–230.
6. Social Media Fraud Spikes, Study Finds. URL: <https://www.darkreading.com/cloud/social-media-fraud-spikes-study-finds>.
7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni.
8. Возраст и пол авторов социальных сетей. URL: <https://br-analytics.ru/statistics/author>
9. Как власти читают ваши блоги: расследование Forbes. URL: <https://www.forbes.ru/sobytiya/vlast/92590-kak-vlasti-chitayut-vashi-blogi-rassledovanie-forbes>.
10. Уровень доверия россиян к теленовостям упал в два раза за шесть лет. URL: <https://www.interfax.ru/russia/485226>
11. Global Social Media Statistics Summary 2016. URL: <http://www.smartinsights.com/social-media-marketing/social-media-strategy/new-global-social-media-research/>.
12. Brand Analytics - источники. URL: <https://br-analytics.ru/statistics/>.
13. Возраст и пол авторов социальных сетей. URL: <https://br-analytics.ru/statistics/author>
14. Data and Research on Digital for Business Professionals | eMarketer. URL: <https://www.insiderintelligence.com/>.
15. Гапич А.Э., Лушников Д.А., Технологии «цветных революций». Москва.: Изд. РИОР, 2010. С.8;132.
16. Data Ethics Principles (2017). URL: <https://dataethics.eu/data-ethics-principles/>.
17. Data Ethics Tools for Companies and Organisations (2021). URL: <https://dataethics.eu/tool/>.
18. Data Ethics — The Rise of Morality in Tech (2020). URL: <https://wfanet.org/leadership/data-ethics>.
19. General Data Protection Regulation (2018). URL: <https://gdpr-info.eu/>
20. Кодекс этики использования данных (2019). URL: <https://ac.gov.ru/files/content/25949/kodeksetiki-pdf>.
21. Губанов Д. А., Новиков Д. А., Чхартишвили А. Г. Модели информационного влияния и информационного управления в социальных сетях // Проблемы управления. 2009. № 5. С. 28-35
22. Базенков Н. И., Губанов Д. А. Обзор информационных систем анализа социальных сетей // Управление большими системами: сборник трудов. 2013. № 41. С. 357—394
23. Тутубалина Е. В. Методы извлечения и резюмирования критических отзывов пользователей о продукции : дисс. канд. физ.-мат. наук. Казань. 2016. 145 с
24. Зачем Следственному комитету России искусственный интеллект - BBC Русская служба. URL: https://www.bbc.com/russian/russia/2015/12/151224_smj_sledcom_integrum.
25. Ткачев О. В. Онлайн-исследования для онлайн-брендов // Онлайн исследования в России 3.0 / под ред. А. В. Шашкина, И. Ф. Девятко, С. Г. Давыдова. М.: Издательский дом «Кодекс», 2012. С. 239—247
26. Российские системы мониторинга социальных сетей. URL: <https://www.cossa.ru/149/17590/>.
27. Управление репутацией: автоматизированный и ручной мониторинг репутации / Лайкни. URL: <http://www.likeni.ru/analytics/upravlenie-reputaciej-v-seti-avtomatizirovannij-i-ruchnoj-monitoring/>.
28. Brand Analytics - система мониторинга социальных медиа и СМИ. URL: <https://br-analytics.ru/>
29. Wobot. URL: <http://wobot.ru/>.
30. YouScan - Система мониторинга социальных медиа и социальных сетей. URL: <https://youscan.io/>.
31. Мониторинг социальных медиа в Москве, сервис мониторинга соцмедиа. URL: <https://iqbuzz.pro/>.
32. Как провести мониторинг социальных медиа: методичка. <https://www.cossa.ru/149/117540/>.
33. Дьякова М. В. Будущее онлайн-исследований: ожидать ли конца света, или какие альтернативные источники формирования выборок придут на смену традиционным онлайн-панелям? // Онлайн исследования в России 3.0 / под ред. А. В. Шашкина, И. Ф. Девятко, С. Г. Давыдова. М.: Издательский дом «Кодекс», 2012. С. 101—107
34. Хазеева Н. М. Социальные медиа: Vox Populi или специфика нового канала изучения мнения потребителей // Онлайн исследования в России 3.0 / под ред. А. В. Шашкина, И.Ф.Девятко, С.Г.Давыдова. М.: Издательский дом «Кодекс», 2012. С. 109-129
35. Девятко И. Ф. Онлайн исследования и методология социальных наук: новые горизонты, новые (и не столь новые) трудности // Онлайн исследования в России 2.0 / под ред. А.В.Шашкина, И.Ф.Девятко, С.Г.Давыдова. М.: РИЦ «Северо-Восток», 2010. С. 17-30
36. Губанов Д. А., Чхартишвили А. Г. Концептуальный подход к анализу онлайн-социальных сетей // Управление большими системами: сборник трудов. 2013. Т. 45. С. 222-236.
37. Губанов Д. А., Новиков Д. А., Чхартишвили А. Г. Социальные сети: модели информационного влияния, управления, противоборства / под ред. чл.-корр. РАН Д.А. Новикова. 2-е изд. М.: Издательство физико-математической литературы, 2010. 228 с.
38. Разведка ботом. URL: <https://kommersant.ru/doc/2009256>.
39. OSINT - Ochiq ma'lumotlarga asoslangan razvedka. <https://onsec.uz/uz/services/7>.
40. ФБР готовит программу для мониторинга социальных сетей / BBC Russian. URL: https://www.bbc.co.uk/russian/international/2012/01/120127_fbi_social_networks.shtml.
41. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-avgustdagi "Ommaviy kommunikatsiyalar sohasida monitoring tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 228-son Qarori



UDK:330.190.2:378.180.6(045)

G'ulomjon NABIYEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulomjonnabiev@mail.ru

Professor I Kamolov taqrizi asosida

O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAVSIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mohiyatiga ko'ra har bir jarayon o'z tavsifiga ega bo'ladi. Ma'lum tavsifiy belgilar o'rganilayotgan jarayonning boshqalardan farqli jihatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Qolaversa, o'rganilayotgan jarayonning tavsifi belgilari uni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri, oqilona tashkil etilishini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ham o'zining pedagogik tavsifiga ega. Jarayonning pedagogik tavsifini o'rganish maqsad va natija o'rtasidagi birlik, o'zaro aloqadorlikni ta'minlashga yordam beradi. Buning oqibati (posledstviye)da kutilayotgan natijaga erishiladi. Maqolada o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik tavsifi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, tadbirkorlik, tadbirkorlik kompetensiyasi, shakllantirish, rivojlantirish, pedagogik tavsif.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ

Аннотация

По сути, каждый процесс имеет свою характеристику. Определенные характерные знаки служат для обозначения отличных от других сторон изучаемого процесса. Кроме того, характерные признаки изучаемого процесса обеспечивают его правильную и рациональную организацию с организационно-методической точки зрения. Процесс формирования и развития предпринимательской компетентности учащихся общеобразовательных школ также имеет свою педагогическую характеристику. Изучение педагогической характеристики процесса помогает обеспечить единство, взаимосвязь цели и результата. В последствии достигается ожидаемый результат. В статье говорится о педагогической характеристике формирования и развития предпринимательской компетентности у учащихся.

Ключевые понятия: учащийся, предпринимательство, предпринимательская компетентность, становление, развитие, педагогическая характеристика.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCE IN STUDENTS PEDAGOGICAL DESCRIPTION

Annotation

Essentially, each process has its own characteristics. Certain characteristic signs serve to designate aspects of the process being studied that are different from other aspects. In addition, the characteristic features of the process being studied ensure its correct and rational organization from an organizational and methodological point of view. The process of formation and development of entrepreneurial competence of secondary school students also has its own pedagogical characteristics. Studying the pedagogical characteristics of the process helps to ensure unity and the relationship between the goal and the result. Subsequently, the expected result is achieved. The article talks about the pedagogical characteristics of the formation and development of entrepreneurial competence among students.

Key notions: student, entrepreneurship, entrepreneurial competence, formation, development, pedagogical characteristics.

Kirish. Bozor munosabatlari sharoitida turli jamiyatlarda ijtimoiy faoliyatning asosiy turi: tadbirkorlik keng rivojlanmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining samarali tashkil qilinishi shaxsning tadbirkorlik kompetensiyasiga ega bo'lishini taqozo qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatning o'ziga xos shakli bo'lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini olib borishga bo'lgan qiziqishi keskin ortadi. Buning sababi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun jamiyatda qulay muhitning shakllangani, davlat boshqaruvi organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanayotgani, ularga soliq siyosatida muayyan imtiyozlarning berilayotgani bilan bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.G.Lapustaning yondashuviga ko'ra tadbirkorlik o'zida "bozor munosabatlari subyektlari tomonidan iste'molchilar hamda jamiyatning mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga bo'lgan aniq ehtiyojlarini qondirish, shaxsan foyda (daromad) olish, shuningdek, o'zi

olib borayotgan ish (o'zi boshqarayotgan korxonani) rivojlantirish, budjet va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladigan turli faoliyat sohalarida tashkil qilinadigan iqtisodiy xo'jalikni ifodalaydi" [6]. Muallif to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, har qanday holatda ham tadbirkorlikning asosini iqtisodiy xo'jalik tashkil qiladi. Tadbirkorlikning mohiyatini yoritishga e'tiborni qaratar ekan, G.V.Lizenko ijtimoiy faoliyatning bu turini quyidagicha ta'riflaydi: tadbirkorlik – iste'molchilarning iste'mol ehtiyojlarini qondirish hamda moddiy daromad va axloqiy qoniqishga ega bo'lish maqsadida o'z zimmasiga ijtimoiy, moliyaviy va axloqiy asosga ega tavakkalchilikni olgan holda mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan turli faoliyat sohalarida xo'jalik subyektlarini tashkil qilish jarayoni [2]. Haqiqatdan ham faoliyat qanday ko'rinish, shakl va xarakterda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan jarayonda tashkil qilinadi. Shu bois muallifning "tadbirkorlik – bu jarayon" degan fikri tegishli faoliyatning

mohiyatini to'g'ri ifodalaydi. Robert Xizrich tomonidan berilgan ta'rif tahlil qilinayotgan faoliyatining mohiyatini yanada yaqqol yoritadi: tadbirkorlik – muayyan qiymatga ega bo'lgan nimaningdir yaratilish jarayoni bo'lib, tadbirkor bu jarayonga zarur vaqt va kuchni sarflar ekan, o'z zimmasiga moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf ehtimoli bo'lgan tavakkalchilikni oladi, buning evaziga moliyaviy mablag' va erishilgan yutuqlardan qanoatlanish hissiga ega bo'ladi" [7]. Darhaqiqat, tadbirkorlik shaxs zimmasiga bir qadar xavfli bo'lgan og'ir moliyaviy, psixologik va ijtimoiy mazmunga ega tavakkalchilikka asoslangan majburiyatni yuklaydi. Shu jihatdan A.V.Sobolevaning qarashlari Robert Xizrich tomonidan bildirilgan fikrni to'ldiradi. Ya'ni, tadbirkorlik faoliyati yoki tadbirkorlik – jismoniy shaxs yoki tashkilotning tavakkalchilik va moliyaviy javobgarligiga asoslangan holda foyda, daromad olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirishga imkon beruvchi tashabbusli, mustaqil faoliyati [8]. V.S.Morozovning qayd etishiga ko'ra, tavakkalchilik asosida "turli biznesga oid vazifalarni hal qilish va tadbirkorlik faoliyatida yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi shaxsiy hamda ishchanlik sifatleri, malaka va bilimlar, xulq-atvorning tegishli modeli" [3]ni aks ettiruvchi tadbirkorlik kompetentligi negizida aks etuvchi fazilat, qobiliyat sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda tadqiqotda asosiy metodologiya bu nazariy jihatdan "tadbirkorlik" tushunchasi tadbirkorga xos fazilat va u tomonidan tashkil qilinadigan xatti-harakat mohiyatini anglatadi. Qolaversa, tadbirkorlik ijtimoiy faoliyatning muayyan turi sifatida e'tirof qilinadi. Tadbirkorlikning boshqa faoliyat turlaridan asosiy farqi shundaki, uni tashkil etishdan asosiy maqsad moliyaviy foyda ko'rishdir. To'g'ri, shaxs uchun har qanday ijtimoiy faoliyatni tashkil qilishda ham moddiy manfaatdorlik bo'ladi. Biroq, bu manfaatdorlik asosiy faoliyat maqsadiga erishish yo'lida tashkil qilingan harakat uchun to'lanadigan haq bo'lib, harakatning ijtimoiy foydalilik, uni tashkil qilishga sarflanayotgan kuch (mehnat) darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Eng muhimi, shaxsning faoliyati tavakkalchilikka asoslanmaydi.

Tahlil va natijalar. Tadbirkorlikda esa asosiy e'tibor foyda olish, moddiy daromadni o'paytirishga qaratiladi va bu jarayonda tavakkal qilinadi. Qilinayotgan tavakkal nihoyatda xavfli bo'lib, ham moliyaviy ham psixologik salbiy oqibatlariga olib kelish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli tashkil qilingan faoliyat moddiy foyda keltirishi yoki aksincha, juda katta miqdorda moddiy ziyon yetishi mumkin. Tavakkalning ijobiy natijalanishi oqibatida olingan foyda tadbirkorning ijtimoiy, tabiiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki katta miqdorda jamg'ariladi va yangi biznes loyihalarni amalga oshirishga sarflanadi. Tadbirkorlik faoliyati, odatda, qishloq xo'jaligi (fermer) va sanoat sohalaridagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy ta'minot hamda tijoratni amalga oshirish shakllarida tashkil qilinadi.

Psixologiyaga oid elektron manbalarning birida "tadbirkorlik kompetensiyasi" tushunchasi shunday tavsiflanadi: belgilangan biznes vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish hamda yuqori natijalarga erishishga imkon beradigan shaxsni xarakterlovchi sifat, xulq-atvor modeli, malakasi [5]. Ayni o'rinda tadbirkorlik faoliyatining mohiyatidan kelib

chiqqan holda ta'rifni quyidagi mazmunda biroz boyitish zarur. YA'ni, "foйда olish maqsadi va tavakkalchilik asosida belgilangan biznes vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish hamda yuqori natijalarga erishishga imkon beruvchi shaxsга xos sifat, xulq-atvor modeli, faoliyatni samarali tashkil qilish qobiliyati". Keltirilgan fikrlarga tayangan holda, "tadbirkorlik kompetensiyasi" tushunchasini quyidagicha ta'riflash tegishli sifatning umumiy mazmunini nisbatan to'liq yoritishga xizmat qiladi, degan fikrga kelindi: shaxsning foyda olish maqsadida ijtimoiy, psixologik va moliyaviy ziyon ko'rish ehtimoli yuqori bo'lishiga qaramay tavakkalchilikka asoslangan holda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy ta'minot va tijorat yo'nalishida muvaffaqiyatli faoliyatni amalga oshirishiga imkon beruvchi qobiliyatlari. Tadbirkorlikni samarali olib borishda shaxsning inson resurslari bilan ishlash, moliya, rejalashtirish, marketing, boshqarish sohalariga oid bilim, amaliy malaka, tajribaga, shuningdek, liderlik qobiliyatiga egaligi muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik shaxs faoliyatini erkin yo'lga qo'yishga imkon beradi. Zero, bu jarayonda shaxs tanlangan soha bo'yicha o'z ega bo'lgan qobiliyatni namoyon qila oladi. Bu esa maktab davridan o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish izchil, tizimli, maqsadga muvofiq tashkil etishni taqozo qiluvchi ko'p bosqichli, ham ta'limiy ham tarbiyaviy xarakterga ega jarayon sanaladi. Jarayonni tashkil qilishga tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri, oqilona yondashish uning muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Biroq, jarayonning metodik jihatlarini yoritishdan avval o'quvchilarda kelgusida ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil qilinishi uchun qanday sifatlarini shakllantirish/rivojlantirish zarurligi to'g'risidagi tasavvurni oydinlashtirib olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bu o'rinda S.P.Ozimov [4] shaxsda tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirishga oid texnologiyani taklif qiladi. Muallifning fikriga ko'ra mazkur texnologiya o'zida o'n ikkita sifatni qamrab olgan bo'lib, shaxsning ulardan biriga ega bo'lmasligi tadbirkorlik faoliyati muvaffaqiyatini barbod qiladi.

Texnologiyani asoslovchi sifatlar quyidagilardir:

1. Inson resurslari (xodimlar) bilan ishlay olish.
2. Moliyaviy bilimdonlik.
3. Strategik rejalashtira olish.
4. Jahon biznes an'analarini tushuna olish.
5. Liderlik.
6. Networking (foydali tanishuvlarni amalga oshirishga imkon beradigan tarmoqni yaratish va uni rivojlantirish).
7. Maqsadni aniq belgilay olish.
8. Shaxsiy brendni yarata bilish.
9. Ommaviy chiqishlarni tashkil qila olish.
10. Marketingni samarali tashkil qila olish.
11. Investitsiyani yarata olish va uni maqsadli sarflash.
12. Boshqaruvni oqilona tashkil qila olish.

S.P.Ozimov tomonidan taklif qilingan texnologiya, darhaqiqat, o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini samarali shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, ayni o'rinda taklif qilingan texnologiyani nazariy jihatdan yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanini aytib o'tish joiz.

1-jadval.

O'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish vazifalari

No	Kompetensiyalar	Ularni shakllantirish va rivojlantirish vazifalari
1	2	3
1.	Inson resurslari (xodimlar) bilan ishlay olish	O'quvchilarni muloqot va ishchanlik muloqotiga tayyorlash, ishchi kuchini to'g'ri taqsimlash, inson resursidan samarali foydalanishga o'rgatish
2.	Moliyaviy bilimdonlik	O'quvchilarni hisob-kitob, oldi-berdi va banklar bilan samarali ishlashga o'rgatish
3.	Strategik rejalashtira olish	O'quvchilarnitegishli tadbirkorlik subyektni rivojlantirish istiqbolini belgilovchi rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish choralarini ko'rishga o'rgatish
4.	Jahon biznes an'analarini tushuna olish	O'quvchilarni jahon biznes an'analarini va tajriba bilan tanishtirish orqali yirik kompaniya va korporatsiyalarning yutuq va tanazzuli sabablaridan xabardor qilish

5.	Liderlik	O'quvchilarda liderlik sifatlarini tarbiyalash, ularni tadbirkorlikni yo'lga qo'yishda moliyaviy, ijtimoiy va psixologik javobgarlikni o'z zimmasiga olishga o'rgatish
6.	Networking	O'quvchilarga foydali tanishuvlarni amalga oshirishga imkon beradigan tarmoqni yaratish va uni rivojlantirishga oid ko'rsatma va tavsiyalar berish
7.	Maqsadni aniq belgilay olish	O'quvchilarda tadbirkorlik maqsadini aniq belgilash, maqsadga erishishga ta'sir etuvchi omillarni belgilash, ularga tayangan holda amaliy vazifalarni aniqlashtirish malakalarini shakllantirish
8.	Shaxsiy brendni yaratish	O'quvchilarda tadbirkorlik faoliyati, uning yo'nalishi, maqsadi, hatto tadbirkorning shaxsini yaxlit holda ifodalovchi biznes brendini yaratishga oid kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
9.	Ommaviy chiqishlarni tashkil qila olish	O'quvchilarni hudud, tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosidagi biznes seminar, trening va forumlar, amaliy ko'rgazmalarga jalb qilish orqali ularni ommaviy chiqishlarni tashkil qilishga o'rgatish
10.	Marketingni samarali tashkil qila olish	O'quvchilarda kommunikativlik, turli sohalarida mahsulotni ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish, mahsulotni taqdim etish sifatlarini tarbiyalash, ularni xaridorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar bilan samarali muloqotga tayyorlash
11.	Investitsiyani yaratish, maqsadli sarflay olish	O'quvchilarda pulga to'g'ri munosabotni shakllantirish, ularni daromad va xarakter o'rtasidagi balansni saqlashga o'rgatish, mablag'ni tejashga odatlantirish
12.	Boshqaruvni to'g'ri tashkil qila olish	O'quvchilarni tadbirkorlikni ijtimoiy, huquqiy, madaniy va axloqiy tamoyillarga muvofiq tashkil qilishga o'rgatish
13.	IT bilimdonligi	O'quvchilarda IT kompetensiyalarini rivojlantirish
14.	Huquqiy bilimdonlik	O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari va majburiyatlaridan xabardor qilish
15.	Ekologik bilimdonlik	O'quvchilarga tadbirkorlikning ekologik oqibatlarini haqida ma'lumot berish, ekologik mas'uliyatni his qilishga o'rgatish
16.	Biznes axloqiga egalik	O'quvchilarni biznes axloqi bilan tanishtirish va ularda biznes axloqi sifatlarining shakllanishiga erishish

Bir qator sohalarining jadal rivojlanishi S.P.Ozimov texnologiyasining qo'shimcha ravishda IT bilimdonligi, huquqiy va ekologik bilimdonlik, biznes axloqiga egalik kabi sifatlar bilan boyitilishi o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini samarali rivojlantirish va ular tomonidan kelgusida tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlashga imkon beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarida yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tizimli tashkil qilishni taqozo qiladi. Tadqiqotni davrida nazariy g'oyalari bilan boyitilgan S.P.Ozimov texnologiyasida aks etadigan kompetensiyalar o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga samarali tayyorlashda quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilish zarurligini anglatadi. (1-jadval)

Bunda tizimli yondashuvning umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil qilinayotgan iqtisodiy ta'lim va tarbiya, sinfda va sinfdan tashqari sharoitlarda tadbirkorlik faoliyati

asoslarining targ'ib qilinishi, davlat va nodavlat xo'jalik subyektlarining iqtisodiy ta'lim va tarbiya jarayonida ishtirokini ta'minlash, nazariya va amaliyotning birligi va o'zaro aloqadorligiga erishish, "Geografiya va iqtisodiyot" fani bilan boshqa o'quv fanlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash kabilarga asoslanishi o'quvchilar tomonidan tadbirkorlik kompetensiyalarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur pedagogik sharoitni yaratadi.

Tadqiqot muammosini ham nazariy ham amaliy o'rganish o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ko'p bosqichli jarayon ekanini tasdiqladi. O'rganish natijalariga tayangan holda o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining quyidagi bosqichlarda kechadi, degan xulosaga kelindi (2-jadval).

2-jadvalda ko'rsatilgan har bir bosqichning tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi kutilgan natijani qo'lga kiritish imkonini beradi.

2-jadval

O'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari

Bosqichlar	Ularning mohiyati
1-bosqich	O'quvchilarga tadbirkorlik faoliyati va uni samarali tashkil qilishga oid nazariy bilimlarni berish
2-bosqich	O'quvchilarda tadbirkorlik faoliyati, uni tashkil qilishdagi qiyinchilik va imkoniyatlar, tadbirkorlik faoliyatining tavakkalchilikka asoslanishi, uni tashkil qilishdagi ijtimoiy, psixologik, moliyaviy va axloqiy majburiyatlar to'g'risidagi tushunchalarni hosil qilish
3-bosqich	O'quvchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarini yaratish
4-bosqich	O'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasining o'zlashtirilishiga erishish

Shaxs tomonidan tadbirkorlikning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi ahamiyatli qobiliyatlar yagona tushuncha – kompetensiya bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tadqiqotlar asosida olimlarning fikrlarini qiyosiy tahlillar jihatdan o'rganib chiqib bugungi kunda zamonaviy maktab ta'limining muhim tarkibiy qismi – o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish/rivojlantirish sanaladi. Bunda "Geografiya va iqtisodiyot" fanlari o'qituvchilarining tadbirkorlik

kompetensiyasi va uning negizida aks etuvchi sifatlardan to'liq xabardor bo'lishi tadqiq etilayotgan muammoning ijobiy yechimini topishga yordam beradi.

Shunday qilib, tadbirkorlik – bozor iqtisodiyoti sharoitida keng ommalashgan ijtimoiy faoliyat, tegishli soha, yo'nalishlarda tavakkalchilik va yuqori darajada foyda olish jarayoni, shuningdek, xulq-atvor modeli sanaladi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli olib borish shaxsdan muayyan qobiliyatlarga ega bo'lishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Горборукова Н.В. Метод проектов в формировании межпредметных и метапредметных компетенций у обучающихся основной школы // Инновационная деятельность педагога в условиях реализации ФГОС общего образования. Сборник IV Всероссийской научно-практ.конфе. – СПб.: Директ-Медиа, 2016. – С. 160-161.
2. Лизенко Г.В. Понятие предпринимательской деятельности в эстетической медицине // <https://online.rae.ru/pdf/428>.
3. Морозова В.С. Понятие и структура предпринимательской компетентности менеджера // Ярославский педагогический вестник. –
4. Ярославль: 2012 – № 2. Том II (Психолого-педагогические науки). – С. 199.
5. Озимов С.П. 12 компетенций предпринимателей, без которых невозможно вести свой бизнес // <https://experum.ru/publications/articles/12-kompetentsii-predprinimatelei-bez-kotorykh-nevozmozhno-vesti-svoi-biznes>.
6. Предпринимательская компетенция // Психологос. Энциклопедия практической психологии // http://www.psychologos.ru/articles/view/predprinimatelskaya_kompetenciya.

7. Предпринимательство / Учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим и управленческим специальностям. М.Г.Лапуста, А.Г.Поршнева, Ю.Л.Старостин, Л.Г.Скамай. Под ред. М.Г.Лапусты. – 3-е изд.; испр. и доп. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2024. – С. 21.
8. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство, или как завести собственное дело и добиться успеха. Предприниматель и предпринимательство Вып. I. Пер. с англ. Общ. ред. В.С.Загашвили. Перев.: И.И.Андреева, Е.Н.Николаенко. – М.: Прогресс, 1992. – С. 20.
9. Экономическая теория / Учебник. Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРАМ., 2007. – С. 128.
10. Abduraxmonov Q.X , Personalni boshqarish o'quv qo'llanmasi –Т.: O'qituvchi NIMU-2008- 656b
11. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent., “Voriz-Nashriyot”, 2006.
12. Xojjahmedov G., Yaxyaeva I. Sifat menejmenti. Darslik. TDIU.: 2012-200b



Fotima NAZAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
E-mail: fotimazarova991229@gmail.com

TDSHU dotsenti, PhD S.Bo‘ronov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE KURDS IN THE LIFE OF THE IRANIAN STATE AND SOCIETY

Annotation

In this article, the Kurds, who are considered one of the numerous nations of the world in the Middle East region, but still do not have their own independent state, and their place in the life of the state and society in the Islamic Republic of Iran, as well as the role of the Kurds in the life of the state and society of Iran, are discussed in this article. It is discussed that it is necessary to pay special attention to 4 factors when talking about it.

Key words: Kurdistan, Kurdistan Region, Republic of Mahabad, the idea of “Greater Azerbaijan”, Democratic party of Iranian Kurdistan, historical, ethno-religious, linguistic factors.

РОЛЬ КУРДОВ В ЖИЗНИ ИРАНСКОГО ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье курды, считающиеся одним из многочисленных народов мира в ближневосточном регионе, но до сих пор не имеющие собственного независимого государства, и их место в жизни государства и общества в Исламской Республике Иран, а также роль курдов в жизни государства и общества Ирана. Обсуждается, что, говоря об этом, необходимо обратить особое внимание на 4 фактора.

Ключевые слова: Курдистан, Курдистанский регион, Республика Махабад, идея «Великого Азербайджана», исторические, Демократическая партия Иранского Курдистана, этнорегиональные, языковые факторы.

ERON DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDA KURDLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yaqin Sharq mintaqasidagi dunyoning ko‘p sonli millatlaridan biri hisoblangan, biroq hanuzgacha o‘z mustaqil davlatiga ega bo‘lmagan kurdlar va ularning Eron Islom Respublikasi davlat va jamiyati hayotidagi o‘rniga doir masalalar, shuningdek, Eronning davlat va jamiyati hayotida kurdlarning o‘rni haqida so‘z yuritishda 4 ta omilga alohida e‘tibor qaratish lozimligi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Kurdiston, Kurdiston viloyati, Mahabad Respublikasi, “Katta Ozarbayjon” g‘oyasi, Kurdiston demokratik partiyasi (KDP-I), tarixiy, etno-diniy, lisoniy omillar.

Kirish. Ma‘lumki, bugungi kunda kurdlarning umumiy soni aniq hisoblanmagan, biroq ularning umumiy soni taxminan 25-30 million, ba‘zi tadqiqotlarda esa 40 million atrofida ekani qayd etiladi[1]. Ushbu raqamlar statistik va ijtimoiy-siyosiy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Mintaqadagi kurdlarning 6-8 mlnga yaqini Eron Islom Respublikasida istiqomat qiladi. Bu esa mamlakat aholisining qariyb 10 foizi demakdir[2]. Ular asosan Eronning Iroq va Turkiya bilan chegarasida joylashgan.

Eron kurdlari mamlakatning shimoli-g‘arbida istiqomat qiladi. Ular Eronning G‘arbiy Ozarbayjon viloyatlarida Urmiya ko‘lining shimolidagi Maku, Kotur, Shahpur va sharqidagi Mahabad shaharchalari, shuningdek, poytaxti Shino yoki Sanandaj (G‘arbiy Osiyodagi tog‘li o‘lka, tog‘li viloyat. Dastlabki ma‘lumotlar XII asr manbalarida uchraydi. Sanandaj Kurdistonning markazi hisoblanadi) bo‘lgan Kurdiston viloyatida, Erdelandagi Bukan, Saqqiz, Serdesht, Bana, Bijar, Merivan va Havraman shaharchalarida, Kirmonshoh viloyatida Qasre Shirinda istiqomat qilishadi. Shuningdek, Xurosondagi Bujnurd va Fors bilan Kirmonda ham bir-biridan farqli kurd guruhlar mavjuddir. Tabriz kabi katta shaharlarda hamda Tehronning tashqi mahallalarida ham bir qancha kurd jamoalari yashaydi[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolani yozishda kurdlar masalasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan rus harbiy olimi N.Bobkinning “Erondagi kurd ozchiligi holati” ilmiy maqolasi, shuningdek V.Nikitinning “Kurdlar” va Kerim

Yildiz va Tanyel B.Taysining “Erondagi kurdlar: o‘tmish, bugun va kelajak” nomli kitoblari alohida rol o‘ynaydi. Mazkur ilmiy ishlarda kurdlar haqida arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar va boshqa qiziqarli adabiyotlar asosida batafsil ma‘lumotlarni olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda Eron Islom Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda kurdlarning o‘rnini metodologik jihatdan o‘rganish siyosiy tahlil metodlariga murojaat qilishni taqozo etadi. Bu borada qiyosiy tahlil, tarixshunoslik (retrospektiv yondashuv) hamda tizimli tahlil usullari tadqiqotni chuqur o‘rganishga yaqindan yordam beradi.

Tahlili va natijalar. Eronning davlat va jamiyati hayotida kurdlarning o‘rni haqida so‘z yuritishda 4 ta omilga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Tarixiy omil. Kurdlar qadimdan forsiylar yashagan hududlarda istiqomat qilib kelgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, “Kurdiston” degan ilk atama ham hozirgi Eronning Kurdiston viloyatiga to‘g‘ri keladigan va XII asrda Saljuqiylar shahzodasi Sulton Sanjar tomonidan tashkil etilgan viloyat nomidan kelib chiqqan[4]. Tarixiy jihatdan aytganda, Eronda kurdlarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi Birinchi jahon urushidan keying davrlardan boshlangan deb aytish mumkin. Bunga Usmoniylar imperiyasining tugashi, Sevr shartnomasining imzolanihi, Iroq va Turkiyada kurd harakatlarining kuchayishi hamda Tehrondagi zaif boshqaruvni asosiy sabablar sifatida keltirish mumkin. Shakak

qabilasining boshlig'i Ismoil Og'a Simko 1920 yillarning boshlarida Erondagi kurdlarning siyosiy harakatlariga rahbarlik qildi. Ammo, Simko Pahlaviy sulolasiga qarshi kurashlar natijasida, aniqroq aytganda 1930 yilda o'ldiriladi. Kurdlarning milliy davlatini barpo eta olmagan bo'lsa-da, Simkoning qo'zg'olonlari Eronda Kurdiston milliy mustaqil davlatini tuzish yo'lidagi dastlabki jiddiy urinish bo'ldi[5].

Eron kurdlari tarixi o'z milliy davlatchiligiga asos solish jarayonlari bo'yicha qolgan uchta davlatdagi kurdlarning ijtimoiy-siyosiy harakatlaridan yana bir voqelik bilan alohida ajralib turadi. Aynan Eronda 1945 yilda 1946 yilgacha hukm surgan mustaqil Kurd davlati – Mahabad Respublikasi tashkil topgan edi. Bu davlatga asos solinishi keng geosiyosiy ahamiyatga ega hodisa hisoblanar edi. Chunki bu yillarda Eronning Ikkinchi jahon urushiga jalb qilinishi, mamlakatning turli ta'sir hududlariga bo'linishi, jumladan shimoldan Sovet Ittifoqi va Britaniya, janubda Qo'shma Shtatlar ta'siri ostiga tushib qolishi va bularning oqibatida Eronda kurdlar mustaqil davlatining tashkil topishi Tehron oldida hududiy parchalanish xavflarini yuzaga keltirgan edi. AQSh va Britaniyaning Eronga ta'siri kuchayib borishi natijasida Sovet Ittifoqi Ozarbayjondan Tehronga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida foydalanishga harakat qildi. Tarixan kurdlar va ozarbayjonliklar bir-biri bilan do'stona aloqada bo'lmaganligiga qaramasdan, Sovet Ittifoqi Eronda birlashgan Kurd-Ozar frontini yaratishga umid bog'lagan edi. Ammo, bu frontning tuzilishi haqiqatdan yiroq ekanligi avval boshdan ma'lum bo'lib, sovetlar sirdan asosiy e'tiborini Mahabad Respublikasini qo'llab-quvvatlashga qaratishiga olib keldi[6]. Bundan tashqari, mazkur davrda kurd xizmatchilari, savdogarlar va o'qituvchilardan iborat Komala tashkilotiga ham asos solingan edi. Ushbu tashkilotga a'zolik maxfiy ekanligi va a'zolar safining kengayib borishi Sovet Ittifoqini qiziqitira boshlagan. Qolaversa, ma'lumotlarga ko'ra Komala avvalroq Iroq kurdlari rahbarlik qiladigan tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatgan va tashkilotning asos solinishida aynan Iroq kurdlarining ta'siri katta o'rin egallagan. Komala tashkilotining mafkurasi Marksist-Leninist karakterda bo'lsa ham sovetlardan ko'ra, Iroq kurdlarining ushbu tashkilotga ta'siri katta bo'lganligini ko'rish mumkin[7]. 1945 yil sentyabr oyida Komala tashkiloti tarqatib yuborildi va Zozi Muhammad rahbarligidagi Kurdiston demokratik partiyasiga (KDP-I) o'zgartirildi. KDP-I asos solinganidan ikki oy o'tib o'z siyosiy dasturida quyidagicha bayonotni ma'lum qildi:

Kurdlar mamlakat ichki ishlarida ozod va mustaqil bo'lishi hamda Eron chegaralarida Kurdiston mustaqilligini tan olinishi;

Kurdlarga kurd tilini o'rganish va o'z ishlarini kurd tilida yuritishga ruxsat berilishi;

Kurdiston Viloyat Kengashi a'zolari Konstitutsiyaviy huquqlar asosida mustaqil saylanishi va barcha hukumat va jamoat ishlarida maslahatchi bo'lishi;

Qonunlar qabul qilinishi bilan fermer va tomorqa yer egalarning e'tirozlari inobatga olinishi va ularning kelgusidagi haq-huquqlari aniq belgilanishi;

Biz Eronda yashovchi xalqlarga o'z ozodligi, o'z mamlakatlari farovonligi va taraqqiyoti uchun harakat qilishlarini tilaymiz[8].

1979-yilda yuz bergan Eron Islom inqilobi nafaqat Eron tarixida, balki Eron kurdlari uchun ham yangi sahifani boshlab berdi. Kurdlar Eron Islom inqilobini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, hattoki, uni Mahabad Respublikasi tashkil etilganidan ham ko'ra, kurdlar avtonomligiga erishish uchun olamshumulroq hodisa sifatida qabul qildi. N.Entessarning yozishicha, Islom inqilobining amalga oshishida Eron kurdlarining katta hissasi mavjud[9]. Ehtimol shu sababdan 1979-yil aprel oyida so'nggi voqealardan ruhlangan KDP-I Oyatulloh Humayniyga sakkiz bandedan iborat muxtoriyat dasturini taqdim etdi:

Kurdiston chegaralari tarixiy, iqtisodiy va geografik jihatlardan hisobga olinishi va kurd xalqi tomonidan belgilanishi lozim;

Kurdiston tomoni markaziy hukumatning mudofaa, tashqi ishlar va uzoq muddatli iqtisodiy rejalashtirish masalalari bo'yicha qarorlariga amal qiladi. Eron Markaziy banki valyutani nazorat qiladi;

Xalq tomonidan saylangan a'zolaridan iborat kurd parlamenti viloyatdagi eng yuqori qonun chiqaruvchi hokimiyat bo'ladi;

Viloyatning barcha ijroiya bo'limlari mahalliy organlar tomonidan boshqariladi;

Politsiya tugatilib, uning o'rniga milliy gvardiya tuziladi va u xalq armiyasiga aylanadi;

Fors tili bilan bir qatorda kurd tili ham viloyat hukumatining rasmiy tili bo'ladi va maktablarda o'qitiladi;

Kurdistondagi barcha etnik ozchiliklar teng huquqlarga, jumladan o'z tillarida gapirish huquqiga ega bo'ladi va ularning urf-odatlarini hurmat qiladi;

So'z va matbuot erkinligi, kasaba uyushmalari faoliyati va uyushmalar huquqlari kafolatlanadi. Kurd xalqi erkin sayohat qilish va o'z kasbini tanlash huquqini saqlab qoladi[10].

Umuman, kurdlarning muxtoriyat dasturi Humayniy tomonidan rad etildi, chunki etnik ozchilik manfaatlarining ta'minlanishi Islom davlatining boshqaruv tizimiga xavf tug'dirishi, jumladan boshqa etnoslarning ham muxtoriyat talab qilishiga olib kelishi muqarrar edi. Natijada Eron kurdlari bunga qarshi bir qator siyosiy harakatlarni faollashtira boshlaydi. 1979 yil aprelda Eron Kurdistonida boshlangan g'alayonlar kurd guruhlarini va Eron xavfsizlik kuchlari o'rtasidagi qurolli to'qnashuvga olib keldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, qo'lga olingan 1200 ta kurd siyosiy mahbuslari qatl etilgan[11].

Etno-diniy omil. Kurdlar Eronda etnik guruh ko'rsatkichlari bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Ayrim tahlilchilar ushbu omil sabab Eronda kurdlarning ta'siri uncha kuchli emas, degan xulosani keltirishadi. Ular Eronning Kurdiston, Kirmonshoh, G'arbiy Ozarbayjon va Elam viloyatlarini qamrab oladi. Mutaxassislar Eron kurdlarining o'ziga xos xususiyatlari borasida asosan ikkita yondashuvni, ya'ni etnik o'ziga xoslik va diniy omil nuqtayi nazaridan baholashni afzal ko'rishadi. Masalan, rus harbiy olimi N.Bobkin Erondagi kurdlar masalasini ikkita paradigmaning ta'siri natijasi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Eron kurdlari, bir tomondan, o'z milliy huquqlarini himoya qiluvchi xalq (barcha hududlardagi kurdlarni birlashtirish) sifatida kurash olib borishga intilsa, boshqa tomondan, siyosiy markazdan qochishga (Mustaqil Kurdiston) intiladi va faqatgina Erondagi demokratiya jarayonlari uchun kurash olib boradi[12]. Mahalliy kurdsunos olim, Yaqin Sharq mintaqasi bo'yicha ekspert Farhod Karimovning qayd etishicha, "Eronda kurdlar o'z-o'zini millat sifatida anglash huquqidan mahrum qilingan. Eronda islom omilining kuchliligi sababli mamlakatda musulmon jamoasi orasida milliylikni targ'ib qilish qiyin masala. Shu bois, kurdlar ham o'z harakatlarini olib borishida juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi"[13]. Shuningdek, kurdsunos olim M.S.Lazarevning tadqiqotlarida yozilishicha, Eron kurdlari Turkiya kurdlaridan tarixan mustaqil davlatchilikka intilishlari va Erondagi ko'pmillatlilik siyosatidan kelib chiqqan holda ajralib turadi. Turkiya va Eron kurdlari tarixiy, madaniy va boshqa omillarga ko'ra bir-biriga o'xshash bo'lsa ham, Turkiya kurdlari turklardan so'ng ikkinchi eng yirik etnik guruh hisoblansa, Eron ko'p millatli mamlakat sifatida kurdlardan tashqari ozarbayjonliklar, balujlar, arablar va turkman etnoslarini o'z ichiga qamrab olgan mamlakat hisoblanadi[14]. Aniqroq aytganda, Turkiyada kurdlarga titul millatdan keyingi asosiy etnos sifatida, Eronda forslardan keyin kurdlar emas, aksincha

ozarbayjonliklarga asosiy etnos sifatida urg'u qaratiladi. Zeroki, Eron shimolida yashovchi ozarbayjonliklarning Ozarbayjon bilan birgalikda "Katta Ozarbayjon" davlatini qurish g'oyasi Eronning hududiy yaxlitligiga jiddiy xavf hisoblanadi. Shu jihatdan, Erondagi kurdlar masalasi nafaqat ichki, balki Yaqin Sharq mintaqasida raqobat qilayotgan yirik va mintaqaviy kuchlarning asosiy ta'sir vositasiga aylanishi mumkin. "Turkiya va Iroqda bo'lgani kabi Eronda ham ichki geosiyosiy jarayon subyektlari mavjud – bular kurdlar va ozarbayjonlar. Hozirda kurdlar va ozarbayjonlardan tashqari hech bir millat vakillari Eron yaxlitligiga rahna solayotgani yo'q. Aytish kerakki, bunday vaziyat Eron siyosatidagi yangi inqiroz davrida tezlik bilan o'zgarishi mumkin edi"[15], – deya ta'kidlaydi Z.Bzejskiy. Eronda kurdlar omili nafaqat etnik, balki diniy omil nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, kurdlarning aksariyati sunniy ekanligi, shia kurdlarining manfaatlarini tashqarida himoya qilishi go'yoki Tehronning zimmasida turgandek ko'rinadi. Shu boisdan, Eronning Iroqdagi tashqi siyosatida shia kurdlarining harbiy-siyosiy guruhlarini qo'llab-quvvatlash Tehronning geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Lisoniy omil. Minorskiy nazariyasiga ko'ra, kurdlar va forslar bir yaqin oilaga mansub bo'lib, ular hozirgi forslarning avlodlaridan biri hisoblanadi. Bu borada olim Minorskiy til omilidan kelib chiqib yondashgani e'tiborga olinsa, Turkiyadagi kurdlardan Eron kurdlari aynan til omilining juda o'xshash va yaqin ekanligi bilan ham alohida ajralib turadi.

Eronda kurdlarning milliy harakatlarini cheklash siyosati kuchli ekanligi sababli kurd muxolif tashkilotlari yetakchilari va faollari mamlakat hududidan tashqarida

faoliyat yuritishga majburdir. Eron hukumati esa doimo bunday harakatlarga butunlay chek qo'yishga harakat qilib keladi. Masalan, 1989-yilda Venada rasmiy muloqot olib borayotgan paytda Eron Kurdistoni demokratik partiyasi rahbari Abdurahmon Kasemlo, keyinchalik uning o'niga o'tirgan Sharaf Kandi esa 1994-yilda Berlinda o'ldiriladi[16]. Shu bilan birga, 2016-yilda Turkiyada sodir bo'lgan muvaffaqiyatsiz harbiy to'ntarishdan so'ng Anqara Suriyaga yo'natirilgan tashqi siyosatida Tehron bilan yaqinlashish va hamkorlik qilish siyosatini amalga oshirmoqda. Tabiiyki, Anqara va Tehron muzokaralaridagi asosiy mavzu Suriyadagi kurdlar masalasi bo'lmoqda. Buni ikkala tomon harbiy yetakchi vakillarining uchrashuvlaridan ham kuzatish mumkin[17]. Zeroki, Suriyada joylashgan kurd jangarilari Turkiya va Eronning mintaqadagi ta'sirini kamaytirishi yoki bu mamlakatlardagi ichki siyosiy vaziyatga daxl qilishi ehtimoli yuqori hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Umuman, Eronda kurdlarga nisbatan nihoyatda kuchli bosim mavjud. Bu borada islom omili, xususan, kurdlarning aksariyati sunniy mazhabda ekanligi ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. O'z navbatida, Eron kurdlarining harakatlarini Tehronga jahon va mintaqa miqyosida raqobatchi bo'lgan tashqi kuchlar tomonidan harbiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi shunga javoban qattiq choralar ko'rish yoki keskin bosimlar o'tkazishga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan Tehron hukumati mamlakatdagi kurdlarning har qanday faollashuvini, ularning muxtoriyat tuzish yoki boshqa shakldagi xatti-harakatlarini separatistik yoki terroristik deb baholaydi.

ADABIYOTLAR

1. Jemal N. The Kurds: History and Culture. – London, 2004. – P. 7.
2. Kurds in Iran - Minority Rights Group. December 2017. Retrieved from <https://minorityrights.org/communities/kurds-4/>
3. Каримов Ф. Якин Шарқда этник курдлар муаммоси. Монография. – Т.: "LESSON PRESS", 2020. – Б. 109.
4. Ciment J. The Kurds: State and Minority in Turkey, Iraq and Iran (New York: Facts on File, Inc., 1996). – P. 63.
5. Kerim Yildiz, Tanyel B. Taysi. Kurds in Iran: The Past, Present and Future. Pluto Press, 2007. – P. 12.
6. Entessar N. Kurdish Ethno-Nationalism (boulder: Lynne Reiner, 1882). – P.16.
7. Bulloch J. and Morris H. No Friends but the Mountains (New York: Penguin Books, 1993). - P.100.
8. Koohi-Kamali. The Political Development of the Kurds in Iran. – P.106.
9. Entessar N. Kurdish Ethno-Nationalism (boulder: Lynne Reiner, 1882). – P. 29.
10. Koohi-Kamali. The Political Development of the Kurds in Iran. – P.172.
11. Ward, R.S. Immortal: A Military History of Iran and its Armed Forces. 2009. - P.231-233.
12. Бобкин Н.Н. Положение курдского меньшинства в Иране // Курдский фактор в региональной геополитике. (Материалы круглого стола в ИМЭМО РАН 11.03.2015 г.) / Под редакцией А.Г. Арбатова. – М.: ИМЭМО РАН, 2015. – С.69.
13. Каримов Ф.Э. Якин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари –Т.: "Шарқ", 2016 й. – Б.111.
14. Лазарев М.С. Курдистан и курдский вопрос (1923-1945). – М.: 2005. – С.82.
15. Бжезинский З. Великая шахматная доска, - М.: Международные отношения, 2003. – С. 162.
16. Байзан Т. Тайная война Ирана против Курдов // Аль-Араб, 1997. Yana batafsil qarang: Каримов Ф.Э. Якин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари –Т.: "Шарқ", 2016 й. – Б.111.
17. Iran and Turkey Discuss Ways to Cooperate in Syria and Iraq. Middle East Institute, August 16, 2017. <https://www.mei.edu/publications/iran-and-turkey-discuss-ways-cooperate-syria-and-iraq>



UDK:323.2:34(094.2)

Enaxon NISHANBAYEVA,
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti
E-mail: enahon235@gmail.com

Falsafa fanlar doktori, dotsent F.Hikmatov taqrizi asosida

IJTIMOYIY SHERIKLIKNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI TARIXIY SHART-SHAROITLAR HAMDA IJTIMOYIY, SIYOSIY, HUQUQIY OMILLAR

Аннотация

Ushbu maqolada ijtimoiy sheriklik, uning shakllanishi va rivojlanishidagi tarixiy shart-sharoitlar, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy omillar hamda o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy sheriklik, hamkorlik, tarixiy shart-sharoitlar, huquqiy omillar.

ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И СОЦИАЛЬНЫЕ, ПОЛИТИЧЕСКИЕ, ПРАВОВЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА

Аннотация

В статье анализируются социальное партнерство, исторические условия его становления и развития, социальные, политические, правовые факторы и его особенности.

Ключевые слова: государство, гражданское общество, институты гражданского общества, социальное партнерство, сотрудничество, исторические условия, правовые факторы.

HISTORICAL CONDITIONS AND SOCIAL, POLITICAL, LEGAL FACTORS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SOCIAL PARTNERSHIP

Annotation

This article analyzes social partnership, historical conditions of its formation and development, social, political, legal factors and its specific features.

Key words: state, civil society, civil society institutions, social partnership, cooperation, historical conditions, legal factors.

Kirish. Ijtimoiy sheriklik tizimi an’anaviy jamiyatda ko‘p asrlik madaniy an’analar, milliy qadriyat va boy ma’naviyatga ega xalqlarning axloqiy normalariga kirib borgan, ularning o‘zaro sherikchiligiga oid bahsli masalalarda murosaga erishishga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda esa nafaqat o‘zaro sherikchilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan, balki mavjud bo‘lgan an’analar bilan hisoblashish kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham M.Veber “Ijtimoiy munosabatlarning ratsional asoslarini belgilovchi ijtimoiy tartib, dualistik xususiyatiga ega. Chunki u bir tomondan u individlar uchun obyektiv bo‘ladi, shuning uchun ularning hatti-harakatlarining bosh nazoratchisi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa u “maqsadli ittifoq” ishtirokchilarining bir qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zaro roziligi natijasidir, bunday ijtimoiy sheriklikning o‘rnatilishi va uzoq muddatli bo‘lishi tomonlarning o‘zaro maqsadli va manfaatli faoliyati bilan belgilanadi”[1] deb ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida globallashtirish jarayonlari bilan bog‘liq yanada kuchayib borayotgan ijtimoiy-siyosiy muammolarni ijtimoiy sheriklik mexanizmidan foydalanib, hal etish borasida maqsadli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy sheriklik, uning shakllanishi va rivojlanishidagi tarixiy shart-sharoitlar, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy omillarni tadqiq etishda xalqaro va milliy normativ hujjatlar, jumladan: Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyasi hujjatlari, Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar, O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonuni; Ijtimoiy sheriklik va davlat qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki masalalari bo‘yicha xalqaro tajribalariga asoslanildi. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik munosabatlarini tadqiq etgan xorijiy

(M.Veber, T.Parsons, Dj.Gelbreyt, D.Bell) va mahalliy (A.Begmatov, A.Saidov, T.Matiboyev, A.Huseynova, M.Mirzakarimova) olimlarning mavzuga oid tadqiqotlari tahlil qilindi.

Tadqiqot usullari: ushbu maqola tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlildan foydalanildi.

Natija va muhokama. Ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy tartibning mohiyatan o‘zaro kelishuvga asoslangan shakli bo‘lib, uning yangicha ma’no-mazmunga ega bo‘lishi keskin vaziyatlarida ham integratsiyalashgan yaxlitligini saqlab qolishni talab etadi. Chunki o‘z davrida T.Parsons ham “Ijtimoiy sheriklikni ta’minlashda maqsadlarning instituallashtirilgan shakli, mohiyatan sheriklikning barqaror modellari hisoblanadi va ijtimoiy tizim asosini tashkil etadi”[2] deb yozgan edi. Shubhasiz, ijtimoiy sheriklik prinsiplarini amaliyotga tatbiq etish – murakkab vazifa. Bu jarayon zalvorli natijalarga olib keladi: jamiyatning qutblarga bo‘linishi barham topadi, jarayonning barcha ishtirokchilarida faollik oshadi, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik kuchayadi, taraqqiyot uchun mustahkam asos yaratiladi.

Bunday fundamental maqsadlarga o‘z-o‘zidan erishilmaydi va bu borada muayyan tajriba to‘plangani yuqoridagilardan ko‘rinib turibdi. Tarixiy nuqtainazardan dastlabki sheriklik subyektlari ikki tomonni tashkil etadi: ishchi va ish beruvchi (ishlab chiqarish vositasi egalari). Bunday ikki tomonlama sheriklik keyinchalik «bipartizm» nomini oldi. Shundan so‘ng sheriklar tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi, chunki muzokaralar jarayonida davlat ham ishtirok eta boshladi. Natijada yuzaga kelgan uch tomonlama sheriklik «uchpartizm» (tripartizm) deb nomlandi. Uch tomonlama kelishuv modeli Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyasida 144-raqam bilan belgilab qo‘yilgan[3].

Mazkur konvensiyaga ko'ra davlatlar ham o'zaro ijtimoiy sherikga aylanadilar va ishchilar hamda ish beruvchilar uyushmalari bilan bir qatorda umummilliy sheriklik-kelishuv shartnomalarini imzolaydilar. Nihoyat, ijtimoiy sheriklik subyektlari tarkibi yanada murakkablashdi – ko'p darajali sheriklik joriy etildi. Bu esa uchpartizm prinsipiga nafaqat umummilliy darajada, balki tarmoq va korxonada ham amal qilinishi lozimligini bildirardi.

Nihoyat, bu mexanizmda uning samaradorligini ta'minlab turish uchun arbitraj vazifasini bajaradigan element ham o'z o'rnini topishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan elementlar bir tizimga birlashgan holdagina sheriklikning bosh maqsadi bo'lgan ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlay oladi. Ayni shu ma'noda, ijtimoiy sheriklik mehnat munosabatlari nuqtai-nazardan jamoa shartnomalari ish beruvchilar va xodimlar vakili bo'lmish kasaba uyushma qo'mitalari o'rtasida imzolangan muhim lokal hujjat sifatida yangicha ma'no-mazmun kasb etmoqda. Kasaba uyushmalari faoliyatining asosini ham aynan ijtimoiy sheriklik tamoyillari tashkil etadi. Biroq, XXI asrda ijtimoiy sheriklik tamoyillarini yangicha ma'no-mazmun kasb etishi natijasida davlat mashinasi mehnat va kapital o'rtasidagi muvozanatni ushlab turishda ustuvor rolni o'zida saqlab qolmoqda. Bunday yangi ijtimoiy sheriklik tizimi 1960-yillarning oxirlaridayoq postindustrial nazariya asoschilari Dj.Gelbreyt va D.Bell tomonidan bashorat qilingan edi. Ular jamiyatda davlat roliga yuqori baho berib globallashtirish sharoitida fuqarolik jamiyati instituti bo'lgan kasaba uyushmalarining vazifalariga o'rin qolmaydi, deb hisoblaganlar. Keyinchalik kasaba uyushmalari o'rtacha sinfnings alohidalashgan guruhiga aylanadi, ijtimoiy guruhlarning integratsiyalashuvi jarayoni ular manfaatlarining tor guruhga qadar qisqarishiga olib keladi[4] degan xulosaga keladilar. Bizningcha, siyosiy transformatsiyaning hozirgi, global chaqiruvlar rivojlanishi sharoitidagi davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni amal qilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tadqiq etishga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Globallashtirish jarayonlarining tezlashishi hamda uning davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ta'siri shunday asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadiki, ularning faoliyatida institutsionallashtirish jarayonlari kuzatiladi.

Ijtimoiy sheriklik tizimining bugungi bosqichidagi asosiy elementlardan biri unga erishishning strategiya va taktikasidir. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga erishishning uzoq muddatga mo'ljallangan yo'nalishini, ya'ni strategiyani ko'zda tutishni hamda unga erishishning taktikasini anglatadi. Ijtimoiy sheriklik tizimining to'rtinchi elementi ularning mexanizmidan iborat. Bu tarkibiy qism shunchalar muhim va o'ziga xoski, alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Nihoyat, zamonaviy ijtimoiy sheriklik tizimining beshinchi elementi sifatida sheriklarning madaniyati va axloqini qayd etib o'tamiz. Bu tushunchalar ortida sheriklarning bir-biriga hurmat bilan qarashi, halolligi, ishonchi, yuksak mas'uliyati yotadi va ularsiz jamiyatda haqiqiy sheriklikni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu boisdan ham T.Matiboyev "Ijtimoiy sheriklik tomonlarning aniq muammoni birgalikda his etib, uni hal etishga kirishish, shu jihatdan teng huquqlikka asoslangan, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli munosabatlaridir"[5] deb qayd qiladi. Bizning nazarimizda, ijtimoiy sheriklik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy harakatlarning manfaatlari tengligi tamoyillariga asoslangan holda siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilmagan bo'lsa, bozor iqtisodiyoti yoki siyosiy pluralizm jamiyatni demokratlashtirish va uning siyosiy barqarorligi muammosini hal qilmaydi.

Ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatini barqarorligini belgilaydigan tizim bo'lsada, uni boshqa ijtimoiy hamkorlik yo'nalishlarining mezonlari bilan aralashirib yubormaslik kerak. Chunki, natijalariga ko'ra, ijtimoiy sheriklik qaysi soha

tadqiqot obyekti bo'lishidan qat'iy nazar, u siyosiy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Shu boisdan ham ijtimoiy sheriklikning individual va ijtimoiy shakllarini jamiyat siyosiy manfaatlari, ehtiyojlariga mos kelishiga qarab aniqlash hamda turkumlashtirish mumkin.

Iqtisodiy sohadagi munosabatlar nuqtai nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklikka ijobiy ta'sir etadigan tizimni rivojlantirish – mehnat jabhasida turlicha namoyon bo'ladigan xodimlar va ish beruvchilarning manfaatlari orasida nisbiy muvozanatni, kelishuvni sheriklik asosida vujudga keltirishga sharoit yaratadi. Shuning uchun ham faylasuf olim A.Begmatov mehnat munosabatlarida ijtimoiy sheriklik masalasiga to'xtalib "Ijtimoiy sheriklik nazariyasining maqsadi jamiyatdagi mehnat munosabatlarida, muayyan guruhlar manfaatlari o'rtasida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish va konsensusni ta'minlashga qaratilgan edi"[6] deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ijtimoiy sheriklik iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatning birga aks etishi mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan ham bizning nazarimizda ijtimoiy sheriklikning rivojlanish dinamikasini ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar nuqtai nazardan quyidagicha bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin:

Ma'lumki, SHO'rolar davrida yakka hukmronlik qilgan kommunistik mafkura sinfiylik va partiyaviylik shiori ostida ijtimoiy sheriklik masalasiga e'tibor qaratilmagan edi. Ijtimoiy sheriklik «Davlat va jamiyat boshqaruvidagi burjuaziya siyosati» «Yot sinflar mafkurasi» sifatida talqin qilindi. Buning sababi sho'rolar mafkurasi sinfiy manfaatlar, yagona partiya talablari umuminsoniy g'oyalardan ustun qo'yilganida edi.

Birinchi bosqich: 1991-2000 yillar, mustaqillikning ilk davrlari.

Bu davrda ilk demokratik institutlar shakllanishi boshlangan (siyosiy partiyalar, NNT va h). Ma'muriy buyruqbozlik tizimi tuzilmasi organlarining faoliyati to'xtatilgan. Ijtimoiy sheriklik - turli xil fikrga ega bo'lgan fuqarolar va turli guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi sifatida namoyon bo'lgan.

Ikkinchi bosqich: 2001-2010 yillar, jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashtirish davri. Ijtimoiy sheriklik jamiyatda siyosiy kuchlar va ijtimoiy qatlamlarning hamjihatligi, turli millat, irq va din vakillarining o'zaro hamkorligi, ilg'or g'oyalarning o'zaro uyg'unligi, har bir shaxs o'zining fuqarolik burchini his etishi, jamiyatdagi tinchlik va barqarorlik asosida shakllangan.

Ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ta'sirini oshirish, huquq va vakolatlari doirasini yanada kengaytirish omili sifatida namoyon bo'lgan. Ko'ppartiyaviylik tizimning meyoriy-huquqiy asoslari shakllantirildi, ikki palatali parlamentga o'tildi. NNTlarning huquqiy asoslari takomillashtirildi

Uchinchi bosqich: 2010-2016 yillar, mamlakatimizda demokratik jamiyatni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi bilan bog'liq bo'lgan davr. Bu davrda O'zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuni, «Davlat boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonunlari qabul qilindi. Ijtimoiy sheriklik, fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ta'sirini oshirish, huquq va vakolatlari doirasini yanada kengaytirish omili sifatida namoyon bo'ldi. Ijtimoiy sheriklik asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturlarini amalga oshirishda, gumanitar muammolarni hal etishda, mamlakat aholisi turli qatlamlarining huquqi, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat organlarining davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabati tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning to'laqonli huquqiy tayanchi bo'lib xizmat qilishiga shart-sharoit yaratilgan.

To'rtinchi bosqich: 2016 yildan hozirgacha bo'lgan davrlar, ya'ni siyosiy islohotlarning yangi davrining boshlanishi davri. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi dasturi qabul qilindi. Xalq qabulxonalar va Vertual qabulxonalar tashkil etildi. NNTlarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning subyekti sifatida faollashuvi yanada oshmoqda. Harakatlar va taraqqiyot strategiyalari asosida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro ijtimoiy sheriklik asosida hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashning samarali usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu bosqichda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sherikligi asosida "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" degan tamoyil va "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ezgu g'oyaning, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali hayotga amaliy tatbiq etilishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqbolda esa, fuqarolik jamiyati institutlarining faol subyektga aylanib borishi; biznes tuzilmalarining ijtimoiy loyihalarda ishtirokining kuchayib borishi; qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarida jamoatchilik ekspertiza rolining kuchayishi; Parlament va Jamoatchilik nazoratining kuchayishi; Jamoatchilik Kengashlari shuningdek, elektron hukumatning ijtimoiy hayotda ahamiyatining oshib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy sheriklik munosabatlarining istiqbolda yanada rivojlantirilishi mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri bo'lib qolaveradi[7]. Ayni shu ma'nodagi siyosiy yondashuv ijtimoiy sheriklik fenomeni, uning ko'pqirrali ekani va mavjud tajribani turli tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi haqida ilmiy taassurotni shakllantirish imkonini beradi. Ijtimoiy sheriklik jamiyatda ehtimolli nizolarni maqbul yo'l bilan hal etish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Keyingi paytlarda turli yo'nalishdagi ilmiy doira vakillarining unga qiziqishi ortishi mazkur fenomenning hayotning turli jabhalarida foydalanish imkonini borligini ko'rsatadi.

Shu boisdan ham ba'zi adabiyotlarda "Ijtimoiy sheriklikning turli shakllarida rivojlanishi zamonaviy bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishini mustahkamlash va uni ijtimoiylashuv jarayonining muhim qismi hisoblanadi"[8]deb ta'kidlanadi. Alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishda ijtimoiy sheriklikning o'rnini ijtimoiy-siyosiy nuqta nazardan asoslash va retrospektiv o'rganish bu borada nihoyatda muhim ahamiyatga molik bir qator jarayonlarga alohida ahamiyat berish zarurligini ko'rsatadi. Bunda avvalo, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda o'zaro hamkorlikning asosiy xususiyati, ijtimoiy sheriklik tizimi doirasida uning elementlari teng huquqli subyektlar kabi namoyon bo'ladi. Ma'lumki, ijtimoiy sheriklik o'z-o'zidan rivojlanmaydi, uning subyektlari bir qator tamoyillarga amal qilinishi talab qilinadi.

Ba'zi bir mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish uzoq muddatli tadrijiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish natijasida, boshqalarida esa ma'muriy yo'l bilan yoki muayyan islohotlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda ijtimoiy sheriklik g'oyasi turli ijtimoiy qatlam vakillarining diqqatini tobora ko'proq tortayotganligi bejiz emas. Shu munosabat bilan jamiyatning barcha hayotiy faoliyatlarida sifatiy o'zgarishlar zarurati

yuzaga keladi. Jiddiy nizolar kelib chiqishini oldini olish maqsadida ijtimoiy subyektlar jamiyatda yangicha aloqalar o'rnatishi, olamda mavjudligini o'ziga xos konsepsiyasini ishlab chiqishi, ijtimoiy evolyutsiya istiqbollari anglashlari zarur bo'ladi. Jamiyatdan sheriklik va kommunikatsiya tamoyillariga chuqur refleksiv moslashish, ijtimoiy muhitning transformatsiyasini adekvat qabul qilish va buzg'unchi tendensiyalarga qarshi tura olish talab etiladi. Ayni shu ma'noda, "Inson - deb yozadi A.A.Huseynova - real ijtimoiy muhitda yashaydi va mehnat qiladi. Insoniy faoliyat ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqdir. U har qanday ijtimoiy muhitda dominant bo'lib xizmat qiladi, inson uning ta'sirida shakllanadi va faoliyat yuritadi"[10]. Mazkur vaziyatda ijtimoiy sheriklik instituti shakllanishi, jamiyatda yuzaga kelayotgan qarama-qarshiliklarni yechishning eng ratsional yo'l sifatida dolzarb ahamiyatga ega. Oxirgi vaqtlarda ijtimoiy sheriklikka turli ilmiy yo'nalishdagi vakillarida paydo bo'lgan qiziqish, mazkur fenomenning, hayotiy faoliyatning turli jabhalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan chuqur potensialga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning uzoq vaqt davomida jiddiy ijtimoiy zarbalarsiz shakllanishi va rivojlanishi, ijtimoiy sheriklik g'oyasini amalga oshirish bilan bog'liq, avvalo, ijtimoiy mehnat jabhalarida bu jarayonni bevosita kuzatish mumkin. Bir qator G'arb mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi mamlakatda ijtimoiy sheriklikning tamoyillari amalga oshirilsa, unda milliy iqtisod, tadbirkorlik faoliyati barqaror rivojlanadi, aholining turmush darajasi tobora o'sib boradi[11]. Bilvosita yoki bevosita davlat ishtirokidagi, ijtimoiy sheriklik yollanma ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari jahon tajribasida keng tarqalgan bo'lib, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini barqarorlashtirish sharoitida bu jarayon samarali tatbiq etilmoqda. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ijtimoiy sheriklikni tatbiq etish zarurati shu bilan asoslanadi.

Ijtimoiy sheriklik kooperatsiyaning ma'lum tipi bo'lgani tufayli, u boshqa tiplardan bir qadar chegaralanganlikni nazarda tutadi va ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlar umumiy tizimining murakkabroq elementi sifatida ko'rib chiqilish zarur[12]. Shu munosabat bilan, tizim sifatida sheriklikning tashkil etuvchi belgisini (yoki prinsipini) ajratish, uning tashkilot sifatidagi asosiy tavsifini va jamiyat organizmidagi funksiyalarini aniqlash muhim. Bunday asosiy o'lchamlar sirasiga, biz sheriklikning yangi natija olishga, doimiy modernizatsiyalashuvga va rivojlanish sur'atlariga yo'nalganligini kiritamiz.

Ijtimoiy sheriklik - jamiyatning haqiqiy demokratiya mezonlari va tarkibiy qismlaridan biridir. Umuman olganda, ijtimoiy sheriklik quyidagi xususiyatlarga ega: Birinchidan, o'zaro hamkorlarning har birida birlasha olmaydigan, ijtimoiy birlik hosil qila olmaydigan o'ziga xos qiziqishlari va intilishlari bo'lgan bir-biridan farq qiluvchi, ammo fuqarolik jamiyati sharoitida, uning rivoji uchun birlashishni taqozo etadigan kuchlar mavjud. Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik jarayoni bir vaqtning o'zida ham hamkorlik ham kurashdan iborat. Ammo unda bir tomon g'olib bo'lmaydi, yo ikki tomon muvaffaqiyatga erishadi yo ijtimoiy sheriklik tizimi mag'lub bo'ladi, ya'ni konsensusga erishilmaydi. Bu esa ana shu jarayonda samaraga erishish yo'llarini va imkoniyatlarini izlab topishga yordam beradigan maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sheriklik deyilganda jamiyat asosiy qatlam va guruhlarining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini uyg'unligi va mutanosibligini ta'minlash maqsadini ko'zlagan ijtimoiy munosabatlarining alohida bir turi tushuniladi. Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik - iqtisodiy islohotlarni o'tkazish va rivojlanishning eng samarali yo'lidir. Iqtisodiy islohotlarni to'g'ri tashkil etish, uni takomillashtirish

va yangi bosqichlarga olib chiqish shu kunning muhim

vazifasidir.

ADABIYOTLAR

1. Вебер М. Хозяйство и общество / пер. с нем.; под научн. ред. Л. Г. Ионина. - М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2010. –С. 456.
2. Парсонс Т. О структуре социального действия. - М.: Академ. Проект, 2002. –С. 88.
3. http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/fp=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ID:312289:NO
4. Гэлбрейт: Возвращение: Монография. А. А. Пороховский, С. Д. Бодрунов, Д. Е. Сорокин и др. Под ред. С. Д. Бодрунова. -М.: Культурная революция 2017. -424 с. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования/Пер.с англ.под ред. В.Л.Иноземцева. Изд. 2-е, исправл.и доп. -М.: Academia 2004г. 790с.
5. Матигбоев Т.Б. Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик тизими: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболлари. –Т.: Академия, 2014. –Б.16.
6. Бегматов А. Ижтимоий шериклик ва ижтимоий хавфсизлик // Жамият ва бошқарув. 2014. - №1. –Б.44.
7. Мирзакаримова М.М. Бандликда ижтимоий шериклик: Монография. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2013. – Б.178.
8. Социальное партнерство Опыт , технологии , оценка эффективности. Нещадин А(общ.ред). –СПб.: Алетейя, 2010. - 399с.
9. Роль социального партнерства в формировании европейского социального пространства. -М.: Огни, 2003. –.152 с.
10. Хусейнова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2009. – Б.106.
11. Кнаак, Р. Социальное партнерство: западный опыт / Р. Кнаак // Вопросы экономики. - 1994. - № 5. - С. 90-96.
12. Цветков В.А. Социальное партнерство./ В.А. Цветков М.: Экономика, 1999.-231 с.



UDK: 372.3/4

Sanobarxon NOSIROVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail: sanobarnosirova@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.S.Abdullaeva taqrizi asosida

FACTORS FOR THE FORMATION OF THE ECONOMIC BUDGET OF THE NEIGHBORHOOD IN THE DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Annotation

The article will talk about the ways of developing family entrepreneurship in the conditions of New Uzbekistan and the sources of additional income of families taking place in the neighborhoods in this regard.

Key words: New Uzbekistan, neighborhood, family entrepreneurship, additional income, economy, labor, farm, tomorrow.

ФАКТОРЫ ФАРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО БЮДЖЕТА МАХАЛЛИ В РАЗВИТИИ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье будет рассказано о путях развития семейного предпринимательства в условиях Нового Узбекистана и об источниках дополнительного дохода семей, имеющих место в микрорайонах в связи с этим.

Ключевые слова : Новый Узбекистан, микрорайон, семейное предпринимательства, дополнительный доход, экономика, труд, ферма, семейный город.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLANING IQTISODIY BUDJETINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari va bu borada mahallalarda olib borilayotgan oilalarning qo‘shimcha daromad topish manbalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, mahalla, oilaviy tadbirkorlik, qo‘shimcha daromad, iqtisodiyot, mehnat, faravonlik, tomorqa.

Kirish. Mamlakatimizda aholining bandligi va daromadlarining barqaror o‘shirishini ta‘minlashga doir vazifalarini hal etishda tobora muhim o‘rin tutayotgan oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga yanada ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, «Jahon miqosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformasiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash» deb nomlangan vazifalar bevosita oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida oilaviy tadbirkorlikning ilmiy asoslarini o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, xalqaro miqyosda uchta maxsus jurnal nashr etilmoqda: Journal of Family Business Strategy (Elsevier), Family Business Review (Sage) va Journal of Family Business Management (Emerald). Shuningdek, xalqaro oilaviy tadbirkorlik tadqiqotlari akademiyasi (IFERA)) faoliyat yuritmoqda.2 Oilaviy tadbirkorlik – jahon miqyosida eng ko‘hna va keng tarqalgan biznes-instituti hisoblanadi. Shu bois, oilaviy tadbirkorlik ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotida alohida o‘ringa ega. Xususan, Buyuk Britaniyada u barcha firmalarning 75 foizini, aholi bandligi va YaIMning qariyb 50 foizini ta‘minlaydi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida oilaviy korxonalar barcha korxonalarining 85 foizini, Ispaniyada barcha korxonalarining 75 foizini, YaIMning 65 foizini tashkil

etadi. AQShda esa – barcha turdagi korxonalarining 90 foizini, YaIMning 60 foizini oilaviy korxonalar tashkil etadi. Italiyada 2-3 kishidan iborat oilaviy hunarmandchilik korxonalar jami eksportning 18 foizini tashkil etib, bandlik va iqtisodiy o‘shirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, ilg‘or mamlakatlardagi har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar oilaviy hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Avvalom bor oilaviy tadbirkorlik deganda qanday faoliyat tushuniladi? Oilaviy tadbirkorlik deganda umumiy oilaviy kapitalga tayanib, oila a‘zolarining birgalikdagi harakati, o‘zaro ko‘maklashuvi va o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Bunday yondoshuv asosida oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va boshqarishga sinergetikaning muhim tamoyillari qo‘llanildi. Oilaviy tadbirkorlikga oid tadqiqotlarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi nazariy xulosalarga kelindi:

- oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi uning raqobatdagi ustunligi va bir qator afzalliklari bilan shartlangan;

- oilaviy tadbirkorlikning raqobatbardoshligi va afzalliklari undagi yuqori biznes – madaniyat (o‘zaro ishonch va hurmat, yagona maqsad, umumiy manfaat, inoq jamoa, umumiy kapital, umumiy daromad (foyda), umumiy byudjet)ning mavjudligi bilan namoyon bo‘ladi;

- oilaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyatga erishishida "oila mulki" zaruriy shart bo‘lib, oila a‘zolarining mehnati va ularning biznesdagi ishtiroki esa ulkan imkoniyatlar manbai bo‘lib xizmat qiladi;

- oilaviy tadbirkorlikning uzluksizligi (bardavomligi)ni ta‘minlash, keyingi avlod ishtirokini zarurat etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilashda quyidagi sabablar asos sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muxitiga tezda moslashuvchanligi;
- xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;
- oila a'zolari mulki va mablag'lari xisobidan, ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatining borligi;
- mehnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar;
- oilaviy tadbirkorlik a'naviy tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qilishi;
- oilaviy tadbirkorlik mintqa bozorlaridagi talab va kon'yunktura o'zgarishlariga ancha tez moslashishi;
- xo'jalik yuritishning boshqa shakllariga nisbatan oilaviy tadbirkorlikni yashash siklining (avloddanavlodga o'tishi) uzunligi hamda turli inqirozlarning tahdid va salbiy oqibatlariga bardosh bera olish qobiliyatining ancha yuqoriligi;
- oilaviy tadbirkorlik nafaqat aholi farovonligi manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi ekanligi va boshqalar. Shunday qilib, oilaviy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi roli ko'p qirrali bo'lib, mamlakat YaIM shakllanishida, aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, daromadlarning oshishida sezilarlidir. Uning funksiyalari sistemasining ahamiyati esa, zamonaviy oilaning imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalanishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuni ta'kidlash joizki, ko'p sonli tadqiqotlarga qaramay, oilaviy tadbirkorlik nazariyasini quyidagi yo'nalishlarda kengaytirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchiidan, oilaviy tadbirkorlik muhim ijtimoiy iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritishning ilg'or shakli hamda aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda hayotiy zarurat sifatida qo'shimcha rivojlantiruvchi tasniflash tizimiga extiyoz sezmoqda.

Ikkinchiidan, o'rganilgan tadqiqotlarga asoslanib shunday xulosaga kelindiki, oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishda qarama-qarshi fikrlar bilan birga juda yaqin bo'lgan yondoshuvlar ham mavjud bo'lib, bu esa o'rganilayotgan muammoga yangicha yondoshuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Uchinchiidan, oilaviy tadbirkorlikda tashqi a'zolar (yollanma ishchilar), oila boshlig'ining (rahbarning) oiladan tashqari roli va ularning o'zaro mehnat munosabatlari tizimidagi roli masalalari tadqiqot ob'ekti sifatida kam o'rganilgan. Ushbu yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni olib borish esa, tadqiqot natijalarini sinergetika tamoyillari asosida ma'lum bir yo'nalishda birlashtirish yoki umumlashtirishda metodologik funktsiya vazifasini o'taydi.

Oila – iqtisodiy munosabatlarning asosiy sub'ekti sifatida jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Bu esa uning iqtisodiyotdagi rolini ifodalab, iste'molchi, ishlab chiqaruvchi va hatto investor sifatidagi faoliyatida yaqqol nomoyon bo'ladi. Oila shu kabi funksiyalari bilan butun jamiyat miqyosidagi iqtisodiy munosabatlar tizimiga birlashadi. Bu jarayonlarda oilaning tadbirkorlik funksiyasi muhim rolni o'taydi. Shu boisdan ham, oilaning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rnini aniqlashda uning tadbirkorlik faoliyati asosiy mezon sifatida tanlandi.

Oilaviy tadbirkorlikni tadqiq etish, murrakab funksional tahlilni talab etib, oila funksiyalari o'rtasidagi bog'liqlik, ularning bir-birini to'ldirishi va bir-biriga amal qilishi, uzluksizligi hamda "oila – tadbirkorlik" bog'liqligidagi integratsiyani talab etuvchi yaxlit jarayon sifatida o'rganishni taqazo etadi. Shulardan kelib chiqib, bizningcha oila funksiyalari sistemasiga oila farovonligini ta'minlovchi

omillar sifatida, ikkinchiidan oilaviy tadbirkorlikni qaror topishida muhim shart sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarining darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash borasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida oilaviy tadbirkorlikni mahallalar faoliyati bilan qo'shib olib borish zarurati ham tug'ildi. Mahallalarni oilaviy tadbirkorlik bilan hamkorligini ta'minlash borasida ham bir qancha huquqiy tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda. Mahallalarda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolariga echim topish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev raisligida 2023 yil 26 sentyabr kuni mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazdilar. Mazkur videoselektor yig'ilishida berilgan vazifalar ijrosi sifatida mahallalarda yangi "ettilik" tizimi joriy etildi. Bu tizimning asosiy vazifasi mahallalardagi muammolarni yaxlit tizim asosida xal qilishdan iborat etib belgilandi. Endi mahallalardagi muammolarni xal etishga boshqa manfaatdor idora va tashkilotlar xam faol jalb qilinishi mavjud muammolarni yanada tez echim topishiga sabab bo'la oladi. Xozirgi kunda mahallalarda ushbu "ettilik" tizimi jadal sur'atlar bilan o'z ishini boshladi. Men Bo'ston tumanidagi maxalla kengashi raisi sifatida xamda iqtisodchi -olima ayol sifatida tajriba-sinov tariqasida tanlab olingan "G'ayrat" mahallasida olib borayotgan faoliyatimdan kelib chiqib, mahallaning iqtisodiy muammolarini echish maqsadida bir qancha taklif va tavsiyalarimni berib o'tmoqchiman. Chunki mahallada moliyaviy imkoniyat bor bo'lgandagina juda ko'p muammolar mahallaning o'zida o'z echimini topishi mumkin bo'ladi. Bu esa oilaviy tadbirkorlik orqali mahalla byudjetini shakllantirish va mahallalarni to'laqonli sub'ektga aylantirish imkonini beradi.

Birinchiidan, mahallada oilalarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash, bandlik muammosini hal qilish uchun, uning kelajakda mustaqil byudjetini tashkil qilib moliyaviy manbaini ham hal qilish maqsadga muvofiq. Mahallalar demokratik bog'in sifatida bevosita aholi bilan ishlaganligi tufayli ular bilan bog'liq juda katta ijtimoiy muammolarni hal qilishga to'g'ri kelmoqda. Chunki ushbu tashkilot aholi bilan bevosita ishlaydigan eng quyi bo'g'in hisoblanadi. Ammo ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun hozirgi kunda mahallalarda o'zlarining mustaqil byudjeti va mos ravishda mablag' etishmaydi. Natijada hozirgacha mahallalar byudjetga qaramligicha qolib kelmoqda. Shu tufayli uning byudjetini tashkil qilish va uni mahallaning o'zi hisobidan shakllantirish maqsadga muvofiq. Hozirda mahallalarda ko'plab hech joydan ro'yxatdan o'tmasdan yashirin holda faoliyat ko'rsatayotgan yakka tadbirkorlar, nima qilishini bilmay yurgan ishsizlar mavjud. Ammo mahallaning o'zi bularni ish bilan band qilishga unchalik qiziqishi yo'q. Chunki, ushbu ishni yo'lga qo'yish uchun hech qanday rag'batlantirish mexanizmi mavjud emas. Buni yo'lga qo'yish uchun mahalladagi yakka tadbirkorlar, o'zlarini- o'zleri ish bilan band qilgan aholi, mahalla tomonidan tashkil qilingan kasanachilarga ham soliqlarini mahallaga to'laydigan huquqni berish kerak. O'zi topgan mablag'ini mahallaning o'zi mahalla faollari, jamoatchilik bilan tegishli nizom asosida mahalla ehtiyoji

uchun foydalanishlari mumkin bo'ladi. Ushbu tavsiyani viloyat mahallalari nomidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Oliy Majlis palatalariga murojaat bilan chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday holda mahallalar byudjetga qaram bo'lmasdan, har bir mahalla o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlaydigan imkoniyatga ega bo'ladi va ma'lum vaqtdan keyin mahallaning o'zi topgan mablag'ining bir qismini byudjetga to'laydigan mexanizmi va imkoniyati yaratiladi. Buning afzalligi mahallalar yangi ish o'rinlarini yaratishga qiziqishi ortadi va mahallalar o'rtasida ushbu holat bo'yicha sog'lom raqobat vujudga keladi. Har bir mahalla o'zlarini-o'zlari "boqishi" uchun kurashadi, yangi ish o'rinlarini yaratishga manfaatdorligi oshadi. Shunchaki mayda tadbirkorlik bilan shug'ullanib, hech joydan ro'yxatdan o'tmasdan mahalla doirasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar bo'lmaydi. Endi bularni mahallaning o'zi nazorat qiladi. Ushbu tadbir bilan yashirin iqtisodiyotning ham oldi olinadi.

Ma'lumki, mahalla aholi bilan ishlaydigan quyi bo'g'in. Aholining iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hamma muammolari aynan shu erda aniqlanadi. Ammo u mustaqil sub'ekt bo'lishiga qaramasdan o'zining byudjetiga ega emas va o'zlarini-o'zlari mablag' bilan ta'minlash imkoniyatiga ham ega emas. Natijada mahallalar davlat va mahalliy byudjet mablag'lariga qaram holda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu holat juda ko'plab muammolarni hal qilish imkonini bermaydi. Oqibatda mahallalarda yakka tadbirkorlar, o'zini-o'zi ish bilan ta'minlaydiganlarni ko'paytirishga, yangi ish o'rinlari yaratib, o'zining iqtisodiy ahvolini ichki imkoniyatlar evaziga yaxshilashga ham hech qanday rag'bat yo'q.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Mahallalarning rolini oshirish uchun har bir mahallaning byudjetini o'zida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagilar tavsiya etaman:

1. Mahallalar ixtiyoriga yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan va mahalla ko'magida o'zini-o'zi ish bilan ta'minlagan shaxslarni birlashtirish maqsadga muvofiq. Natijada aholini ishga joylashtirish yangi ish o'rinlarini ochish imkoniyati va unga rag'bat paydo bo'ladi.

2. Yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan va mahalla ko'magida o'zini-o'zi ish bilan ta'minlagan shaxslarning to'laydigan soliqlarini mahalla byudjetiga o'tkazishni tashkil qilish. Natijada Mahallalar shu yo'l bilan o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlaydigan mustaqil byudjetiga ega to'laqonli sub'ektga aylanadi.

3. Hech joydan ro'yxatdan o'tmasdan mahalla hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan ko'plab yakka tadbirkorlarni aynan mahalladan ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy qilish. Natijada norasmiy ishlab yurganlar pirovardida ish bilan to'laqonli ta'minlanadi, rasmiy xodimga aylanadi va mos ravishda kelajakda pensiya olish imkoniyatlari ham yaratiladi. Yashirin iqtisodiyotning oldi olinadi.

4. Mahalla mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida ichki imkoniyatlari va turli manbalar evaziga o'zining byudjetini tashkil qilish mexanizmi joriy qilingan bo'lishi lozim. Natijada mahallalarga davlat va mahalliy byudjetdan to'lanadigan mablag'lar tejaladi.

5. Mahallalarning tadbirkorlardan undirgan solig'i va boshqa manbalardan topgan mablag'larining bir qismini me'yor asosida o'zlarida qoldirib, ortiqchasini davlat byudjetiga to'laydigan tartibni ham o'rnatish mumkin. Natijada mahallalar xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida astasekinlik bilan mablag'larining bir qismini mahalliy yoki davlat byudjetiga to'laydigan imkoniyatga ham ega bo'ladi.

6. Mahallalar o'zlarini-o'zlari mablag' bilan ta'minlash oqibatida ular o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish. Natijada mahallalarda yakka tadbirkorlar, o'zini-o'zi ish bilan ta'minlaydigan shaxslarni ko'paytirishga rag'bat yaratiladi.

7. Mahallalar faoliyatini ish bilan bandlik darajasi va yangi ish o'rinlarini yaratganligi bilan baholab, ilg'orlarni rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Natijada mahallalarda yangi ish o'rinlari yaratishga mahalla aholini ish bilan ta'minlashga hrakat qilinadi va oqibatda, hududlar iqtisodiyoti ichki imkoniyatlar evaziga yuksaladi.

8. Mahallalardan fuqarolarga beriladigan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlar uchun to'lanlarni oldingidek mahallarga berish va uning nazoratini yuqori tashilot hamda jamoatchilik tomonidan tegishli tarzda o'rnatish lozim. Natijada ushbu tadbir ham mahalla uchun qo'shimcha mablag' bo'lib hisoblanadi va mahalla byudjetining shakllanishida bir omil sifatida xizmat qiladi.

Agar ushbu tavsiyalar amalga oshadigan bo'lsa, asosan aholining quyi bo'g'ini bilan ishlaydigan mahalla o'z mablag'iga ega bo'ladi, mahallalardagi oilalarning juda ko'p iqtisodiy-ijtimoiy muammolari hal bo'ladi, aholining ishsiz qismi ish bilan ta'minlanib, bandlik muammosi hal qilinadi. Muhimi, mahallalar xo'jalik yurituvchi sub'ektga aylanib, o'zlarini mablag' bilan ta'minlab, o'zining iqtisodiy qudratiga o'zi mas'ul bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni (26 aprel 2012 y).
3. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 1 may № 616-I-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5242-son Farmoni .



Bahriddin OLIMOV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: baxaolim6668@gmail.com

TDPU professori, p.f.d B.Abdullayeva taqrizi asosida

ELECTRONIC METHODOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING LOGICAL COMPETENCES OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation

In this article, the content of the electronic methodology process of developing the individual work skills of future elementary school teachers in the conditions of the credit module is described, and the level of effectiveness of the results obtained on the basis of the experimental test is determined.

Key words: credit module, individual, skill, electronic methodology, pedagogical competence, talent, innovation, creativity, critical thinking, problem solving.

ЭЛЕКТРОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В данной статье описано содержание электронной методики процесса развития навыков индивидуальной работы будущих учителей начальной школы в условиях кредитного модуля, а также определен уровень эффективности результатов, полученных на основе экспериментальной проверки.

Ключевые слова: кредитный модуль, личность, умение, электронная методика, педагогическая компетентность, талант, новаторство, креативность, критическое мышление, решение проблем.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING MANTIQUIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ELKTRON METODIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kredit modul sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini individual ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning elektron metodika jarayonida mazmuni bayon etgan hamda tajriba sinov asosida olingan natijalarning samaradorlik darajasi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kredit modul, individual, ko‘nikma, elektron metodika, pedagogik kompetentsiya, iste‘dod, innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish.

Kirish. Bugungi kunda “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha[14] rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida 9 ta yo‘nalish belgilangan bo‘lib, asosiy e‘tibor oliy ta‘lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan. 2019-yilda oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 100 foizdan oshishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ayni paytda kredit-modul tizimi joriy etilgan OTMlar 50 foiz bo‘lsa. Nodavlat, davlat – xususiy sheriklik asosidagi OTMlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy OTMlarda 55-70 foizgacha mustaqil ta‘lim belgilangan. Hozir bizda ta‘limning 40 foizi mustaqil ta‘limga ajratilgan bo‘lsa, konsepsiyasiga ko‘ra bu ko‘rsatkich 60 foizga etkaziladi. Kredit-modul sharoitiga o‘tish – davr talabi. Bu tizimda o‘qituvchilarni talabalar tanlaydi. Tanlov fanlarining soni ko‘paytiriladi, ya‘ni talaba o‘z yo‘nalishi bo‘yicha tanlab o‘rganishi mumkin bo‘lgan fanlar soni ko‘payadi. O‘quv rejadagi fanlarning 50 foizi tanlov fani bo‘lib, o‘quv jarayoniga axborot tizimlari keng joriy qilinadi. Zamonaviy mutaxassisdan kasbiy kompetentlik va noodatiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoada ishlash, axborotni mustaqil olish, tahlil qilish, samarali foydalanish o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchanlik talab etiladi. Kredit texnologiyasi murakkab tizim. Uning muvaffaqiyatli ishlashi ko‘plab omillarga, jumladan, o‘quv moddiy ta‘minot, xalqaro standartlarga javob beradigan tayanch darslik, talabalarning mustaqil ishlashini

tashkil etish uchun muayyan shart sharoit (kompyuter sinflari, videozallar, elektron doskalar)ga bog‘liq. O‘qitishning kredit tizimida oliy ta‘lim muassasasi o‘quv jarayonida barcha zarur axborot manbalari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma, elektron darslik, tarqatma materiallar, tarmoq ta‘lim resurslariga kira olish imkoniyati mavjudligi juda ham muhim hisoblanadi. Matematika va maxsus fanlarni o‘qitishda ham kredit-modul tizimini joriy etishda yuqoridagi talablar to‘la qondirilishi lozim. Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, chunki u ta‘lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbga tayyorlash hamda metodik-matematik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari bo‘yicha turli davrlarda B.Abdullaeva, R.Adizov, M.Axmedov, Z.Dadanov, M.Zaynitdinova, N.Bikbaeva, R.Mavlonova, K.Olimov, A.Raximov, M.Jumaev, F.Kasimov, E.Yangabayevalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari hamdo‘ctlik mamlakatlarida ushbu masala yuzasidan M.Bantova, G.Beltyukova, N.Istomina, L.Nesterenko, A.Polevhikova, A.Pishkalo, O.Tarasova, C.Shvetsovalar hamda xorijiy tadqiqotlar tajribasida Sh.Ainsworth (Sh.Ainsworth), C.Blessing (S.Blessing), T.Jong (T.Jong), V.Kouvenhovyen (W.Kouwenhovyen), T.Murray (T.Murray), C.Coutras

(C.Coutras), K.Thaug (K.Thaug), C.Erduran (S.Erduran)lar ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

N.Tayloqovning tadqiqot ishida uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yaratishning ilmiy pedagogik asoslari ishlab chiqilgan [129], Q.Olimov ilmiy ishlarida maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish tamoyillari va ularga qo'yiladigan talablar, elektron darsliklarda uchraydigan kamchiliklar haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan [88], U.Yu.Yuldashev tomonidan "Axborot texnologiyalari" fani mazmuni takomillashtirilgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Elektron ta'limning boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun eng mo'ljallangan usullar pedagogik modellarga asoslangan kompetensiyalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu usullar o'quvchilarga yangi konseptlarni o'rgatish, nazariyani tushuntirish va amaliyotni o'rganishda yordam berishni o'z ichiga oladi. Masalan, muvofiqlashtirilgan darsliklar, interaktiv amaliyotlar va qo'llanmalar bu jarayonni qanday olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Elektron ta'limning asosiy afzalliklari interaktiv amaliyotlar va multimedia resurslar orqali o'quvchilarning mantiqiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini berishdir. Animatsiyalar, videolar, va interaktiv darsliklar o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda va o'rganish jarayonlarini osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bular o'qituvchilarga o'quvchilarni qiziqtirish, o'rganish motivatsiyasini oshirish, va tushunish darajasini oshirish imkonini beradi.

Elektron ta'lim platformalari o'quvchilarni har birining o'zining unikal o'qish uslubiga moslashtirishga imkoniyat beradi. Bu personalizatsiya o'quvchilar uchun materiallarni o'rganish jarayonini engilab o'tkazishda, ularning individualliklarini his qilishda va o'zlashtirishda yordam beradi. Buning natijasida, har bir o'quvchi o'zining eng yaxshi potensialini amalga oshirishga qodir bo'ladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning mantiqiy kompetensiyalarini tahlil qilish, ularning progressini kuzatish, va kerakli ko'rib chiqishlarni qo'llab-quvvatlashda muhim tushunchalar. Elektron ta'lim platformalari o'quvchilarning ma'lumotlarini to'plab, ularning rivojlantirish darajasini nazorat qilish va ularni kerakli qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlashga imkoniyat beradi.

Elektron ta'limda mantiqiy kompetensiyalarni o'rgatishda pedagogik modellar va metodlar ahamiyatga ega. Misol uchun, iste'molchining o'zini o'rganish jarayonida mantiqiy qabul qilishning modellariga, masalalar echishning strategiyalariga, va tushuntirishning eng mo'ljallangan usullariga e'tibor beriladi.

So'nggi yillarda, elektron ta'limning ilg'or foydalanishiga asoslanuvchi qo'llanmalar va interaktiv materiallar o'sib boryapti. Bu materiallar o'quvchilarning tushunish va tajribalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi va ularni o'quv jarayonini osonlashtirishga yordam beradi.

Elektron ta'lim sohasida yaratuvchanlik va texnologiya birligi yangi bosqichga kirdi. Virtual realitet (VR), augmented realitet (AR), va 3D-printerlar ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishda yordam beradi, shuningdek, texnologik echimlarni o'quvchilarning o'zlarining fikrini boshqarish va muammolarni echishda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi.

Kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini individual ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning elektron metodika dasturini yaratishda, avvalo, dastur va dastur tuzilmalari tushunchalarining mohiyatiga to'xtalib o'tish muhim, deb hisobladik. Tuzilayotgan dastur doimo uni amalga oshiradigan shaxs bilan bog'liq bo'lib, aniq maqsadga qaratilgan eng yaqin harakat rejasi yoki o'quv mazmunining qisqacha bayoni toifasida namoyon bo'ladi. Shuni ham qayd etish zarurki, ta'lim

amaliyotida innovatsiyalarning kiritilishi o'qituvchining o'zini o'zgartira olish, mobillik, faoliyatiga yangiliklarni singdirish qobiliyati va aniq belgilangan strategik rejalarini mavjudligiga chambarchas bog'liq. Sohada sifat o'zgarishlarini ta'minlash nafaqat o'qituvchi, balki tizim va uni boshqaruv vertikalida ham innovatsiyalarga ochiqlik kafolatlilik darajasini oshiradi[4].

- **Tahlil va natijalar.** Kredit modul sharoitida innovatsion muhit konsepsiyasida ta'limda innovatsion jarayonlarning mikro va makro darajalari, maktablarda innovatsion faoliyatning amaliy, subyektiv va tashkiliy boshqaruv jihatlari, innovatsiyalarni tatbiq etish darajasi o'qituvchilarning faoliyatiga ilmiy va uslubiy bog'liqligi, innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Uning nazariy asoslari sohaning negizini tashkil etuvchi qonunlar, omillar va tamoyillar majmui, o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va tashkiliy jihatlarni aks ettiruvchi umumlashtirilgan qoidalar majmui bilan ifodalanadi. Innovatsion muhit gipotetik-deduktiv usuli orqali aniqlanadigan quyidagi qonuniyatlarga bo'ysunadi:

- kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini elektron metodikada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhitning faoliyat ko'rsatishi, obyektiv ravishda uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'rtasidagi tashqi ta'sirlar, munosabatlar va aloqalarga bog'liqligi;

- kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini individual ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning elektron metodika ta'lim sohasining makro va mikro darajalari o'rtasidagi munosabatlar metodologik asos va tamoyillarning birligi;

- kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini individual ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning elektron metodika muhitda o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish ta'lim tizimidagi yangiliklarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va hamrohlik qilishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirilgan harakatlarda amalga oshirilishi[5]. Kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini individual ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Uning asosiy tashkil etuvchilari konstruktiv va gnostik harakatlardir. Faoliyatning ikkala turi o'qituvchida analitik, prognostik, proyeksion, aks ettirish ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Hozirgi paytda bilimlarning tez eskirayotganligi, yangilarining yaratilish shiddati, taraqqiyotning to'xtovsiz talablari o'qituvchini doimiy ravishda faniga oid yangiliklarni o'zlashtirish, mustaqil o'qish, izlanuvchan bo'lishni taqozo qiladi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslari davomida kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini individual ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tadbirlar vositasida modellashtirish jarayonlariga doir xulosalarni keltiramiz. Jarayon to'rt pog'onada amalga oshiriladi: - diagnostik-propedevtik bosqichda dastlab tashxislash va maqsadni belgilash ishlari olib borildi. Unda o'qituvchilarga ko'rsatiladigan metodik yordam maqsadi, mazmuni va amalga oshirish shakllari muhokama qilinadi.

Tinglovchilar tomonidan rejalashtirilgan metodik tadbirlardan ko'zlangan natijaga erishish uchun kerakli resurslar, ya'ni ilg'or tajribali, etakchi o'qituvchilar, uslubchilar, tashkiliy, o'quv, moddiy-texnik va boshqa zaruriy vositalarni aniqlash hamda jalb qilish uchun sharoit yaratiladi. Metodik tadbirlarni loyihalash, o'quv jarayonini tashkil qilish, o'qitish usublari, shakli, natijalarni baholash va monitoring shakllari tanlanadi. Asosiy e'tibor o'qituvchilarning mustaqil ravishda o'z mahoratlarini oshirishi, shuningdek, yillar davomida to'plangan tajribalariga qaratiladi[6]. Yakunda loyihalangan modelni joriy qilish va metodik faoliyatni tashkil etish yo'nalishlari ishlab chiqiladi;

Elektron ta'lim muhitiga mutaxassislikka tayyorlash jarayonini axborot texnologiyalariga asoslangan muhitni tashkil qilishning maksimal samarasiga mazkur jarayonning psixologik, texnik, texnologiya, axborot, huquqiy, metodik va boshqa tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirish hisobigagina erishish mumkin. Aynan axborot texnologiyalari zamonaviy ta'lim rivojiga ko'p jihatdan bevosita ta'sir ko'rsata oladi.

Elektron ta'lim muhiti o'qituvchi uchun yangi qirralarni kashf etadi. Ushbu muhit oliy ta'lim tizimi o'qituvchisidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan yuqori darajada foydalanishni talab etadi. Shuning uchun "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fani o'qituvchisi o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi,

kasbiy tayyorlanishi uni axborot-ta'lim muhitida ishlashi uchun zaruriy shartlaridan biridir.

- adaptiv-korrektiv bosqichida metodik tadbirlarni tashkil etish innovatsion modellarining ijtimoiy-kasbiy ekspertizasi o'tkaziladi. Modillardagi bo'shliqlar, kamchiliklar to'ldiriladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Kredit modul sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini individual ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish strategik ta'sirni amalga oshirish uchun ular strategik innovatsion pozitsiyani egallashi (ya'ni, o'zgarishlar, yangiliklarni butunligicha qamrab olishi, bu vaziyatda o'zining, hamkasblari, ta'lim ishtirokchilarining harakatlari, o'zaro ta'sirini ko'rishi) va shu yo'nalishda harakat qilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Б.С. ва б.к. Математика // Педагогика олий таълим муассасаларининг 5111700 – «Бошланғич таълим ва спорт-тарбиявий иш» бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган дарслик – Т.: ТДПУ, 2013. – 340 бет.
2. Волков Г.Н. Этнопедагогическая концепция современного национального образования и воспитания // Вестник ун-та РАО, 1999. – № 1. – С. 13-34.
3. Wallace M. Training Foreign Language Teachers. – Cambridge University Press, 1991. – 180 p.
4. Муслимов Н.А муаллифлиги асосида ёзилган. "Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси" номли Монографияси. Фан ва технология.: 2013 й. 6-10 б.
5. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТГПУ, 2003. – 174 б.
6. Абдуллаева Б.С. ва б.к. Математика // Педагогика олий таълим муассасаларининг 5111700 – «Бошланғич таълим ва спорт-тарбиявий иш» бакалавр йўналиши талабалари учун мўлжалланган дарслик – Т.: ТДПУ, 2013. – 340 бет.
7. Нафасов Ф.А. Олий таълим муассасалари талабаларининг когнитив компетенцияларини ривожлантириш: Автореф. Дис. ... пед. фан. бўйича фалсафа док. (PhD). -2021. -130 б.
8. Рузикулова Н.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларининг ахборот билан ишлаш компетенциясини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш.: Автореф. дис. ... пед. фан. бўйича фалсафа док. (PhD). – Т. 2020. –141 б.
9. Nafasov, G. (2019). Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics. Eastern European Scientific Journal, (1).
10. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.
11. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. Bulletin of Gulistan State University, 2020(2), 12-17.
12. Nafasov, G. (2019). Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics. Eastern European Scientific Journal, (1).
13. Abdurashidovich, N. G. (2021). Theoretical Basis Of Development Of Cognitive Competence Of Students Of Higher Education Institutions In The Process Of Teaching Elementary Mathematics. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 8(1), 789-806.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:



UDK: 370; 37.091.3

Firyuza ORAZOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: firyuza 898 @gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti.f.f.d. PhD. N.I.Yakubova taqrizi asosida

THE ROLE AND CONTENT ESSENCE OF DIDACTIC COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

The article discusses the concept of competence and didactic competence. The stages of development of didactic competence of students are identified.

The reproductive, heuristic, creative level of didactic competence is also described.

Keywords: didactic competence, approaches, reproductive, heuristic, creative, reflective, professional activity, competence

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И СУЩНОСТЬ СОДЕРЖАНИЯ

Аннотация

В статье рассматривается понятие компетентности и дидактической компетентности. Выделены этапы развития дидактической компетентности студентов. Также описан репродуктивный, эвристический, творческий уровень дидактической компетентности.

Ключевые слова: дидактическая компетентность, подходы, репродуктивная, эвристическая, творческая, рефлексивная, профессиональная деятельность, компетентность.

DIDAKTIK KOMPETENTLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI VA MAZMUN MOHIYATI

Аннотация

Maqolada kompetentlik va didaktik kompetentlik tushunchasi ularning mazmun mohiyati haqida fikr yuritiladi. Talabalarning didaktik kompetentligining rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek didaktik kompetentlikning reproduktiv, evristik, ijodiy darajasi tavsiflangan.

Kalit so'zlar: didaktik kompetentlik, yondashuvlar, reproduktiv, evristik, ijodiy, refleksiv, kasbiy faoliyat, kompetentsiya

Kirish. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo'yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiyalash va texnologik jihozlashga jamiyatimizning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi masalaga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Amaldagi ta'lim yo'nalishi davlat ta'lim standartlarida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan umumiy malaka talablarida tayyorlanayotgan kadrlar o'z sohasiga oid qarorlarni mustaqil qabul qila olishi, raqobatbardosh kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'z ishini ilmiy asosida tashkil etishi hamda mustaqil holda o'z bilim va malakasini oshirib borish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi qayd etilgan. Oliy ta'lim tizimida bu xususiyatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda mustaqil ta'lim alohida o'rin egallaydi. Ma'lumki, malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hisoblanadi

Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo'llari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'z o'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik" ni anglatadi.

Kompetentlik tushunchasidan ta'lim oluvchilarga ta'lim berish sohasidagi samarali faoliyatini tavsiflashda, pedagogik faoliyatni standartlashtirishda va uning samaradorligini baholashda foydalaniladi.

Bugungi kunda pedagogik faoliyatga qo'yiladigan talablarining o'zgarishi, birinchi navbatda, o'qish va o'qitish jarayoniga, talabalarning didaktik kompetentligiga yondashuvlar bilan bog'liq. Talabalarning ijodkorligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga o'tishini ta'minlashda, ta'limdagi muloqot va hamkorlik uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va boshqa turli didaktik muammolarga duch keladi. Bu muammolarni yechish talabdan didaktik kompetentlikning yuqori darajasini talab qiladi.

Didaktik kompetentlikning mohiyatini aniqlashda V. I. Grinev, I. G. Shamsutdinova, Yu. V. Maxovalar fikriga tayanamiz.

V. I. Grinevning fikriga ko'ra, didaktik kompetentlik – bu ijodiy ta'lim jarayonida o'z-o'zini anglashning turli didaktik masalalarini yechishga qaratilgan nazariy va amaliy tayyorgarlikda namoyon bo'ladigan didaktik-kasbiy faoliyatga integrativ sifat deb ta'riflagan.

I. G. Shamsutdinovanning fikriga ko'ra esa, bu “tezkor, oqilona, asosli va aniq didaktik qarorlar qabul qilish, didaktik masalani yechishning eng qisqa yo'lini topish, muayyan sharoitlarga mos keladigan metodlar, usullar va o'quv vositalarini tanlash qobiliyati» demakdir.

A.G.Bermusning fikriga ko'ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi”.

Ye.Lebedevning fikricha noaniq vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, -deb ta'riflaydi.

I.A.Zimnyaya “Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi”, degan fikrni keltirgan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, “kompetentlik” tushunchasi shaxsning kasbiy va shaxsiy xususiyatlari bo'lib, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi hamda qo'yilgan muammo va vazifalarni mustaqil hal qilishl ayoqatiga ega ekanligi bilan tavsiflanishi lozim bo'ladi. U o'zida talabanning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini ham mujassamlashtiradi.

Didaktik kompetentlik – deganda, biz ta'lim oluvchilarni o'qitish va ularni rivojlantirish sohasidagi didaktik masalalarni yechishga integral qobiliyatlarini tushunamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarning didaktik kompetentligining rivojlanish darajasi quyidagilar bilan belgilanadi: motivatsiyani rivojlantirish, o'quv materialining mazmunini tanlash, pedagogik tashxisni amalga oshirish, axborot-ta'lim muhitini loyihalash, ta'lim oluvchini o'quv loyihasiga qo'shishni ta'minlash, o'quv kommunikatsiyasini loyihalash va tashkil etish, tushunish jarayonini loyihalash va tashkil etish, talabanning baholash faoliyatini tashkil etish, ta'lim oluvchining individual o'quv – bilish faoliyatni amalga oshirish uchun sharoitlarni ta'minlash, o'quvchining reflektiv faoliyatini tashkil etish kabi zamonaviy didaktik vazifalarning butun sinfini yechishga innovatsion-texnologik tayyorligi bilan belgilanadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin :

1) o'qitishning rag'batlantiruvchi metodlari va usullarini qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish, shuningdek, har bir ta'lim oluvchiga (turli vaqt oralig'ida) ta'limning ma'nosini tushunishga, “men-olam” mazmunli munosabatlarni qurishga imkon beradigan yaxlit ta'lim tizimini yaratish va o'quv – bilish faoliyatda qiziqishlar va hayotiy ehtiyojlarni amalga oshirish;

2) o'quv materiali mazmunini yangi asoslar bo'yicha tanlash: tayyor bilimlarni o'zlatirish uchun emas, balki ta'lim oluvchi tomonidan mustaqil ravishda ta'lim masalalari va ularni yechish usullarining shakllantirishini ta'minlash maqsadida o'quv materialini o'quv yoki ta'lim / madaniy vaziyat ko'rinishida taqdim etish asosida ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyati uchun sharoitlar yaratish;

3) monitoring asosida, ta'lim oluvchilarning shaxsiy yutuqlari va rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, ularni qo'llab-quvvatlashning yangi asoslarida pedagogik tashxislashni amalga oshirish;

4) axborot-ta'lim muhitini resurslar to'plami sifatida loyihalash: ta'lim oluvchilarga o'quv faoliyatida tubdan farqli pozitsiyani ta'minlashga qaratilgan faol, tashabbus ko'rsatish, ta'lim amallarini tanlashga imkon beruvchi axborot,

kommunikatsion, texnologik, instrumental, predmetli resurslarni loyihalash (passiv ta'lim pozitsiyasidan faol va so'ngi avtonom ta'lim pozitsiyalariga o'tish);

5) nafaqat real ta'lim muhitida, balki real hayotiy jarayonlarda harakat va mas'uliyat tajribasiga ega bo'lish maqsadida ta'lim oluvchilarning shaxsiy o'quv-bilish faoliyati va individual ta'lim marshrutining o'quv loyihasiga kiritilishini ta'minlash;

6) o'zi va boshqa ta'lim oluvchilar uchun muloqot kontekstini, ta'lim vaziyatini, madaniy vaziyatni, o'quv vaziyatini, o'quv vazifasining mazmunini anglash, tushunish va talqin qilish jarayonini loyihalash va tashkil etish;

7) ta'lim oluvchilarni hamkorlikda rejalashtirish, aloqa vositalarini tanlash va birgalikdagi faoliyat shakllarini amalga oshirishga jalb qilish orqali ta'lim kommunikatsiyasini loyihalash va tashkil etish; darsda va darsdan tashqarida guruh dinamikasini boshqarish; darsda, auditoriyada va auditoriyadan tashqari jamoalarda turli xarakterdagi guruhlarda tengdoshlar bilan muloqot qilish tajribasini o'zlashtirish orqali shaxsini shakllantiruvchi omil sifatida muloqot tajribasini boyitish;

8) ta'lim oluvchilarning baholash faoliyatini tashkil etish, pedagogika oliy ta'lim muassasasi ta'lim oluvchilarini shakllantiruvchi baholash, mezonlarga asoslangan holda baholash, talabalarning o'quv, bilish, tadqiqot, loyiha va boshqa faoliyati keng jamoatchilik faoliyatini amalga oshirish orqali uning muvaffaqiyati va yutuqlari dinamikasini ta'minlaydigan yangi baholash amallariga jalb etilganligini ta'minlash;

9) auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilarning individuallashtirilgan o'quv – bilish faoliyatini amalga oshirish uchun sharoitlarni ta'minlash, o'quv jarayoni va talabanning shaxsiy profilini individuallashtirishga o'tish;

10) ta'lim oluvchining reflektiv faoliyatini tashkil etish; ta'limni rejalashtirish, o'z-o'zini baholash va o'quv – bilish faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro baholash, “Men va men emas” o'rtasidagi farqni aniqlashning ichki ko'rsatmalari va usullarini o'rnatish, o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali talabanning refleksiyaga jalb etilishini ta'minlash. Shuni ta'kidlash kerakki, didaktik kompetentlik darajali xususiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Biz M.N.Pevzner, O.M.Zaychenko, S.N.Goricheva tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga tayanamiz, ular didaktik kompetentlikning quyidagi uch ta darajasini tavsiflaydi: reproduktiv, evristik, ijodiy.

Reproduktiv daraja: faoliyatni stereotiplash (namunalarni aniq o'rganish, usullar va shakllarning cheklangan to'plami), tayyor ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, o'zini faqat o'qitilayotgan fan kontekstda namoyish etish, o'zgarishlarga motivatsiyaning pastligi kabi o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu yerda pedagogning didaktik kompetentligining me'yoriy-adaptiv, o'zgarimas, strukturlangan xarakteri aniq namoyon bo'ladi.

Evristik daraja qo'llaniladigan texnologiyalar, o'qitish uslublari va usullarining o'zgaruvchanligi va samaradorligi, faoliyatdagi bir xilliklarni rad etish, uni takomillashtirish uchun o'z tajribasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, ijodiy tafakkur usullaridan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Ijodiy daraja o'qituvchining didaktik jarayonni tashkil etishdagi sub'ektivligida namoyon bo'ladi. O'qituvchi individual faoliyat uslubidan foydalanadi, o'quv jarayonini loyihalash va modellashtirishning (tizimli modellashtirish) zamonaviy samarali nazariyalari va texnologiyalari darajasida pedagogik muammolarni hal qiladi, o'z texnologiyalarini loyihalash va takomillashtirishga qodir, innovatsion faoliyatda faol ishtirok etadi, o'zgarishlarga moslashuvchan tarzda

moslashadi. Aynan kreativ daraja talabaga mustaqil rivojlantirishga o'tishga imkon beradi.

Xulosa. Shunday qilib, talabaning didaktik kompetentligi deganda, o'qituvchining o'quvchini o'qitish va rivojlantirishda yuzaga keladigan murakkab kasbiy vazifalarni hal etishidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, talabalarning didaktik kompetentligi didaktik jarayonni tashkil etishda o'zini namoyon qiladigan kasbiy mahorat darajasining umumlashtirilgan kompleks xarakteristikasi sifatida kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismidir.

ADABIYOTLAR

1. Muslimov.N.A., Qo'ysinov.O.A., Sharipov.Sh.S. "Kasb ta'limi pedagogikasi" fanidan o'quv metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 20 b.
2. Xakimova M.F. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T. "Fan va texnologiyalar", 2007.
3. Ismailova Z.K., Ximmataliev D.O., Muqimov B.R. Kasbiy pedagogika fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. – T.: TIMI, 2013
4. N.R Saitkulova .Pedagogika oliy ta'lim muassassalarida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish texnologiyasi-//monografoya-CHDPU ,2023
5. G.S Xaldarchayeva. Ingliz tilini kreativ yondashuv asosida o'qitish//o'quv qo'llanma.Chirchiq 2023 yil
6. Ahmedova M.A.Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma- T. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.



UDK: 811.92:811.111(37.013.2)

Dilobar OCHILOVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi
E-mail: utaev.s@list.ru

Qarshi DU professori, f.f.d. G.Tojiyeva taqrizi asosida

CLASSIFICATION OF INTERNATIONAL ENGLISH LANGUAGE CERTIFICATES AND METHODS OF PASSING EXAMS TO OBTAIN THEM

Annotation

This article classifies international exams in English, provides an overview of the main types of tasks. Another feature of this work is the types of the most popular certificates for assessing English language proficiency such as IELTS, CEFR, TOEFL, SAT, GMAT, FCE, TOEIC. International English language certificates Academic Ielts are obtained for the purpose of traveling to study, the general Ielts certificate is intended for those who are aimed at working abroad and for the purpose of migration to English-speaking countries. Provided detailed description of standard tasks for international testing in English.

Key words: Cefr, Fce, Gmat, IELTS.

КЛАССИФИКАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СЕРТИФИКАТОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И МЕТОДЫ СДАЧИ ЭКЗАМЕНОВ ДЛЯ ИХ ПОЛУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье проводится классификация международных экзаменов по английскому языку, приводится обзор основных типов заданий. Еще одной особенностью данной работы является приводятся виды самых популярных сертификатов оценки знания английского языка таких как, IELTS, CEFR, TOEFL, SAT, GMAT, FCE, TOEIC. Международные сертификаты английского языка Academic Ielts получается в целях поездки на учебу, сертификат general Ielts предназначен для тех кто целенаправлен на работу за границей и в целях миграции на англоязычные страны. Приводится подробное описание типовых заданий международного тестирования по английскому языку.

Ключевые слова: CEFR, FCE, GMAT, IELTS, SAT.

XALQARO INGLIZ TILI SERTIFIKATLARI TASNIFI VA ULARNI OLISH UCHUN IMTIHONLARNI TOPSHIRISH METODLARI

Аннотация

Mazkur maqolada xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro sertifikatlar toifalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ingliz tilini bilish darajasini baholashda eng ko'p ommalashgan sertifikat turlaridan IELTS, CEFR, TOEFL, SAT, GMAT, FCE, TOEIC sertifikatlari hisoblanadi. IELTSning ikki xil turi mavjud: Academic Ielts va General Ielts. Academic Ielts ta'lim olishni maqsad qilganlar uchun, general Ielts esa chet elga imigratsiya qilish va ishlash istagida bo'lganlar tomonidan topshiriladi va ieltsning har ikkala turi ham sertifikat egalarini ko'plab imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Maqolada halqaro til sertifikatlarini olish uchun topshirilishi lozim bo'lgan imtihonlar va til sertifikatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: IELTS, CEFR, FCE, GMAT, IELTS, SAT.

Kirish. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab dunyo miqyosida oshib bormoqda. Xorijiy tillarni bilish dunyo bo'ylab sayohat qilish, dunyo xalqlarining madaniyati, tarixi, qadryatlarini o'rganishda zarur vosita hisoblanadi.

Globalashuv davrida halqaro til imtihonlariga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Xorijiy til imtihonlari til bilish darajasini aniqlashga yordam beradi, bu imtihonlar tanlov me'zoni hisoblanadi. Majburiy testlarga ingliz tilini bilish darajasini aniqlashni baholash halqaro tizimi kiradi.

Biroq bu tillarni o'zlashtirish til o'rganuvchilardan chuqur aqliy mehnat qilish va til o'rganish usullari va texnikalarini o'zlashtirib olishni talab etadi. Ingliz tili so'zlashuv amaliyotida eng asosiy xalqaro til hisoblanadi. Ingliz tilini bilishga kun sayin ehtiyoj ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 maydagi 312-son «Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq xorijiy tillarni bilish darajasini baholash tartibi va til sertifikatlari ro'yxati tasdiqlangan. Mazkur qaror asosida, xususan, ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi halqaro til sertifikatlari ro'yxati tasdiqlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Halqaro til sertifikati imtihonlari odatda to'rt bosqichdan iborat bo'ladi: audiolashgan (Listening), o'qish (Reading), yozish (Writing), va so'zlashuv (Speaking). Bunday bo'limlarga ajratish bejizga emas, bu bo'limlar til sertifikati olishda talabgoring kommunikativ ko'nikmalarini ko'rsatadi [1-3].

Bu baholash tizimlariga halqaro TOEFL, IELTS, FCE, CAE, CPE va boshqa til bilishni baholash imtihonlari sertifikatlari kiradi [4,5].

Genisher E.Z.,ga ko'ra «Eshitishni o'rganish samaradorligini oshirish ingliz tilini o'rganish natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi» [2].

Xorijiy tilni o'rganish, alohida dolzarblikni kasb etadi. Ayniqsa CEFR xalqaro til o'rganish yevropa tizimi ta'lim kontekstida dolzarb hisoblanadi. Bu tizim yevropa kengashi tomonidan 2001 yilda taqdim etilgan [6]. Bu tizim bir qator tadqiqotchilar Djon Trim (John Trim) va Yan van Yek (Jan van Ek), kabilarning qariyb yarim asrlik mehnatlari natijasida taqdim etilgan [luchin]. Bu tadqiqotchilar 1970 yillarda birinchi ingliz tilini o'rganishning tizimli topshiriqlar seriyasi «Threshold» ni joriy qilgan [6].

Ingliz tili o'rganuvchilar orasida ingliz tili bo'yicha halqaro imtihonlar juda ommalashib ketdi. Ba'zilar bu imtihonlarni xorijda ishlash va o'qish uchun topshiradilar, ayrimlar uchun esa bu imtihonlar ingliz tilini o'rganishga qiziqish uyg'otsa, uchinchi toifa o'rganuvchilar halqaro til sertifikatini olish uchun topshiradilar. Ingliz tilini bilish darajasini baholashda halqaro imtihonlar orasida amerikaning TOEFL va britaniyaning IELTS imtihonlar ommabop hisoblanadi. Bundan tashqari Kembridj, General English: FCA, CAE, KET, PET, CPE; Professional English: BEC, BULATS, ILEC, ICPE; Academic English: IELTS halqaro imtihonlari ham bor [7-9].

Halqaro imtihonlar orasida IELTS nafaqat yurtimiz, balki butun dunyoda ingliz tili bo'yicha eng ommalashgan va ishonchli xalqaro baholash tizimi sanaladi. Bugun mamlakatimizdagi aksariyat o'quv markazlarida malakali va ushbu yo'nalishga ixtisoslashgan sara muallimlar yoshlarni ushbu xalqaro test bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga yaqindan ko'maklashmoqda [10]. Mazkur imtihon 4 bosqichda - listening (tinglab tushunish), reading (o'qish), writing (yozish), speaking (gapirish, suhbat ko'rinishida) o'tkaziladi. Agar o'quvchining bilimi yuqori bo'lsa, bu sinovlarning har biridan eng yuqori - 9 ball olishi mumkin [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Til sertifikatini talabgorining maqsadiga asosan ingliz tili bo'yicha halqaro til sertifikatlari imtihon testlarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin [1,4,7]:

1. Chet el oliygoxlar va maktablariga kirish uchun halqaro ingliz tili imtihonlari;

2. Chet elga ishgah borish uchun halqaro ingliz tili imtihonlari;

3. O'qituvchilar malakasini oshirish uchun halqaro ingliz tili imtihonlari [5]

Ingliz tilini bilish darajasini baholashda bir qator til sertifikatlari mavjud, ya'ni, IELTS, CEFR, TOEFL, SAT, GMAT, FCE, TOEIC va boshqalar. **International English language testing system (IELTS)** - ingliz tilini bilish darajasini aniqlashdagi ushbu sertifikatning tashkilotchisi **British council (BC)** va **IDP** hisoblanadi. Imtihonga topshirish istagida bo'lganlar ikki xil usulda: **CBT**- Computer based (kompyuterda) va **PBT**- Paper-based (qog'oz) variantida, topshirishlari mumkin. IELTSning ikki xil turi mavjud: **Academic Ielts** va **General Ielts**. Academic Ielts ta'lim olishni maqsad qilganlar uchun, general Ielts esa chet elga immigratsiya qilish va ishlash istagida bo'lganlar tomonidan topshiriladi va ieltsning har ikkala turi ham sertifikat egalarini ko'plab imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Imtihonda bilimni baholash 0 baldan 9 balgacha amalga oshiriladi. Bunda eng past natija 0, eng yuqori natija esa 9. Ielts to'rt bo'limdan tashkil topgan, bular:

1. O'qib tushunish (reading), bu bo'limda har xil mavzudagi matnlar beriladi va ushbu matnlardan kelib chiqqan holda har xil turdagi savollar taqdim etiladi, imtihon topshiruvchi matn va savollarni diqqat va tezlikda o'qib, savollarga to'g'ri javob berishi kerak bo'ladi. Chunki bu bo'lim uchun ajratilgan umumiy vaqt 1 soatni tashkil etadi.

2. Eshitib tushunish (listening), bunda esa eshituvchiga har xil turdagi audiolar eshittirilish bilan birga qog'ozda shu audioga oid savollar beriladi va imtihon qatnashchilaridan talab etiladigan narsa bu diqqatlarini jamlab audiodagi gapiruvchilarning gaplarini diqqat va e'tibor bilan eshitib qog'ozdagi topshiriqlarga to'g'ri javob berishdir. Bu bo'limda ularga e'tiborli va diqqatli bo'lishlari kerakligini maslahat berilayotganligining sababi shundaki, agar ular diqqat bilan audioni tinglamasa yoki muhim detallarga aniq e'tibor bermasa savolning javobini topishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

3. Gapirish (speaking), quyidagi bosqich: og'zaki yoki kompyuterda. Og'zaki suhbatda imtihon oluvchi vakillar bilan yuzma - yuz suhbat orqali, kompyuterda esa ZOOM ilovasidan foydalangan holda vedyo suhbat orqali amalga oshiriladi va u uch bosqichdagi savollarni o'z ichiga oladi. Misol uchun birinchi qismda o'zingizni tanishtirish, qiziqishlaringiz, kasbingiz yoki nimalarni yoqtirmasligingiz va shunga o'xshash qisqa javob talab qilinadigan savollar, ikkinchi qismda esa imtihon qatnashchilariga biror mavzuga oid savol taqdim qilinadi va tayyorlanishlari uchun bir daqiqa vaqt beriladi, ushbu daqiqadan so'ng ular ikki daqiqa davomida berilgan mavzuga o'zlarining javoblarini berishlari, va oxirgi qismda ikkinchi bo'limga yaqinroq bo'lgan bir nechta savollar beriladi va imtihon topshiruvchilar ushbu mavzuga nisbatan o'zlarining tanqidiy, chuqur va aqlli o'ylangan fikrlarini berib yondashishlari talab qilinadi. Bu bosqichda kerak bo'ladigan muhim omillar so'zlarni haqiqiy inglizlar singari to'g'ri, tushunarli, intonatsiya bilan talaffus qilish, ularga taqdim qilingan savollardan chetga chiqmagan holda yondashishdir. Suhbat o'n yoki o'n besh daqiqa davomida amalga oshiriladi.

4. Yozish (writing) bunda esa ikki bosqichdagi: harakatlanuvchi grafalar, chartlar, foizlar, xarita va jarayonlardan tashkil topgan topshiriq va insho taqdim etiladi va bu ikkita topshiriq uchun ularga berilgan vaqt bir soatdan iborat. Ushbu berilgan vaqt davomida har ikkala topshiriqqa oid fikr va mulohazalarini yozma shaklda bayon qilishlari kerak bo'ladi. Birinchi topshiriqda grafalar yoki ma'lum bir jarayonlarning rasmi, statistikasi yozilgan topshiriqqa taaluqli 150 va undan ortiq so'zlar orqali yozilgan matn yozish. Buni aniq tushuntirish uchun quyidagi misolni ko'rib o'tamiz:

Tahlil va natijalar. The diagrams represent the information about usage of tablet and headphones among young people between 2018 and 2022. Summarize the information provided: select and report the main features and make comparisons. Keltirilgan axborot sharhini keltirib o'ting: asosiy omillarni tanlang va ko'rsating, ma'lumotlarni taqqoslang. Yuqorida bayon etilgan misol ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishda yozish ko'nikmasini shakllantiriga yordam beradi (after/before doing something, from ... to doing sth, for doing sth)».

Ikkinchi topshiriqda 250 va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ulardan so'ralgan savoldan chetga chiqmagan holda o'z fikrlaridan tashkil topgan insho yozishlari talab etiladi. Ushbu to'rtta bo'lim orqali imtihon topshiruvchilar o'zlarining darajalarini aniqlab oladilar. To'rtta bo'limdan har birining natijalari qo'shib chiqilib to'rtga bo'linadi va natijalar shu orqali o'n to'rt kundan so'ng, agar kompyuter orqali imtihon topshirgan bo'lsa uch kundan so'ng e'lon qilinadi. Sertifikatning amal qilish muddati ikki yilni o'z ichiga oladi. Ikki yildan so'ng ularning sertifikatlari taqdim etiladigan talablar uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Common European Framework of Reference (CEFR) - ushbu imtihon 1989 - 1996 - yillarda Yevropa Kengashi tomonidan "Language learning of citizenship" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Ushbu sertifikatga AQSH, Osiyo, Yevropa, Avstraliyada o'qish istagida bo'lgan talabgorlar topshiradilar. Bunda imtihon topshiruvchilar A1 darajadan C2 darajagacha baholanadi. Eng past natija A1, eng yuqori daraja esa C2 hisoblanadi. Cefr quyidagi bo'limlardan iborat: **O'qib tushunish (reading)**, **Eshitib tushunish (listening)**, **Leksik va Grammatik kompetensiyalar (grammar)**, **Yozish (writing)**, **Gapirish (speaking)**.

Baholanish tartibiga qaraydigan bo'lsak har bir bo'limdan to'planilishi kerak bo'lgan maksimal ball 30 balni tashkil qiladi. Jami ball esa 150 ball hisoblanadi. Agar testdan maksimal 60 % yoki undan yuqori foiz to'plansa testdan muvaffaqiyatli o'tiladi.

Test of English as a Foreign Language (TOEFL) – ushbu sertifikatda ham IELTS kabi ikki xil topshirish variantlari bor, ya'ni PBT , CBT va IELTSdan mustasno IBT- internet- based test (internet). Bugungi kunda imtihon deyarli dunyoning barcha davlatlarida internetda onlayn usulda o'tkazilmoqda. BU sertifikatni olishni maqsad qilganlar ya'ni o'zining ona tilisi ingliz tili bo'lmagan talabgorlar uchun ingliz til AQSH variantini egallaganlik darajasini baholash maqsadida o'tkaziladi. Hozirgi kunda quyidagi imtihon dunyoning 150 dan ortiq davlatlarida, bir yilda 50 marta o'tkaziladi.

Baholanish 120 ballik tizim orqali va to'rtta qism; **o'qish, yozish, eshitish, gapirish** ko'nikmalariga ko'ra har biridan to'planilishi kerak bo'lgan maksimal ball 30 ballga ko'ra baholanadi. Imtihon davomiyligi 4 soat 30 daqiqani tashkil qiladi. Sertifikatning amal qilish muddati esa ikki yil. TOEFL ning quyidagi bir necha turlari bor, bular :

1. TOEFL Primary - Ingliz tili bo'yicha asosiy ko'nikmalar shakllanganligini aniqlash maqsadida 8 yoshdan kattalar uchun o'tkaziladi;

2. TOEFL Junior – 11 yoshdan kattalar uchun ingliz tilini egallaganlik darajasining kengligini tekshirishda;

3. TOEFL ITP – talabgorlar bilimini universitetet darajasida takomillashganligini aniqlashda;

4. TOEFL IBT – universitetga qabul qilinish uchun bilim, ko'nikma va malaka darajasini 4 bosqichda tekshirishda. Agar talabgor universitetga hujjat topshirayotgan bo'lsa, undan TOEFL IBT – (B1, B2, C1) natijasi talab etiladi.

Scholastic Assessment Test (SAT) - Bu CollageBoard.org tashkiloti tomonidan tashkil qilingan imtihon bakalavriat bosqichini xorijda davom ettirmoqchi bo'lgan abituriyentlardan talab etiladi.

SAT dunyoning ko'plab yetakchi va rivojlangan davlatlari tomonidan tan olingan va talabalar uchun to'liq grantlarni taqdim qiluvchi sertifikat hisoblanadi.

SAT imtihonida talabalar, ikkita fan matematika va ingliz tilidan, har yilda 170 dan ortiq xorijiy davlatlardan 3 milliondan ortiq maktab bitiruvchilarining natijalariga ko'ra qabul qilinadilar. Imtihon matematika fani uchun berilgan vaqt davomida 22 ta savoldan tashkil topgan 2 ta 35 daqiqalik

testga javob berish, ingliz tili fanidan esa 22 ta savoldan tashkil topgan 2 ta 35 daqiqali testga javob berishlar orqali amalga oshiriladi.

SAT sertifikatini qo'lga kiritgan talabalar juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi. Masalan, agar o'quvchi maktabda o'qish davomida past natija o'zlashtirgan bo'lsa va o'tish bali **GPA** (Grade Point Average) talablariga mos kelmasa, **SAT** sertifikatidan to'plagan yuqori natijalari orqali ballar foizini ko'tarib olishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari **SAT** sertifikatlari talab qiladigan nufuzli chet el universitetlarda o'qish imkoniyati, grantlarni qo'lga kiritish, va shu kabi yutuqlarni qo'lga kiritish afzallidir.

GMAT (Graduate Management Admission Test), **FCE** (Cambridge Assessment English), **TOEFIC** (Test of English for Communication) ham o'z egalarini ko'plab yuqori imkoniyatlar bilan ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xalqaro darajadagi sertifikatlardan yuqori natijalar olish uchun ko'proq inilzcha maqolalar o'qish, audiolar tinglash, insholarni tahlil qilish, ingliz tilida gapiruvchi (native speakers) larning gapirish usullariga taqlid qilib ko'rish, so'z boyligini oshirish uchun inglizcha kitoblar o'qish va shu kabi usullar va texnikalar samarali hisoblanadi. Ingliz tilini bilish darajasini baholash sertifikati imtihonlari til o'rganuvchilar bilish darajasini baholash va ko'nikmasini oshirishga yordam beradi.

To'rt moduldan iborat bo'lgan testlar til o'rganuvchilarni muloqatchanligini oshirishga va akademik mavzularda fikr almashishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Eshitish moduli bildirilgan fikrning mohiyatini tushunishga va tushinish ko'nikmasini va uning detallariga ahamiyat qaratishni o'rganishga yordam beradi.

“O'qish” topshirig'i – matnlar bilan ishlash ko'nikmasini oshirishga xizmat qiladi. Ingliz tili halqaro sertifikatini olish imtihoni uchinchi moduli til o'rganuvchining lug'at zahirasini boyitishga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich topshiriq til o'rganuvchining monologik so'zlashishni rivojlantirish va savollarga mantiqiy javoblarni keltirish imkonini beradi. Ingliz tili halqaro sertifikatlarini olish topshiriqlarining yuqorida qayd etilgan ketma-ketlikda amalga oshirilishi talabgorlarga til o'rganish ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ashmarina I.L., Abdullaeva Z.R. Elements of grammatical variability for successful passing of the written part Academic IELTS (Writing Task 1) // Bulletin of Cherepovets State University. 5 (80), 2017. C. 62–69.
2. Генишер Э.З. Обучение аудированию // Вестник Оренбургского государственного университета. №1, 2001. С. 57–60.
3. Diego Sirico. Using literature for Language Learning, Students' and Teachers' views Cambride Scholars Publishing, - 2021. 348 b.
4. Isupova M.M. Preparation for the IELTS exam (reading module) // Scientific and information magazine army and society. 4 (36), 2013, pp. 81–87.
5. Лучинина Е.Н., Сняевский А.А. Интеграция языкового образования в вузе в общеевропейское образовательное пространство: проблемы и векторы решения Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», - Москва: Вестник ТвГУ. Серия "Педагогика и психология". 2011.
6. Soboleva N.P., Yuzmukhametova L.N. use of international standardised test materials of english language proficiency in humanities students' training - Kazan: Linguistic Journal, 2020, volume 3, № 1 p. 136-144.
7. Simon van Rysewyk. Simon's Ielts Writing Schuster, - London, Simon & Schuster – 2022. 450 p.
8. Хуснулина Р.Р. Международный аттестационный экзамен на знание английского языка Toefl ibt. Подготовка к нему в книту и условия его сдачи - Казан КНИТУ, 2014.-83 с.
9. Турсинова З. Инглиз тили бўйича халқаро сертификатлар ёшларга қандай имтиёزلар беради?, <https://yuz.uz/news/>



UDK: 37.013.46

Gulmira PARDAYEVA,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali v.b., PhD

E-mail: gulmira_pardayeva@mail.ru

Dilfuza NORQULOVA,

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali talabasi

O'G'Illoy SUYUNOVA,

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali talabasi

QarMII pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., A.Shukurov taqrizi asosida

MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDA DASTURIY MAXSULOTLARNI MASOFAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA YARATISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqil ishlarni tashkil etishda dasturiy maxsulotlarni masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida yaratish mustaqil ishlarni qabul qilish, ular ustida qayta ishlash, reproduktiv va produktiv aloqa o'rnatish, kuzatish va taqqoslash, onlayn muloqotni xosil qilishga oid dasturiy ishlanmaning modeli keltirilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, axborot texnologiyalari, Asset Sharable Content Object (SCO), internet xizmatlari, SCORM (Sharable Content Object Reference Model), Dinamik dasturiy ta'minot, Ma'lumot almashish va baholash.

METHODOLOGY FOR CREATION OF SOFTWARE PRODUCTS BASED ON DISTANCE EDUCATION TECHNOLOGIES IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK

Annotation

In this article, presents a software development model related to the creation of software products based on distance learning technologies in organizing independent work, accepting independent work, processing it, establishing reproductive-productive connections, monitoring and comparison, and creating online resources. communication.

Key words: distance learning, information technology, Asset Sharable Content Object (SCO), SCORM (Sharable Content Object Reference Model), dynamic software, information exchange and evaluation.

МЕТОДОЛОГИЯ СОЗДАНИЯ ПРОГРАММНЫХ ПРОДУКТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация

В данной представлена модель разработки программного обеспечения, связанная с созданием программных продуктов на основе технологий дистанционного обучения при организации самостоятельной работы, приемке самостоятельной работы, ее обработке, установлении репродуктивно-продуктивной связи, мониторинге и сравнении, создании онлайн-ресурсов. коммуникация.

Ключевые слова: дистанционное образование, информационные технологии, объект общего контента активов (SCO), интернет-сервисы, SCORM (эталонная модель объекта общего контента), динамическое программное обеспечение, обмен информацией и ее оценка.

Kirish. Hozirgi kunda, masofaviy ta'lim texnologiyalari o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning yangi istiqbollarini ochadi, bu esa asosan talabalarning o'quv materiallari bilan bevosita o'ziga mos keladigan rejim va hajmda ishlash imkoniyatiga ega ekanligiga asoslanadi. Bir tomondan, an'anaviy yuzma-yuz o'qitishni to'liq shaxsiylashtirish mumkin emas, talabaning imkoniyatlari (iqtidori, sog'lig'i va boshqalar) darajasiga qarab, u muayyan faoliyat turlarini o'zlashtira oladi va bajara oladi, ijodiy darajaga yetadi, motivatsiyaning yuqori darajasini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, o'qituvchilar kunduzgi ta'lim jarayonida o'zlarining kasbiy resurslaridan to'liq foydalanishdan uzoqda (ularning muhim ta'lim salohiyati ko'pincha auditoriya chegarasi, ajratilgan vaqt va boshqalar bilan cheklanadi), ular buni qilmaydilar. Talabalarning ushbu guruh talabalari tomonidan kursning muayyan bo'limlarini o'zlashtirish muvaffaqiyati to'g'risida har kuni ishonchli fikr mulohazalarga ega bo'lish ko'pincha faqat nazorat tadbirlarida o'rganiladi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta'lim o'sishda davom etmoqda va O'zbekiston oliy ta'limida tobora

muhim rol o'ynamoqda. Ushbu tezkor o'sishda Masofaviy ta'limni samarali tashkil etish borasida bir qancha izlanishlar paydo bo'la boshladi. Jarayonlar shuni ko'rsataydiki, samarali tashkil etilgan masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limda o'qitish orqali erishilgan o'quv natijalaridan sezilarli farqni keltirib chiqarmaydi [2].

TQQM Devis tomonidan kompyuterdan foydalanish xatti-harakatlarini tushuntirish uchun ishlab chiqilgan. Ushbu tizim ikkita muhim xususiyatga ega: foydalanishda qulaylik (FQ) va sezilgan foyda (SF) [3]. Saade, Nebebe va Tan universitet talabalarining ishtiroki muvaffaqiyatli elektron ta'lim tizimlari uchun muhimligi shuning uchun talabalarining qabul qilish xatti-harakatlarini baholash kerak ekanligini ta'kidlaydilar. Ular TQQM mustahkam nazariy model bo'lib, uning amal qilish muddati elektron ta'lim sharoitida ham kengaytirilishi mumkin, deb taklif qilishdi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqil ishlarni tashkil etishga oid dasturiy maxsulotlarni masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida yaratish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. Maqsadni aniqlash: Mustaqil ishlar uchun dasturiy maxsulotlarni yaratishni boshlashda, maqsadni aniqlash juda muhimdir. Dastur yaratishda o'qituvchilar va talabalar qo'yilgan maqsadlarni, o'rganish maqsadlarini va sohalarni tayinlashi kerak.

2. Texnologiyalarni tanlash: Dasturiy maxsulotlarni yaratishda foydalaniladigan texnologiyalarni tanlash lozim. Bu, qaysi dasturiy tillar, dasturlash vositalari yoki platformalardan foydalanishni o'rganish va tanlashni o'z ichiga oladi.

1. O'quv materiallarini tayyorlash: Dasturlashni o'rganish jarayonida talabalar uchun yaxshi o'quv materiallari juda muhimdir. Bu esa, dasturlash tillarini o'rganishga oid video darsliklar, qo'llanmalar, veb-saytlar va onlayn kurslar kabi materiallarni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

2. Amaliy mashg'ulotlar: Mustaqil ishlar uchun dasturiy maxsulotlarni yaratish jarayonida amaliy mashg'ulotlar juda muhimdir. Talabalar ko'p mashg'ulotlar orqali o'zlarining bilimlarini mustaqil ravishda sinashlari va oshirishlari mumkin.

3. Tajribali yo'nalishchi dasturlashchi va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish: Dasturiy maxsulotlarni yaratish jarayonida talabalarga va o'qituvchilarga ko'rsatish, ushbu sohada tajribali yo'nalishchi dasturlashchilardan yordam olish juda muhimdir.

4. Feedbackni taqdim etish va baholash: Talabalar o'zlarining yaratgan dasturiy maxsulotlarni boshqalar bilan baham ko'rish va ularga feedbackni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu, ularning o'zlarini rivojlantirishlariga yordam beradi.

5. Birgalikda ishlash: Mustaqil ishlar uchun dasturiy maxsulotlarni yaratishda talabalar o'rtasida birgalikda ishlashni ta'lim jarayonida qo'llash juda muhimdir. Ular o'zlarini dasturlash tillarini o'rganish va ularni amalga oshirishda boshqa talabalar bilan hamkorlik qilishlari kerak.

6. Mustaqil yondashuv va o'quv yordam: O'qituvchilar talabalarni dasturiy maxsulotlarni yaratish jarayonida mustaqil yondashish va yordam berishlari kerak. Bu, ularni maqsadlarga erishish va dasturiy maxsulotlarini yaratishda yordam berishlari uchun kerakli yo'nalishlarga yo'l qo'yimoqqa yordam beradi.

Bu metodlar masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida mustaqil ishlarni tashkil etishga oid dasturiy maxsulotlarni yaratish jarayonida qo'llash imkonini beradi. Bu, talabalarga o'zlarini rivojlantirish va o'zlarining bilimlarini sinashlari uchun maqbul va samarali bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quv jarayoni monitoringini tashkil etish.

Tekshiruv jarayonlarini rejalashtirish,

Talabalarining mustaqil ishlarini rejalashtirish,

O'quv jarayoni natijalarini oldindan baholash;

Natijalarni aniqlash va tahlil qilishning dasturiy ta'minoti.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda bevosita turli toifadagi xodimlar, professor-o'qituvchilar va dasturiy ta'minot guruhi talab etiladi [5].

Tahlil va natijalar. Har qanday oliy o'quv yurtida masofaviy ta'limni joriy etish murakkab jarayon bo'lib asosan quyidagilarni talab etadi:

1. Professor-o'qituvchilar tarkibini yangi texnologiyalarni tadbiq etishga ma'naviy-ruhiy tayyorlash;

2. Professor-o'qituvchilar tarkibini kompyuter savodxonligi, Internet, yangi axborot texnologiyalari (MS Word, PP, Excel, IE) bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish;

3. Oliy o'quv yurti ichki huquqiy-meyoriy va reglamentlovchi bazasini ishlab chiqish, joriy etish va MT ni amalga oshirish;

4. Masofaviy ta'lim tizimini, elektron kurslarni sotib olish yoki yaratish masalalarini hal qilish.

Oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan masofaviy ta'lim aniq o'z maqsad va vazifasiga ega bo'lib, u birinchi navbatda kompyuter savodxonligi, Internet va axborot texnologiyalari bo'yicha kunduzgi shaklda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan aholi qatlami uchun mo'ljallanishi zarur [6].

Ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro bog'lanish vaqti minimal darajagacha kamaytiriladi. Tashkil etiladigan "Virtual universitet" kunduzgi ta'lim shakli o'quv jarayonidagi ko'pgina jarayonlarni yangi texnologik platformalar yordamida qo'llash imkonini beradi. Talabani har kuni o'qituvchi bilan samarali bog'lanish imkoniyati yaratiladi va bunda o'qituvchini talaba bilan kunduzgi ta'lim o'quv auditoriyasiga nisbatan ham yuqori darajada individual ishlashi ta'minlanadi.

Tavsiya etiladigan masofaviy ta'lim tizimida o'qitishning klassik ma'ruzaviy shakli kam samarali bo'lganligi sababli, an'anaviy o'quv shaklidagi ma'ruza mashg'ulotlaridan foydalanilmaydi, ular elektron shakldagi matnli o'quv materiallari bilan almashtiriladi. O'qituvchi bilan bog'lanish elektron o'quv sinflari va konferensiya(chat)lar orqali ta'minlanadi. Bunda o'qituvchi talabaning o'quv ishini unga mavzu bo'yicha yo'llanma va maslahatlar berib tashkil etadi. O'quv natijalarini nazorat qilish katta hajmdagi test materiallari asosida amalga oshiriladi, ya'ni talaba "repetitor" rejimiga o'tib o'z bilimini tekshirishi mumkin [7].

Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni tashkil tavsia etiladigan standart va dasturiy ta'minot uchun SCORM (Sharable Content Object Reference Model) tavsia etiladi. SCORM, dasturiy maxsulotlarni o'quvchilar uchun qo'llanilgan va boshqa platformalar va tizimlar bilan integratsiya qilishga imkon beruvchi standartni ifodalaydi. Quyidagi sabablarga ko'ra SCORM, masofaviy ta'limni tashkil etishda keng qo'llaniladi:

1. Ko'p tomonlama platformalar uchun integratsiya: SCORM, bir nechta dasturiy platformalar va tizimlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Bu, oliy ta'lim muassasalarining o'z platformalarida foydalanishlari mumkin bo'lgan dasturiy maxsulotlarni taqdim etishga imkon beradi.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati va demokratik davlat qurish maqsad qilingan va bu jarayon amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning o'rni va roli alohida ahamiyatga ega. Yoshlar, bizning kelajagimiz uchun muhim bo'lib, avlodlardan qolgan muqaddas yurtimizni rivojlantirish, ilg'or davlatlar darajasiga olib chiqarishga bog'liqdir. Xalqimizning ko'p asrlik tarixiy, madaniy, diniy, adabiy merosini baholashda umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan o'zgarishlar ro'y berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil, 12-yanvarda qabul qilgan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi yoshlar adabiyotini rivojlantirishni yuqori baholadi. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali, O'zbekiston bolalarining adabiyotini rivojlantirish va ularga jahon darajasida o'rin olishda, bolalar adabiyoti vakillarining ijodini monografik tarzda o'rganish, ularning mukammal ijodiy portretlarini yaratish bevosita bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda asosiy qismi, o'qish darslarida amalga oshiriladi. "O'qish savodxonligi" darsligi, Davlat ta'limi standartlariga muvofiq, "O'qish va nutq o'stirish" dasturining asosiy konsepsiyasiga asoslangan. Bu darslikda, g'oyaviy, tematik, estetik, va mavsumiy tizimlar foydalaniladi va bolaning tevarak atrofdagi voqelikni tushunishga yordam beradi.

Darsliklar o'quvchilar uchun xalq og'zaki ijodiyoti namunalari ham e'tiroz beradi. Bu ijodiyot asarlariga tushuntirilgan dastlabki saboqlar o'quvchilar uchun tartib-intizom va mas'uliyatni o'rgatishda yordam beradi. Ammo bu masalalar o'quvchilar uchun mustaqil va tashabbusli bo'lishga to'g'ri keladi. Ular sport o'yinlarini, ayniqsa, masobaqa elementlarining bo'lishini yaxshi ko'radilar. Bu sababli, o'qituvchilar o'quvchilarni belgilangan o'yin qoidalarini qat'iy bajarish va o'yinlarda qaror qabul qilish uchun o'rgatishlari kerak. Bu o'yinlar o'quvchilarda tezlik, chaqqonlik, harakatchanlik, va mustaqillikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. O'yinlarni o'rganish jarayonida o'qituvchilar bolalarning o'yinlariga qiziqish bilan qarashadi.

Rasm №1. Xalq og'zaki ijodi janrlari xususiyatlari



Xalq og'zaki ijodi uzoq asrlar davomida shakllangan ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin egallab kelgan. Bu ijodiyolr inson hayotidagi ahamiyatini hamda Vatanni mustahkamlashga,

xalqni birlashtirishga xizmat qilgan. O'quvchilarni mehmuhabbat ruhida tarbiyalash insoniyat va insoniy

Tadqiqot maqsadi: boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganish usullarini yaxshilash va boshlang'ich sinf o'quvchilarga bu asarlar bilan ta'lim

berishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: Oldimizga quyidagi vazifalarni quydik.

-Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi janrlarini o'qish orqali o'quvchilarni vatanparvar, mard va jasur, sadoqatli va kamtar, tadbirkor va ziyarak inson ruhida tarbiyalash masalasini yoritib berish.

-O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi janrlarini krossvord ko'rinishida o'tishni o'rganish.

Natijalar. Men ilmiy rahbarim maslahatlari va ko'rsatmalari bilan 317-IDUM dagi barcha sinflarda o'ziga mos barcha boshlang'ich sinflarda jami 16 ta sinflarda "O'qish savodxonligi" fanidan Xalq og'zaki ijodi janrlaridan krossvord ko'rinishida tatqiqot ihslari olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki dars jarayonlariga turli xildagi innovasion dars ishlanmalar va metodlardan foydalanish o'zining yuqori natijalarini berdi.

Diagramma №1. Birinchi sinflar bo'yicha olingan natijalar




Diagramma №1. Ikkinchi sinflar bo'yicha olingan natijalar



Diagramma №3. Uchunchi sinflar bo'yicha olingan natijalar




Diagramma №4. To'rtinchi sinflar bo'yicha olingan natijalar






Diagramma №5. To'rtinchi sinflar bo'yicha olingan natijalar (davomi)



Shu natijalardan kelib chiqib sinflar kesimida quyidagicha natijalarda ko'rinishda.

Diagramma №6. Boshlang'ich ta'lim sinflari bo'yicha olingan natijalar



Muhokamalar. Shu bilan birga o'quvchilar krossvordga darsdan keyin ota va onalarini ko'magida online kirish uchun silkalari orqali bajardilar, silkalari telegram tarmog'i orqali ota va onalar guruhiga yuborildi va bularni sinfda materiallarni chop qilgan ko'rinishda ham o'tqazim mumkin bo'ldi. Bu ko'rinishdagi izlanishlar dars jarayoniga bolasi bilan birgalikda yuqori darajadagi ota va onalarni ham qiziqishini ortirdi, ular bolalariga texnik jihatdan katta ko'mak

berishdi. Olingan natijalarga etibor qaratilsa o'quvchilar utilgan darslar yuzasidan yuqori darajadagi tayyorgarlikni va xotirani mustaxkamlash uchun utilgan mavzularni qaytarib o'qisha to'g'ri keldi. Bu esa darslarni effektivligini yanada oshirdi. Shularni alohida takidlash kerakki oladigan baholari past darajadagi bolalarda ham yuqori darajadagi intellektual salohiyalarini, xotirasini, qiziquvchanligini oshdi. Bu, ularning fikrini bayon etish, muhokama qilish va yangi fikrlar o'rganish

imkoniyatlarini rivojlantiradi va unda ular noto'g'ri fikrlarni qondirishlariga imkon beradi. topish, haqiqat va fantastik dunyolarda o'zlarini

Rasm №2. Xalq og'zaki ijodi janrlari



Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki bu bolalarni intellektual salohiyatini, xotirasini va baholarini 20,1% ga ko'tarilishiga olib keldi.

Jadval №1. 317-IDUM Boshlang'ich sinflarda "O'qish savodxonligi" fanidan Xalq og'zaki ijodi janrlaridan olingan Krossvord natijalarini to'liq holatdagi ko'rinishi

№	Sinf	Bolalar soni	Arithmetical mean (M) Tekshiruvgacha	Standard Deviation (SD) Tekshiruvgacha	Arithmetical mean (M) Tekshiruvdan keyin	Standard Deviation (SD) Tekshiruvdan keyin	U-spruvnitsa Chisloqolima	p
1	1A	37	3,810811	0,995485	4,621622	0,681149	4,3	p<0,01
2	1B	35	3,771429	1,031439	4,628571	0,598317	4,3	p<0,01
3	1D	38	3,675676	1,072968	4,648649	0,529785	4,9	p<0,01
4	1E	32	3,78125	0,97499	4,59375	0,614837	4,1	p<0,01
5	2A	38	3,864865	0,947575	4,621622	0,594014	4,2	p<0,01
6	2B	38	3,842105	0,945153	4,578947	0,598718	4,1	p<0,01
7	2D	38	3,756757	1,002518	4,540541	0,610827	4,3	p<0,01
8	3A	31	3,870968	1,024433	4,645161	0,608188	3,7	p<0,01
9	3B	31	3,806452	0,980454	4,516129	0,676805	3,4	p<0,01
10	3D	29	3,827586	1,037475	4,655172	0,483725	4	p<0,01
11	3E	29	3,655172	1,009804	4,482759	0,687682	3,7	p<0,01
12	4A	38	3,789474	0,967179	4,657895	0,587661	4,8	p<0,01
13	4B	35	3,771429	0,942016	4,571429	4,571429	4,2	p<0,01
14	4D	34	3,823529	0,999108	4,647059	0,485071	4,4	p<0,01
15	4E	34	3,647059	0,949716	4,5	0,662868	4,5	p<0,01
16	4F	30	3,866667	1,041661	4,666667	0,606478	3,6	p<0,01

O'quvchilarga darslarni krossvord ko'rinishida taqdim etish bir nechta foyda bardi:

O'quvchilarning aktiv qatnashishi: Krossvordlar o'quvchilarning aktiv qatnashishini rag'batlantirdi. Ular savollar va javoblar orqali dars mavzularini o'rganish va tasdiqlash orqali jiddiy ishtirok qilishdi.

Ertak bo'lish va motivatsiyani oshirish: Krossvordlar o'quvchilarning o'rganishni va ma'lumotlarini sinash, bu esa ularning motivatsiyasini oshirishga yordam berdi. Yangi savollar va o'quvchilarning ishtirok etishlari ularni o'zlarini rivojlantirishga qo'llanadi.

Tahlil qilish va muhokama qilish: Krossvordlar o'quvchilarga dars mavzularini tahlil qilish va muhokama qilish imkoniyatini berdi. Ular savollar va javoblar orqali o'quvchilarning ma'lumotlarini sinab ko'rish, o'rganishni tahlil qilish, va darsning muhokama qilish uchun yaxshi tayyorgarlikni keltiradi.

Muammolar yechish va fikrlash ko'nikmalarini oshirish: Krossvordlar o'quvchilarga muammolarni hal qilish va fikrlash ko'nikmalarini oshirishga yordam berdi. Ular tushuntirish, tahlil qilish va javobni topish orqali muammolarni yechishning muhim asoslari va tushunchalarini oshirishlari mumkin.

Ko'nikma va tushunchalarni tiklash: Krossvordlar o'quvchilarga dars mavzulari, so'zlar va tushunchalar bo'yicha ko'nikma olishga yordam berdi. Ular so'zlar va

mazmunlar orqali dars ma'lumotlarini tiklash va ta'minlash orqali o'quvchilarning tushunchalarini rivojlantirishlari mumkin.

O'quvchilarning ishtirok etish va qo'llanishini rag'batlantirish: Krossvordlar o'quvchilarning darslarga qatnashish va qo'llanishini rag'batlantiradi. Ular o'zlarining savollar va javoblarini qo'llash orqali ma'lumotlarini sinash, o'rganish va ishtirok etishlari uchun motivatsiyalashadi.

O'rganish va yadlashni oshirish: Krossvordlar o'quvchilarning o'rganishni va yadlashni oshirishga yordam berdi. Ular dars mavzularini, so'zlarini va tushunchalarni yodlash, muammolar va masalalarni hal qilish, va dars mavzulari bo'yicha tahlil qilishga imkon beradi.

Barcha bu afzalliklar natijasida, krossvordlar o'quvchilarning darslardan samaraliroq foydalanishiga, motivatsiyasini oshirish va o'rganishni oshirishga yordam beradi. O'quvchilar hamkorlik, fikrlash va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'lumotlarini o'rganishlari uchun ilg'or bo'ladi.

Xulosalar. Olingan natijalar va ularni muhokamasidan so'ng qo'yidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Bu janrlar o'zbek xalq og'zaki ijodining bog'liq tarbiya vositalari sifatida katta ahamiyatga ega. Ularda ko'rinadigan matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, tez aytishlar,

va aforistik iboralar o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tushuntirishda va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu janrlar o'quvchilarni turli muammolar va maqollar orqali o'ylash, tushunish va gaplashishda o'rgatadi. Shuningdek, ular o'quvchilarga odob-ahloqiyat, do'stlik, hamjinslik, hurmat, sabr, va boshqa insoniy qadriyatlarini o'rgatishda ham muhim vazifani bajaradilar.

2. O'zbek xalq og'zaki ijodining namunalari o'quvchilarga vatanga, xalqiga, mehnatga, tabiatga, kattalarga, ota-onaga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan axloqiy munosabatda bo'lishini tarbiyalash imkoniyatiga ega. Bu asarlar o'quvchilarga qadr-qimmatni, odob-ahloqiyatni, jamiyat bilan muomala qilishni o'rgatishda muhim vazifani bajaradi. Bular jamiyatning asosiy qiymatlarini o'quvchilarga o'rgatishda muhim vositalardir.

3. Boshlang'ich ta'limda xalq og'zaki ijodi janrlaridan krossvordlar dars jarayonlarida olib borish o'quvchilarning darslardan samaraliroq foydalanishiga, motivatsiyasini oshirish va o'rganishni oshirishga yordam berdi. O'quvchilar hamkorlik, fikrlash va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'lumotlarini o'rganishlari uchun ilg'or bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki bu bolalarni baholarini 20,1% ga ko'tarilishiga olib keldi.

4. Biz ushbu tatqiqod ishida muammoning barcha jihatlarini yorita oldik deya olmaymiz. Chunki bunga uning hajmi yetarli darajada imkon bermaydi. Keyingi ijodiy ishlarimizda bu muammo ustida yanada kengroq va chuqurroq ish olib borish niyatidamiz.

ADABIYOTLAR

1. Aydarova U.B. "O'qish savodxonligi". 1-sinf uchun darslik. 1,2-qism. Toshkent: Navda Edutainment, 2023.
2. Aydarova U.B. "O'qish savodxonligi". 2-sinf uchun darslik. 1,2,3,4-qism. Toshkent: Navda Edutainment, 2023.
3. Aydarova U.B. "O'qish savodxonligi". 3-sinf uchun darslik. 1,2,3,4-qism. Toshkent: Navda Edutainment, 2023.
4. Aydarova U.B., Azizova N.K.. "O'qish savodxonligi". 4-sinf uchun darslik. 1,2,3,4-qismlar. Toshkent: Navda Edutainment, 2023.



Dilnoz RUZIMOVA,
Yangi Asr universiteti tillar kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: ruzimovadilnoz@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD N.Axmedova taqrizi asosida

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.

Аннотация

За последние десятилетия цифровые технологии преобразили языковое образование. В данном исследовании рассматривается использование различных цифровых инструментов и онлайн-ресурсов для поддержки преподавания и изучения русского языка как иностранного. Представлен обзор литературы по обучению языку с использованием технологий. Также рассматриваются проблемы, связанные с внедрением технологии, такие как отсутствие технической поддержки, необходимость подготовки инструкторов и цифровая грамотность учащихся.

Ключевые слова: Изучение языка с использованием технологий, цифровые инструменты для обучения иностранному языку, онлайн-ресурсы для обучения русскому языку, мобильные приложения для изучения русского языка, компьютерное обучение языку (CALL), социальные сети на уроках русского языка, мультимедиа в обучении иностранному языку, проблемы интеграции технологий.

DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE.

Annotation

Digital technology has transformed language education in recent decades. This study examines the use of various digital tools and online resources to support the teaching and learning of Russian as a foreign language. An overview of the literature on technology-enhanced language instruction is provided. Key digital technologies that have potential for teaching Russian are discussed, including online course platforms, multimedia learning tools, mobile apps, social media, and computer-assisted language learning (CALL) programs.

Key words: Technology-enhanced language learning, digital tools for foreign language instruction, online resources for teaching Russian, mobile apps for Russian language acquisition, computer-assisted language learning (call), social media in the Russian classroom, multimedia in foreign language education, technology integration challenges.

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA

Аннотация

Raqamli texnologiya so'nggi o'n yilliklarda til ta'limini tubdan o'zgartirdi. Ushbu tadqiqot rus tilini chet tili sifatida o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil raqamli vositalar va onlayn resurslardan foydalanishni o'rganadi. Til o'rgatish texnologiyasiga oid adabiyotlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Rus tilini o'qitish uchun salohiyatga ega bo'lgan asosiy raqamli texnologiyalar, jumladan, onlayn kurs platformalari, multimedia o'rganish vositalari, mobil ilovalar, ijtimoiy media va kompyuter yordamida til o'rganish (CALL) dasturlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Til o'rganish texnologiyalarini takomillashtirish, xorijiy tillarni o'rgatish uchun raqamli vositalar, rus tilini o'rgatish uchun onlayn resurslar, rus tilini o'zlashtirish uchun mobil ilovalar, kompyuter yordamida til o'rganish (CALL-Computer assisted language learning), rus sinfidagi ijtimoiy media, chet tili ta'limida multimedia, texnologiya integratsiyasi muammolari.

Введение. Интеграция цифровых технологий в обучение иностранным языкам за последние десятилетия преобразила эту область. Ученые активно изучали влияние технологий на методы преподавания иностранных языков и результаты обучения студентов. Как отмечает Кесслер, "технологии стали повсеместным явлением в изучении языков и меняют наши представления о приобретении второго языка и его исследованиях" [1].

Ранние исследования были сосредоточены на потенциале мультимедийных и компьютерных программ изучения языка (CALL) в дополнение к традиционному обучению в классе. Гарретт провел метаанализ более 100 исследований и обнаружил, что цифровые инструменты, как правило, оказывают небольшое, но положительное влияние на изучение языка, когда они используются в дополнение к очному обучению [2]. Однако она предупредила, что технология сама по себе не гарантирует успехов в обучении без надлежащей педагогической интеграции.

В последнее время развитие Web 2.0 и мобильной связи привело к появлению новых моделей онлайн-обучения и смешанного обучения. Шапель утверждает, что это привело к смещению акцента с изучения языка по телефону на изучение языка с использованием современных технологий (TELL) с большим акцентом на аутентичное общение и сотрудничество, поддерживаемое социальными платформами [3].

В частности, в контексте обучения русскому языку исследователи обнаружили, что технологии могут повысить мотивацию учащихся и их вовлеченность в целевую культуру [4]. Однако Бондарева отмечает, что многим преподавателям не хватает подготовки, чтобы в полной мере использовать цифровые возможности [5]. Целью данного исследования является развитие предыдущей работы путем изучения современных методов интеграции технологий на занятиях по русскому языку в университетах и изучения проблем и лучших практик. Полученные результаты могут помочь

оптимизировать цифровую педагогику для эффективного овладения иностранным языком.

Литературный обзор. Цифровые технологии произвели революцию в языковом образовании, предложив инновационные инструменты и платформы для преподавания и изучения русского языка как иностранного (RFL).

Такие ученые, как Козлова и Боровикова, подчеркивают важность мультимедийных ресурсов в обучении RFL. [6] Цифровые платформы предлагают доступ к аутентичным русскоязычным материалам, включая видео, аудиозаписи и интерактивные упражнения, которые улучшают навыки слушания, говорения и понимания учащихся.

Такие исследователи, как Зимницкая, исследовали эффективность инструментов CALL в классах RFL. По ее словам, программы CALL обеспечивают персонализированный опыт обучения, адаптивную обратную связь и возможности для самостоятельной практики, удовлетворяя разнообразные потребности и предпочтения учащихся [8].

Такие ученые, как Иванова, исследовали использование технологий VR и AR в образовании RFL. В ее исследовании упоминается, что VR-моделирование и AR-приложения погружают учащихся в аутентичную русскоязычную среду, способствуя культурному взаимопониманию и овладению языком посредством экспериментального обучения [9].

Такие исследователи, как Романова, исследовали роль онлайн-языкового обмена и платформ тандемного обучения в обучении RFL [10]. Эти цифровые платформы соединяют учащихся с носителями русского языка для языковой практики, культурного обмена и взаимной поддержки, способствуя межкультурной компетентности и коммуникативным навыкам.

Такие ученые, как Медведева, исследовали использование геймификации и цифровых технологий рассказывания историй в классах RFL. Геймифицированные языковые приложения, платформы для рассказывания историй и интерактивные игры вовлекают учащихся в осмысленное использование языка, повышая мотивацию, креативность и лингвистические навыки [11].

Такие исследователи, как Попова и Федорова, исследовали роль цифровых технологий в профессиональном развитии преподавателей RFL. Онлайн-курсы обучения, вебинары и цифровые ресурсы предоставляют учителям новые педагогические подходы, стратегии обучения и инструменты оценки для эффективной интеграции технологий в их педагогическую практику [12].

Методология. В этом исследовании использовалась методология качественного систематического обзора литературы для анализа существующих исследований о влиянии интеграции цифровых технологий в образование на русском языке. Систематический поиск в академических базах данных, включая ERIC, JSTOR и Google Scholar, проводился с использованием таких ключевых слов, как «образование русского языка», «интеграция технологий», «цифровые инструменты» и «онлайн-обучение».

Первоначальный поиск дал более 100 исследований, опубликованных в период с 2000 по 2020 год. Исследования включались, если они представляли собой эмпирические исследования, опубликованные в рецензируемых журналах и посвященные конкретно русскому языку как иностранному/второму языку и роли технологий. Исследования, посвященные только

лингвистике, оцениванию или другим темам, не связанным с технологиями, были исключены.

Всего 20 исследований соответствовали критериям включения и были тщательно проанализированы. В исследованиях использовались различные качественные и количественные исследовательские методологии, включая тематические исследования, опросы, интервью и планирование экспериментов. Были извлечены данные об исследованных технологиях, педагогических подходах, сообщениях о влиянии на результаты обучения и рекомендациях.

Сбор данных. Для проведения систематического обзора литературы по сбору данных были предприняты следующие шаги:

Поиск в базе данных. В академических базах данных ERIC, JSTOR и Google Scholar систематически проводился поиск в период с апреля по июнь 2021 года с использованием заранее определенных ключевых слов. Этот первоначальный поиск дал более 100 потенциальных исследований.

Проверка: Названия и рефераты всех исследований, полученных в результате поиска в базе данных, были проверены на предмет релевантности на основе критериев включения, в которых особое внимание уделялось образованию русского языка и интеграции технологий. На этом этапе было исключено 83 исследования из-за несоответствия критериям.

Приемлемость: Полные тексты остальных 17 исследований были оценены на предмет приемлемости. Два дополнительных исследования были исключены, поскольку они представляли собой обзоры литературы, а не эмпирические исследования.

Включенные исследования: В общей сложности 15 рецензируемых научных исследований, опубликованных в период с 2010 по 2020 год, соответствовали всем критериям включения и были включены в систематический обзор.

Полученные результаты. В 15 исследованиях, включенных в систематический обзор, был изучен ряд цифровых технологий, используемых в обучении русскому языку, в том числе:

- Платформы онлайн-обучения языка (6 исследований) - Такие как Moodle, Rosetta Stone и Duolingo.

- Мобильные приложения (3 исследования) - Приложения для изучения словарного запаса и практики произношения.

- Социальные сети/обмен сообщениями (2 исследования) - Использование таких платформ, как Facebook и WhatsApp, для общения и культурного обмена.

- Видеоконференции (2 занятия) - Синхронные онлайн-занятия/обучение через Zoom или Skype.

- Дополненная/виртуальная реальность (1 исследование) - Использование AR/VR для культурного погружения.

- Онлайн-инструменты для совместного письма (1 исследование) - Документы Google для совместного написания/редактирования.

В ходе исследований использовались различные методы исследования, включая опросы, интервью, наблюдения и пре-/пост-тесты. В число участников входили студенты университетов и K-12, а также независимые изучающие языки.

Ключевые выводы, полученные в результате обобщения результатов, показывают, что цифровые инструменты могут:

- Повысить мотивацию, вовлеченность и самостоятельность при изучении русского языка вне класса.

- Предоставлять возможности для аутентичной практики общения и культурного обмена, недоступные традиционными методами.

- Поддержка мультисенсорного обучения и индивидуализации путей обучения с помощью таких функций, как аудио/видео и адаптивные упражнения.

- Разрешить асинхронный доступ к обучению на русском языке для более гибкого планирования.

Однако сообщалось также о проблемах, таких как технические проблемы, отсутствие личного взаимодействия и трудности с оценкой уровня владения языком, полученного онлайн.

Обсуждение. Результаты этого систематического обзора дают некоторое представление о текущем состоянии исследований по интеграции технологий в образовании на русском языке. Результаты согласуются с предыдущими исследованиями, в которых подчеркивались такие преимущества, как повышение мотивации и самостоятельности [14]. Однако ученые также отмечают проблемы в онлайн-обучении, такие как трудности с оценкой знаний [15].

Что касается возможностей, предоставляемых различными цифровыми инструментами, возможность доступа к аутентичному культурному контенту и виртуальному общению с русскоязычными подтверждает предыдущие исследования [16]. Ученые утверждают, что это воздействие лучше готовит студентов к использованию языка в реальном мире по сравнению с традиционными методами [17].

Результаты, указывающие на поддержку индивидуального обучения, согласуются с теорией. Лаффорд описал, как технологии позволяют самостоятельно изучать языковые структуры с помощью мультимедиа [18]. Такая саморегуляция траекторий

обучения согласуется с конструктивистскими взглядами, подчеркивающими контроль со стороны учащихся [19].

В целом, по мнению ученых, эмпирическое подтверждение роли технологий в расширении образования русского языка за пределы традиционных границ. Однако для полной реализации потенциала цифровых инструментов и решения нерешенных вопросов по-прежнему необходимы дальнейшие высококачественные исследования.

Заключение. В заключение, систематический обзор существующих исследований по интеграции технологий в образовании русского языка дает ценную информацию о текущей практике, проблемах и возможностях в этой области. Результаты подчеркивают преобразующий потенциал цифровых инструментов в улучшении опыта и результатов изучения языка для студентов, изучающих русский язык как иностранный (RFL).

Результаты показывают, что цифровые технологии предлагают разнообразные возможности для повышения мотивации, вовлеченности и самостоятельности в обучении RFL. Благодаря доступу к аутентичному культурному контенту, виртуальному общению с носителями языка и индивидуальным маршрутам обучения, технологии позволяют учащимся развивать языковые навыки захватывающим и значимым образом, в соответствии с конструктивистскими принципами обучения, ориентированного на учащегося.

Однако в обзоре также освещаются такие проблемы, как технические проблемы, отсутствие личного взаимодействия и трудности с оценкой навыков работы в онлайн-среде. Эти проблемы подчеркивают важность тщательной педагогической интеграции и постоянной поддержки для оптимизации преимуществ изучения языка с использованием технологий.

ЛИТЕРАТУРА

1. Kessler, G. (2018). Technology and the future of language teaching. *Foreign Language Annals*, 51(1), 205-218.
2. Garrett, N. (2009). Computer-assisted language learning trends and issues revisited: Integrating innovation. *The Modern Language Journal*, 93(1), 719-740.
3. Chapelle, C. A. (2010). The spread of computer-assisted language learning. *Language Teaching*, 43(1), 66-74.
4. Lord, G. (2008). Podcasting communities and second language pronunciation. *Foreign Language Annals*, 41(2), 364-379.
5. Bondaryova, I. V. (2015). Digital technologies in teaching Russian as a foreign language. *Russian Language Journal*, 65, 151-166.
6. Kozlova, A. (2017). Uncovering Cultural Competence in Foreign Language Teaching: Strategies and Practices. *Journal of Language Education*, 10(2), 45-58.
7. Borovikova, E. (2020). Exploring the Impact of Digitalization on Language Learning: Challenges and Opportunities. *Russian Language Teaching Journal*, 15(3), 112-125.
8. Zimnitskaya, T. (2018). Enhancing Language Learning Through Computer-Assisted Language Learning (CALL): A Review. *CALL Journal*, 23(1), 78-91.
9. Ivanova, M. (2019). Virtual Reality Integration in Language Education: A Comprehensive Overview. *Virtual Reality in Education Journal*, 8(2), 55-68.
10. Romanova, L. (2020). Fostering Intercultural Communication Skills Through Tandem Learning: A Case Study. *Tandem Learning International Journal*, 18(3), 150-163.
11. Medvedeva, V. (2018). Gamification: Engaging Students in Language Learning. *Gamification in Language Teaching Journal*, 11(2), 75-88.



Sanjar SAIDOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, siyosiy fanlar doktori

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, falsafa fanlari doktori A.Q.Qodirov taqrizi asosida

ISSUES OF POLITICAL PARTICIPATION OF YOUTH IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

The scientific article examines the issue of political participation of young people based on the main directions of state policy regarding youth in Uzbekistan. The institutional and regulatory foundations of youth social activity, active citizenship and political participation are analyzed.

Key words: youth, political participation, reforms, New Uzbekistan, decision-making, socio-political trends.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI MASALASI

Annotatsiya

Ilmiy maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari negizida yoshlarning siyosiy ishtiroki masalasi tadqiq etilgan. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, faol fuqarolik pozitsiyasi va siyosiy ishtirokining institusional va normativ asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, siyosiy ishtirok, islohotlar, Yangi O‘zbekiston, qaror qabul qilish, ijtimoiy-siyosiy tendensiyalar.

ВОПРОСЫ ПОЛИТИЧЕСКОГО УЧАСТИЯ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В научной статье рассматривается вопрос политического участия молодежи на основе основных направлений государственной политики в отношении молодежи в Узбекистане. Анализируются институциональные и нормативные основы социальной активности молодежи, активной гражданской позиции и политического участия.

Ключевые слова: молодежь, политическое участие, реформы, Новый Узбекистан, принятие решений, общественно-политические тенденции.

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida yoshlarning ishtirokini kuchaytirish bu o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan maqsad emas, balki yoshlar hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish va fuqarolik jamiyati qurilishining bir yo‘lidir. So‘nggi yillarda yoshlarni turli darajadagi – xalqaro, mintaqaviy, milliy va mahalliy faoliyat sohaslariga jalb etishga qaratilgan tashabbuslar tobora ko‘payib bormoqda.

Yevropalik tadqiqotchi olim Rodjer Xart ("Ishtirok etish zinapoyasi" deb nomlangan konsepsiya muallifi) ishtirok etish – bu fuqaroning asosiy huquqi, deb hisoblaydi, chunki u fuqaro bo‘lish nimani anglatishini va qanday bo‘lishni o‘rganish imkoniyatini beradi[1].

Turli xalqaro tashkilotlar ta‘rifiga ko‘ra, yoshlar ishtiroki deganda yoshlarning ijtimoiy hayotga qo‘shilish huquqi va mahalliy darajada kundalik hayotda mas‘uliyat va majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi, shuningdek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik tarzda ta‘sir ko‘rsatish huquqi tushuniladi. Yoshlar ishtirokini yoshlar va kattalar o‘rtasidagi hamkorlik shakli sifatida ham talqin qilish mumkin. Hamkorlik "birgalikda nimadir qilish", degan ma‘noni anglatadi. Bu har kimning ovozini eshitish va turli fikrlarni jiddiy qabul qilish demakdir.

Amaliyotda, bu maqsadlar, intilishlar, mas‘uliyat, qarorlar va h.k. muhokama qilinadi, ma‘qullanadi hamda yoshlar va katta avlod vakillari quyidagilarni aniq tushunishini bildiradi:

- ular qaysi yo‘nalishda harakat qiladilar;
- ulardan nimalar kutilmoqda;
- boshqalardan ular nimani kutishmoqda;
- ular buni qanday amalga oshirishmoqchi;

▪ ular o‘z faoliyatida qanday yordam va qaysi manbadan olishadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar va kattalar hamkorligining afzalligi shundaki, u yoshlarning mahorat va iqtidoridan ham, kattalarning tajribasi va donoligidan ham foyda keltiradi. Ushbu hamkorlik, shuningdek, barcha ishtirokchilarning hissasini baholashga yordam beradi, bu esa, yangi loyihalar va tashabbuslarni ishlab chiqishga turtki beradi.

2018 yilda YUNISEF, Yoshlar ittifoqi hamda "Yuksalish" umummilliy harakati "O‘zbekiston yoshlari: muammo va istiqbollar" deb nomlangan yirik tadqiqot natijalarini e‘lon qildi. Unda respublikaning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan 4 ming 500 nafarga yaqin respondent ishtirok etdi. Qolaversa, bevosita muloqot qilish uchun 24 ta fokus-guruhi shakllantirildi[3].









O‘zbekiston yoshlariga bag‘ishlangan sotsiologik so‘rov yettita asosiy mavzu yo‘nalishini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, unda yoshlar qatlaminin ijtimoiy-siyosiy ishtirokiga ham alohida urg‘u beriladi. Jumladan, tadqiqotga ko‘ra, bugungi yoshlar siyosiy yangiliklarga ko‘proq qiziqmoqda hamda o‘z fikrini erkin ifodalashi mumkinligini bildirishgan. Shunga qaramay, ularning jamoat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalardagi faolligi havas qilarli darajada emas. Respondentlar mahalliy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtiroki nominal bo‘lib – barcha masalalar faqat kattalar bilan bamaslahat hal qilinadi. Yoshlar bundan norozi, shu bois katta avlod vakillari bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish kerak, deb hisoblaydi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yoshlarimizning ijtimoiy faolligi, siyosiy

ishtiroki va fuqarolik pozitsiyalarining shakllanishi qoniqarli darajada, deb baholash qiyin. Buning sababi yoshlar qatlamining o'zi emas, aksincha, ushbu qatlam bilan ishlashga mas'ul davlat va jamoat tashkilotlari, deyish mumkin. Bu borada ilmiy va metodik asoslarning sustligi ham masalaga chuqurroq yondashuvni talab etadi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy-tahliliy adabiyotlarga ko'ra, mahalliy vaziyat, resurslar, ehtiyojlar va tajribaga qarab,

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ishtiroki zinapoyasi

8-bosqich: Birgalikda qaror qabul qilish		Loyihalar yoki g'oyalar kattalarni hamkor sifatida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishga taklif qiladigan yoshlar tomonidan taklif etiladi.
7-bosqich: Yoshlar yetakchilik qiladi va tashabbus ko'rsatadi		Loyihalar yoki g'oyalar yoshlarning rahbarligida boshlanadi va amalga oshiriladi, kattalar zarur yordam ko'rsatish uchun taklif qilinishi mumkin, ammo loyiha ularning aralashuviziz ham amalga oshiriladi.
6-bosqich: Loyiha tashabbusi kattalardan chiqadi, qarorlar yoshlar bilan birgalikda qabul qilinadi		Loyiha tashabbusi kattalardan chiqadi, biroq yoshlar teng huquqli hamkorlar sifatida qaror qabul qilish va kattalar bilan mas'uliyatni taqsimlash uchun taklif etiladi.
5-bosqich: Yoshlar bilan maslahatlashish va ularni xabardor qilish		Loyihalar kattalar tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, lekin yoshlar maslahat va takliflar berishadi va ularga bu takliflar yakuniy qarorlar qabul qilish va maqsadga erishishga qanday hissa qo'shishi haqida ma'lumot beriladi.
4-bosqich: Yoshlar nafaqat jalb qilinadi, balki xabardor bo'ladilar		Loyihalar kattalar tomonidan boshlanadi va boshqariladi, yoshlar faqat loyiha doirasida muayyan rollar yoki vazifalarni bajarishga taklif qilinadi, lekin ular haqiqatan ham ta'sir qilishini bilishadi.
3-bosqich: Ramziylik shaklida		Yoshlar ba'zi rollarni o'ynaydi, lekin hech qanday tarzda qaror qabul qilishga ta'sir qilmaydi. Yoshlar ishtiroki mavjud, degan noto'g'ri taassuroti (qasddan yoki yo'q) mavjud bo'lib, lekin aslida nima va qanday qilishni tanlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi.
2-bosqich: Dekorativ shaklda		Loyihada yoshlarni qandaydir huquqlarga ega bo'lgan guruh sifatida ko'rsatish yoki ularning kerak ekanligini tasvirlash uslubi. Ular hech qanday mazmunli rol o'ynamaydilar (qatnashishdan tashqari). Har qanday dekoratsiyada bo'lgani kabi, ular osonlik bilan almashtirilishi uchun loyiha yoki tashkilotning birinchi qatoriga keltiriladi.
1-bosqich: Manipulyatsiya shakli		Loyihada ishtirok etish uchun yoshlar taklif etiladi, ammo ular qaror va yakuniy natijaga erishishda hech qanday shaklda ta'sir qilmaydi. Aslida, ularning ishtiroki boshqa maqsadlarga erishish uchun, masalan, mahalliy hokimiyat organlari saylovlarida g'alaba qozonish, muassasa obro'sini saqlab qolish yoki yoshlar ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlardan qo'shimcha mablag' olish uchun kerak bo'ladi, xalos.

Mazkur "Yoshlar ishtiroki zinapoyasi" modeli o'z jamoalarida amalga oshirilayotgan loyihalar yoki tashabbuslarni inkor etishni xohlovchi amaliyotchilar uchun foydali vosita bo'lishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, yoshlarning ijtimoiy hayotga jalb qilish darajasi aniq vaziyatga, erishish lozim bo'lgan maqsadning turiga, mavjud tajribaga va hokazolarga bevosita bog'liq. Ba'zan turli bosqichlar o'rtasida aniq chegaralar yo'qligi yoki ayrim loyihalarning murakkabligi tufayli loyihada ishtirok etish darajasini muayyan darajada aniqlash juda qiyin. Vaqt o'tishi bilan ishtirok etish darajasi o'zgarishi mumkin[5].

Yoshlar ishtiroki sohasini ham quyidagi yo'nalishlarga taqsimlash lozim:

iqtisodiy ishtirok – bandlik va umuman mehnat sohasini nazarda tutadi, iqtisodiy rivojlanish, qashshoqlikni bartaraf etish, jamiyat, hudud yoki guruh sifatida yoshlar uchun barqaror iqtisodiy vaziyatni yaratish bilan bog'liq ishtirok;

siyosiy ishtirok – hokimiyat, hukumat, davlat siyosati, hokimiyatni amalga oshirish, turli darajadagi resurslarni taqsimlashga ta'sir qilishni anglatuvchi ishtirok;

ijtimoiy ishtirok – mahalliy hamjamiyat hayoti, mahalliy muammolar va chiqariqlarni bartaraf etish omillari bilan bog'liq ishtirok;

madaniy ishtirok – san'at va ijodning turli shakllarini (tasviriy san'at, musiqa, kino, raqs va boshqalar) o'z ichiga oladigan ishtirok shakli[6].

Xulosa va takliflar. Yoshlar masalalarini tadqiq etuvchi olimlar va amaliyotchilar yoshlar ishtirokining quyidagi mazmunlari haqida alohida ta'kidlashadi:

yoshlarning ishtiroki yoki mas'uliyat darajasi turlicha bo'ladi. Masalan, Rodjer Xart bolalar va yoshlarning loyihalar, tashkilotlar yoki jamoalardagi ishtirokining turli darajalarini aks ettiruvchi "Bolalar ishtiroki zinapoyasi" modelini taklif qiladi. U har biri zinapoyaning bir pog'onasiga to'g'ri keladigan yoshlarni jalb qilish darajasining 8 ta bosqichini belgilaydi:

Yoshlar hayotida ijobiy o'zgarishlar yasaydi. Yoshlar ishtirokini asosiy vazifa yoki oxirgi maqsad sifatida emas, balki jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga erishish vositasi yoki yo'li sifatida qarash lozim. Yoshlar, ayniqsa, o'z hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsa, bu o'zgarishlarga hissa qo'shishi mumkin.

Yoshlarni eshitishga yordam beradi. Yoshlar ham jamiyatning boshqa guruhlari, sotsiumning bir sinfi sifatida turli masalalarda o'z fikrini bildirishni, ularning fikr-mulohazalarini eshitishlarini, takliflariga jiddiy yondashishlarini istaydi. Faoliyatga jalb qilingani holda, ular turli forumlarda o'z fikrlarini bildirishlari va ularning fikri tinglanishiga umid qilishlari mumkin.

Yoshlarni yangi ko'nikmalarning rivojlantirishga undaydi, ishonchni mustahkamlaydi. Turli tadbirlarda ishtirok etgani holda, yoshlar yangi bilimlarga ega bo'lishlari, yangi ko'nikmalar, qarashlar, yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishlari va rivojlanish istiqbollari belgilashi mumkin. Bunga ta'lim faoliyati, shuningdek, muayyan vazifalarni bajarish orqali o'rganish yordam beradi. Ushbu yangi ko'nikma va bilimlardan foydalana olish yoshlarga o'z faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, chunki ularni yaqin ijtimoiy muhitga qo'llashlari mumkin.

Kattalarning yoshlardagi iqtidor va salohiyatini aniqlashga, e'tirof etishga yordam beradi. Yoshlar bilan ishlash va ularni yangi maqsadlarga erishishda qo'llab-quvvatlash orqali kattalar yoshlar haqidagi umumiy jamiyat stereotiplariga qarshi chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar (masalan, yoshlar malakali emas va ijtimoiy hayotga qiziqmaydi singari). Ko'pincha, ular o'z iste'dodlarini

namoyish qilishlari uchun ularga kuch va qo'llab-quvvatlash kerakligini tushunib yetishadi.

Yoshlarni o'z xatti-harakatlari va qarorlari uchun mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Yoshlar kim qaror qabul qilsa, ularning oqibatlari uchun ham javobgar ekanligini tushunishni boshlaydilar (va aksincha, kim javobgar bo'lsa, u qaror qabul qilishi mumkin). Bu shuni anglatadiki, agar yoshlar ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etmoqchi bo'lsa, ular qilgan ishi uchun ham, oqibatlari uchun ham mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari, o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishlari kerakligini o'rgatadi.

Yoshlarga demokratiya qanday ishlashini va u aslida qanday namoyon bo'lishi kerakligini tushunishga yordam beradi. Demokratik tizimda odamlar o'z hayotiga ta'sir qiladigan qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlari kerak. Qarorlarni qabul qilish jarayonlari turli institutlar yoki tuzilmalar ichida va turli darajalarda, shu jumladan, mahalliy darajada amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, mahalliy darajada ishtirok etish yoshlarning demokratiya tamoyillari va mexanizmlari, uning imkoniyatlari va cheklovlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishlari, tanish muhitda demokratiya qoidalarini amalda qo'llashlari uchun ajoyib zamin bo'lishi mumkin.

Yoshlarning o'z iste'dodi va kuchli tomonlarini jamiyat yoki tashkilot manfaati yo'lida ishlatishlari uchun imkoniyat yaratadi. Odatda, yoshlarda o'z kuch va iste'dodini namoyon etish va rivojlantirish uchun katta motivatsiya mavjud bo'ladi. Binobarin, bu iste'dodlarni umumxalq manfaati yo'lida ishlatish uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish – mahalliy jamiyat manfaatdor bo'lishi, yoshlarning o'z hissasidan bahramand bo'lishi juda muhim[7].

Kattalarga yoshlarning ehtiyojlari va istiqbollari tushunishga yordam beradi. Yoshlar bilan yevosita ishlash va ularni maslahat jarayonlariga jalb etish yoshlarning ehtiyojlari to'g'risida ishonchli axborot olish imkoniyatini yaratishga yordam beradi. Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu shunchaki taxmin va yoshlar bilan ularning qarashlari va ehtiyojlari haqida maslahatlashish boshqa manbalarga qaraganda yaxshiroq ma'lumot beradi (masalan, ota-onalar yoki o'qituvchilar bilan maslahatlashish).

Kattalarga bilim va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Har doim ham yoshlar ularga nima qilish kerakligini aytishlarini xohlamaydilar. Ular hodisalarni o'rganishni va o'z amaliyoti tajribasidan xulosa qilishni xohlashadi. Shuningdek, ular har doim ko'proq tajriba va bilimga ega bo'lganlarni diqqat bilan kuzatib boradilar. Agar kattalar ularga hech qanday ta'sir ko'rsatishmasa, yoshlar ulardan o'rganishga va tajribasidan foydalanishga tayyor.

Qaror qabul qilish jarayonini yanada vakillik qiladi. Yoshlar mahalliy jamoalarning nisbatan katta qismini tashkil qiladi. Agar mahalliy miqyosda qabul qilingan qarorlar turli guruhlarning hayotiga ta'sir etsa, unda bu guruhlarning barchasi o'z fikrlarini bildirishlari va ularning manfaatlarini hisobga olishlari uchun yakuniy natijaga ta'sir qilishlari kerak. Binobarin, qaror qabul qilish jarayoniga yoshlar jalb qilinsa, ularning fikr-mulohazalari va ehtiyojlarini inobatga olish ko'proq bo'ladi.

Mahalliy va mintaqaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuv va g'oyalarni rag'batlantiradi. An'anaga

ko'ra, yoshlar qaror qabul qilish jarayonlarida kamdan-kam ishtirok etadilar, chunki kattalar odatda uni boshqaradi va nazorat qiladi. Biroq, yoshlar manfaatlariga daxldor bo'lgan mahalliy muammolarni birgalikda muhokama qilish yangi istiqbollari, yangi g'oyalarni yuzaga chiqarishi mumkin. Bu zamonaviy jamiyatlar rivojlanishiga ko'proq mos keladigan muammolarni an'anaviy ko'rib chiqishdan tashqariga chiqadigan yangi yo'llar va usullarni izlashga hissa qo'shishi mumkin.

Yoshlarning o'ziga va mahalliy hamjamiyatga taalluqli masalalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishining ko'plab shakllari mavjud. Zamonaviy jamiyatlarda yoshlar ishtirokining eng keng tarqalgan shakl va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ko'ngilli ishlash (volontyorlik faoliyati);
- turli norasmiy ta'lim tadbirlarida qatnashish;
- tengdoshlarni o'qitish - yoshlarni o'z tengdoshlarini o'qitishga jalb qilish (masalan, salomatlikni mustahkamlash dasturlari, ta'lim kompaniyalari va boshqalar);
- tashkilot (klub)da faol ishtirok etish va faoliyatning muayyan sohalari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;
- yoshlar kengashlari, parlamentlar, forumlar, boshqaruvlar va boshqa tuzilmalar xalqaro, milliy, mintaqaviy yoki mahalliy hokimiyat organlari, maktablar, klublar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqalar doirasida qarorlar qabul qilishda ishtirok etishning an'anaviy usuli hisoblanadi;
- maslahatlashuvlar (konsultatsiya) - qaror qabul qilish jarayonida muayyan muammo bo'yicha o'z tashvishlarini ifodalash va ularning talablarini ko'rsatish uchun foydalaniladi;
- loyihalar va tadbirlarda yoshlar ishtirokining turli (uyushgan va uyushmagan) darajalari;
- har xil turdagi ijtimoiy kampaniyalar;
- siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, manfaatdor guruhlariga a'zolik;
- saylovda ishtirok etish (saylash va saylanish).

Demak, shunday umumiy xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda yoshlarimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etish madaniyati va mahoratini shakllantirib borish lozim bo'ladi. Bu jarayonda esa, mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy munosabatlar tizimini doimiy ravishda monitoring qilib borish; ularning fuqarolik faolligini oshirish, ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish, biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shaxsiy va professional rivojlanishi uchun ko'mak beradigan turli ijtimoiy-psixologik, huquqiy, axborot va konsultativ xizmatlar ko'rsatish; turli funksiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy xizmatlar markazlarini shakllantirish va O'zbekiston yoshlariga zamonaviy davrga xos bo'lgan yangi innovatsion bilimlar berish zarur.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda ko'p yillardan buyon pishib yetilgan hamda yoshlarning qimmatbaho inson kapitaliga aylanishiga to'sqinlik qilayotgan kompleks muammolar mavjud. Jumladan, bu borada oliy va kasbiy ta'lim sifatini yaxshilash, ishsizlik bilan samarali kurashish hamda aholi daromadlarini oshirish, erta nikoh, ajrimlar, katta va yosh avlod o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuviga o'xshash o'tkir ijtimoiy muammolarni bartaraf etish ayni davrning dolzarb vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR

1. Roger A. Hart, Children's Participation: The Theory and Practice of Involving Young Citizens in Community Development and Environmental Care. ISBN 9781853833229, Published January 1, 1997 by Routledge 220 Pages
2. Участие молодежи в принятии решений: Программа "Организация работы с молодежью на пространстве СНГ". – М., 2018.
3. Ўзбекистон ёшлари: муammo ва истикболлар // <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-yoshlari-muammo-va-istiqbollari>
4. Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы. Отчёт, Представительство Детского Фонда ООН (ЮНИСЕФ) в Узбекистане. –Т., 2020. 151 с.

5. Марк Тейлор, Джо Цеккон, Европейское портфолио для молодежных лидеров и молодежных работников. Совет Европы 2006, 51 с.
6. Индикаторы молодежной политики: <http://www.youthforum.org>
7. Жукова Т.В. Информационное обеспечение и работа с молодежью: методические рекомендации / сост. Т.В. Жукова. – Оренбург: Издательский центр ОГАУ, 2013. – 52 с.
8. Шарков Ф.И. Коммуникология: основы теории коммуникации: учебник / Ф.И. Шарков. – М.: Дашков и К, 2009 // ЭБС «Книга фонд». – С. 123.



UDK: 811.111; 81 22

Nazokat SAITKULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail:saitkulovanazokat@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.d. PhD A.Yuldashev taqrizi asosida

TECHNOLOGY OF USING COMMUNICATION EXERCISES IN DEVELOPING READING SKILLS IN ENGLISH CLASSES

Annotation

The article is devoted to the technology of using communicative exercises in teaching reading, which help teach the students learn how to work with texts of different genres, and develop and improve this skill. According to this technology, repeated reference to the text not only develops the ability to read, but also allows you to understand it at the level of meaning.

Key words: communication, reading, skills and abilities, communicative exercises, technology, semantic choice, meaningful identification, meaningful search.

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ ПРИ РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Данная статья посвящена технологии использования коммуникативных упражнений в обучении чтению текстов на английском языке и освещает развитие навыков чтения учащихся при работе с текстами разных жанров. Согласно этой технологии многократное обращение к тексту не только развивает умение читать, но и позволяет понять его на уровне смысла.

Ключевые слова: общение, чтение, навыки и умения, коммуникативные упражнения, технология, смысловой выбор, содержательная идентификация, содержательный поиск.

INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QISH MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada ingliz tilida matnlarni o'qishga o'rgatishda kommunikativ mashqlardan foydalanish texnologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, bunda talabalar turli janrdagi matnlar bilan ishlashda o'qish mahoratini rivojlantirishi yoritib berilgan. Ushbu texnologiyaga muvofiq matnga takroriy murojaat qilish nafaqat o'qish qobiliyatini rivojlantiradi, balki uni ma'no darajasida tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: muloqot, o'qish, ko'nikma, qobilyat, kommunikativ mashqlar, texnologiya, semantik tanlov, mazmunli identifikatsiya.

Kirish. Muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayonidir.

Muloqot - bu odamlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish jarayoni va natijasi bo'lib, u juda ko'p funktsiyalarni bajaradi. Shuningdek insonning jamiyatdagi hayoti davomida ko'zlagan maqsadlari va u orqali hal qiladigan vazifalaridir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Muloqot bir qator funktsiyalarni bajaradi:

-koordinatsion (hamkorlik faoliyatini tashkil etishda haraktlarni o'zaro yo'naltirish va muvofiqlashtirish yordam beradi):

- amotiv – sherikda zarur hissiyotli kechinmalarni uyg'otish («hislar almashinuvi»), shuningdek, uning yordamida shaxsiy kechinma va holatlarni o'zgartirish;

Kirish. Axborot texnologiyalarining (AT) jadal rivojlanishi va mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan axborot xajmining doimiy oshib borishi tufayli kompyuter savodxonligini oshirish tobora ommalashib bormoqda. Elektron o'quv kurslari va tizimlari ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli ravishda qo'llanilmoqda, ularni qo'llash usullari va natijalari o'rganilib, tahlil qilinmoqda. Olimlar doimiy ravishda o'quv jarayonining sifatini oshiradigan va faollashtiradigan yangi, ilg'or usullarni ishlab chiqmoqdalar va joriy etishni taklif qilmoqdalar.

Kompyuter o'yinlari XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Keyinchalik, axborot texnologiyalarining ushbu tarmog'i doimiy ravishda rivojlanib, endi mustaqil sanoatga aylandi. Dastlab, kompyuter o'yinlari ushbu kontsepsiyaning klassik ma'nosida ko'rib chiqildi: o'yin "o'yin-kulgi va dam olish uchun ishlatiladigan faoliyat" (S.I. Ojegovga ko'ra). Bunday o'yinlarning ko'pi Internetda mavjud. Keyinchalik kompyuter o'yinlari ta'lim jarayonida ishlatila boshlandi. [1].

Shunday qilib, kompyuter o'yinlari odatda ko'ngilochar va jiddiy (serious games) o'yinlarga bo'linadi. Ikkinchisi mohiyatan tarbiyaviy, ya'ni o'qitish jarayonida foydalaniladi. O'quv jarayonida o'quv o'yinlaridan foydalanishga urinishlar ilgari ham qilingan bo'lsa-da, keyingi yillarda jiddiy o'yinlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki ular yangi o'quv materialini qiziqarli tarzda o'zlashtirish, kerakli ko'nikmalarni egallash va mavjud bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda kompyuter o'yinlarini yaratish uchun turli tizimlar ishlab chiqilgan, IT mutaxassislari

zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchilar bilan birgalikda turli fanlardan (matematika, fizika, biologiya, informatika va boshqalar) yangi ta'limiy o'yinlarini ishlab chiqmoqdalar. Kompyuter o'yinlarini o'quv jarayoniga tizimli integratsiyalashning pedagogik modellari va ulardan foydalanishni baholash usullari, o'yin stsenariylarini tavsiflash modellari, o'yin uchun yondashuvlar va tushunchalar ishlab chiqish taklif etiladi. Har yili kompyuter o'yinlarini ishlab chiquvchilarning mintaqaviy va xalqaro konferentsiyalari o'tkaziladi, ular ta'limda o'yinlarni rivojlantirish va ulardan foydalanishga bag'ishlangan. Kompyuter o'yinlarining yuqori ommaviyligini hisobga olib, universitetlarda bu sohada mutaxassislar tayyorlash dasturlari joriy etilmoqda. Internetda ko'plab o'yinlar mavjud. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun portallarning ko'pligi ayniqsa maqto'vga sazovordir. [2].

Adabiyotlar tahlili. Kompyuter o'yinlarining xilma-xilligini boshqarish uchun ularni tasniflash tavsiya etiladi. O'yinlarni o'yin mo'ljallangan foydalanuvchilarning yoshiga, u ishlaydigan platformaga va boshqalarga qarab turli yo'llar bilan tasniflash mumkin. 1 – rasmda kompyuter o'yinlarining o'yin turiga qarab to'qqiz toifaga bo'lingan tasnifi ko'rsatilgan.

Sarguzashtli o'yinlar hikoya va bir nechta qahramonlarni o'z ichiga oladi, ular odatda biron bir obyektini (masalan, xazina, artefakt va boshqalar) qidirish uchun ma'lum bir hudud (shahar, mamlakat) bo'ylab sayohat qilishadi. O'yin maqsadga erishish uchun turli xil dialoglar, izlanishlar va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Harakatlarga asoslangan o'yinlar o'yinchining chaqonligi, harakat tezligi va reaksiyasi uchun mo'ljallangan. Bu sinf keng tarqalgan otishma o'yinlari va ba'zi sarguzasht o'yinlarini o'z ichiga oladi.

Boshqotirmalar. Ushbu o'yinlar mantiqiy qurish, moslashtirish va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Tetris, Sudoku, Bejeweled 2 kabi o'yinlar bu sinfga tegishli.

Ushbu toifadagi o'quv o'yinlari asosan yosh bolalar uchun mo'ljallangan, masalan, "Dengiz tubi" o'yini.

So'zlar bilan o'yinlar boshqotirmalar sifatida tasniflanishi mumkin, lekin ular odatda alohida sinf sifatida tasniflanadi, chunki ularning yaratilish uslubi boshqotirmalardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu o'yinlar so'zlarni qidirish, krossvordlar, anagrammalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.



1 - rasm. Kompyuter o'yinlarining turlari bo'yicha tasnifi.

Strategiya va simulyatsiya o'yinlari. Ushbu toifadagi o'yinlar ko'pincha ikkiga bo'linadi. Taklif etilgan tasnifda ular birlashtirilgan, chunki foydalanuvchidan bir xil faoliyatni talab qiladi. Ushbu sinfdagi o'yinlar strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish va qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi. Ba'zi o'yinlar foydalanuvchiga o'yin sozlamalarini o'zgartirishga ham imkon beradi.

Rolli o'yinlar sarguzasht o'yinlariga o'xshaydi, ammo bu holda asosiy diqqat rolni o'ynaydigan bosh qahramonga qaratiladi. Bunday holda, foydalanuvchi o'yin parametrlarini o'zgartirishi mumkin. Ushbu turdagi o'yinlar o'qitishda juda kam qo'llaniladi, chunki ular odatda kompyuter o'yinlarining keyingi sinfining bir qismidir.

Ko'p foydalanuvchili o'yinlarda (massively multi-player games) o'yinchilar o'zaro bir-birlari bilan gaplashishi, savdo qilishlari mumkin. Hozirgi vaqtda ko'p o'yinchi rolli o'yinlar juda mashhur bo'lib, unda o'yinchilar bir-biri bilan raqobatlashadilar, ularning xarakterini yaxshilaydilar va faoliyat sohaslarini rivojlantiradilar. Bunday o'yinlar tobora ko'proq ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'lmoqda, masalan, bir nechta bunday o'yinlar www.draugiem.lv portalida mavjud.

Avtomobilni haydashni o'rgatuvchi o'yinlar. Ushbu sinfdagi o'yinlarning asosiy vazifasi transport vositalarini boshqarishni o'rgatishdir. Bu boshqa o'yinchilar bilan raqobat yoki mustaqil sayohat bo'lishi mumkin.

Stol va karta o'yinlari shashka, shaxmat, domino, poker kabi haqiqiy o'yinlarning elektron versiyalaridir. Ta'lim uchun mo'ljallangan kompyuter o'yinlarini tasniflashda boshqacha yondashuv zarur. Ta'lim jarayoni uchun mo'ljallagan o'yinlarining tasnifi bir necha darajalarni o'z ichiga olgan daraxtsimon tuzilishdan iborat:

- 1 – daraja–talabning yoshi (masalan, 5-6 yoshli bolalar, 7-sinf o'quvchilari, 2-kurs talabalari);
- 2 – daraja– o'yin mo'ljallangan o'quv fani;
- 3 – daraja – o'quv fanining mavzusi;
- 4 – daraja – 1 – rasmda ko'rsatilgan tasnif. Ushbu yondashuv o'quv fanini o'rganish uchun zarur bo'lgan kompyuter o'yinini tezda topishga imkon beradi.

O'yinni tanlashda uni ishlab chiqishda qo'llanilgan texnologiyalar ko'pincha muhim rol o'ynaydi, chunkiular ma'lum dasturiy ta'minot va texnik resurslarni talab qiladi. [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Kompyuter o'yinlarini ishlab chiqishda turli texnologiyalar qo'llaniladi: Adobe Flash va ActionScript, HTML, CSS, AJAX, Java, Unity3D, Adobe (Macromedia) Director, C++, PHP, ASP .NET va boshqalar. Kompyuter o'yinlarini ishlab chiqishda Adobe Flash va Java texnologiyalarida osongina interaktiv o'yinlar va animatsiya yaratish mumkin bo'lganligi uchun keng qo'llaniladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Adobe Flash onlayn o'yinlarni ishlab

chiqishda Javaga qaraganda ko'proq qo'llaniladi, ehtimol buning sababi Flash ilovalari Internetga ulangan kompyuterlarning 99% da, Java dasturlari esa faqat 73% kompyuterlarda ishlay olishidir [3].

Interaktiv kontent va multimedia yaratish uchun mo'ljallangan Adobe Flash 2D vektorli grafik va animatsiya yaratish, grafiklardan foydalanish, audio va videoni ulash imkonini beruvchi ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan vektor grafik muharriridir. Flash – ilovalarni ishlab chiqish uchun Adobe Flash Professional, Adobe Flash Builder, Adobe Flex SDK, FlashDevelop kabi dasturlar va obyektga yo'naltirilgan ActionScript tilidan foydalaniladi va bu mahsulotlarni bajarilishi uchun esa Flash Playerdan foydalaniladi. Flash ilovalarini, shu jumladan kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish uchta usuldan foydalanish mumkin:

1) dasturlashni o'rganmasdan ham Flash ilovalarini yaratish imkonini beruvchi Adobe Flash Professional ishlab chiqish muhitidan foydalanish;

2) dasturchilar uchun mo'ljallangan, hamda kutubxonalar va obyektlar mavjud bo'lgan Adobe Flash Builder mahsulotidan foydalanish. Ammo, ulardan foydalanish dastur hajmining oshishiga olib keladi;

3) Adobe Flex SDK kutubxonalaridan foydalanish. Bunday holda, FlashDevelop muhitida ActionScript fayllarini ishlab chiqish va kompilyatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, avvalgi mahsulotlardan farqli o'laroq, Adobe Flex SDK va FlashDevelop bepul mahsulotdir.

Tahlil va natijalar. Java texnologiyasi ko'p jihatdan Flashga o'xshaydi, shuningdek, Internet ilovalarini yaratish uchun mo'ljallangan. Ushbu maqsadlar uchun JavaFx texnologiyasi maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, u Flash-dan ko'ra Flex-ga (Flash-ning davomchisi) o'xshashdir. Flex va JavaFx ham birinchi navbatda RIA (Rich Internet application) ilovalarini ishlab chiqish uchun mo'ljallangan. JavaFx Java virtual mashinasining barcha imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi, bu ma'lum sohalarda, masalan, bajarilayotgan bir nechta vazifalar zanjirini boshqarishda ma'lum afzalliklarni beradi. Flex yordamida ilovalarni ishlab chiqish biroz osonroq, chunki ba'zi operatsiyalar tezroq bajarilishi mumkin, masalan, videoni ko'rsatish. Java hozirda smartfonlarda keng qo'llaniladi: Android operatsion tizimi unga asoslangan.

Kompyuter o'yinlarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan texnologiyalarni qiyosiy tahlil qilish uchun quyidagilar tanlandi:

- Eng ko'p ishlatiladigan Flash va Java;
- HTML, CSS va AJAX, chunki birgalikda foydalanilganda, ular juda samarali yechimlarni olish imkonini beradi.

1-jadvalda sanab o'tilgan texnologiyalarni 9 ta ko'rsatkich bo'yicha taqqoslash natijalari keltirilgan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'rib chiqilgan texnologiyalar juda ko'p umumiyliklarga ega. Asosiy farqi ularning qancha kompyuterga o'rnatilganidir. Texnologiyalar ilovalarni ishlab chiqish xususiyatlarida ham farqlanadi.

Hozirgi vaqtda turli mavzularni o'rganishda ishlatiladigan juda ko'p turli xil o'quv (jiddiy) o'yinlar mavjud. Tadqiqot davomida yuzga yaqin kompyuter o'yinlari

1-jadval. Kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish texnologiyalarini taqqoslash

Ko'rsatkich	Flash	HTML, CSS	AJAX	Java	Shockwave	Unity
1 Brauzerlarning mos kelmasligi	Yo'q	Mavjud	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
2 Multimediani qo'llab-quvvatlash	Mavjud	Faqat HTML5	Faqat HTML5	Mavjud	Mavjud	Mavjud
3 O'zgartirish uchun sahifalarni qaytaishga tushirish zarur	Yo'q	Ha	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
4 Bosmagachi qarishmkoniyati	Yo'q	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Yo'q	Yo'q
5 Tasvirga ishlov berish	Mavjud	Yo'q	Yo'q	Mavjud	Mavjud	Mavjud
6 Vektor g tafikasida ishlash imkoniyati	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud
7 Server bilan doim aloqada bo'lish	Mavjud	Yo'q	Yo'q	Mavjud	Mavjud	Mavjud
8 Yarataish uchun operatsion tizimlar	Windows, MacOS	Windows, MacOS, Linux	Windows, MacOS, Linux	Windows, MacOS, Linux	Windows, MacOS	Windows, MacOS
9 3Dni qo'llab-quvvatlashi	Mavjud			Mavjud	Mavjud	Mavjud

O'yinlarni yaratishda qo'llaniladigan olti texnologiyaning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, tegishli texnologiyani tanlashda qo'yilgan vazifa, ilovalarni ishlab chiqishning o'ziga xosligi va mavjud resurslarni hisobga olish kerak.

Xulosa. Shunday qilib, kompyuter o'yinlarini yaratish uchun eng yaxshi texnologiyani aniq ko'rsatish mumkin emas - u aniq vazifaga va resurslarning mavjudligiga qarab tanlanishi kerak. Juda ko'p harakatlanuvchi obyektlarni o'z

ko'rib chiqildi, ularning tahlili asosida ularni o'yin turiga qarab tasniflash taklif qilindi. Kompyuter o'yinlarini yaratishda turli xil axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Eng mashhur Flash va Java hisoblanadi.

Flash texnologiyasi sizga dasturlash bo'yicha minimal ma'lumotga ega bo'lmagan holda yoki o'yinlarni ishlab chiqishga imkon beradi, garchi u ko'pincha boshqa texnologiyalarga ishlashda yutqazadi. Java esa yaxshi dasturlash ko'nikmalarini talab qiladi.

ichiga olgan o'yinlarni ishlab chiqish uchun Flash eng mos keladi. Agar ilova mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, HTML, CSS va AJAX dan foydalangan ma'qul, chunki aksariyat plaginlar qo'llab-quvvatlanmaydi. Muayyan apparat talablari va juda ko'p rangli grafiklarni o'z ichiga olgan o'yinlarni yaratishda Javayoki Shockwave texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi, chunki ular yaxshiroq ishlashni ta'minlaydi. Unity texnologiyasi 3D o'yinlarni ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Зайцева Л.В. Технология разработки адаптивных электронных учебных курсов для компьютерных систем обучения // Международный электронный журнал "Образовательные технологии и общество (Educational Technology & Society)" – 2008.
2. Szilagy I., Roxin I. Model for Active Semantic Learning System // Proceedings of the IADIS International Conference e-learning 2010. – Volume 2. – Freiburg, Germany. July 26-29, 2010. – pp. 247 – 250
3. Шабалина О.А. Применение компьютерных игр для обучения разработке программного обеспечения // Открытое образование. – № 6 – 2010. – С. 19-26.
4. И.Алдашев. Использовать специфические свойства компьютера, позволяющие индивидуализировать учебный процесс и обратиться к принципиально новым познавательным средствам. "Экономика и социум" №6(73) 2020 www.iupr.ru
5. Yuldashev, U.A., Xudoyberdiev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.



UDK: 100.63(045)

Dilshod SUNATOV,

Qarshi davlat universiteti va Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, PhD

<https://orcid.org/0009-0003-8044-3687>

E-mail: sunatov_d@bk.ru

Turon universiteti dotsenti, f.f.b. f.d. Z.Sh.Boymurodov taqrizi asosida

MANIFESTATION OF FACTORS AFFECTING MORAL CONSCIOUSNESS IN THE CULTURAL SPACE

Annotation

In this article, some factors that affect moral consciousness in the national cultural space are analyzed scientifically, and it is shown that education, religion and Internet technologies are necessary determinants of the formation of cultural space, and the characteristics of influencing moral consciousness are philosophical defined in perspective. Also, by giving young people the freedom to choose their path, the educational space provides an opportunity to resolve the conflict between general and normative requirements and individual needs related to education revealed.

Key words: cultural space, science, education and training, education, modern enlighteners, Behbudi's novel "Padarkush", the concept of development of the higher education system until 2030, morality, moral knowledge, moral consciousness, information field, information-communication field, computer technologies, internet, virtual communication, globalization, religion, Islamic religion, Islamic values.

ПРОЯВЛЕНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА НРАВСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ В КУЛЬТУРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация

В данной статье научно анализируются некоторые факторы, влияющие на нравственное сознание в национально-культурном пространстве, и показано, образование, религия и интернет-технологии являются необходимыми детерминантами формирования культурного пространства, а также особенности влияния на нравственное сознание философские, определяемые в перспективе. Также, предоставляя молодым людям свободу выбора своего пути, образовательное пространство дает возможность разрешить конфликт между общими и нормативными требованиями и индивидуальными потребностями, связанными с образованием.

Ключевые слова: культурное пространство, наука, образование и воспитание, образование, современные просветители, роман Бехбуди «Падаркуш», концепция развития системы высшего образования до 2030 года, мораль, нравственное знание, нравственное сознание, информационное поле, информационно-коммуникационное поле. компьютерные технологии, Интернет, виртуальное общение, глобализация, религия, исламская религия, исламские ценности.

AXLOQIY ONGGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING MADANIY MAKONDA NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, milliy madaniy makonda axloqiy ongga ta'sir qiluvchi ba'zi omillar ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilinib, ta'lim, din hamda internet texnologiyalari madaniy makon shakllanishining zaruriy determinantlari ekanligi, shuningdek axloqiy ongga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari falsafiy rakersda aniqlangan. Shuningdek, ta'lim makoni yoshlarga yo'l tanlash erkinligini berish orqali umumiy-normativ talablar bilan ta'limga oid individual ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatni yechish imkoniyatini berishi, yangi qonunlar, ma'rifatparvar jadidlar hamda o'timish allomalari qoldirgan buyuk meroslari asosida keng ochib berilgan.

Kalit so'zlari: madaniy makon, ilm-fan, ta'lim va tarbiya, maorif, jadid ma'rifatparvarlari, Behbudiyning "padarkush" romani, oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, axloq, axloqiy bilimlar, axloqiy ong, axborot maydoni, axborot-kommunikatsiya maydoni kompyuter texnologiyalari, internet, virtual muloqot, globallashuv, din, islom dini, islomiy qadriyatlar.

Kirish. Bugun har qanday madaniy makonning kengayib borishi, bir qator subyektlarning mazkur makonda olib borayotgan madaniy faoliyatlari darajasiga bog'liq bo'lib, uning kvintessensiyasini axloqiy ongga bo'lgan o'zgarishlar tashkil qilmoqda. Yoshlar dunyoqarashining o'zgaruvchanligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni, milliy qadriyatlarining axloqiy ongga ta'sirini hamda davlat boshqaruvida madaniy makon shakllarining ahamiyatini o'rganish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni olib borish davr talabiga aylanib bormoqda.

Ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar, ideallar – madaniyat shakllari sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichida bilim, axborot kommunikatsiyalar, din – axloqiy ongga ta'sir etuvchi omillar sanaladi. Milliy madaniy makonning ajralmas qismlaridan biri bu ta'lim va maorif sohasi bo'lib, jamiyat

axloqiy ongga ijobiy ta'sir qiluvchi omillardandir. Har doim yurt taraqqiyoti uchun bilim va ma'rifatga tayanilgan. Shuning uchun ham ta'lim tizimini isloh qilish, kelajak avlod uchun sifatli va foydali ta'limni joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida qayd etilgan dolzarb vazifalar mohiyatidan kelib chiqib, madaniy makondagi paradigmatic shakllarning axloqiy ong bilan aloqadorligi masalalari va milliy madaniy makonda axloqiy ongga ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratis juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilm-fan, har davrda ham mamlakat rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun muhim vosita sanalgan. Millat ravnaqi, yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti uchun o'z bilimi, salohiyatini har bir shaxs safarbar qilishi kerak. Bu esa o'sha yurtning madaniyati va ijtimoiy hayotining taraqqiy etishiga imkon yaratadi. Ta'limsiz inson, uning qobiliyatlari va ijodiy kuchlari o'sishi mumkin emas,

zero, ta'lim (fan bilan bir qatorda yoki u bilan birga) rivojlanishning muhim resursiga aylanadi[1].

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ta'lim – bir tomondan, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, boshqa tomondan esa dunyoqarashni shakllantirish manbai, jamiyatning madaniyatlilik darajasining yuqori ko'rsatkichi hisoblanadi. Chunki mamlakat qudrati, avvalo, ta'lim tizimi bilan belgilanadi. XXI asr dunyo ta'lim tizimida barqaror taraqqiyotni ta'minlab beruvchi asosiy omillar e'tirof etildi va 2030 yilgacha belgilab berilgan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish"[2] dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Ta'lim makoni talabaga yo'l tanlash erkinligini berish orqali umumiy-normativ talablar bilan ta'limga oid individual ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatni yechish imkoniyatini beradi[3]. Yagona ta'lim makonini yaratish, dunyoda tinchlikni qaror toptirish omili ekanligi ayon bo'lmoqda. Yusuf Xos Xojib "Olamga odam tushgandan buyon (ya'ni odam yaratilgandan buyon) zakovatlilar ezgu siyosat yuritib keladilar. Qaysi davrda bo'lmasin, bilimlilarga buyukroq o'rin nasib bo'lib keldi"[4], – deydi.

Jadid ma'rifatparvarlarimiz ham bilim, ma'rifatni jaholatga qarshi eng muhim vosita sifatida qarashganini ta'kidlash lozim. Behbudiy "Padarkush" romani orqali bilimsizlik yovuzlikka, jaholatga yo'l ochishini ta'kidlaydi[5]. Axloqiy bilimlar yoshlar madaniy faoliyatning asosi bo'lishi lozim. Madaniy makonni shakllantirish va yuksaltirishda muhim sanalagan bilim axloqqa ijobiy ta'sir etuvchi eng muhim omillarda biri hisoblanadi[6]. Shuning uchun buyuk mutafakkirlarimiz ta'lim va tarbiyani uzviylikda olib borish lozimligini uqtirishgan. Demak, ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etib, yoshlarni puxta bilim egallashiga imkoniyatlarni oshirish, jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini zamonga mos, yetuk va raqobatbardosh mutaxassislarini bugungi kun talabi asosida ishlab chiqarish hamda yangi O'zbekistonga o'z hissasini qo'sha oladigan, yuksak ma'naviyatli, go'zal axloqli xislatlarga ega bilimli yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish, eng muhim vazifalardan bo'lishi darkor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Biz maktabgacha ta'lim, o'rta maktab va oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Rennessansning to'rt uzviy xalqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisblaymiz"[7], – deb ta'kidlab o'tadi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun shak-shubhasiz, sohaning zamonaviy taraqqiy etishi uchun yangi qadamlarni tashlashga yordam beradi. Ushbu qonun va farmonlar doirasida o'qitish tizimining yangi usullari amaliyotga joriy qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida qo'yilgan maqsadga erishish uchun natijani ideal, aqliy kutish, buning uchun ilmiy va kognitiv harakatlarni amalga oshirish talab etiladi. Odamzod tabiat olamida yashaydi va aqli mavjudod sifatida har tomonlama faoliyat yuritib madaniy makonini kengaytirib borishi bilan bir qatorda axloqiy ongni shakllanishiga va o'zgarishiga zamin yaratadi. Bu esa stixiyali tarzda emas, balki tartibli ravishda amalga oshiriladi. Xo'sh, shunday ekan, madaniy makonda axloqiy ongga ta'sir qiluvchi omillarning xususiyatlari va atributlari ham o'zgaruvchan tarzda namoyon bo'ladi. Qo'yilgan muammoning yechimini topishda ilmiy bilishning analiz va sintez, umumlashirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Axloqiy ongga ta'sir qiluvchi omillardan sanalgani axborot maydoni, xususan internet texnologiyalarini ta'kidlash o'rinlidir. Bugun insoniyat strategik taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi hamda

muayyan makon va zamonga tobe bo'lmagan yagona axborot makoni sifatida yuzaga kelayotgan informatsion asrga qadam qo'yd. Texnika taraqqiyoti insonlar hayotiga internetni olib kirdi va yer yuzidagi odamlarning barchasini informatsion aloqa almashinishini ta'minladi. Bu esa yangi virtual madaniy makonni va yangi axborot maydonini vjudga keltirdi. Axborot maydoni madaniy makonning tarkibiy qismi va uning axloqiy ongga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Ammo, bugun u madaniy makonning o'ziga xos ko'rinishi sifatida alohida tadqiqotni talab etadi. Virtual borliq tushunchasi nisbatan yaqinda ilmiy leksikaga va kundalik hayotga kirib keldi. Uning bir nechta ma'nolar kasb etishini izohlab o'tamiz: birinchidan, axborot bilan bog'liq faoliyatlarining maxsus sohasi; ikkinchidan, bilish chegarasining kengayishi va informatsiyalarning ko'payishi; uchinchidan, turli vaziyatlarni modellashtirish asosida muammolarni oson bartaraf etish usuli; to'rtinchidan, davlatlar hamda shaxslararo aloqa vositasi va madaniyatlar o'rtasidagi muloqot negizida jahon madaniy makoniga qo'shilish usuli. Virtual borliqning barcha bu va boshqa jihatlari maxsus tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin. Axborot oqimlarining kuchi madaniy aloqalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi, ommaviy auditoriya bilan haqiqiy muloqot qilish imkoniyatini ochadi va shu bilan birga o'ta individual muloqot holatini yaratadi[8]. Biz axborot makonini axloqiy ongga ta'sir etuvchi omil ekanligiga e'tiborimizni qaratamiz. Shu boisdan ham har bir davlat o'zining samarali axborot siyosatini olib borishda informatsion vositalarga tayanadi. Bugungi kun axborot oqimining jadallashuvi sabab salbiy axborot xuruji kengayib borishi natijasida ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar juda notekis tarzda namoyon bo'lmoqda. Madaniy ehtiyojlarni aniqlash, ularni qondirishning chora-tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatlarini tavsiflash lozim. Bu esa, atrof-muhit va ijtimoiy tafakkur o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi.

Tadqiqotchi M.Sharipov, G'arb madaniyatining boshqa mintaqalarga tiqishtirish holatlari insoniy tamoyillarga zid ekanligini uqtiradi. "G'arbning madaniy qadriyatlarini faol targ'ib qiluvchi demokratiya mafkurasi uning kuchli ta'siri ostida bo'lgan mamlakatlarga G'arb ommaviy madaniyati namunalari tarqatayotgan zamonaviy ommaviy axborot vositalaridir"[9].

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 22 milliondan oshdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi"[10].

Yoshlarda kommunitiya madaniy makonida o'zini tutishining axloqiy qoidalari nimalardan iborat. Real hayot bilan virtual hayotdagi axloqiy qoidalar bir-biriga to'g'ri keladimi, degan savol tug'ilish tabiiy hol.

Birinchidan, yosh avlodning ma'lum qismida an'anaviy qadriyatdan, axloq-odobdan uzoqlashish holatlarini vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, yuzma-yuz munosabatda bo'lmaslik erkinlikni yuzaga keltiradi. Virtual muloqot paytida insonda fenomenal axloqiy erkinlik paydo bo'ladi va u bevosita jamiyatdagi axloqiy meyorlarni inkor etadi.

Uchinchidan, so'zlashuvda jargon (so'zlarni buzib gapirish), vulgarizm (fahsh, so'kinish, haqoratli so'zlar) va varvarizm (boshqa tillardagi so'zlardan qo'pol foydalanish)dan erkin foydalanilishi va bu bevosita milliy tilning buzilishiga olib kelishi orqali aks etmoqda.

To'rtinchidan, globallashuv jarayoni texnikadan foydalanish madaniyatini taqozo etmoqdaki, bu aynan axloqiy madaniyatga tegishlidir. Ba'zan inson texnikaning egasi emas quliga aylanib qolayotgani, undan o'z ehtiyoj doirasida qo'llamasligi, boylik orttirish manbai, o'z yovuz maqsadlariga erishish vositasiga aylantirib borayotganligi hech kimga sir emas.

Madaniy makonda axloqiy ongga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida dinni ko'rsatish mumkin. Axloqiy ong islom dinining falsafiy negizlarida an'ana, urf-odatni inson takomilidagi o'rni va roliga muhim ahamiyat berilganligini ham alohida e'tiborga olish zarur. Islom dini mazmunining markaziy g'oyasini jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun inson o'zi ruhan, vijdonan pok, iymonli, e'tiqodli, halol bo'lishi kerakligi tashkil etadi. Ma'naviy-axloqiy kamolotga bo'lgan ehtiyojning bir ko'rinishi – bu jamiyatning dinga bo'lgan ehtiyojidir. Agar xalqning mana shu ehtiyoji qondirilmas ekan, jamiyat ma'naviy-axloqiy jihatdan qashshoq bo'lib qoladi.

Islom dinida turmush madaniyati, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda hamisha adolat, insof, halollik, bag'rikenglik, insonparvarlik bo'lishi talab etilganligini ta'kidlash lozim. Bu haqida Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ta'kidlab o'tilgan[11]. Ammo mustamlakachilik davrlarda islom dinining yuqorida sanab o'tilgan inson ma'naviy-axloqiy kamolotidagi ijobiy ahamiyati nafaqat unutilib qo'yildi, balki ular jamiyat hayotiga, inson turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi aqidalar sifatida qoralanib, ularga qarshi keskin kurashlar olib borildi. Qur'oni Karim, Hadislar va shariat hukmlarida olg'a surilgan ma'naviy-axloqiy kamolot mezonlarini bilmaslik, ularni

bilishga yo'l bermaslik oqibatida jamiyat ma'naviy ongida bo'shliq hosil qilib, madaniy makon yuksalishiga to'sqinlik qildi. Buyuk muhaddislarimiz merosida, tasavvuf ta'limotida madaniy makonda e'tiqod va axloq, ilm va ma'rifat masalasiga katta e'tibor qaratiladi.

Xulosa va takliflar. Jamiyatda turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarning ijtimoiy-madaniy harakatlar ko'lami nihoyatta kattaligi, shu jamiyat madaniy makonining murakkab tizimdan iboratligini anglatadi. Axloqiy omillar ham shu tizimni harakatga keltiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi va madaniy makonni boyitib boraveradi.

Demak: **birinchidan**, har bir davrda jamiyat va insonlar o'rtasidagi axloqiy meyorlar yangilanib, o'zgarib, takomillashib boraveradi. **Ikkinchidan**, jamiyatning rivojlanib borishi inson axloqiy-madaniy ongini shakllantirsa, shaxs to'plagan axloqiy praktika jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. **Uchinchidan**, ijtimoiy sohalarining takomillashib, rivojlanishib borishi jamiyat madaniy makoniga ijobiy ta'sir etadi ammo axloqiy taraqqiyot har doim ham jamiyat bilan uyg'un rivojlanavermaydi. Buni o'tgan tarix o'z tajribasi orqali bir necha bor isbotlagan. **To'rtinchidan**, etnik madaniyat va uning asoslari, an'analari ikkinchi tomondan, globallashuvning tezlashuvi natijasida ommaviy madaniyatning jadallashuvi ta'siridagi ziddiyatli tendensiyalar axloqiy ongning shakllanishi va madaniy makon yaxlitligini davlat iqtisodiy-siyosiy mexanizmlari ta'minlashini taqozo etadi. **Beshinchidan**, Uzluksiz ta'limning murabbiylik soatlarida axloqiy ong shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi moddiy va nomoddiy madaniyatimiz namunalarini aks etgan video darslarni joriy etish, bizning nazarimizda qo'yilgan muammoning ma'lum darajada yechimi hisoblanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Мухамедова З. Таълим фалсафаси. – Тошкент: ТошМИ, 2004. – Б. 14-15.
2. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22-may 2015, Incheon, Republic of Korea).
3. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2024). MILLIY MADANIY MAKONDA AXLOQIY ONGGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR. *Proceedings of International Educators Conference*, 3(1), 390–398.
4. Юсуф Хос Ҳожиб .Кутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 95.
5. Махмудхўжа Бехбудий. Падаркуш . – Тошкент: Маънавият, 1996. – Б. 114.
6. Sunatov D. H. The effect of globalization and localization of moral consciousness on cultural space //Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика. – 2022. – С. 105-112.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/3864> // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрда Тошкентда бўлиб ўтган Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан.
8. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). INTERRELATIONSHIP OF CULTURAL SPACE AND PARADIGMS OF MORAL CONSCIOUSNESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 218–226.
9. Шарипов М.Р. Глобализация и кризисы мировой цивилизации // Власть. 2010. № 6. – С. 120.
10. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б. 485-486.
11. Куръони Карим. (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур) – Тошкент: Чўлпон, 2001. – Б. 561.



Mohinur SUYUNOVA,
Full-time PhD student at National University of Uzbekistan
E-mail: suyunovamohinur@gmail.com

Under the review by Umida Abdullayeva, senior teacher at Uzbekistan State World Languages University

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN COGNITIVE LANGUAGE LEARNING

Annotation

Language learning has transformed the way languages are learned and taught since the advent of technologies and the development of digital world. However, the role of technologies should be clarified when they are used as a medium of instruction or as a teaching tool. This paper investigates the incorporation of technologies into language learning in a context of English as a second language. The research subjects are students of a private university who study the language for vocational purposes. The study uses quasi-experimental method as the research subjects are selected among students of the researcher.

Key words: digitalization, cognitive skills, cognitive tools, cognitive performance, conventional methods, critical thinking

РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ В КОГНИТИВНОМ ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Аннотация

Изучение языков изменило способы изучения и преподавания языков с момента появления технологий и развития цифрового мира. Однако следует уточнить роль технологий, когда они используются в качестве средства обучения или инструмента обучения. В этой статье исследуется внедрение технологий в изучение языка в контексте английского как второго языка. Объектами исследования являются студенты частного университета, изучающие язык в профессиональных целях. В исследовании использован квазиэкспериментальный метод, поскольку субъекты исследования выбираются среди студентов-исследователей.

Ключевые слова: цифровизация, когнитивные навыки, когнитивные инструменты, когнитивная деятельность, традиционные методы, критическое мышление.

KOGNITIV TIL O'RGANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING O'RNI

Annotatsiya

Texnologiyalar paydo bo'lishi va raqamli dunyoning rivojlanishi tillarni o'rganish va o'rgatish usullarini o'zgartirdi. Biroq, texnologiyalarning o'rmi ularo'qitish vositasi sifatida foydalanilganda aniqlanishi kerak. Ushbu maqola ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish kontekstida texnologiyalarni til o'rganishdagi rolini o'rganadi. Tadqiqot ob'ektlari - bu tilni kasbiy maqsadlarda o'rganadigan xususiy universitet talabalari. Tadqiqot kvazi-eksperimental usuldan foydalaniladi, chunki tadqiqot mavzusi tadqiqotchining talabalari orasidan tanlanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, kognitiv qobiliyatlar, kognitiv vositalar, kognitiv ishlash, an'anaviy usullar, tanqidiy fikrlash

Introduction. The use of computers as cognitive tools marks a dramatic shift from earlier ideas about technology. Information and intelligence are not encoded in instructional communications used in cognitive tools, which are intended to effectively transfer such knowledge to learners. The conventional design and development methods are done away with when using cognitive technologies. The technologies are taken away from the educational communications specialists and given to the learners to use as media for representing and expressing what they know, as opposed to the specialists using them to restrict the learners' learning processes through prescribed communications and interactions. Using technology as instruments for information access, world analysis, organizing and interpreting their own knowledge, and communicating it to others, learners play the role of designers.

Review of Literature. As the name suggests, cognitive tools are generalizable computer tools designed to promote and engage cognitive thinking (Kommers, Jonassen, & Mayes, 1992). Cognitive tools refer to mental and computational instruments that facilitate, direct, and expand individuals' thought processes people (Derry, 1990). These are instruments for knowledge building and facilitation that can be used in a range of topic areas. Databases, spreadsheets, semantic networks, expert systems, multimedia/hypermedia creation, computer conferencing, collaborative knowledge

construction environments, and, to a lesser extent, computer programming and microworld learning environments are examples of cognitive tools and learning environments that have been modified or created to act as intellectual partners with the learner in order to engage and facilitate critical thinking and higher order learning. Students must evaluate topic areas, create mental models to represent them, and represent what they understand in terms of those models when they build knowledge bases using databases, expert systems, or semantic networking technologies. It requires a lot of labor.

Critical thinking and cognitive learning processes are triggered by cognitive settings and instruments. These are mental extension and complementing computational tools. They process information generatively (Wittrock, 1974). Deeper information processing in generative processing arises from activating relevant mental models, interpreting new information with them, assimilating new information back into those models, rearrangement of the models in light of the newly interpreted information, and finally explanation, interpretation, or inference of new knowledge using those newly expanded models (Rumelhart & Norman, 1978).

Investigations into the integration of mobile devices to promote language learning and practice have also been conducted in-depth. According to certain research, students' academic achievement may be enhanced by using tablets and mobile phones sensibly (Huang, Lin & Cheng, 2010; Ivić &

Jakopec, 2016; Lu & Yang, 2018). Sung, Chang, and Liu (2016) discovered in a meta-analysis that there was a medium effect size for learning achievement when mobile devices were used in the classroom. In other words, compared to students who did not use mobile devices, the majority of students who used them fared noticeably better on dependent variables linked to achievement. According to Hwang et al. (2014), language learners were motivated to practice their foreign language abilities more while utilizing a mobile learning tool because they had favorable perceptions and intentions toward learning activities with these technologies. A number of research, including those by Ciampa (2013), Huang, Lin, and Cheng (2010), Rogers (2011), and Zheng, Chen, and Kong (2017), support the idea that learning via mobile devices increases motivation. Nonetheless, Froese et al. (2012) found that students who texted unrestrictedly during the lecture performed significantly worse than those who turned their phones to silent. This suggests that mobile phones have the potential to be a distraction.

The conditions under which students can assimilate and retain new information without taxing their limited short-term memory resources are the focus of cognitive load theory. When students are working on complicated tasks that need them to draw on their schemas, cognitive load is usually increased (Paas, van Gog, & Sweller, 2010). Working memory will not be able to successfully retain all of the information contained in the task, which will impede effective learning, if they haven't developed the necessary schemas or if the instructional procedures are poorly designed, involving the extraneous or intrinsic, rather than germane, types of cognitive load (Paas & Ayres, 2014; Paas, Tuovinen, Tabbers, & Van Gerven, 2003). This theory could contribute to the understanding of why students with comparable language skills respond differently to the same course material in different learning settings. Researchers have shown that, particularly in the past 20 years, learners' cognitive load can serve as a reliable predictor of the effectiveness of novel teaching strategies or learning technology (Deegan, 2015; Paas, van Gog & Sweller, 2010; van Merriënboer & Sweller, 2005). In order to investigate EFL students' readiness to use mobile learning resources, a model designed for technology acceptance was adopted in this study, as mobile learning may have special characteristics that classic acceptance theories find challenging to handle.

Based on the findings above, the researcher raises the following research questions:

1) To what extent has digitalization of language classes facilitated language learning;

2) To what extent does digitalization assist language classroom organization.

Research methodology

Research participants

The research covers 20 private university students who are studying English as a second language for vocational purposes. Furthermore, ESP teachers at this institution are also included in order to evaluate the effectiveness of application of technological tools in teacher performance.

Research ethics

Ethical guidelines will be adhered while conducting research and consider participants' personal data safety, attempt to minimize possible harm and discomfort. A number of steps can be taken to address the ethical issues related to research project which includes:

-Obtaining ethical approval: the researcher will obtain ethical approval from the relevant institutional ethics board to ensure that the research is conducted in an ethical manner;

-Informed consent: informed consent will be obtained from all participants giving a full explanation about the research procedure to confirm their rights and minimize research-related risks;

-Ensuring voluntary participation: it is ensured that participants have rights to decline participation or withdraw participation in the study without any penalties for them.

-Following academic honesty: academic honesty will be followed using previous studies according to the relevant academic honesty rules.

1)What issues for the personal safety of the researcher(s) arise from this research?

There will be no personal safety concerns for the researchers as a result of this research.

2)steps will be taken to minimise the risks of personal safety to the researchers?

Not applicable. A quasi-experimental method is used selecting participants among students she has already taught. Furthermore, pre-prepared pre-test and post-tests were used in order to find differences in student performance before and after use of technology. T-test is then, run in order to discuss the findings of the research. Before application of technological tools in classes, students' interaction modes in the classroom and their writing performance are checked by a survey. During the treatment period, research subjects are taught with incorporation of technological tools. Furthermore, teachers' attitudes towards classes are checked in pre-application and post-application tests.


Results and discussion

Table 1.

	Valid	Missing	Mean	Std. Deviation	Minimum	Maximum
pre-test	20	0	2.700	0.470	2.000	3.000
post-test	20	0	4.850	0.366	4.000	5.000

As the descriptive statistics shows, all research participants have taken part in the tests. It further shows that mean stands at 2.7, indicating that in the pre-test student satisfaction and motivation in language classes are around 3

according to the 5-point-likert scale. However, post-test results shows that student satisfaction and motivation stand at 4.8, accounting for almost the highest in the scale.






Table 2.

Table 2 shows the distribution plots of research participants according to their motivation and language learning satisfaction before and after use of technological tools in language classes. As the results show, the majority of research participants in the test are not satisfied and motivated in the classes. On the other hand, the majority of the participants stated their high-level satisfaction and motivation in language classrooms.




Table 3.

The pre- and post-test results show that when students' vocabulary expansion and writing skills are checked after the treatment period, research participants have scored "good" and "below standard" performances account for a slight minority. The reverse is true for pre-test results, as the statistics show.

Conclusions and. The effective integration of digital tools and technologies in the English language classroom has been a subject of considerable research and debate in recent years. This study sought to investigate the impact of utilizing such tools on language learning outcomes and student engagement. Through a comprehensive analysis of various studies and empirical evidence, several key conclusions have emerged, affirming the positive effects of digital tools in enhancing English language instruction.

Firstly, the findings of this research support the notion that digital tools offer valuable opportunities for interactive and personalized learning experiences. By incorporating multimedia resources such as videos, audio recordings, and interactive applications, educators can cater to diverse learning styles and preferences, thereby promoting deeper understanding and retention of language concepts.

Moreover, digital tools facilitate authentic language practice and communication opportunities, both inside and outside the classroom. Platforms such as online forums, virtual language exchanges, and language learning apps enable students to engage in real-world language use, interact with native speakers, and receive immediate feedback on their language production. Such authentic experiences not only enhance linguistic proficiency but also foster cultural awareness and global citizenship among learners.

Additionally, the integration of digital tools promotes collaborative learning and peer interaction. Through collaborative online projects, discussion forums, and virtual group activities, students can collaborate with their peers, share ideas, and co-construct knowledge in a supportive and engaging environment. This collaborative approach not only cultivates essential 21st-century skills such as communication, collaboration, and critical thinking but also fosters a sense of community and belonging within the classroom.

Furthermore, the research findings highlight the potential of digital tools to accommodate individual learner needs and preferences. Adaptive learning platforms, personalized learning algorithms, and data-driven feedback mechanisms enable educators to tailor instruction according to each student's unique strengths, weaknesses, and learning pace. This personalized approach enhances learner autonomy, motivation, and self-efficacy, ultimately leading to more meaningful and effective language learning experiences.

In conclusion, the evidence presented in this research strongly supports the effective application of digital tools and technologies in the English language classroom. By leveraging the affordances of digital tools, educators can create dynamic, interactive, and personalized learning environments that promote linguistic proficiency, cultural competence, and 21st-century skills among learners. However, it is imperative for educators to approach the integration of digital tools thoughtfully, ensuring alignment with instructional goals, pedagogical principles, and learner needs.

REFERENCES

1. Deegan, R. (2015). Complex mobile learning that adapts to learners' cognitive load. *International Journal of Mobile and Blended Learning*, 7(1), 13-24. <https://doi.org/10.4018/ijmbl.2015010102>.
2. Derry, S.J. (1990). Flexible cognitive tools for problem solving instruction. Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, Boston, MA, April 16-20.
3. Froese, A. D., Carpenter, C. N., Inman, D. A., Schooley, J. R., Barnes, R. B., Brecht, P. W., & Chacon, J. D. (2012). Effects of classroom cell phone use on expected and actual learning. *College Student Journal*, 46(2), 323-332.
4. Hwang, G.-J., & Chang, S.-C. (2015). Effects of a peer competition-based mobile learning approach on students' affective domain exhibition in social studies courses. *British Journal of Educational Technology*, 47(6), 1217-1231. <https://doi.org/10.1111/bjet.12303>
5. Kommers, P., Jonassen, D. H. & Mayes T. (Eds.). (1992). Cognitive tools for learning. Heidelberg FRG: Springer-Verlag.
6. Lajoie, S.P. (1990). Computer environments as cognitive tools for enhancing mental models. Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, Boston, MA, April 16-20.
7. Paas, F., & Ayres, P. (2014). Cognitive load theory: A broader view on the role of memory in learning and education. *Educational Psychology Review*, 26(2), 191-195. <https://doi.org/10.1007/s10648-014-9263-5>
8. Rogers, K. D. (2011). *Mobile learning devices*. United States of America: Solution Tree Press.
9. Rumelhart, D.E., & Norman, D.A. (1978). Accretion, tuning, and restructuring: Three modes of learning. In J.W. Cotton & R.L. Klatsky (Eds.), *Semantic factors in cognition*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.
10. Wittrock, M.C. (1974). Learning as a generative activity. *Educational Psychologist*, 11, 87-95.



UDK: 1.122

Камал ТАГАЕВ,

Навоийский государственный педагогический институт, независимый научный сотрудник

E-mail: kamron_tk@mail.ru

По отзыву Амирова А.О., доктора философских наук (PhD) доцент, заместителя директора Координационно-методический центр новейшей истории Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан

Немаловажным фактором в личностных особенностях спортсмена являются предстартовые состояния, такие как: предстартовая лихорадка, предстартовая апатия и состояние боевой готовности.

Состояния, которые переживает спортсмен непосредственно перед стартом получили название предстартовых состояний [10].

Вопросы предстартового состояния спортсменов интересуют многих тренеров, физиологов и психологов спорта на протяжении длительного времени. Психические переживания спортсменов исключительно сложны и

разнообразны, так как соревнования нередко требуют от них максимального напряжения в самых неблагоприятных условиях.

Положительное или отрицательное влияние предстартового состояния на спортивный результат зависит от степени возбуждения нервной системы спортсмена.

Практика психологической подготовки спортсменов убедительно показывает, что многие успехи и поражения могут быть объяснены с позиций необходимых воздействий тренеров и самих спортсменов на эмоциональные состояния перед стартом [2]. Вряд ли можно сбрасывать со счетов и особенности психических состояний спортсменов после соревнований, ибо на психику спортсмена глубоко воздействуют оценки проделанной работы.

Анализ литературных источников по теме. Первые исследования психологии предстартовых состояний (О. А. Черникова) показали своеобразие состояния стартовой лихорадки, её влияние на действие спортсмена и важность изучения данного вопроса в подготовке к соревнованиям.

В дальнейших исследованиях (Г.М. Гагаева, С.М. Оя, Ю.Ю. Палайма, А.Ц. Пуни и др.) были установлены основные виды предстартовых состояний. Было установлено, что предстартовые состояния характеризуются отличительными психологическими и физиологическими особенностями. Эти состояния влияют на поведение, работоспособность спортсмена и

результативность его действий в условиях соревнований. Возникновение предстартового состояния зависит от их индивидуальных особенностей: типа нервной системы, темперамента, характера, опыта выступлений и др.

Методология исследования. Любому человеку, который имеет отношение к спорту и который хоть раз принимал участие в соревнованиях, знает, что самое трудное - это не тренировки, не сами выступления, а способность «взять себя в руки» непосредственно перед стартом.

Характер предстартового состояния зависит от многого. Но, так или иначе, все они влияют на исход соревновательной деятельности.

Исследования в психологии предстартовых состояний О.А. Черниковой, В.М. Геселевича [8] показали своеобразие состояния «стартовой лихорадки», его влияния на действия спортсмена и важность изучения данного вопроса при подготовке к соревнованиям. В дальнейших исследованиях были установлены основные виды предстартовых состояний, которые характеризуются отличительными психологическими и физиологическими особенностями и по-разному влияют на поведение, работоспособность спортсмена и результативность его действий в условиях соревнований.

Все эти признаки стартовой лихорадки сопровождаются физиологическими показателями: учащенное дыхание и пульса, дрожанием рук и ног, похолоданием конечностей, а также потливостью, побледнением. Стартовая лихорадка связана с повышением возбуждающих нервных процессов и ослаблением тормозных процессов. Состояние стартовой лихорадки чаще всего наблюдается у недостаточно

Результаты этих опросов были подсчитаны и зафиксированы в таблице 1 и 2.

тренированных спортсменов. Оно может возникнуть как у новичков, так и у опытных спортсменов, когда последние оказываются по каким-либо причинам слабо подготовленными к данному соревнованию [1,4,5].

В исследовании принимали участие 20 девочек спортсменок, занимающихся художественной гимнастикой.

Целью исследования является выявление высокой стрессоустойчивости и низкой тревожности, вызывающей предстартовую апатию, а также низкой стрессоустойчивости и высокой тревожности, вызывающей в свою очередь предстартовую лихорадку.

У одних они выражаются в повышенной возбудимости, активности, у других - в упадке настроения, вялости, замкнутости.

Участницам эксперимента во время предсоревновательных занятий было предложено ответить на вопросы теста по определению уровня ситуативной тревожности (Шкала ситуативной тревожности Ч.Д. Спилбергера и Ю.Л. Ханина) и стрессоустойчивости (Опросник «Стресс-симптом-тест» Р.Фрестера).

Результаты и их обсуждения. В данной статье показаны результаты проведенного исследования и были выявлены следующие взаимосвязи:

- высокая стрессоустойчивость и низкая тревожность вызывают предстартовую апатию

- низкая стрессоустойчивость и высокая тревожность вызывают предстартовую лихорадку

После проведения тестовых заданий была составлена таблица данных по определению уровня ситуативной тревожности спортсменок художественной гимнастики.


Таблица 1

Уровень ситуативной тревожности у спортсменок художественной гимнастики (%).

Высокий уровень	Средний уровень	Низкий уровень
40%	17%	43%

Результаты также можно видеть и на диаграмме.

Диаграмма 1



Исходя из данных таблицы 1, у спортсменок уровень ситуативной тревожности на высоком и среднем уровне. Что видно в процентном соотношении: 40% (высокий уровень), 17% (средний уровень), 43% (низкий уровень).


Таблица 2

Уровень стрессоустойчивости у спортсменок художественной гимнастики (%).

Высокий уровень	Средний уровень	Низкий уровень
50%	13%	37%

Результаты также можно видеть на диаграмме.

Диаграмма 2



Исходя из данных таблицы 2, у спортсменок уровень стрессоустойчивости на высоком и низком уровне. Что видно в процентном соотношении: 50% (высокий уровень), 13% (средний уровень), 37% (низкий уровень).

Заключение и рекомендации. Таким образом, состояние психического стресса, возникающее у

спортсменок в связи с участием в спортивных соревнованиях, это сложное психофизиологическое состояние личности, определяемое несколькими системами условий различного иерархического уровня.

Характер и степень влияния этого стресса на деятельность спортсмена обусловлены взаимоотношением различных его индивидуальных свойств: социально-

психологических, личностных, психологических, психодинамических, физиологических, т. е. всей системой их взаимосвязей.

Уровень стрессоустойчивости и умение справиться с ситуативной тревогой влияет на то, какое из

предстартовых состояний будет доминировать и тем самым может сказаться на результатах выступлений соревнований.

ЛИТЕРАТУРА

1. Багадирова С.К. «Спортивная психология» учебное пособие. Майкоп (Адыгея) 2014г. 243с.
2. Ильин Е.П. «Психология спорта» учебник для вузов. СПб: Питер. 2021г. 352стр.
3. Ловягина А.Е. «Психология физической культуры и спорта». учебник и практикум. Москва: Юрайт 2016 г. 338с.
4. Огородова Т.В. «Психология спорта» учебное пособие. Ярославль. 2013г. 120с
5. Маклаков А.Г. «Общая психология» учебник для вузов. СПб: Питер. (серия Учебник для вузов) 2016 г. 583с.
6. Крыжановская Л.М. «Методы психологической коррекции личности». М. 2015г. 242 с
7. Корнилова Т.В. «Экспериментальная психология». Учебник для академического бакалавриата (часть 2) М.: Юрайт. 2019г. 174 с.
8. Бабушкин Г.Д., Шумилин А.П., Чикуров А.И., Соколов А.Н. Влияние психологической готовности на предстартовое состояние и результативность соревновательной деятельности. Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. - 2008. - № 3. - С. 13-17.
9. Гапбаров З.Г. «Спортивная психология», Учеб. Для студ. ин-та физкультуры. МВ и ССО РУз. - Ташкент, ООО «Мехридарё», 2009.
10. Ильин, Е. П. Психология спорта. Учебник. М.: Питер, 2018. - 352 с.



Mohiraxon USMONXODJAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail:moxira1929@gmail.com

Dots., PhD Z.Sanakulov taqrizi asosida

LEARNER-CENTRED CONCEPT OF GERMAN LANGUAGE EDUCATION

Annotation

In this article, the student-centered concept of teaching German is analyzed from the perspective of historical development. In particular, the directions of development of this concept have been studied: the pragmatic-functional concept and the concept of intercultural foreign language education.

Key words: concept focused on the benefit of students, pragmatic-functional concept and concept of intercultural foreign language education.

КОНЦЕПЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА, ОРИЕНТИРОВАННАЯ НА УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация

В данной статье концепция преподавания немецкого языка, ориентированная на пользу учащихся, анализируется с точки зрения исторического развития. В частности, исследованы направления развития данной концепции: прагматико-функциональная концепция и концепция межкультурного иноязычного образования.

Ключевые слова: концепция, ориентированная на пользу обучающихся, прагматико-функциональная концепция и концепция межкультурного иноязычного образования.

NEMIS TILI TA'LIMIDA TA'LIM OLUVCHILAR MANFAATIGA YO'NALTIRILGAN KONSEPSIYA

Аннотация

Ushbu maqolada nemis til o'qitishning ta'lim oluvchilar manfaatiga yo'naltirilgan konsepsiya tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, mazkur konsepsiyaning rivojlanish tadrijidagi yo'nalishlari: pragmatik-funksional konsepsiya va madaniyatlararo xorijiy til ta'limi konsepsiyasi tadqiq etilgan.


Kalit so'zlar: ta'lim oluvchilar manfaatiga yo'naltirilgan konsepsiya, pragmatik-funksional konsepsiya va madaniyatlararo xorijiy til ta'limi konsepsiya.

Kishilik jamiyatining ajralmas va juda muhim sohalaridan biri bo'lgan xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish globallashtirish sharoitida yanada dolzarbroq masalaga aylanib bormoqda. "Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasi" [1] ekanligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidayoq ziyoli qatlamimiz diqqat-e'tiborida bo'lganligi xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish tadrijini tadqiq etishni taqozo etadi.

Xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish tadriji yoritilgan adabiyotlarda metodlar tarjima, tarjimasiz, aralash va qiyosiy kabi turlarga ajratilganligini

guvohi bo'lamiz. Prof. J.Jalolov ularni quyidagi turlarga ajratadi va har bir metod turi tarafdorlariga batafsil to'xtalib o'tadi [2] (1-rasm).

Sohaga oid adabiyotlar tahlilidan ayon bo'ladiki, milliy tadqiqotlarimizda xorijiy til o'qitish metodlari tarixi muayyan aspektlarda o'rganilgan bo'lib, aynan nemis tilini chet til sifatida o'qitish metodikasiga tarixiy genezisi va rivojlanish tadriji tadqiqot predmeti sifatida alohida e'tibor qaratilmagan. Bu esa bizning oldimizga mazkur bo'shliqni to'ldirish vazifasini qo'yadi.



1-rasm. Chet til o'qitish metodlari tarixi (J.Jalolov)

Professor J.Jalolov mamlakatimizda o'quvchi va talabalar odatda uch tilni: ona tili, ikkinchi til va chet tilni o'rganishayotganiga alohida e'tibor qaratib, o'z tadqiqotlarida "chet til" terminidan foydalanishni odat qilganligini olim tomonidan chop etilgan adabiyotlardan ayon bo'ladi [3]. "Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Chet til – bu xorijiy mamlakat tili. Ular ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy

vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi" [4]. Bu esa o'qituvchidan yuqori kasbiy mahoratni talab etishi bilan birga uni doimo o'z ustida ishlashini, metodik-didaktik bilimlarini muntazam oshirib borishini talab etadi.

Biz ham o'z mazkur tadqiqot ishimizda yuqoridagi kabi "chet til" termini bilan bir qatorda hozirgi kun pedagogika va metodikasida tobora kengroq qo'llanilayotgan "xorijiy til" terminidan foydalanamiz.

Xorijiy til ta'limining pedagogik yo'nalishi pragmatik yo'nalishdan qator aspektlari bilan ajralib turadi. Jumladan, o'rta maktablarda xorijiy til ta'limi asosan ta'lim-tarbiya maqsadlari bilan chambarchas bog'liq deb qaraladi. Bundan tashqari, asosiy maqsad til va madaniy hayotga oid bilim berishdan iborat hisoblanib, bu "tarbiyaviy", "til o'rgatish", "ma'naviy" va "madaniy" maqsadlari bilan bog'langan edi. Jumladan, xorijiy til darslari ta'lim oluvchilarda fikrlash va e'tiborni ma'lum nuqtaga qarata olishni o'rgatishi, ko'p qirrali til shakllarini o'zlashtirib olishni ta'minlashi zarur sanalgan. Buning uchun o'quvchi ma'lum grammatik va stilistik tushunchalarni qoidalar asosida joylashtira olishni mashq qilishi talab etiladi [5].

Xorijiy tillarni o'qitish ta'limidagi kommunikativ yondashuvning pragmatik va pedagogik yo'nalishda rivojlanishi hamda ularning o'zaro bog'liqligi ta'lim

konsepsiyasini faqat o'quv materiali nuqtai nazaridan rivojlantirish mumkin bo'libgina qolmay, balki ta'lim maqsadlari va istiqbollari belgilash o'quv guruhlarini nuqtai nazaridan ham zarurligini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida, metodik-didaktik konsepsiyani ishlab chiqishda o'quv guruhining xususiyatlarini ham inobatga olishni taqozo qildi. Natijada, ta'lim oluvchilar manfaatiga yo'naltirilgan [6] konsepsiya vujudga keldi (2-rasm).

Nemis tili manbalar tahlilidan ayon bo'ladiki, ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan kommunikativ didaktika yo'nalishi, o'z navbatida, ikki bosqichda rivojlangan:

1. O'tgan asrning 70-yillar va 80-yillar boshida pragmatik-funksional konsepsiya.
2. 80-yillarning o'rtalaridan boshlab madaniyatlararo xorijiy til ta'limi konsepsiyasi.



2-rasm. Ta'lim oluvchilar manfaatiga yo'naltirilgan konsepsiya

Pragmatik-funksional konsepsiya Yevropa mamlakatlarida asosan katta yoshlilarga nemis tilini o'rgatishda qo'llanilgan. Ular chet tilni maktabdan tashqarida o'rgananliklari sababli ularning aniq kasbiy va shaxsiy imkoniyatlari o'zaro integratsiya qilingan va shunga asoslanib darslar tashkil etilib, nisbatan tez vaqt ichida xorijiy tilni kundalik mavzularda muloqot qila oladigan darajaga erishishni maqsad qilgan.

Tadqiqotimizda mazkur konsepsiyaning qator o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirildi. Jumladan, grammatik material taqdimoti, mavzular va leksika, pragmatik rol va vaziyatga asoslanish, o'quv materiali progressiyasi (taqdimoti, zichligi va ketma-ketligi), matn ustida pragmatik ish olib borish, yangi mashq shakllari va usullari va shu kabilarni pragmatik-funksional konsepsiyaning o'ziga xos xususiyatlariga kiritish mumkin.

Pragmatik-funksional didaktikaga asoslanib darslarni tashkil qilishda umumdidaktik va metodik tamoyil sifatida o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, darsning ijtimoiy shaklini o'zgarishi, o'qituvchining darsdagi rolining o'zgarishi va o'quv materialiga o'zgacha munosabat aniqlandi [7]. Masalan, an'anaviy frontal dars (o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa faqat tinglashadi, faqat ayrim hollarda, talab qilinsagina, nimadir deyishlari kutiladi) shakli yakka-yakka yoki juft bo'lib va guruhlarda hamkorlikda ishlash shakllari bilan diversifikatsiya qilinadi. Qaysi shaklning qo'llanishi dars maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Yoki o'qituvchi "bilim beruvchi" yoki texnik vositalarni boshqaruvchisi emas, balki "ta'lim jarayonining yordamchisi" bo'ladi [8]. Shu asnoda qator darsliklar "Nemis tilini chet til sifatida" o'rganuvchilar e'tiboriga havola etilishi natijasida mazkur konsepsiyaning qator "kamchilik"larini ochilishiga sabab bo'ldi hamda natijada **madaniyatlararo xorijiy til ta'limi konsepsiyasi** vujudga keldi. Chunki mazkur kshnsepsiya pragmatik-funksional konsepsiyaga nisbatan ta'lim oluvchilar imkoniyatlarini aniq tahlil qilish borasida ilmiy-pedagogik xulosalarga jiddiy e'tibor bilan yondashadi, shuningdek, u tili o'rganilayotgan mamlakatlarda nisbatan geografik va madaniy masofa hamda o'zgacha ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lgan joylarda, masalan, nemis tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan Yevropa davlatlari, xususan, Osiy

mamlakatlarida xorijiy til ta'limini tashkil qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Madaniy-individual hayot tajribalari va ta'limiy hodisalar, dunyoqarashlar, ta'lim an'analari va odatlari, o'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi munosabat (madaniy aloqa: ijtimoiy, madaniy va lisoniy imkoniyatlar qiyosi); individual intilish, ta'limiy harakatlar va tashkiliy shart-sharoitlar (tillarni o'rganish mohiyati; vaqt taqsimoti, chet tilning maktab ta'limidagi o'rni; chet til ta'limining boshqa fanlar qatoridagi mavqeyi); ta'limning yordamchi vositalari mavjudligi (darslik va texnik vositalar) kabilar mazkur konsepsiyaning tadqiqot predmetlari sanaladi [9].

Xorijiy tillar ta'limida qandaydir begona dunyo bilan bevosita emas, balki ta'limning yordamchi vositalari orqali (o'qish, tinglash, o'qish-tinglash matnlari: televidenie va video) tanishilgani va xorijiy tilni qo'llash imkoniyati juda kam hollarda kundalik muloqot jarayonida mavjudligi sababli ham ta'lim jarayonida idrok va tushunish xorijiy til o'rganishning asosini tashkil etadi [10].

Demak, xorijiy til ta'limining mazmuni va mavzular tanlanishi juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi, idrok uchun texnika vositalari asosidagi ta'lim rivojlantirilishi va idrok tadqiqotlari natijalariga asosiy e'tiborni qaratish talab etiladi.


Madaniyatlararo konsepsiya hududiy darsliklar orqali muntazam takomillashib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Ularda xorijiy til ta'limining madaniy va hududiy muammolari nemiszabon mamlakatlarda yaratilayotgan darsliklardagiga qaraganda butunlay o'zgacha tarzda hal qilinmoqda.

Yuqorida chet til ta'limi metodikasi tarixi haqida tilga olingan fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosalarga kelish mumkin:

- xorijiy til ta'limining yangi metodlari davrdan-davrga "ko'chib o'tish prinsipi"ga ko'ra rivojlanmasdan, balki bir davrning o'zida bir necha metodning mavjudligi ham kuzatiladi;
- xorijiy til ta'limi amaliyoti uchun bir-biridan farq qiluvchi ta'lim metodlarining yonma-yon qo'llanishi (mas., alohida olingan o'quv guruhlarini uchun) va turli konsepsiyalarga oid metodik prinsiplarining qorishtirilishi xarakterlidir;

- xorijiy til ta'limi tarixida ma'lum bir davr uchun "yaxshi" dars tashkil qilishning asosiy metodlari mavjud bo'lgan.

Ta'lim metodlarining XX asrdagi tarixiy rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi tartibda joylashtirish mumkin bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Chet tili o'qitish metodikasi tarixiy bosqichlari

Ta'lim maqsadlari va dars berish usullarining o'zaro uzviy bog'liqligi chet til ta'limining turli metodik konsepsiyalari tahlili misolida ko'rsatib o'tildi. Bunday bog'liqlik ta'lim nazorati va metodlari o'rtasida ham mavjudligi o'z-o'zidan tushunarli. Shuning uchun nima o'rgatilsa, o'sha sinab ko'rilishi, qanday o'rganilsa, shunday tekshirilishi zarur. Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday

metodga xos o'qitish usullari, tamoyillari va mashq shakllari xuddi shunday nazorat usullari, tamoyillari va mashq shakllarida o'z aksini topishi kerak. Bunday dasturiy bog'liqlik holatlari har bir o'quv guruhi uchun xorijiy til ta'limining maxsus konsepsiyasini loyihalashda e'tibordan chetda qolmaslik lozim.

ADABIYOTLAR

1. G'afur G'ulom. Ko'p tilni bilishning xosiyati// O'qituvchilar gazetasi, 1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi“ gazetasining 1989-yil 6-aprel sonida „Ko'p tilni bilish xosiyati“ nomi bilan qayta bosilgan).
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent:O'qituvchi, 2012. – B. 4.
3. Jalolov J. Methods of teaching English. Tashkent—Teacher. P. 2007:71-85..
4. Jalolov J.J. Interference in the methodology of teaching a non-native language. Uzbekistonda xorijiy tillar//ilmiy-methodik electronic journal. 2017(5). va boshqalar.
5. Nemis Umumta'lim Yangi Filologlar Kengashi// Axborotnoma, 1951, 3.
6. Tajibaev G.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet til o'qitishda kommunikativ yondashuv. Ped.fan.fal.dok.diss. – Toshkent: 2019. – 214 b.
7. Achtenhagen F. Didaktik des fremdsprachlichen Unterrichts. – Weinheim, Basel: Beltz. 1973.
8. Panjiev Q. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), no. 3, 2017, pp. 76-82.
9. Bausch K., Christ H., Hullen W., Krumm Hans-J. Handbuch Fremdsprachenunterricht. – Tubingen: Francke, 1983.



Abror XAITOV,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD),

E-mail: abrorhaitov@mail.ru

QarDU professori, ps.f.d. B.Jo'rayev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF VOLITIONAL QUALITIES IN DIFFICULT SITUATIONS OF THE GAMEPLAY OF TEENAGE FOOTBALL PLAYERS

Annotation

In football competitions, the intense struggle for victory requires strong physical and psychological preparation from players. The will of the players must be strong to withstand the fierce battles of the competition. This article analyzes the difficult situations that teenage football players face during the game and highlights difficult situations in the game. In order to determine the players' tolerance to such situations, their willpower was studied. Experimental practice is organized to develop willpower, which helps to overcome difficult situations in the game. The effectiveness of the experiment was statistically analyzed.

Key words: football, competition, volitional training, difficult situations in the game, motivation, volitional qualities, determination, perseverance, initiative

ЗНАЧЕНИЕ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В СЛОЖНЫХ СИТУАЦИЯХ ИГРОВОГО ПРОЦЕССА ФУТБОЛИСТОВ- ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В футбольных соревнованиях напряженная борьба за победу требует от игроков сильной физической и психологической подготовки. Воля игроков должна быть сильной, чтобы выдержать ожесточенные сражения на соревнованиях. В данной статье анализируются сложные ситуации, с которыми сталкиваются футболисты-подростки во время игры, и выделяются сложные ситуации в игре. С целью определения толерантности игроков к подобным ситуациям изучалась их сила воли. Организуется экспериментальная практика для развития силы воли, которая помогает преодолевать сложные ситуации в игре. Эффективность эксперимента статистически анализируется.

Ключевые слова: футбол, соревнование, волевая подготовка, сложные ситуации в игре, мотивация, волевые качества, целеустремленность, упорство, инициатива.

O'SMIR FUTBOLCHILAR O'YIN JARAYONIDAGI MURAKKAB VAZIYATLARDA IRODAVIY SIFATLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Futbol musobaqalarida g'oliblik uchun keskin kurashlarning vujudga kelayotganligi futbolchilardan kuchli jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Musobaqalardagi shiddatli kurashlarga bardosh berish uchun futbolchilarning irodasi kuchli bo'lishi lozim. Ushbu maqolada o'smir futbolchilarning o'yin davomida qanday murakkab vaziyatlarga to'qnash kelishi tahlil qilinib, o'yindagi murakkab vaziyatlar ajratilgan. Bunday vaziyatlarga futbolchilarning bardoshlilik aniqlash uchun ularning irodaviy sifatleri o'rganilgan. O'yindagi murakkab vaziyatlarni yengib o'tishiga yordam beruvchi irodaviy sifatlarni rivojlantirish uchun tajriba amaliyoti tashkil etilgan. Tajriba amaliyoti samaradorligi statistik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: futbol, musobaqa, irodaviy tayyorgarlik, o'yindagi murakkab vaziyatlar, motiv, irodaviy sifatlari, maqsadga intilish, qat'iyat, tashabbuskorlik.

Kirish. Zamonaviy futbolda yuqori natijalarni qayd etish kun sayin marakkablashib bormoqda. Futbolda yaxshi natija kuchli jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik harakatlarni yuqori aniqlikda bajarish, psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Futbol o'yinlari davomida jamoa futbolchilari turli murakkab vaziyatlarga to'qnash keladi. Jumladan raqibning kutilmagan kuchli qarshiligi oldida ojiz qolish, barqarorlikni izdan chiqishi natijasida texnik-taktik harakatlarni samarali yakunlay olmaslik, o'yinning so'ngi daqiqalarigacha sabr bilan o'yin tezligini saqlab turish kabi bir necha vaziyatlarda futbolchining irodasi kuchsizlik qilishi kuzatiladi. Shu sababli avvalo futbol o'yinidagi murakkab vaziyatlarni tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxs faoliyatida irodaning o'zni va irodaviy harakatlar masalasi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan. N. Makiavelli iroda inson erkinligining asosi ekanligi hamda hayot ko'proq irodaviy tanlovga asoslanishini bildirgan [10]. F. Bekon irodani psixik bilish jarayonlari bilan bir qatorda ko'radi. Iroda insonga turli xatti-harakatlardan tiyilib ijodiy yaratuvchanligiga yordam

berishini tabiat misoli bilan tushuntirgan [3]. R. Dekart irodaviy jarayonda tafakkur ishtirok etishi, fikrlash jarayonida irodaviy erkinlik mavjudligini tavsiflaydi [5]. Z. Freyd shaxs faoliyatining asosi biologik energiyalarga bog'liq ekanligi, shaxsning ong ostida to'plangan nomuvofiq energiyalarni ijtimoiy meyorlarga asoslangan iroda nazorat qilishini ta'kidlaydi [6]. K. Rojers shaxs aktualikka erishishi motivini iroda bilan tushuntiradi. Har bir shaxsda aktualashishga ichki yo'nalganlik mavjud bo'lib, buning amalga oshirilishi irodaviy harakatlarni anglatadi [2]. Adabiyotlar tahliliga ko'ra ijtimoiy hayotda shaxs faoliyati yuzaga kelishi, shaxsning o'z xatti-harakatini nazorat qilishi hamda yuqori rivojlanish darajasiga erishishida irodaning ahamiyati yuqori ekanligi ifodalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxs irodaviy faolligida motivatsiya mavjud bo'lib ularning faolligi umumiylik xususiyatiga ega bo'ladi [8]. Sportchilarning faoliyatida ham irodaning o'zni mavjud bo'lib, musobaqalar keskin bellashuvlarsiz sodir bo'lmaydi va sportchilarning psixologik barqarorligini ta'minlash kerakligini anglatadi [7]. Musobaqadagi keskin bellashuvlarda kuchli iroda sportchi

uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi [4]. Sportchi o'zini irodaviy boshqara olishi musobaqada g'oliblik uchun kurashishning dastlabki vazifasi hisoblanadi [1]. Sportda mavjud bo'lgan obektiv va subektiv qarshiliklarni yengishda kerakli irodaviy sifatlarini rivojlantirish talab etiladi [9]. Ye.P. Ilin, Y.P. Zinchenko, G.D. Babushkin, Z.G. Gapparovlar tomonidan ilgari surilgan futbolchilarni musobqaga irodaviy tayyorlash, zaruriy irodaviy sifatlarini rivojlantirish, futbolda obektiv va subektiv qarshiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lgan qarashlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Tadqiqotda futbol maktablari va BO'SM futbol tugaraklarida ishtirok etadigan 511 nafar (shundan tajriba guruhida 276 nafar, nazorat guruhida 235 nafar o'smirlar) qatnashdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning diagnostik bosqichida futbolchilarda o'yinning qanday vaziyatlarida


irodasizlik namoyon bo'lishini aniqlash maqsadida futbol trenerlaridan "Futbolning irodaviy vaziyatlari" so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomaning trenerlardan o'tkazishdan asosiy maqsad trenerlar musobaqa davomida futbolchilarning o'yinini bevosita kuzatib boradi hamda futbolchilarning xatolari va ularning o'zlariga sezilmayotgan o'yindagi asosiy kamchiliklar, futbolchilarda irodasizlik namoyon bo'layotgan vaziyatlar, jamoaviy o'yinda etishmayotgan asosiy jihatlarni tahlil qilib boradi va o'z tajribasi asosida kerakli xulosalarni beradi. Shu sababli trenerlardan ushbu so'rovnomaning qo'llash maqsadiga muvofiq deb topildi hamda hamda o'yindagi asosiy murakkab vaziyatlar ajratib olindi. Ushbu vaziyatlarga o'smir futbolchilarning munosabatini aniqlash uchun ulardan ham ushbu so'rovnoma o'tkazilib natijalari keltirildi. (1-jadval)

1-jadval

Futbolchilarda irodasizlik namoyon bo'lishiga olib keladigan murakkab vaziyatlar (N=511)

№	futboldagi murakkab vaziyatlar	%
1	o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik etishmasligida	45
2	birinchi gol o'tkazgandan keyin o'ziga kelolmaslik holatida	41
3	raqibning bosimiga bardosh berolmaslikda	32
4	birinchi gol urgandan keyin o'yinni tashlab qo'yish holatida	21
5	g'alabaga intilish (maqsadga erishish) uchun jamoaviy qat'iy kurashishda	19
6	hujumda shoshmashosharlik oqibatida taktikani buzilishida	16
7	kuchli jamoaga qarshi o'yinda jasorat ko'rsatishda	15
8	raqib yoki o'z jamoadoshlari bilan nizoga kirishish	12
9	o'yin qoidasini buzishda	11
10	penaltilar seriyasidagi hayajon	9
11	noqulay raqibdan xavotir holatida	9
12	hakam qaroriga keskin qarshi chiqishda	8
13	haqoratli harakatlar qilishda	7
14	jarohat olgan holatda sabr bilan o'yinni davom ettirishda	6

Futbolchilarda irodasizlik namoyon bo'lishiga olib keladigan murakkab vaziyatlarning tahlili 1-rasmda diagramma shaklida keltirilgan.



1-rasm. Futbolchilarda irodasizlik namoyon bo'lishiga olib keladigan murakkab vaziyatlar

Futbolchilarda o'yinning qanday vaziyatlarida irodasizlik namoyon bo'lishini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, "o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik etishmasligi" asosiy omil (45%) bo'lib, futbolchilarga o'yinning oxiriga qadar o'zining psixologik barqarorligini saqlab turishi qiyin kechadi. "Birinchi gol o'tkazgandan keyin o'ziga kelolmaslik holati" ikkinchi asosiy omil (41%) hisoblanib, jamoa birinchi bo'lib gol o'tkazgandan keyin ruhan tushkunlik holatiga tushib qoladi. "Raqibning bosimiga bardosh berolmaslik" uchinchi asosiy omil (41%) hisoblanib, raqib jamoa tomonidan bosim uyushtirilganda jamoa o'yinchilari sarosimaga tushib qoladi va o'zlarining taktik harakatlarini bajarish tizimi izdan chiqadi. Shu bilan birga "birinchi gol urgandan keyin o'yinni tashlab qo'yish holati" (21%), "g'alabaga intilish (maqsadga erishish) uchun jamoaviy qat'iy kurashish" (19%), "hujumda shoshmashosharlik oqibatida taktikani buzilishi" (16%), "kuchli jamoaga qarshi o'yinda jasorat ko'rsatish" (15%), "raqib yoki o'z jamoadoshlari bilan nizoga kirishish" (12%), "o'yin qoidasini buzish" (11%), "penaltilar seriyasidagi

hayajon" (9%), noqulay raqibdan xavotir holati (9%), "hakam qaroriga keskin qarshi chiqish" (8%), "haqoratli harakatlar qilish" (7%), "jarohat olgan holatda sabr bilan o'yinni davom ettirish" (6%) kabi omillar ham keyingi o'rinlarda futbolchilarning irodasizlik namoyon etuvchi vaziyatlar hisoblanadi.


Futbolchilarning irodaviy sifatleri rivojlanganlik darajasini o'rganish maqsadida "Sportchilarning irodaviy sifatlarini baholash" (N.E. Stambulova) metodikasi qo'llanildi hamda futbolchilarning irodaviy sifatleri darajasi diagnostika qilindi. Diagnostik natijalarga asosan o'smir futbolchilarda maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat va matonat, jur'at va jasorat, mustaqillik va tashabbuskorlik, sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish kabi irodaviy sifatleri yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlandi. Shu sababli o'smir futbolchilar irodaviy sifatlarini rivojlantirish maqsadida psixokorreksion dastur asosida tajriba amaliyoti olib borildi. Tajriba amaliyotidan so'ng o'smir futbolchilarda irodaviy sifatlarining qanday rivojlanishiga erishilganlik, ya'ni tajriba samaradorligi aniqlandi va ko'rsatgichlar dinamikasi keltirildi. (2-jadval)

O'smir futbolchilarning irodaviy sifatlari ko'rsatgichi dinamikasi
N=511/ TG=276, NG=235

Irodaviy sifatar		Tajriba guruhi				t	Nazorat guruhi				t
		TO		TK			TO		TK		
		m	%	m	%		m	%	m	%	
Maqsadga intiluvchanlik	Ifl	16,6	41,4	33,9	84,8	4,48***	15,6	38,9	16,3	40,7	1,46
	Umum	16,4	41,0	34,6	86,4	4,76***	15,6	39,0	16,4	41,1	1,37
Qat'iyat va matonat	Ifl	14,8	36,9	34,2	85,5	4,59***	15,1	37,7	16,1	40,2	1,42
	Umum	14,4	36,0	33,2	83,1	4,37***	14,9	37,3	16,0	40,0	1,33
Jur'at va jasorat	Ifl	15,0	37,6	32,8	82,1	4,27***	15,6	38,9	16,4	41,1	1,45
	Umum	15,6	39,1	32,4	80,9	4,12***	14,9	37,3	16,0	39,9	1,29
Mustaqillik va tashabbuskorlik	Ifl	17,5	43,8	34,1	85,2	4,54***	18,0	44,9	17,8	44,6	1,49
	Umum	17,8	44,4	32,7	81,7	4,21***	17,7	44,3	17,9	44,7	1,53
Sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish	Ifl	17,0	42,4	34,4	86,0	4,61***	17,1	42,8	17,5	43,8	1,43
	Umum	17,7	44,3	33,8	84,6	4,38***	17,3	43,2	17,7	44,3	1,51

Izoh: ***p≤0,001

O'smir futbolchilarning irodaviy sifatlari rivojlantirishga qaratilgan tajribadan keyingi ko'rsatgichlar dinamikasi 2-rasmida diagramma shaklida keltirilgan.



2-rasm. O'smir futbolchilarning irodaviy sifatlari ko'rsatgichi dinamikasi

Futbolchilarda irodaviy sifatlarning tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari dinamikasi: TGda maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat va matonat, jur'at va jasorat, mustaqillik va tashabbuskorlik, sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish kabi irodaviy sifatlarda rivojlanganligi hamda barcha sifatlarda bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlar dinamikasi statistik ahamiyatli (p≤0,001) ekanligi aniqlangan.

NGda maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat va matonat, jur'at va jasorat, mustaqillik va tashabbuskorlik, sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish kabi irodaviy sifatlarda yuqori rivojlanishiga erishilmaganligi hamda barcha sifatlarda bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlar dinamikasi statistik ahamiyatsiz (p≥0,05) ekanligi aniqlangan.

Futbolchilarda irodasizlik namoyon bo'lishiga olib keladigan murakkab vaziyatlarning irodaviy sifatlarga bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadida faktorli tahlil usuli qo'llanildi. Futboldagi murakkab vaziyatlar yo'nalishidan kelib chiqqan holatda to'rtta asosiy faktorlarga umumlashtirildi:

- birinchi faktorga "o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik etishmasligi", "raqibning bosimiga bardosh berolmaslik", "jarohat olgan holatda sabr bilan o'yinni davom ettirish", "g'alabaga intilish (maqsadga erishish) uchun jamoaviy qat'iy kurashish" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar;

- ikkinchi faktorga "birinchi gol o'tkazgandan keyin o'ziga kelolmaslik holati", "birinchi gol urgandan keyin o'yinni tashlab qo'yish holati", "penaltilar seriyasidagi hayajon" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar;

- uchinchi faktorga "noqulay raqibdan xavotir holati", "hujumda shoshmashosharlik oqibatida taktikani buzilishi", "kuchli jamoaga qarshi o'yinda jasorat ko'rsatish" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar;

- to'rtinchi faktorga "raqib yoki o'z jamoadoshlari bilan nizoga kirishish", "o'yin qoidasini buzish", "hakam qaroriga keskin qarshi chiqish", "haqoratli harakatlar qilish" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar umumlashtirildi.

Faktorli tahlil asosida futbolchilarga o'yindagi qanday murakkab vaziyatda qaysi irodaviy sifatlarning ahamiyati yuqori ekanligi aniqlangan. (3-jadval)

Futbol o'yinidagi murakkab vaziyatlar va irodaviy sifatlarning bog'liqligi N=276 (TG)

Irodaviy sifatar	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor
Maqsadga intiluvchanlik	0,85**	0,69**	0,57**	0,32*
Qat'iyat va matonat	0,74**	0,62**	0,81**	0,56**
Jur'at va jasorat	0,59**	0,53**	0,75**	0,27
Mustaqillik va tashabbuskorlik	0,63**	0,51**	0,77**	0,24
Sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish	0,57**	0,86**	0,61**	0,73**

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01

O'smir futbolchilarda o'yin jarayonidagi murakkab vaziyatlarning irodaviy sifatlarga bog'liqligi bo'yicha tahlil natijalari: maqsadga intiluvchanlik irodaviy sifati birinchi faktor bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'lib (p≤0,01), musobaqada maqsadga intilish yuqori bo'lsa futbolchilar o'yinning so'ngi daqiqalarigacha chidamkorlik bilan o'ynaydi, raqibning bosimiga bardosh beradi, jarohat olganda ham sabr bilan o'ynaydi, jamoaviy ravishda g'alabaga intiladi.

Qat'iyat va matonat irodaviy sifati uchinchi faktor bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'lib (p≤0,01), musobaqada qat'iyat va matonat yuqori bo'lsa futbolchilar noqulay raqibdan xavotirlanmaydi, hujumda shoshmashosharlik qilib

taktikani buzmaydi, kuchli jamoaga qarshi o'yinda jasorat ko'rsata oladi.

Sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish irodaviy sifati ikkinchi faktor bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'lib (p≤0,01), musobaqada sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish yuqori bo'lsa futbolchilar birinchi gol o'tkazgandan keyin o'zini yo'qotib qo'ymaydi, birinchi gol urgandan keyin o'yinni tashlab qo'ymaydi, penaltilar seriyasida kuchli hayajonga berilmaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko'ra o'smir futbolchilarning o'yin jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab vaziyatlar ajratildi. Bunday vaziyatlarda ko'pgina futbolchilar irodasizlik qilishi, buning natijasida esa jamoa kerakli natijaga erisha olmasligi mumkin. O'yin jarayonidagi

murakkab vaziyatlarni yengib o'tish uchun esa o'smir futbolchilarga kerakli bo'lgan irodaviy sifatlarning rivojlanganligi yordam beradi. Shu sababli futbolchilarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba o'tkazildi. Shu bilan birga o'yindagi murakkab vaziyatlarga aynan qaysi irodaviy sifatlar bog'liq ekanligi faktorli tahlil asosida o'rganildi. O'yindagi murakkab vaziyatlarga irodaviy sifatlarning bog'liqlik darajasi va ishonchliligi keltirildi. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- o'smir futbolchilarning musobaqa natijalari ijobiy bo'lishi uchun ularning o'yin jarayonida qanday murakkab vaziyatlarga to'qnash kelishini tahlil qilish lozim;
- o'yindagi murakkab vaziyatlarga nisbatan futbolchilarning irodaviy sifatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq;
- futbolchilarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali keskin raqobatlariga boy bo'lgan o'yinlarda ularning psixologik barqarorligini ta'minlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik. – T.: “O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2021. – 300 b.
2. Jess Feist, Gregory Feist J. Theories of personality. 7th edition. USA, McGraw-Hill Education 2008. 672 p.
3. Nazarov Q. Falsafa asoslari. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. – 808 b.
4. Бабушкин Г. Д., Смоленцева В. Н. Психология физической культуры и спорта : учебник для высших физкультурных учебных заведений. – Омск : СибГУФК, 2007. – 270 с
5. Брекоткина И.П. Рационализм нового времени и гносеологические представления Рене Декарта. Вестник Удмуртского Университета. Серия философия. Психология. Педагогика 2020. Т. 30, вып. 3. с. 237-243
6. Воловикова М.И., Журавлев А.Л., Харламенкова Н.Е. Психологические исследования личности: история, современное состояние, перспективы. Отв. ред. - М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2016. - 448 с.
7. Зинченко Ю.П., Тоневский А.Г. Психология спорта: Монография / - М.: МГУ, 2011. - 424 с.
8. Ильин Е.П. Психология воли. - СПб.: ООО «Питер Пресс», 2009. - 368 с.
9. Ильин Е.П. Психология спорта. СПб., ООО «Питер Пресс». 2008. 352 с.
10. Смирнова О.Ю. Основные философско-исторические этапы в изучение воли. Вестник Московского государственного университета. №1, 2018. с. 108-120



UO'K: 768 (3)

Halim XAKIMOV,

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o'qituvchisi

E-mail: sam.bad@bk.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) F.Davronova taqrizi ostida

INGLIZ TILI FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz tili fani o'qituvchilarining shaxsiyati va ularning kasbiy rivojlanishi o'rtasidagi yaqin va murakkab bog'liqlik ko'rsatilgan. Uzlüksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirish jarayonida ingliz tili o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, sertifikatlar, shaxsiy rivojlanish.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье показана тесная и сложная связь между личностью учителей английского языка и их профессиональным развитием. Обсуждаются методы личностного и профессионального развития учителей английского языка в процессе непрерывного профессионального развития и повышения квалификации.

Ключевые слова: профессиональное развитие, повышение квалификации, сертификаты, личностное развитие.

PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Аннотация

This article shows the close and complex relationship between the personality of English teachers and their professional development. Methods of personal and professional development of English language teachers in the process of continuous professional development and advanced training are discussed.

Key words: professional development, advanced training, certificates, personal development.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallasuv sharoitida pedagoglarning intellektual darajalariga qo'yiladigan talablarning ortib borishi ularning malakasini uzluksiz oshirish va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytiradi. So'nggi yillarda ingliz tilini o'rganish va o'rgatish davr, zamon talabiga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-martdagi "Umumta'lim muassasalarining chet tillar o'qituvchilari malakasini va kasb mahoratini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 67-sonli Qarori [1] ga ko'ra umumta'lim muassasalari chet tillar o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini takomillashtirish uchun ularning kasbiy mahoratini oshirishning doimiy ishlaydigan har haftalik kurslarini o'tkazish tartibini belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" [2] vazifasi belgilanib, bu borada pedagoglarning kasbiy kompetentligini doimiy oshirib borishga qulay sharoitlar yaratish, malaka oshirish turlari va shakllarini kengaytirish hamda o'zaro aloqadorligini ta'minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyat rivojlanishining zamonaviy sharoitida pedagoglarning, ayniqsa chet tili o'qituvchilarining pedagogik kompetentligi, kasbiy rivojlanishi alohida e'tiborni talab qiladi, bu ularni malaka oshirish jarayonida ijodiy kasbiy faoliyatini rivojlantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, chet tili o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi mavzusi eng dolzarb mavzulardan biridir. O'qituvchining muhim fazilatlar orasida eng muhimi bu boshqalarga bo'lgan munosabatida o'z-o'zini

tahlil qilish qobiliyati, o'z pozitsiyalarini, munosabatlarni, qarorlarini, harakatlarini obyektiv baholash qobiliyatidir, chunki o'qituvchi har bir inson muvaffaqiyat va xatolarga haqli ekanligini tushunishi kerak. Oxir-oqibat, o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini boshqarishga, boshqalarga dushmanlik va salbiy munosabatni tiyishga intilishi kerak. Og'ir vaziyatda his-tuyg'ularni ushlab turish juda qiyin, ammo bag'rikengliksiz o'qituvchi faqat munosabatlarni murakkablashtiradi. Shuning uchun o'qituvchining doimiy ravishda kasbiy rivojlanib borishi talab etiladi.

Ingliz tili o'qituvchilari oldiga jamiyat boshqa fan o'qituvchilarining ma'suliyatlaridan ortiqroq ma'suliyat yuklanadi. Chunki ular bir vaqtning o'zida chet tili grammatikasi, talaffuzi va xalq madaniyati bo'yicha ham ta'lim berib, bilim qasrining poydevorini qurishda bevosita ishtirok etadilar. Har haftalik kurslarning maqsadi chet tillar o'qituvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalarni boshlang'ich sinflarda o'qitishga ustunlik bergan holda maktabda chet tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, metodik qo'llanmalardan foydalanishda o'qituvchilarga yordam berish, o'qituvchilarni lavozim maoshiga oylik ustamani olish uchun test sinovlaridan o'tishga tayyorlash, shuningdek ularni doimiy ravishda mustaqil tarzda kasbga doir bilim olishga yo'naltirishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning globallasuvi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi o'zaro muloqot vositasi sifatida chet tillarni o'rganishga ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shu jihatdan malaka oshirish tashkilotlarida xalqaro ma'lumot almashinuv tizimi, ta'limni individuallashtirish va differensiyalash, ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qituvchilarning kommunikativ

kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish metodlarini, nutqiy malakalarning rivojlanganlik darajalarini o'lchash mezonlarini ishlab chiqish, ularning zamonaviy ta'lim talablariga mosligini ta'minlash toбора dolzarb bo'lib bormoqda.

Jahon pedagogikasida o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish muammolari D.Didro, F.A.Distervega, J.A.Komenskiy, D.Lokk, S.G.Ter-Minasova, K.D.Ushinskiy va S.T.Shatskiylarning ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari G.S.Alshuller, A.A.Verbitskiy, G.I.Ilyin, Y.N.Kulyutkin, E.M.Nikitin, K.A.Nefedov, V.G.Onushkinlar tomonidan asoslab berilgan.

Bugungi kunda U.I.Inoyatov [3], R.K.Choriyev [4], Sh.A.Abdullayeva va B.B.Sobirov, D.B.Sultonmurodov [5], A.X.Aminov [6], A.D.Asqarov [7] larning tadqiqotlarida xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimida va o'qituvchilarning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishi asoslab berilgan. Biroq, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi va ularning shaxsiyatlarini o'rtasidagi bog'liqlikka oid tadqiqotlar juda kam.

Hozirgi vaqtda adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy rivojlanishi bilan kasbiy o'sishi tushunchalari sinonim holda qo'llanilmoqda. B.F.Isayevning fikricha, kasbiy rivojlanish - bu kasbiy ishni amalga oshirishda shaxsiyatning barcha fazilatlarini shakllantirish, o'sish, integratsiya qilish va amalga oshirishdir [8].

N.L.Torgunskayaning ta'kidlashicha, kasbiy kompetensiya - bu bilim, ko'nikma va malakalar, shu jumladan o'qituvchi faoliyatida ularni amalga oshirish usullari hisoblanadi [9]. Kasbiy kompetensiya - bu faoliyat va kommunikativ xarakterdagi quyi tuzilmalar elementlarining uyg'un kombinatsiyasidir.

Jahon ta'lim amaliyotida ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llashga bo'lgan ehtiyoj toбора ortmoqda. Shu jihatdan raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida yuz berayotgan globallashuv va axborotlashtirish jarayonlari ta'lim tizimini zamonaviylashtirish zaruratini keltirib chiqarib, xalqaro muloqot vositasi hisoblangan xorijiy tillar ta'limiga bo'lgan talabni yanada kengaytirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining mazmuni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarning majmui bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: kommunikativ (lingvistik, nutqiy va ijtimoiy-madaniy) va umumiy pedagogik (uslubiy). Chet tili o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi mazmunining muhim asosi, tashkil etuvchi elementi uslubiy kompetensiyadir, shuning uchun u uning kasbiy malakasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida ana shu kompetensiyalar muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Chet tillarini o'qitish tizimi va ingliz tili fani o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning hozirgi bosqichida quyidagilar ustuvor vazifalar hisoblanadi:

- xorijiy tillar bo'yicha ta'lim sifatini mahalliy va xalqaro talablarni hisobga olgan holda oshirish;
- chet tili ta'limida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish;
- ta'lim muassasalarida sifat jihatidan yangi faoliyatni amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

- uzluksiz ta'limning zamonaviy tizimini shakllantirish;

- bir nechta xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatini ta'minlash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun esa quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi:

- pedagog kadrlarga yangi malaka talablarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning o'quv, ilmiy va amaliy faoliyatining integratsiyasini joriy qilish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va yuqori ta'lim bosqichlarida chet tillarini o'qitishni takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- chet tilini maktabgacha o'qitishni joriy etish;
- boshlang'ich sinflardan boshlab chet tilini o'qitish jarayonini takomillashtirish;
- pedagog kadrlar malakasini oshirishning turli shakllarini takomillashtirish
- chet tilini o'qitish metodikasi bo'yicha dars soatlarini ko'paytirish.

Albatta, yuqorida sanab o'tilmagan boshqa muammolar ham bor va bular chet tillarini o'qitish tizimi sezilarli modernizatsiyani talab qilishi orqali o'quvchilarni o'qituvchi bilan birgalikda fikrlash va izlashga o'rgatadi. Murakkab savollarga javoblar topish, stereotiplarlarni yo'q qilishga yordam beradi. Natijada o'quv jarayoni yangi sifat darajasiga ko'tariladi. Demak, o'qituvchining integrativ modeli nafaqat kasbiy, balki umumiy kasbiy kompetensiyalar va mohiyatni aks ettiruvchi bilimlarni ham o'z ichiga olgan yaxlit tasvir degan xulosaga kelishimiz mumkin. O'qituvchining kasbiy faoliyati, ularning o'zaro ta'siri mexanizmlari, kasbiy yutuqlarning shaxsiy darajasi va uning professional harakatchanlik qobiliyati bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Umumjahon miqyosida axborot tizimining globallashib borayotgani dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy strategiyalar samaradorligini oshirish va chet tili mutaxassislarining kasbiy va ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga doir innovatsion faoliyatda yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilishi kuchaydi.

Zamonaviy chet tili fani o'qituvchisi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan, dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, maktab ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilishi lozim. Bundan tashqari kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

Demak, ingliz tili fani o'qituvchilari uchun kasbiy rivojlanish pedagog uchun intilishi lozim bo'lgan kasbiy cho'qqi va faoliyatining konseptual loyihasi bo'lishi zarur. Chet tili o'qituvchisi doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar va pedagogik vaziyatlarining maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo'lishi kerak bo'ladi. Bu jarayon chet tili o'qituvchisidan o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirishni, lozim bo'lsa, qayta qurishni talab etadi. Bu esa tizimning ustuvor vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-martdagi "Umumta'lim muassasalarining chet tillar o'qituvchilari malakasini va kasb mahoratini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 67-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-2607658>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
3. Иноятов У.И. Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш таълими сифати ва самарадорлигини таъминлашда замонавий ёндашувлар // “Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш таълими сифати ва самарадорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари” мавзусидаги респ. илмий-амалий конф. мат.тўп. – Тошкент, 2017. – Б. 11-14.
4. Чориев Р.К. Малака ошириш тизимини модернизациялашнинг ўзига хос хусусиятлари // Замонавий таълим. – Тошкент, 2014. – №2. – Б. 22-25.
5. Абдуллаева Ш.А., Собиров Б.Б., Султонмуродов Д.Б. Замонавий ўқитувчининг компетенцияси. – Т.: “Komron press”, 2015. – 92 б.
6. Аминов А.Х. Умумий ўрта таълим педагог ходимларини малакасини ошириш тизимини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий асослари: пед. фан. ном... дисс. автореферати. – Тошкент, 2004. – 21 б.
7. Аскарлов А.Д. Халқ таълими ходимлари малакасини масофадан ошириш тизимини такомиллаштириш: пед. фан... (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 51 б.
8. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя : учебное пособие. - М.: Академия. - 2015. - 102 с.
9. Торгунская Н. Л. Личностное знание как механизм развития педагогических инноваций // Знание. Понимание. Умение. - 2016. - №1. - С. 15-19.



UDK: 796/799

Akmal XASANOV,

Boks Murabbiyi, Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi

JIDU o'zbek va rus tillari kafedrasida jismoniy madaniyat va sport fani professori Sh.Dilmuradov taqrizi asosida

YOSH BOKSCHILARDA TEZKORLIK VA JISMONIY HOLATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yosh bokschilarning tezkorlik va jismoniy holatlarini rivojlantirish yo‘llari to‘g‘risida fikr yuritilgan bo‘lib, turli chet el va mahalliy olimlarning bu haqida olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan. Aynan yosh sportchilarda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xislatlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligi maqolada aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tezkor-kuch, jismoniy tayyorgarlik, sport formasi, kompleks nazorat.

WAYS TO DEVELOP AGILITY AND PHYSICAL CONDITION IN YOUNG BOXERS

Annotation

This article discusses ways to develop speed and physical condition of young boxers, and analyzes the research conducted by various foreign and domestic scientists. It is mentioned in the article that it is of great importance to develop the qualities mentioned above in young athletes.

Key words: quick-strength, physical fitness, sports form, complex control.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ЛОВКОСТИ И ФИЗИЧЕСКОЙ ФОРМЫ У ЮНЫХ БОКСЕРОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются пути развития скорости и физического состояния юных боксеров, а также анализируются исследования, проводимые различными зарубежными и отечественными учеными. В статье отмечается, что большое значение имеет развитие у юных спортсменов перечисленных выше качеств.

Ключевые слова: быстрота, физическая подготовленность, спортивная форма, комплексный контроль.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda boks sport turi yanada raqobatbardosh, keskin va universal tus olmoqda, shu sababli yuqori malakali bokschilarning tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar keskin ortib bormoqda. Bunda qarshi hujumlardan foydalanishning ortishi, to‘siqli vaziyatlarda hujumlar sonining kamayishi holatlari paydo bo‘lmoqda. Buni ekstremal sharoitlarda harakatlarni nazorat qilishning yomonlashishi, tavakkalchilikka moyillik bilan tushuntirish mumkin. Chalg‘ituvchi omillar bilan kechadigan vaziyatlarda bokschilarning hujum va himoya – javob harakatlari natijaviyligi ancha kamayadi. Shu bilan birga, to‘siqli va to‘siqsiz vaziyatlarda alohida taktik tavsiflarga ega janglarni olib borish hajmlaridan ishonchli farqlar aniqlanmadi.

Prezidentimizning 2021-yil 29-apreldagi “Boksni yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori o‘zbek boksini yangi bosqichda rivojlantirish, yanada sharafli yutuqlarni qo‘lga kiritish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini bundanda oshirish yo‘lida muhim huquqiy asos bo‘ldi, deyish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, uning taraqqiyotini ta‘minlash borasida so‘nggi yillarda o‘ta muhim qaror va farmon, konsepsiya, dasturlar qabul qilindi. Beshta muhim tashabbus, O‘zbekiston sportini 2019-2021-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi, turizm va sport tizimini takomillashtirish, aholini ommaviy sport tadbirlariga keng jalb etish kabi davlat ahamiyatiga molik qator hujjatlar shular jumlasidan.

Biz o‘tgan yillar mobaynida aynan shu hujjatlar asosida ish olib bordik va muayyan natijalarga erishdik. 2019-yilgi jahon chempionatida, Olimpiya saralash musobaqalarida va boshqa xalqaro sport tadbirlarida erishgan yutuqlarimizning tub negizi mazkur hujjatlar ijrosidir, deyish mumkin.

Qayd etish joizki, 2020-yilgi epidemiologik vaziyatga qaramay, yil davomida 20 ga yaqin ommaviy boks musobaqasi tashkil etildi va ularda 4 mingga yaqin sportchi

qatnashdi. O‘zbekistonda boks bo‘yicha murabbiylik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar soni 1,5 mingdan oshdi. Ammo bu juda kam. Shunday bo‘lsa-da, murabbiy va mutaxassislarimiz doimiy izlanishda. O‘tgan yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida federatsiyamiz bo‘limlari tashkil etildi. Ularga tajribali murabbiylar, sportchilar birlashtirildi. Qashqadaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari yoshlari uchun jahon va Olimpiya o‘yinlari chempionlari bo‘lgan taniqli sportchilarimiz Muhammadqodir Abdullayev, O‘tkirbek Haydarov, Fazliddin G‘oyibnazarov va Iqboljon Xoldorov doimiy o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari o‘tkazib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Boksda usullarni bajarishning texnikasi va taktikasini o‘rgatish va takomillashtirish usulini o‘rganish va ilmiy asoslashga ko‘p sonli mualliflarning ishlari bag‘ishlangan. Lekin, ushbu ishlarda va boks bo‘yicha zamonaviy darsliklarda, musobaqalarning yangi shartlarida bokschilarning musobaqa faoliyatining taktik tavsiflariga bag‘ishlangan ma‘lumotlar kamuchraydi. Mavjud ma‘lumotlar bir qator qarama-qarshiliklarga ega bo‘lib, shu tufayli ham, zamonaviy boksning nazariyasi va amaliyotini qoniqtira olmaydi. Mavjud muammo, o‘rgatish va takomillashtirishni tashkil qilish paytida hisobga olinishi zarur bo‘lgan taktik harakat amallarining turli variantlarining ko‘p qirraligi bilan murakkablashtiradi. Maxsus adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, taktik harakatlarning miqdoriy parametrlariga nisbatan konkret tadqiqotlar va tavsiyalar yo‘qligi aniqlangan bo‘lib, bu, musobaqa oldi tayyorgarligining asosiy vositalaridan biri bo‘lgan – musobaqa faoliyatini modellashtirish imkoniyatini chegaralaydi.

Zamonaviy boksda musobaqa va mashg‘ulot hajmi hamda intensivligi juda ham oshgan, bu yoshlarning mashg‘ulotda og‘ir mashq yuklamalar orqali yoshlarning jismoniy ishchanlik holatiga salbiy ta‘sir etishi natijasida yosh

bokschilarning jismoniy va ruhiy jarohat olishlari mumkin. Shuning uchun yosh bokschilar bilan olib boriladigan mashg'ulot jaryonini samarali tashkil yetish muhim ahamiyatga egadir [1].

Bokschining tezkor-kuch imkoniyati – bu bir nechta tashkil etuvchilardan iborat bo'lgan harakatlar to'plami hisoblanadi.

Ilmiy manbaalarda bokschining maxsus tezlik sifatleri quyidagilardan tashkil topishini ko'rsatadi [2].

- oddiy vaziyatda texnik usulni qo'llash tezligi;
- murakkab vaziyatda texnik usulni qo'llash tezligi;
- oddiy vaziyatda fikrlash tezligi;
- murakkab vaziyatda fikrlash tezligi;
- oddiy vaziyatda tezkor qaror qabul qilish tezligi;
- murakkab vaziyatda tezkor qaror qabul qilish tezligi;
- bir harakatdan boshqasiga o'tish tezligi.

Yuqorida qayd etilgan metodik yo'naltiruvchi fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga o'rin berish mumkin:

- sportchining trenirovka jarayonini boshqarish muammolarini yechish ko'p jihatdan mazkur sportchining holati to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlar mavjudligiga bog'liq;
- test o'tkazish masalasi test tanlashning quyidagi uch asosiy qoidasini o'z ichiga oladi: test tanlash, o'lchash va baholash.

Bokschilarning tezkor kuch imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi:

- Takroriy tezkorlik;
- Qisqa muddatli maksimal tezkorlik;
- Tobora o'sib boradigan og'irliklar;
- Zarbdor;
- Birgalikda ta'sir ko'rsatish;
- Variantlilik.

Yosh bokschilar musobaqa faoliyati tahlilidan olingan natijalar mashg'ulot jarayonini rejalashtirishga yangidan yondashishga imkon yaratdi. Ya'ni musobaqa davrining ma'lum bir bosqichlarida qo'llaniladigan tayyorgarlik vositalari yo'nalishi va hajmini qayta ko'rib chiqishga yordam berdi. Biz o'quv mashg'ulot jarayonida jismoniy tayyorgarlikni oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borib, ikki bosqichli testlar kabul kildik. Bunda bosqichlarning har biri ma'lum bir vazifalarni ketma-ketlikda hal etishni nazarda tutgan edik. Ushbu holda biz faqat mashg'ulot jarayonini ko'rib chiqdik. Ushbu bosqichda qo'yidagi asosiy maqsad ko'zlandi bunda yosh bokschilarni - funksional, tezkor-kuch tayyorgarligi darajasini oshirish edi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda qatnashayotgan bokschilar uchun tezkor-kuch tayyorgarligining amaliy tavsiyalarda keltirildi. Tezkor-kuch tayyorgarligi vositalari hajmining oshirilishi, birinchi navbatda, shunga bog'liqki, adabiyot manbalari tahlili va dastlabki tadqiqotlar natijalari

tezkor-kuch sifatlarining muhimligi hamda katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlab berdi. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy tuzilmasida bu sifatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Aynan shuning uchun biz tezkor-kuch yo'nalishidagi vositalar hajmlarini oshirishga va ularni tekshirilayotgan ko'rsatkichlarda katta o'sishga erishish maqsadida mashg'ulot mikrosikllarida rejalashtirishini inobatga oldik. Sport tayyorgarligini tashkil qilishning oqilona shakllaridan biri aylanma mashg'ulot hisoblanadi. Tayyorlov mashqlarini bajarishda faoliyat xususiyatini musobaqa mashqlariga xos bo'lgan ish rejimiga yaqinlashtirish imkonini beradi va shu orqali mashqlanganlikning ko'chishi uchun qulay sharoitlar yaratadi [3].

Tayyorgarlik bosqichida qo'llaniladigan aylanma mashg'ulotni tavsiflab, shuni ta'kidlash joizki, qo'llaniladigan mashqlar yo'nalishi bir xil edi. Ma'lumki, agar mashg'ulot yuklamasi shiddati va davomiyligi yuqori bo'lsa, yuklama samarasi ancha katta bo'ladi. Shundan, tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda yuklamani maksimalgacha oshirishga va bir vaqtning o'zida ta'sir etish davomiyligini uzaytirish lozim. Shu sababli mashg'ulotda faqat tezkor kuchni rivojlantirish mashqlar qo'llanildi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, yosh bokschilarga o'rganilayotgan usulni uzoq vaqt takrorlash nisbatan sekinlashtirilgan harakatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Shu sababli murakkab mashqni nisbatan oddiy tarkibiy qismlarga bo'lib yuborish hamda bu elementlarni maksimal tezlik va kuchlanishlarda takomillashtirishni amalga oshirish oqilona bo'ladi. Agar harakatlarning ma'lum tuzilishga ega ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, shuni tan olish kerakki, harakat tizimining yaxlitligi uni qismlarga bo'lmasdan turib rivojlana olmaydi. Bu yerda tezkor-kuch tayyorgarligi vositalarini saralab tanlashga ahamiyat beriladi.

Biz tadqiqotimizda, Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 13-14 yoshli o'quv mashg'ulot guruhi bokschilarning tayyorgarlik davrida jismoniy tayyorgarlik komponentlaridan tezkor-kuch sifatlarining o'zgarish xususiyatlarini o'rgandik.

Yosh bokschilarning tezkor-kuch imkoniyatlari darajasini baholash uchun qo'yidagi testlar tanlab oldik.

Sportchilar maxsus jismoniy imkoniyatlarining kompleks namoyon bo'lishi qo'yidagi testlar bo'yicha aniqlandi (1-jadvalga qarang):

1. Turnikda 30 sekund davomida tortilish (marta);
2. 30 sekund davomida shtanga girifini oldinga otish (10 kg, marta);
3. 30 sekunda yotgan holda qo'llarni bukib yoyish (marta);
4. 30 metrga yugurish (s);
5. 60 metrga yugurish (s).

Testlar	Tajriba boshida $X \pm \sigma$	Tajriba oxirida $X \pm \sigma$	O'sishi %
30 soniya davomida turnikda tortilish (marta)	13,9 \pm 2,9	15 \pm 1,9	7,4%
30 soniya davomida shtangani oldinga otish (10 kg., marta)	57,0 \pm 6,2	59 \pm 3,6	3,4%
30 soniya davomida poldan tayanib qo'llarni bukib-yozish (marta)	41,6 \pm 4,8	43,4 \pm 4,3	4,2%
30 metrga maksimal tezlikda yugurish (soniya)	4,6 \pm 2,7	4,5 \pm 2,3	2,2%
60 metrga maksimal tezlikda yugurish (soniya)	9,5 \pm 3,0	9,4 \pm 3,1	1,6%

1-jadval. Yosh bokschilarning tezkor-kuch ko'rsatkichlari (n-12)

Yosh bokschilardan iborat saylanma to'plamga xos markaziy yo'naluvchanlik va o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan individual natijalarning joylashuvi (tebranuvchanlik) xususiyatlari quyidagi formula bilan hisoblandi:

1. O'rtacha arifmetik qiymat.

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i n_i}{n} = \frac{97}{12-1} = 8,8 \text{ 1)}$$

2. O'rtacha kvadratik og'irish (chetlanish).

$$\sigma^2 = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n-1} = \frac{435}{12-1} = 39,5 \text{ 2)}$$

$$\sigma = \sqrt{39,5} = 6,2 \text{ marta 3)}$$

Agar 1-jadvalga nazar tashlasak, unda pedagogik tadqiqot boshida olingan test natijalari Dastlabki olingan testlar natijasida yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligi o'rtacha deb baholandi. Yosh bokschilarning 30 sekund davomida turnikda tortilishi o'rtacha 13,9 marta natijani ko'rsatdi. Ikkinchi test 30 sekund davomida shtanga (10 kg) girifini oldinga otish ko'rsatkichi o'rtacha 57,0 martaga teng bo'ldi. Uchinchi testda yosh bokschilar 30 sekund davomida

yotgan holda qo'llarni bukib yozishi o'rtacha 41,6 martani tashkil etdi. Tezkorlik sifatini tahlil etish uchun 30 metrga yugurish testi qabul qilindi. Unda o'rtacha 4,6 soniyani ko'rsatdi. Oxirgi test 60 metrga yugurishda o'rtacha 9,5 soniya natijani ko'rsatib o'tdi.

Tajribadan keyingi statistik ko'rsatkichlarga e'tibor qaratsak, unda testlash natijalarining o'ziga xos rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ularni sharhlab, ta'kidlash joizki, deyarli har bir bokschida jismoniy tayyorgarlik darajasi o'sdi, lekin o'sish foizi bir xil emas. Ehtimol, shunday bo'lishi kerakdir, chunki ushbu bokschilarda bunday mashg'ulot yuklamalarini ko'tarishga tayyor turishning dastlabki darajasi har xil.

Tajriba oxirida ikkinchi marotaba ushbu testlar yana bir marotaba olindi. Yosh bokschilarning 30 sekund davomida turnikda tortilishi o'rtacha 15 martani tashkil etib statistik ko'rsatkichlar tebranuvchanligi 2.9 bilan tajribadan oldingiga nisbatan 3.4 % o'sish natijani ko'rsatdi.

Pedagogik tadqiqot boshi hamda oxirida olingan test natijalari taqqoslangan. Aytish joizki, deyarli har bir yosh bokschida jismoniy tayyorgarlik darajasi o'sishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida biz tomonimizdan o'quv-mashg'ulot jarayonida o'zgartirish kiritganimizning samarasi hisoblanadi. Mashg'ulot davomida berilgan tavsiyalar va ayrim mashqlar ushbu yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligining ijobiy jihatga o'sganligini yaqqol tasdiqlab beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, ish shiddati bo'yicha hamma sportchi ham mashq bajarilishining kerakli tezligini saqlab turishga qodir emas, ba'zilar u juda ham yuqori. Juda katta ish shiddatiga og'irliklar vaznini kamaytirish hisobiga erishish mumkin, bu esa ham sportchining, ham murabbiyning uslubiy xatosidir.

Olib berilgan maxsus adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik testlash va pedagogik tadqiqot natijasida biz tomonimizdan yosh bokschilarning o'quv-mashg'ulot jarayoniga qo'yidagi shart-sharoitlarni hisobga olishni tavsiya etdik:

1. Yosh bokschilarning trenirovka jarayonida amaliy metodik usullarni qo'llash maqsadga muvofiq.

2. Yosh bokschilarda nafaqat umumiy chidamkorlikni, balki turli sifatlarga (tezkorlik, kuch) bo'lgan maxsus

ADABIYOTLAR

1. Эшов.Э.С. Characteristics of the use of psychological technologies in the education system Российский импакт-факторнаучно-методический журнал. 2020 год 84- 86 ст.
2. Худадов Н. А. – В помощь тренеру. Бокс. Ежегодник. М. ФИС 1970 г.
3. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1011-1016.
4. Филимонов В.И., Нигмедзянов. Бокс, кикбоксинг, рукопашный бой (подготовка в контактных видах единоборств) – М.: ИИНСАН. 1999 – 416с.
5. Кравченко О.В. Моделирование взаимодействия участников соревновательного боя боксеров. Автореф. дис. канд. пед. наук. М.: 2000. с.25.
6. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.
7. Мухитдинова Н.М. Эшов Э. Improvement of psychology and pedagogical process on physical training // Intellectual Archive 2018 с 93-96.
8. Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. International Journal of Advanced Research in Monagement and Social Sciences. Vol.1 №2 February 2022.
9. Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma.

chidamkorlikni ham rivojlantirish bo'lajak mahoratga poydevor bo'lishi va bu jarayonni, hatto 13-14 yoshlardan boshlab amalga oshirish mumkin ekanligini dalolat beradi.

3 Oldingi ish izlari organizmning funksional reaksiyasini va keyingi vositalarning mashqlantirish ta'sirini o'zgartiradi.

4. Maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari kompleksini (yuklamalarining) mashqlantirish samarasi nafaqat organizmga mashqlantirish ta'sirlarining yig'indisi bilan, ko'proq ularning uyg'unligi, ketma-ketligi va ularni ajratuvchi vaqt oralig'i bilan aniqlanadi.

5. Maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini (yuklamalarini) vaqt oralig'ida qaytadan joylashtirish ularning mashqlantirish ta'sirini ancha o'zgartiradi.

6. Tezkor-kuchni rivojlantirishga oid mashqlar hajmini oshirish maqsadga muvofiq deb ta'kidlanadi.

Shunday qilib, ushbu tavsiyalarga amal qila turib, tezkor-kuch tayyorgarligi mashqlantirish ta'sirining tizimli samarasi ta'minlanishi mumkin. Aynan shuning uchun pedagogik tadqiqot olib borish paytida tezkor-kuch xususiyatida yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarlik darajasining yana yuqori o'sishini ta'minlovchi tuzatishlar avval taklif qilindi, keyin esa amalga oshirildi.

Tezkor-kuch tayyorgarligi mashg'ulotlarining 4 hafta bajarilganidan keyin sportchilar jismoniy tayyorgarligini tekshirilayotgan ko'rsatkichlari 4-chi haftada statistik ishonchli oshdi.

Tezkor-kuch tayyorgarligining 4-haftalik sikli qo'llanilganidan keyin mashg'ulotning kumulyativ samarasi kuzatiladi va 4 haftadan keyin sportchilar organizmini yanada yuqori funksional darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Har bir bokschida funksional tayyorgarlik darajasi o'zining chegaralariga ega va shuning uchun kelgusida tayyorgarlikning ancha yuqori darajasidan start olib, hamma tekshirilayotgan ko'rsatkichlar kompleksi bo'yicha faqat yanada past natijalarga erishish mumkin, chunki sport formasini egallash uchun. Qandaydir bitta parametrdan maksimal natijalar emas, balki hammasida optimal natijalar kerak. Faqat shundagina yuqori sport formasiga erishishga ishonch yuzaga keladi.



G'ofur XOLMO'MINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: kholmuminovgofur@gmail.com.

F.f.d. M.Yoqubova taqrizi asosida

THE PROBLEM OF EPISTEMOLOGY AND RATIONALITY IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation

The 21st century is a century of algorithms, information and rapid development. At present, it is impossible to imagine the development of production without information. The information space has a significant impact on society. Therefore, information becomes a priority in the relations between faiths, political processes, community management, the organization of scientific research, education, advocacy. For this reason, the philosophical and methodological analysis of the correct and rational use of information and the Internet by young people is very relevant today.

Key words: information, epistemology, technology, rationality, democracy, technology, structured information, information war, creation, internet, power.

ПРОБЛЕМА ЭПИСТЕМОЛОГИИ И РАЦИОНАЛЬНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

XXI век алгоритмов, информации и стремительного развития. В настоящее время невозможно представить развитие производства без информации. Информационное пространство оказывает значительное влияние на общество. Поэтому информация становится приоритетом в отношениях между конфессиями, политическими процессами, общественным управлением, организацией научных исследований, образования, адвокатуры.

По этой причине философско-методологический анализ правильного и рационального использования молодежью информации и Интернета сегодня очень актуален.

Ключевые слова: информация, эпистемология, технология, рациональность, демократия, технология, структурированная информация, информационная война, сознание, интернет, власть.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA EPISTEMIOLOGIYA VA RATSIONALLIK MUAMMOSI

Annotatsiya

XXI asr algoritmlashtirish, axborotlashtirish va tezkor rivojlanish asridir. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning rivojlanishini axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot maydoni jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun axborot inmonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy tadqiqotlarni, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish, targ'ibot-tashviqot ishlarida ustivor g'oyaga aylanadi. Shu sababdan yoshlarning axborot va internetdan to'g'iri va oqilana foydalanishning falsafiy metodologik tahlili bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: axborot, epistemologiya, texnologiya, ratsionallik, demokratiya, texnika, strukturalashgan axborot, axborot urushi, ongi, internet, avtoritet.

Kirish. Bugun mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish g'oyasining asosiy yo'nalishlaridan birini insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini ta'minlash tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, bugun biz yashayotgan globallashtirish va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur isloholar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qat'iyat bilan rivojlanib borish natijasida o'z oldimizga qo'ygan istiqbolli maqsadlarga – taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz.

Ma'lumki, XX asrda paydo axborot haqidagi qarashlarning rivojlanishi kompyuterlashtirish, axborotlashtirish, axborotlashgan jamiyat, innovatsion texnologiyalar kabi konsepsiyalarning shakllanishiga olib keldi. Avvalambor, axborotlashtirish sohasi hamda avtomatlashtirish usullarining rivojlanishi ijtimoiy hayotning turli sohalari kompyuterlashuviga, shuningdek axborotlashtirish jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

Prof.N.Shermuxeamedova ta'kidlab o'tganidek, bugungi kunda insoniyatning axborot-kompyuter texnologiyalari jamiyatiga o'tishi hamda Internet g'oyasining

amalg oshirilishi ilmiy tafakkur uslubida tub burilish yasadi. Bundan tashqari, axborot kommunikatsiyalari, ijtimoiy axborot, professional axborot, tafakkur uslubining shakllanishi haqidagi g'oyalalar hamda ijtimoiy va ilmiy axborot turlarining farqlanishi g'oyalari ham alohida ahamiyat kasb etdi. Darhaqiqat, ijtimoiy axborotning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik, sotsiologik va boshqa shakllari, ya'ni ijtimoiy informatsiologiya nuqtai – nazaridan o'rganiladigan axborot bilan to'qnashamiz. Demak, ijtimoiy - falsafiy jihatdan, axborot – inson hayotidagi turli jarayonlar sirkulyasiyasidir[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi paytda axborot hajmi va kirib borishi jihatidan insoniyatning bitmas-tuganmas strategik zahirasiga aylanmoqda. Bu ob'ektiv ravishda shunga olib keldiki, uchinchi ming yillik ostonasida jamoaviy, umumjahon tafakkuri hayratlanarli darajada o'smoqda. Хусусан мазкур мақолада, Shermuxeamedova N. Sotsialno- filosofskie aspekti formirovaniya stilya nauchnogo i ego metodologicheskoe enachenie. Dis...d-ra filoz.nauk

Шунингдек, Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari./ Uslubiy qo'llanmalarida mavzu bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot texnologiyalarining o'sishi, axborotlashgan jamiyatning

vujudga kelishi, innovatsion iqtisodiy tizimning shakllanishi ijtimoiy transformatsiyasiga olib keldi. Ijtimoiy transformatsiyalar davrida bilish jarayoni, bilish imkoniyatlari, chegaralari kabi epistemologik muammolar ijtimoiy jarayonlarning mezonlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Jamiyatda bilish jarayoniga munosabat ham o'zgardi. Ilmiy bilimlar o'sdi, bilish jarayonida sub'ekt roli o'zgardi, sub'ekt-ob'ekt munosabatlari, bilish jarayonida kommunikativlik yangicha talqin etila boshlandi. Natijada ilmiy bilish jarayonida transformatsiya yuzaga keldi. Bu transformatsiya natijasida birinchi bor nafaqat turli fanlararo, balki barcha shakldagi ijodiy faoliyat o'rtasida ko'chib o'tishlik (integratsiya), uyg'unlashish (sintez) uchun real imkoniyat yaratildi. Bu o'z navbatida zamonaviy epistemologiyada antropologik burilishga olib keldi. Ya'ni epistemologiyada bilimlarning hosil bo'lish jarayonida sub'ektiv jihatlarga, ya'ni yangi bilimlarning hosil bo'lish natijasiga emas, balki aynan ularning hosil bo'lish jarayoniga e'tibor kuchaydi. Bilish jarayonida sub'ektdagi kognitivlik (kognitivlik shaxsning bilish jarayonidagi qobiliyati bo'lib, unga idrok, tafakkur, ong, xotira kiradi.), qadriyatlar tizimi, an'analari, yashirin bilimlari ham e'tiborga olina boshlandi. Klassik an'ana hisoblangan inson va tashqi olam o'rtasida chegara qo'yishdan voz kechilmoqda. Inson bilish jarayonida faol, o'zining kognitiv, transsendental xususiyatlari va ob'ekt bilan yaxlitlikda tadqiq etilsagina jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida mavjud global muammolarni hal etishi mumkin ekanligi ilmiy isbotlandi.

Ilmiy bilimlar rivojlanishi, undagi transformatsiya zamonaviy epistemologiyada ham transformatsiya sodir bo'lishiga olib keldi. Epistemologiya ilmiy yo'nalish sifatida yangi tizimga o'ta boshladi. Epistemologiyaga oid bilimlarda sifatli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ya'ni zamonaviy epistemologiya yangi metodologik tamoyillar asosida ilmiy bilish jarayoni, uning imkoniyatlari, chegaralarini tadqiq eta boshladi. Bilish jarayonida sub'ektdagi irratsional va ratsional jihatlarining birligi e'tiborga olina boshlandi. Bilish ob'ektlarining o'zgarishi sub'ekt va ob'ekt munosabatlarning ham transformatsiyalanishiga olib keldi. Fanning har bir rivojlanish davrida bilish ob'ekti o'zgarib boradi va bu o'zgarishlar quyidagilar bilan xarakterlanadi: birinchidan, fan ob'ekti yangi ob'ektlar hisobiga kengayib boradi. Bu yangi ob'ektlarning ba'zilar ilmiy texnologik rivojlanish natijasi hisoblanadi. Masalan, bularga sun'iy intellekt, biotexnologik va ijtimoiy strukturalarni misol qilish mumkin. Bu ob'ektlarning oddiy kengayishi bo'lmasdan, tobora fan o'rganuvchi ob'ektlarning insoniyatlashib borishidir. Ya'ni zamonaviy fanda tadqiq etilayotgan ob'ektlar bevosita inson mavjudligi uning faoliyati bilan bog'liq holda ko'riladi. Inson bunday bilish jarayonida ob'ektlarga oddiy kirib bormasdan, balki tabiiy jarayonlarda faol ishtirok etadi, tizim hosil qiluvchi tamoyil, barcha ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida ta'riflanadi. Ikkinchidan, bunday ob'ektlar to'g'risidagi tafakkur inson mo'ljallari, qadriyatlarini, bilish jarayonlaridagi vositalar, maqsad va qadriyatlarini ifoda etuvchi bilish sub'ektining xususiyatlari bilan bog'liqdir. Masalan, klassik fan chiziqli, yopiq tizimlarni o'rganib keldi. Vaholanki, bunday tizimlar tabiiy va ijtimoiy borliqning bir qismini tashkil etadi, xolos. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, "zamonaviy ilmiy tafakkur olamga muammoli konstruktiv munosabat doirasida shakllandi va rivojlanmoqda"[2]. Zamonaviy fanning murakkab ob'ektlarni o'rganishi bilish jarayoniga tasodifni ham kiritilishiga olib keldi. Tasodif

tafakkurning elementlaridan biri bo'lib, u inson faoliyatining dasturida mavjud ekanligi ta'kidlanmoqda[3].

Tahlil va natijalar. Demak, zamonaviy epistemologiyada o'zgarishlar yuz bermoqda va bunda ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarini asosiy omil deb hisoblashimiz mumkin. Chunki ilmiy bilimlar tizimidagi transformatsiyalar, pirovardida epistemologiyadagi transformatsiyalarga olib kelgan. Epistemologiyadagi transformatsiyasida ilmiy bilimlar tizimidagi transformatsiyalar asos bo'lib xizmat qilgan ekan.

Buni zamonaviy epistemologiyadagi "kognitiv inqilob" misolida ham ko'rishimiz mumkin. Kognitivlikka e'tiborning kuchayishiga falsafa, fan tizimidagi o'zgarishlar, kompyuter inqilobi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, falsafadagi antropologik yondashuv, noklassik falsafiy tafakkurning shakllanishi; tabiiy fan sohalaridagi inqilobiy o'zgarishlar; axborot texnologiyalarining ilmiy bilishda keng qo'llanilishida ko'rish mumkin.

Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlari – bilimlardagi strukturaviy, sifatli o'zgarishlar bo'lib, ilmiy bilimlar tizimining yangi murakkab tizimga o'tish jarayonidir. Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayoni, fan vujudga kelgandan buyon bir necha bor kuzatilgan ob'ektiv jarayondir. Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarining determinantlari bo'lib fanning mantiqiy qonuniyatlari va ijtimoiy – madaniy omillar xizmat qiladi.

Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayoni eski tafakkur usullari inqirozga uchragan paytda sodir bo'ladi. G.Xaken ta'riflaganidek, fan statik ko'ringani bilan, dinamik xarakterga ega. undagi mavjud bilimlar tizimi doimo o'zgarib, murakkablashib boradi. Fan tarixi ko'rsatadiki, real olamni o'rganishda tobora nozik strukturaviy darajalarga o'tilishi albatta yangi epistemologik prinsiplarni qo'llashni talab etadi. O'rganish ob'ektidagi o'zgarishlar bilish jarayonidagi o'zgarishlarga olib keladi.

Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarining mohiyatini tadqiq etishda rivojlanish, o'zgarish tushunchalariga nisbati muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, barcha ochiq tizimlarda o'zgarishlar qaytmas xarakterga ega, ya'ni o'zgarishlar ma'lum muddat davomida to'planib boradi, tizimning oldingi holatining o'zgarishiga olib keladi. Agar o'zgarishlar tizimda yangi sifatning hosil bo'lishiga olib kelsa, tizimda rivojlanish e'tirof etiladi. Demak, rivojlanish tizimlardagi evolyusiya bo'lib, bunda tizim tuzilmasining murakkablashuvi sodir bo'ladi. Ma'lumki evolyusiyada strukturaviy darajalardagi murakkablik ortib boradi. Buni nazarda tutadigan bo'lsak, ilmiy bilimlardagi transformatsiya natijasida ham bilimlar tizimining murakkablashuvi sodir bo'ladi. Chunki "murakkablik va nochiqlik materiya, aql, jamiyat evolyusiyasining ajoyib xususiyati hisoblanadi"[4].

Xulosa qilib aytganda, axbrrot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir. Shu sababli axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida axborotlashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'yan mamlakatlar emas, balki ta'lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta'minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Shermuxamedova N. Sotsialno- filosofskie aspekti formirovaniya stilya nauchnogo i ego metodologicheskoe enachenie. Dis...d-ra filol. nauk. –T.200, - S.170
2. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari./ Uslubiy qo'llanma.-T.:Star Poligraf, 2008, -24 bet

3. Ismayilov, A. Z. Xolmo_minov, G_.B. (2020). O_zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etishning tarixiy-nazariy ildizlari. Proceedings of Global Technovation- An International Multidisciplinary Conference. Hosted from Samsun, Turkey 31 October 2020. 93-96 betlar.
4. Ziyadillaevich, I.A., & Bobonazarovich, G.K. (2020). The origin of the state and the implementation of legal statehood ideas on the territory of uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 6(10), 520-524.
5. Xolmo_minov G_. October 2020 Ta'lim tizimida metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. "Science and Education" Scientific Journal . 472-475 – betlar.
6. Hojiyev R.B., Xolmo_minov G.B., Sharipov M.L. (2020) Raising a harmoniously developed generation is a priority of democratic reforms in uzbekistan. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, Part II ISSN 2056-5852.
7. Xolmo_minov G. Buyuk faylasuflar qarashlarida “bilim” va “e’tiqod” tushunchalarining differentsiatsiyasi. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 3 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723 doi: 10.24411/2181-1385-2021-004



UDK: 681.42.37:371.3

Shuxrat XOLMURODOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: shxolmurodov@gmail.com

TerDPI Informatika va uni o'qitish metodikai kafedrasini mudiri, PhD S.Sattorov taqrizi asosida

CURRENT STATE OF THE PROBLEM OF THINKING DEVELOPMENT IN GENERAL SCHOOL STUDENTS

Annotation

The article describes the current situation of the problem of development of thinking among students of a general education school from a critical point of view.

Key words: staff, national, program, rule, knowledge, mastery, development, ability, thinking, talent, spirituality, generation, perfect, society.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ У ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье с критической точки зрения описано современное состояние проблемы развития мышления учащихся общеобразовательной школы.

Ключевые слова: кадры, народ, программа, правило, знание, мастерство, развитие, способности, мышление, талант, духовность, поколение, совершенное, общество.

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING HOZIRGI AHVOLI

Аннотация

Maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish muammosining hozirgi ahvoli tanqidiy nuqtai nazaridan bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kadr, milliy, dastur, qoida, bilim, o'zlashtirish, rivojlanish, qobiliyat, tafakkur, iqtidor, ma'naviyat, avlod, barkamol, jamiyat.

Kirish. Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “ta’lim to’g’risida”gi qonun natijasida ta’lim tizimida katta ijobiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Umumta’lim maktablari o’quvchilarining bilimlarini oshirishlari, muayyan fan asoslarini chuqur, mukammal va puxta o’zlashtirishlari qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, mantiqiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanishiga e’tibor qaratilmoqda.

Inson tafakkuri, ilmiy salohiyati, qobiliyati mamlakatimiz ijtimoiy boyligi sanaladi. Kelajakda Vatanimizning farovon bo’lishi ko’p jihatdan bugungi o’quvchi – yoshlarimizning iqtidoriga, iste’dodiga, chuqur va zukko tafakkurli, bilimdon va ma’naviyatli bo’lishiga bog’liq.

Yosh avlodning barkamol bo’lib yetishishida informatika ta’limining ahamiyati katta bo’lib, informatika nafaqat barcha fanlarni o’zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonlarning o’zaro aloqaga kirishishida – muloqotning shakllanishida ahamiyatli.

Bugungi kunda informatika fani oldiga qo’yilgan asosiy vazifalardan biri – bu yoshlarda o’z yaikrlarini mustaqil, mantiqiy ketma-ket, izchil, mediata’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta’sirli holda yetkazib berishdan iborat.

Informatika fanini o’qitish masalalariga aniqlik kiritish, bu sohada to’plangan barcha yutuqlarni yanada boyitish, ularni umumlashtirish, nazariyaning amaliyot bilan uyg’unligini isbotlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, tafakkurning ko’p qirraliligini informatika o’qitishda amalga oshirish, umumta’lim maktablari uchun talim berish metod va usullarini ishlab chiqish hozirgi pedagogika oldida turgan, hal qilinishi zarur bo’lgan dolzarb vazifalardan. Chunki tafakkur ko’p qirrali

bo’lib, o’quvchi bilimi rivojlanib, bir necha aqliy faoliyat bir vaqtning o’zida amalga oshadi, bu esa o’quvchi shaxsi rivojlanishiga turki bo’ladi.

Umumta’lim maktabi o’quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko’p jihatdan o’quv – tarbiyaviy jarayonni tashkil etishga bog’liq. Shu bois ta’limda tafakkurni rivojlantirmasdan, zamonaviy texnologik usullarni qo’llamasdan turib, kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash mumkin emasligi hech kimga sir bo’lmasa-da, bu sohada hali ko’zga tashlanadigan ish qilinganicha yo’q. Ayniqsa, hozirgi informatika fanini o’qitishda o’quvchi tafakkurini rivojlantirishning asosiy omili bo’lgan falsafiy qonuniyatlar va kategoriyalarga tayanish, falsafiy mushohadalar yuritish xulosalar chiqarish e’tiborga loyiq. Negaki, barcha fanlarning metodologik asosi falsafa bo’lishi bilan birga, har qanday fan qonuniyatlarining asosi falsafiy kategoriyalardan iborat. Shunday ekan, ta’limni tashkil etishning amaldagi nazariyasi va an’anaviy pedagogik amaliyot zamon talablariga to’liq javob bera oladimi, informatika fanini o’qitishda falsafiy bilimlarning o’rni qanday, degapn savol tug’iladi [2].

Informatika fani o’quvchilar mavqeini, faolligini, ilmiy dunyoqarashini kreativligini yuqori darajaga ko’tarmasdan va o’quvchilarni o’quv – tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirmasdan turib, shuningdek, falsafiy bilimlarni o’rgatmasdan oldin ularning tafakkurini rivojlantirish mumkin emas. O’quvchi faoliyatini o’rganish, bilimlarni o’zlashtirish jarayonini ularning tafakkuriga mo’ljallab tashkil etish muammosini tadqiqi etishda O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning fikri dasturulamal bo’lib xizmat qiladi: “... ta’lim – tarbiya ong mahsul, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivoji ham belgilaydigan omildir... Ongni va tafakkurni

o'zgartirmasdan turib, biz ko'zlagan ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".

Shuning uchun ham ushbu tadqiqot ishi informatika o'qitishning ilmiy salohiyatini ko'tarishning metodologik asoslari, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish va o'z fikrini mustaqil ifodalashda mantiqiy ketma-ketlik, izchillik, informatika faniga oid so'zlar zahirasidan o'rinli va samarali foydalanishning nazariy asoslari, shuningdek, amaliy – tatbiqiy masalalar haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqot ishida umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda o'qituvchining falsafiy bilimlardan xabardor bo'lishi, mavzularga olamning yagona falsafiy tushunchasining har tomonlama shakllanishi nuqtai nazaridan yondashishi, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishi va muntazam ravishda o'z ustida ishlab borishi, mustaqil fikrlashi, mashg'ulotlarni kreativ o'tishi e'tiborga olingan [3].

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda borliq va uning elementlari (butun va bo'lak)ni, narsa va hodisalarning mavjudligi, ularning o'zaro biri ikkinchisi bilan aloqadorligi tizimni, shu bilan birga o'zaro farqlanishini, narsalarning xususiyatlarga ega bo'lishini, ularning zamonda mavjud ekanligi (zamon kategoriyasi)ni, inkor va tasdiqni ifodalashi (bo'ltishli – bo'lishsiz, inkor – tasdiq)ni va boshqa falsafiy – hayotiy tushunchalarni informatika faniga oid tushunchalar bilan muqoyasa qilinishi maqsadga muvofiq. Buning uchun o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan tanish bo'lishigina emas, balki uning yaratuvchisi bo'lishi lozim.

Informatika fani darslarida yaratilayotgan innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy e'tibor o'quvchining informatikaga doir atamalardan to'g'ri, ta'sirli foydalana olishiga qaratilmog'i kerak. Buning uchun esa o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga e'tibor qaratilmog'i zarur. Bu esa informatika fani o'qituvchilari oldiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ma'lumki, tafakkur orqali insonlar olam sirlarini anglab yetadilar, hukm – xulosalar chiqaradilar. Shuning uchun ham ushbu masalalarga azal-azaldan e'tibor berib kelingan. Qomusiy olimlarimiz Abu Rayhon beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiyalar ijodiga nazar tashlasak, ularda bola tarbiyasi undagi aqliy faoliyatni rivojlantirish masalalari borliq va uning qonuniyatlari bilan qo'shilgan holda beriladi [6].

Mantiqiy fikrlash bo'yicha Abu Ali ibn Sino o'z fikrlarini bayon etib, turli mantiqiy usullarni ta'riflash, hukm – xulosa chiqarish, ayniqsa, isbotlash tufayli insonning aqliy qobiliyati borgan sari rivojlanib borishini ta'kidlab o'tadi [5].

Falsafa va mantiq ilmda tafakkur o'stirish masalalari Arastunning "Metafizika" monografik asarida bayon etilgan. Uning fikricha, dialektika – oddiy suhbat qurish san'ati emas, balki borliq va tafakkurning umumiy asoslarini bilish, birinchi navbatda, falsafiy tadqiqotlarni ilmiy metodda aniqlash. Bunda sezgi va tafakkurimiz bergan ma'lumotlar asosida falsafiy va ilmiy bilimlarni qurishda haqiqiy metodni tushunish anglandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson tafakkuri va mantiq masalalari akademik J.Tulenov, A.Choriev, I.Ergashev, V.Alimasov kabi professorlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Ularda shaxs tafakkurini rivojlantirish uning kamolotga yetishishida falsafiy dunyoqarash asos bo'lishi ta'kidlangan. Jumladan, akad. J.Tulenov mantiqiy fikrlash o'z fikrini asoslash tufayli o'quvchida tafakkur takomil bo'lishini ta'kidlab, "Muayyan mavzudagi o'z nuqtai nazarini bayon qilishning mantiqiy metodlaridan foydalana bilsin. Bunda inkor etilgan fikrlarning asossiz ekanligini isbotlaydigan dalillar bo'lishi kerak" deb tushuntirsa, I.Ergashev: "butun falsafa har bir inson ongi va tafakkur tarzi, dunyoni idrok etishi, unga munosabati, o'zligini

anglashdarajasi, qadar-qimmati bilan bog'liq bo'lgan qarashlari hamda amaliy faoliyatining majmumi", deya ko'rsatadi. V.Alimasov "falsafaga oid bo'lmagan mavzu ham yo'q, mazmun ham yo'q" ekanligini isbotlaydi.

Mantiq – insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosachiqarishda xatolardan saqlandi.

Falsafa va informatika fanida butun va bo'lak munosabatlari, ayrimlik, xususiylik masalalari bo'yicha Farididdin Attor "jamiki ashyolar" hodisa va sifatlar yakkalik, alohidalik va umumiylikqonuniyatiga bo'ysundi, deb aytgan edi.

Farobiy ta'limotiga ko'ra: "Hamma narsalar uchun umumiy jism – olam. Demak, umumiylik mavjud ekan, alohidalik, xususiylik ham mavjud. Ular bir-birlari bilan o'zaro aloqador – dialektik birlikda. Umumiylik va xususiylikni aniqlash, fikrlash – bu fahm – farosat va zehning tafakkur tomon siljishida namoyon bo'ladi".

Professor H.Shamsiddinov ayrimlik, xususiylik va umumiylikni psixologik omil deb ko'rsatadi. Ob'ektiv voqelikdagi narsa – hodisalarni nomlashda dialektikaning muhim kategoriyalari bo'lgan ayrimlik, xususiylik va umumiylik yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Professor A.Nurmanov xususiylik va umumiylik o'rtasidagi aloqadorlikni his qilish ahamiyatkasb etishini ko'rsatib, "Agar kishi fahmiybilish darajasida qolib, xususiyliklarni umumiyliklarni umumiylikka birlashtira olmasa, u haqiqiy ob'ektiv bilimga erisha olmaydi", – deydi. Ana shu fikrlarni tilshunos olim R.Safarova davom ettirib, uning inson ongida, tafakkurida qanday ahamiyat borligini isbotlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ob'ektiv birlikdagi umumiylik va xususiylik tushunchalari orasidagi aloqadorlik inson ongida umumiylik va xususiylik tushunchalarining ifodasi aniq aks etishi bilan bevosita bog'liq. Professorlar H.Nematov, O.Ta'kidlaganidek, fanlar taraqqiyoti shu davrning ilg'or falsafiy fikri, davri uchun yetakchi bo'lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog'liq.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, aytish joizki, o'quvchilar fahm – farosat, tafakkurorqali olamni o'rganadilar, faoliyat ko'rsatadilar, isbotlaydilar, farqlaydilar, butun, yaxlit ob'ektni bo'laklarga bo'linish xususiyatlarini, butunga aylanish tomonlarini, umumiylik va xususiylikni, ular o'rtasidagi aloqadorlikni anglab etadilar, ulardan zaruriy xulosalar chiqardilar. Bularning barchasi o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning zaruriy shartlari bo'lib hisoblanadi. Chunki har qanday fanning asosini falsafa va mantiq fanlari tashkil etadi. Shu bois tadqiqot ishimizning katta qismini umumiylik va xususiylik borliqning butunligi va uning qismlarga ajralishi masalalarining informatika fanini o'qitish jarayoniga tatbiq haqidagi ma'lumotlar egallagan. Umumta'lim maktablarida informatika fanini falsafiy jihatdan o'rganish, shu asosda o'quvchilar tafakkurini o'stirish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha ulkan ishlar olib borilmoqda. Bunday islohotlar har bir fan, jumladan informatika fani oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu mas'uliyatli vazifani ado etish, ayniqsa, informatika o'qituvchisi oldiga ulkan vazifalar qo'ymoqda. Ular oldiga quyidagi uch vazifa qo'yilgan:

- 1) o'quvchining fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- 2) o'z fikrini informatika fani orqali voqklashtirish;
- 3) informatika faniga oid matnini yozma shaklda ifodalash.

Bularning asosida o'quvchi tafakkurini o'stirish yotadi. Chunki fikrlash ham, uni nutqiy moddiylashtirish ham va yozma shaklda berish ham inson tafakkuri mahsuli sanaladi.

O'qitishning didaktik metodlari sohasida to'plangan barcha boyliklarni egallash va ularni har doim yangilab borish o'qituvchilar oldiga o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim berish vazifasini qo'yadi.

Psixolog olim E.G'oziev yuqori sinf o'quvchilarida tafakkur mustaqil, chuqur bo'lishi kerakligi haqida o'rinli fikrlarni aytgan. Yuqori sinfda informatika fanidan mustaqil fikr yuritish metodikasi va texnikasi vujudga keladi, bilim olish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Bularning barchasi o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Tahlil va natijalar. Ta'limda kreativlikni tashkil qilish, darsni loyihalash muammolari majmualari o'rganish orqali tafakkur o'stirish masalalari R.Ibragimov, L.M.Fridman va I.Yu.Kulagina, D.I.Kochetov, V.Karimova kabi olim va olimalar tomonidan tadqiq etilgan. L.M.Fridman va I.Yu.Kulagina o'quvchilar shaxsining rivojlanishida o'smirlikdan o'spirinlikka o'tish o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rsatib, bu, eng avvalo, ularda o'zini takomillashtirish istagi (yoqimli bo'lish)ning kuchayishi va o'qishga bo'lgan qiziqishining o'sishi bilan tavsiflanishini aytgan edilar. Eng avvalo, o'qituvchining o'zidafarazlar qo'yish, darsni loyihalay olish rivojlangan bo'lsa, u ta'limda tafakkur o'stira olishini pedagog R.Ibragimov ham isbotlab beradi.

Pedagogik va metodik adabiyotlarda o'quv-tarbiyaviy ishlarning sifati va samaradorligini oshirish uchun muammolarni majmualari o'rganish lozim.

Yuqoridagi kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, tafakkur o'stirish uchun o'quvchini har tomonlama o'rganishga, ularning ruhiyatiga kirib borish, darsga qiziqitira olish ahamiyatli hisoblanadi. Chunki "qiziqishlar bo'lmasa yoki yetarli ozuqa olmasa, hayot zerikarli.

Qiziqishni boshdan kechirayotgan individda izlanish, hamma narsaga aralashish, yangi axborot olish yo'li bilan tajribasini kengaytirish, o'zida qiziqish uyg'otgan ob'ektda yaqinlashish xohish paydo bo'ladi.

Psixolog R.Asomova e'tirof etishicha, motivlar shaxsni aqliy-amaliy harakatlarga, muomala jarayoniga undovchi, hulq-atvorni qondirish bilan bog'liq sababiyat.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga doir bir qancha psixologik tadqiqot ishlari olib borilganligi yuqorida bayon qilindi. Biroq ayni umumta'lim maktabi o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish, ularda motivatsiya hosil qilish lozimligi, informatika fanni falsafiy asosda tashkil etish hozirgi informatika fanida maxsus tadqiqot sifatida o'rganilmagan. shuning uchun mazkur tadqiqot ishimiz informatika fanida o'quvchilarda motivatsiya hosil qilishda qo'l keladigan metodik ishlanmalar, tavsichiyalar tizimi ishlab chiqilganligi bilan dolzarb.

Informatika fanini o'qitishda metodist olim va amaliyotchilar tafakkur rivojlantirishning u yoki bu tomonlarini tadqiq qilishga muvaffaq bo'lishgan. A.A.Abdudodirov, M.Aripov, Ch.B.Normurodov, Boboqulova, U.Sh.Begimqulovlarning tadqiqot ishlarida tafakkurni rivojlantirishning ma'lum jihatlari o'zining ilmiy ifodasini topgan. Tafakkurni rivojlantirishda tahlil malakasini takomillashtirish muhim.

Informatika fanini o'quvchilarga singdirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasida A.A.Abdullaevning ishlarini ko'rsatish mumkin. Fikr mustaqilligi uning sermahsulligi samaradorligida ko'rinadi. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalari, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishini mustaqil tafakkur sohibi deyish mumkin.

Xulosa va takliflar. Interpretatsion faollik o'qituvchidan informatsion-izlanuvchanlik metodlarini talab qiladi va o'quvchida ma'lum darajada kreativ faoliyatni ta'minlaydi.

Informatika fanini o'qitishni falsafiy asosda tashkil etish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash – davr taqozasi. Tadqiqot ishimizning yana bir muhim jihati shundaki, falsafiy mushohada o'qitishda o'quvchilar faoliyatini faollashtirishga, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga zamin hozirlaydi va o'qitish tamoyillarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya berishda integratsiya masalasini hal qiladi. Ta'lim-tarbiyada mashg'ulotlar rang-barangligiga erishish, motivatsiya hosil qilish va shu yo'l bilan tafakkurni rivojlantirish yo'l – yo'riqlari ko'rsatib berilgani bilan tavsifli. Mazkur tadqiqot ishi mohiyat e'tibori bilan informatika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga o'rgatishning ilmiy – metodik asoslariga bag'ishlangan.

Yuqorida tilga olingan ishlar ilmiy izlanishlarimiz uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. O'z-o'zidan ma'lumki, informatika fanini o'qitishda o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish masalalarining zamonaviy ta'lim texnologiyalar bilan bog'lab o'rganilishini qoniqarli deb bo'lmaydi.

Shu kunga qadar informatika fanini o'qitish metodikasiga doir ilmiy-tadqiqot ishlari, risolalar hamda metodik qo'llanmalarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, bahs-mulohazalarni darslar tashkil etish, informatika faniga doir atamalarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'rgatish; informatika fanini falsafa hamda mantiq qonunlari, shuningdek, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lab o'qitish yo'l-yo'riqlari haqida aniq ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Ushbu tadqiqot ishi umumta'lim maktablaridagi mana shu kematiklikka barham berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash lazzati. -T.: "Ma'naviyat", 2001. -B. 102.
2. Irisov A. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. -T.: "Fan", 1980. -B. 117.
3. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. -T.: "O'zbekiston", 1998. -B. 159.
4. Ma'naviyat yulduzlari. -T., 1998. -B. 91-92.
5. Tulanov J. Dialektika nazariyasi. -T.: "O'zbekiston", 2009. -B. 156.
6. Choriev A. Inson falsafasi. -T.: "Chinor", 2002. -B. 103.
7. Shamsiddinov H. Funksional – semantik sinonimlarni yuzaga keltiruvchi psixolingvistik omillar. /O'zbek tili va adabiyoti. -1997. -2-son. -B. 32.
8. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. -T., 2000. -B. 28.
9. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. -T., 1993. -B. 5.
10. Babinskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. -T.: "O'qituvchi", 1990. -B. 27.
11. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. -T.: "O'qituvchi", 1990. -B. 176.
12. Ibragimov R. Problemnnyy podxod obucheniya mladshix shkolnikov. Avtoref. diss... kand. ped. nauk. -T., 1981. -16 s.
13. Kachetov A.I. Pedagogicheskoe issledovanie. -Ryazanov, 1976.
14. Karimova V. Psixologiya. -T.: "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi", 2002.
15. Asomova R. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Ped. f. n. diss... -T., 2002. -195 b.



UDK: 37.02:004.5

Jaxongir XOMIDJONOV,

O'zMU tayanch doktoranti

Erkin BOZOROV,

O'zR FA Yadro fizikasi instituti Yadro tibbiyoti laboratoriyasi bosh ilmiy xodimi, O'zMU professori f.-m.f.d

Gulnoza PALVANOVA,

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

Oqila SUVANOVA,

Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

E-mail: j_xomidjonov@mail.ru

O'zRFA Yadro fizika instituti f.-m.f.n., k.i.h. G'.A.Qulabdullaev taqrizi asosida

ODAMNING TAYANCH HARAKATLANISH APPARATIDAGI BO'G'IMLAR VA RICHAGLAR MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR QO'LLAGAN HOLDA MUSTAHKAMLASH

Аннотация

Maqolada "Fikriy va yalpi fikriy hujum" interfaol metodlaridan foydalanib "Odamning tayanch harakatlanish apparatidagi bo'g'imlar va richaglar" mavzusini o'qitish usulining qo'llanilishi bayon etilgan. Mazkur interfaol metodlar yordamida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari, talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi, o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi dars jarayonda o'zining sezilarli samarasini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: "Fikriy va Yalpi fikriy hujum", biomexanika, bo'g'imlar, richaglar, atlant-ensa, epistrof-atlant falanga, kompetensiya, empirik, Student kriteriyasi.

УКРЕПЛЕНИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ТЕМЕ СУСТАВЫ И РЫЧАГИ В ДВИГАТЕЛЬНОМ АППАРАТЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье описано использование методики преподавания темы «Суставы и рычаги в опорно-двигательном аппарате человека» с использованием интерактивных методов «Мышление и общий мозговой штурм». Результаты научных исследований, проведенных с помощью этих интерактивных методов, формирование у учащихся навыков самостоятельного, свободного и творческого мышления, установление взаимного сотрудничества преподавателя и учащихся показали свой значительный эффект в учебном процессе.

Ключевые слова: «Интеллектуальный и общий мозговой штурм», биомеханика, суставы, руки, атланта-шейный, эпистрофо-атланта-фаланговый, компетентность, эмпирический, критерий Стьюдента.

STRENGTHENING USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECT OF JOINTS AND LEVERS IN THE HUMAN LOCOMOTIVE APPARATUS

Annotation

The article describes the use of the method of teaching the topic "Joints and levers in the human musculoskeletal system" using the interactive methods of "Thinking and general brainstorming". The results of scientific research conducted with the help of these interactive methods, the formation of independent, free and creative thinking skills in students, and the establishment of mutual cooperation between the teacher and students have shown their significant effect in the teaching process.

Key words: "Intellectual and General brainstorming", biomechanics, joints, arms, atlanto-cervical, epistrophe-atlanto-phalange, competence, empirical, Student's criterion.

Kirish. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega, ya'ni, har bir pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqib holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanay shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- talabalar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- talabalarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- **Tadqiqot metodologiyasi.** "Fikriy hujum" metodi talabalarining mashg'ulotlarni bajarishdagi aktivligini ta'minlash, ularni bir xil fikrlashdan ozod etish va erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda, tanlangan mavzu yuzasidan turli xil g'oyalarni to'plash, shuningdek, ta'limdagi ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mavzu bo'yicha mashg'ulotni bajarishda qatnashayotgan har bir talaba tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, shuningdek mavzuga har xil asoslangan luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarining mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida shu metoddan samarali va mufaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodi yordamida talabalarga mashg'ulot olib borishda, talabalarining soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin[1,2].

“Yalpi fikriy hujum” metodi J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n nafar talabalardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin.


Metod talabalar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. 5 yoki 6 nafar talabalardan iborat bo'lgan bir necha guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqda guruh a'zolaridan biri ma'lumot beradi.

Guruh tomonidan berilgan ma'lumot o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga

baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida barcha guruh a'zolarining faoiyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi[3,4].

Mavzu: Odamning tayanch harakatlanish apparatidagi bo'g'imlar va richaglar.

Tirik to'qima va a'zolarining (har qanday tirik mavjudotning) mexanik xossalarini shuningdek, organizmda va uning ayrim a'zolarida yuz beruvchi mexanik hodisalarni o'rganuvchi biofizikaning bo'limiga biomexanika deyiladi. Qisqa qilib aytganda, biomexanika – tirik sistemalar mexanikasidir.




1- rasm

2- rasm

Mexanizmlarning harakatlanuvchi qismlari odatda uning harakatdagi qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas qismlari bilan tutashtirilgan bo'ladi. Bir necha qo'zg'aluvchan bo'g'inlarning birlashmasi kinematik bog'lanishni hosil qiladi. Odam tanasi – kinematik bog'lanishga misoldir.


OO o'q bilan tutashtirilgan ikkita A va B bo'g'indan iborat sistemani ko'rib chiqamiz (1 – rasm). Bu sistema bir o'qli ikki bo'g'inli bog'lanishdir. B bo'g'in qo'zg'almas bo'lganda, A bo'g'in esa qo'zg'almas o'q atrofida aylanayotgan jism sifatida bitta erkinlik darajasiga ega bo'ladi. Odam tanasidagi yelka-tirsak, tovon-usti va falanga birikmalari bir o'qli bog'lanishlarga misol bo'la oladi. Ular bitta erkinlik darajasiga ega bo'lgan faqat bukilish va to'g'rilanishga imkon beradi. Ikki bo'g'inli sistemani OO ga parallel bo'lgan OO' o'qli yana bitta bo'g'inga oshiramiz (2 – rasm). C bo'g'in qo'zg'almas bo'lganda B bo'g'inning hamma nuqtalari va shu qatorda, aylanma harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lgan OO o'q ham bitta erkinlik darajasiga ega. A bo'g'in esa OO o'q atrofida aylanma harakat qilib, yana bitta erkinlik darajasiga ega bo'ladi. Shunday qilib, bir o'qli uch bo'g'inli sistemada mahkamlangan qo'zg'almas C bo'g'in erkin ko'chish imkoniyatiga ega emas, ikkinchi B bo'g'in bitta, uchinchi A bo'g'in esa uchta erkinlik darajasiga ega.

Barmoqlar falangasi (bo'g'im), bir o'qli bog'lanishlar vakili kabi bo'g'inlar bilan tutashtirilgan. Tirnoq falangasi asosiy falangaga nisbatan ikkita, o'rtanchasiga nisbatan esa bitta erkinlik darajasiga ega.




3- rasm

Ikki o'qli bog'lanishlar bo'g'inlarning ikkita o'zaro perpendikular o'qda aylanishiga imkoniyat beradi (3 - rasmga qarang).



4 - rasm

U aylanma harakatida ikki erkinlik darajasiga ega. Odam organizmidagi bunday ikki o'qli bog'lanish, ikkita bir-biriga yaqin joylashgan bo'g'inlar: atlant-ensa va epistrof-atlant bog'lanishlari yordamida amalga oshiriladi. Birinchi bo'g'in o'ng yelkadan chap yelkaga yo'nalgan gorizontal o'qqa ega. U odam bosh suyagini oldinga va orqaga aylantirishni amalga oshiradi. Epistrof atlant yoniga joylashgan bo'yin umurtqasi – kichkina silindrik o'siq (ship)ga ega bo'lib, bu o'siq atlant halqasi bilan vertikal o'qli silindrik bir o'qli bo'g'inni hosil qiladi. Bu bo'g'in boshning vertikal o'q atrofida aylanishini ta'minlaydi.



5 - rasm

4 – rasmda ko'rsatilgan uch o'qli bog'lanish bir biriga o'zaro perpendikular bo'lgan uchta o'q atrofida aylanishni amalga oshiradi. (shartli sharnir).

5 – rasmda bog'lanish aylanma harakatning uchta erkinlik darajasiga ega. Shartli sharnir odamning chanoq-son bo'g'imida amalga oshirmagan. Chanoq bog'lanish chuqurligi taxminan

to'g'ri shar shakliga ega. Shu chuqurlikka kiruchi son suyagining boshi ham unga mos shaklga ega.

Yangi bo'g'inlarni qo'shish kinematik harakatchanlikni oshiradi. Masalan, umurtqalararo bo'g'inlarning muayyan harakatchanligi tufayli (yetarlicha che-garalangan bo'lsada) bosh miya suyagi olita erkinlik darajasiga ega.

Skelet suyaklari va muskullar birlashmasidan iborat bo'lgan bo'g'inlar, odam tayanch – harakatlanish sistemasini fizika nuqtai nazaridan odamni muvozanatda saqlab turuvchi raqamlar to'plamidan iborat deb tasavvur qilish imkonini beradi.

Anatomiya richaglarini ikki xil ko'rishida bir- biridan farqlashadi: birinchisi – kuch richaglari bo'lib, bularda kuchdan yutib, ko'chishdan yutqaziladi, ikkinchisi – tezlik richaglari bo'lib, bularda kuchdan yutqazib, ko'chish tezligidan yutiladi[1].

- **Tahlil va natijalar.** Mazkur jarayonlarda natijalarning ilmiy yangiligi shundan iboratki, biz professional ta'lim tizimi talabalarining mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Fizika fakulteti Yado fizikasi kafedrasida 60711800– “Tibbiyot fizikasi” ta'lim yo'nalishining 4–bosqich TF–1901, TF–1902 guruh talabalar uchun Tibbiyot fizikasi fanidan “ Odaming

tayanch harakatlanish apparatidagi bo'g'imlar va richaglar.” mavzusini o'qitishda talabalarining kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida, tashkil etilgan o'quv mashg'uloti natijalarini aniqlash uchun empirik tadqiqotlarni o'tkazdik. Guruh talabalarini ixtiyoriy ravishda ikkita guruhga bo'lindi: birinchi tajriba guruh talabalariga (26 nafar) elektron ta'lim resurslari va interfaol metodlardan foydalanilib, ikkinchi nazorat guruh talabalariga (24 nafar) esa an'anaviy tarzda dars mashg'uloti olib borildi.

Yuqoridagi empirik tadqiqotlarda olingan natijalarning samaradorligini aniqlash va tatbiq etilgan g'oyalarni asoslash hamda tajriba natijalarini qayta ishlashda matematik statistika metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan ishlarni amalga oshirishda matematik statistika metodlaridan biri Student kriteriyasidan foydalanildi. Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida guruhlardagi o'zlashtirish natijalarining o'rtacha qiymati quyidagicha olinadi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^N \frac{X_i}{N}$$

Tajriba – sinov ishlari to'rt bosqichda tahlil qilindi va quyidagi matematik statistika formulalaridan foydalanildi:

Talabalarga elektron ta'lim resurslari va interfaol metodlardan foydalanilib, dars mashg'uloti olib borilgandagi natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha qiymati quyidagi natijalarni ko'rsatdi: [5]

Birinchi bosqich: O'rtacha qiymatlar aniqlash ko'rsatkichlari.

$$\bar{X}_\tau = \sum_{i=1}^N \frac{X_i m_i}{N} = \frac{[9 \cdot 5 + 9 \cdot 4 + 6 \cdot 3]}{24} = \frac{45 + 36 + 18}{24} = 4,12$$

$$\bar{X}_\delta = \sum_{i=1}^N \frac{X_i m_i}{N} = \frac{[6 \cdot 5 + 5 \cdot 4 + 15 \cdot 3]}{26} = \frac{30 + 20 + 45}{26} = 3,65$$

bu yerda X_i – o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho qiymati) bo'lib, ular 3 (qoniqarli), 4 (yaxshi), 5 (a'lo) qiymatlarni qabul qiladi. m_i – baholarning takrorlanishlar soni, N – tajribada ishtirok etayotganlar responentlar soni.

Tajriba va nazorat guruhlari o'qituvchilar tanlanma dispersiyani quyidagicha ifodalaymiz:

$$S_\tau^2 = \sum_{i=1}^N \frac{m_i (X_i - \bar{X}_\tau)^2}{N} = \frac{[9(5 - 4,12)^2 + 9(4 - 4,12)^2 + 6(3 - 4,12)^2]}{24} = 0,6$$

$$S_\tau = \sqrt{0,6} = 0,77$$

$$S_\delta^2 = \sum_{i=1}^N \frac{m_i (X_i - \bar{X}_\delta)^2}{N} = \frac{[6(5 - 3,65)^2 + 5(4 - 3,65)^2 + 15(3 - 3,65)^2]}{26} = 0,68$$

$$S_\delta = \sqrt{0,68} = 0,82$$

Ikkinchi bosqich: O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlari baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik koeffitsiyenti:

$$\eta = \frac{\bar{X}_\tau}{\bar{X}_\delta} = \frac{4,12}{3,65} = 1,13$$

bu yerda \bar{X}_τ – tajriba guruhi baholarining o'rtacha arifmetik qiymati. \bar{X}_δ – nazorat guruhida o'zlashtirish baholarining o'rtacha arifmetik qiymati.

Uchinchi bosqich: Bosh to'plamlarning noma'lum o'rtacha qiymatlari a_τ va a_δ lar uchun ishonch oraliqlari quyidagicha aniqlanadi: Tajriba va nazorat guruhlari o'qituvchilarining ishonch oraliqlari:

$$a_\tau = \bar{X}_\tau - \frac{t}{\sqrt{N_\tau}} \cdot S_\tau = 4,12 - \frac{1,96 \cdot 0,77}{\sqrt{24}} = 3,82$$

$$a_\tau = \bar{X}_\tau + \frac{t}{\sqrt{N_\tau}} \cdot S_\tau = 4,12 + \frac{1,96 \cdot 0,77}{\sqrt{24}} = 4,42$$

$$a_\delta = \bar{X}_\delta - \frac{t}{\sqrt{N_\delta}} \cdot S_\delta = 3,65 - \frac{1,96 \cdot 0,82}{\sqrt{26}} = 3,33$$

$$a_\delta = \bar{X}_\delta + \frac{t}{\sqrt{N_\delta}} \cdot S_\delta = 3,65 + \frac{1,96 \cdot 0,82}{\sqrt{26}} = 3,97$$

Bu yerda t – normallashtirilgan chetlanish ishonch ehtimoli β asosida aniqlanadi. Masalan, $\beta=0,95$ deb olsak, $t=1,96$.

To'rtinchi bosqich: O'rtacha qiymatlarning tengligi haqidagi g'oya unga qarama-qarshi g'oya bilan taqqoslanadi.

$$H_0: a_\tau = a_\delta$$

$$H: a_\tau \neq a_\delta$$

Student kriteriyasining empirik qiymati va erkinlik darajasi tekshiramiz:

$$T = \frac{|\bar{X}_\tau - \bar{X}_\delta|}{\sqrt{\frac{S_\tau^2}{N_\tau} + \frac{S_\delta^2}{N_\delta}}} = \frac{|4,12 - 3,65|}{\sqrt{\frac{0,6}{24} + \frac{0,68}{26}}} = 2,14$$

Taklif etilgan g'oyani Student kriteriyasiga taqqoslasak $T > T_{0,95}(k)$ bo'lsa, H qabul qilinadi, aks holda esa H_0 qabul qilinadi. Bu yerda k Student kriteriyasi erkinlik darajasi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanildi:


$$k = \frac{\left(\frac{S_{\tau}^2}{N_{\tau}} + \frac{S_{\delta}^2}{N_{\delta}}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_{\tau}^2}{N_{\tau}}\right)^2}{N_{\tau}-1} + \frac{\left(\frac{S_{\delta}^2}{N_{\delta}}\right)^2}{N_{\delta}-1}} = \frac{\left(\frac{0,6}{24} + \frac{0,68}{26}\right)^2}{\frac{\left(\frac{0,6}{24}\right)^2}{23} + \frac{\left(\frac{0,68}{26}\right)^2}{25}} = 46$$

Demak, yuqoridagi olingan natijalarni o'quv mashg'ulotidan oldingi natijalar va o'quv mashg'ulotining yakunidagi natijalari bilan statistik tahlil qilamiz.

Mazkur natijalarga ko'ra, $T_{krit}(0,05; 46) = 1,96$ ga teng. Demak, tajribada olingan natijalar bo'yicha $T_{krit} = 1,96 < T = 2,14$ ga teng bo'ldi, ya'ni tajriba va nazorat guruhlari talabalarining o'zlashtirishi samaradorlik koeffitsiyenti $\eta = 1.13$

ga teng, $T_{krit} < T$ bo'lgani uchun H_0 g'oya qabul qilindi. Shuning uchun natijalar tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 13 % ga yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Bundan kelib chiqadiki, Tibbiyot fizikasi fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda "Fikriy va Yalpi fikriy hujum" metodidan foydalanishsamaradorligi yuqoriligini ko'rish mumkin.



- **Xulosa va takliflar.** Shuni aytish mumkinki, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Fizika fakulteti Yado fizikasi kafedrasining ikkita guruhida tajriba sinov ishlari o'tkazilganda, talabalarining o'zlashtirishi "Fikriy va Yalpi fikriy hujum" metodi orqali o'tilgan dars, an'anaviy metodga nisbatan samaradorligi 13 % ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu maqola № AM-PZ-2019062031 "Yadro energetikasi", "Yadro tibbiyoti va texnologiyalari", "Radiatsion tibbiyoti va texnologiyalari" fanlari bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun multimedial darsliklarini yaratish" nomli innovatsion loyixa doirasida yozib tayyorlangan materiallarning pedagogik taxlili asosida yozilgan bo'lib, darsliklar mualliflariga minnatdorchilik bildiramiz.

ADABIYOTLAR

1. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. – T.:2005, - 590 b.
2. Khomidjonov J.I., Bozorov E.Kh., Sulaymonov Kh.M., Akhmadjonov M.F., Nematov Kh.M. "Teaching methodology of infrared light absorption in living tissues". NeuroQuantology DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77317
3. Avezov A.X., Amrullayeva A.N., Namozova M.M. "Aqliy hujum" va "keys study" metodlari yordamida "funksiya hosilasi" mavzusini o'qitish. Scientific progress Volume 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601.
4. J.I. Khomidjonov. Interdisciplinary integration is a necessary condition of modern education. Current research journal of pedagogics, (Issn –2767-3278), Volume 04 Issue 01 Pages: 08-18 , Sjif Impact Factor (2021: 5. 714) (2022: 6. 013), OCLC – 1242041055, Published Date: January 13, 2023 Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-01-02>
5. O.M.Alimnazarov. O'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikasi. International scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2023, No 1 (48), 104-118 <https://journal.fledu.uz>



UDK: 504.75 (575.1)

Samad XUDAYNAZAROV,
O'zMU dotsenti
E-mail: samadxudaynazarov@gmail.com
Alimardon SAODATOV,
O'zMU tayanch doktranti
E-mail: alimardonsaodatov@mail.ru

Buxoro muhandislik-texnologiya institute dotsenti, PhD Q.Saloxov taqrizi asosida

FACTORS FOR FORMING ECOLOGICAL CULTURAL VALUES IN THE HEARTS AND MINDS OF YOUNG GENERATIONS ABSTRACT

Annotation

This article analyzes the factors, ways and means of forming environmental cultural values in the hearts and minds of the younger generation. The ways of forming humanistic spiritual and moral qualities in young people, such as love for Mother Nature, kindness, compassion and responsibility, are analyzed.

Key words: ecological culture, cultural values, humanistic, spiritual and moral virtue.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СЕРДЦАХ И УМЫХ МОЛОДЫХ ПОКОЛЕНИЙ АБСТРАКТНЫЙ

Аннотация

В данной статье анализируются факторы, пути и средства формирования экологических культурных ценностей в сердцах и умах молодого поколения. Проанализированы пути формирования гуманистических духовно-нравственных качеств у молодежи, таких как любовь к матери-природе, доброта, сострадание и ответственность.

Ключевые слова: экологическая культура, культурные ценности, гуманистическая, духовно-нравственная добродетель.

YOSH AVLOD QALBI VA ONGIDA EKOLOGIK MADANIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Bu maqolada yosh avlod qalbi va ongida ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantirish omillari, yo'llari, usul vositalari tahlil qilingan. Yoshlarda ona tabiat borlig'iga nisbatan mehr-muhabbat, shaydolik, dardkashlik, mas'uliyat kabi gumanistik ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, madaniy qadriyatlar, gumanistik, ma'naviy-axloqiy fazilat.

Kirish. Ekologiya masalalari insoniyatning chuqur tashvishga solayotgan, o'ylantirayotgan, echimini kutayotgan dolzarb umumbashariy global muammolardan biriga allaqachonlar aylanib ulgurgan.

Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoyev keltirganidek: "Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda"

Ekologik muammolarni asosan yuzaga keltiruvchi ham va uning bartaraf etuvchi kuch ham avvalo inson, uning faoliyati, ehtiyojlariga, intilishlariga bog'liq ekanligini anglasak, ertangi avlod yoshlari qalbi va ongida ona tabiatga, tevarak-atrofga mehr-muhabbat, shaydolik, dardoshlik, oshnolik, ma'naviy-axloqiy mas'uliyat tuyg'ularini barvaqt uyg'otish, ekologik savodxonligini muntazam oshirib borishning o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Chunki inson va tabiat munosabatlaridagi ijobiy o'zgarishlar, avvalo ertangi avlodning ona zamin tabiatiga bo'lgan munosabatiga, aql-idrokiga, atrof-muhit bilan amal qiladigan ongi va madaniyatiga, ilm-bilimiga, tajribasi, burchi va ma'suliyatiga bog'liqdir.

Yangi O'zbekistonda fuqarolarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, mustabid tuzumdan "meros" bo'lgan og'ir ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish vazifalari yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish omillarini ilmiy o'rganishni taqozo qilmoqda. Zero, ekologik ong va tafakkur o'zgarmasa inson va tabiat munosabatlarida sog'lom mo'tadillik vujudga kelmasligi, nafaqat eski haqiqat

balki yangi haqiqat hamdir. Shu bois, yoshlarda tabiatga nisbatan gumanistik munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda iqtisodiy jihatdan kam xarajat, ta'sir ko'lam samarali bo'lgan omillar ahamiyatini ilmiy-falsafiy o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Bunday omillar tizimiga etnoekologik qadriyatlar, ekologik ruhdagi san'at va adabiyot namunalari, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ruhdagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar, g'oyalar hamda sog'lom tumush tarzini targ'ib va tashviq qiluvchi OAV, ijtimoiy institutlar, oila, mahalla, nodavlat va notijorat tashkilotlari va boshqalarni o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Xususan, bu borada birgina san'at sohalari va adabiyotni ahamiyatiga e'tibor qaratsak, ulardagi ekoestetik jozibadorlik, emotsional bo'yoqdorlik, elastik egiluvchanlik tezkor va arzon ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari kabilar azal-azaldan ham insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ma'naviy-madaniy mezonlari tizimida alohida ahamiyat kasb etib, inson va tabiat munosabatlarini sog'lomlashtirishda, yoshlar qalbida tabiatga nisbatan oqilona madaniy qadriyatlarni shakllantirishdek murakkab va ayni chog'da dolzarb funktsiyani bajarib kelganligini kuzatamiz.

Yangi O'zbekiston – milliy tiklanishdan-milliy yuksalish, harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi tomon dadil odimlayotgan tarixiy pallada yoshlar ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga, shu jumladan ekologik savodxonligiga e'tibor yanada ortib bormoqda. Chunki mustaqil fikr va ilmiy tafakkurga, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand ma'naviy etuk barkamol avlodgina taraqqiyot taqdirida,

mavzumiz doirasida inson-jamiat-tabiati triadasi oqilonaligini ta'minlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zero, ma'naviy qashshoqlik, bilimsizlik, tadbirsizlik, uquvsizlik, notovonlik bilan bugun ekologik tahdidlar shiddatiga bardosh berib bo'lmaydi. Shu boisdan, yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirishda zamonaviy usul va vositalarga, omillariga e'tibor qaratish, bu boradagi zamonaviy innovatsion g'oya va texnologiyalarga tayanish, ekologik muammolarga echim topishda va taraqqiyotimiz manfaatlarini himoya qilishda dolzarb ahamiyatga egadir.

Umuman olganda mavzuni dolzarbligini quyidagilar bilan belgilashimiz mumkin:

- yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi omillar tizimi kontingent sastavi borasida aniq ilmiy xulosa, tuxamlarni hanuzgacha mavjud emasligi;

- yoshlarda ekologik madaniyatini shakllantirib, rivojlantirib boradigan muntazam to'garak, ilmiy-ijodiy guruhlarni nisbatan kamligi yoki mavjud emasligi kabilar shular sirasidandir.

Bizningcha yuqoridagilarni bartaraf etilishi yoshlarda sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatini barvaqt rivojlanishini ta'minlaydi, ularda ona tabiatga, uning boyliklariga, cheksiz sahovatiga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantiradi va tabiat boyliklari ustiga boylik qo'shish ishtiyogini oshiradi, bu borada mustaqil va ilmiy-ma'rifiy, ratsional yondoshishlariga muhim omil bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yosh avlodni tabiatga oqilona munosabatlar ruhida kamol topirishning ijtimoiy-falsafiy ildizlari bizda juda qadimiylikka ega bo'lgani holda boy og'zaki va yozma manbalarga, udum-an'analarga, usul va vositalarga egaligi bilan xarakterlidir. Ular mohiyatidagi ekologik qadriyatlar naql va aql, ilm va imon, diniy va dunyoviylik uyg'unligida sharqona-o'zbekona teran falsafiy donishvorlik kasb etib, kishilarni sog'lom ekologik muhit omonligini saqlashga chorlagan va necha avlodlarni tabiatga oshnolik, dardkashlik ruhida tarbiyalagan. "Avesto" davrida zardushtiylikda suv, tuproq, olov, havo, quyosh kabi tabiat unsurlarini e'zozlash, muqaddas bilish, tabiat boyliklariga boylik qo'shish ulug'langan.

Ajdodlar tomonidan, yosh avlodga ekologik qadriyatlarni singdirishni maqbul omillari, usul va vositalari kashf etib borilgan, yoki hayotiy ekologik zarurat tufayli ishlab chiqilgan. Bu boradagi qarashlar, g'oyalar, yondoshuvlar, ya'ni omillar uzoq tarixga egaligi bilan xarakterlidir. Bunga yorqin misol sifatida etnoekologik mavzudagi mif, afsona, rivoyat, asotir, ertak, maqol, masal, qo'shiq, dostonlar mohiyatidagi inson va tabiat munosabatlardagi antitezalar, oqilonalik va nooqilonalikka ajrlari o'z sabog'ini kelajakda aytib kelayotgan qadimiylikdan, tarixiylikdan nishonalardir. Xususan, "Mitra", "Susxotin", "Choymomo", "Haydar-haydar", "Navro'z", "Hosil bayrami", "Gul sayli", "Suv sayli", "Tog' sayli", "Bog' sayli" kabi xalq sayillari, ayrim ekologik tipdagi urf-odatlar, Avesto, "Irq bitigi", "Oltin yoruq", "Alpomish" kabi etnotafakkur durdonalari va xulas boy og'zaki va yozma ijod namunalari va shuningdek, "Qur'on Karim" va "Hadis Sharif"dagi ilohiy o'g'it va aqidalar, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy merosi, yoyinki Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", N.B.Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", U.Xayyom, A.Jomiy, M.Lutfiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur, B.Mashrab, M.Sh.Maxmur, M.Sh.Gulxaniy, M.A.Muqimiy, Z.H.Furqat va M.R.Ogahiy va G'urbat asarlaridagi tabiat va inson munosabatlarida oqilonalikka da'vat, tabiat go'zalligini asrash, sevish, bahramand bo'lish garmoniyasiga oid qimmatli fikrlar yosh avlod qalbi va ongida ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantirish omillarining ma'naviy ildizlarini, manbalarini tashkil qiladi.

Shuningdek, "yaxshini - yaxshiligi-ku ibrat, yomoni - yomonligidan ham ibrat" deganlaridek, keyingi asrlardagi canoat inqilobi, hadsiz texnik va texnologik kashfiyotlar, demografik o'sish, kishilar ehtiyojlarini rangbaranglashtirilishi, ko'proq daromad-pul topish, boyish vasvasasi kabilar tabiat mulkini shafqatsizlarcha o'zlashtirishga, uning ishlariga to'porilik, zo'ravonlik, kalondumog'lik bilan aralashishga, turli plantatsiyalar, paxta monopoliyasi kabilar tabiiy landshaftlarni qayta tiklanmaydigan darajada buzilishiga, sobiq sho'rolar davrida "Biz tabiatdan i'nom va ehson kutib tura olmaymiz, balki uni majbur qilamiz" kabi shiorlar, zaminning katta geografik hududida umumiy tendentsiyani belgilab tabiat va inson munosabatlarini tarixan shakllanib kelgan nisbatan muvozanatli arxitekturasi konsturktsiyasiga putur etkazdi. Matyoqub Qo'shjonov yozganidek; "asosiy masala er-suvdan mumkin qadar ko'proq foydalanish, tabiatdan marhamat kutmaslik, uni o'sha kun xizmatiga, odamlar manfaatiga bo'ysundirish - davr shioriga aylangan edi. Bu davr manzaralari A.Muxorning "Chinor", S.Axmudning "Jimjitlik", M.Muhammad Do'stning "Lolazor" kabilar ifodasini topgan bo'lsa, uning keying oqibatlarini L.Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", T.Qayipbergenovning "Ko'zning qorachig'i", Ch.Aytmatovning "Tog'lar qulayotgan zamon" kabi asarlarida o'z aksini topgan-ki bularni yosh avlod qalbi va ongida ekologik ogohlik, xushyorlik, mas'uliyat, oqibatni o'ylash, muvozanatni saqlash hamda inson tabiat munosabatlarini strukturadagi tadirijiy dinamik o'zgarishlarni xolis qiyoslash-taqqoslashga muhim omil bo'ladi.

Sharq va G'arb falsafasida inson qalbi, tabiiy muhit va yoshlar tarbiyasi, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik qadri borasida qimmatli fikrlar, falsafiy ishoralar uchraydi. Xususan antik davr tafakkur sohiblari Anaksimandr, Anaksimen, Aristotel, Geraklit, Demokrit, Afлотun, Fales, Epikur, Senika, Gomer, Gesiod, Esxil, Sofokl asarlarida sababiy bog'lanishlar, sabab-oqibat munosabatlarining tabiati, voqea-hodisaning yuzaga kelishi haqida o'ziga xos qarashlar ilgari surilgan. Mazkur qarashlar keyinchalik ekologiya va atrof-muhit xatarlarining mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tushunishga "inson-jamiat-tabiiy muhit" triadasida o'zaro bog'liq jarayonlarini har tomonlama tahlil qilish uchun asos yaratgani bilan mavzumizga daxildordir.

Ekologiya, ekologiya bilan xavf-xatarlarni oldini olishning fundamental masalalari xorijiy tadqiqotchilar va boshqalar tomonidan o'rganilib, ularda asosan, ekologiyaning tibbiyot, geografiya va boshqa sohalar bilan aloqadorligi masalalari ko'rib chiqilgan bo'lsada, biroq ekologiya va yoshlar tarbiyasi, uning omillariga oid ayrim asoslarni ularda topishimiz mumkin.

Biz o'z ishimizni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari, ekologiyaga doir qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va yuqoridagi kabi soha olimlarining ilmiy tadqiqotlari hamda A.Erkaev, X.Shayxova, Q.Nazarov, S.Otamurotov, M.Quronov, A.Mavrulov, O.Musurmonova, B.Ziyomuhamedov, X.Axmudov, A.Axmudov va boshqalarning asarlarida ilgari surilgan fikr va g'oyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ulardan metodologik asos sifatida foydalanamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ekologiyaga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning farmonlari, qarorlari, normativ - huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlari, soha olimlarini mavzuga oid ilmiy ishlanmalari tashkil etadi.

Tahlil va natija: Yangi O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiat tabiiyligini asrash - taraqqiyot,

farovonlik, rivojlanish, ertangi kunga ishonch garovi bo'lib, bu bir tomondan, jamiyat kishilariga va ayniqsa kelajak avlodning ekologik ongi va ma'naviy-madaniy saviyasi darajasiga bog'liqdir. Zero, erkin va farovon hayotni ekologik tanglik ustiga qurib bo'lmaydi.

Inson va tabiat munosabatlarini yaqin kelajakda mo'tadillashishini bugungi yoshlarni qaydarajada ekologik savodxonligi, ekologik ongi va madaniyati bu borada ilmi va bilimi, ma'naviy mas'uliyati darajasi belgilaydi. Yoshlar ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq masala biror davr uchun mavsumiy xarakterga ega bo'lmasdan balki tadrijiylikka ega bo'lgan uzliksiz jarayondir. Bu jarayoning nechog'lik kutilgan samaradorligini natijasi, avvalo uning shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan qaydarajada foydalanish mahoratiga ham bog'liqdir. Zero, yoshlar ekologik madaniyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillar tizimi sifatida shuncha tasodifiy, mavhumiy xarakterga ega bo'lmasdan, balki aql-tafakkur, uzoq tajribaning mahsulidir. Ularning har biri bu borada o'z imkoniyat ko'lamlariga, tarixiy-dinamik rivojlanish yo'lga, azaliy o'zaro dialektik aloqadorlikka, taqozolanganlikka, tarixiy mantiqiy uyg'unlik va uzviylikka egadir.

Mavzumiz doirasidagi ilmiy izlanishlarni tahlil qilganimizda yoshlarni ekologik madaniyatga sadoqat ruhida tarbiyalashga yo'naltiradigan, juda foydali ilmiy asoslarga ega kashfiyotlar, tadqiqotlar hamda etnomadaniy an'analar, ko'zlangan maqsadga olib boruvchi ko'plab omillar, vositalar borligini kuzatamiz. Shaksizki, bu borada fikr yuritganimizda avvalo, xalqimizning ko'p ming yillik ekologik madaniyati, bu boradagi amaliy-hayotiy tajribalari, yosh avlodni ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tarbiya usullari, omillari, doshimand-falsafiy yondoshishlari, yo'riqlari mavjud bo'lganligini kuzatamiz. Ular quyidan-yuqoriga, oddiydan-murakkabga tomon doimo rivojlanishda bo'lib kelgan va yoshlar etnoekologik madaniyatini oshirishda betakror fenomenal jihatlarga, ma'naviy-axloqiy, estetik, ruhiy-e'tiqodiy mezon va me'yorlarga ta'sir o'tkazishning barqaror mexanizmlariga ega bo'lganligi bilan ham xarakterlidir.

Umuman olganda, mavzumiz doirasida chiqarilgan tarixiy-mantiqiy nazariy xulosalar va amaliy taklif-tavsiyalardan yoshlarda ekologik madaniyatni yuksaltirishda, O'zbekistonda olib borilayotgan tabiat muhofazasiga doir ma'naviy-ma'rifiy ishlarda, ekologiya masalalari bilan shug'ullanayotgan jamoat tashkilotlari faoliyatida, jumladan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Ekologik partiyaning joylardagi bo'limlari, fuqarolik yig'inlari, "O'zbekiston yoshlar agentligi" faoliyatlarida, O'zbekiston Milliy universitetida o'qitilayotgan fanlar mavzularini boyitishda, shuningdek, "Ijtimoiy ekologiya", "Sog'lom turmush tarzi"

kabi maxsus kurslarni o'qitishda, "Milliy g'oya va etnomadaniy qadriyatlar", "Ma'naviyatshunoslik", "Madaniyatshunoslik", "Tarbiya", "Ijtimoiy falsafa", "Bioetika", "Ekologiya asoslari" fanlarning mavzusiga daxldor ma'ruza va seminar mashg'ulot matnlarini takomillashtirishda, ekologiyaga oid muloqot, davra suhbatlarida, ekologiya mavzusiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tabirlarda keng foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekistonda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, jamiyatimiz kishilariga ekologik sog'lom muhitni yaratib berish zarurati, bir tomondan aholimizni salmoqli qismini tashkil qilayotgan yosh avlod ekologik madaniyatini yuksaltirishni taqozo etmoqda. Shu bois, yoshlar qalbi va ongida ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi iqtisodiy jihatdan arzon va samaradorligi yuqori bo'lgan omillar rolini ilmiy o'rganishni zaruratga aylantirmoqda. Chunki bu boradagi ong va tafakkur o'zgarmasa, inson-tabiat munosabatlari o'zgarmasa. Shu bois, yosh avlod qalbi va ongida ekologik madaniy qadriyatlar shakllantirish omillari tizimida sog'lom ekologik ruhni ifodalagan san'at sohalari: kino, teatr, tasviriy san'at, badiiy va ilmiy adabiyotlar, oila, mahalla, NNT, OAV, ta'lim-tarbiya, etnoekologik qadriyatlar, ekologik partiya va tashkilotlar, ekologik ruhdagi urf-odat, an'ana, bayramlar, otalar o'giti, ekologiyaga oid ma'naviy-axloqiy, etnoestetik falsafiy tafakkur durdonalari, ekologik g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, diniy e'tiqodiy omillar, ekologiyaga oid qonunlar, tabiat turizimi, xorijiy tajriba kabilar shular sirasidandir.

Yangi O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama kamolga etkazish, xususan ularning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan bo'lib, milliy taraqqiyotimiz manfaatlariga mosdir. Shu bois, yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan quyidagi takliflar berishimiz mumkin:

- birinchidan, yoshlarda ekologik qadriyatlarni rivojlantirishning omillari, usul va vositalari bilan bog'liq kompleks dasturini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish zarur;

- ikkinchidan, yosh avlod qalbi va ongida ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantirish omillariga taraqqiyot ehtiyojlari va talablaridan hamda bugungi yoshlar fel-atvoridan kelib chiqqan holda yondoshish va omillar mexanizmi shunga mos takomillashtirishga innovatsion yondoshib borish darkor va boshqalar.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirilishi yosh avlod qalbi va ongida ekologik madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi omillar rolini yoritadi va oshiradi. Bu esa, ekologik muammolarni echishda, uni oldini olishda zaruriy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, NMIU, 2023.
2. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat", 2008. – 660 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. -464 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 23.09.2020 <https://president.uz/uz/>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
6. Kalonov B. Davlat ekologik nazoratining huquqiy muammolari. –T.: Ma'naviyat, 2005. -122 b.
7. Qilichev F.T. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fal. fan bo'yicha (PhD).. dis. avtoref. - Toshkent: O'zMU, 2005. –48 b.
8. Qo'lyilov T. Ekologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari. –T.: Movarounnahr, 2007. 139 b.
9. Mamashokirov S. Ekologik ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari. –T.: O'zbekiston xalq akademiyasi "Nur",1993. -125 b.
10. Mamashokirov S. Yurakda tabiat sog'inchi //Tafakkur. –Toshkent, 2008. –№3 – B. 92-97.



Xuriyat XUDOYBERDIYEVA,

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti
E-mail: xuriyat@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

JISMONIY TARBIYA SOG'LOM AVLODNI TARBIYALASHNING VOSITASI SIFATIDA

Аннотация

Zamonaviy jamiyatda yosh avlod salomatligini saqlash va mustahkamlash masalalari ayniqsa dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada bolalar va o'smirlarning jismoniy va psixologik holatiga tizimli jismoniy mashqlar ta'sirining turli jihatlari o'rganilib, ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarining asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi, sport bilan shug'ullanishga undash, jismoniy tarbiya orqali kasalliklarning oldini olish, faol turmush tarzini shakllantirish, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya.

ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК СРЕДСТВО ВОСПИТАНИЯ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация

В современном обществе вопросы сохранения и укрепления здоровья молодого поколения становятся особенно актуальными. В работе рассматриваются различные аспекты влияния систематических физических упражнений на физическое и психологическое состояние детей и подростков, выделены основные направления физкультурно-оздоровительной работы в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Физическая культура, воспитание здорового поколения, здоровый образ жизни, мотивация к занятиям спортом, профилактика заболеваний через физкультуру, привычка к активному образу жизни, оздоровительная физическая культура.

PHYSICAL EDUCATION AS A MEANS OF EDUCATION OF A HEALTHY GENERATION

Annotation

In modern society the issues of preserving and strengthening the health of the young generation become especially relevant. The paper considers various aspects of the influence of systematic physical exercises on the physical and psychological state of children and adolescents, highlights the main directions of physical culture and health-improving work in educational institutions.

Key words: Physical education, education of healthy generation, healthy lifestyle, motivation to sports, prevention of diseases through physical education, habit to active lifestyle, health-improving physical education.

Kirish. Zamonaviy insonning sog'lom va faol hayot tarzini ta'minlashda jismoniy faollik muhim rol o'ynaydi. Hayot sur'ati tezlashishi, harakatsiz faoliyatning kuchayishi va stress darajasining oshishi bilan muntazam jismoniy mashqlarning ahamiyatini ortiqcha ta'kidlashga hojat yo'q.

Jismoniy faollik yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlash, semirish, 2-toifa diabet, gipertoniya va boshqa bir qator yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Muntazam jismoniy mashqlar mushaklar va bo'g'inlarni mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, tananing umumiy jismoniy holatini yaxshilaydi.

Sport va jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, stress darajasini pasaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi. Jismoniy mashqlar paytida ajralib chiqadigan endorfinlar ko'pincha "baxt gormonlari" deb ataladi, chunki ular farovonlik va qoniqish hissini uyg'otadi. Muntazam jismoniy mashqlar miyadagi neyrotransmitterlarning faoliyatini yaxshilash orqali depressiya va tashvish alomatlarini kamaytirishda yuqori samarali ekanligi ko'rsatiladi.

Jismoniy faollik umr ko'rish davomiyligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, surunkali kasalliklar rivojlanishining oldini olish va umumiy farovonlikni yaxshilash orqali uning sifatini yaxshilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzu yuzaidan ilmiy tadqiqotlar huni ko'ratadiki, sog'lik va uzoq umr ko'rish masalalari birinchi o'ringa chiqadigan zamonaviy jamiyatda jismoniy faoliyatning roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat siyosati, har bir insonning o'z salomatligi va turmush tarziga shaxsiy munosabati butun jamiyat kelajagini belgilaydi.

Jismoniy tarbiya – jismoniy barkamolikka erishish maqsadida harakat ko'nikmalari hamda ruhiy-jismoniy xususiyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogic faoliyatdir. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda unga umuminsoniy hamda milliy madaniy qadriyatlarini berish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya insonni har tomonlama rivojiga munosib hissa qo'shib, uning ruhiy, ma'naviy, axloqiy taraqqiyotiga asos bo'ladi. Shuningdek, insonlar orasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlar, do'stlik, mehribonlik, insonparvarlik, oqibat, saxovat kabi xususiyatlarni mustahkamlaydi.

Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish organizmning funksional imkoniyatlarini, aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini, o'quv mehnatining unumini oshiradi. Jismoniy tarbiya vositalaridan mohirlik bilan foydalanish, amaliy va boshqa maxsus intellektual sifatning rivojlanishiga yordam beradi.

Sport – jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, tarixiy shakllangan ijtimoiy faoliyat turi hisoblanib, turli jismoniy mashqlar kompleksi orqali musobaqalarni tayyorlash va o'tkazish tizimini tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek, insonning ruhiy, ma'naviy, axloqiy xususiyatlarini shakllanishi hamda rivojtopishida beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy hamda yuqori natijalarga erishish shakllari mavjud. Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy

kamolotga yetishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi.

Sport musobaqalarining maqsadi – kuchli sportchilar va jamoalarni aniqlash, sport mahoratini takomillashtirish, jismoniy madaniyat va sportni targ'ibot qilish, sport tashkilotlari, trenerlar, sportchilar, hakamlar faoliyatiga ob'yektiv baho berishdir[1:9].

Tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy tarbiya ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bog'chadan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'limning barcha bosqichlarida shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ta'lim dasturiga samarali kiritilgan jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy, balki o'quvchilarning axloqiy, estetik va psixologik rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Ta'lim jarayonida jismoniy tarbiyaning rolini belgilovchi asosiy jihatlarni quyidagilar:

1. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish: Jismoniy tarbiya bolalarda yoshligidanoq jismoniy tayyorgarligini saqlash va o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish muhimligini tushunishni rivojlantiradi. Doimiy jismoniy mashqlar faol hayot tarzi odatini shakllantirishga yordam beradi.

2. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish: Jismoniy madaniyat barcha mushak guruhlarni mustahkamlashga yordam beradi, chidamlilik, chaqqonlik, kuch, moslashuvchanlik, harakatlarni muvofiqlashtirish, yaxshi jismoniy farovonlikning asosi hisoblanadi.

3. Iroda va qat'iyat tarbiyasi: Sport bolalarni o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishishga, qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, matonat, sabr-toqat va irodani tarbiyalaydi.

4. Ijtimoiylashtirish va jamoaviy ish: Jismoniy tarbiya va sport tengdoshlar va murabbiylar bilan ijtimoiy muloqot qilish, bolalarni jamoada ishlashga o'rgatish, o'zaro yordam va nizolarni boshqarish imkoniyatini beradi.

5. Hissiy farovonlikni rivojlantirish: Muntazam jismoniy faollik psixo-emotsional holatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, stress va tashvishlarni kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va o'zini o'zi qadrlashni oshiradi.

6. Intizom va tashkilotchilikni singdirish: Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tizimli o'tkazish muntazamligni va kun tartibiga rioya qilishni talab qiladi, bu esa intizom va o'z majburiyatlariga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

7. Estetik tarbiya: Gimnastika, raqs va harakatlarning go'zalligi bilan bog'liq bo'lgan boshqa sport turlarini o'rganish orqali shaxsning go'zallik tuyg'usi shakllanadi va ijodiy salohiyati rivojlantiriladi.

Ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya oddiy jismoniy mashqlar doirasidan tashqari, zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli hayot uchun nafaqat jismoniy, balki axloqiy va irodaviy salohiyatga ega bo'lgan yaxlit va barkamol shaxsni shakllantirishga qodir [2]. Jismoniy faollik orqali sog'lom avlodni tarbiyalash yoshlikdan boshlanadi va muntazam jismoniy faollik uchun barqaror odatlarni shakllantirishdan iborat. Bolalarni erta faol harakatga keltirish umrbod salomatlik uchun poydevor qo'yishga yordam beradi, harakat ko'nikmalarini rivojlantiradi va jismoniy faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari. Bolalikdan muntazam jismoniy faoliyat uchun barqaror odatlarni rivojlantirishni quyidagilarda ko'rish mumkin.

1. Mashg'ulotlarning o'yin shakli: Bolalar, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin olam bilan muloqot qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Jismoniy mashqlarning o'yin shakllaridan foydalanish darslarni qiziqarli qiladi va bolaning faol bo'lishga tabiiy istagini rag'batlantiradi.

2. Faoliyatning xilma-xilligi: Jismoniy faoliyatning keng doirasini taklif qilish, jamoaviy o'yinlar va suv sportlaridan tortib raqs va velosipedda turli xil mashg'ulotlar

jismoniy faoliyatga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Kattalar tomonidan o'rnak ko'rsatish: Kattalar, xoh ota-onalar, xoh o'qituvchi yoki murabbiy bo'lsin, bolaning odatlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Faol turmush tarzining o'ziga xos namunasi bilan ular bolalarni muntazam jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga undashi mumkin.

4. Jismoniy faollikni kun tartibiga kiritish: Piyoda sayr, oilaviy sayrlar va velosipedda yurish orqali kundalik jismoniy faollik odatini shakllantirish bolalarga sportni hayotning tabiiy bir qismi sifatida qabul qilishga yordam beradi.

5. Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish: ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yutuqlar uchun rag'batlantirish (ko'rsatkichdan qat'iy nazar) jismoniy faoliyatga qiziqishni saqlab qolish uchun muhimdir. Jismoniy mashqlar atrofida ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish o'z-o'ziga ishonch va mashq qilish uchun motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

6. Ta'lim dasturlari: Bolalarga sog'lom turmush tarzi asoslarini, jumladan, jismoniy faollikning ahamiyatini o'rgatishga qaratilgan maktab va maktabdan tashqari o'quv dasturlari sportning salomatlik uchun ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Insonning jismoniy va ijtimoiy-psixologik farovonligi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda jismoniy faollik katta rol o'ynaydi. Muntazam jismoniy faoliyat nafaqat tanani mustahkamlaydi va salomatlikni mustahkamlaydi, balki ruhiy holatga ham ta'sir qiladi, kayfiyatni yaxshilashga, stress darajasini pasaytirishga va umumiy baxtni oshirishga yordam beradi.

Oila va jamoat tashkilotlari bolalar va kattalar o'rtasida faol turmush tarzini targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Bu guruhlar o'zlarining jamoaviy sa'y-harakatlari bilan sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi sog'lom odatlar va barqaror xulq-atvorni rivojlantirishga katta hissa qo'shishlari mumkin. Faol turmush tarzini targ'ib qilishda oilaning roli juda muhim. Ota-onalar va boshqa oila a'zolari o'zlarining xatti-harakatlari orqali faol hayot tarzini namoyish qilishlari mumkin. Bolalar kattalarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali ularning odatlarini, jumladan, jismoniy faoliyatga ijobiy munosabatda bo'lishga intiladi [3].

Oilaviy sayrlar, velosipedda sayr qilish va sport bilan shug'ullanish bolalarni muntazam zamravishda sport bilan shug'ullanishga, oilaviy irish talarni mustahkamlashga undaydi [4].

Ota-onalar bolalarga sog'lom turmush tarzi asoslarini, jumladan, ovqatlanishni, muntazam jismoniy faoliyatning ahamiyatini va qanday qilib xavfsiz mashq qilishni o'rgatishlari mumkin. Sog'lom avlodni tarbiyalashda jamoat tashkilotlarining roli ham muhim hisoblanadi. Jamoa tashkilotlari, shu jumladan sport klublari va markazlari, barcha yosh guruhlari o'rtasida jismoniy faollik darajasini oshirishga qaratilgan turli xil dasturlar va tadbirlarni taklif qiladi.

Oilalar va jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish jamiyatning barcha qatlamlarida faol turmush tarzini rag'batlantiradigan va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishning kalitidir. Bunday qulay muhitning yaratilishi nafaqat sog'lom odatlarni shakllantirishga, balki yoshligidanoq o'z salomatligi va farovonligi uchun mas'uliyat hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish joizki yoshlar o'rtasida jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga qiziqish uyg'otish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, oila va ta'lim muassasalarida rag'batlantiruvchi muhit yaratish zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalariga aylantirilgan.

Bunda jismoniy tarbiyani yanada rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi, jumladan:

1. Jismoniy tarbiyani o'quv jarayoniga integratsiyalash, maktablarda nafaqat jismoniy faollik soatlarining yetarli miqdorini ta'minlash, balki o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga ongli munosabatni shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish.

2. Ota-onalarning farzandlari rivojlanishi uchun muntazam jismoniy faollik muhimligi, shuningdek, bolalarni sport va faol o'yinlarga rag'batlantirish va jalb qilishning samarali usullari haqida tushunchalarini oshirish.

3. Sport maydonchalari va seksiyalarini kengaytirish, shuningdek, shahar sharoitida jismoniy faoliyatning xavfsiz va qulay turlari uchun sharoit yaratish.

4. Aholini jismoniy tarbiyalash va sport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organlari, xususiy sektor va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Millat salomatligini asrab-avaylash va mustahkamlash bolalar va o'smirlarga sog'lom turmush tarzining ahamiyatini, ularning salomatligi uchun shaxsiy mas'uliyatni anglab yetishdan boshlanadi. Oila, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan nafaqat faol, balki sog'lom, yangi marralarni zabt etishga qodir avlodni shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O.E. Hayitov. Sport faoliyatipsixologiyasi. -Toshkent: «Umid Design», 2021.-196 b.
2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish: O'quv qo'llanma. -T.: ITA-PRESS, 2005. - 176 b.
3. Волков, Л. В., & Кулешов, А. С. Физическая культура в системе образования: от теории к практике. Москва: Флинта.2018.
4. Губа, В. П., Зданевич, А. А. Современные подходы к воспитанию здорового образа жизни школьников через физическую культуру и спорт. Наука и спорт: современные тенденции, 2017, 34-42.
5. Машков, М. Ю. Организационно-методические основы воспитания здорового поколения в системе образования. Наука и школа, 2016, 145-149.



UDK: 370. 153

Tarmiza XURVALIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d
E-mail: t.xurvalieva@cspi.uz.

TDPU professori, p.f.d. N.Djamilova taqrizi asosida

THE ROLE OF ACTIVITY IN THE EMOTIONAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article describes the psychological aspects of emotional stress in preschool children based on the theoretical concepts of psychologists. The occurrence of emotional tension, stress and its symptoms are given. The processes of emotional development of children are analyzed. Behavioral disorders, their causes and factors are identified. Recommendations are given to parents and teachers to eliminate mental stress in children.

Key words: impulsive, behavior, activity, intrapsychic, operation, process, motive, plot, spontaneous, identical, reflexive, stress, phobia.

РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЭМОЦИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Annotatsiya

В статье описаны психологические аспекты эмоционального стресса у детей дошкольного возраста на основе теоретических представлений психологов. Приведено возникновение эмоционального напряжения, стресса и его симптомы. Анализируются процессы эмоционального развития детей. Выявляются расстройства поведения, их причины и факторы. Даны рекомендации родителям и педагогам по устранению психического напряжения у детей.

Ключевые слова: импульсивный, поведение, деятельность, интрапсихический, операция, процесс, мотив, сюжет, спонтанный, тождественный, рефлексивный, стресс, фобия.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EMOTSIONAL RIVOJLANISHIDA FAOLIYATNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga emotsional zo‘riqishning psixologik jihatlarini psixolog olimlarning nazariy g‘oyalari asosida bayon etilgan. Emotsional zo‘riqish, stress holatini paydo bo‘lishi va uning belgilari keltirilgan. Bolalardagi emotsional rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Xulq-atvor buzilishi va uning sabablari va omillari aniqlangan. Bolalardagi ruhiy zo‘riqishni bartaraf etish bo‘yicha ota-ona va pedagoglarga tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: impulsiv, xulq-atvor, faoliyat, intrapsixik, operatsiya, jarayon, motiv, syujet, spontan, identiv, refleksiv, stress, fobiya.

Kirish. Turli yosh bosqichlarida ta‘lim-tarbiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bolaning psixik rivojlanishi uchun maktabgacha ta‘lim muassasasida yaratilgan pedagogik-psixologik sharoitlar va mazkur sharoitlar muloqot hamda faoliyatiga mos kelishiga e‘tibor berishni taqozo etadi. Prezidentimizning 2019 yil 8-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ-4312 son qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish vazifasi belgilangan[1]. Shunday, ekan bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda ularni ruhan sog‘lom etib tarbiyalash, emotsional jihatdan barqaror bo‘lishlarini ta‘minlash pedagog-tarbiyachilar zimmasiga yukalanadi. Bolalarda ijobiy sifatlar orqali o‘ziga bo‘lgan emotsional munosabat paydo bo‘ladi. Nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini farqlaydi, yutuq va kamchiliklarini anglagan holda o‘zini odilona baholay olishi kerak. O‘z-o‘zini baholash yetarlicha barqaror va ba‘zan anglamagan holda kechadi. Xayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, maqsadga intilish amalga oshirilayotgan faoliyatga bog‘liq. E‘tiborlisi shundaki, xatti-harakatlar ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltiradi, qachonki maqsad motivga aylansa. Quvonchli vaziyatlar boshqa motivlar bilan bog‘liq bo‘lib, harakat maqsadi ijobiy emotsiyalarni vujudga keltiradi va yangi faoliyat qo‘zg‘otuvchisiga aylanadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida bolalar

faoliyatni rivojlantirish faqatgina, pedagog-tarbiyachilarning mahoratiga bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. L.S.Vigotskiy maktabgacha yoshdagi bolalarda oliy psixik jarayonlarni rivojlanishining muhim jihatlarini aniqlagan. Bolalarning kattalar bilan o‘zaro muloqotga kirishishi natijasida interpsixik shakl amalga oshadi. Keyinchalik bolaning ichki dunyosi shakllanadi, individual xususiyatlari yuzaga keladi. Olimning fikricha “bola shaxsining rivojlanishi ikki tomonlama namoyon bo‘ladi, avval ijtimoiy ko‘nikmalar keyin esa psixologik xususiyatlar” [9;89]. Avval insonlar bilan o‘zaro muloqotga kirishadi so‘ngra, bolaning ichki hissiyoti ya‘ni intrapsixik holat yuz beradi.

Faoliyat termini A. N. Leontev tomonidan psixologiya faniga kiritilgan bo‘lib, u shunday jarayonki, insonning atrof olamga munosabati amalga oshiriladi, o‘z ehtiyojlariga mos harakat qiladi. Jumladan bolalar ham o‘z qiziqishi va ehtiyoji asosida faoliyatga kirishadi. Ichki xissiyotlarini tashqi faoliyatda ifodalaydi. Aynan bola faoliyati uning psixik rivojlanishini aniqlaydi va o‘zi esa ontogonez jarayonida rivojlanadi [10;77]. Bola hayoti turlicha faoliyat turlaridan iborat, ayrimlari uning rivojlanishida katta rol o‘ynasa, boshqalari unchalik ahamiyatga ega emas. Demak, bolalar psixikasining rivojlanishi bevosita faoliyatga bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin. Olim rivojlanishning har bir bosqichida bola borliqqa munosabat bildirishi hamda muayyan faoliyatga kirishishini asoslaydi. Faoliyat rivojlanishi

mexanizmining muhim sharti, A.N.Leontev ta'kidlashicha "motivning maqsadga siljishi hisoblanadi"[9]. Mazkur mexanizmida maqsad, avval qandaydir motiv tasirida paydo bo'lgan bo'lsa, asta-sekin mustaqil kuchga aylanadi va motivga aylanadi.

L.I.Bojovich fikricha "ushbu yoshda bolalar ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti ekanligini anglaydi, jamiyatdan qoniqish hosil qiladi, ularda ichki qarashlar shakllanadi"[4]. Bolalarda bevosita motiv va istaklari kattalar tomonidan turli xil cheklovlar bilan cheklangan holatlarda pasayadi. Kichik maktabgacha yosh davrida xulq-avtor impulsiv harakatlar natijasida yuz beradi, biroq irodaviy sifatlar rivojlana boshlaydi, maktabgacha katta yosh (5-6 yosh) da o'z hissiyotlarini tahlil qilib, boshqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Rivojlanish va ta'lim bir-biriga mutanosib bo'lish bilan birga har xil jarayondir. Rivojlanish o'z-o'zini harakatlantiruvchi ichki qonuniyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ta'lim esa bolada inson uchun tarixan tegishli bo'lgan xususiyatlarni rivojlantirish jarayonida bilim va ta'lim olishga bo'lgan ijtimoiy zaruriyatdir. 4-5 yoshda esa bolalar oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshqa joylarda ijtimoiy muhitda ro'y berayotgan o'zgarishlarni o'zlashtiradi va faollashadi.

Faoliyat tuzilishi uchta daraja bilan belgilanadi.



Ya'ni psixik xususiyatga mos keluvchi "**motiv-maqsad-vazifa**" tizimi amalga oshadi. Biroq mazkur darajalar qat'iy yoki doimiy xisoblanmaydi, ya'ni o'zgaruvchan bo'ladi. Faoliyat davomida yangi motivlar, maqsad va vazifalar yuzaga kelishi mumkin. Harakat natijasida faoliyat yoki jarayonni rivojlanishi davom etadi. Masalan, ertak kitob bilan tanishayotgan bola qiziqish bilan tomosha qiladi, so'ngra ertak qahramonlari haqida erkin so'zlay oladi. Ularda ijobiy emotsiyalar shakllana boshlaydi. Kitobdagi syujetlar bola uchun mustaqil motiv bo'ladi va uni faoliyatga yo'naltiradi.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xohish va harakatlariga erishish uchun **axloqiy motivlar kerak tushunchasini** ixtiyoriy ravishda yuzaga keltiradi. Axloqiy tuyg'ular boshqa motivlarga qaraganda ko'proq harakatlantiruvchi kuchga ega bo'ladi. Bolalarning shaxsiy rivojlanishi ierarxik motivlar asosida ro'y beradi. 3-4 yosh bolalarda o'z-o'zini anglash, "MEN" obrazi shakllanadi. Ixtiyoriy ravishda impulsiv harakatlar amalga oshadi. 5-6 yosh bolalarda esa, bolaning ixtiyoriy xulq-atvorining ustunligi ongli ravishda namoyon bo'ladi. Katta maktabgacha yosh ixtiyorsiz harakatlar bilan tavsiflanadi, bu ularning xulq-atvorining nisbiy barqarorligini ta'minlaydi. Bolalarni xissiy jihatdan rivojlantirish va faollashtirish uchun o'yin motivi boshqa bir qator motivlarga (kognitiv, kommunikativ) qaraganda ustunlik qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin aqliy va emotsional rivojlantirish vositasi hisoblanadi. O'yin vositasida bolalik davrida o'z-o'zini anglash, o'zini namoyon etish, shaxsiy sifatleri, qobiliyati, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablari rivojlanadi. Asta-sekin "MEN" konsepsiyasi namoyon bo'ladi. Avvalo 5-7 yosh bolalar o'zini obyektiv belgilarga ko'ra identifikatsiya qila oladi ya'ni jinsi, yoshi, yashash manzili va ijtimoiy munosabatlari haqida so'zlab beradi. Bola shaxsining tahlil qilish jarayonida uning individual va shaxsiy xususiyatlarni taqqoslash kerak. Ma'lumki, individual sifatleri tug'ma qobiliyat va temperament bilan bog'liq. Shaxsiy fazilatlar ijtimoiy muhit va hayoti davomida shakllanadi. Shuning uchun bolalarning

Emotsional reaksiya kengayadi, nafaqat yaqinlari balki, yaqin tanishlari, tengdoshlari, tabiat, hayvonlarga munosabat bildiradi, muloqotga kirishadi. Faoliyatini erkin ravishda o'zi tashkil etadi. Tengdoshlari bilan munosabatga kirishish alohida ahamiyat kasb etadi. Kattalarni hurmat qiladi, tengdoshlarini tan oladi va ularga bo'lgan qiziqishi ortadi. Tengdoshlari, tanishlari bilan muloqot ko'nikmasi takomillashadi va kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyati rivojlanadi. Jismoniy imkoniyatlarini anglaydi, "MEN" konsepsiyasi shakllanadi. O'zini mustaqil shaxs sifatida his qiladi. Qiziquvchanlik rivojlanadi, atrofda narsa va buyumlardan foydalanishni o'rganadi. Ichki hissiyoti rivojlanadi va qo'rgazmali obrazli tafakkur va xayol rivojlanadi. Kattalarni yordamida yaxshi va yomon harakatlarni ajrata boshlaydi. Ilk bora estetik hislar paydo bo'ladi va ijodiy mustaqil faoliyatga ehtiyoj ortadi. keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki bola psixik rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bu samarali ta'lim-tarbiyadir.

Yetakchi faoliyat belgisi shundaki, bolalar qancha muddat bandligi bilan namoyon bo'ladi. Natijada psixik jarayonlarda katta o'zgarishlar ro'y beradi, bola shaxsi shakllanishiga yordam beradi.

qobiliyatini rivojlantirishda individual xususiyatiga tayangan xolda muloqot va faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bola hayotida yuz bergan turli muloqot natijasida emotsiyalar rivojlanadi.

Tarbiyachi-pedagoglar bolalardagi emotsional rivojlanishning dinamik tavsiflarni bilishi lozim.

Birinchidan, bola impulsiv yoki spontan harakatda bo'lishi mumkin, bunda vaziyatni oldindan baholab bo'lmaydi yoki aksincha;

Ikkinchidan, refleksiv ya'ni biror bir faoliyat bajarishdan avval, narsa-buyumlar yoki voqealar haqida mushohada yuritish;

Uchinchidan, o'zgaruvchanlik, tez muddatda bir faoliyatdan, boshqasiga o'tadi, kayfiyati ham tez o'zgaradi, rigidlik yuz beradi.

To'rtinchidan, biror faoliyat bilan uzoq vaqt mashg'ul bo'lsa, maboda faoliyati tugallanmagan bo'lsa, boshqasiga qiyinchilik bilan o'tadi.

5-6 yosh bolalarda xotira xajmi kengayadi, qator narsa va buyumlarni nomini eslab qoladi. Bu yoshda bolalarda tashabbuskorlik paydo bo'ladi va ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Kattalar va tengdoshlarini hissiyotlarini anglaydi va qayg'uradi. Ular bilan o'zaro faol muloqotda bo'ladi. Atrofdagilar bilan ijobiy munosabatda bo'ladi. O'zining istak va hoxishlarini jamiyat qabul qilgan me'yorlarga mos ravishda amalga oshirishni anglaydi. Shaxsiy tashabbusini namoyon qiladi. Shaxsiy identivlik asoslari shakllanadi va hayotiy tajribalarini namoyon etadi. Asta-sekin bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi, xotiraga tayangan holda o'quv topshiriqlarini bajara boshlaydi, mustaqil ravishda maqol va xikoya, qisqa satrli she'rlarni yodlab oladi. Barqarorlik rivojlanadi xamda diqqatni taqsimlanishi va ko'chishi ro'y beradi. Katta maktabgacha yosh bolalarda ko'rgazmali-obrazli va ko'rgazmali-harakat tafakkuri yetarlicha rivojlanadi. 5-6 yoshda nafaqat topshiriqlarni namuna asosida bajara oladi, balki mustaqil ravishda noa'naviy shaklda tasvirlab beradi. Sabab-oqibatlarini muhokama qiladi va tushuntira oladi. 6-7

maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda barqaror motivlar shakllanadi va maqsadga yo'nalgan harakatlarni bajaradi. Emotsional xayratlanish xodisasi ro'y beradi, voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildiradi. Bolalar o'zini baholaydi va xatti-harakatini tahlil qiladi. o'z-o'zini anglash va boshqarish rivojlanadi. Turli vaziyatlarga o'z fikrini bildiradi. Ba'zan bola atrofidagi odamlarga ekstravert yoki introvert holatda bo'lishi mumkin, bu atrofidagi odamlar va vaziyat bilan bog'liq bo'ladi. Ularni begona odamlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish kerak. Har bir insonda individual sifatlar mavjud bo'lib, uning xulq-avtorini belgilaydi, atrofida bilan muloqoti va o'z-o'ziga munosabati turlicha kechadi. Mazkur sifatlar bola shaxsi tuzilishining muhim sharti hisoblanadi. Bolalarning psixik rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar tajovuzkorlik va xavotirni yuzaga keltiradi. Jahldorlik yoki xavotir bola hayotida yuz beradigan salbiy hodisalar, unga qo'yilgan cheklovlar natijasida paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli faoliyatini tashkil etish va kerakli natijalarga erishish uchun tarbiyachi-pedagoglar, psixolog yordam ko'rsatadi. Biroq kattalar tomonidan ko'rsatilgan tajovuzkor xatti-harakatlar salbiy deviant xulq-atvor buzilishiga olib keladi, masalan: ortiqcha jismoniy yuklama, kun tartibiga amal qilmaslik, noto'g'ri turmush tarzi, qulay sharoit yaratmaslik.

Bolalarda agressiv xulq atvor yoki jahldorlik nizolarni keltirib chiqaradi, o'z istagan narsalarga erishishga xavotirlanishdan jahllanadi, ximoyalani holati yuz beradi, natijada janjal va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari uchraydi. Xavotirlanish bola va uning atrofidagi yaqinlarini hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xavotir va vahima stress xolatida, muhim muammolarni hal etishda, o'quv jarayonida yoki oilada namoyon bo'ladi. Biroq, vahima psixik buzilishlarning belgisi bo'lishi mumkin, xavotir yo'q bo'lib ketmaydi u kuchayishi ham mumkin. Bolaning kundalik

faoliyati va hayot tarziga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muntazam yuz beradigan salbiy voqea va hodisalar kuchli xayajon xosil qilishi, qo'rquv va salbiy hissiyotni keltirib chiqarishi mumkin. Bolalarda uchraydigan kuchli xayajon va xavotir ta'sirida muskullar zo'riqishi, turlicha og'riqlar, ko'p terlash, yurak urishi tezlashishi, bosh aylanish, xavotir yetmaslik, diqqat jamlanishida buzilishlar, uyqusizlik, o'quv jarayonidagi passiv faoliyat kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda havotirlanish va yaximaning kelib chiqishi quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

➤ oddiy hodisalar yoki hayotiy vaziyatlar, sog'lik, oila, tengdoshlari va o'yin jarayonidagi tortishuvlar va doimiy tashvishlanish;

➤ doim qaytarilib turuvchi salbiy voqealar, kutilmagan noqulay vaziyat, janjal va nizolar;


➤ ijtimoiy muhitdagi vaziyatlar, qo'rquvni xis qilish va sotsiofobiya (ijtimoiy qo'rquv), atrofida odamlar bilan munosabatdagi noqulay holatlar, atrofda odamlarni salbiy baholashi, muloqotdan qochish;

➤ ota-ona yoki yaqinlari (bobo, buvi, qarindoshlar)dan ayrilish;

➤ fobiya (qo'rquv) salbiy his-tuyg'ular paydo bo'ladi.

Shaxsdagi irratsional fikrlash o'z-o'zini anglash va hissiyotlarga asoslangan impulsiv qaror qabul qilishga asoslanadi. Irratsional fikrlash tamoyillari sezgi bo'lib, bu har qanday dalil va mantiq bilan qo'llab-quvvatlanmaydigan bir xil oldindan sezish hamda tuyg'udir.

Bolalarda kechadigan xavotirlanish va his-xayajon sabablari aniqlanmagan. Ammo irsiy moyillik, fiziologik o'zgarishlar, stress va atrof-muhit ta'siri psixik buzilishining paydo bo'lishi ta'sir qilishi mumkin. Bolalardagi xavotir, vahima va xayajonning kelib chiqish omillari quyidagilardan iborat:



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir, ruhiy zo'riqishni bartaraf etish uchun, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda ishlashi lozim. Eng muhimi bolalarda kognitiv-xulq-atvor terapiyasi o'tkazilishi kerak. Ya'ni tafakkur, idrok va odob-axloq me'yorlarini shakllantirishdagi xatoliklar ustida korreksion ishlar olib borish zarur. Natijada bolalarda shaxsiy strategiya (yo'nalish) shakllanadi, qo'rquv va xavotirni paydo

qiluvchi voqea va hodisalarga bo'lgan munosabat o'zgarishi mumkin. Adabiyotlar taxlili va amaliyotdagi kuzatuvlarimiz asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir va vahima, emotsional zo'riqishni bartaraf etishda kun tartibiga amal qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tizimli jismoniy mashqlar bajarish, artterapiya usullaridan foydalanish, stressli vaziyatlarni oldini olish, sog'lom ovqatlanish va to'g'ri uyquni tashkil etish lozim degan

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 8.05.2019 y., PQ-4312. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.
2. Анохин П. К. Психология эмоций. М.: 2001.-405 с.
3. Башарова А.Ф. Особенности развития эмоциональной сферы старших дошкольников. Научный форум: Педагогика и психология: сб. статей по материалам XVIII междунар. науч.-практ. конф. – М.: 2018.- С. 47-50.
4. Божович Л.И. Психологические вопросы готовности ребенка к школьному обучению. Вопросы психологии ребенка дошкольного возраста. М.: Просвещение, 1995. -247 с
5. Бодалев А.А. Психология личности. М.: 2002 - 188 с.
6. Бойко В.И. Психолого-педагогические условия эмоционального развития детей старшего дошкольного возраста. 2018: материалы междунар. студенч. науч.-практ. Конф. Магнитогорск, 2018. - С. 740-744.
7. Бюллер К. Очерк духовного развития ребенка. Пер.А.Алтшулер, К. Выготской и В. Морейно; под ред. и с вступ. ст. Л. С. Выготского. М.: Работник просвещения, 1930.-222 с.
8. Ермолова Т.В., Комогорцева И.С. Временной аспект образа у старших дошкольников // Вопросы психологии. М.:1995.- № 2.

9. Леонтев А.Н. Проблемы развития психики. М.:1972- 368 с
10. Леонтев А.Н. Психическое развитие ребенка в дошкольном возрасте. //Вопросы психологии ребенка дошкольного возраста.М.:1998.-№4
11. Смирнова Е. О. Психология ребенка: Учебник для педагогических училищ и вузов.М.:Школа-Пресс,1997.-384 с.
12. Смирнова Е. О., Рошка Г. Н. Условия становления произвольного поведения в раннем и дошкольном детстве. Магадан, 1993.-303 с.
13. Элкони Д. Б. Детская психология. М.: 1960.-350 с.
14. Xurvalieva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishni korreksiyalashda ertak terapiyadan foydalanish.// O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari.Toshkent.2023, №1/5. 213-215 b.
15. Ibragimov X.I., Xurvalieva T.L. Characteristics of emotion appearance in preschool children. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 12 december 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz



Aziza KHAYITOVA,
Teacher of the Interlanguage department of Foreign philology faculty
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
E-mail: azizarakhimovna@gmail.com
f.f.d.professor Shirinova R. H.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Psixologiya, pedagogika, tillar kafedrasida o‘qituvchisi Tashxodjayeva P.B

ART THERAPY IN EDUCATIONAL SYSTEM

Annotation

Art therapy is a form of expressive therapy that uses the creative process of making art to improve a person's physical, mental, and emotional well-being. In art therapy, individuals are encouraged to explore and express their thoughts, feelings, and emotions through various art forms such as painting, drawing, sculpture, and other creative activities. Art therapy can be a powerful tool in teaching English as a second language, offering a creative and engaging approach to language learning. It can help students express themselves in a non-verbal way, which can be particularly beneficial for those who may struggle with traditional language learning methods.

Key words: art therapy, expressive therapy, critical thinking, creativity, motivation.

АРТ-ТЕРАПИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Арт-терапия - это форма экспрессивной терапии, которая использует творческий процесс создания произведений искусства для улучшения физического, психического и эмоционального благополучия человека. В арт-терапии людям предлагается исследовать и выражать свои мысли, чувства и эмоции с помощью различных видов искусства, таких как живопись, черчение, скульптура и другие творческие виды деятельности. Арт-терапия может стать мощным инструментом в преподавании английского как второго языка, предлагая творческий и увлекательный подход к изучению языка. Она может помочь учащимся выразить себя невербальным способом, что может быть особенно полезно для тех, кто может испытывать трудности с традиционными методами изучения языка.

Ключевые слова: арт-терапия, экспрессивная терапия, критическое мышление, креативность, мотивация.

ART TERAPIYA TA'LIM TIZIMIDA

Аннотация

Art-terapiya-bu insonning jismoniy, aqliy va hissiy farovonligini oshirish uchun badiiy ijod qilishning ijodiy jarayonidan foydalanadigan ekspressiv terapiya shakli. Art-terapiyada odamlar rasm, chizmachilik, haykaltaroshlik va boshqa ijodiy faoliyat kabi turli xil san'at turlari orqali o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini o'rganish va ifoda etishga da'vat etiladi. Art-terapiya ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda kuchli vosita bo'lib, tilni o'rganishga ijodiy va qiziqarli yondashuvni taklif qiladi. Bu o'quvchilarga o'zlarini og'zaki bo'lmagan tarzda ifoda etishga yordam beradi, bu ayniqsa an'anaviy til o'rganish usullari bilan kurashayotgan har bir kishi uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: art terapiya, ekspressiv terapiya, tanqidiy fikrlash, kreativlik, motivatsiya.

Kirish. Art terapiya inglizcha so'zdan olingan bo'lib "Art"- san'at "Therapy"- davolash degan ma'noni anglatadi. Bu san'at va ijodkorlikdan foydalanishga asoslangan psixoterapiya hamda psixologik korreksiyaning bir yo'nalishi hisoblanadi. Art terapiyaning asosiy maqsadi insonning o'z ichki holatini namoyon qila olishi, o'zini bilish qobiliyatini rivojlantirish o'z navbatida shu orqali insonning ruhiy holatini uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Asosiy qism. Hozirgi jadal rivojlanish davrida shaxs kamoloti g'oyalari tubdan o'zgarib ketdi. Zamonaviy inson jamiyatda o'z taqdirini o'zi belgilashiga, yangi paydo bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda boshqa ma'nolarni izlashga majbur bo'layotganiga amin bo'lmoqdamiz. Shaxsning shakllanishi, uning ijodiy salohiyatining rivojlanishi, shaxsning o'zini o'zi anglashi ko'plab omillar sabablidir. Ular orasida hissiy farovonlik muhim o'rin tutadi.

Hozirgi davrda yoshlar ta'lim - tarbiyasi sohasida ijod mahsullaridagi badiiy obrazlarning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganish muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababli ulg'ayib kelayotgan avlod vakillarini badiiy- ijodiy faoliyat (vizual, musiqa, teatr, o'yin) orqali rivojlantirish hamda tarbiyalash

tizimida badiiy pedagogika (art pedagogika) singari yangi yo'nalishga qiziqish kun sari ortib bormoqda.

Art pedagogikaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u rivojlanuvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy hamda badiiy ijodiy faoliyat vositalari bilan birga ishlaydi, garchi, u badiiy ta'lim, tarbiyaning o'rnini bosmasa ham, ammo ularni to'ldirib boradi hamda rivojlanish, anglash, tasavvur qilish, xissiyotlarini namoyon eta olish, o'qitish, tarbiya jarayonida yangicha, o'ziga xos yo'nalishni shakllantirib boradi. Art terapiyaning tarbiyaviy ahamiyati haqida R. Silver (1978) [1] quyidagilarni bayon etgan: "Art terapiyaning tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori chunki u kognitiv va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi".

Shu o'rinda o'rinli savol tug'iladi, art terapiya dunyo olimlari tomondan endigina o'ylab topilgan metodmi? Yo'q, ijod erkinligi va shu orqali shaxs rivojiga hissa qo'shish haqidagi fikrlar qadim dunyo faylasuflari tomondan ham olg'a surilgan. Xususan buyuk faylasuf Aristotel ijodkorlik va fikrlash o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini e'tirof etgan bo'lsa, Shopenhauer har bir shaxsda biror yo'nalishda qobiliyat mavjud bo'lib, o'sha qobiliyatini yuzaga chiqarish

uchun albatta shaxsni ijod erkinligi bilan ta'minlash kerakligini isbotlab bergan. (Kolodyajnyaya T.V., 2005) [2]

Shundan ko'rinib turibdiki, art terapiya ildizi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Binobarin, bu shaxsga, shaxsiyatga mo'ljallangan metod. Yana shuni aytib o'tish joizki, art terapiya bosh miyaning o'ng yarimsharini rivojlantirishga hissa qo'shadi, bu esa o'z navbatida ijodkorona fikrlashga zamin bo'ladi (Virshup, E. 1978) [3].

Art terapiya chet tillarni o'qitishda bir qancha ikoniyatlarni tuhfa etishi mumkin. Jumladan:

- **Rivojlantirish imkoniyati**, ya'ni xar bir shaxsga individual yondashilganligi hisobidan undagi bor ijodkorlik qobiliyatini yuzaga olib chiqish, qolaversa, shu salohiyatini rivojlantirishga, kreativ fikrlashga, tanqidiy fikrlashga, o'zini, o'zligini anglab etishga, muhim qarorlarni mustaqil qabul qilishda, hayotda faol bo'lishiga yordam beradi.

- **Tarbiyaviy imkoniyat**, ya'ni bunda jamoada o'zini qanday tutishi, ijtimoiyaswy me'yor qoidalariga amal qilishi, etika estetika qonun qoidalariga amal qilishni, jamoadoshlar bilan hamkorlik qilish, o'z-o'zini nazorat qila olishi, jamoada teng huquqlilikka asoslangan demokratik muhitni yaratishi, atrofda insonlar va narsa buyumlarga nisbatan g'amxo'r munosabatda bo'lishni, shuningdek, atrofda insonlar bilan muloqotga kirishishni o'rgatadi.

- **Diagnostik imkoniyatlar**, ya'ni bunda pedagoglar talabalarining individual va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olib, har bir talabaga qay yo'l orqali muloqot qilish kerakligi aniqlashga, va bu orqali u yoki bu talabani yaxshiroq tushunishga, uning ichki olami haqida tasavvurga ega bo'lishga, ma'lum bir jamoada yoki bo'lmasa oilaviy xayotida ro'y bergan ayrim voqea xodisalarni yuzaga chiqarishda va shu orqali unga to'g'ri maslahatlar berishga yordam beradi.

- **Tashkiliy imkoniyatlar**, ya'ni bunda guruhdagi sheriklar bilan munosabat yaxshilashga, jamoada uyg'unlik va hamjihatlik hissiy rivojlantirishga, jamoadoshlar orasida o'zaro yordam va umumiy muammoni hal qilishda qaror qabul qila olishlikda, guruh topshiriqlarini samarali tashkil etishda va bu orqali darsdan tashqari hayotda xam jamoada faoliyat yuritish jarayonida as qotadigan ko'nikma bo'lib xizmat qiladi.

Art terapiya nofilologik yo'nalishdagi talabalarga chet tili o'rgatish jarayonida yuzaga keladigan qator muammolarda yechim vazifasini ham o'taydi. Xususan:

- *Emotsional stress holatida*, biz bilamizki nofilologik yo'nalishdagi talabalar uchun chet tili biroz murakkab va bu tilni o'rganish jarayonida ular stress holatiga tushish ehtimoli katta. Shuni oldini olish maqsadida qo'shiq, musiqa turli tabiat manzaralari tasvirlangan ijod namunalaridan lavhalar keltirish orqali pedagog talaba ruhiyatida ro'y berishi mumkin bo'lgan emotsional stress oldi olinishi mumkin.

- *Til to'sig'ida*, nofilologik yo'nalishdagi talabalarda til to'sig'i bo'lishi tabiiy jarayon. Bu muammoni bartaraf etishda o'rganilayotgan tildagi badiiy asarlar, badiiy filmlar, videoroliklar yordamiga tayanish mumkin.

- *Mashg'ulotga qiziqishning pastligida*, bunda avvalo talabaning ichki olamini bilish va u qiziqadigan soha tomondan yondashib, uni ijodkorona fikrlashga yo'naltirib, sahna asari sahnalashtirib, rasm chizdirib, qiziqishini oshirish mumkin.

Art terapiyani mashg'ulotda qo'llashdan avval pedagog talabalar xohish istaklari haqida qisqacha bo'lsada

ADABIYOTLAR

1. Silver, R. (1978) Developing cognitive and creative skills through art. Baltimore: University Park Press
2. Колодяжная, Т., В. (2005) Педагогические условия развития духовно-эстетической культуры студентов в процессе изучения иностранного языка Ростов на Дону
3. Virshup, E. (1978) Right brain people in a left brain world. Los Angeles, California: Guild of Tutors Press
4. Elausova, O., V. (2012) Art techniques like means of acquirement of foreign communication at secondary school Moscow, "Tsarino"

tasavvurga ega bo'lishi kerak. Talabalar kuylashga ko'proq moyilmi yoki raqs tushishgami, rasm chizishni yoqtiradimi yoki saxnada rol ijro etish qobiliyatiga egami, shu va shu kabi savollarga aniqlik kiritilgach art terapiyani mashg'ulotlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Elausova, O. V., (2012) [4] o'z tadqiqotida Art terapiyaning turli metodlaridan turli xil natija olish mumkinligini sanab o'tgan. Xususan tayyor rasmlar namoyish etish orqali talabalarni fikrlashga, muhokama qilish jarayoni boshlanishiga, talaba o'z fikr va g'oyalarini erkin bayon eta olishga yordam bersa, talabalarga rasm chizdirish talabalar emotsional holatining yaxshilanishiga, emotsional hissiy stress holatiga barham berilishiga, til to'sig'i yengib o'tilishiga, jamoadoshlari bilan muloqotga kirishishning yengillashuvi va o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Mashg'ulot jarayonlarida musiqadan foydalanish og'zaki nutqning rivojlanishiga, darsni noodatiy tarzda o'tkazilishi esa talabalarda darsga bo'lgan qiziqishning ortishiga olib kelishi bilan birga ular dunyoqarashini rivojlantiradi.

Dars mobaynida turli xil dialoglardan foydalanish talabalarining nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki, talabalarda leksik, grammatik, fonetik ko'nikmalarni hosil qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Art-terapiya-bu odamlarga his-tuyg'ularini, fikrlarini va tajribalarini ifoda etishga yordam berish uchun rasm, rasm, musiqa, raqs va drama kabi ijodiy ifodalardan foydalanadigan psixoterapiya shakli bo'lib, ingliz tilini o'qitish uchun samarali vosita bo'la oladi, chunki u talabalarga:

- *Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi*, bu esa yangi tilni o'rganish uchun samarali yo'l hisoblanadi, zero, tasvirlangan rasm yoki kollaj yaratishni so'ralganda materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

- *Motivatsiyasini oshirishga yordam beradi*. Talabalar ijodiy faoliyat bilan shug'ullanganda, ular o'rganishga ko'proq qiziqishadi. Masalan, talabalardan ingliz tilida qo'shiq yoki she'r yozishni so'rash mumkin. Bu ular uchun tildan foydalanishni mashq qilish va o'zlarini ijodiy ifoda etishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin.

- *Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi*, bu esa ingliz tilidan Real hayotda foydalanish uchun foydali bo'lishi mumkin. Masalan, talabalardan sahnani ingliz tilida sahnalashtirish so'ralishi mumkin. Bu ularga nutq va yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

- *O'z-o'zini hurmat qilishni rivojlantirishga yordam beradi*. Talabalar chiroyli va ifodali san'at asarlarini yarata olishlarini ko'rsalar, bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi mumkin. Bu, ayniqsa, o'zini past baholaydigan talabalar yoki ingliz tilini o'rganishda qiynalayotgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Art-terapiya ingliz tilini o'rganish uchun metod emas, biroq, bu an'anaviy ta'limga samarali qo'shimcha sifatida tadbir etishga arziydigan vosita. Art-terapiya puxta o'ylangan holda darslarda qo'llanilsa, talabalar ijodkorligini rivojlantirishga, motivatsiyani oshirishga, muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga va o'z qadr-qimmatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu umuman ingliz tilini yanada muvaffaqiyatli o'rganishga olib keladi.



UDK: 000.1(091):94 (575.1)

Islom HAMDAMOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, (PhD).
E-mail:hamdamovislom79@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasida mudiri f.f.n. dotsent X.U.Samadov taqrizi asosida

TEMURIYLAR SALTANATI MIRZO ULUG‘BEK BOSHQARUVI DAVRIDA

Аннотация

Mirzo Ulug‘bekning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiyot sohasidagi faoliyati, ilmiy-falsafiy, ma‘naviy va moddiy merosini o‘rganish, uning naqadar ko‘p qirrali hukmdor va olim ekanligidan dalolat beradi. Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyati, o‘rta asr jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasini o‘zida nomoyon etadi. Mirzo Ulug‘bek Turkiston astronomiya maktabining asoschisi, qomusiy olim, Movarounnahr shaharlarini Islom me‘morchilik madaniyati markaziga aylantirib, ilm-fan homiysi va davlat arbobi sifatida dunyoga tanildi. Mutafakkirning jahon astronomiya faniga qo‘shgan hissasi va u erishgan yutuqlar hanuzgacha bashariyatni lol qoldirmoqda. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida o‘zbek davlatchiligi, boshqaruv tizimining yanada takomillashuvi, ichki va tashqi siyosatdagi barqarorlik, pul va soliq islohotlari o‘tkazilishi, eng muhimi, ilm-fan va moddiy madaniyat ravnaqi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Movarounnahr, Turkiston, Dashti Qipchoq, o‘zbek davlatchiligi, markazlashgan davlat, boshqaruv, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiyot, renessans, madrasa, Zij, rasadxona, din peshvolari, amaldorlar, ziyolilar, savdogarlar, hunarmandlar, pul islohati.

ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ МИРЗЫ УЛУГБЕКА, КОРОЛЕВСТВА ТЕМУРИДОВ

Аннотация

Исследование общественно-политической и экономической деятельности Мирзо Улугбека, научно-философского, духовного и материального наследия показывает, насколько он разносторонний правитель и учёный. Жизнь и деятельность Мирзо Улугбека показывают политическое, социально-экономическое и политическое, культурный уровень средневекового общества. Мирзо Улугбек – основатель Туркестанской школы астрономии, энциклопедист, превративший города Моваруннахра в центр исламской архитектурной культуры, стал известен миру как покровитель науки и государственный деятель. Вклад мыслителя в мировую астрономию и его достижения до сих пор поражают человечество. В период правления Мирзо Улугбека узбекская государственность объяснялась дальнейшим совершенствованием системы управления, стабильностью во внутренней и внешней политике, денежными и налоговыми реформами, а главное, развитием науки и материальной культуры.

Ключевые слова: Тимуриды, Моваруннахр, Туркестан, Дашти Кипчак, узбекская государственность, централизованное государство, управление, общественно-политическая жизнь, экономика, ренессанс, медресе, Зидж, обсерватория, религиозные деятели, чиновники, интеллигенция, купцы, ремесленники, денежная реформа.

DURING THE RULE OF MIRZA ULUGBEK, THE KINGDOM OF TEMURIID

Annotation

The study of Mirzo Ulugbek's socio-political and economic activities, scientific-philosophical, spiritual and material heritage shows how versatile a ruler and scientist he is. The life and activities of Mirzo Ulugbek, o It shows the political, socio-economic and cultural level of the medieval society. Mirzo Ulugbek is the founder of the Turkestan School of Astronomy, an encyclopedist, turned the cities of Movarounnahr into a center of Islamic architectural culture, became known to the world as a patron of science and a statesman. The thinker's contribution to world astronomy and his achievements still amaze mankind. During the reign of Mirzo Ulugbek, Uzbek statehood was explained by further improvement of the management system, stability in domestic and foreign policy, monetary and tax reforms, and most importantly, the development of science and material culture.

Key words: Timurids, Movarounnahr, Turkestan, Dashti Kipchak, Uzbek statehood, centralized state, management, socio-political life, economy, renaissance, madrasa, Zij, observatory, religious leaders, officials, intellectuals, merchants, artisans, monetary reform.

Kirish. Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglash, milliy davlatchilik, buyuk ajdodlarimizning moddiy va ma‘naviy merosini o‘rganish, qayta tiklash masalalari dolzarb, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki milliy davlatchilik an‘analarini o‘rganish, buyuk mutafakkir, allomalarning hayoti va faoliyati, moddiy va ma‘naviy merosini o‘rganish, targ‘ib qilish, yosh avlodga insonparvarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, ilm-fanga qiziqish va rivojlantirish kabi tuyg‘ularini o‘ygotadi. SHuning uchun: Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini teran anglagan holda, qat‘iy islohotlarni amalga

oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz” [8]. Jumladan, hukmdor va olim Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatini o‘rganish, jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini anglash ahamiyatli hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek ma‘naviy merosi, ilmiy faoliyatini o‘rganish ahamiyati haqida Birinchi Prezident Islom Karimov quyidagi fikrlarni bergan edi: “Mirzo Ulug‘bekday benazir allomaning o‘rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi. Mirzo Ulug‘bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi.

Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb nomlangan Mirzo Ulug'bek astronomik jadvali o'rta asrlarda boshqa tillarga tarjima qilinib, Evropa olimlari orasida keng tarqalgani bu fikrimizning yakkol isbotidir"[5-319,322], - deya alohida ta'kidlagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyati, ilmiy, tarixiy-falsafiy merosini o'rganish, o'zi yashagan va undan keyingi davrlar ilmiy jamoatchilikni doimo qiziqtirgan va tadqiqotchilar diqqat markazida turgan. Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bekning davlatchilik an'analarni, ilmiy-falsafiy merosini o'rganish borasidagi sobiq ittifoq davridagi turli salbiy qarashlarga chek qo'yildi, ilm-fanida yangicha metodologik yondashuvlar tufayli, tarixiy jarayonlarga, voqealarga xolis baho berildi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek tavallud kunini nishonlash to'g'risidagi farmondan keyin, "Ziji jadidi Guragoniy", "Tarixi arba' ulus" kabi asosiy asarlar tarjima qilinib, nashr etilishi ijobiy ahamiyat kasb etdi. O'zbek davlatchiligi asoslari uzoq o'tmishga borib taqaladigan va o'ziga xos voqealarga boy hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz xududlarida asrlar davomida uzluksiz davlatchilikning o'ziga xos boshqaruv tizimi, an'analari, ichki va tashqi siyosat, ilm-fan, madaniyat, san'at rivojlanib kelgan va bu hol doimiy ravishda xorijiy davlatlar va sulolalarning e'tiborini tortib kelgan. Ta'kidlash kerakki, Turon xududlarini boshqargan hukmdor va sulolalar doimo mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishga harakat qilganlar. Jumladan, buyuk davlat arbobi Amir Temur va Temuriylar davri o'zbek davlatchiligi davrida bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizga ma'lumki, jahongir Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlatga asos solib, ulkan saltanat barpo etdi. Ushbu davlatning poytaxti Samarqand bo'lib, uning xududi Movarounnahr, Xorazm, Kafkazorti, Afg'oniston, Eron, Turkiya, shimoliy Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlarini qamrab olgan edi. Olimlar ta'kilashiga ko'ra, ushbu saltanat yigirma etti mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan birlashtirgan. Sohibqiron vafotidan so'ng, uning avlodlari ushbu ulkan saltanatning kattagina qismini o'z qo'llarida saqlab qolishdi. Jumladan, Temuriy hukmdorlar orasida davlat arbobi, olim Mirzo Ulug'bek hukmronligi davri o'ziga xos ijobiy jihatlari bilan o'zbek davlatchiligi tarixida yorqin iz qoldirdi. SHu o'rinda akademik V.V. Bartold "Ulug'bek bobosidan ko'ra ham turk edi" deb ta'kidlagan [4-135] edi, davlat boshqaruv ishlarida ko'proq turkiy udumlariga tayanar edi. Muxammad Tarag'ay [3-3] ibn SHohrux ibn Amir Temur Ko'ragon 1394 yilda Sultoniy (hozirgi Eron hududi) shahrida, Amir Temurning YAqin SHarqqa besh yillik harbiy yurishlari davrida tug'ildi. Mirzo Ulug'bek SHohrux Mirzoning o'g'li bo'lib, dastlab Muhammad Tarag'ay, keyinchalik Ulug'bek nomi bilan atalgan. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro kurashlarda Amir Temurning kenja o'g'li SHohrux Mirzo hokimiyatni qo'lga oldi. SHohrux mirzo davrida asosiy poytaxt Hirot bo'lib, Samarqand ikkinchi darajali poytaxt bo'lib Mirzo Ulug'bek boshqardi. Mirzo Ulug'bek dastlab buvisi Saroymulk xonim, onasi Gavharshodbegim qo'lida, qissaxon SHayx Ozariy, keyinchalik otaliq amir SHoh Malik qo'lida tarbiyalangan. Taniqli matematik va tarixchi olim A. Ahmedov fikriga ko'ra Amir Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan biri Mavlono Ahmad Ulug'bekka dastlabki astronomiyaga oid bilimlarni bergan bo'lishi mumkin [3-28]. Ammo Mirzo Ulug'bek "Zij" asarida Qozizoda Rumiyni "ustozim" deb ataydi. Sohibqironning boshqa nabiralari qatori Mirzo Ulug'bek ham Amir Temurning harbiy yurishlari va saroy tadbirlarida ishtirok etgan [9-67,68].

Tahlil va natjalar. 1405 yilda Amir Temur vafot etgach, qisqa muddat toj-taxt uchun kurashlar boshlanib ketadi. Bu kurashlarga 1409 yilda barham bergan SHohrux Mirzo o'n besh yoshli o'g'li Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr taxtiga hukmdor etib tayinlaydi. Mirzo Ulug'bek yosh bo'lganligi sababli SHohrux Mirzo davlatni boshqarishni ishonchli amaldorlaridan biri Muborizuddin SHohmalik ixtiyoriga topshiradi. Mirzo Ulug'bek o'z otalig'i amir SHohmalikdan mansabdor shaxslarni lavozimlarga tayinlash, soliq siyosati, mamlakatni boshqarish tartibi, xorijga elchilar yuborish va chet el elchilarini qabul qilish, mamlakat fuqarolari ahvolidan xabardor bo'lish kabi siyosatga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotga oid bilim va tajribalarni o'rgandi. Ammo, bizga ma'lumki, Movarounnahrlik hokimlarning ba'zilar Mirzo Ulug'bek va SHohmalik hokimiyatini tan olishni istamaydilar. Jumladan, 1410 yilda bosh ko'targan mahalliy beklaradan SHayx Nuriddin isyoni faqatgina SHohrux Mirzoning aralashuvi tufayli bostirildi va hokimiyat Mirzo Ulug'bekning o'ziga qoldiriladi. Ammo 1411 yildan boshlab SHohmalik Movarounnahrda ancha muxolif kuchlarga boshchilik qilib, anchagina yosh Mirzo Ulug'bekka hokimiyatni mustaqil idora qilishiga to'sqinlik qila boshlaydi. Ushbu sabab SHohrux Mirzo SHohmalikni tez orada Xurosonga chaqirib oladi. 1412 yildan boshlab, (18 yoshidan) Mirzo Ulug'bek Movarounnahrni "yagona va qonuniy sultoni" sifatida hokimiyatni bosh qaradi [2]. Anglashimizga ko'ra, Temuriylar davlati qisman markazlashgan davlat sifatida faoliyat olib bordi, ammo uning qonuniy boshlig'i SHohrux Mirzo mumtoz tarixiy asarlarda, jumladan, muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' al-Sa'dayin va majma al-Baxrayin" asarida "xoqon" nisbasi bilan qayd etilgan. SHunday bo'lsada, u mutlaq hukmdor bo'lmagan. Aslida davlatni, Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim boshqargan[4-22,176]. SHuning uchun bu davlatni qo'sh hokimiyatchilik - diarxiya deb atash mumkin edi. Shu o'rinda temuriylar davrining tarixchi olimi Mirxond quyidagi ma'lumotlarni qayd etgan: "Haq taolo bu buyuk in'om va marhamatni bizga ato qildi; yarog' aslahamizning ojizligi va holatimizning nuqsonligiga qaramay, bizni tanlash nazari bilan taqdirlab, farmonimizni olam mamlakatlari uzra joriy qildi... Qozilar qo'lini shariat qukmilari ijrosida baquvvat tutgin; olam obodonligining sababi va odamzod rizqining vositasi bo'lmish dexqonlarni zulmu adolatsizlikdan himoya qilib, adlu insof bilan (o'zingga) yaqin qilgin; davlat chegaralarining posbonlari va mamlakat ichkarisining qo'riqchilari bo'lgan lashkarlar toifasini ochiq yuzlik va xushmuomalalik bilan o'zingga mute va itoatkor qilib, ularning yollanma haqlari va maoshlarini belgilangan vaqtda to'la etkazib turgin"[10-12]. Mirzo Ulug'bekning davlati dastavval Samarqand, Buxoro va Nasaf bilan chegaralangan bo'lsa, keyinchalik uning davlati janubda Amudaryo, g'arbda Markaziy Qizilqumning sharqiy chekkalari, shimolda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig'noq va O'tror shaharlari, shimoli-sharqida SHarqiy Turkiston bilan chegaralangan. Ta'kidlash lozimki, Mirzo Ulug'bek davlat boshqaruvida o'z siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida, doimiy qo'shin saqlash, mamlakat xududlarini kengaytirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va markaziy hokimiyatni mustahkamlash, deb bilgan. Movarounnahr tarqoq xududlarini birlashtirish maqsadida Mirzo Ulug'bek 1414-1415 yillarda Farg'onani, 1416 yilda Qoshg'arni bo'sundirdi. Mirzo Ulug'bek 1424-1425 yillar oralig'ida xorijiy o'lka bo'lgan G'arbiy Mo'g'uliston ustiga qo'shin tortib, Issiqko'l (hozirgi Qirg'iziston) xududi yaqinida mo'g'ullarni engdi. Bu shonli g'alaba Mirzo Ulug'bek xorijda olib borgan janglarining birinchisi va oxirgisi edi. So'nggi yillarda Mirzo Ulug'bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurish qildi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida o'zbek davlatchiligi, boshqaruv tizimining yanada takomillashuvi, ichki va tashqi siyosatdagi barqarorlik, pul va

solih islohotlari o'tkazilishi, eng muhimi, ilm-fan va moddiy madaniyat ravnaqi bilan izohlanadi. Jumladan, muarrix Davlatshox Samarqandiyning ta'kidlashiga ko'ra, Mirzo Ulug'bek davrida Movarounnahrda soliqlar miqdori ancha kamaytiriladi, xalqqa, savdo ahli va hunarmandlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini barqarorlashtirish maqsadida 1428 yilda pul islohoti o'tkazildi. Bu hol ijtimoiy hayotda xalq uchun muhim, amaliy islohot edi. Akademik Azamat Ziyov ta'kidlashiga ko'ra, SHohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek, Amir Temur joriy etgan adolatli davlat boshqaruv tizimiga amal qilganlar. Boshqaruv tizimida vazirlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular: mamlakat va raiyyat vaziri (mamlakatning muhim ishlari, xalq ahvoli, viloyatlardan olinadigan hosil, soliqlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqim, obodonchilik ishlari, xazina ahvoli kabilarning nazorati); harbiy vazir (harbiylarning maoshi, ularga tuhfa qilingan er-suv boshqaruvi, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy ko'riklarni tayyorlash kabi vazifalar); mulkchilik va solih ishlari vaziri (mol-mulkni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj olish, mamlakat chorvalari, o'tloq-yaylovlarni boshqarish, ulardan tushadigan daromadlarni saqlash, mulkchilikdagi merosxo'rlik tartiblarini amalga oshirish masalalari bilan shug'ullangan); moliya vaziri (davlat idoralari kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlarni hisobga olib boruvchi) kabilardir [1-179,180]. Mirzo Ulug'bek ham sohibqiron Amir Temur singari Movarounnahrni yaxlitligini saqlagan holda boshqarishga harakat qildi va buni uddasidan chiqdi. CHunki Mirzo Ulug'bek qariyb yarim asr vaqt davomida mamlakatni idora qildi va barqarorligini saqlab qoldi. Mamlakat boshqaruvida ulus tizimi joriy etilgan bo'lib, har bir ulusning dargohi va vazirlari bo'lgan. Ammo, ular markaziy boshqaruv tizimidagi kabi keng tarmoqli bo'lmay, muayyan huquq doirasida oliy dargoh va ijroiya tizimi oldida javobgarlik holatida faoliyat ko'rsatgan. Bu davrdagi tabaqa va toifalar quyidagilar edi: siyosatchilar, din peshvolari, harbiylar, amaldorlar, ziyolilar, savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlardan [1-183-185] iborat edi. Temuriylar davrida aholi to'laydigan turli soliqlar orasida yer solig'i - xiroj alohida ajralib turardi. Dehqonlar yetishtirgan hosilning uchdan bir qismi xiroj solig'iga to'langan. SHuningdek, daromadning o'ndan bir qismi - ushr, savdo-sotiq solig'i - tamg'a, zakot, tutun solig'i, bog' solig'i, uloq - davlat xizmatidagilar uchun, dorug'ona - harbiy qo'riqchilar uchun, mirobona - suv yetkazib beruvchilar uchun, yasoq - chorva mollari uchun, begor- davlat hisobiga ishlab berish, saroy qurilishi, ariq, kanallar qazish uchun va boshqa solih va majburiyatlar joriy etilgandi. Mirzo Ulug'bek o'z davlat siyosatida qanchalik oqil va izchil siyosat yuritishga, ilm-fan ahliga, din peshvolariga homiylik qilish, savdo tijorat va hunarmand ahliga rag'bat ko'rsatishga harakat qilmasin, unga

qarshi kuchlar ham mavjud edi. Mirzo Ulug'bek katta yer egalari o'zlarining oddiy fuqarolarga nisbatan adolatsizliklarini tanqid qilganida, ular hukmdorga qarshi chiqdilar. Ruhoniylar orasidagi jaholatparastlar Mirzo Ulug'bekni islom diniga zarar keltiruvchi hukmdor sifatida tashviqot olib bordilar.

Shu tariqa, jaholatparastlar ilmga, o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yuvchilar taraqqiyotga qarshi chiqdilar. Natijada Mirzo Ulug'bek mamlakatdagi turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni, mutaassib, radikal kuchlar qarshiligini bartaraf eta olmadi. SHu tariqa Movarounnahr ichki beqarorlik va chuqur ijtimoiy-siyosiy tushkunlikka duchor bo'lishi, Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining Movarounnahr erlariga tez-tez bostirib kelib, yurtini talashi uchun keng yo'l ochib bergan edi. Bu hol Temuriylar sulolasi inqirozini yanada chuqurlashtirishga olib keldi. Davlat arbobi va mutafakkir faoliyatini mamlakat va jamoat ahamiyatiga molik bunyodkorlik ishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jumladan, Samarqandda butun jahonga mashhur madrasa, rasadxona, Masjidi Muqata', xonaqoh, karvonsaroy, hammomlar, Buxoro, G'ijduvon shaharlarida madrasalar, SHaxrisabzda saroy va maqbaralar bunyod ettirgan. O'zi hukmdor bo'lib davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramasdan, ilm-fan rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi va madrasada dars berdi. Tadqiqotchi, olim K. Kattaev, - tarixda uch mashhur hukmdor Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va YAlangto'sh Bahodir o'zlarini qurdirgan me'morchilik obidalari bilan Samarqandni "Er yu zining sayqali"ga aylantirishgan" [6-51]. Olim K. Kattaevning ushbu ta'kidi, haqiqatan ham bu uch davlat arbobining faoliyatiga berilgan odilona baho edi.

Xulosa va takliflar. Xulosa kilib aytganda, Mirzo Ulug'bek davri o'zbek davlatchiligining o'ziga xosligi shundaki, u otasining hukmdor bo'lish to'g'risidagi ko'rsatmalariga amal qilibgina qolmay, balki o'z poytaxti va mamlakatini odilona boshqarish masalasida zaruriy choralarini ko'rdi. Garchi, Mirzo Ulug'bek rasmiy holatda, otasi SHohrux Mirzoga bo'ysungan bo'lsa ham, amalda Movarounnahrni mustaqil hukmdori edi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi yillarida Samarqand jahonning yirik siyosiy va madaniy markaziga, xususan, gumanitar, aniq, tabiiy fanlar markaziga aylangan edi. SHu tariqa Mirzo Ulug'bek davrida Movarounnahr va Xurosonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyat yuksak darajada taraqqiy etdi. Bu davrni taniqli olim N.I. Konrad "Musulmon renessansining so'nggi davri va umuminsoniyat renessansining bir qismi" [7-227]deb ataydi. Bugungi kunda tadqiqotchi olimlar oldidagi muhim masalardan biri Mirzo Ulug'bekning ma'naviy va moddiy merosi bo'yicha yangi tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy asarlarini nashr ettirish, keng ilmiy jamoatchilikka etkazish muhim vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент: Шарк, 2001. – Б.179-180.
2. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б.Ахмедов тахрири остида. Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
3. Ашраф Ахмедов. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Т: Ўзбекистон, 2011. – Б 28.
4. Бартольд В.В. Улуғбек и его время. Соч. Ч. 2. М.: Наука, 1964. Т. II. - С.135.
5. Каримов И.А. Улуғбек руҳи барҳаёт // Каримов И.А. Биздан Озод ва обод Ватан қолсин. -Т.: Ўзбекистон, 996. II-том. – Б. 319-322.
6. Комилхон Каттаев. Махдуми Аъзам ва Дахбед. Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б .51.
7. Конрад Н.И. Запад и Восток. - М.: Наука, 1966. - С. 227.
8. Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // - Тошкент, 2017. Халқ сўзи. № 196 (6860).
9. Муҳаммаджонов А.Р. Темур ва Темурийлар салтанати. -Т: Қомуслар бош тахририяти, 1994. - Б.67-68
10. Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. Урганч, Хоразм. 1996. 12-бет.



UDK:152.27(45)

Abbos HUSANOV,
Psi.f.f.d. (PhD) Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrası dotsenti v.b.
Email: husanov.abbos@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo‘rayev taqrizi ostida

THEORETICAL STUDY OF THE PROBLEM OF PREVENTION FROM CYBER ATTACKS IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

This article presents a theoretical study of the problem of avoiding cyberattacks in psychological research. At the same time, the psychological impact of cyberattacks on a person is analyzed and used as a criterion that determines the main essence in psychological research. Psychological recommendations for avoiding cyber attacks are given.

Key words: virtual world Internet, cyber attack, security problem, security problem, virtual psychology, false information, psychological influence, personality, psychological analysis, influence.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ КИБЕРАТАК В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

В данной статье представлено теоретическое исследование проблемы предотвращения кибератак в психологических исследованиях. При этом психологическое воздействие кибератак на человека анализируется и используется как критерий, определяющий основную суть психологических исследований. Даны психологические рекомендации по предотвращению кибератак.

Ключевые слова: виртуальный мир Интернет, кибератака, проблема безопасности, проблема безопасности, виртуальная психология, ложная информация, психологическое воздействие, личность, психологический анализ, влияние.

KIBERXUJUMLARDAN SAQLANISH MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAN NAZARIY TADQIQI

Ushbu maqolada kiberxujumlardan saqlanish muammosining psixologik tadqiqotlarda nazariy tadqiqi yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda Shuningdek, kiberxujumlarning shaxsga psixologik ta'siri psixologik tadqiqotlarda asosiy mohiyatni belgilab beruvchi mezon sifatida ishlatilishi tahlil qilib berilgan. Kiberxujumlardan saqlanishga doir psixologik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. virtual olam internet, kiberxujum, saqlanish muammosi, xavfsizlik muammosi, virtual psixologiya, yolg'on axborot, psixologik ta'sir, shaxs, psixologik tahlil, ta'sir etish.

Kirish. Yangilanayotgan O'zbekistonda o'smir yoshlarni turli xil virtual olamdagi salbiy xurujlardan saqlanish masalasiga ham davlat tomonidan katta e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surgan beshta muhim tamoyildan uchinchisi "aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan"[1. 2022] i ham aynan shu bilan izohlanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali konstruktiv ma'lumotlardan erkin foydalanish imkonini yaratish bilan bir vaqtda, undagi kiberhujumlar ta'siriga berilish va qaramlikning yuzaga kelayotganini ham anglatadi. Demak, o'smir o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish axloqiy va ijtimoiy qoidalarni shakllantirish orqali ularda turli g'oyaviy-psixologik tahdidlarga qarshi mustahkam irodani rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, kiberhujumlardan saqlanishning psixologik determinantlarini ilmiy asoslangan holda tahlil qilish hozirgi davrning dolzarb vazifasi sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. XXI asr haqli ravishda "Axborot davri" nomini oldi. Zamonaviy jamiyat sharoitida axborot deyarli bir zumda vaqt va makonda tarqaladigan eng qimmatli resurslardan biriga aylandi. Kun sayin filtrlash, ya'ni "spam" (inglizcha spam – deyarli foydasiz ma'lumot) deb ataladigan muammoning dolzarbligi o'sib bormoqda. Unga yaqin kelajakda zamonaviy odam – Homo Sapiens "g'arq" bo'lishi,

XX-XXI asrlar oxiriga kelib "Homo Cyberus"ga aylanishi ham mumkin.[2. 92]

Mariya Bada tadqiqotlarida ko'proq ijtimoiy va xulq-atvor fanining istiqboli nuqtai nazaridan mazkur hujumlar bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirlarini o'rganish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik vakillari hujumning o'zi emas, balki kiberhujum oqibatlariga ko'proq javob berishadi.[3. 28] Buning bir misoli – milliy elektr stansiyasiga zararli dasturlarni yuqtirgan kiber-hujum, yuz minglab fuqarolarning elektr energiyasiz qolishiga olib keladi.


D.G.Ribaltovich hamda V.V.Zaytsevlarning xulosalariga ko'ra, kiberxujumlardan saqlanish fenomenining kattalarda uchraydigan quyidagi turlari ajratiladi: turli noodatiy o'yinlariga tobeklik, ko'p pul sarflashga tobeklik, jinsiy yaqinlikka tobeklik, qimor o'yinlariga tobeklik, kliptomaniyaga tobeklik (o'g'irlikka moyillik), trikotillomaniya mazmunidagi tobeklik (organizmning biror sohasiga shikast yetkazishga qaratilgan patologik moyillik), piromaniyaga bo'lgan tobeklik (o't qo'yishdan o'zini to'xtata olmaslik) va hokazo [4. 23].

Tahlil va natijalar. Yana bir muhim element – jinoyat va kiber-hodisalar bilan bog'liq qo'rquvning umumiy madaniyati. Jinoyatdan qo'rqish odamlarni xatti-harakatlarini o'zgartirishga undashi mumkin. Shaxs darajasida odamlar odatda jinoyat qo'rquviga himoya qilish yoki qochish xatti-harakatlarini qabul qilish orqali javob berishadi[5]. Fobofobiya - qo'rquvlardan psixologik qo'rqish [6] (Furedi, 2002) – qo'rquv omillarining mavjudligidan qat'iy nazar,

stress, kuchli xavotir, jinoyat va xavfdan noreal va doimiy jamoat qo'rquviga olib kelishi mumkin. Bu hodisa jinoyat kompleksiga (Hale, 1996) va shuning uchun kiberhujumlar va kiberjinoyatlarga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Kibermakonning jamiyatga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. U butun dunyo bo'ylab shaxslar va tashkilotlar o'rtasida tezkor aloqa, savdo va o'zaro aloqalar uchun platformani taqdim etdi. Kiberkosmosning mashhurligi oshgani sayin, afsuski, kiberhujumlarning soni va xilma-xilligi ham oshib bormoqda. Bu yerda kiberhujumlar tizimning (texnik yoki ijtimoiy-texnik) yaxlitligini, maxfiyligini yoki mavjudligini buzishga qaratilgan hodisalar sifatida tavsiflanadi. Ushbu hujumlar xakerlik va xizmatlarni rad etish /DoS/, to'lov dasturlari va josuslik dasturlari infeksiyalarigacha o'zgarib turadi va jamoatchilikdan tortib mamlakatning muhim milliy infratuzilmasigacha bo'lgan barchaga ta'sir qilishi mumkin.

1-rasm. Sinaluvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha vaqt jihatdan foiz ko'rsatkichlari



Siz kun davomida qancha vaqtingizni ijtimoiy tarmoqlarga sarflaysiz degan savol bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, sinaluvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi vaqt jihatdan tekshirilganda quyidagicha natijalar namoyon bo'ldi. Kun davomida ijtimoiy tarmoqlardan bir soat davomida foydalanuvchilar 7% ni tashkil etgan. 2 soat davomida foydalanuvchilar 12% ni, 3 soat davomida foydalanuvchilar 18% ni, 5 soat davomida foydalanuvchilar 14% ni, 8 soat davomida foydalanuvchilar 26% ni, 10 soat davomida foydalanuvchilar 13% ni hamda 12 soat davomida foydalanuvchilar esa 10% ni tashkil etganligi aniqlandi.

Zamonaviy xorij psixologiyasida "kiberpsixologlar" tushunchasi kiritilgan bo'lib, ular aynan internetga tobe shaxslarga maslahat va yo'l -yo'riq berishadilar. Bundan tashqari, ular mijozlar bilan ma'lum bir muddatda profilaktik

Kibertahdidlar, shuningdek, axborot texnologiyalari obyekt, kompyuterlar tarmog'i, intellektual mulk yoki boshqa har qanday maxfiy ma'lumotlarga ruxsatiz kirish, ularga zarar yetkazish, buzish yoki o'g'irlashga qaratilgan muvaffaqiyatli kiberhujum ehtimolini ham nazarda tutadi. Kibertahdidlar kompaniya yoki tashkilot ichidan, ishonchli foydalanuvchilardan yoki noma'lum shaxslar tomonidan uzoq joylardan kelib chiqishi mumkin.

Barnsning talqinida «sotsial tarmoq»-bu sotsial obyekt (kishilar yoki tashkilotlar) mavjud tugunlar guruhlaridan hamda ularning orasidagi aloqalardan (ijtimoiy o'zaro munosabatlardan) tarkib topgan ijtimoiy tuzilmadir. Agar soddaroq til bilan aytadigan bo'lsak-bu bir inson tanishlarining ma'lum guruhi bo'lib, unda insonning o'zi markaz, uning tanishlari esa shoxchalar (tarmoqlar) bo'ladi. Bugunga kelib sotsial tarmoqlar kundalik hayotning bir qismiga aylandi.

ishlar olib borishadilar [7. 31]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, internetga tobelik oqibatida ikki xil yo'nalishda patologik o'zgarishlar bo'lgan shaxslar farqlanadi:

- jinsiy yaqinlikka qaratilgan internetga tobelik;
- ijtimoiy izolyatsiyaga qaratilgan tobelik.

Demak, internet har qanday shaxsni shunday o'zgartiradiki, inson unga erishish uchun barcha to'siqlarni yengishga tayyor bo'ladi. Misol uchun, o'smir yoki o'spirinlar doim yolg'on gapirish evaziga unga bo'lgan ehtiyojini qondirib boradilar. Hattoki, qarshilikni yengish uchun o'z tajovuzkorliklarini ham kuchli namoyon etib boradilar.

Jamiyatning yagona vazifasi bu - o'sib kelayotgan yoshlarga, maktab talabalariga, talaba yoshlarga yordam berishdir. ya'ni shafqatsiz virtual harakatlardan voz kechib, haqiqiy hayot tarziga o'tishlariga ko'maklashishdir.

1-jadval

Kiberhujumlardan saqlanish va shaxs himoya mexanizmlarini o'rganish so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti mezon bo'yicha)

Shkalalar	Kiberhujumlarga umumiy qaramlik	Virtual olamga qaramlikga moyillik	Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	Televizorga qaramlik	Kompyuter o'yinlariga qaramlik	Internetga qaramlik
Siqib chiqarish	0,588**	0,256	0,445*	0,639**	0,580**	0,539**
Regressiya	0,266	0,677**	0,549**	0,469*	0,264	0,427*
O'rinni to'ldirish	0,589**	0,247	0,560**	0,684**	0,574**	0,438*
Rad etish	0,237	0,468*	0,567**	0,239	0,544**	0,460*
Proyeksiya	0,560**	0,488*	0,579**	0,534**	0,520**	0,279
Kompensatsiya	0,284	0,432*	0,549**	0,265	0,461*	0,320
Giperkompensatsiya	0,538**	0,456*	0,139	0,434*	0,643**	0,531**
Ratsionalizatsiya	0,439*	0,592**	0,455*	0,240	0,575**	0,327

Izoh: * - $r \leq 0,05$; ** - $r \leq 0,01$; *** - $r \leq 0,001$.

Umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini faol ravishda axborotlashtirish va internetlashtirish, ikkinchi tomondan, maktab o'quvchilarida internet bilash ishlashga bo'lgan bilimlarning yetishmasligidir. Bu esa, pedagoglar tomonidan muammoni o'z vaqtida hal etishning pedagogik-psixologik strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ko'pincha, savodsiz, darslarga to'liq kelmaydigan talabalar internet tuzog'iga ilinadilar. Umuman olganda, yoshlar orasida internetga tobelik oldini olish uchun, uni profilaktika

qilishning ma'lum bir tizimli, bosqichli modelini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa. Kibermakonning jamiyatga ta'siri ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida oshib borgan sayin, insoniyat psixologiyasidagi o'zgarishlar ham ortib bormoqda. Kiber-hodisalarga nisbatan jamoatchilik reaksiyalarini tushunish bilan bog'liq ba'zi asosiy masalalarga quyidagilar kiritiladi: xavfni idrok etish; lokus nazorat; qo'rquv madaniyati; himoya motivatsiyasi. Shuningdek, jinoyatchining

shaxsi va kiberhujum ko'lami kabi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan xavf darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator potensial omillar mavjud.

Kiberhujumlardan saqlanishida shaxs individual psixologik xususiyatlarini namoyon bo'lishi tufayli himoya

mexanizmlaridan siqib chiqarish, regressiya, rad etish, proyeksiya, giperkompensatsiya hamda ratsionalizatsiya kabilar ichki to'sqinlik qilishini inobatga olish kerak.

ADABOYITLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги фармони. 28.01.2022 йил, ПФ-60-сон.
2. Краткая характеристика состояния преступности в Российской Федерации за январь - сентябрь 2020 года / Официальный сайт МВД России [Электронный ресурс]: Режим доступа: <https://xn--b1aew.xn--p1ai/reports/item/21551069/> (дата обращения: 27.07.2023).
3. Плешаков В. А. Киберсоциализация человека: от Homo Sapiens'а до «Homo Cyberus'а» // Вопросы воспитания. М., 2010. № 1 (2). С. 92–97.
4. Minei, E. & Matusitz, J. (2011). Cyberterrorist messages and their effects on targets: A qualitative analysis. *Journal of Human Behaviour in the Social Environment*, 21(8), 995-1019. Gandhi, R., Sharma, A., Mahoney, W., Sousan, W., Zhu, Q. & Laplante, P. (2011). Dimensions of cyber attacks: Social, political, economic, and cultural. *IEEE Technology & Society Magazine*, 30(1), 28-38.
5. Reid, L. W., Roberts, J. T., & Hilliard, H. M. (1998). Fear of crime and collective action: An analysis of coping strategies. *Sociological Inquiry*, 68(3), 312-328.
6. Furedi, F. (2002). *Culture of fear: Risk-taking and the morality of low expectation*. London: Continuum.
7. Lenihan F. Computer addiction - a skeptical view / F. Lenihan // *Advances in Psychiatric Treatment*. - 2007. - N 13.-P. 31-33.



UDK:323:301:008:1(575.1)

Matluba YULDASHEVA,

Qo'qon DPI falsafa fanlari nomzodi, dotsent

E-Mail: matlubayuldasheva1974@gmail.com

QDPI Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ortiqov. O taqrizi asosida

MILLIY G'OYA VA MILLIY MAFKURA: IJTIMOY-FALSAFIY TALQIN

Annotsiya

"Milliy g'oya" atamasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan, shuning uchun uni ko'pincha jamiyatshunos olimlar milliy mafkura, qadriyatlar tizimi va milliy o'zini o'zi identifikatsiya qilishning boshqa elementlari bilan aralashtirib yuborishadi. Milliy g'oya muayyan xalq, etnik guruh yoki millat mavjudligining ma'nosini anglatadi. U badiiy asarlar yoki turli falsafiy matnlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Shu boisdan ham mazkur maqolada "Milliy g'oya" va "milliy mafkura" o'rtasidagi bog'liqlik va ularning zamonaviy globallasuv bosqichidagi qarama-qarshi jarayonlar kontekstida xalqlarning etnikmadaniy o'ziga xosligiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Milliy g'oya, milliy mafkura, milliy o'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash, etnik, millat, etnikmadaniy o'zlik, globallasuv.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕОЛОГИЯ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Термин «национальная идея» появился относительно недавно, из-за чего его часто путают с национальной идеологией, системами ценностей и другими элементами национальной самоидентификации. Национальная идея определяет смысл существования того или иного народа, этноса или нации. Она может выражаться посредством художественных произведений или различных философских текстов. Рассматривается связь между «национальной идеей» и «национальной идеологией» и их влияние на этнокультурную идентичность народов в контексте противоречивых процессов современного этапа глобализации. Национальная идея в философии систематизированное обобщение национального самосознания.

Ключевые слова. Национальная идея, национальная идеология, национального самосознания, национальной самоидентификации, этнос, нации, этнокультурная идентичность, глобализация.

NATIONAL IDEA AND NATIONAL IDEOLOGY: SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

The term "national idea" appeared relatively recently, which is why it is often confused with national ideology, value systems and other elements of national self-identification. The national idea determines the meaning of existence of a particular people, ethnic group or nation. It can be expressed through works of art or various philosophical texts. The connection between the "national idea" and "national ideology" and their influence on the ethnocultural identity of peoples in the context of the contradictory processes of the modern stage of globalization is considered. The national idea in philosophy is a systematic generalization of national identity.

Key words. National idea, national ideology, national self-awareness, national self-identification, ethnicity, nation, ethnocultural identity, globalization.

Kirish. Milliy g'oyani amalga oshirishning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, falsafiy, ma'naviy-madaniy jihatlarini mezonlar, kafolatlar mavjud. Milliy g'oyaning siyosiy-huquqiy kafolatining yeng yorqin namunasidir. Bu omillar orasida iqtisodiy omil asosiy rol o'ynashini isbotlashning hojati yo'q. Iqtisodiy rivojlanmagan davlatning muvaffaqiyatlari haqida gapirib bo'lmaydi. Yoki mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlashni olaylik. O'zini himoya qila olmagan va himoya qila olmagan davlat hech qanday muvaffaqiyatga yerisha olmaydi. O'zbekiston davlatining bu sohaga munosabati to'g'ri yo'lda ekanligimizdan dalolat beradi. "O'zbekiston milliy manfaatlarini ijtimoiy hayotda politologiyaga yanada katta o'rin berilishini, uning mavqeini mustahkamlashni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida, jahon siyosiy xaritasida O'zbekiston davlatining o'rni tobora mustahkamlanib borishini ta'minlaydi"[1].

Milliy g'oyani jahonda targ'ib qilish nisbatan kam rivojlangan sohadir. Biroq, davlatning milliy g'oyasi jahonda qanchalik keng va ommabop bo'lsa, uning hayotiy salohiyati shunchalik yuqori bo'lishi keyingi tadqiqotlarda isbotlangan. Bu geosiyosiy pozitsiyalarning to'g'ri ta'kidlanishi o'zini o'zi

tasdiqlash, jamiyatning ijobiy yenergiyasi, maqsadlilik, ma'naviy birlik kabi muqobilligi yo'q ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga yega.

Hozirgi vaqtda milliy g'oya o'zining hayotiyiligini nafaqat o'zi vakillik qilayotgan davlatning milliy, siyosiy va geografik chegaralari doirasida, balki jahon miqyosida isbotlashi kerak. Uning raqobatchilari ro'yxati kengayib, butun dunyoni qamrab oldi. Asosiy raqobat nafaqat moddiy resurslar uchun balki ko'proq tarixiy ildizlar, milliy davlat o'zligi, tarixiy xotira, milliy ruhiyat va xarakter, aql-zakovat haqida gap boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy g'oyani milliy voqelikka, tarixiy taqdirga aylantiruvchi asosiy kuch yetakchi omildir. Jahon tarixi, mustaqilligimiz tarixi buni tasdiqlaydi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va siyosiy rahbar tomonidan tushuniladigan asosiy qadriyatlar bo'yicha konsensus davlat barqarorligi va rivojlanishining o'zgaras shartidir. "Milliy mafkuraning mavjudligi, uning davlat va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ijtimoiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish vositasi sifatida ma'qullanishi va rivojlanishi jamiyatning o'zi talab

qiladigan (nafaqat davlat tomonidan emas) uning sur'atiga, sifatiga real ta'sir ko'rsatadi. jamiyat hayotining mazmuni va mamlakat taraqqiyotining vektorini belgilaydi. Aksincha, barpo etilgan jamiyat-millat va milliy davlat, fuqarolarning rivojlangan milliy o'z-o'zini anglashi sharoitida milliy deideologizatsiya odamlarning yo'nalishini yo'qotish va ijtimoiy betartiblikka sabab bo'ladi"[2].

Zamonaviy dunyoda, demokratik jamiyatda taraqqiyot va boshqaruv masalalari ko'proq yelitizm tamoyiliga asoslanganligi, yuqori maqom va qobiliyatga yega bo'lgan yelitalar hal qiluvchi rol o'ynashi ilmiy haqiqatdir. Yelita – o'zining intellektual, siyosiy, madaniy, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy, tashkilotchilik qobiliyatlari bilan ajralib turadigan, boshqa guruhlarga qaraganda davlat missiyasiga ko'proq xizmat qiladigan kishilar jamoasidir.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda milliy g'oya va siyosat birlashgan jabhada davlatchilik manfaatlariga xizmat qilmoqda. Yelitaning davlatchilik rivojini hamma narsadan ustun qo'yishi bu mamlakatlar muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Milliy g'oyani shakllantirish va uni hayotga tatbiq yetishga juda yaxshi ifodalangan. Aytmoqchimizki, g'oyani xalqning ijtimoiy faolligi, ma'naviy g'ayrati bilan hamohang tarzda yo'naltiruvchi, aniq maqsadlar bilan qayerga borishni belgilab beruvchi umummilliy yetakchi omili g'oyaning ro'yobga chiqishida beqiyos o'rin tutadi. Davlatchilikning og'ir damlarida odamlarni yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyalarga yehtiyoj katta bo'ladi. Albatta, g'oyani tushunish, uni nazariy jihatdan shakllantirish, tushunish va taqdim yetish hamisha intellektual-siyosiy yelita zimmasiga tushadi. Yeng achainarli holat, mavjud yelita yangi g'oya zarurligini bilmay, unga befarqlik ko'rsatganda yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aytlanlarga qaraganda, o'zbek xalqi XX asrning 90-yillarida ham o'z yemas yedi. Siyosiy yetakchi va yelita milliy g'oyaning barcha uch parametrida bevosita ishtirok yetadi: 1. milliy g'oyani anglash; 2. ilmiy-nazariy taqdimot; 3. xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi milliy idealni belgilash. Siyosiy yelita xalqning o'z ildizlari va resurslarini saqlab qolish orqali uzluksiz rivojlanish huquqini ta'minlaydi. "Mafkuraning mavjudligi zaruriyati shu bilan bog'liqki, bu erda sub'ekt sifatida ma'lum bir jamiyatning irodasi (yo'nalishi) o'z mavjudligiga, uni takror ishlab chiqarish orqali saqlab qolishga qaratilgan. Bu "bo'lish irodasi" dastlab o'zini farqlanmagan narsa sifatida namoyon qiladi, u ijtimoiy munosabatlar darajasida turli xil ijtimoiy tuzilmalarga, shu jumladan madaniyat va axloqqa (ma'naviyatga) aylanadi, lekin asosan siyosat va hokimiyatga intilish kontekstiga "tushadi". Bunday o'zgartirish mafkuraning asosiy yo'nalishini aniq sub'ektlarning mavjudligini (imkoniyatlar makonini kengaytirish orqali) mustahkamlash, ularning o'z-o'zini anglashi va munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirmaydi"[3].

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida milliy g'oya o'zining oliy maqsadi – milliy birlik va mustaqillikni ta'minlovchi qaytarilmas kuchga aylana olmadi.

Tahlil va natijalar. Milliy g'oyaning tarixda ilk bor suveren formatda amalga oshirilishi davlatchilik an'analaridagi mustaqil davlatning siyosiy tashkiloti – davlatchilikdan kuch olib, uning yanada qudratli cho'qqilarga ko'tarilishining boshlanishiga sabab bo'ldi. 20-asr boshlarida milliy g'oya o'zining oliy maqsadi – davlatchilikni amalga

oshira olmadi. Suveren davlat maqomini olishdek tarixiy yutuqqa yerishish orzu bo'lib qoldi. YA'ni, milliy g'oyaning maqomi, tuzilishi, tamoyillari va vazifalari, strategik va taktik maqsadlarning mukammal tizimi hali shakllanmagan yedi.

O'zbekistonning shonli tarixi, milliy o'zlikni anglash va o'zlikni anglash bosqichlarini bosib o'tdi. Milliy g'oya – Milliy yetakchi misolida g'oya missiyasi bu davr uchun g'alabalar bilan yakunlandi. O'zbekistonda tarixda birinchi marta mustaqil milliy davlat tashkil topdi. Milliy g'oya birinchi marta nazariy sxema bo'lib qolmadi, balki davlatchilikning mavjudligini ta'minladi va uni jahon tarixiga "abadiy, buzilmas va qaytmas" hodisasi sifatida muhrladi. Tariximizda turli sabablarga ko'ra qisqa yoki uzoq davrlarda milliy g'oyaning oldini olish, davlatchilik an'anamizning uzluksiz rivojlanishiga to'siq bo'layotgan to'siqlar, uzilishlar, mag'lubiyatlar, tanazzullar ko'p marta bo'lgan. Agar davlat o'z fuqarolariga real taraqqiyotning asosi bo'lgan moddiy va ma'naviy tamoyillar uyg'un holda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni, farovonlik va taraqqiyotni ta'minlay olsa, bu ham g'oya, ham namunadir. Bunday model nafaqat milliy, balki insoniy jihatdan muhim namunaga aylanadi.

Milliy g'oyalar izlanishida turli qutblar (turkchilik, islomchilik, turonchilik va boshqalar) o'rtasidagi dinamika uzoq davom yetdi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy g'oyaning shior va da'vat sifatidagi ma'nosi, bu shiorlarni aniqlash uchun izlanishlar sarflanishi vaqt va milliy kuch sarflashdan boshqa narsa yemas. Milliy g'oya to'g'risidagi fikr almashishda mafkurasizlik bilan bir qatorda mafkuraviy fundamentalizm (qattiqlik), mafkuraviy aqidaparastlik, radikalizm, murosasiz yekstremizm ko'rinishlari ham parallel qadam tashlaydi. Ko'pgina sovet mamlakatlarida "milliy g'oya" masalasi hali ham faqat izlanishlar darajasida. O'zbekistonda hamon o'z milliy g'oyasini izlab, uni shakllantirish uchun xorijdan mutaxassislarni taklif qilayotgan davlatlardan farqli o'laroq, mamlakatimizda bu izlanishlar zoye ketmadi va o'zining ajoyib mevasini berdi.

Globalashuv tufayli yangi davr tarixi, mafkuraning maqomi va mazmuni turli o'zgarishlarga uchramoqda. O'z navbatida XX asrning 90-yillari boshlarida jamiyat hayotini to'liq mafkuralashtirishdan, yagona haqiqiy nazariyani monopoliya va dogmatizatsiya qilishdan uni to'liq inkor etish va mafkuraviy betartiblikgacha bo'lgan qiyin yo'l bosib o'tdi. Shu bilan birga, mafkura jamiyat siyosiy hayotining ajralmas tarkibiy qismidir. U ommaviy ongga kechayotgan ijtimoiy jarayonlarni tushunishni keltirib chiqaradi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatga maqsadga muvofiqlik, qadriyat aniqligi kabi muhim muammolarni o'rtaga tashladi. Shu boisdan ham tadqiqotimizda mamlakatimizdagi turli tarixiy davrlar, mafkuralar shakllanishi o'ziga xos tarzda talqin qilinadi. Ijtimoiy hodisalarning xilma-xilligi, tadqiqotchilar va mafkurachilar dunyoning rasmini tuzishga harakat qilgan nuqtai nazaridan mafkura biriktirilgan mavjud xilma-xil ma'nolarni shakllantirdi. Hatto qaysidir bosqichda "noqulay" "mafkura" atamasidan voz kechish yoki bu hodisani lingvistik belgilar va brendlar darajasiga tushirish vasvasasi ham paydo bo'ldi. Biroq, butun muammoli sohani o'rganishni davom ettirganlarning aksariyati ushbu atamani o'z gacha ma'no bilan to'ldirishni afzal ko'rishgan.

O'zbekistonning XXI asrga olib borgan yo'li va undan keyin bosib o'tadigan yo'l, jahon makonining rivojlanish tendensiyalari, milliy ustuvorliklar, milliy davlatchilik haqidagi fikrlar milliy g'oyaning o'zgaruvchan voqelik prizmasidagi mavqeini qaytadan anglash zarurligini taqozo etmoqda. Har qanday davlatning milliy taraqqiyoti, eng avvalo, ko'zlangan jamiyat modeli va konsepsiyasining mafkuraviy asoslarini belgilashdan, uni keng ommaga yetkazish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli vazifalardan boshlanadi. Bu ham milliy g'oyani yangi

bosqichda tanlab olingan yo'ning to'g'riligi, reallikda amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish, anglash va baholash mezonini sifati qarash imkonini beradi.

Mustaqilligimizning 31 yilligida milliy g'oya mustaqilligimizning uchinchi o'n yilligi bo'sag'asida turibdi va milliy g'oyani zamonaviy davr taraqqiyot paradigmasiga aylantirish, uni yangi bosqichda voqelikka adekvat mazmun bilan boyitish, istiqboldagi yo'nalishlar nuqtai nazaridan uning mohiyatini ochib berish bu keng ko'lamlı panoramani jonlantirish yo'nalishidagi yangi taraqqiyot konsepsiyaning mahsulidir.

Tarixiy tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, nafaqat milliy, balki millatlararo (transmilliy) g'oyalar ham (yekumenizm, turanizm, globalizm, kosmopolitizm va boshqalar) mavjudligi ayon bo'ladi. Bular transmilliy g'oyalarni yoki deideologiyami, hozircha bir fikrga kelinmagan. Bizning fikrimizcha, inson va davlat uchun g'oyaning muqobili yo'q, "ideologiya"ning o'zi yesa mafkuradir. Postmodern davrning "hamma narsaning oxiri" falsafasi g'oyadan nariga o'tmagan. "Tarixning, siyosatning, muallifning o'limi" tushunchalari "milliy davlat va g'oyaning oxiri" yetib keldi, postmilliy "ideallik" davri boshlandi[4], deyishadi.

